TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

YAVUZ BAHODIRO‘G‘LI

50

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

YAVUZ BAHODIRO‘G‘LI

50

"O‘ZBEKISTON"
TOSHKENT – 2022

UO'K 821.512.161-3
KBK 84(5Turk)
Ya 24

Tahrir hay'ati:

Xayriddin Sulton – hay'at raisi,
Ibrohim G'afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo'ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo'riboyev, G'ofur Eshmurodov, G'ayrat Bozorov,
G'ayrat Majid, Boboxon Muhammad Sharif, Rustam Musurmon,
Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi

Lola Fattoyeva

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a'zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat "Turkiy adabiyot durdonalari" deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g'oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo'lib O'zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko'lamli, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O'zbekiston, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro'yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san'atga ko'rsatilayotgan ulkan g'amxo'rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so'z san'atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

ISBN 978-9943-8724-7-9

©"O'zbekiston" nashriyoti, 2022

HAYOT HAQIQATI VA BADIIY HAQIQAT

Insoniyat tarixi ozod, hur yashash uchun kurash tarixidir. Ozodlik, erk tuyg'usi doimo millatning qon tomirlarida jo'sh urib, ruhiyatini yuksaltirib turadi. Bu niyat yo'lida jon fido qilgan ulug' farzandlarini xalq hech qachon unutmaydi. Tarixning eng qaltis, mushkul bir paytida sahnaga chiqib, aql-idroki, metindek azm-u irodasi bilan yurt boshini qovushtirgan, birlikni ta'minlab, millat ruhini ko'targan, uni mo'g'ul bosqinchilariga qarshi kurashga safarbar etgan va mustaqillik yo'lida jon fido qilgan Jaloliddin Manguberdi jahon miqyosidagi ulug' shaxslardan biridir. Bu ulug' sultonning hayoti u tirikligidayoq afsonaga aylangani, u haqda ko'pdan ko'p asarlar bitilgani, rivoyatlar to'qilgani bejiz emas.

Jaloliddin Xorazmshoh haqida o'tgan zamonlarda o'nlab tarixiy asarlar bitilgan. Uning afsonalarga to'la hayoti keyinchalik dunyodagi ko'pgina yozuvchilar uchun ilhom manbayi bo'ldi. Jumladan, taniqli turk yozuvchisi Nomiq Kamol badiiy adabiyotda birinchilardan bo'lib "Jaloliddin Xorazmshoh" dramasini yaratdi. Atoqli o'zbek shoiri Maqsud Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi" dramasida, Pokiston yozuvchisi Nasim Hijoziyning "Axri Chatan" ("So'nggi qoya") romanida, Ozarbayjon adibasi Azizaning "Jaloliya" romanida, gruzin yozuvchisi Grigol Abashidshening "Lasharela", "Yaldo tuni", "Sotne" trilogiyasida, rus yozuvchisi V. Yanning "Chingizxon" romanida, taniqli o'zbek yozuvchisi Erkin Samandar va ozarbayjon adibi Yunus O'g'uzning romanlarida Jaloliddin Manguberdi obrazi yaratilgan va hokazo. Bu mavzudagi asarlar orasida hozirgi zamon mashhur turk yozuvchisi Yavuz Bahodiro'g'lining "Xorazm o't ichida" va "Alvido, Xorazm" romanlari alohida ajralib turadi. Bu roman-dilogiyani o'qir ekansiz, yozuvchi Xorazmshohlar davri tarixini, real shaxslar hayoti va faoliyatini tarixiy manbalardan chuqur o'rganganini his qilasiz. Yozuvchi o'sha davrga xos xarakterlar yarata olgan.

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI ARM
№ 19956

Roman markazida Jaloliddin obrazi turadi. Asarda Jaloliddin Manguberdi jonli, o'z ruhiy dunyosiga, o'z qarashlariga ega inson sifatida gavdalanadi. Romanda Jaloliddinning yirik sarkarda, davlat arbobi sifatidagi harbiy-siyosiy faoliyati, shuningdek, inson sifatidagi kechinmalari, ruhiy olami ishonarli yoritilgan, Jaloliddin xarakteridagi o'zgarishlar tarixiy voqelikka mos holda tasvirlangan. Adib Manguberdi shaxsi bilan uning davri voqeligi o'rtasidagi munosabatni to'g'ri ilg'agan. Voqelik bilan bosh qahramon o'rtasidagi nomuvofiqlik, ziddiyat chuqurlasha borgani, oxir-oqibat bu qahramonni halokatga olib kelgani real, haqqoniy manzaralarda ochib berilgan.

Vatan, xalq mustaqilligini asrash tuyg'usi, millat va tarix oldidagi mas'uliyat hissi uni faol harakatga undaydi. Biroq amaldor-u sarkardalarning, shoh xonadoniga mansub kishilarning kaltabinligi, hatto, qaltis paytlarda ham Vatan, el-yurt manfaati emas, o'z manfaatini o'ylashi, pastkashligi, xoinligi unga pand beradi. Qabihliklarga to'la hayotni o'zgartirish uchun tengsiz olishuvda Jaloliddin mislsiz irodasi-yu jasoratiga qaramay kurashni boy beradi. Buning oqibatlari nimalarga olib kelgani tarixdan yaxshi ma'lum: mamlakat mustaqilligini yo'qotdi, butun islom dunyosi, jahon xalqlari mo'g'ul istibdodiga tushdi, taraqqiyot necha yuz yillar orqaga uloqtirildi.

Yozuvchi Jaloliddin kurashi va mag'lubiyatining sabablarini badiiy tadqiq etishning shunday yo'lini topganki, qahramonning o'limidan qat'i nazar, vatanparvarlik, imon, erk va hurlik tuyg'usi kitobxon qalbidan chuqur joy oladi, u bu fojiadan tegishli saboq chiqaradi. Yavuz Bahodiro'g'li romanda Temur Malik, Chingizxon, Hojib Ali singari tarixiy shaxslarning to'laqonli va jonli obrazlarini ham yaratgan. Chingizxon xarakteriga xos makkorlik, yovuzlik va vahshiylik jonli, ishonarli epizodlarda ochib berilgan. Ayni chog'da yozuvchi uning tadbirkor, bilimdon va ayyor hokim-u sarkarda bo'lganini ko'rsatishni ham e'tibordan soqit qilmaydi. Yaratilgan qator to'qima obrazlar hamda esda qoladi.

Tarix haqiqatini badiiy haqiqatga aylantirishda yozuvchi to'g'ri yo'ldan borgan. Biroq, ayni paytda, ba'zi tarixiy voqealar, faktlar talqinida, joy va makon tasvirida ayrim chalkashliklar ham uchraydi. Masalan, "Alvido, Xorazm" romanida Jaloliddin Mahmud Koshg'ariyni qabul qilgani tasvirlangan. Vaholanki, Mahmud Koshg'ariy Manguberdidan

qariyb yuz yil ilgari yashagan. Uning "Devonu lug'otit turk" asari XI asr oxirida yaratilgan. Mazkur epizod garchi qahramon xarakterini ochishga, dramatizmni chuqurlashtirishga xizmat qilgan bo'lsa-da, yuqorida keltirilgan o'rinlarda tarixiy haqiqatga rioya qilinganida, shubhasiz, asarning qimmati yanada oshgan bo'lurdi.

Bu kabi kamchiliklaridan qat'i nazar, turk tilida 15 marta qayta nashr qilingan mazkur roman-dilogiya o'zbek kitobxoni uchun yangilik bo'lishi bilan bir qatorda, uning ma'naviy-ruhiy olamini boyitishga xizmat qilishi shubhasizdir. Atoqli yozuvchi Yavuz Bahodiro'g'lining ko'pgina asarlari qahramonlari uchun vatan tuyg'usidan buyuk, azizroq tuyg'u yo'qdir. "Xorazm o't ichida" va "Alvido, Xorazm" romanlarining bosh qahramoni Sulton Jaloliddin, "Sulton Salohiddin" romanining qahramoni Sulton Salohiddin, "Malazgirdda juma tongi" romanining qahramoni Sulton Alp Arslonga xos bu olijanob xususiyatni tarixiy davrga, konkret sharoitga bog'lagan holda tasvirlagani yozuvchining ijodiy yutug'idir.

Tarixiy roman yozadigan adib xarakter yaratishda badiiy to'qimadan foydalanish bilan birga, qalamga olgan davri voqea-hodisalari silsilasini, o'sha davrda yashagan konkret tarixiy shaxslar faoliyatini tasvirlashda haqiqatdan chekinmasligi darkor. Bu o'rinda yozuvchidan tarixiy haqiqat va badiiy haqiqatni o'zaro uyg'unlikda tasvirlash, tasvirdan bugungi kun va kelajak uchun muhim ma'nolar chiqarish talab qilinadi. Tarixiy romanlar, asarlar xalq ruhiyatini yuksaltirishga xizmat qilmog'i lozim. Yavuz Bahodiro'g'li bu vazifaning uddasidan chiqqan. U roman qahramonlari taqdiri orqali vatan ozodligi, el-yurt farog'ati uchun kurashda ma'naviy-ruhiy birdamlik nechog'lik muhim ahamiyatga ega ekanini, azmu qarorli, e'tiqodli, yagona g'oyaga ishongan va haqiqiy rahnamo atrofida jipslashgan kishilarning nimalarga qodirligini ko'rsatishning uddasidan chiqqan.

Chunonchi, "Sulton Salohiddin" romanida afsonaviy sarkarda va sulton Salohiddin Ayyubiyning el-u yurtni salbchilar asoratidan ozod qilish yo'lida olib borgan kurashi haqida hikoya qilinadi. Taniqli muallif Rafiq O'zdekning "Turklarning oltin kitobi" asarida va boshqa manbalarda qayd qilinishicha, Sulton Salohiddin asos solgan Ayyubiylar davlati ilk o'rta asrlarda Misr, Suriya, Falastin yerlarini qamrab olgan bo'lib, davlatda xalqning ko'pchiligini turkiy qavmlar tashkil qilgan.

Armiya ham turkiylardan iborat bo'lgan. Davlatning rasmiy tili turkiy bo'lgan. Salohiddinning bobokalonlari ozarbayjonlik bo'lgan, keyinchalik Saljuqiylarga xizmat taqozosi bilan Suriyaga borib qolganlar. Salohiddinning otasi Najmiddin Ayyub Tikrit voliysi bo'lgan. Najmiddin o'g'li Salohiddinning tarbiyasiga zamonasining taniqli olimlarini jalb etgan va farzandining turli ilmlardan boxabar fozil yigit, iste'dodli harbiy bo'lib yetishishiga sababchi bo'lgan. Salohiddin voyaga yetganidan keyin, milliy birlikni ta'minlab, kichik beklikni kengaytirishga va kuchli Ayyubiylar davlatini tuzishga muvaffaq bo'ladi. Bu davlat 1462-yilgacha hukm surdi.

Turkiy xalqlar davlat tashkil etgan va jahon madaniyati rivojiga eng katta hissa qo'shgan xalqlardan biridir. Turkiylar davlatchiligining 3000 yildan ko'proq tarixi bor. Jahonning turli makonlarida turkiylar miloddan oldingi davrlardan hozirgacha 110 dan ko'proq davlat tashkil etganlar, ularning 15 tasi buyuk imperiyalardir. Mazkur imperiyalarning eng qadimiysi miloddan oldingi IV asrga taalluqlidir. Xorazmshohlar, Amir Temur, boburiylar, usmoniylar va boshqa turkiy imperiyalarning jahon madaniyati rivojiga qo'shgan buyuk hissasi butun dunyo tomonidan e'tirof etilgan. Shunisi borki, turkiylar tashkil etgan davlatlarda milliy va diniy bag'rikenglik hukm surgan, milliy va diniy ozchiliklarning haq-huquqlari qonun yo'li bilan himoya qilingan. Yavuzning romanlarida bu holat yorqin detallarda ochib berilgan.

Xususan, "Sulton Salohiddin" romanida qalamga olingan davrda Yaqin va O'rta Sharqda murakkab holat hukm surardi. 1096-yilda muqaddas zamin — Falastinni g'ayridinlardan (musulmonlardan) qutqarishni ro'kach qilib, diniy dushmanlik bayrog'i ostida boshlangan I salib yurishi natijasida bu hududning kattagina qismi, saljuqiylardan keyin fotimiylar qo'lida bo'lgan Quddus bosib olingan, Quddus qirolligi, Edessa, Antioxiya latin knyazliklari barpo etilgan va bosqinchilik urushlari to'xtovsiz davom ettirilayotgan edi. I salib yurishi vaqtida salibchilar besh haftalik shiddatli janglardan so'ng 1099-yil 15-iyul kuni Quddusni bosib oldilar. Ular musulmonlarni, hatto xotin-qizlar, keksalarni qatli om qildilar, Masjidi Aqsoga yashiringan tinch aholini ham qilichdan o'tkazdilar, shaharni yag'moladilar, hatto musulmonlarga yordam qilgan degan bahonada yahudiylarni qirg'in qildilar, hech ko'rilmagan vahshiylik qildilar. Bu butun dunyoni dahshatga soldi.

Salibchilar muqaddas masjidlarni taladilar, ular cherkovga aylantirildi. Lotinlarning Quddus qirolligi tashkil etildi, ruhoniylar va asilzodalardan iborat majlis Godfrua de Bulyonni qirol etib sayladi. Masjidi Aqso qirol saroyiga aylantirildi. Shundan keyin musulmonlar va yahudiylar yillar davomida shaharga kiritilmadi. Diniy ayirmachilik avjiga chiqdi. Quddusning keyingi qirollari atrofda bosqinchilik urushlari olib bordilar. Har qanday harakatning aks ta'siri bo'ladi, zulm zulm tug'diradi. Salibchilarning ommaviy qirg'inlari, talon-torojlari o'lkada ozodlik harakatining kuchayishiga olib keldi. Sulton Salohiddin bu harakat peshqadamlaridan biri bo'ldi. Sulton yevropalik bosqinchilarning birlashgan qo'shinlariga qarshi islom davlatlari ittifoqini vujudga keltirishga harakat qildi. Ammo uni saljuqiylar sultoni ham, qo'shni o'lkalar hukmdorlari ham, hatto xalifa ham qo'llab-quvvatlamadi, da'vatlari yerda qoldi. "Dushman qarshisida qo'lni qo'lga berish o'rniga biznikilarning og'zi nega bunday ola bo'ldi? Xalifa bu urushni nega faqat Ayyubiylarning ishi deb qaraydi, nega yordamini darig' tutdi? Quddusning qo'ldan chiqishi faqat Salohiddinni emas, hammasini yaralamaydimi?! Shunday ekan, bu loqaydlik, g'aflatni qanday tushunish mumkin? Xiyonat deyishga tilim bormaydur, qardoshlarim, — dedi xo'rsinib. — Ammo Bag'dodda vaqtichog'lik qilib o'tirgan Xalifani ta'riflashga boshqa ta'bir topmoqqa ojizdurman. Mana, butun dushman qarshimizda, lekin xalifa hazratlari o'zini chetga olmoqdadur. Otabeklar ham o'zlarini chetga olmoqdadur, Saljuqiylar ham shunday. Shu Izaddin Mas'ud qayda qoldi?" Umumiy tashqi dushman xavf solib turgan bir vaziyatda bir yoqadan bosh chiqarmaslik, bu ham yetmaganday, o'zaro urushga kirishish gumrohlikdan boshqa narsa emas. Sulton Jaloliddin Manguberdi ham mo'g'ullarga qarshi kurashish uchun saljuqiylar, ayyubiylarni u bilan ittifoq tuzishga chaqirgan, lekin qo'shnilarining kaltabinligi oqibatida ittifoq tuzishga muvaffaq bo'la olmagan edi. Pirovardida mo'g'ullar faqat unigina emas, saljuqiylarni ham, ayyubiylarni ham yo'q qildilar. Turkiston xalqlari ham yaqin o'tmishda tarqoqligi, birlashmagani, ozodlik, erkning qadriga yetmagani uchun chor Rossiyasiga yem bo'ldi, yurt mustamlakaga aylandi. Ulkan dushmanning tajovuziga qarshi kurasha olish, ozodligi, mustaqilligini asrab qolish uchun kichikroq davlatlarning birlashmoqdan o'zga chorasi yo'qligini tarix ko'p bora isbotlagan.

Sulton Salohiddin o'z xalqini salibchilarga qarshi kurashga otlantirdi, ketma-ket muvaffaqiyatlarga erishdi va nihoyat 1187-yil 30-sentabrda Quddusni ozod qildi. Salohiddin Sharqda mashhur bo'ldi, ovozasi butun Yevropaga yoyildi. Quddus yana musulmonlar, xristianlar, yahudiylar uchun ochiq shahar deb e'lon qilinadi, o'zga din vakillarining huquqlari kafolatlanadi. Biroq yevropaliklar Quddus va o'zga yerlarni yana qaytarib olish uchun ingliz, fransuz, olmon qirollari rahbarligida III salib yurishini boshlaydilar. Ammo salibchilarning Quddusni qayta olish uchun besh yil davomida qilgan harakatlari puchga chiqdi. Urush 1192-yil 2-sentabrda sulh shartnomasi tuzish bilan yakunlanadi va Quddus Salohiddinning qo'lida qoladi. Adib roman qahramonlari taqdirini bu tarixiy voqealar bilan uzviy bog'liqlikda tasvirlaydi.

Yozuvchi Jaloliddin va Salohiddin psixologiyasida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni, ruhiy olami ziddiyatlarini psixologik jihatdan ham, mantiqan ham dalillaydi. Muhit va sharoit ta'sirida Jaloliddin va Salohiddin xarakterlarining yangi-yangi qirralari namoyon bo'ladi. Yozuvchi qahramonlarning xatti-harakatlari, ruhiy holati tashqi ta'sirlar bilan mutanosib bo'lishiga alohida e'tibor bergan. Quroldoshlari bilan suhbatlari, qarzini so'rab kelgan bechora kampir bilan muloqoti, dushmanlarga munosabatida, faqat dialoglardagina emas, balki ichki monologlarida ham qahramonlarning vatanparvarligi, adolatni har narsadan ustun qo'yishi, odamgarchiligi, olijanobligi ochib berilgan. Boshqa ijobiy qahramonlar tasvirida ham romanlarning asosiy g'oyasi — vatanparvarlik ishonarli detallar, dialoglar, holatlar tasviri orqali yoritilgan. Umuman, mazkur asar go'zal ma'naviy-axloqiy fazilatlarni tarbiyalashga xizmat qilishi shubhasiz. Tarjima jarayonida, muallifning roziligi bilan, asarlar matniga juz'iy o'zgartirish, tuzatishlar kiritildi. Kezi kelganda muallif haqida ikki og'iz so'z aytib o'tishni istar edim. Yozuvchining asl ismi Niyozi Birinji bo'lib, 1945-yilda Rizada tug'ilgan. Mehnat faoliyatini 1971-yilda gazetachilikdan boshlagan. So'nggi vaqtlarda "Moral FM" radiosida ishladi. O'ttizdan ko'proq romani, o'nlab hikoyalar to'plamlari nashr etilgan. U 2021-yil yanvarda vafot etdi.

Boboxon Muhammad Sharif,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

XORAZM O'T ICHIDA

Roman

BIRINCHI BO'LIM

Qoraqum sahrosining etaklariga tutashib ketgan bepoyon to'qay sukunat qo'ynida. Sukunatni ba'zan boyqush tovushi yoki shoqolning chiyillashi buzadi, goho bo'rining ulishi quloqqa chalinadi.

Xorazm o'lkasining Qoraqum hududlariga qish erta tushdi. Zamin ustiga qordan yupqa gilam to'shaldi. Oy nurida qor usti kumushday tovlanib, nur sochganday bo'ladi.

Suvoriy sovqotgan edi. U arg'umog'ining jilovini bo'sh qo'yib, qo'llarini po'stinining ichiga tiqib oldi. Bunday havoda ovga chiqib, ahmoqlik qilgani uchun o'z-o'zidan g'ijindi.

— Bir boshpana topmog'im kerak, — deya so'zlandi u. — Aks holda bu izg'irinda tonggacha tarashaday qotib qolishim turgan gap.

Bu yerlarni u besh barmog'iday yaxshi bilsa-da, boshpanabop bir g'or topishiga ishonchi komil emasdi. Koshkiydi Jaloliddinning so'ziga kirib, ovga chiqmagan bo'lsa. Ammo ishqibozlik ko'p yomon narsa-da, ov qilmasa turolmaydi. Jaloliddin uni ovdan voz kechishga undadi, biroq u bilganidan qolmadi, aksincha, bor mahoratini ishga solib, uni birga ovga chiqishga ko'ndirdi. Oxir-oqibat bir sayg'oqning ketidan quvib, to'pidan ayrildi. Bu orada havo aynib, qor yog'a boshladi. Qaytib kelib, sheriklarini topmadi. Izlarni qor bosgani uchun hamrohlarining qayoqqa ketganini bilolmadi. Buning ustiga qosh qoraydi. Yolg'iz yo'l bosishdan boshqa chorasi qolmadi. Omadi chopsa bir g'or topib, qahraton izg'irin azobidan qutular.

Ko'kka nazar tashladi. Bulutlar orasidan oy mo'raladi. Oy atrofidagi yulduzlar ham muzdek nur sochayotgandek. "Har holda ajoyib bir kecha, et-etimdan o'tib ketayotgan shu sovuq bo'lmasa naqadar soz bo'lardi".

Ot yonida lo'killab ketayotgan ov itiga qarab kulimsiradi.

— Sen ham shu fikrdamisan, Boydor, a? Sovqotdingmi? Har holda sening juning bor, sovuqdan asraydi. Buning uchun Ollohga

shukr etmog'ing kerak. Bizga o'xshab latta-putta kiyib isinishga majbur bo'lganingdami, holingga maymunlar yig'lardi.

It, egasining so'zlarini tushungandek, vovillab qo'ydi. Bu itni ikki yilcha oldin bir mo'ysafid unga hadya qilgandi. Mo'ysafidni u qaroqchi xitoylar qo'lidan qutqargan edi. Ov hidini olishda bu itning tengi yo'q. Endi hech jonzot topilmadi deb turgan bir paytda ham it biror yovvoyi hayvon isini olib, egasining oldiga haydab soladi. Juda ziyrak hayvon. Tovushi ohangidan, yuz ifodasidan egasining ne demoqchi bo'lganini darrov sezib, shunga ko'ra harakat qiladi.

— Charchadingmi Boydor, a?

It mamnun emasligini bildirmoqchi bo'lgandek, uch karra vovilladi, so'ng uliy boshladi. Chavandoz oldin bunga e'tibor bermadi. Boydor behudaga ulimas edi. Atrofda kimdir yoki biror hayvon bo'lsa kerak. Inson emasligi aniq. "Yarim kechasi, buning ustiga qiyomat qishda odam kirishga qo'rqadigan bu katta to'qayda inson ne qilsin? Har holda bu biror qashqir yoki bo'ridir".

Suvoriy yanglishgan edi. Ikkitasi piyoda, uchinchisi otliq uch kishi yarim soatdan buyon uni ta'qib etib kelayotgandi. Ashaddiy qaroqchi edi ular. Qaroqchilar suvoriyning otini va etigini olish niyatida. Ular suvoriyning sherigi bor-yo'qligini bilish uchun yarim soat kutgan, nihoyat uning yolg'izligiga amin bo'lgan edilar. Endi bemalol niyatiga erishishlari mumkin. Esi joyida bo'lsa qarshilik ko'rsatmas. Mabodo, qarshilik ko'rsatsa, hech ikkilanmay oti va etigiga qo'shib jonini ham olishadi.

— Hooy! — deya baqirdi qaroqchilarning boshlig'i. — Biroz dam olgin.

It qattiq hurdi, suvoriy cho'chib tushdi. So'l qo'li bilan otning jilovini tortdi, o'ng qo'lini qilichiga yubordi.

— Kimsiz?

Hamon javob keldi:

— Biz bu to'qayning egasimiz.

Otliq o'zini yo'qotmay, sovuqqonlik bilan yana so'radi:

— Ismingni ayt.

— Men Sariq Lag'o'tman, yonimda ukam Boytu bilan jon do'stim Qurtcha bor!

— Shundog'mi... Qaroqchimiz deng, murodingiz ne?

— Otingni va etigingni, qarshilik ko'rsatsang joningni ham olamiz!

Suvoriy qah-qah otib kuldi.

— Jonni menga sen berganmidingki, olsang, ey o'rmon qashqiri?! Aravangni tort!

— O'zingni o'zing o'limga hukm etding.

Daraxtlar ortidan bir otliq, ikki piyoda qaroqchi otilib chiqdi. Ovchi otini yon tomonga oldi. Ko'zlarini qisib, burnini tortdi. Isinib olishga bahona topildi. Qaroqchilarning ikkitasi piyoda ekanini ko'rgach, ancha xotirjam bo'ldi. Qilichini qinidan sug'urdi.

— O'g'rilar, qani bu yoqqa, holingizni bir ko'raylik!

Avvalo otliq qaroqchiga ro'baro' bo'ldi.

— Meni tanimaysan shekilli, bo'zbola, — dedi qaroqchi. — Aks holda ismimni eshitiboq qo'rquvdan yuraging tars yorilgan bo'lardi.

— Aksincha, ismingni ko'p eshitganman. Biroq dovulning sasi uzoqdan past eshitiladi. Nimaga qodir ekanligingni bo'lsa, mana hozir bilib olamiz.

— Kut bo'lmasa!

— Kelaqol!

Ikki po'lat shiddat-la to'qnashdi. To'qay jaranglab aks sado berdi. Ayni chog'da har ikkala raqib bir-biridan qolishmaydigan qilichboz ekanliklarini fahmladilar. Sariq Lag'o't:

— Yomon emasga o'xshaysan, — dedi.

— Sen ham tuzuk ko'rinasan, menga sendaqasi kerak. Odamlaringga ayt, nari tursinlar. Qalloblikdan nafrat etaman.

— Yanglishding. Bizning o'z an'anamiz bor: biri urushganda boshqalari tomosha qiladi. Birga bir urushamiz...

— Qaroqchida ham nomus bo'larkan-da.

— Nima, sen bizni or-nomussiz deb o'ylovdingmi? Qani, kel beri!..

— Umidlanmay qo'yaqol. Mening o'z usullarim bor. Avvalo, raqibimning hujum etishini kutaman.

— Mana bo'lmasa!

Qilichlar yana to'qnashdi, ammo raqiblar bu safar ajralib ketmasdan ustalik bilan urushishda davom etdilar. Ikki qaroqchi tomoshabin. Biri dedi:

— Bu gal boshlig'imizning biti to'kiladigan bo'ldi, shekilli. Ko'pdan beri rohat qilib qilich urishtiradigan raqib uchramadi, deb armonda yurgandi.

— Bu odam asilzoda bir bekka o'xshaydi. Xitoyda bundaylar bosh qo'mondon bo'lishlari turgan gap. Ammo Xorazmda oldingdan oqqan suvning qadri yo'q, kishi qadrini bilmaydilar.

— Qara, qara!

Qilichlarning o'tkir uchlari oy nurida yaltiraydi. Sariq Lag'o'tning harifi xiyla mushkul vaziyatga tushgan edi. Tomoshabin qaroqchilarning vaqti chog'.

— Bizniki g'olib chiqadiganga o'xshaydi...

— Hali noma'lum.. Biroq g'olib chiqmasa hayratlangan bo'lurdim. Negaki, hatto Temur Malik ham Lag'o'tchalik mohir qilichboz emas.

— Ha-ya...

— Qara, qaragin, ko'rdingmi?!

— Nega turtasan, aytmasang ham, ko'rib turibman.

Jang qizigandan qizidi. Endi Sariq Lag'o't mushkul ahvolga tushdi. Unisi masxara qildi:

— Ha, bitdingmi, qaroqchi.

— Otdan yiqilgan chog'da ham shunday desang, tasanno aytardim...

— Tashvish chekmay qo'yaqol, albatta, aytaman. Chunki otdan dumalaydigan men emas.

— Bu sening taxmining, xolos.

— Taxmin emas, aniq bilaman. Charchagan bo'lsang og'ayniladingdan biriga joy bo'shataqol, a, nima deysan?

— Seni oyoqdan olmaguncha charchash neligini bilmayman.

Lekin u harsillay boshlagandi. Boydor yer kurar, egasining amrini kutardi. Biroq negadir egasi unga "Bos!" degan buyruqni bermayotgandi. It buning sababini anglamas, faqat irillaganicha tomoshabin qaroqchilarga tikilib turar, goh-goh quloqlarini ding qilar edi.

— Manavi bo'ribosarni qara, bo'g'zimizdan olishga shay turibdi.

— Bo'ribosar deysanmi? Yo'q, o'xshamaydi.

— Har holda bo'ri bolasi bu.

— Bo'lsa bordir.

— Ehtiyot bo'l, Lag'o't!

Biroq endi kech bo'lgan, Lag'o'tning qilichi qo'lidan uchib, besh qadam nariga tushgan edi.

U "voy!" deb qichqirishga ulgurdi, xolos. Jangga otilmoqchi bo'lgan sheriklariga o'girildi.

— To'xtang! — dedi u. — Bu usulni faqat Temur Malik degan qilichboz biladi, deb eshitgan edim.

So'ng u shitob bilan raqibiga yuzlandi.

— Sen Temur Malikmisan?

— Xuddi o'zi.

— Nega buni darrov aytmading?

— Fursat bo'ldimi? Aytgan bilan biror narsa o'zgararmidi?

Sariq Lag'o't bosh egdi.

— Istasang meni o'ldir.

— Yengilganingdan xafa bo'ldingmi?

Lag'o't yelkasini qisdi.

— Nega xafa bo'lay? Men oddiy bir qilichbozga yutqizsam alamimdan o'lgan bo'lur edim. Biroq Temur Malik...

— Xo'sh?

— Senga boy berganimdan iftixor etaman.

Temur Malik qilichini qiniga joyladi. So'ng dedi:

— Xohlasang, birga ketamiz. Biz-ku qizinib oldik. Og'aynilaring yo o'zaro mashq qilib, yoki yugurib qizinib olishsin.

— Qayoqqa ketamiz?

— Bir boshpana topgani.

— Mening boshpanamga boraqolaylik. U yer issiqqina, ertagacha maza qilib uxlab olasan.

Temur Malik ikkilanib o'tirmadi, bosh silkib, rozi bo'lganini bildirdi. Orqaga qaytdilar. Sariq Lag'o'tning boshpanasiga borguncha bir-ikki og'iz gaplashdilar, xolos. G'or issiq edi. Gulxan gurillashi bilan yanada isidi. Gulxan atrofiga cho'kdilar.

— Yaxshi yigitga o'xshaysan. Ammo nega bu yo'lga kirding?

Sariq Lag'o't bosh chayqadi, chuqur nafas olgach, dedi:

— Tarixi uzoq. Aytishga arzimaydi, chunki ko'p eski gap.

— Mayli, eshitaylik.

— Unday bo'lsa aytganim bo'lsin.

Lag'o't otashga tikilib, so'z boshladi.

— Men o'n yoshlarda edim. Ota-onam bilan sahro etagidagi kichik bir kulbada yashardik. Turmushimiz yaxshi edi. Mol-holimiz bor. Bo'sh vaqtlari otam ovga chiqib, ul-bul otib kelardi.

Bir kuni sahroni otliqlar bosib ketdi. Shovqin-suron bilan ustimizga bostirib kelishdi, o'tovimizni yiqib, otamni o'ldirishdi. Mendan besh yosh kichik ukam Boytu bilan onamni olib ketdilar. Bir o'zim qoldim.

— Kimning askarlari edi ular?

— Bilolmay qoldim. Agar bilsam, tomchi qonim qolguncha ular bilan urushgan bo'lardim. Pakana ot mingan edi ular. Ko'pchiligi ko'sanamo, iyagining u yer-bu yerida yakkam-dukkam tuk bor, xolos. Sochlari o'rilgan. Keyin ularni hech ko'rganim yo'q. Qayerdan kelishgan, kim o'zi, Xudo biladi.

Ko'zini gulxandan uzib, Temur Malikka boqdi.

— Ko'p yillar xizmatkorlik qildim. Qoraxitoy savdogarlari, qipchoq xonlari qo'lida tutqun bo'ldim. Oxiri chiday olmay, qochdim. Biroq tezda tutdilar. To'qayda bir daraxtga bog'lab, o'lim quchog'iga tashlab ketdilar. Uch kun och-nahor qoldim. Nihoyat Xorazm askarlari meni qutqardilar, o'z safiga qo'shdilar, qilich urishtirish, nayza sanchishni o'rgatdilar.

Achchiq kuldi:

— Onam uchun o'ch olishga qasam ichgandim. Bu dard ichimni tatalar, kechalari ko'zimdan uyquni qochirar edi. Sabr-toqatim tugab-bitgach, Gurganchdan chiqdim. Tog'lar, o'rmonlar oshdim. Tasodifan Boytuni uchratdim. Asirlikdan qochib qutulgan ekan.

Yo'taldi.

— Tutgan yo'lim yaxshi emasligini bilaman, lekin na iloj, shunga majburman. O'z-o'zimcha bir dunyo barpo etdim, yashab yuribman. Balki bu yo'l to'g'ri emasdir, ammo boshqa choram yo'q. Bu tog'larda, shu to'qayda yashashning boshqa yo'li yo'q. Olloh shohiddirki, mazlumlarga ozor bermayman, mening ishim boylar bilan. Savdo karvonlarini bosib, yag'molayman. Qo'lga kiritgan g'animatning ko'pini faqirlarga ulashaman. Xalq meni yaxshi ko'radi, men ham xalqni sevaman, quvvatim shunda, meni tutib berishni hech kim xayoliga ham keltirmaydi.

— Xo'sh, nega menga hujum etding?

— Biz ko'pchilik edik, yigirmatacha. Oramizdan biri xiyonat qildi, odamlarimni aldadi, otlarni ham olib qochdilar. Qo'limizda o'zing ko'rgan otdan boshqa hech narsa qolmadi. Yarim soat seni poyladik. Otingdagi egar-jabduqlar, ust-boshing faqir emasligingni ko'rsatib turibdi. Yolg'iz ekanligingni bilgach, hujum etdik.

Sariq Lag'o't boshini ko'tardi.

— Shahzoda Jaloliddin qanday?

— Yomon emas, — dedi Temur Malik. — Biroq otasi bilan munosabatlari uncha yaxshi emas. Otasining xatti-harakatlarini ma'qul topmaydi.

— Qaysi harakatini? Aybga buyurmaysan, haddimdan oshib, savol berdim, shekilli. Xohlamasang, javob berma.

Temur Malik bu so'zlarni eshitmagandek so'zladi:

— Jaloliddinning otasi Xorazmshoh Alouddin Muhammad atrofiga nuqul qipchoqlarni to'pladi.

— Sen kim tarafdasan?

— Men Jaloliddinni yaxshi ko'raman, otasiga ham hurmatim cheksiz. Har holda u shuncha zamondan beri bizni zafardan zafarga otlantirdi. Biroq keyingi yillarda fe'li o'zgarib, badjahl bo'lib qoldi. Onasi Turkon Xotunning ta'sirida bo'lmag'ur ishlar qilmoqda. Xorazmshoh yaqinda Jaloliddinni valiahdlikdan tushirib, onasi qipchoq urug'idan bo'lgan kichik o'g'li O'zloqshohni valiahd deb e'lon qiladi, degan mish-mishlardan ko'nglim ayniydi.

— U holda...

Temur Malik o'ylab ham o'tirmay javob berdi:

— Jaloliddinning yonida bo'laman, albatta. O'zloqshoh hali ona suti og'zidan ketmagan bir bola. Bizga aqlli, es-hushli sardor lozim.

— Gaping to'g'ri.

— Sen ne deysan?

— Men bir qaroqchiman. Xorazm sultonining qo'liga tushsam ham, boshqa bir xoqonning qo'liga tushsam ham jazom ayni: boshimni kesadilar. Men bo'lsam onam uchun o'ch olmasdan o'lishni istamayman.

— Niyating faqat shumi, xolos?

— Yana nima ham bo'lsin?

— Necha yillar oldin o'tib ketgan bir gapni hamon ko'tarib yuribsanmi?

Sariq Lag'o't kalovlandi. Bu tomonini hech o'ylab ko'rmagan ekan. U shu choqqacha onasi uchun qasos olishni o'ylab kelgan edi, xolos.

— Bilmasam, — dedi u.

— Ha, shunday, bu necha yil ilgari bo'lib o'tgan hodisa. Bo'lar ish bo'lgan, intiqom olay deb osiy bo'lmoqqa ne hojat? Yaxshisi, askar safiga qo'shil, omading kelsa, balki onangni olib qochganlarni ham toparsan. Intiqom hech qachon g'oyaga aylanmasligi lozim. Bu yomon bir tuyg'u. U inson aqlini jilovlaydi, uni baloga giriftor etadi, ko'zini xiralashtiradi.

— Aytganlaringda jon bor...

— Endi mizg'ib olaylik.

— Ha, albatta, dam olaylik.

Cho'zilishdi. Bosh ostiga to'nka qo'yishdi. Temur Malik xurjundan yopinchig'ini olmadi, boshqalar qatori ko'rpasiz yotdi. U charchagandi, hamon uyquga ketdi.

IKKINCHI BO'LIM

Bahaybat chinorlar, qalin yaproqli arg'uvon daraxtlari orasidan o'tgan marmar yo'lka bo'ylab soqchilar, Volida sulton ko'rsatmasiga muvofiq, ko'zga tashlanmaslik uchun pana yerlardan joy olishgan. Turkon Xotun o'z saroyining muazzam bog'ida sayr qilib yurganida askarlarga duch kelishni yoqtirmas edi.

Ancha yoshni qoralab qo'yganiga qaramay, Turkon Xotun hali tetik. Yuzi yosh qizlarnikiday tarang, qo'llarining terisi yumshoq, silliq. Uning butun turish-turmushi rohatda o'tgan safoli umridan dalolat berardi.

Turkon Xotunning bo'ynida kumush bezakli qorday oppoq harir ro'mol. Ayol o'z zarofatini ko'z-ko'z etib, ro'molining bir uchini o'ng yelkasidan oshirib orqaga tashlagan. Ro'mol uchi uning belida sollanadi. Turkon Xotunning boshi ustida mo'jazgina, ammo nihoyatda nodir javohirlar bilan bezatilgan oltin toj. Ustidagi qirmizi

ko'ylagining uzun etagini uch qadam orqada kelayotgan ikki xodima ko'tarib boradi. Bir qadam orqada esa uy xizmatchisi Gulnihol. Uning qo'lidagi oltin tosda Turkon Xotun uchun gulsuvi bor. Turkon Xotun o'ziga tez-tez gulob sepib qo'yardi.

Turkon Xotun qo'llarini uzatishi bilan Gulnihol hushyor tortdi va oltin tosni yaqin keltirdi. Daraxtlar orasiga xushbo'y hid taraldi.

Bahor quyoshi arg'uvon daraxtlari orasidan sizilib o'tib, hovuzda viqor bilan suzib yurgan oqqushlarning simobrang patlarida jilvalanadi. Turkon Xotun hovuchini gulobga to'ldirib, peshonasini ho'lladi, so'ng boshini baland ko'tarib, ko'kka nazar tashladi. Ehtirosli bir tovush-la:

— Yer yuzida mendan qudratli biror ayol bormikan, Gulnihol? — deb so'radi.

Xizmatkor ayol har doimgiday bosh egib, ta'zim bajo keltirdi.

— Yo'q, malikam, sizdan qudratli ayol podsho dunyoda yo'q.

— Albatta yo'q, bo'lishi ham mumkin emas... Chunki men Xorazm sultonining onasiman!

Shu payt otlarning oyoq tovushi eshitildi.

Turkon Xotun boshini egdi.

— O'g'limiz bo'lsa kerak, — deb ming'illadi u.

Darhaqiqat, ko'p o'tmay Xorazmshoh Alouddin Muhammad mahramlari bilan boqqa kirib keldi. Yonida ikki otliq, biri qipchoq beklaridan To'ng'ichxon, ikkinchisi Temur Malik...

Temur Malikni ko'rib Turkon Xotunning ensasi qotdi.

— Yana o'sha shayton! — dedi u o'zicha.

Sulton Alouddin Muhammad bo'z otga mingan, otning egar-jabduqlari qimmatbaho javohirlar bilan bezatig'liq. No'xta-jilovlari ham oltin-kumush naqshlar-la ziynatlangan. Xorazmshohning sallasida jig'a bo'lib, uning o'rtasida kattakon dur porlab turardi.

Sultonning egnidagi zarrin ipak to'n yengil sollanadi. Qilichining oltin sopi quyosh nurida yaltiraydi.

Xorazmshohning orqasidan uzun nayza ko'targan soqchilar kirib keldi. Turkon Xotunning ichiga qo'rquv oraladi. Agar niyatidan o'g'li xabar topguday bo'lsa bormi, soqchilar hamon uni ilma-teshik qilib, etini ko'ppaklarga yedirgan bo'lurdi. Biroq uning xavotirga tushishi uchun hech qanday asos yo'q. Chunki neki qilmasin, u

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI ARM
№ 19956

sultonning onasi, buning ustiga Alouddin Muhammad onasini juda yaxshi ko'radi.

— Muhtaram onamizga salomlar bo'lsin, fozil ayolga, dunyo xotinlarining sultoniga shon-sharaflar bo'lsin! — dedi sulton.

Xorazmshohning samimiyati va hurmat-e'zozidan Turkon Xotunning boshi osmonga yetdi. O'g'liga yengil ta'zim ila javob berdi.

— Jahon shohiga salomlar bo'lsin. Sen kabi bir jahongirning onasi bo'lganimdan baxtiyorman. Janobi Haqqa ming shukrlar.

Marmar yo'lkadan yonma-yon yurib, saroyga kirishdi. Soqchilar darhol eshikning ikki yonidan joy olib, shamdek qotdilar. Temur Malik bir daraxt ostiga borib o'tirdi. To'ng'ichxon bo'lsa soqchilar yonida qoldi.

Sulton onasi bilan hashamatli qabulxonaga kirdi. Turkon Xotun o'g'liga yonidan joy ko'rsatdi.

— Qani, so'yla, shohanshoh, sharafingdan sharaflanib, ilmingdan nur olaylik.

Sulton onasining yoniga o'tirdi.

— Yaxshisi, muhtaram onamizdan eshitsak.

— Olamlarning oftobi, tingla, mushtipar tul onangning so'zlarini yaxshi eshitib olgin. Padari buzrukvoring bilan ne-ne qora kunlar ko'rmadik deysan. Bilasan, u muhtaram zot ot ustida tug'ilib, ot ustida olamdan o'tdi. Ammo bizga ulkan bir davlat qoldirdi. Olloh rozi bo'lsin, sen bu davlatni yanada kengaytirding, dushmanlaringni tiz cho'ktirding, bukilmaydigan bilaklarni bukding, egilmaydigan boshlarni egding.

Alouddin Muhammad onasining maqsadini bilib olishga harchand urinmasin, gapning tagiga yetolmadi.

— Endi ulkan Xorazm mamlakatining yagona sultoni bo'lding. Yer yuzida sendan buyukroq sulton yo'q. Ammo kunlarning birida bu davlatni sendan tortib olmoq istaganlar chiqib qolishi mumkin. Sen hozirdan tadbirli bo'lmog'ing darkor.

Sulton g'azablanib, oyoqqa turdi.

— Mening taxtimga ko'z tikishga kim jur'at qilishi mumkin? Biron gapdan xabaringiz bo'lsa, darhol ayting.

Volida sulton ham oyoqqa qalqdi, o'g'li bilan yuzma-yuz bo'ldi.

— Tashvishlanma, hozircha bunday bir gap yo'q. Men kelgusida bo'lishi ehtimol gaplardan so'yladim, xolos.

— Nima bo'lishi mumkin?

— Sen barcha narsani har kimsadan ko'ra oldinroq ko'rasan va sezasan. Senga hamma narsa ayon. Davlatning ulug'lari, olimlari amringda hozir-u nozir. Ular seni barcha gap-so'zdan boxabar etib turishibdi. Men bo'lsam bor-yo'g'i bir g'arib tul xotinman. Atrofimni johillar bosgan. Ora-sira kelib, holimdan xabar olmasang siqilib o'lishim turgan gap.

Onaning bu so'zlari Xorazmshohning qulog'iga kirmadi ham. Savolini takrorladi:

— Taxtimga ko'z tikkan kim, onajon?

— Hozircha yo'q, o'g'lim, ammo bitta-yarimtasi chiqib qolishi mumkin. Atrofingdagilarga ko'z-quloq bo'l.

— Kim bo'lishi mumkin?

— Senga eng yaqin bo'lganlar.

— Menga eng yaqin bo'lgan o'g'lim Jaloliddin, xolos.

Turkon Xotun sirli bir tarzda kulimsiradi. Boshini egdi, so'ng:

— Bilmadim, — dedi.

Sulton Muhammad tirikligida o'g'li bunday razil ishga qo'l urmaydigan pokiza va halol yigit ekanini yaxshi bilsa-da, ichidan zil ketdi.

Turkon Xotun buni darhol payqadi. U hech narsa bilmaganday so'zida davom etdi:

— Shavkatli sultonim, Xorazmshohlar sulolasini davom ettirmoq sening zimmangda. Bu yuk kecha otangning zimmasida edi. U bu imtihondan yaxshi o'tib, dorilbaqoga ketdi. Sen tarixda Xorazmshohlar davrini tugatib-bitirmoq kabi yomon nom qoldirishni istamaysan, albatta. Shunday ekan, menga quloq ber, senga yaxshilikdan boshqani ravo ko'rmaydigan keksa onayizoringga quloq sol. Bilasanki, onang qipchoq urug'idan. Qipchoqlar kecha asirimiz edi, bugun esa tamoman bizga do'st. Ularni muhofaza etmoq burchimiz. Tabiiyki, ular ham toj-u taxting uchun jonlarini fido etmoqqa shaydirlar.

Sulton Muhammad onasining nima demoqchi bo'layotganining tagiga yetolmadi. Kosa tagida nim kosa borligi aniq. Ammo maqsad nima o'zi? Sulton shuning ustida bosh qotirardi.

— Ne demoq istaysiz, onajon? Ochiqroq so'zlasangiz.

— Bundan ham ochiqroq gapirib bo'ladimi, davlatpanoh o'g'lim? Qipchoqlarni himoya et, shunda ular ham seni muhofaza etadilar. Ular Xorazmshohlar xonadoni bu zamin, nafaqat bu zamin, balki yanada kengroq zaminlar ustida ilalabad bor bo'lishini xohlaydilar. Ular senga sadoqatli, sen ham ularga shunga loyiq martabalar bergin. Shu yo'l bilan o'zingni muhofaza etasan. Sezishimcha, safar tarad-dudidasan. Arslonim yangi zafarlar quchmoq niyatida. Kim bunga qarshi tura olardi? Albatta, g'azot sening haqqing, askarlaring bilan ulug' zafarlar quchasan. Sen zamonaning Iskandari Zulqarnayisan, hatto undan ham ulug'san.

Xorazmshoh bosh silkib, onasining so'zlarini tasdiqladi.

— Haq gaplar aytdingiz, onajon...

— Albatta, haqiqatni so'zladim. Biroq muhoraba natijasini oldindan aytmoq mushkul. Qodir Olloh ne yozgan, kim biladi? Ol-loh umringni uzoq qilsin, biroq umring jang maydonida itmomiga yetmog'i ham mumkin.

Jim qoldi. Alouddin Muhammad onasidan ranjidi. Shu onda o'limdan so'z ochmoqning ne hojati bor edi? Birdan sovuq o'lim sharpasi oralagandek bo'ldi. Go'yo xonaga Azroil kirib keldi.

Xorazmshoh bo'g'iq ovozda:

— Xo'sh? — dedi.

— Olloh qazoni kech bersin, meni kulfatdan yiroq qilsin. Rah-matli padaringning vafotidan so'ng na o'likman, na tirikman. Senga bir gap bo'lsa o'laman qo'yaman.

Onasi o'limdan so'z ochganidan keyin Alouddin Muhammad-ning yuragiga qo'rquv oralab, olazarak bo'ldi. Buni sezgan hamono hayron bo'ldi. Ne bo'ldi unga? Jang maydonlarida qo'rqmagan, o'limning yuziga tap tortmay tik boqqan bu insonga ne bo'ldi o'zi? Har holda bu keksalik nishonasi edi. Ne qilib bo'lsa-da, ichiga ora-lagan qo'rquvdan xalos bo'lmog'i lozim.

O'zini qo'lga olishga tirishib, dedi:

— Davom eting, onajon, qulog'im sizda.

— Xudo ko'rsatmasin, mabodo shunday bo'lsa, toj-u taxting Jaloliddinga qoladi. Jaloliddin bo'lsa birovlar bilan birlashib, fasod qozoniga o't qalashtirmoqda. Senga aytmay deb ko'p urindim, le-

kin endi aytmasam bo'lmaydi. Bor gapni bilib qo'yganing yaxshi. Bilib, shunga mos chora ko'rasan. O'g'limizni xabardor etmoq bizning eng muqaddas burchimizdir... Endi bo'lsa o'z-o'zimdan yuzlarcha, hatto ming daf'a so'ragan bir savol beray: ajabo, sendan keyin mamlakatimizni Jaloliddindan ham yaxshiroq boshqaradigan kishi yo'qmi?

— Xo'sh, kim bor?

— Hamma gap shunda... Kim, kim bo'lishi mumkin? Bu savolga mamlakatimizning oqil-u dono kishilari javob topdilar.

Qo'lini qo'yniga tiqib, o'rog'liq bir qog'oz oldi. Titragan bar-moqlari bilan qog'ozni ochib, maktubni o'g'liga uzatdi.

— Olimlarimizning javobi shu. O'qi!..

Sulton shosha-pisha maktubni qo'liga oldi va bir qur ko'z yu-gurtirdi.

— Gap bu yoqda ekan, — deb ming'illadi u. — Oqil-u donolari-mizning fikri shundog' ekan-da! Taxtimni Jaloliddinga emas, kichik o'g'lim Qutbiddin O'zloqshohga munosib ko'rishibdi-da. Xo'sh, unda Jaloliddinni ne qilay? Axir, uni valiahd tayin etgan edim-ku.

Keksa ayolning lablarida tabassum o'ynadi. O'g'lining irodasi bukilganini sezdi.

— Bu juda oson, — dedi u. — Uni uzoq ellardan biriga voliy etib tayinlaysan, tamom-vassalom. Shu bilan ish bitadi. Katta tahlika tug'dirayotgan Jaloliddindan qutulib, orom topasan. Shundan keyin kechalari uyqung qochmaydigan bo'ladi.

Shoh onasiga hayrat-la ko'z tashladi.

— Onajon, kechalari uyqum qochishini qayerdan bildingiz?

Turkon Xotun mushfiqona ohangda dedi:

— Men onayizorman, shavkatli sultonim, buning ustiga sulton-ning onasiman. Sultonning onasining katta mas'uliyatlari bor. U o'g'liga taalluqli hamma narsadan, hatto uyqusidan ham boxabar bo'lmog'i lozim. Shu bois uyqungni qochirayotgan masalani hal etmoq mening burchimdir.

So'ng Turkon Xotun haligina o'rtaga tashlagan masalani puxta-lash maqsadida tahdid ham qilib qo'ydi:

— Agar Jaloliddinni valiahdlikdan tushirib o'rniga kichik o'g'ling Qutbiddin O'zloqshohni tayinlamasang butun qipchoqlar

mamlakatingdan chiqib ketishmoqchi. Meni ham o'yla, o'g'lim, bilasanki, men ham qipchoqman. Xudo haqqi, ularning orqasiga tushib, g'arib-u notavon sig'indi bo'lib ketib qolaman.

Xorazmshoh Muhammad taraddud girdobiga tushdi. Jalolid-dinning naqadar mahoratli sarkarda ekanligini barcha biladi. Uni valiahdlikdan tushirgan taqdirda minglab vatandoshlarining yordamidan mahrum bo'lishi turgan gap. Hatto, Jaloliddin istasa ularga bosh bo'lib isyon ko'tarishi mumkin. Xorazmliklar ko'p jasur. Jang maydonlarida u buni o'z ko'zi bilan ko'rgan. Ammo onasi qipchoqlar bilan. Onasining katta obro'-e'tibori bor. Qip-choq xonlari Volida sultonning amrini kiprik qoqmay bajo keltiri-shadi.

Turkon Xotun o'g'lining yuzidan taraddudlanayotganini bildi. Taxtining yonidagi xontaxta ustidan oltin qo'ng'iroqchani olib, bir necha bor chaldi. Ichkariga bir odam shohona kiyingan yetti yosh-lardagi bolani yetaklab kirdi. Turkon Xotun bolani bag'riga bosdi. So'ng uni Muhammadning yoniga olib bordi.

— Qara, sultonim! Valiahding Qutbiddin O'zloqshoh, uni erkalab qo'ymaysanmi?

Xorazmshoh uyqudan uyg'ongandek boqdi. Ro'parasida tur-gan kichik o'g'lini ko'rib hayron bo'ldi. So'ng o'zini qo'lga oldi. O'g'lining sarg'ish sochlarini siypab dedi:

— Barakalla, ancha bo'y tortib qolibdi-ya.

Volida sulton kuldi:

— Albatta, bolaginam mehribon momosining qo'lida tez voyaga yetmoqda. Valiahd bo'lganidan keyin yanada tezroq ulg'ayadi, ko'p o'tmay qo'shiningga bosh bo'ladi, mohir qo'mondon bo'lib, zafar ustiga zafar qozonadi. Sen ham umringning oxirini rohat-farog'atda o'tkazasan.

Xorazmshoh go'yo sehrlanganday, so'zining ma'nosiga e'tibor ham bermay:

— To'g'ri aytdingiz, — dedi.

Turkon Xotun quvonib, kelgan odamga o'girildi:

— Tez tashqariga chiqib, jar sol: Xorazm mamlakatining ulug' sultoni Alouddin Muhammad kichik o'g'li Qutbiddin O'zloqshohni valiahd tayin qildilar. Chop, ildam bo'l...

Odam tashqariga chiqdi. Shoh onasiga baqrayib qoldi. Turkon Xotunning vujudi quloqqa aylandi. Jarchining so'zlarini eshitgach, ko'ngli joyiga tushdi.

— Ey odamlar, ey beklar-u askarlar... Eshitmadim demanglar. Shavkatli sultonimiz Alouddin Muhammad kichik o'g'li Qutbiddin O'zloqshohni shu soatdan e'tiboran valiahd tayin etdilar.

Oldin qo'ng'iroq tovushi, so'ng yana jarchining ovozi eshitildi...

— Ey beklar, ey askarlar, odamlar-u odamlar, eshitmadim de-manglar...

Jarchining so'zlarini eshitgachgina Xorazmshoh o'ziga keldi. Bir muddat jarchini tinglab turdi. So'ng atrofga olazarak boqib, qo'llarini yozdi va:

— Qismat, — deya ming'illadi.

Deraza tomon yurib, pardani ko'tarib, tashqariga qaradi. Temur Malik deraza tagida hayratdan lol qolib turardi. Sulton atrofga ko'z tashladi. Daraxtlar orasida bir to'da qipchoq suvoriylari bor edi. Hammasi qurollangan. Sultonning ko'ngliga gumon keldi.

Ajabo, unga qarshi fitna tayyorlashganmikan? Onasiga qaradi. O'zloqshoh hamon buvisining quchog'ida. Xuddi qo'lidan tortib olib ketishlaridan qo'rqqandek nevarasini bag'riga mahkam bosib olgan. Sulton yana boqqa nazar tashladi.

Temur Malik go'yo mixlangandek qotib qolgan. Oyoqlarini ker-ganicha qipchoq suvoriylariga tikilib turibdi. Xorazmshoh tinchlandi. Chunki birgina Temur Malikning o'zi bir to'da qipchoq suvoriylariga bas kelishini bilar edi. Azaldan shunday — yonida Temur Malik bo'lgan chog'da sulton o'zini bexavotir his etardi. Shu bois uni doim birga olib yurar edi.

Temur Malik uning yangi qaroriga ne der ekan, ajabo? Yuz ifodasiga qaraganda har holda mamnun emasga o'xshaydi. Zotan mamnun bo'lmasligi turgan gap edi. Chunki u Jaloliddinning eng yaqin do'sti. Mabodo Jaloliddin isyon ko'tarsa Temur Malik kim tarafda bo'lardi? Shubhasiz, Jaloliddin tarafda!

Ming la'nat shu qarorga! O'zloqshohni valiahd tayinlash qa-yerdan keldi kallasiga. Axir, valiahdni o'zi tanlamadi-ku, bunday qaror yetti uxlab tushiga ham kirmagandi-ku! Faqat gohi-gohida yaqinlariga bundan so'z ochgan, unda ham Jaloliddin haddidan

oshib, tizgindan chiqib ketmasligi uchungina bu usulni yem sifatida qo'llagandi, xolos. Biroq onasining istagiga qarshi chiqolmadi, natijada bir lahzada bo'yoq xumi sindi.

Endi so'zidan qayta olmaydi. Sultonning so'zi otilgan o'q. Keyinchalik lozim bo'lsa, qarorini o'zgartirishga haqqi bor. Balki o'shanda Jaloliddinni tanlar.

Qat'iyatli bir tarzda onasiga o'girildi:

— Ona, tilagingiz bajarildi, endi navbat meniki. Qipchoq xonlarini chaqiring, gaplashaylik.

Keksa ayol o'g'lini mag'lub etganidan g'ururlanib, qo'liga oltin qo'ng'iroqni olib, bir necha bor chaldi. Ichkariga kirgan xizmatkorga:

— Xonlarni qabulxonaga chorla, — deb amr berdi.

Ko'p o'tmay qipchoq xonlari lapanglagancha ichkari kirib, salom berdilar va ko'rsatilgan joyga cho'kdilar. Turkon Xotun yuziga harir pardani tushirib, o'g'li bilan barobar oyoqqa qalqdi.

Sulton Muhammad xonlarni bir-bir ko'zdan kechirdi. So'ng eng keksa bekka tikildi.

— Qipchoq xonlari, — deya so'z boshladi u. — Tilagingizni bajo keltirdim. Ammo bir istagim bor. Bilasizki, Bag'dod xalifasi Nosir tabaamni to'xtovsiz isyonga undamoqda, mamlakatimning u-bu yerida g'avg'o chiqarmoqda. Dushman bilan emas, o'z mamlakatim fuqarolari bilan shug'ullanishga majbur bo'layotirman. Bag'dodga qo'shin tortishimiz muqarrar. Nosirni ag'darib, o'rniga bizga sodiq bir xalifa qo'ymog'imiz kerak. Bo'lmasa mamlakatimiz tinchimaydi.

Keksa qipchoq xoni oyoqqa turdi. Bir-ikki yo'talib olgach, palag'da tovushda so'zlay boshladi:

— To'g'ri aytdingiz, sultonim! Biroq qipchoq xonlari avvalo o'z yurtini ozod etishni istaydilar. Eshitishimcha, qoraxitoy qo'shini o'lkamizni xarobaga aylantirgan, xotinlarimizni cho'rilikka olib ketgan emish. Uy-joylarimizga o't qo'yib, ovullarimizni vayron etibdi. Oldin bizning o'lkamizga qo'shin torting. Yurtimiz ustiga kelgan baloni daf eting, so'ng aytgan joyingizga ketaylik.

O'tirganlarning hammasi uni ma'qulladi.

— Avvalo bizning elimizni tozalaylik, so'ng Bag'dod safariga otlanaylik, — deyishdi ular bir og'izdan.

Sulton tishlarini qisdi. Yana deraza tomonga yo'naldi. Qipchoq suvoriylari ko'payishgan, biroq endi Temur Malik yo'q. Sultonni vahm bosdi. O'zini dushman qurshovida yolg'iz his qildi. U ilk bor bunday hissiyotni boshdan kechirayotgan edi. Haqiqatan ham shunday edi. Tashqarida kutib turgan askarlar Turkon Xotunning amriga muntazir.

Bir imo qilsa bormi, ular saroyga bostirib kirib, sultonning qo'lini bog'lab, sudrab chiqishlari hech gap emas.

Buni tushunib yetdi, xonlarga boqdi. Ularning yuz-ko'zida qat'iyat ifodalari bor edi. Noiloj tasdiq etdi.

— Ko'p a'lo, siz istagancha bo'lsin.

Xonlar baravariga baqirishdi:

— Yashasin jahon sultoni, yashasin shoh Muhammad!..

Volida sulton kotibiga imo qildi. Kotib o'rnidan turdi, sultonga yaqinlashib, qo'liga qalam berdi, so'ng yozuvga to'la qog'ozni tutqazdi.

— Bu nima?

— Qutbiddin O'zloqshoh sizdan keyin saltanat taxtiga chiqishi to'g'risida farmoni oliy bergan edingiz. Farmonni bitdik, imzongizga muntazirmiz.

Sulton sarg'aydi, qo'llari titray boshladi. Borsa kelmaydigan yo'lga kirgan edi. Ko'z qiri bilan farmonni o'qidi.

Farmonda undan keyin kichik o'g'li O'zloqshoh Xorazmshoh bo'lishi yozilgan edi. Valiahd voyaga yetgunga qadar unga Turkon Xotun vasiylik qiladi.

Qamish qalam qo'lidan tushib ketayozdi. Imzoladi, so'ngra uzugini ho'llab, muhr bosdi-da, farmonni kotibga qaytarib berdi.

Farmonni Turkon Xotun ham imzoladi. Ostiga quyidagi yozuvni bitdi: "Yer yuzida yashayotgan barcha xotinlarning sultoni Turkon Xotun".

Majlis oxiriga yetdi. Sulton goh hud, goh behud bir holda tashqariga chiqdi. Hatto onasi bilan xayrlashishni ham unutdi. Ostona hatlashi bilan qipchoq suvoriylari baqira boshladilar:

— Sultonimizning umri uzoq bo'lsin!..

— Olloh davlatini ziyoda qilsin!..

— Qilichini o'tkir qilsin!..

Til uchida aytilayotgan hamd-u sanolarga sulton e'tibor bermadi. Ikki sayis yetaklab kelgan bezakdor otiga bir sakrab mindi. Temur Malikning qorasi ko'rinmadi.

Qipchoq xoni To'ng'ichdan so'radi:

— Temur Malik qayerda?

Xon bir so'z-la javob qaytardi:

— Ketdi...

* * *

Temur Malik Turkon Xotunning saroyidagi hodisalarni ko'rib, Jaloliddinning valiahdlikdan tushirilganini bilgach, bir necha daqiqa o'zini yo'qotdi, sarosimaga tushdi, ne deyarini bilmadi. So'ng achchiq kuldi. Qurigan lablarini yaladi, atrofdagilarga bir nazar tashladi-da:

— Fitnachilar! — dedi.

Dedi-yu otiga minib, bog'dan chiqib ketdi. Shahar tashqarisidagi saroyida bo'lgan Jaloliddinni xabardor etish maqsadida ot surib ketdi. Ko'chalar tirband bo'lishiga qaramay otini ildam haydab borarkan, kimdir uni chaqirayotganini eshitdi.

— Temur Malik!..

Kimdir uylar orasidan chiqib unga yaqinlashdi.

— Kimsan?

— Men Sariq Lag'o'tman...

Temur Malik hayratlanmadi. Chunki u bu sheryurak qaroqchining qachondir o'zini izlab kelishini bilardi.

— Men bilan yur, — dedi u.

Tor ko'chalardan yurib ketishdi. Do'konlarida chordana qurib o'tirgan tujjorlar mijozlarga labi labiga tegmay molini maqtaydi. U yer-bu yerda xo'roz qichqiradi, it huradi. Valiahd almashganidan shahar ahli hali bexabar. Aks holda g'avg'o chiqishi, hech bo'lmaganda u yer-bu yerga to'planishib, askarlarga eshittirmay vaziyatni muhokama etishlari turgan gap.

— Yarmini berasan, — deya keskin o'shqirdi birov. Temur Malik sas kelgan tomonga o'girildi. Uch askar bir savdogarni o'rtaga olib, do'q urishmoqda:

— Yarmidan kamiga rozi bo'lmaymiz.

Temur Malik bosh chayqadi. Ular Xorazmshohning soliq ma'murlari edi. Nega molning yarmini berishi kerak — Temur Malik bunga tushunmadi. Otini shu yoqqa burdi. Yaqin borib, quloq berdi.

— Yarmini berasan, gap tamom. Sultonning amri bu.

— Gapimga ishoning, molning yarmini bersam bola-chaqam och qoladi. Necha yildan buyon tujjorlik qilib, ro'zg'or tebrataman. Qanday qilib sulton bunday farmon beradi?

— Iye! Hali sen sultonga qarshi chiqyapsanmi?!

— Ol-a, bunday qilishga kimning kallasi ikkita? Marhamatli sultonimiz bunday adolatsiz farmon bermasa kerak. Shuni aytmoqchiman, xolos.

— Iye, iye! Sen hali sultonimizni zolimlikda ayblayapsanmi?!

— Astag'firulloh, zolim deganim yo'q. Ammo sulton shunday farmon bergan bo'lsa bu zulmdan boshqa narsa emas.

— Iye!..

Askarning qo'lidagi qamchi baland ko'tarilib, vizillagancha tujjorning yelkasiga tushdi. Qamchi yana ko'tarildi, ammo bu gal pastga tushmay qoldi. Temur Malik qo'l cho'zib qamchi uchini ushlab olgandi. Askar shiddat bilan o'girildi. Ko'zidan olov sochib, Temur Malikka tikildi.

— Qo'yvor, bo'lmasa tepkilayman, — deb bo'kirdi u. So'ngra birdan esi joyiga tushdi. U qarshisidagi odam katta amaldor ekanini bilib qoldi. Bosh egib, ta'zim qildi.

— Aybga buyurmang, asilzodam, — dedi u. — Tanimay qopman.

Temur Malik boshi bilan tujjorga ishora qildi.

— Bu odamdan ne istaysiz?

— Soliq to'lashini...

— Qancha olishingiz lozim?

Askar taraddudlandi. So'ng yoyib qo'yilgan mollarni ko'rsatib dedi:

— Shuning yarmini...

— Nima, yarmini? Har tojirning molidan yarmini olasiz degan amrni kim berdi?

— Sulton hazratlari.

— Farmonni ko'rsat.

Askar qo'ynidan qog'oz chiqarib, Temur Malikka uzatdi.

— Mana...

Temur Malik diqqat bilan o'qidi. Farmonda tujjorlardan soliq olinishi yozilgan, biroq molning yarmi olinishi to'g'risida hech gap yo'q edi.

— Bu yerda molning yarmi olinsin deyilmagan-ku.

— Bizga ruxsat berilgan.

— Bu odamning molini olib ketsangiz u qanday ahvolga tushishini o'ylamadingizmi?

— Bu mening vazifamga kirmaydi.

— Och-yalang'och qolsa ham olaverasizmi?

— Ha, och-yalang'och qolsa ham.

Temur Malik Sariq Lag'o'tga umidsizlarcha qaradi.

— Bu ishning oxiri voy, Lag'o't. Bu holga tushgan davlatning umri uzoq bo'lmas deyman.

Yana askarga o'girildi.

— Marhamatsiz bo'lma, — dedi u. — Marhamatsizlik musulmon farzandiga yarashmaydi. O'zingga nimani ravo ko'rsang, yaqinlaringga ham shuni ravo ko'rgin.

— Bu mening yaqinim emas...

— Nega?

— Men qipchoqman, bu bo'lsa turkman.

Temur Malikning a'zoyi badani titrab ketdi. Qavmlar orasiga sochilgan dushmanlik urug'lari nish ura boshlagan edi.

Ovozini ko'tardi:

— Tuprog'imiz bir, dinimiz bir. Hech bo'lmasa musulmonligingizning o'zi kifoya. Din birligi boshqa hamma narsadan ustun emasmi?!

Askar yelkasini qisdi. Og'zini chapillatdi. Eshitganlariga ahamiyat bermaganini ko'z-ko'z qilish niyatida tujjorga tik boqdi.

Temur Malikning boshiga qon urdi.

— Qoch oldimdan, — deya hayqirdi u. — Yo'qsa, otimning oyog'i tagida o'lasan.

Askar qaddini ko'tardi.

— Men sultonning quliman...

— Men bo'lsam Ollohning quliman, qoch dedim!

— Men faqat o'z qo'mondonimga itoat etaman, u ham qipchoq bo'lsagina.

Temur Malik bir siltashda askarning qamchisini tortib oldi. Shiddat-la ko'tarib askarning yelkasiga soldi. Qamchi askarning ustiga ilondek uzun tushdi.

— Yo'qol!...

Askar unga adovat bilan qaradi. Qo'lini qilichiga yubordi.

— Buning uchun qon to'kmoq kerak endi.

Temur Malik bir sarkardaning oddiy askar bilan xalq ichida qilichbozlik qilishi yaxshi bo'lmasligini o'yladi. O'ng oyog'ini uzangidan chiqarib, zarb bilan askarning ko'kragiga tepdi.

— Ahmoq!..

Askar baqirgancha yerga ag'anadi. Temur Malik otini haydab ketdi.

Sariq Lag'o't bilan oldinma-keyin Jaloliddinning yoniga yetib borishdi.

Shahzoda bir kursida lochinining boshini silab o'tirgan edi. Do'stiga hayrat-la boqdi.

— Inshoolloh, xayrli xabar keltirgandirsan, Temur Malik? — dedi u.

Temur Malik oldinga o'tib, salom berdi.

— Ilohim, har kuningiz xayrli bo'lsin, Jaloliddin. Ammo bu gal yaxshi xabar keltirmadim.

— Yoningdagi kim?

— Bu kishimi, Qoraqumning mashhur qaroqchisi Sariq Lag'o't...

— Iye!..

— Tavba qilib, huzuringizga bosh urib keldi.

— Olloh gunohidan o'tsin.

O'tirdilar.

— Qani, so'yla, Temur Malik, yomon xabaring ne o'zi?

Temur Malik chuqur nafas oldi. O'ng qoshi sal kerildi, boshini ko'tardi.

— Sulton padaringiz sizni valiahdlikdan tushirdi.

Jaloliddin hayratdan dong qotdi. Temur Malikning ko'zlariga tikildi.

— Qachon?

— Sal ilgari, farmoni Volida sulton saroyida e'lon etildi.

Jaloliddin o'yga cho'mdi. So'ng nim tabassum bilan do'stiga qaradi.

— O'rnimizga kimni tayinladilar?

— O'gay ukangiz Qutbiddin O'zloqshohni...

— Demak, Turkon Xotun padarimizni qo'lga olibdi-da. Ne ham qilardik? Bizning maqsadimiz mansab va maqom emaski, qayg'uraylik. Mamlakatimizga, dinimizga, millatimizga xizmat etishdan boshqa murodimiz yo'q. Kerak bo'lsa ukamiz O'zloqshoh qo'li ostida oddiy askar sifatida jang qilaveramiz. Xuddi otamizning tug'i ostida urushganimiz singari...

Temur Malik unga ma'qullagan nigoh tashlab turardi.

— Gap bunda emas, — dedi u. — O'zloqshoh hali juda yosh. Har holda u ulg'ayguncha Turkon Xotun vasiylik qilsa kerak, deb o'ylayman. U holda nima bo'lishini bilasizmi?

— Taxmin etishim mumkin. Davlat ishiga xotin aralashadi, qo'shin bundan mamnun bo'lmaydi. Balki birovlar oyoqlanar. Yoki mamlakatning har tarafiga qipchoq xonlari hukmfarmo bo'lar.

— Qanday fikrdasiz?

— Sening fikringdaman... Mamlakat uchun bu farmon xayrli bo'lishini tilayman. Ammo bir narsani tushunolmayotirman. Padari buzrukvorimiz ne uchun buni lozim ko'rdilar? Yana buning ustiga safar oldidan. Boz ustiga chegaralarimizda pakana ot mingan bosqinchilar paydo bo'lganligi to'g'risida xabarlar kelayotgan bir chog'da. Ne gap o'zi bu, tushunmadim.

Temur Malik javob bermadi, to'g'risi javob berolmadi. Boshini egdi.

Pakana ot minganlar to'g'risida anchadan buyon xabarlar kelayotgan bo'lsa-da, ularning kim ekanligini aniqlashga hali vaqt topishmagan edi. Ular kim, dushmanmi, do'stmi, murodi ne? Bexabar edilar. Vaqti kelib, albatta, buni bilib olishadi.

Sariq Lag'o'tga yuzlandi.

— Sen ne xabarlar keltirding, Sariq Lag'o't?

Sariq Lag'o't hurmat-la javob berdi:

— Haqqingga duo qilyapmiz, Temur Malik. Meni topgin deb aytganding. So'zing qalbimda muqaddas bir omonat, gurillagan

mash'ala bo'ldi. Oradan uch oy o'tdi, mana, nihoyat huzuringga keldim, amringga muntazirman. Sen va sultonimiz Jaloliddin o'l degan yerda o'lmoqqa hozirman.

Temur Malik Sariq Lag'o'tning yelkasiga qoqdi.

— Yaqin kunlarda sen kabi sadoqatli do'stlarga ehtiyojimiz katta bo'ladiganga o'xshaydi. Omon bo'l, xizmating bizga maqbul bo'lur, inshoolloh.

Xonaga darbon kirdi. Qo'lini ko'ksiga qovushtirib salom berdi.

— Sultondan chopar keldi, Temur Malikni chaqirtiribdilar.

Temur Malik Jaloliddinga savol nazari bilan qaradi.

— Bor Temur, otamiz yomon niyatda bo'lmasa kerak.

— Men ham shunday deb o'ylayman.

Oyoqqa qalqdi.

— Lag'o't, sen Jaloliddinning yonida qol. Men saroyga borib tez qaytaman.

Shaxdam qadam tashlab, eshikdan chiqdi.

* * *

— Qani, kel, Temur Malik, o'tir shu yerga, so'yla.

Temur Malik o'tirdi. Xafa bo'lganini bildirmaslikka harchand urinmasin, uddalay olmadi.

— Jaloliddin biz to'g'rimizda qanday fikrda?

Temur Malik hushyor tortdi. Jaloliddinni ziyorat qilganidan sultonning xabari bor. Inkor etmasdan javob berdi:

— Jaloliddin umidvor, sultonim. Farmoningiz xayrli bo'lishini tilamoqda.

— Sen-chi?

Temur Malik bir lahza tutildi. So'ng shohga qarab dedi:

— Men kabi bir faqir kishi fikrining hech qanday ahamiyati yo'q, sultonim.

— Xafa va qizishgan ko'rinasan.

— Yo'g'-e, sultonimizdan xafa bo'lishga haddim yo'q!

— Ammo soliqchimni uribsan-ku...

Gap bozordagi soliq ma'muri ustida borayotgan edi.

— Qilmishiga yarasha bo'ldi, sultonim.

— Mening amrimga qarshi chiqqaningni bilmaysanmi?

— Men faqat adolatsizlikka mone bo'lmoq istadim.

— Shu bois soliqchimni urdingmi?

— Agar bir askar qo'mondonining gapini ikki qilsa, uning jazosi kaltak bo'lur.

Sulton kulgidan o'zini tiya olmadi.

— Quloq sol, Temur Malik. Seni o'z o'g'illarim qatorida ko'rishimni yaxshi bilasan. Shu bois aybingdan o'tdim. Senga ishonchim cheksiz. Yaqinda qipchoq ellariga yurish qilaman. Undan keyin Bag'dodga qo'shin tortmoqchiman. Xalifa Nosir bizga qarshi ish ko'rmoqda. Uni bir yoqli qilgandan so'ng ya'juj-ma'jujlar masalasini hal etamiz.

— Ya'juj-ma'juj deganingiz kim?

— Men ham bilmayman, chegara tomonlardan shunday xabarlar kelmoqda. Chegaradagilar xavotirga tushgan. Pakana ot mingan bir suruv askarlar to'g'risida gapirishmoqda. Oldin qoraxitoylar, keyin xalifa, so'ng esa pakana ot minganlar ustiga! Hammasiga ko'rsatib qo'yaman. Dunyoda mendan ulug' sulton yo'qligini isbot etaman.

— Zo'rdan zo'r ko'p. Kuch-quvvati haqida ma'lumot olmasdan nega dushmanga nopisand qarayapsiz, sultonim?

Sulton Muhammadning jahli chiqdi.

— Nima, mening jahon podshohi ekanligimga shubhang bormi?

Temur Malik biroz sukut etib, javob berdi:

— Hazrati Umar bir odamga har tongda: "Ey Umar, qiyomat kunini unutma, mag'rur bo'lma" deb eslatishni tayinlagan ekanlar. Chunki u kishi behuda g'ururning oqibati ne bo'lishini bilar edilar. U kishi hech vaqt g'ururga berilmadilar va umr bo'yi adolat bilan hukmfarmolik qildilar.

— Ya'ni, nima demoqchisan? Mening zolim ekanligimga ishora etmoqchimisan?

— Bunga kim ham jur'at eta olardi? Haddim sig'masa-da, g'ururga berilish o'rinli bo'lmasligini eslatmoq istadim, xolos. Qolaversa, bir tujjorning molining yarmini soliq deb olish talondan boshqa narsa emas.

— Demak, sen shunday fikrdasan.

— Bilasizki, sultonim, ojizingiz umri bo'yicha faqat rostini so'ylab keladi. Hatto eng qaltis hollarda ham... Hozir ham shunday qildim, aybimdan kechishingizni so'rayman.

Temur Malik oyoqqa qalqib, qo'l qovushtirib, ta'zim qildi.

Sulton o'yga toldi. Ora-sira soqolini tortqilab qo'yardi. Temur Malikdan boshqa biron kishi unga bunday so'zlashga jur'at eta olmasdi. Temur Malik to'g'ri deb o'ylaganini tap tortmay ochiq aytadigan odam sifatida nom chiqargan edi. Buning salbiy jihatlaridan tashqari ko'p foydasi ham bo'lar, jilla qursa ba'zi manfiy qarorlarning oldi olinardi.

Sulton soqolidan qo'l tortdi. Kimxob to'nining etagini ko'tarib, taxtiga chiqib o'tirdi.

— Har doimgidaysan, Temur Malik. Har doimgiday hozirjavob va beparvo. Har holda shuning uchun ham seni ko'p yaxshi ko'raman.

— Marhamatingizning cheki yo'q, sultonim.

— Menga juda sadoqatli ekaningni bilaman, o'l degan yerimda o'lishingga aminman. Sen o'zgalarga o'xshamaysan. Birovga sodiq bo'ldingmi, o'lsang ham yo'lingdan qaytmaysan.

— Shunday ekan, nega qipchoqlarga yon bosyapsiz, sultonim?

— Bu dard ichimni kemiryapti, ammo qo'limdan ne ham kelar edi? Onam ulardan chiqqan. Otamiz Takashxonning yuz-xotiri bor. Onamiz juda yoshligida tul qoldi. Bizni ulg'aytirdi, quvvatidan quvvat berdi. Xizmati ko'p singdi. Qipchoqlardan ayrilsam, ularga qo'shilib ketib qolishini aytib, menga tahdid ham qildi. Jaloliddin ham o'g'lim, O'zloqshoh ham o'g'lim. Mendan keyin taxtga u chiqdi nima-yu, bu chiqdi nima, biron narsa o'zgararmidi? Jaloliddin chegarani dushmanlardan himoya etsa, O'zloqshoh Xorazm mamlakatini adolat bilan boshqarar.

Temur Malik bosh chayqadi.

— Bir mamlakatda ikki sulton bo'lsa fitna qozoniga o't qalanadi. Ikki qo'chqorning boshi bir qozonda qaynamaydi. Aka-uka birgalikda davlatni boshqarishi mumkin emas.

— Jaloliddin bosh qo'mondon bo'ladi.

Temur Malik bosh egdi.

— Ahvol bunday bo'ldi deb Jaloliddin o'g'lingiz tarafdorlarini olib, boshqa diyorlarga ketmaydi, albatta. Sodiq bir bandangiz o'la-

roq xizmatingizda qolishini o'z og'zi bilan aytdi. Ochig'ini aytay, uning o'rnida men bo'lsam boshqacha ish tutgan bo'lardim. O'g'lingiz bu tutumi bilan sultonlikka loyiqligini yana bir karra ko'rsatdi.

— Balki sen haqdirsan, Temur Malik. Ammo bo'lar ish bo'ldi, endi kech. So'zimizdan qaytsak g'avg'o chiqadi, aka-uka yoqa bo'g'ishadi. Qipchoqlar ham shu davlatning farzandlaridir, dindoshdirlar. Endi ular qipchoq yurtiga yurish qilib, u yerni ozod etishimni istamoqdalar.

— Ana xolos!..

Bu hayrat nidosi Temur Malikning og'zidan beixtiyor chiqib ketdi. Bunchalik jur'at ko'rsatish uning xayolida ham yo'q edi. U sarosima ichida sulton Muhammadning yuziga tikilib qoldi.

— Ha. Xohish-istaklari shunday. Hayron bo'lishing turgan gap. Ammo men ularning aytganini qilmasam, turli fitna-fasod chiqaradilar, mamlakat tinchi buziladi.

— Tinchlik qoldimi o'zi, sultonim?!

— Yana to'g'ri gap aytding. Ammo notinchlik uchun sabab ko'rmayotirman.

— Ijozat bersangiz, bilganimni aytay.

— Qani, so'yla, eshitaylik.

— Sultonim, ko'pdan beri xalq orasiga chiqmadingiz. Avvallari qanday yaxshi edi, mahramlaringizni ergashtirib ko'cha-ko'y, bozor kezardingiz. Xalq sizni olqishlardi.

— Bugun ham shunday.

Temur Malik achchiq kuldi.

— Gapingiz to'g'ri, shunday qilishyapti. Ammo ilgarigisi bilan hozirgisi orasida katta farq bor. Odamlar kecha buni dildan qilar edilar, bugun bo'lsa zolim soqchilarning qamchisidan qo'rqqanlari uchun qilishyapti.

Sulton yana soqolini tutamladi.

— Shunday degin...

— Ha, sultonim, xalq ichiga kirsangiz, o'zingiz bunga shohid bo'lasiz.

— Xalq ichiga odamlarimni yuboryapman.

— Notinchlikning sabablaridan biri ham shu. Odamlaringiz yolg'on-yashiq, tuhmatlar bilan begunoh fuqarolaringizni zindonga

tashlatmoqdalar. O'z shaxsiy manfaatlari yoki xusumatlari yo'lida davlat obro'sini tushirmoqdalar.

— Bu haqda hech gapirmagan eding.

— Hozir ham bu haqda og'iz ochmoqchi emasdim, ammo majbur bo'ldim. Vijdon azobidan qutulish, ichimni kemirayotgan bu tuyg'udan xalos bo'lish uchun aytdim. Zoti oliylaringiz bu jur'atimni nimaga yo'yishlarini bilmadim, ehtimol, jazom o'lim ham bo'lar. Ammo mening yagona istagim — Xorazm mamlakatining zavolga yuz tutmasligidir. Xorazmning zavolini ko'rgunimcha o'lganim ming barobar yaxshiroq.

— Davom et, Temur Malik...

— Soliqlar og'irlashib ketdi, sultonim. Xalqning sabr kosasi to'ldi, qarg'ish ko'paydi. Ilgari duo chiqqan og'izlardan endi zaharli so'zlar aytilmoqda. Borgan sari faqirlashmoqdamiz. Davlat arboblari bo'lsa...

— Xo'sh?

— Bir qoshiq qonimdan kechishingizni so'rab aytaman, davlat arkoni g'aflat ichida.

Sultonning jahli chiqdi, qo'li beixtiyor oltin to'qmoqqa cho'zildi. Qo'sh tavaqali eshik ortida hozir-u nozir jallodlarini esladi. Bir kalima aytsa bas, ro'parasida tik turib so'zlayotgan bu odam ikki daqiqadan so'ng qoniga belanib, jon taslim etadi.

U ana shunday qudrat sohibi. Xayolidan shu gaplar o'tdi. Ammo sulton jallodlarni chorlamadi, to'g'rirog'i, chorlay olmadi. Temur Malikning so'zlari qalbiga nashtardek botgan bo'lsa-da, uning ko'zini ochdi.

Bilmoqchi bo'lgan haqiqat uning boshiga to'qmoqdek tushdi. Haqiqat qayerda bo'lmasin haqiqatligicha qoladi, uni ardoqlamoq lozim...

— Haqlisan, Temur Malik, har holda gaplaringning ko'pi to'g'ri. Dunyoda hech bir sultonning boshiga meniki qadar balo yog'magan. Bir tomonda kimligi noma'lum pakana otliqlar, ikkinchi tomonda bizga choh qaziyotgan xalifa Nosir, boshqa tomonda onamiz va uning do'stlari bo'lgan qipchoqlar, boz ustiga Jaloliddin. Huzur-halovat yo'q, odamlar qashshoqlashdi, raiyat to'ng'illashga o'tdi. Xo'sh, men ne qilay?

Ne-ne davlatlarni tiz cho'ktirgan sulton noilojlikdan qo'lini yozdi, boshi xam bo'ldi. Qanday ajoyib kunlar bo'lgan edi. Dushmanlarini bitta-bitta yengdi, o'lkalarini qo'shib oldi, mamlakat hududi ufqlarga cho'zildi. Ne-ne xonlar, xoqonlar uning oldida tiz cho'kdilar. U o'zini Iskandar Zulqarnayndan ham buyukroq jahongir o'laroq his eta boshlagan edi. Ammo shu onda Temur Malikning ro'parasida ojizligini e'tirof etishdan boshqa chora topa olmadi. Hayhot, nahotki buning bir iloji yo'q?

Ko'p o'tmay faqat o'zi eshitadigan bir tarzda shivirladi:

— Bir yurish kerak...

Bu ich-ichdan chiqqan, joni chiqayotgan odamning so'nggi nafasida aytgan gapiga o'xshar edi. Ha, qayoqqadir yurish qilmog'i darkor. Ofatlardan qutulishning birdan-bir yo'li shu. Kuch-qudratini yana bir bor ko'rsatib qo'yishi lozim. O'shanda raiyat yana uning atrofida jipslashadi, o'zaro adovatni unutib, bir jon-u bir tanga aylanadi.

Boshini ko'tardi. Nimadir demoqchi bo'ldi. Eshik ochilganini ko'rib jim qoldi. Kutdi. Darbon ichkariga kirib, ta'zim qildi.

— Kechirgaysiz, sultonim, — dedi u. — Uzoq ellardan kelgan bir sayyoh siz bilan tez ko'rishtirishimizni so'rayotir.

Sulton qo'l siltadi.

— Hozir bandman, ko'rmayapsanmi?

— Bandligingizni aytdim, sultonim, ammo u so'zida turib oldi. Pakana ot mingan askarlardan xabar keltirganmish, sizga tez yetkazishi kerakmish.

Xorazmshoh Muhammad seskandi. Pakana ot mingan askarlar to'g'risida gap ketguday bo'lsa yuragi o'ynab ketardi.

— Chaqiring, ko'raylik, — dedi u. — Murodi ne ekan?

Darbon chiqdi. Temur Malik sultonni xoli qoldirish maqsadida o'rnidan qo'zg'aldi.

— Ijozat bersangiz, sultonim...

— O'tirgan joyingda o'tir, Temur Malik, sendan yashiradigan sirimiz yo'q.

— Amringiz bosh ustiga, sultonim.

Temur Malik joyiga o'tirib, kuta boshladi. Ko'p o'tmay ikki askar horib-to'zgan, aftodahol bir kishini olib kirdi. Ular sultonga ta'zim qilib, kutib turishdi.

Alouddin Muhammad qo'li bilan askarlarga ruxsat ishorasini berdi. Kelguvchiga yuzlandi:

— Isming nima?

Kelgan kishi tavoze bilan javob berdi:

— Ismim Qutluq, sultonim.

— Qaysi mamlakatdansan?

— Soyayi davlatingizda mamlakatimiz Xorazm bo'ldi, sultonim, ammo asli Qo'niyodanman. Ko'p yillar oldin Hamadonga ko'chib borgandim. Ilm oldim. Halab, Shom, Madina va Makkani ko'rdim. Qashqarga bordim. Ko'p yurtlarni kezdim. Kunlarning birida Chinga yo'lim tushdi. Buyuk Xitoy devorini ko'rdim. Chinning ashaddiy dushmani kimligini bilib oldim.

— Kim ekan?

— Ijozat bering, sultonim, aytay. Chinning ashaddiy dushmani hozirga qadar biz tanimagan, sezmagan, bilmagan...

Xorazmshohning sasi bu gal dag'al chiqdi:

— So'yla dedik-ku, axir!..

— Chingizxon!

— Kim, kim?

— Chingiz, Chingizxon... Uning ismi shunday. Asl ismi Temuchin. Ishni qaroqchilikdan boshlagan. Atrofiga bir qancha tatarlarni to'plab, tog'larga ketgan. Undan oldin Chin xonlaridan birining qo'lida asir bo'lgan, so'ng qochgan. Chinliklardan qasos olishga qasam ichgan. O'chini ham olibdi... Yengilmas deyilgan xonlarni, xoqonlarni yengibdi, itoat qildiribdi.

— Demak, u bu qadar kuchli ekan-da?

— Chingizxondan so'z ochilsa chinliklar yaproqdek titrashadi. Ular Chinni bu baloyi azimdan qutqarishini so'rab to'xtovsiz Buddaga iltijo etishadi, qurbonlik so'yishadi. Budda ularni jazolash uchun Chingizxonni yuborgani to'g'risida gapirishadi. Shu bois Chingizxondan qo'rqishadi ham, hurmat ham qilishadi.

— Taajjub, bu qanday insonki, ham qo'rqitgan, ham hurmat qozongan. Bu odam kimligini bilishni xohlardim. Sen uning o'zini ko'rdingmi?

— Sarkardalaridan biri bilan ko'risha oldim.

— Xo'sh, qanday odam ekan?

— Daroz, pahlavonkelbat bir kishi. Avzoyi buzuq, insonni bir lahzada burda-burda qilishga tayyor, deydi kishi. Bir ko'zi so'qir. Ismi Subutoy ekan. Chingizxonning eng yaxshi ko'rgan odamlaridan biri. Urushlarda ko'p qahramonliklar ko'rsatgan. Ayni vaqtda uni juda zolim deyishdi.

— So'zlashdingmi?

— Undan ko'p narsalarni so'rab bilmoqchi edim, ammo turqining sovuqligidan cho'chidim. Butun bilganim, bermoqchi bo'lgan savollarimni bir lahzada unutdim. Lol bo'lib qoldim.

— Qo'rqoq ekansan.

— Bo'lsa bordir, sultonim.

— Yana nimalarni bilding?

— Chingizxonning odamlari sahro qumi singari behisob deyishadi. Otlari pakana, o'z ko'zim bilan ko'rdim. Askarlari abjir, aql bovar qilmas darajada abjir. Jang vaqtida ajoyib bir qiyqirishadi. Biz bilmaydigan bir tilda gaplashishadi.

— Bu qanday til?

— Mo'g'ulcha deydilar. Xorazm tiliga hech o'xshamaydi.

— Arabcha, forschaga ham o'xshamaydimi?

— Hech qaysisiga o'xshamaydi. Men biroz o'rgandim.

— Iye, demak, sen u tilni bilarkansan-da...

— Soyangizda, sultonim.

— Yaxshi. Seni ularga elchi etib yuborsak ne deysan?

— Bosh ustiga, sultonim, biroq bu yerga to'g'ri yo'ldan keldim. Sultonimizga bu xabarni tezroq yetkazay, boxabar bo'lsinlar, ehtimol, tadbir ko'rishlari kerakdir, deb o'yladim.

— Ofarin, ko'p yaxshi ish qilding. Endi borib damingni ol. Ne qarorga kelganimni senga keyinchalik yetkazaman.

Sulton oltin to'qmoqni olib, oltin laganga ikki karra urdi. Kirgan navbatchiga mehmonni ko'rsatib dedi:

— Olib boring, istirohat qilsin. Chaqirgan zahotim darrov huzurimga olib kelasiz. Xohlagan joyiga borishi, xohlagan ishini qilishi mumkin. Unga yaxshi munosabat ko'rsatilsin.

Qo'niyolik Qutluqni tashqariga olib chiqishdi.

Temur Malik bilan sulton yolg'iz qolishdi. Temur Malikning so'zlamay, jim o'tirgani sultonning e'tiborini tortdi.

Sulton mayin ovozda dedi:

— Nega jim qolding, Temur Malik, sababi nedur?

— Sultonimiz gapirgan joyda bizga jim turish farzdir.

— Ammo kerak bo'lsa bulbulday sayraysan...

— Shunday qilish kerakligiga ishonchim bo'lganda so'ylayman, sultonim.

— Bu odamning gaplariga nima deysan?

— Nima ham derdim? Ko'rganini aytdi. Ma'lum bo'ldiki, pakana otliqlar mo'g'ul qo'shini askarlari ekan. Endi, hech bo'lmaganda, ularning kimligini bilib oldik. Biroq ularning davlati, kuch-qudrati haqida aniq ma'lumotlar olmog'imiz darkor.

— Meni ular bilan urushadi, deb o'ylayapsanmi?

— Bunday demoqchi emasman, sultonim. Faqat kim bilandir urushmoq niyatingiz borligini o'zingiz aytdingiz.

— Men xalifa bilan urushmoqchiman.

— Bunday qilsangiz butun islom olami bizga qarshi bo'ladi. Shuni bilaturib xalifaga urush ochasizmi?

Temur Malik sultonga savol berish qimmatga tushishini bilardi. Biroq u bugun ichida borini to'kib solishga qaror berdi. Turkon Xotunning saroyida bo'lib o'tgan hodisalar sabr kosasini to'ldirib yubordi.

Ajabki, sultonning jahli chiqmadi. Faqat boshi xam bo'ldi. Haqiqatni ochiq eshitgach, boshqa vaqtlardagidan farqli o'laroq, chuqur xayolga toldi. Yana soqolini tutamlab, bir necha mo'yni yulib oldi.

— Menga baribir, — dedi u. So'ngra qo'shimcha qildi: — Islom o'lkalari orasida eng qudratlisi Xorazmdir. Boshqalar Xorazm bilan hisoblashishga majbur. Qolaversa, bizni bog'laydigan biron-bir shartnoma ham yo'q. Ularning buni nimaga yo'yishlari va qanday ish tutishlari bilan mening ishim yo'q.

— Ustimizga bostirib kelsalar hammi?

— Qirib tashlayman... Menga qarshi qilich ko'targanlar do'st emas.

— Rasulullohning: "Mendan keyin bir-biringizning bo'g'zingizga tig' uradigan kofir bo'lib ketmangizlar" degan hadisiga qaramasdan-a?

Sulton jim qoldi. Temur Malikdan yana bir bor mag'lubiyatga uchradi. Vijdoniga quloq osdi. Vijdoni: "Ha, u to'g'ri aytyapti, — derdi. — Xalifaga hujum etsang, islom ellarining qarg'ishini olasan. Hatto senga qarshi qo'shin tortishlari mumkin. Urushga sen sababchi bo'lganing uchun gunoh sening bo'yningda bo'ladi. Qolaversa saljuqiylar davlati borgan sari kuch-quvvatga to'lib borayotir. U bilan yoqa bo'g'ishishing mumkinligini o'ylamaysanmi?"

Vijdon amri shunday derkan, nafsi tamoman teskari gaplarni uqtirardi: "Yo'q, vijdoning yanglishyapti. Xalifa sening bosh dushmaning. U balki mo'g'ullarni ham qayrab, ustingga bostirib keladi. Qo'shnilaringni hozirdan gij-gijlashga kirishdi-ku. Unga bir dars berib qo'ymog'ing kerak. Sen ulug' sultonsan, xalifa qo'lida qo'g'irchoq bo'lma. Maydonga chiq. Qo'shinlaring mo'r-malaxday bo'lsa. Bag'dod, Makka-yu Madinani qo'lga kiritishing kerak. Musulga ot o'ynatib kir. Xalifa Nosirni ag'darib, o'rniga o'z odamingni qo'y. O'shandagina davlating ham, saltanating ham abadiyatga erishgusi".

Vijdonidan so'radi:

"Bunga ne deysan?"

"Safsata deyman. Saltanating va davlatingning abadiyatga erishmog'i bir afsona. Dunyoda boqiy biron narsa yo'qki, sen boqiy bo'lsang. Iskandar Zulqarnayn necha yillar shon-shavkat bilan hukm surdi. Xo'sh, endi u qayerda?"

Sulton qarama-qarshi o'ylar girdobida xiyla ikkilanib qoldi. Vijdon va nafs orasida talmovsiradi, bir qarorga kela olmadi. Oyoqqa turdi:

— Temur Malik, xizmatingdan mamnunman, biroq mening ishlarimga burun tiqishing ma'qul emas. Bugun juda bo'lmaganda besh karra boshing yelkang ustidan uchib ketishi mumkin bo'ldi. Ehtiyot bo'l, g'azablangan paytimga to'g'ri kelib qolma. So'ng butun umr pushaymon bo'lib yuradigan bir ish qilishga meni majbur etma.

Temur Malik bosh chayqadi. Izn istadi. Xorazmshohga tavoze bilan ta'zim aylab, xonadan chiqdi.

Uyiga qanday borganini bilmadi ham. O'zini to'shakka otdi. Miyasida turli-tuman o'y-fikrlar g'ujg'on o'ynadi. Sulton Muhammad qanday qilib qipchoq xonlari qo'lidagi qo'g'irchoqqa aylanganiga lol-u hayron edi. "Ol, keldi" deganda sichqonning ini ming tanga

bo'lgan bu kishilar qanday qilib sultonga bunchalik ta'sir o'tkazishga muvaffaq bo'ldilar. Sultonning volidasi Turkon Xotunning kuchli ta'siri bo'lganiga shak yo'q. Jaloliddinni tushirib, ona suti og'zidan ketmagan bolakayni valiahd qildirishga erishgan bu xotin kelajakda yana qanday hunarlar ko'rsatar ekan?

Eshik ochilib, xayoli bo'lindi. Ostonada ikki kishi turardi.

— Nima gap, Tog'ay?

Tog'ay Temur Malikning sodiq xizmatkori. U yonidagi odamga ishora qilib dedi:

— Siz bilan ko'rishmoq istayapti, xo'jayin.

Temur Malik mehmonga sinovchan boqdi. Kiyimi aftodahol. Charchoqdan yiqilay-yiqilay deb turibdi.

— Ha, ha, — deb ming'illadi mehmon. — Siz bilan ko'rishmog'im kerak.

— Kimsan?

— Ismim Hasan, samarqandlikman. Xat-savodim bor.

— Qani, kel bu yoqqa...

Mehmon kirdi. Soqolini silab, peshonasidagi reza-reza terlarni artdi.

— Samarqandda yomon ishlar bo'lmoqda, Temur Malik.

— Meni qayerdan taniysan?

— Samarqandda sizni bilmaydigan odam yo'q. Yuzingizni ko'rib, xushomad uchun aytayotganim yo'q. Aytmoqchi bo'lgan gapim shuki, Samarqand voliysi Usmonxon isyon ko'tardi.

Temur Malik qaddini rostladi, quloqlariga ishonmadi.

— Nima deyayotganingni bilasanmi o'zi?! Usmonxon Xorazmshohning kuyovi-ku, isyon ko'tarishi mumkin emas.

Bu gaplarga Hasan parvo ham qilmadi.

— Isyon ko'tardi, gapning po'stkallasi shu. Raiyat mol-mulkini taladi. Qoraxoniylarni atrofiga to'plab, shaharga dahshat solyapti. Shahar ahli omonlik tilayotir, tez borib Samarqandni qutqaring.

— Xo'sh, nega mol-mulkingizni tortib oldi?

— Uning aytishicha, Sulton Muhammadning idora usuli boylarni yanada boyitishdan boshqa ishga yaramadi. Kambag'allarni tojirlar taladi, hunarmandlar ezdi. Katta zamindorlar yersiz yo'qsillarni qulga aylantirdi.

Ko'zlarida yosh aylandi.

— Raiyat oldin uni qo'llab-quvvatladi. Natijada u kuchaydi. Endi raiyatning ko'zi ochildi, ammo kech bo'ldi. Samarqand zulm, dahshat girdobida qoldi. Go'daklar onalarining ko'zi oldida tiriklay gulxanga tashlandi. Homilador xotinlarning qornini yorishdi, boy-badavlat kishilar bo'yniga sirtmoq tushdi.

— Voy, nomard!

— Olim-u ulamolarimiz qilayotgan ishlari islomiyatga zid ekanini aytib, uni adl-u insofga da'vat etdilar. Usmonxon bo'lsa ularni qoziqqa o'tqazdi.

— Tarbiyasiz!..

— Ko'rganlarimni aytdim, begim, qolganlarini o'zingiz bilib olasiz. Qilichingizning ta'rifi Samarqandda mashhur. Ulamolarimiz shu bois meni sizning huzuringizga yuborishdi. O'n kishi edik, qolganlar qo'lga tushdi. Xullas, ahvol ana shunday.

Temur Malik eshikka tikilib, o'yga cho'mdi. Ancha o'yladi, keyin o'rnidan turdi. Devonaning ishini Xudo o'nglabdi, deydilar. Endi sultonni qipchoq yurtiga qo'shin tortish fikridan qaytarish imkoni tug'ildi. Samarqandda fitna olovi qaynab turgan bir paytda sulton har holda qipchoq yurtiga yo'l olmasa kerak...

— Navbatchi! — deb qichqirdi u. So'ng kirib kelgan soqchiga mehmonni ko'rsatib dedi:

— Bu kishini olib bor, yaxshi dam olsin.

— Bosh ustiga, begim.

— Men sulton huzuriga ketdim.

Tashqariga chiqdi.

* * *

Temur Malik qaytib kelgani to'g'risida xabar berishdi. Sulton Abu Tammonning "Tabriknoma"sini mutolaa qilmoqda edi. U sardaning qaytib kelganiga hayron bo'ldi. Kitobni yopib, tokchaga qo'ydi.

— Kirsin, nima gap ekan? — dedi u.

Temur Malik tashrif qoidalariga ham rioya etmay shoshib kirib keldi. Shaxdam qadamlar bilan sulton Muhammadga yaqin borib, qo'lini ko'ksiga qovushtirdi.

— Vaalaykum assalom, Temur Malik. To'g'risini aytsam, meni hayratga solding. Yaqindagina yonimdan chiqib ketganding. Qani o'tir, ko'raylik-chi, nima gap.

Temur Malik o'tirishgacha sabr etolmadi.

— Hodisalar shiddatidan mening boshim ham aylanib ketayapti, sultonim. Afsuski, huzuringizga yomon xabar keltirdim.

Sultonning rangi xiyol oqardi, dudoqlari titradi.

— Xo'sh, ne ekan bu yomon xabar? Jaloliddinmi yo?

Temur Malik yuzini burishtirdi.

— O'g'lingiz haqida yomon fikrga bormang, sultonim, sulton otasiga bosh ko'tarish uning xayoliga ham kelmaydi. Jaloliddinning butun fikri-zikri sizga sodiq askar bo'lmoqdir. Men boshqa masalada keldim.

— Shuni aytmaysanmi bo'lmasa.

— Ijozat bersangiz so'ylay.

— So'yla.

— Samarqanddan bir odam keldi, horib-charchagan. U kuyovingizning isyon ko'targanini aytdi.

Sulton shiddat bilan uchib turdi.

— Yolg'on gap! Kuyovimiz Usmonxon hech qachon bizga qarshi bosh ko'tarmaydi, hech qachon!

— Men ham shu fikrda edim, sultonim.

— Unda nega meni bezovta etding.

— Sultonimizni xabar etishni lozim topgan edik, xato qilgan bo'lsak, aFv eting.

So'ng yengil ta'zim qilib, dedi:

— Ruxsat bersangiz, men boray.

Sulton Muhammad qo'l ishorasi bilan Temur Malikni to'xtatdi.

— Qayoqqa? O'rtaga bir gap otib, chiqib ketaverasanmi? Muroding boshimni g'ovlatishmi yoki kuyovimning ustiga yurish qildirmoqmi?

Endi Temur Malikning yuzi oqardi. Alamdan titrab dedi:

— Meni o'z otamdan ham yaxshi biladigan sultonimiz haqiqatan ham shunday bir niyat bilan o'rtaga chiqishimga ishonadilarmi?

— Boshqa ne dey? Kuyovimga ayb qo'ymoqdasan.

— Ayblayotgan men emas, samarqandlik bir qulingiz keltirdi bu xabarni.

— Opkel uni huzurimga.

— Amringiz bosh ustiga.

— Ko'p yaxshi, ildam bo'l.

Temur Malik sultonga ta'zim bajo keltirib, tashqariga chiqdi. Xorazmshoh yolg'iz qoldi. Kuyovi bunday nojo'ya ish qilishga jur'at etolmasligiga o'zini ishontirishga harchand urinmasin, uddalay olmadi.

— Boshimga nelar yog'ilmoqda o'zi, — deya ming'illadi u. — Bir yonda qoraxitoy, bir yonda qipchoqlar, boshqa tomonda Chingizxon degan pakana otliqlarning xoqoni, yana bir tomonda xalifa Nosir. Bular yetmaganday endi kuyovim Usmon ham chiqdimi?

Jahl bilan oltin to'qmoqni olib, oltin laganga urdi. Ichkariga darbon kirib, ta'zim qildi.

— Darhol qipchoq xoni Nishoburni bu yerga chaqir!

Darbon chiqqach, u yoq-bu yog'ini tartibga keltirdi. Nishobur uni parishon bir ahvolda ko'rishini istamas edi. Nishobur kirgach, unga joy ko'rsatdi.

— Kel, qipchoq xoni. Hozir aytadigan gaplarimga hayron bo'lma. Kuyovimiz Usmonxon isyon ko'tardi, deyishyapti...

Nishobur ko'rsatilgan yerga o'tirmasdan hayratdan dong qotdi. Ikkilanib so'radi:

— Chindanmi, sultonim?

— Chin deyishmoqda. Xabar keltirgan odamni hali ko'rganim yo'q. Temur Malikni uni opkelishga jo'natdim.

Nishobur kinoyali iljaydi. Muhim bir narsani kashf etganday ko'zlari chaqnadi. Kursiga o'tirgach, dedi:

— O'yin qilishmoqchi, sultonim.

— Kim o'yin qilmoqchi?

— Har holda Temur Malik. Keyingi vaqtlarda dimog'i ko'tarilib ketdi. Soliqchi-ma'murlarni do'pposlaydi, davlat arkoni va bizni og'izga olib bo'lmaydigan so'zlar bilan haqorat qiladi. Siz bulardan xabardor bo'lsangiz-da, negadir uni hamon o'z himoyangizda tutasiz.

— Temur Malik katta sarkarda.

— Bo'lsa bordir. Ammo sarkardaning sultonni haqorat etishga haqqi yo'q.

— Temur Malik to'g'ri gapni ochiq aytishi bilan nom chiqargan.

— To'g'ri so'zning ham chegarasi bor, bu haqoratga aylanmasligi kerak.

— U bizga yaxshilikdan boshqa narsani ravo ko'rmaydi.

Nishobur sultonga qarab tirjaydi.

— Qalbingiz pokiza bo'lgani uchun tevaragingizda bo'layotgan o'yinlarni ko'rmayapsiz, sultonim. Temur Malik ko'pdan beri o'g'lingiz Jaloliddin bilan til biriktirib, fitna tayyorlamoqda. Ular qipchoq yurtiga qo'shin tortmasligingiz uchun qo'lidan kelganini qilishmoqda. Jaloliddin ham, Temur Malik ham shu fikrda. Bizga adovatlari bor. Bizni yaxshi ko'rishingiz ularga hech maqbul emas. Qipchoq xotiningizdan tug'ilgan kichik o'g'lingiz Qutbiddin O'zloqshohni valiahd deb e'lon etganingizga ular hanuz rozi emaslar. Davlat idorasini o'z qo'llariga olish uchun ular siz orqali ish ko'rishni eng qulay yo'l deb bilmoqdalar.

Shu onda eshik ochilib, Temur Malik kirib keldi. Oyoqlari kerilgan, qo'llari musht bo'lib tugilgan.

— Yolg'on bu! — deb hayqirdi u.

Nishoburning tomirlaridagi qon muzlab qolganday bo'ldi. Lommim bo'ldi. Temur Malikning qo'li qilichi tomon ketdi.

Sulton Muhammad vaziyat keskinlashganini anglab, qo'lini ko'tardi:

— Jim bo'ling! Mening huzurimda aytishishga qandoq haddingiz sig'di?! Har ikkovingizni ham jallod qo'liga topshirishga majbur etmang meni.

Temur Malik to'xtadi. Sulton huzuriga qilichi bilan kirishga ruxsat berilgan sanoqli sarkardalardan biri ekanligi esiga tushdi. Bu ishonchni suiiste'mol qilmasligi lozim. Qo'llarini ko'ksiga qovushtirib ta'zim qildi.

— Assalomu alaykum, ulug' sultonimiz.

— Vaalaykum assalom, ulug' sarkardamiz, u kishini olib keldingmi?

— Shu yerda.

Sulton ishorat berdi. Hasan ichkariga kirdi. Ustidagi yangi kiyimlari unchalik qovushmay, apil-tapil hozirlanganligi bilinib turar edi. U podshohning etagini o'pdi.

— Haqqingizga duo qilmoqdamiz, sultonim.

— Isming nima?

— Ismim Hasan, samarqandlikman.

— Kuyovimiz Usmonxon isyon ko'targanmish, shu gap rostmi?

— Ori, rost, sultonim.

Temur Malik eshikni yopib, bir chetga borib turdi va suhbatga quloq tutdi.

Sulton savol ustiga savol berib, xabarning to'g'ri-noto'g'riligini bilib olishga harakat qildi. Qipchoq xonining rangi tobora bo'zardi. U Samarqanddagi isyon xabari rost chiqqan taqdirda sulton o'sha yoqqa qo'shin tortishini, qipchoq yurti qoraxitoylar qo'lida abadiy qolib ketishini o'ylar edi.

Sulton Alouddin Muhammad kerak narsalarni so'rab bilib olgach, dedi:

— Zig'ircha yolg'on gapirgan bo'lsang kallang ketdi deb hisoblayver.

— Ont ichamanki, aytganlarimning barchasi rost.

Sulton o'z-o'ziga dedi:

— Nega isyon ko'tarishganini tushunsa bo'lar, ammo uning barchani teng qilaman degan iddaosiga tushunmadim. Axir, Ollohning o'zi insonlarni teng yaratmagan-ku.

Temur Malikka o'girildi:

— Ketishingiz mumkin, Temur Malik. Choparni ham olib keting. Bugun ikkita yomon xabar oldik, ishqilib, oxiri baxayr bo'lsin.

Temur Malik qipchoq xoniga yerga kirgizvorgudek bir nazar tashladi-da, Hasanga bosh irg'adi. Ular sultonga baravar ta'zim qilib, tashqariga chiqdilar.

Temur Malik yo'lda so'zlandi:

— Sulton ikkita yomon xabar olganini so'zladi. Menga bo'lsa uchta yomon xabar keldi, eng yomoni Jaloliddinning valiahdlikdan tushirilishi...

UCHINCHI BO'LIM

Temur Malikning murodi hosil bo'ldi. Sulton Alouddin Muhammad qipchoq xonlarining so'zini olmadi. U qipchoq yurtiga emas, Samarqandga qo'shin tortdi. Sulton darg'azab. Kuyovi Usmonni va uning hamtovoqlarini qo'lga tushirsa kallasini oldiradi. Axir, kuyoviga bu qadar noz-u-ne'mat va iqbol berdi, u bo'lsa ko'rnamaklarcha isyon ko'tardi — bu aqlga sig'adigan gapmi?!

Uzoq yurib, kimsasiz sahrolardan, tik qoyalardan oshib, nihoyat shahar yoniga yetib keldilar. Sulton barmog'i bilan qal'a devorlarini ko'rsatib dedi:

— Qara, Temur Malik, shu baland devorlar otlarimizning oyog'i ostida qog'ozdek kunpayakun bo'lishini o'z ko'zing bilan ko'rasan.

— Men bunga aminman, sultonim.

Qipchoqlarning qovog'idan qor yog'ardi. Gapi o'tmagani uchun alamzada edi ular. Ammo hali umid bor. Negaki yurishga chiqqan qo'shin Samarqandni bir yoqli qilgach, qipchoq eliga yo'l olishi hech gap emas. Bunga sultonni ko'ndirishlaridan umidvorlar.

Vaqtni qo'ldan boy bermay, shaharni qurshab olishdi. Kuta boshladilar.

Usmonxon baqir-chaqirdan uyg'onib ketdi. U ahvoldan xabar topgach, dovdirab qoldi. Xorazmshohning yashin tezligida yetib kelishi mumkinligi Usmonning yetti uxlab tushiga ham kirmagandi. Demak, Xorazmshoh hamon qudratli.

Talvasaga tushib, duch kelganni urib-yiqdi. Bir necha kishini qamchiladi, bir nechtasini osib o'ldirishni buyurdi.

Xonasiga qamalib, obdan o'yladi, so'ng devor ustiga chiqib, qaynatasining qo'shiniga nazar tashladi.

— Ko'pchilik ekan, — deb so'zlandi u.

Oq bayroq ko'targan uch kishi qal'aga yaqinlashgani to'g'risida xabar berishganida qo'rquvdan o'pkasi og'ziga tiqildi. Qal'a devorining eng baland burjiga chiqib, kelgan kishilarga tikilib qoldi. Yonidagi maslahatchisi Sarkashga qarab dedi:

— Har holda o'limimiz to'g'risida farmon keltirishgan bo'lsa kerak. Sen ne deysan, ne tadbir olmoq kerak?

— Cho'chimang, janobi oliylari.

— Cho'chimay bo'ladimi? Ko'rmayapsanmi, shaharni qamalga olishdi.

— Hechqisi yo'q. Ne bo'lganda ham siz sultonning kuyovisiz, har holda gunohingizdan o'tadi. Ammo biz sog'-omon qolmasligimiz besh qo'lday ayon.

— Men omon bo'lsam, sen-da tirik qolasan.

— Mayli, ko'raylik-chi, bu odamlar ne derkan?

Bayroq ko'targan uch xorazmlik Usmonxon turgan qal'a burji ostiga yetib kelgandi. Oldinda turgan askar qo'lini ko'tarib qichqirdi:

— Ey askarlar! Usmonxonga xabar bering, u bilan gaplashgani keldik.

Usmonxon Sarkashdan:

— Gapiraymi? — deya so'radi.

Sarkash dedi:

— Sizday bir xonning oddiy askar bilan gaplashishi vojib emas. Ruxsat bering, men so'zlashay.

— Ruxsat, bor, gaplash.

Sarkash burj shinagidan boshini chiqarib:

— Ne istaysiz? — deya qichqirdi.

Xorazmlik dedi:

— Kimsan sen? Biz Usmonxon yoki u tayinlagan odam bilan so'zlashamiz, xolos.

Usmonxon ko'zga yaqqol ko'rinish maqsadida yon tomonga surilib, javob qildi:

— Usmonxon men bo'laman. Sarkash mening vakilim. Gaplashishlaringiz mumkin.

Xorazmliklarning labida kinoyali tabassum o'ynadi. Guruh boshlig'i ovozini ko'tardi:

— Diqqat bilan eshiting. Dunyoning eng buyuk sultoni, shavkatli Alouddin Muhammadning amrini eshiting: qal'a darhol taslim bo'lsin, aks holda barcha isyonchilar qilichdan o'tkaziladi, uylari vayron etiladi, etlari burda-burda qilinib, ko'ppaklarga tashlanadi. Darvozalarni darrov oching, bo'lmasa ahvol biz aytgandek bo'ladi.

Usmonxon dokaday oqardi, tomog'i qaqradi, Sarkashga qaradi. Sarkash elchilardan so'radi:

— Xo'sh, taslim bo'lsak nima bo'ladi?

— U taqdirda sultonimiz balki jazoyingizni yengillatar.

— "Balki" degin...

— Ha, balki.

Elchilar boshqa hech narsa demay, orqaga qaytdilar. Usmonxon tishlarini g'ijirlatdi.

— Shayton uch o'q bilan uchovini ham yo'q qil, deyayapti.

Sarkash uning qo'lini tutdi.

— Zinhor-bazinhor! Shaytonga quloq bermang, aks holda hammamizning kunimiz bitadi.

— Gaping to'g'ri, Sarkash. Biroq ko'rmayapsanmi ularni, juda bamaylixotir so'zlashdi...

— O'ziga ishongan doimo xotirjam so'ylaydi, xon hazratlari.

— Qarshi chiqishimiz mumkinligini hech o'ylab ko'rmaganga o'xshaydi, bular.

— O'ylab bosh qotirishga ne hojat.

Usmonxon g'azab bilan dedi:

— Ne demoqdasan o'zi?! Nima, seni jallod qo'liga topshiraymi?

— Eshiting xon hazratlari, raiyat bizning tarafimizda emas. Atrofimizdagilar manfaat qullari; o'z cho'ntagini qappaytirishdan boshqa narsani o'ylamaydi. Qo'limizdan kelganicha zulm o'tkazdik, odamlarning yer-suvini, bor-shudini tortib oldik. Shu bois hech kim bizni deb urushmoqni xohlamaydi. Bu ahvolda Xorazm sultonini qo'yaturing, mo'g'ul xoqoni Chingiz kelsa ham ular uchun katta bayram bo'lajak. Yagona orzulari bizdan qutulmoq.

— Nonko'rlar!..

— Nohaqlik qildik, xo'jayin, ko'p zulm etdik. Yana bila-ko'ra...

Usmonxon chorasizlikdan yelka qisdi.

— Xo'sh, endi ne qilaylik? Tiriklay taslim bo'laylikmi?

Sarkash savolga savol bilan javob berdi:

— O'lmoqqa tobingiz bormi, xon hazratlari?

Usmonxon cho'chib tushdi, sarosima ichida:

— Hali juda yoshman, — deb ingradi.

— Shunday ekan, taslim bo'lmoqdan o'zga chora yo'q. Borib sultondan uzr so'rang, ehtimol, marhamat ko'rgazar. Kerak bo'lsa xotiningizni sulton huzuriga yuboring. U uzr so'rasin, siz va bizning

aybimizdan o'tishlari uchun harakat qilsin. Jonimizni qutqarishning bundan boshqa yo'li yo'q.

— Har holda sening gaping to'g'riga o'xshaydi.

Darhol saroyga qaytdi. Haramga kirdi. Isyon ko'targanidan buyon xotini bilan orasi buzuq edi. Xorazmshohning qizi Xonsulton ichkari qal'ada bir nechta sodiq xizmatkori bilan birga edi. Eri birdan kirib kelganini ko'rib cho'chib ketdi. Eri uni o'ldirgani keldi, degan xayolga borib, orqaga tislandi. Qo'li ko'ksiga yashirib qo'ygan oltin sopli xanjariga uzandi.

Usmonxon beo'xshov tirjaydi.

— Cho'chima, Sultonim, men eringman-ku!

Juvon javob bermadi. Yana biroz tisarildi.

Usmonxon kishining rahmini keltiradigan va ishontiradigan ayanchli tovushda so'zlay boshladi:

— Bir yostiqqa bosh qo'yganimizga ancha bo'ldi. Yaxshi kunlarni ham ko'rdik, yomon kunlarni-da. Shirin-shakar farzandlarimiz bor. Ammo ancha bo'ldi, oramizni buzdilar. Olloh shohid, sendan boshqa bir xotinga qayrilib boqmadim. Faqat seni yaxshi ko'raman, xolos. Biroq nifoq urug'i sochadiganlar meni senga, seni menga yomonladilar. Men bu mish-mishlarga ishonmadim, ammo sen ham shunday qildingmi-yo'qmi bilmaganim uchun yoningga kelishga taraddudlandim.

Juvon bu so'zlarga e'tibor bermadi. Sovuqqina qilib dedi:

— Murodingiz ne, shundan so'ylang.

Usmonxon birdan bo'shashdi qoldi. Bunday munosabatni kutmagandi. Har holda ayol, zaifa, zaif tomonlaridan ustalik bilan foydalanib, xotinimni otasining huzuriga yuboraman, shu yo'l bilan afv etishlariga erishaman, deya umid qilgan edi. Endi bu reja ham puchga chiqdi.

G'urur qo'ldan ketdi. Ikki odim otdi.

— Xonsultonim, — dedi u. — Jonim sening qo'lingda, istasang o'laman, istasang qolaman. Sulton padaringning yoniga borib, menga omonlik tila...

Tiz cho'kdi. Qo'llarini orqasida birlashtirib, bosh egdi.

— Xato qildim. Seni ham shu tufayli ranjitdim. Endi bu yo'l xato bo'lganini angladim. Qulog'imga erigan qo'rg'oshin quysalar,

tan-badanimni bir-bir chopsalar, ko'zimga mil tortsalar ham bu qadar azob chekmagan bo'lurdim. Yolvorib aytay: otang yoniga borib, menga omonlik tila. Seni yaxshi ko'radi, ranjitmaydi. Shunday qilaqol. O'tgan yaxshi kunlarimizdan bir xotirot bo'lishi uchun shunday qilgin.

Xonsulton boshini ko'tardi. Olloh adolatini ko'rib, sajdaga bosh urgisi keldi. Bir vaqtlar o'zi erining oldida tiz cho'kib, oyoqlarini o'pib, otasiga qarshi isyon ko'tarmaslikni o'tingan edi.

Qo'lini ochdi:

— Ollohim, sen naqadar buyuksan!..

So'ngra Usmonxonga o'girilib dedi:

— Bir jon uchun yaltoqlanish sizga yarashmaydi, Usmonxon. Oyoqqa turingiz va bu yerda aytganlaringizni huzuriga borib padarimga ham so'ylangiz. Balki qilmishlaringizni unutib, sizni afv qilar.

Usmonxon urinish befoyda ekanligini tushundi. Neki qilmasin, Xonsulton yumshaydigan ko'rinmaydi. Gandiraklab, tashqariga chiqdi. Eshik oldida kutib turgan Sarkashga:

— Umid yo'q, — deya bir og'iz gap bilan ahvolni bayon etdi.

Baravar ketdilar.

— Qabul qilmadimi?

— Yo'q. "Otamning yoniga o'zing borib yolvor, balki afv etar", deydi. Bundan boshqa chora ham yo'q, shekilli.

— Hujumga hozirlanishyapti. Berilgan muhlat o'tay deb qoldi. Mabodo borish niyatingiz bo'lsa, tezlashing.

Usmonxon Sarkashdan ko'zini olib qochib, javob qildi:

— Ha, boraman, Sarkash, boshqa choram yo'q.

Ko'p o'tmay ustiga tobut ortilgan otni yetaklab qal'adan chiqdi. Xalq qattiq zulm o'tkazgan bu odamning hozirgi ayanchli ahvoliga qarab turar, ba'zilar kulmoq istasa-da, kula olmasdilar. Chunki ular mansub bo'lgan islom dinining hatto zolim bo'lishiga qaramay mag'lub ustidan kuldirmaydigan shafqatli qoidalari bor edi...

Usmonxon ot yetaklab qal'adan chiqqani to'g'risida xabar olgan Temur Malik olti kishi bilan unga peshvoz chiqdi. Bir tepa ustida Usmonxonni kutdi. Yaqinlashgach, ot ustiga tobut yuklanganini ko'rdi, lablariga tabassum yugurdi.

— Osiy, afv so'ragani kelayotir, — dedi u asta.

U Usmonxonga bir og'iz so'zlamay, to'g'ri sultonning chodiriga boshlab ketdi.

Usmonxon qaynatasini ko'rar-ko'rmas o'zini yerga otdi. Oyoqlariga yuzini surdi. Temur Malik va boshqa beklar jonini qutqarish uchun past ketgan bu kishiga achinib nazar tashlab turishardi. Birortasining ko'nglida kin-u adovat hissi uyg'onmadi. Bir necha daqiqa sukut ichida o'tdi. Nihoyat sulton Alouddin Muhammad bir-bir so'zladi:

— Hech bir xonning sultonga salomi senikiday bo'lmas, Usmonxon. Xonlikni ikki pul qilding.

Usmonxon yig'ladi. Hiqillay-hiqillay:

— Avf qiling, sultonim, siz buyuksiz, siz ulug'siz. Men kabi ojiz bir qumursqani ezmang, — deya iltijo etdi.

Sulton oyoqqa qalqdi.

— Qumursqami, — dedi u, — yoki chayonmi?

— Sultonim...

— So'yla, nodon!..

— Tobutim otim ustida. Ichida o'tkir qilich bor. Agar afv qilmasalar, sultonim tobut yasatib, o'zini urintirib qo'ymasinlar deya tayyor holda keldim. Boshim qo'lingizda, ne qilsangiz ixtiyoringiz, sultonim.

Bu so'zlardan keyin sulton Alouddinning ko'ngli yumshadi. Chodirdan chiqib otni ko'rdi. Ustidagi tobutni tushirishni buyurdi. Qopqog'ini ochtirdi. Haqiqatdan, tobut ichida o'tkir qilich bor edi. Sulton qilichni olib, chodirga qaytdi. Usmonxonga o'girildi:

— Qizimiz nechuk?

— Haqqingizga duo qilmoqda, sultonim.

— Agar uning bir tola mo'yi...

— Kim bunga jur'at etadi, sultonim? U sog'-salomat, kanizaklari bilan qal'ayi darunda o'tiribdi.

— Endi daf bo'l, darhol qal'a darvozalarini askarlarimga och. Sening taqdiringni keyin hal etamiz.

Usmonxon tislana-tislana chodirdan chiqdi. Qanday kelgan bo'lsa, shunday — sassiz-sadosiz qal'aga qaytdi.

Omon qolgani uchun boshi osmonda. Ammo unga beriladigan jazo qancha vaqtga kechiktirilarkin? Qaynatasi hech qanday ko'rsatma bergani yo'q, faqat kutishni buyurdi, xolos. Uni qatlga hukm

etsa-chi? U holda Usmonxon mansub bo'lgan qoraxoniylar sulolasi tugab bitadi. Ehtimol, shundan keyin qoraxoniylar davlat ham barpo etolmas, el ham bo'lolmas edi.

O'yladi-o'yladi, keyin qal'a darvozalarini ochtirdi. Xorazm askarlari qal'aga quyundek yopirilib kirdi.

Sulton to'ppa-to'g'ri ichkari qal'aga ketdi. Sultonning qizi bilan ko'rishuvi har qanday tosh yurakni ham eritib yuborardi. Temur Malikning ko'zlari ham yoshlandi, u ko'z yoshlarini yashirish uchun boshini chekkaga burishga majbur bo'ldi.

Yosh ayol bo'lib o'tayotgan barcha hodisalardan boxabar edi. Biroq u qal'a urushsiz taslim bo'ladi, deb hech o'ylamagandi.

Otasini ko'rib sevinchdan ayolning yuragi hapriqdi.

— Sulton otajonim! — deya qichqirgancha u o'zini otasining quchog'iga otdi, ho'ng-ho'ng yig'ladi.

Sultonning ko'z yoshlari shashqator bo'ldi. Ko'z yoshlarini boshqalar ko'rmasligi uchun barchaga xonadan chiqib ketishni buyurdi. Qizi bilan bir soatcha yolg'iz suhbatlashdi.

Sulton tashqariga chiqqanida g'azabdan bo'g'riqib ketgandi. Qizi Xonsulton Usmonxonni afv etmaslik kerakligini, aybidan o'tilgan taqdirda eri kelgusida yana isyon ko'tarajagini aytgan edi.

Qizining aytishicha, Usmonxon xorazmliklarga past nazar bilan qaragan, fursat yetdi deguncha qoraxoniylar davlatini yangidan tiklashini aytib rosa og'iz ko'pirtirgan.

Sulton darg'azab bo'ldi. Eshik yonida hozir-u nozir Temur Malikka:

— Tezda Usmonxonni topib keling! — deya amr berdi.

Temur Malik mahramlari bilan Samarqandning keng ko'chalarini oralab ketdi.

Bu orada Usmonxon tayyorgarlik ko'rib bo'lgan edi. U sultonning marhamatiga ishonmadi. Shu bois Sarkash bilan qochib qolishni rejalashtirgandi. Xazinasini tuyaga ortib, qal'aning orqa darvozasi tomonga olib borib qo'ygandi. To's-to'polon tinchimasdan ilgari qal'adan chiqib ketmoqchi edi u. O'z-o'zini bog'lab, taqdiri qanday hal bo'lishini kutib o'tirish g'irt nodonlik-da, axir! Kelgusida imkoniyat paydo bo'lishi bilan qoraxoniylar davlatini barpo etadi, o'shanda Xorazmshohga qon qustiradi.

Baxtga qarshi Temur Malik uni qidirib topdi. Darboza ostonasidan endi hatlagan ham ediki, orqadan "To'xta!" degan tovush keldi.

Usmonxon to'xtamadi. Sarkash darhol sadog'idan o'q chiqarib, Temur Malikni mo'ljallab otdi. Temur Malik chapdastlik bilan egilib qoldi. O'q uning ustidan vizillab o'tib, orqadagi soqchining ko'ksiga qadaldi.

— Ooooh!..

Temur Malik otini niqtadi. Yashin tezligida Sarkashga tashlandi.

— Mana senga, buzg'unchi!..

Usmonxon qilichini sug'urdi. Ovozining boricha qichqirdi:

— Askarlarim, tez keling bu yoqqa!

Usmonxon o'ziga qoraxoniylardan soqchi olgan edi. Soqchilar qal'aning orqa darvozasi yonida navbatchilik qilishar, mushkul vaziyatga tushguday bo'lsa Usmonxonni qochirib yuborishga shay turardilar.

Usmonxonning ovozini eshitib, soqchilar yugurib chiqishdi. Ular qiyqirishganicha Temur Malikning yigitlariga hujum qildilar. Soqchilar son jihatdan ko'pchilik bo'lsa-da, Temur Malik bo'sh kelmadi. Temur Malikning butun fikri-zikri Usmonxonni qo'ldan chiqarmaslikda. Sultonning huzurida hech qachon boshi xam bo'lmagan. Bundan keyin ham u xijolatdan yer chizmasligi kerak.

— Uring, arslonlarim! — deya hayqirdi u. Uzun qilichini sug'urib, raqiblar boshiga soldi.

Ko'p o'tmay Usmonxonning tevaragidagi jonli halqa buzildi. Qoraxoniy soqchilar qon qusa boshladilar.

— Soling, ha, shunday! Ko'z ochirmang!

— E, bular qashqir galasiday ko'p, tugab bitmayotir...

— Ol buni, bir tatib ko'r!

Temur Malikning jangchilari abjirlik bilan qilich urishtirishdi, turli usullar qo'llab, raqiblarini shoshirib qo'yishdi.

Temur Malik Usmonxonga ancha yaqinlashdi.

— Qilichingni tashla! — deya hayqirdi u.

Usmonxon dahshatli bir qahqaha otdi-da, dedi:

— Kelib olaqol!

— To'ng'iz qo'pasan, badbaxt!

— Oldin o'zingni u dunyoga jo'nataman.

— Bunga kuching yetmaydi...

— Ol, bo'lmasa!

Usmonxon birdan hamla qildi. Temur Malik shu onda otini yon tomonga oldi, ayni zamonda egilib, chap berdi.

— Eplolmading, endi ko'r buni!

Shasht bilan ko'targan qilichini shiddat-la Usmonxonning boshiga soldi. Dubulg'a tunukaday ezildi. Usmonxonning og'iz-burnidan qon ketdi. Yuztuban yiqildi.

Temur Malik hayron qarab dedi:

— Olloh! Olloh! Men qilichning orqasi bilan urgan edim-ku...

Ot ustida turib egildi. Usmonxonning kamaridan ushlab tortib, otga o'ngardi. Yigitlariga yuzlandi:

— Bularning ishini bitirib, qal'aga boring.

Isyonkorni sulton huzuriga tiriklay yetkazish uchun otini yeldirib, ko'chalardan yashin tezligida o'tib, ichkari qal'aga yetib bordi.

Usmonxonni quchog'iga olib otdan tushirdi. Ust-boshi qonga belanganiga parvo ham etmay, zinapoyalardan hatlab, sulton huzuriga kirib bordi. Usmonxonni sultonning oyoqlari ostiga tashladi.

— Qochib ketayotgan ekan. Yaxshiyamki, ulgurdik. Biroq ustimizga soqchilarni tashladi. Urushdik, natijada bu holga tushdi.

Sulton Alouddin Muhammad kuyoviga ancha tikilib turdi. So'ng so'radi:

— Tirikmi?

Shu yerda turganlardan biri egilib, Usmonxonning ko'kragiga quloq bosdi.

— Hali tirik.

Sulton boshini o'girdi.

— Isyonkorlar qilmishiga yarasha jazo olur!

So'ng askarlarga:

— Olib keting! — deb buyurdi.

Askarlar Usmonxonni sudrab chiqishdi.

Sulton anchagacha jim qoldi, o'yga tolgandek ko'rinardi. Keyin asta oyoqqa turdi. Boshini mag'rur ko'tardi.

— Samarqandliklarning jazosi ne? — deya o'rtaga savol tashladi u birdan.

To'ng'ich darhol javob berdi:

— Hammasini qilichdan o'tkazmoq kerak.

Nishobur uni quvvatladi.

— Balli! Shunday qilmoq kerakki, yana bir bor bosh ko'tarishga jur'at etmasinlar.

Temur Malik ularni kuzatganicha jim turar edi. Sulton bu gal unga xitob qildi:

— Sen ne deysan, Temur Malik?

— To'ng'ichxon shoshqaloqlik qilyapti, sultonim, mening fikrim boshqa. Xalq zulm ostida ezilgan. Adolat bilan hukm chiqargan yaxshi. Shu yo'l bilan raiyatni o'z tomonimizga tortamiz. Hatto, isyonga qo'shilganlar ham afsus-nadomat etgusi.

— Isyonchilarni ham afv etish kerak deysanmi?

— Avf sultonimizning irodasiga bog'liq.

Sulton soqolini tutamladi.

— Balki raiyatni afv etarman, ammo isyonchilarni aslo kechirmayman! Ularning kallasi ketadi.

— Bunday qilsangiz necha yillar davomida qaynashdan to'xtamaydigan fitna-fasod qozoni ostiga olovni o'zimiz yoqqan bo'lamiz, sultonim.

— Ne demoqchisan?

— O'ldirilgan har bir isyonchining bolasi sulton va davlatga dushman bo'lajak, otasi yoki yaqinlarining qasosini olish niyatida ulg'ayajak. Qulay fursat keldi deguncha bosh ko'tarajak.

Sultonning yuziga zaharli va makkorona bir tabassum yugurdi. Temur Malik sultonni bu holda hech ko'rmagan edi.

— U taqdirda isyonchilar o'g'illari va yaqinlari bilan birga qatl etiladi.

— Bu nihoyatda katta fojia!

To'ng'ichxon ruxsat ham so'rab o'tirmay oraga suqildi.

— Sultonim, bu kishi sizga aql o'rgatmoqchilar, yetar, haddini bilsin!

Temur Malik To'ng'ichxonga et junjiktiradigan bir tabassum bilan tikildi.

— Haddim qayerda ekanini ko'rsatish senga qoldimi, To'ng'ich?

Sulton jahl bilan yer tepdi.

— Jim bo'ling. Huzurimda aytishmoq katta ayb ekanini bilmaysizlarmi? Yoki kallalaringiz og'irlik qilib qoldimi?

To'ng'ichxon qaltiradi, yelkasini qisib, orqaga tislandi. Biroq Temur Malik seskanmadi ham. Hurmat ohangida, qat'iy sasda javob berdi:

— Davlat, raiyat yo'lida tikilgan boshni faqat kofir qilichi kesishi mumkin, xolos... Ijozatingiz bilan...

Temur Malik orqaga tislanib, tashqariga chiqmoqchi bo'ldi.

— To'xta, Temur Malik!

Temur Malik shu zahoti eshik yonida g'oz qotdi.

— Amringizga hozirman, sultonim!

Sulton bir lahza taraddudlandi. So'ng qat'iyat-la Temur Malikka yaqinlashdi. Dag'al tovushda dedi:

— Keyingi vaqtda haddingdan oshib ketding. Seni allaqachon jallod qo'liga topshirmog'im kerak edi, ammo qilgan xizmatlaringni unutolmayman. Bor, o'z-o'zingni zindonga tashlat. Sen to'g'ringda keyinchalik hukm chiqaraman. Lekin umidvor bo'lmay qo'yaqol, negaki o'lim hukmi ham chiqishi mumkin.

Temur Malik achchiq kuldi. Qo'llarini ko'ksiga qovushtirib, Alouddin Muhammadga ta'zim qildi.

— Biz siz uchun o'lmoqqa shaymiz, ammo siz biz uchun tirik bo'lsangiz bas, sultonim!..

Boshqa bir so'z demay, xonadan chiqdi.

Qipchoq xonlari hayratdan baqrayib qoldilar. Bunday jasorat va fidoyilik ularning tushiga ham kirmas edi.

Biroq ular xursand. Qipchoq xonlari o'zlariga eng katta dushman deb bilgan Temur Malik zindonga tushdi, ehtimol qatl etilishi ham mumkin.

* * *

Qora Chovush ismli zindonboshi Temur Malikni ko'rishi bilan irg'ib turib, shamdek qotdi. Yamayotgan ko'ylagi ham yerda qoldi.

— Amringizga muntazirman, qo'mondonim.

Temur Malik uni ko'pdan beri tanir edi. Ko'p yillar jang maydonlarida birgalikda qilichbozlik qilishdi, issiq-sovuqni barobar tatishdi. Ammo Temur Malikning ko'nglida unga nisbatan na mehr,

na do'stlik tuyg'usi uyg'onmagandi. Qora Chovushning zindonboshi ekanini ko'rishi bilan "Endi ishini topibdi" degan xayol o'tdi ko'nglidan. So'ng unga dedi:

— Endi qo'mondon emasman, Qora Chovush.

— Nega endi, so'rasam bo'ladimi?

— Mayli, so'rayqol. Rutbamdan tushirildim va bu yerga zindonga tushish uchun jo'natildim.

— Bu bo'lishi mumkin emas.

— Dunyoda bo'lmaydigan ish bormi, Qora Chovush? Har qanday ish bo'lishi mumkin.

— Axir, sultonga ko'p xizmatingiz singgan.

— Men sultonga xizmat qilganim yo'q.

— Iye, kimga bo'lmasa? Shuncha yil kim uchun qilich ko'tardingiz?

— Alouddin Muhammad uchun deb o'ylayapsanmi?

— Bo'lmasa-chi, undan boshqa kim bo'lardi?

— Undan boshqasi bor.

— Sultondan ham ustun ko'rganingiz kim o'zi?

— Xalq!

— Xalq deysizmi? Evoh, xalq uchun boshimni tahlikaga qo'ydim deng, shundaymi? Xo-xo-xo. Aybga buyurmang, o'zimni tutolmadim. Ko'p ajab gap aytingiz, hazillashayotirsiz chog'i.

Temur Malikning ko'zlari porladi.

— Aksincha, juda jiddiy aytyapman. Sulton ham xalqning xizmatkoridir.

Qora Chovush cho'chib, atrofga olazarak boqdi.

— Jim, jim, birov eshitib qolmasin...

— Menga baribir!..

— Bilishimcha, sultondan qattiq xafa bo'lgansiz.

— Yo'q, unga achinyapman, xolos.

— Nega endi?

— Mantiq emas, hissiyotiga ko'ra hukm chiqarmoqda. Shunday ketaversa kelgusida boshiga ko'p ish tushishi turgan gap.

— Bundoq gaplarni aytishga qanday jur'at etdingiz, Temur Malik!

— Dilimda borini aytdim...

O'rtaga jimlik cho'kdi. Sukunat uzoq surdi. Xonada pashsha uchsa ovozi eshitilardi. Nihoyat zindonboshi sukunatni buzdi. Osilib qolgan mo'ylovini burab-burab dedi:

— Vallohu billohi aytganlaringiz Lavhul Mahfuzdagi yozuvlar singari to'g'ri.

Yana jim qolishdi... Bu safargi sukutda yoqimsiz bir narsa borday edi. Zindon ichidagi rutubat va mog'or hidi dimoqqa urilayotganidan shunday tuyulgandir ehtimol.

— To'g'rilikka to'g'riku-ya, ammo bu mamlakatda to'g'ri so'z aytganning uyi kuyadi. Yo shundoq emasmi, Temur Malik?

— Shunday bo'lsa-da, men to'g'risini aytaman.

— Sultonga qo'rslik qilgandirsiz-da...

— Sulton shunday deb o'ylagan bo'lsa kerak.

— Ha, bilaman. Avvaldan shundoqsiz, kimsadan tap tortmay to'g'risini so'zlaysiz. Ichingizdagini yashirib o'tirmay, shartta aytasiz. Har holda sulton ham shu tufayli sizni yoqtirardi shekilli...

— Balki shunday bo'lgandir...

— Endi sultonning sabr kosasi toshibdi-da...

Yana jim qolishdi. Biroq bu gal sukunat uzoq surmadi. Bo'g'iq, kishini seskantiradigan bir faryod dahlizda aks sado berdi.

— Bu nedir? — so'radi Temur Malik.

— Bu bir darvesh. Bir yildan beri qamoqda. Hushiga tushsa ana shunday baqiradi. Har holda shundan huzurlanadi.

— Aybi ne?

— Aybimi? Eslab ko'ray-chi. Yo Rabbiy, ne edi u? Ha, topdim: uning hech bir gunohi yo'q! Ismi Abdulkarim, ko'p dono kishi. Xohlasangiz sizni uning hujrasiga olib boray. Dunyo kezib, ozib-to'zgan bir banda. Hibsga tushganidan so'ng esi kirar-chiqar bo'lib qolgan, yarim jinni. U hadeb ya'juj-ma'juj chiqadi, bu yerlarni istilo qiladi, deb vaysaydi. Sulton haqida kurakda turmaydigan gaplar aytadi, nom-nishonsiz bir orolda o'ladi, deydi.

— Yo'g'-e?!

— Ha, shunday, Temur Malik. Bu yerga tushgan odam aqldan ozmay qolmaydi. Qamoq ana shunday bir joy. Hatto, men ham bu ishdan mamnun emasman. Ochiq havoga chiqqisi, olamni ko'rgisi keladi kishining. Qayerda deysiz, imkon yo'q, xuddi mahbuslar

singari doim shu yerda bo'lishga mahkumman. Faqat mening mahkumiyatimga pul to'lashadi, farqi shu, xolos.

— Mayli, meni o'sha odamning yoniga qama.

— Dali Darvesh yonigami?

Temur Malikning ovozi bo'g'ildi.

— Dali Darvesh deysanmi, Abdulkarim deysanmi, xullas, o'sha odamning yoniga qama meni. Bunga bir monelik yo'qdir har holda.

— Qanaqa monelik bo'lardi? Faqat bu hujralarga qamaladigan mahbuslarga kishan uriladi. Sizga kishan urolmayman.

— Nega endi?

— Yo Xudoyim-ey, naqadar sovuqqon bir odamsiz!..

— Qon qizisa miyaga uradi, to'g'ri fikrlashga xalaqit beradi.

— Ko'rmaganimdan buyon faylasuf ham bo'pqopsiz.

— Qariya, gapni cho'zma. To'g'risini ayt, meni Dali Darveshning hujrasiga qamaysanmi, yo'qmi?

— Sizni qamashim mumkinligiga chindan ishonyapsizmi?

— Bu ne deganing?

— Yaxshi-yomon kunlarda birga bo'lganmiz. Bu zindonga tushgan osonlikcha chiqmaydi, chiqsa-da sog' chiqmaydi. Ko'p holda unutishadi. Axir, sizni o'z qo'lim bilan ajal qo'liga topshirolmayman...

Temur Malikning ko'zlarida uchqunlar chaqnadi.

— Shu gapni bilib gapiryapsanmi?

— Albatta...

Zindonbon ishshaydi. Temur Malik bir tortishda qilichini sug'urdi.

— Sultonimizning amrini darhol vojib etmasang, kallangni sapchaday uzib tashlayman.

Qora Chovushning rangi o'chdi, dudoqlari titray boshladi.

— Men sizni qutqarmoqchiman, axir, — deya ming'illadi u.

— Ya'ni sultonimizning amriga qarshimisan?

— Alhazar, alhazar...

— Unday bo'lsa, meni hibsga tashla. Meni shuning uchun yuborishdi, vazifangni bajar.

Qora Chovush hayratdan qotib turardi. Temur Malik qilichini teskari tomonga o'girib, uchidan tutgan holda uzatdi.

— Qilichimni ol. Mahbusda qilich bo'lmaydi.

— Ammo...

Temur Malik ovozini bir parda ko'tardi:

— Vazifangni bajar, dedim.

Zindonbon ko'rdiki, boshqa chorasi yo'q. Bu kishi ne qilib bo'lsa-da, hibsga tushmoqchi. Ikkilana-ikkilana qilichga qo'l uzatdi.

— Bering...

Temur Malik xotirjam bo'lib, chuqur nafas oldi.

— Endi qo'lingdaman. Istasang, meni Dali Darveshning yoniga obor...

Qora Chovush hayratdan mo'ylovini tortqiladi. Kirlanib ketgan sallasini boshining orqasiga surdi.

— Eh, — dedi u. — Modomiki, shuni istar ekansiz, siz aytgancha bo'lsin. Qani, oldimga tushing.

Oldin et junjiktiradigan bir faryod, keyin bo'kirgan tovushlar eshitildi. Ammo hech narsani anglab bo'lmadi. Zindonbon dedi:

— Agar xohlasangiz boshqa hujraga qamay.

Temur Malik bosh chayqadi.

— Yo'q, o'sha hujraga olib bor.

— O'zingiz bilasiz.

Ko'p o'tmay hujra eshigiga yetib kelishdi. Zindonbon temir eshikni kattakon kalit bilan ochib, Temur Malikka yo'l berdi.

— Bu yer saroy emas, Temur Malik. Ammo boshqalaridan ancha yaxshi. Oyog'ingizdagi kishanga uzun zanjir urdiraman, shunda hujra ichida qiynalmay kezish mumkin bo'ladi. Biror narsa kerak bo'lsa, ovoz bering, hamon yetib kelaman. Endi aytadigan birgina tilagim bor, xolos: "Boshingizni Olloh balodan qutqarsin".

Temur Malik zindonbonga diqqat bilan tikildi. Tomdagi tuynukdan tushgan g'ira-shira yorug'da zindonbonning yuzini ko'ra olmadi. Biroq ovozidan uning yig'layotganini sezdi. Qo'lini yelkasiga qo'ydi.

— Omon bo'l, do'stim. Ko'rinishing boshqa, qalbing boshqa ekan.

Qora Chovush tiz cho'kdi. Paypaslab, zanjirning halqasini topdi. Xafaqon bir sas-la so'radi:

— Ko'rinishdan juda zolim odamga o'xshasam kerak, a?

— To'g'risini aytganda, men ham seni xush ko'rmas edim. Endi bilsam, badro'y yuz orqasida go'zal bir qalb yashiringan ekan.

— Oldinlari bunaqa emasdi, botirim. Har holda bu yerda iztirob chekkanlarni ko'raverib qalbim yumshadi. Bor gap shu. Sizni Ollohga topshirdim.

— Yaxshi borgin, Qora Chovush...

Zindonbon oxirgi marta eski og'aynisiga tikildi.

— Olloh najot bersin, — dedi u yana.

So'ng eshikni g'ijirlatib yopdi, qulfladi-yu ketdi.

Eshikning g'ijirlashi asablarini qaqshatdi. Qulf ichida aylangan kalitning shiqirlagan tovushi gumburlab, qulog'ini qomatga keltirgandek bo'ldi. Endigina uyg'ongan odamdek uyqusiragan tovushda o'z-o'zidan:

— Nega bu yerga tushdim? — deb so'radi.

Biron ayb ish qilgan bo'lmasa. Vaholanki, zindonga aybi borlar tushadi. Aybi yo'q ekan, uni nega hibsga tashlashdi?

Qalbiga quloq tutdi. Aybdor kishilarda bo'ladigan behuzur etadigan behalovat hislardan asar ham yo'q. Qalbi har doimgiday vatan ishqi, din shijoati ila limmo-lim. Xo'sh, unda bu go'zal tuyg'ularining mukofoti zindon bo'ldimi?!

Yo'q, yo'q. Bunday emas. Sulton uni aybdor deb topdimi, binobarin, qandaydir aybi bor. Gunohi ne ekanligini balki o'zi ham bilmas.

Unga zindonga tushgani alam qilayotgani yo'q, aslo. Yuragini o'rtayotgan, miyasini parmalayotgan boshqa narsa!

Temur Malik raiyatni, mamlakatni o'ylab ichdan zil ketmoqda edi. Boz ustiga, Sulton Alouddin Muhammad o'ylamay-netmay, gunohi bor-yo'qligini surishtirmay odamlarni zindonga tashlashga odatlansa oqibat ne bo'lur, deya xavotir olayotgandi u. Temur Malik sultonning zolimga aylanishini, to'g'rilarni e'zozlamay, egrilarni taqdirlashini hech istamas edi. Sulton bo'lgan kishi mukofot ham, jazo ham berishi kerak, albatta. Ammo bu borada adolat yo'lidan toyib, zulm chohiga tushmaslik lozim. Alouddin Muhammadni bu tubsiz choh yoqasida ko'rishdan Temur Malikning dili vayron edi.

Shubhasizki, endi sulton qipchoq xonlarining nog'orasiga o'ynaydi. To'g'risini aytgan kishilarni zindonga tashlatib, kishan band etish davom etarkan, sulton zulm chohining tubida qolaveradi. Ajabo, shahzoda Jaloliddin otasini o'z vaqtida ogohlantirib, zulmdan

tiya olarmikan? Yagona umid Jaloliddindan. Biroq sulton unga quloq osishiga ko'pam ishonmas edi. Sulton Jaloliddinni davlat ishlaridan uzoqlashtirish maqsadida valiahdlikdan tushirdi-ku. Buning tagida qanday tahlika borligini o'ylasa yuragi orqasiga tortadi. Olloh saqlasin, agar sulton Muhammadga bir kor-hol bo'lsa, butun idora ishlari kichik o'g'li O'zloqshohga, ya'ni Turkon Xotunga qoladi. Buning natijasi yomon bo'lishi ayon. Har tomon alg'ov-dalg'ov bo'lib turgan bir vaqtda mamlakat bo'ylab sepilgan ayirmachilik urug'lari nish urib, yomon oqibatlarga olib boradi. Bir tomonda bu g'avg'olar, ikkinchi tomonda isyonlar, yana bir tomonda Chingizning pakana otliqlari... Buning ustiga u zindonda...

— Hoy!..

Bu sasdan Temur Malik o'ziga keldi. Yonginasida bir ko'lanka turardi.

— Sen ham o'sha zolimning qo'liga tushdingmi-a?

— Qaysi zolimning?

— Sulton degan odamning!..

Temur Malik qat'iy e'tiroz ila qichqirdi:

— U zolim emas!

— Iye! Unday bo'lsa bu yerda nima qilib o'tiribsan? Yo qotillik qildingmi?

— Urush maydonidan tashqari bir pashshani ham ranjitmaganman.

— Balki qaroqchilik qilgandirsan?

— Tilingizni tishlab gapiring! Men qaroqchi emasman.

— Ha, bildim, bildim. Sen sultonning haramiga kirgan bo'lsang kerak...

— O'ylab so'ylang dedim-ku, oqsoqol!..

— Nega jizzakilik qilasan? Uni qilmagansan, buni qilmagansan, nima, bu yerga o'z oyog'ing bilan keldingmi bo'lmasa?!

— Xuddi shunday, topdingiz.

— Qulog'im yaxshi eshitmadi chog'i...

— Yo'q, eshitganingiz to'g'ri.

— Ya'ni bu yerga o'z xohishing bilan kelgansan, shundaymi?

— Sulton buyurdi, men keldim.

— Soqchilarsiz?

— Sultonning amri mening soqchimdir.

Mo'ysafid uzun qalin soqolini siypadi, oyog'idagi zanjirni tortib, shaqirlatdi. Yerga tiz cho'kdi.

— Ey Ollohim! Meni jinni degan aqlli qullaringga biroz aql ehson etgilki, ular o'z oyog'i bilan zindonga tushmasinlar.

Zo'rg'a qaddini ko'tarib, Temur Malikning ko'ksiga barmog'ini nuqidi.

— Senga buning ne keragi bor edi, yigit?

— Buni sultonimiz biladilar.

Ikki qadam tisarildi.

— Sen jinni bo'lsang kerak.

Temur Malik kulimsiradi.

— Balki jinnilar o'z orasidagi aqlli kishini jinni deyishar.

— Ya'ni, seningcha, tashqaridagilar aqldan ozganmi?

— Juda bo'lmaganda, telbanamo harakatlar boshlashgan.

— Ha, shundog' bo'lishi kerak edi!

— Nima?

— O'z vaqtida menga ishonganlarida bu ahvolga tushmagan bo'lishardi. Sulton Muhammad ilgari bunday emasdi. Endi u zulm qilishga o'tdi. Og'ir soliqlar bilan raiyatni ezdi. Yomonlarga ko'p amal-martaba berib, qo'lini uzaytirdi. Shunday bir bosh og'rig'i orttirdiki, ilalabad undan qutulolmaydi. Zotan boshining o'zi ham omonat.

— Siz juda qat'iy so'ylayapsiz, vaholanki, g'ayb faqat Ollohning o'zigagina ayondir.

— Ha, shundoq. Lekin aqli so'qirlashgan menday darveshlarga Olloh ba'zi narsalardan mujda beradi.

Darvesh uning qo'lidan tortdi.

— Qani, o'tir, bir dardlashaylik. Meni dali deyishadi. Bularda valiy bilan dalini farqlaydigan darajada farosat yo'q.

— Ya'ni siz avliyomisiz?

— Yo'q, men faqat tashqaridagilar dali bilan valiyni farqlaydigan so'qir kimsa ekanligini aytdim, xolos. Ularning aqli yetmaydigan bir gapni so'ylasang, senga darrov "jinni" yorlig'ini yopishtirishadi. Chunki hech kim tinchini buzgisi kelmaydi, ish qilish mashaqqatidan qutuladi.

— Siz ne dedingizki, dali dedilar?

— Qani, o'tir, aytib beray.

Yonma-yon o'tirishdi.

— Ko'p kezdim, — deya so'z boshladi Dali Darvesh. — O'n yoshli bola chog'imda otamdan xafa bo'lib, uydan chiqib ketdim. Ya'juj-ma'juj o'lkasiga ham yo'lim tushdi, Chingizxon kimligini bilib oldim.

Temur Malik sakrab turdi.

— Chingizxon dedingizmi?

— Ha, Chingizxon. O'sha paytlari uni Temuchin deyishardi. Botir yigit bo'lgan. Aytishlaricha, tug'ilgan payti hovuchining ichida bir tomchi qon bor ekan. Kohinlar bu bola ulg'aysa ko'p qon to'kadi, deb karomat qilishgan. Ko'p qon to'kdi ham... Yana qanchadan qancha qon to'kajak...

Chuqur nafas oldi.

— So'rab-surishtirdim, uni bilganlar bilan tanishdim, ko'rishganlar bilan uchrashdim va yetarli ma'lumot to'pladim.

Bir yo'talib olgach, so'zida davom etdi:

— Chingizxon besh yuz elliginchi to'ng'iz yilida O'nun daryosining o'ng sohilida joylashgan Dulun Bo'ldoq degan joyda tug'ilgan. U chinliklar "qora tatar" deb ataydigan qavmga mansub. Otasining ismi Yasugay Bahodur. U o'lgan vaqtda Temuchin o'n ikki yoshda bo'lgan. Yasugay Bahodur o'lgach, uning qo'li ostidagi qabilalar tarqalib ketgan. Kichik Temuchin onasi va ukalari bilan O'nun daryosida baliq tutib kun kechirgan. Temuchin voyaga yetgach, otasining qo'li ostida bo'lgan qabilalarni birlashtirishga kirishdi. Biroq u bir nechta qabilaning boshini biriktirishga erishdi, xolos. Shundan keyin tog'larda qaroqchilik qildi. Tarafdorlari borgan sari ko'paydi. Oxiri uni xon deb e'lon etishdi. Navkarlari unga qasamyod qildilar. Ular bunday degan:

"Sen bizga hukmdor bo'lsang qarshimizga sahrodagi qum zarralari qadar ko'p dushman chiqsa ham qochmaymiz. Oldingi safda turib, mardona urushamiz. Yo'lingda hech ikkilanmay jon berамiz. Go'zal ayollar, ko'hlik qizlar va zotdor otlarni qo'lga kiritsak, ularning hammasini senga beramiz".

Bunga javoban Chingizxon shunday degan:

"Suruv-suruv otlar va qo'ylar, xotin-xalaj va bolalarni qo'lga tushirib, sizlarga tarqataman. Siz uchun ov uyushtirib, turli-tuman o'rmon hayvonlarini qoshingizga haydayman. Epchillik bilan sharharlarni bosib olaman. Istagan joyingizni yag'molataman, xohlagan kishingizni o'ldiraman. Yengilgan har bir dushmanning otini va xotinini olishga haqli bo'lasiz".

Bu so'zlardan keyin mo'g'ullar: "Lu...lu...lu...lu!" deya baqirishib, mamnun bo'lganliklarini bildirishgan. So'ng Ko'ktangri nomi bilan qasam ichganlar.

— Ko'ktangri nimasi?

— Mo'g'ullar yakka-yu yagona Ollohga ishonmaydilar. Ular Yertangri, Ko'ktangri degan ma'budlarga ishonadilar.

— Astag'furulloh...

— Afsuski, shunday. Mavzuga qaytaylik. Ha, mo'g'ullar qasam ichdi. O'shandan keyin Chingizxonning tarafdorlari yanada ko'paydi. Chingiz o'tovining oldiga xonlik alomati o'laroq to'qqizta bo'z ot quyrug'idan tug' tikdi. Oldiniga o'zini chinliklarning tarafini olganday ko'rsatdi. Keraitlar bilan birlashib, o'z urug'idan bo'lgan buyirnor qabilasi bilan urushdi. So'ng ular bilan ittifoq tuzib chinliklarga qarshi chiqdi.

O'n yil qonli urush bo'ldi. Tovuq yilining boshida qardoshi Jamuqa bilan birlashdi va uni Go'rxon unvoni bilan hukmdor e'lon etdi. Keyinchalik ularning orasi buzildi. Ko'pchilik Chingizni tashlab ketdi. U o'ziga sodiq bir nechta kishi bilan qochdi. Bolchjun sahrosida sarson-u sargardon tentirab yurdi. Ancha vaqt sho'r suv ichishga majbur bo'ldi.

Oxiri hiyla ishlatdi, Jamuqaning qo'shini orasiga nifoq tashladi. Askar yig'ib, bir kuni Jamuqaning ustiga bosqin uyushtirdi va uni tor-mor etdi. Jamuqa navkarlarining ko'pi Chingizning xizmatiga kirgach, u yanada quvvatlandi. O'ng-u so'lga hujum etdi, duch kelganni bosib-yanchdi, yoqdi, yiqdi, vayronaga aylantirdi. Mo'g'uliston sharqidagi qabilalar uning itoatiga kirishga majbur bo'ldilar.

Dali Darvesh chuqur nafas oldi.

— Hikoyam seni zeriktirmadimi, ey, o'z oyog'i bilan zindonga kirgan dali? — deb so'radi u.

Temur Malikning ko'zlari qorong'ilikka o'rgangani uchun qarshisida turgan kishini ko'zdan kechirish imkoniga ega bo'lgandi. Dali Darveshning moviy ko'zlari nurga to'liq. Telba emas, nihoyatda aqlli kishi ekani ko'zlaridan ma'lum.

— Davom eting, Darvesh ota, — dedi Temur Malik. — Aytavering, bilmoqchi bo'lgan narsalarim haqida so'zlamoqdasiz.

— Zotan bu gaplarni aytganim uchun zindonda chiritishyapti. Bundan ortiq ne kelardi qo'llaridan. Eshit...

Yutindi.

— Chingizxon yo'lbars yilida naymanlarga qarshi urush ochdi. Naymanlar eng kuchli qabilalardan edi. Chingizxon g'olib chiqdi. U nayman qo'shinini tor-mor etib, Mo'g'ulistonning g'arbiga ham hukmdor bo'ldi. O'sha yili xoqon unvonini oldi. Bu unvonni unga chinliklar berishdi. Ammo Chingiz shaharda o'tirib hukm suradigan hukmdorlar sirasidan emasdi. U chodirda yashab, muttasil jang qildi. Urush uning asosiy mashg'uloti edi.

Chingiz botir, jasur, ayyor edi. U yerga to'shalgan po'stakda uxlar, yirtiq-yamoq chopon kiyardi. Askari ne yesa, u ham o'shani yerdi. Tabaasidan farqi yo'q edi. Bu fe'li tufayli u muhabbat qozondi. O'z diniga e'tiqodli. Tez-tez baland tepalikka chiqib, Ko'ktangriga iltijo etishi to'g'risida gapirishadi... Zehni o'tkir. "Oilasini boshqara olgan kishi qo'shinni ham boshqara oladi. O'n kishi bilan yuz ming kishini boshqarishning farqi yo'q. O'g'il otasiga, uka akasiga, kelin qaynanasiga, xotin eriga, navkar qo'mondoniga itoat qilgan mamlakatning kuragini yerga tegizib bo'lmaydi", — deydi u. O'zi istagan bunday davlatni barpo etish uchun zulm ham qilgan. Xullas, o'z tabaasini qattiq intizomli qilishga erishdi u. Xo'sh, bu maqtovga loyiqmi yo koyishga?

Dali Darvesh peshonasini tirishtirib, barmoqlari bilan soqolini taradi.

— Chingizning xizmatida musulmonlar ham bor. Masalan, Donishmand Hojib uning o'ng qo'li. Chingizning tarixini asosan undan eshitdim. Uning karvonini Chingizning odamlari talon etgan, odamlarini bandi etib, xoqonga eltishgan. Chingiz Hojibga bir qancha savol bergan, javoblaridan mamnun bo'lgan, boshini kestirish o'rniga o'z xizmatiga olgan. O'shandan buyon Hojib uning yonida.

— Musulmon odam majusiyga xizmat qilishi mumkinmi, axir?! Tushunmadim...

— Men ham... o'zidan so'raganimda ko'ziga yosh oldi, sababi ko'p ekanini aytdi. Kavlashtirib o'tirmadim.

— Chingizni ko'rdingizmi?

— Atigi bir marta ko'rdim.

— Qanday ekan?

— Uzun bo'yli, daroz odam. Zotan mo'g'ullarning ko'pi novcha. Biroq Chingiz hammasidan novcha. Balki shuning uchun ham askarlari uni hurmat qilishadi. Ko'zlari ko'm-ko'k. Yana qanday ko'z de, naq do'zax olovi sochadi. Bir necha tukdan iborat uzun soqoli ham bor. Ba'zan, o'yga tolgan kezlari soqolini qulog'ining orqasiga tashlaydi... Hay, mayli, asosiy gapga qaytay. Hikoyam hali bitgani yo'q. Ichimda bir tuyg'u sen yaqinda zindondan ozod bo'lishingdan darak bermoqda. O'shanda, ehtimol, bu ma'lumotlar kor-holingga yarab qolar. Meni ham esga olarsan. Biznikilar Chingizxonni nazar-pisand qilishmayapti. Ularning eng katta xatosi ham shunda.

— Qani, o'zingiz ayting bo'lmasam...

— Qulog'ingga quyib ol... Donishmand Hojibning aytishiga qaraganda Chingizxon o'qish-yozishni ham bilmaydi. Mo'g'ulchadan boshqa tilda gapirolmaydi. Men ham mo'g'ulcha so'zlasha olaman. Boshqa tillarga qorishgan, ammo ko'p go'zal til. Chingiz o'sha tilda so'zlashadi. Muhr ishlatish ne ekanligini ilk bor naymanlardan o'rgandi va bu unga ma'qul tushdi. Endi uning shahodat barmog'ida muhrli kattakon uzuk bor. Farmonlariga ham, urush safarbarligi to'g'risidagi e'lonlarining ostiga ham o'sha muhrni bosadi... Ammo ko'pincha urush e'lon etmay, birdan hujum qiladi.

Birinchi katta yurishni chinliklar Xsi-Xsia deydigan, biz Tanqut deb ataydigan davlat ustiga qildi. G'olib chiqishga muvaffaq bo'ldi. Xsi-Xsia xoqoni qizini Chingizga xotinlikka berib omon qoldi. Chingiz undan keyin Xonbaliqni oldi. Bir yildan keyin Mo'g'ulistonga qaytdi.

O'sha yili qarluqlar hukmdori Arslonxonni mag'lub etdi. Bu u yenggan birinchi islom davlati bo'ldi. Undan keyin Ili vodiysidagi Olmaliqni yakson qildi. Hukmdorini asir oldi. Bu orada Movarounnahr Xorazmshoh tomonidan to'la zabt etildi. Shu yo'sinda qoraxitoylar tarqalib ketdi. Bir qismi nayman hukmdori Kuchluk itoatiga kirdi.

Dali Darvesh xiyla charchadi. Juldur choponining yengi bilan soqolini siladi, peshonasidagi reza-reza terni artdi.

— Gapning bori shu, — dedi u. — Ammo aytmoqchi bo'lgan gaplarim hali bor.

Temur Malik bu odam qanday qilib bu qadar keng ma'lumot sohibi bo'lganiga hayron qoldi. Undan yana ko'p narsalar bilib olish umidida dedi:

— Davom etsangiz mamnun bo'lardim.

Mo'ysafid qah-qah otib kuldi.

— Dali Darveshni tinglashga ishtiyoqmand odamni endi ko'rishim, — dedi u. — Ochig'ini aytganda, meni biroz shoshirding, yigit. Hatto ismingni so'rashni ham unutdim.

— Ismim Temur Malik.

— Nima?..

— Temur Malik, dedim.

— Endi tamoman hayratdaman. Hayron qolmay bo'ladimi, negaki ismingni Chinda ekanimda eshitgandim. Qahramon, botir, hech narsadan tap tortmaydigan xorazmlik sarkarda ulug' Temur... Demak, oxiri zindonga tushding?

— Ha, shunday...

— Taajjublanmasa bo'ladi, ammo taqdir o'yiniga hayron bo'lmaslik iloji yo'q. Sulton endi din, millat yo'lidagi kishilarni hibsga ota boshladimi?! Xo'sh, aybing ne?

— Aybimmi... Har holda ko'rsatgan bir jur'atim ayb sanaldi, shekilli...

— O'rinsiz jur'at... Aslida o'rinli, ammo o'rinsiz deb topilgan bir jur'at, topdimmi?

— Topdingiz, topdingiz.

— Ko'p og'ir savdo bu, yigit. Inson dini uchun kiprik qoqmay jon fido etadi, ammo birov uchun o'lishi ko'p qiyin. Ilgarilari sulton askar to'plaganida "Olloh yo'lida o'lmoqqa kelingiz" deya jar soldirardi. Endi bo'lsa, zindonbonlarning aytishicha, "Sulton yo'lida o'lmoqqa keling" deya jar soldirayotganmish. To'g'rimi?

— Afsuski, to'g'ri...

— Kayf-safoga mukkasidan ketgan, urush to'g'risida eshitishni xohlamaydigan darajada aysh-ishratga berilgan deyishadi, chindanmi?

— Bu bor gap!

— Oh! Bu davlat barbod bo'ladi, do'stim.

— Nima deyapsiz o'zi?

— Nima ham derdim, tarixning borishi shunday... Chingiz to'g'risida behuda gapirganim yo'q. Ayiq po'stagi ustida uxlashini, navkar yegan taomdan yeyishini, kiygan kiyimini kiyishini bekorga aytdimmi? Askar ana shunday hukmdorni sevadi, uning uchun o'limga tik boradi. Sulton kayf-safo, aysh-ishratga, ipag-u oltinga berilgan bo'lsa holiga voy! O'zini ham, raiyatini ham falokatga yetaklaydi bunday sulton.

— Achchiq gaplar aytayotirsiz, oqsoqol, ammo so'zlaringizda qilcha yolg'on yo'q. Haqlisiz. Biroq sultonni ogohlantirmoqchi bo'lsangiz, yoqmaysiz. Qo'limizdan ne ham kelardi?

— Kim bunga jur'at etsa hibsga tushadi, shunday emasmi?

— Shunday, albatta. Faqat zindon emas, kalla ketishi ham hech gap emas.

— Bu davlat ag'dariladi...

— Og'zingizdan el uchirsin.

— Quloq sol. Ko'p kezdim, ko'p ko'rdim va ko'p narsani bildim. Chingiz bilan talashmang. Bu odam insof ne ekanini bilmaydi. U katta jahongirdir, ammo ulug' hukmdorlarga xos rahm-shafqat, xoqon viqori unga mutlaqo yot. Inson o'ldirish uning uchun shunchaki bir ermak. Begunoh odamlarni qoplonlariga yedirishdan huzurlanadi. Bu tomonga yurish qilsa qattiq turib o'lkamizni himoya eting. Aks holda hamma yoqni yoqib, kulini ko'kka sovuradi. Xorazm ilm beshigi. Chingiz bo'lsa ilm dushmani, qo'liga tushgan kitobni gulxanga otadi. Buning ustiga musulmonlarni ko'rgani ko'zi yo'q. Masjidlarimizga ot ustida kirishi, imomlarimizni otboqarga aylantirishi, qizlarimizning nomusini poymol etishi turgan gap. Bunga chiday olasanmi, sarkarda?

Temur Malik o'rnidan sapchib turdi. Beixtiyor qo'li beliga ketdi. Ammo qilichi yo'q edi. U ming'illadi:

— Ollohning o'zi saqlasin!

— Inshoolloh, o'zi saqlar. Biroq aytayki, qilinayotgan xatolar falokat yo'lini ochadi. Necha yillarki, ogohlantirdim, ammo meni kimsa tinglamadi. Oxir-oqibat telba deb bu yerga tiqdilar. Seni menga Olloh yubordi. Aqldan ozishim uchun hech bir sabab yo'q. Men sultondan xafaman. Meni zindonga tashlatgani uchun emas. Aslida meni zindonga tashlatgan sulton ham emas. Hay, mayli... Nega sulton islom amallariga rioya etmayapti? Ana shunga jahlim chiqyapti.

— Qayerdan bildingiz buni? Sulton Alouddin Muhammad namoz o'qiydi, ro'za tutadi.

Mo'ysafid qo'l silkidi.

— Opqochma, bolam, opqochma... Islom dini faqat namoz-u ro'za bilan belgilanadimi? Islom bir nizomnoma, tuzuk... Dunyo tuzugi... To'g'ri tatbiq etilsa islom hal qilmaydigan masalaning o'zi yo'q... Hatto, Chingiz ham o'zicha qonunlar chiqardi. Bizning qonunimiz Qur'on... Undan qilcha ayrilmasang har narsaga javob topasan. Qur'onda zararli ishlar harom etilgan. Har bir kishiga matlub bo'lmagan narsalar harom. Qo'shning och bo'lganda senga to'qlik yarashmaydi... Naqadar ajoyib qoida. O'qi, ilm o'rgan. Ilm olmoq uchun Chinga ham bordim, Mochinga ham. Bu yerga qaytib kelsam, meni zindonga otdilar. Bir yilcha bo'ldi, bu yerda tuproq chaynab, mog'or hidlab yotibman. Haqiqatni eshitadigan kishi yo'q. Nega zindonga otishdi? Qosh qo'yaman deb ko'z chiqardimmi yo? Yo'q, Ollohga beadad shukur, tayammum etib bo'lsa-da, namozimni kanda qilmadim, o'z vaqtida o'qiyman. Tahoratga suv yetmaydi, zindonbon bir qultum suv beradi, xolos. Goho suv berishni ham unutadi...

Bosh chayqadi.

— Unutilishdek yomon bir narsa yo'q dunyoda, o'g'lim, — dedi u. — Undan yomon narsa yo'q.

* * *

Xorazmshoh Alouddin Muhammad Temur Malikni unutgan edi. Ulug' sarkarda zindonda oyog'i zanjirband holda keksa darveshdan bahra olayotgan bir pallada u qipchoq xonlariga gap uqtirish bilan ovora edi. Oradan olti oy o'tgan bo'lsa-da, sulton o'tirgan joyidan

jilmadi. Onasidan kelgan maktublardan tasalli olib, rohat-farog'atini buzmay yotaverdi.

Turkon Xotun Gurganchda ishlar joyida ekanligi, bosh ko'tarishga uringan ayrim beklarni qipchoqlar yordamida yanchib tashlagani, sultonning istirohatini buzishga hojat yo'qligi haqida yozar edi.

Biroq qipchoq xonlari boshqa fikrda. Ularning yurtidan bir-biridan yomon xabarlar, dasht-u sahrolarga to'lib ketgan qoraxitoy otlari yashil yaylovlarni toptayotgani haqida mish-mishlar yetib kelmoqda. Bundan qipchoq xonlari juda bezovta.

To'ng'ichxon bilan Nishobur yana bir marta Alouddin Muhammad huzuriga borib, dardlarini to'kib soldilar.

— Sultonim, shohim, olampanoh, — dedi To'ng'ich, — yurtimizni qoraxitoylar toptamoqda, shu bois qachondan beri bu Samarqand degan yerda bizning boshimiz xam. Amrlaringiz boshimiz ustiga. Biroq yurtimizni o'ylamasak ham bo'lmaydi. O'sha tomonga yurish qilaylik, dushmanlarimizning adabini berib, urug'doshlarimizni qutqaraylik. Sizning buyukligingiz sharofatidan bahramand bo'laylik. Sizdan boshqa kim bizning boshimizni silaydi? Bizni g'arib-u notavon tashlab qo'yish sizning sha'ningizga yarashadigan ishmi?

Sulton odatdagicha javob qildi:

— Sabr eting, sabr... Bu yerdagi ishlar itmomig'a yetmadi. Xabaringiz borki, Samarqandni poytaxt qilishga qaror berdik. Qasrlar, ulkan masjidlar barpo etmog'imiz kerak. Hozir bo'lsa o'zimiz o'tiradigan bir saroy ham yo'q. Saroysiz sulton sultonmi?

Shu onda o'g'li Jaloliddin ichkariga kirib keldi.

— Assalomu alaykum, olampanoh! — dedi u. — Saroyi bo'lmasa-da, sulton bemalol ish bitirishi mumkin. Ammo tabaasi bo'lmagan sultonning qo'lidan hech narsa kelmaydi. Tabaa bo'lmasa sultonlik ham bo'lmaydi.

Sulton bu luqmani o'rinsiz deb topdi. O'g'liga tikilib qaradi.

— Temur Malikka o'xshab gapiryapsanmi?

— Unday bo'lsa mening joyim ham Temur Malikning yonida bo'lsa kerak. Yo noto'g'rimi, sultonim?

Sulton seskandi. Ilk daf'a Temur Malikni eslagan edi. Ichi zil ketdi. Boshi xam bo'ldi, o'g'liga tan berdi.

— U hali zindondami?

— Soyayi davlatlari ostida...

— Shu boisdan ko'rinmayotgan ekan-da. Biz bir po'pisa qilib qo'ymoqchi edik, xolos. U bizga kerak. Buyuraman, darhol zindondan chiqarilsin va huzurimizga xizmatga kelsin.

Jaloliddin qachonlardan beri alamzada edi. Eng yaqin og'aynisi, jon do'sti zindonda ekan, u o'zini qo'yarga joy topmasdi. Do'stidan tez-tez xabar olib turardi. Hozir ham o'sha yerdan kelgan edi.

Otasi Temurni afv etgach, quchog'iga otildi, qo'lini o'pib, peshonasiga surdi. Sulton kuldi.

— Shunchalik ekanini bilsak, avvalroq chora ko'rgan bo'larmidik. Nega eslatmading? To'g'risi, o'zimiz ham sog'indik. O'g'limizdan yaxshi ko'rgan sarkardamiz bir so'zimiz bilan o'zini zindonga tashlatdi-ya.

— Amringizga muvofiq, sultonim.

— Ha, shunday, biroq... Mayli, endi... Aytgin, ozod etsinlar. Shop-kamarini taqib, huzurimga kelsin. U menga juda kerak.

Jaloliddin ta'zim qilib, tashqariga chiqdi. To'g'ri zindon tomon yo'l oldi. Boshi osmonda, yo'lda ko'ringan tilanchilarga sadaqa ulashib borardi.

TO'RTINCHI BO'LIM

Mayin esgan shabada sahro taftini yuzga uradi. Sahro oftob nuriga ko'milgan. Xorazmshoh suvoriylarining oyog'i ostida qum barxanlari ilma-teshik bo'ladi, ba'zi barxanlar tekislanib ketadi.

Xorazmshoh Alouddin Muhammad qipchoqlarning yuzidan o'tolmay, nihoyat yo'lga chiqqan edi. Sulton Gurganchga borib, katta qo'shin to'plash, qipchoq yurtini qoraxitoylardan ozod etish, undan keyin esa hali o'zi ko'rmagan, dushman deya gumon etgan pakana otli askarlarning payiga tushish niyatida edi.

1216-yil bahori issiq keldi. Yozga yetmasdan daraxtlar ko'mko'k libos kiydi, ba'zi kunlari quyosh olov purkaydi.

Uzoq yurishdan so'ng Gurganchga yetib kelishdi. Sultonni qo'shin boshida ko'rgan raiyat gina-kuduratni unutib, jo'shib ketdi. O'tib borayotgan sultonni olqishladilar. Biroq sultonning qovog'i

soliq. Boshlagan ishidan o'zi ham mamnun emasligi bir qarashda ma'lum. Noma'lum dushmandan qo'rqayotganmidi, ajabo? Qarib qoldi, istirohatdan boshqa narsaga hushi yo'q, degan mish-mishlar bejiz emasmi yo? Kim biladi deysiz. Har holda bu gaplarda jon bor, sulton urushmoqni istamas, bu ishga majburan kirishgan edi. Raiyati oldidagi obro'sini tushirmaslik uchun yangi zafarlar qozonishi lozim.

Sulton o'z saroyiga ketdi. Uch kun hech kim bilan ko'rishmadi. To'rtinchi kuni mahramlariga hozirlanishni buyurdi. Ularning hozir ekanliklari to'g'risidagi xabarni olgach, saroydan chiqdi va onasining ko'shkiga ketdi.

Turkon Xotun ko'pdan beri o'g'lining ziyorat etishini kutar, u kelavermagach, asablari dosh berolmay, yotib qolgan edi.

Sulton kelgani to'g'risida xabar berishgach, ahvoli battar bo'ldi. Turkon Xotun o'g'lini o'z ahvoliga achintirishni, o'zi yotarkan, shohni oyoqda qoldirish yoki oldida tiz cho'ktirishni istayotgan edi. Shu bilan uning g'ururi taskin topar edi.

Darhaqiqat, sulton Alouddin Muhammad ichkariga kirib, o'tirishga joy topmadi. Kursilar bitta qo'ymay xonadan olib chiqib ketilgan edi. Sulton oyoqda qolishga majbur bo'ldi.

— Salom dunyo xotinlarining ulug'i! — dedi u.

— Salom dunyo sultonlarining eng buyugi Alouddin Muhammad, mushtipar onayizoringni ko'rish uchun shuncha kun o'tishini kutishing shartmidi? Yo seni yana birov behalovat etdimi?

— Yo'q, tinchlik, onajon. Charchab kelgandik, biroz dam oldik. Sog'lig'ingiz qanday?

— Ko'p yomon.

— Olloh shifo bersin.

Turkon Xotun o'g'lini oyoqda tutishdan zavqlanmoqda edi. Ancha vaqt shu holda so'zlashdilar. Oxiri oyog'ining og'rig'iga chidamagan Xorazmshoh dedi:

— Katingizning bir chetiga o'tirsam bo'ladimi?

Turkon Xotun ulug' sulton uzoq vaqt oyoq ustida qolganini endi sezganday, tilyog'lamalik bilan joy ko'rsatdi.

— O'tir, sultonim. Bosh uchimga o'tira qol. So'yla, nega buncha uzoq kelmading? Ko'zim yo'lingda qoldi.

Sulton katning chetiga o'tirdi.

— Samarqand go'zal shahar ekan. Uni mamlakatimizning poytaxti qilishni maqbul topdik. Poytaxt qilgach, ba'zi ishlarni bajarishga to'g'ri keldi.

— Zoti oliylariga munosib bo'lgandir?

Sulton kuldi.

— Albatta...

— Bizning yurtimizni ozod etishni nega kechiktirmoqdasan?

Sulton oyoq uchiga qaradi. Parishon holda so'zlandi:

— Kimligi noma'lum bo'lgan dushman bilan urishish ehtimoli bor. Aytishlaricha, Chingizxonda rahm-shafqatning urug'i ham yo'q emish. O'g'li Jo'jixon undan beshbattar ekan. Askarlari mo'r-malaxday ko'p emish...

Xotun o'g'liga qarab kinoyali tabassum qildi:

— Qo'rqyapsanmi?

Xorazmshoh cho'chib tushdi.

— Qo'rquv? Bu ne demak? Yaxshiyam onamsiz. Sizdan boshqa birov shunday desa, allaqachon kallasi ketgan bo'lardi.

— So'zlaringni nimaga yo'yay bo'lmasa?

— Bu tadbir uchun bir mulohaza, xolos. Ha, tadbir uchun. Urushdan ilgari tadbir olinadi. Urush tadbir bilan, jasorat bilan bo'ladigan ish. Shukrlarki, jasoratimiz yetarli. Ammo tadbir bo'lmasa jasorat ikki pulga qimmat...

Volida sulton tirsagiga tayanib, qaddini ko'tardi.

— Yuragingizni olib qo'yishibdi, sultonim.

— Bekor gap. Bilasizki, men qo'rqoq emasman. Davlatni bu holga kim olib chiqdi?

— Sen...

— Shunday ekan, nedan xavotir olasiz?

— Sening buyukligingga shak-shubha yo'q. Albatta, hali ko'p zafarlar qozonasan.

Shipga tikildi.

— Birovlar fikringni o'zgartirar, bunday urushning keragi yo'qligiga seni ishontirishar deb qo'rqaman, xolos. Shundoq bo'p chiqsa qipchoq eliga yurish qilishdan voz kechishing mumkin.

Sulton g'azab bilan qaddini rostladi. Onasi uning g'ururiga tekkandi.

— Ona, onajon! Shuni bilingki, Xorazmshoh Alouddin Muhammad o'z so'zidan qaytadigan sultonlardan emas. Qaror berdim. Bir oy ichida qo'shinimni to'plab, yurishga chiqaman.

Turkon Xotun makkorona jilmaydi.

— Yasha, sultonim! Senga ana shunday qat'iyat yarashadi. Chingiz naqadar kuchli bo'lsa ham qudrating oldida bosh egishga majbur bo'ladi. Qoraxitoylarni yanch. Bor, seni zafar kutmoqda.

Sulton Alouddin Muhammad xonaga ko'z yugurtirdi. Istaganini topmagach, onasidan so'radi:

— O'g'limiz O'zloqshoh ko'rinmaydi. Inshoolloh, sog'-salomat bo'lsa kerak.

— Soppa-sog', sultonim! Nevaram tul buvisining qanoti ostida o'ynab yuribdi. Hozir chaqiraman.

Bosh uchidagi oltin to'qmoq bilan oltin laganni urdi. Ichkariga kirgan xizmatkorga O'zloqshohni keltirishni buyurdi.

Ko'p o'tmay kichkina valiahd ichkariga kirdi. Zarrin choponi tovoniga tushib turardi. Boshidagi sallachaga parli jig'a osilgan. Bola otasining oldida g'oz turib, qo'llarini ko'ksiga qovushtirib, salom berdi.

— Assalomu alaykum, sultonim.

— Vaalaykum assalom, O'zloqshoh.

Xorazmshoh o'g'lini qo'llaridan tortib bag'riga bosdi va "Olloh senga uzoq umr bersin, O'zloqshoh" deya duo qildi.

So'ng shoh onasidan ruxsat so'rab, tashqariga chiqdi. Mahramlari bilan ko'shkni tark qildi.

Ertasiga harbiy kengash chaqirib, qipchoq yurtiga yurish kerakligini so'zladi. Uning so'z ohangidan qarori qat'iy ekani bilinib turardi. Majlisga qatnashayotgan beklar e'tiroz bildirish befoyda ekanini sezdilar. Sultonga yana onasi so'zini o'tkazgan, istagan qarorini chiqartirgan. Demak, so'zlashdan ne foyda?

Biroq Temur Malikning fikri boshqacha edi. Zindondan chiqqanidan buyon u Dali Darveshni hech unutolmadi. Oyoqqa qalqdi.

— Ijozat bersangiz, bir gap aytay, sultonim.

— So'yla, Temur Malik...

— Dali Darveshning aytganlarini sizga so'ylab bergandim, sultonim. Bu odam dalimi yoki avliyomi, haligacha bilmayman. U aytgandiki...

Sulton qo'lini ko'tarib, Temur Malikni to'xtatdi.

— Telbalar bilan shug'ullanishga vaqtimiz yo'q, Temur Malik. Ma'nili bir gap aytmoqchi bo'lsang so'zla...

Temur Malik uni so'zlatmoqchi emasliklarini payqadi, biroq yon bermadi.

— So'zni bunday boshlaganimning boisi bor, sultonim. Bugun bizni gapirgani qo'ymasangiz, ertaga sodir bo'ladigan hodisalarning butun mas'uliyatini oldindan o'z zimmangizga olgan bo'lasiz. Shuni xohlaysizmi?

Temur Malik diqqatni kengashning ahamiyatiga qaratmoqchi edi. Biroq bu sultonning parvoyiga ham kelmadi.

— Sulton o'z xatti-harakati uchun o'zi oldida o'zi mas'uldir, — dedi u.

Bu tushuncha Temur Malikning tushunchasiga tamoman zid edi.

— Yanglishyapsiz, olampanoh, — dedi u bosiqlik bilan. — Sulton o'zidan oldin eng avvalo Olloh oldida mas'uldir.

Sulton huzuridagilar suyak-suyagigacha titradilar. Betgachoparligi uchun qancha vaqt zindonda yotgan Temur Malikning aqli kirmagan ko'rinadi. Qipchoq xonlari tishlarini g'ijirlatib alanglashdi, ba'zilar bo'lsa qo'rquv aralash ma'qullash ma'nosida bosh irg'adilar.

Sulton xayolga toldi. Bu yigitni zindondan chiqarib xato qildimikan yo? Nihoyat u:

— So'yla, so'ylaydiganingni, — dedi.

— Shuni so'ylamoqchimanki, olampanoh, Dali Darvesh Chingizning kuchli va qudratli ekanligini aytgan edi. U buyuk Chin podsholarini tiz cho'ktiribdi. Olib bo'lmaydigan shaharlarini olibdi, yiqilmas qal'alarni yiqibdi, o'tgan yerining kulini ko'kka sovuribdi.

— Eski gap, bularni ancha ilgari eshitgandim, yana nega takrorlayapsan? Niyating bizni qo'rqitib, safarni bekor qildirishmi?

— Bunday niyatim yo'q aslo, sultonim. Men qipchoq yurtiga yurish qilish tarafdori emasman, ammo yo'lingizda o'lmoqqa tayyorman. Mening joyim sultonimning yonida. Faqat dushmanga nopisandlik bilan qaramaslik kerakligini aytayotirman. Keragidan ortiqcha askar to'playlik. Bir muddat ularni harb ishiga o'qitib-o'rgatylik. Qoraxitoylarni bosgan vaqtimizda Chingiz ustimizga bostirib kelsa...

— Ma'lum bo'ldi, niyating vaqt sovurmoq ekan.

Temur Malik kuldi.

— Sultonim, aytganlarimni yomonga yo'yganingizga qaraganda menga ishonchingiz yo'qolgan ko'rinadi. Bir amringiz bilan zindonga borganim kabi, yana bir og'iz so'z bilan boshimni hoziroq jallodning oyboltasi ostiga qo'ymasam nomardman! Mening keragim bo'lmasa ochiq ayting qo'ying.

Mardona aytilgan bu so'zlarni eshitib ko'plarning oyog'i qaltiradi. Sulton kuldi. Unga bu so'zlar yoqib tushgandi. Temur Malikka o'xshaganlardan o'n ming kishilik qo'shini bo'lsaydi, u allaqachon butun dunyoni zabt etgan bo'lardi. Temur Malikka mehr bilan qarab dedi:

— Temur Malik, aytganlaring to'g'ri, ammo buncha kutishga ne hojat? Zotan, bizning xalqimiz onadan askar bo'lib tug'iladi. Samarqandda qilgan ishlarimizni o'zing ko'rding-ku!

— Sultonim, u bir isyonchi edi, xolos, bu bo'lsa xoqon.

— Sen ko'p gapirding, Temur Malik. Endi o'tir, boshqalardan ham eshitaylik.

Temur Malik qo'l qovushtirdi.

— Amringiz bosh ustiga, sultonim.

Qipchoq xoniga so'z tegdi. U qipchoq yurtiga qilinadigan yurish qo'shinning ruhini ko'tarishi, Chingizning ichiga qo'rquv solishi to'g'risida so'z yuritdi. Qipchoqlar sultonning qarorini ma'qulladilar.

Jaloliddin churq etmadi. U Temur Malikning so'zlarini ichida ma'qullayotgan bo'lsa-da, otasiga qarshi chiqishni maqbul topmadi. Kengash tarqagach, Temur Malikni uyiga olib ketdi. Ostonada Sariq Lag'o'tga duch kelishdi. Yonida ikki olmaning bir pallasiday o'ziga o'xshash bir yigit bor edi.

Temur Malik:

— Seni qanday shamol uchirdi? — deb so'radi.

Sariq Lag'o't jilmaydi. Yonidagi yigitga ishora qilib dedi:

— Ukam Boytu bilan xizmatga keldik. Agar qabul qilsalar umrimizning oxirigacha Jaloliddinga qul bo'lmoqni istaymiz.

Jaloliddin yigitlarni quchoqladi.

— Tavba qilgan har bir kishiga eshigimiz ochiq, Lag'o't, — dedi u. — Siz menga qul emas, og'ayni bo'lasiz.

Ovoz o'tkazmasligi uchun devorlariga qalin gilamlar osig'liq xonaga kirar-kirmas Jaloliddin o'z xavotirini ochiqladi.

— Tinchim yo'q, og'aynilar, — dedi u. — Sulton otamiz onasining ta'siri ostida bu ishga qo'l urdi. Bu ishning oxiri qanday tugashini kim biladi. Chingizning kuch-quvvati haqida aniq ma'lumot olganimiz yo'q. U haqda mish-mishdan boshqa narsa eshitmadik. Afsonaga o'xshaydi. Agar bu gaplarning yarmini chin deb qabul qilsak ham Chingizning katta kuch-qudrati borligi ma'lum bo'ladi. Bu mo'g'ul ko'p xonlarni tiz cho'ktirganmish. Qoraxitoylarga dars berish lozim deylik. Lekin ha yo'q, be yo'q mo'g'ul ustiga yurish qilishga ne hojat? Balki ular bizga dushman emasdir. Qolaversa, mo'g'ullar hozirgacha Chin tomonlarda urushgan, bizga zarari tegmagan. Aytishlaricha, Chingiz askari ne yesa o'shani yeydi, ne kiysa shuni kiyadi. Bunday xonning kuragini yerga tekkizish oson kechmaydi. Chunki askarlari bunday xoqonni ko'z qorachig'iday asrashadi. Biz bo'lsak...

Jim qoldi. Ko'zlari qayg'udan namlandi. Uning so'zini Temur Malik davom ettirdi:

— Oltin-kumushga g'arq bo'ldik, hashamatli saroylarda yashaymiz. Chingiz ayiq po'stagida uxlagan bir paytda biz par to'shaklarni pisand qilmaymiz. Chingiz qora yovg'on ichgan paytda biz ovqat tanlaymiz. Dahshat!..

Sukunat cho'kdi. Anchagacha hech kim churq etmadi. Sukunatni Jaloliddin buzdi:

— Temur Malik, aytmoqchi bo'lgan gaplaringni sulton otamizga bayon etdingmi?

Temur Malik uyqudan endi ko'z ochgan odamday Jaloliddinga qaradi.

— Ko'pini aytdim, — deb javob qildi u. — Ammo bir gapni aytishni unutdim. Hech bo'lmasa bu qo'shinga sen qo'mondonlik qilsang yaxshi bo'lardi. Xatoga yo'l qo'ymas eding...

— Otam mohir sarkarda.

— Ha, shunday edi... Bilasan, keyingi yillarda u ancha o'zgardi. Yosh bola kabi ta'sirchan bo'lib qoldi. Valiahd almashtirishga bir lahzada shoshib farmon bergan, xotinlar ta'sirida urush ochishga bir onda qaror bergan sulton endi...

So'zdan to'xtab, andisha bilan do'stlariga qaradi. Sariq Lag'o't behalovat bo'lib qo'zg'alib qo'ydi, Jaloliddin Temur aytmagan so'zlarni pichirladi:

— Endi sultonlikka nomunosib demoqchimisan?

— Bunday demoq uchun bu dalillar yetarli emas. Endi bo'ladigan urushda barchasi yaqqol ayon bo'lg'usi.

— Chingiz odamlar aytganidek kuchli ekaniga ishonasanmi?

— Dali Darvesh yolg'on so'zlamaydi. U ne degan bo'lsa, hammasi to'g'ri. Buning ustiga qo'niyolik Qutluq ham ayni shu gaplarni aytgan edi.

— Bu dahshat!..

— Dahshat ekanligi o'z yo'liga. Ammo asosiy dahshat uyqudagi ilonning quyrug'ini bosish uchun harakat boshlayotganimiz. Ishon, qo'rqqanimdan aytayotganim yo'q. Jonimdan boshqa yo'qotadigan narsam yo'qligi senga yaxshi ma'lum, jonim men uchun shirin emasligini ham bilasan. Bir mash'um xato tufayli Xorazm davlatining barbod bo'lishidan qo'rqaman, xolos.

— Seningcha, tahlika bunchalik kattami?

— Balki bundan ham kattaroqdir. Mamlakatimiz ilm-u urfon beshigi. Chingizning ilmi esa xurofot. Aytishlariga ko'ra, qo'liga tushgan kitobni gulxanga otadi. Chinda juda ko'p kitoblarga o't qo'ygan, gurillagan kitob gulxani atrofida raqs tushgan emish. Shaharlarimiz bunday vahshiyning qo'liga tushishi mumkinligini o'ylasam to'pig'imgacha muzlab ketaman.

Jaloliddin ham titradi.

— Olloh panohida saqlasin!

Sariq Lag'o't bilan ukasi ham baland ovozda takrorladilar:

— Olloh saqlasin!

Temur Malik aka-ukaga boqdi.

— Olloh saqlanganni saqlaydi. Ammo anchadan buyon Ollohning amrlarini lozim darajada bajarmay qo'ydik. Isrof harom qilingan, ammo biz isrof etmoqdamiz. Dabdaba man etilgan, ammo biz dabdaba-yu as'asa ichida yashayapmiz. Kibr taqiqlangan, biroq bizning burnimiz osmonda. Natijada hatto burnimizning tagida turgan kuchli dushmanni nazarga ilmaydigan holga tushdik.

Qaddini rostladi.

— Faqatgina shu emas. Kengash sunnat etilgan. Biz bunga ham ahamiyat bermaydigan bo'ldik. Oltin-kumushga, kimxobga ruju qo'ydik. Bizga hamma narsadan ko'proq sovut yarashadi. Lekin biz sovut o'rniga savsar mo'yna po'stin kiydik. Olloh uchun, kalomulloh uchun jang qilish o'rniga birovlarning yerini tortib oldik, mulkini yag'moladik.

Alam bilan bosh chayqadi.

— Olloh uning amrlariga rioya qilgan vaqtimizdagina bizni o'z panohida asraydi!..

Peshona terlarini artdi.

— Aks holda u bizni jazolamoq uchun ustimizga mo'g'ul xonini yuboradiki, qanoatimga ko'ra, biz bu jazoga mustahiqmiz...

Hammasi bu gaplar rost ekaniga dildan ishonar va ayni chog'da shafqatsizligi bilan butun Osiyoda nom chiqargan Chingiz kabi bir qonxo'rning jazolovchi bo'lib kelmasligini tilar edi.

Jaloliddin do'stining qo'lini ushlab dedi:

— Gaplaring to'g'ri, Temur Malik. Lekin qo'limizdan ne kelardi.

* * *

Xorazmshoh Muhammad qo'shin boshida ketib borardi. Oltin bezaklar bilan ziynatlangan tulpor, egasining kimligini bilgandek, viqor va jiddiyat-la yo'rg'alaydi, goh-goh boshini baland ko'tarib, jinsdoshlariga g'urur bilan qarab qo'yadi.

Qo'shin har biri olti ming kishidan iborat o'n favj holida yurishga chiqqan edi. Har bir favjning o'z qo'mondoni bor.

Minglab nayzalar uchida, qalqonlarda quyosh nuri o'ynaydi, qaytgan nur qum zarralarini billur rangida jilvalantiradi.

Askar va nayzadan boshqa narsa ko'rinmaydi, "Ollohu akbar"dan boshqa sado eshitilmaydi.

Ketma-ket, saf-saf bo'lib mavjlanib kelayotgan favjlar zavq uyg'otadi kishida. Sulton Alouddin Muhammad goh-goh ot boshini tortib, g'urur bilan qo'shinini ko'zdan kechirib qo'yadi.

Sultonning atrofida qipchoq xonlari. Jaloliddin va Temur Malik o'z favjlarining boshida. Shu pallada har ikkovi ham askarlarining ta'lim-tarbiyasi ustida bosh qotirishmoqda. Boshqa narsa ularni

qiziqtirmaydi. Endi sultonga gap uqtirish befoyda, chunki so'zlari qipchoq xonlaridan iborat hissiz devorga urilib, tariqdek sochilib ketishi turgan gap.

Sulton Muhammadning ichida andekkina qo'rquv hissi yo'q emasdi. Har holda noma'lum dushman ustiga qo'shin tortib ketayotir. Qoraxitoylarni yanchishiga ishonchi komil, biroq bu pakana ot minganlar bilan urush natijasi yolg'iz Ollohga ayon. Sulton Temur Malikni yoniga chorladi. Kuch-qudratini tasdiq ettirish niyatida dedi:

— Qaragin! Bu askarlarni mag'lub eta oladigan bir qo'shin bormikan yer yuzida?

Qipchoq xonlari ta'zim qilishdi. Temur Malik oltmish ming otliqni jahon qo'shinlariga teng deb bilgan sultonning mantig'iga hayron qoldi.

— Zo'rdan zo'r topiladi, olampanoh, — dedi u.

Xorazmshoh o'zi kutgan javobni olmagani uchun ranjidi.

— Sen doim noumidsan.

— Chingizni nihoyatda kuchli deyishadi.

— Qaysi Chingiz? Ammo lekin toza yuragingni olibdi u. U kofirni otimning tuyoqlari ostida ezaman. O'shanda yer yuzida Xorazmshoh Muhammaddan qudratli sulton yo'qligini o'z ko'zing-la ko'rasan. Bo'lgan ham emas... Mening kuchim va dahomga hatto Iskandar Zulqarnayn ham molik bo'lgan emas.

— Kuchga ishonib mag'rurlanish o'rniga tadbir olmoq afzaldir, sultonim.

— Sendan ne qilmog'im kerak, deb so'ramadim, shekilli.

— Bir odam hamma narsani bilolmaydi, sultonim.

— Nima?.. Ne demak bu?

— Kengashib ish tutmoq zarur ekanini eslatmoq istadim, sultonim. Ojiz bandangiz sultonga aql o'rgatadigan darajada zakiy emas.

Sulton zo'rg'a o'zini bosdi, Temur Malikning kallasini olish to'g'risida farmon berishiga sal qoldi.

— Bor, askarlaringning boshiga o't.

— Bosh ustiga!

O'z qismiga qaytdi. Sariq Lag'o'tga yaqinlashdi.

— Sultonning mahramlariga qara, Sariq Lag'o't, ishga yaramagan bir to'da...

Sariq Lag'o't diqqat bilan tikildi. Sulton oshxonasini, kerakli-keraksiz lash-lushlarni olib chiqqan edi. Qancha gapirishmasin, sulton bularni qoldirishga ko'nmagan edi.

— Tomoq bandasi bo'lsa kerak, — deya ming'illadi Lag'o't.

Temur Malik dedi:

— Bu turgan gap. Biroq u o'z dabdabasini dushmanlariga ko'z-ko'z qilmoqchi.

— Oshxonasinimi?

— Ha, oshxonasini ham, zarrin chodiri-yu xizmatkorlarini ham...

— Astag'furulloh, astag'furulloh!

* * *

Jaloliddin o'ninchi favj qo'mondoni bo'lib, eng orqada kelayotgandi.

Otasi uni jang maydoniga kiritmaslik uchun bu ishni maxsus qilgandek edi. Shunga biroz xafa. Nima bo'lganidan qat'i nazar, modomiki, urushga chiqdimi, manglaydan joy olib, dushman bilan birinchi bo'lib jang qilmoqni istardi. Jilla qursa qilichining zangini ketkazmoqchi edi. Biroq otasi o'g'lining orzularidan bexabar bo'lgani uchunmi uni orqa qismga tayinladi.

Jaloliddinning askarlari xushnud va xushhol ketib borishadi, Ollohga hamd-u sano o'qishadi, ora-sira o'zaro baqirib gaplashishadi, hazillashishadi. To'xtagan paytlarida mashq o'tkazib, yangi usullarni o'rganishadi.

Jaloliddinning favji qo'shinning eng kuchli qismi edi. Temur Malikning favji bu jihatdan ikkinchi o'rinda. Sulton qo'li ostidagi markaz bo'lsa harbiy ishga yaroqsiz kishilar, saroy mansabdorlari hamda maxsus tansoqchilaridan tarkib topgani uchun, ehtimol, eng zaif qism edi...

Xorazm dengizi sohili bo'ylab yurib, Sayxunni kechib o'tdilar. Chag'anoq ko'rfazi yonida to'xtadilar.

Sulton atrofga xabargiri qismlar jo'natdi. Sulton Temur Malik va Jaloliddinning qistovi bilan keladigan xabarlarni shu yerda kutishga qaror berdi. O'ziga qolsa xabargiri qismlarni jo'natib ham o'tirmay, dushmanga duch kelgunga qadar dabdaba bilan yurish qilmoqchi edi.

Xabargiri guruhlardan biri ko'p o'tmay qaytib, Chalqar ko'li bo'yida qoraxitoy askarlari ko'ringanidan darak berdi.

Oqshom chog'i harbiy mashvaratga yig'ilishdi. Avvalo qoraxitoylarni, so'ng mo'g'ullarni bir yoqli qilishga qaror berildi. Qo'shin uch bo'lakka bo'linib, shoh markazni boshqaradigan bo'ldi.

O'ng va so'l qanot qo'mondonlarini tayinlash masalasida ixtilof chiqdi. Qipchoqlar har ikki qanotga-da o'z urug'doshlarining qo'mondon bo'lishini xohlashdi. Qipchoqlar bu zamin ularning yurti bo'lgani uchun shunday bo'lishi kerak deb hisoblashardi. Temur Malik jahldan lablarini tishlab qonatib yubordi. Oxiri chiday olmay oyoqqa turdi.

— Modomiki, bu zamin qipchoqlarniki ekan va ular bizni yot deb chetlatishar ekan, o'zlari urushaversinlar. Bu xususda sultonimizning amr berishlarini xohlayman.

Sulton Muhammad hayratdan bosh chayqadi.

— Nima deyapsan o'zi, Temur Malik?

— Shavkatli sultonim, juda oddiy gap bu. Qipchoqlar bu yerlar o'z yurti ekanligi, binobarin, bu zaminni mudofaa etadigan askarlarga qo'mondon bo'lishga faqat o'zlarining haqqi bor ekanini da'vo qilishayotir. Mayli, qo'yib beraylik, o'z ishlarini o'zlari hal etsin.

— Bu gap ketmaydi... Bir qanotga sen qo'mondon bo'lasan.

Sulton Muhammad shu bir og'iz gap bilan Temur Malikni tinchitmoqchi edi. Temur Malik masalani darhol tushundi.

— Uzrimni qabul aylang, sultonim, — dedi u. — Shahzoda Jaloliddin turgan joyda men qo'mondon bo'lolmayman. U hammamizdan mohir sarkardadir.

Sulton e'tiroz bildirmadi.

— Demak, bilishimcha, maqbul bir qaror oldik, — dedi u. — So'l qanotga qipchoq xonlaridan To'rg'ay, o'ng qanotga o'g'limiz Jaloliddin qo'mondonlik qilsin. Men markazda bo'laman.

Erta tongda yana yo'lga tushdilar. Qoraxitoylar yaqin atrofda ekanligi to'g'risida tez-tez xabar kelib turgani uchun hozir tarzda uch kun yo'l bosdilar. Nihoyat Irgiz daryosining etagidagi qalin o'rmonga yetib, o'sha yerda qarorgoh qurdilar. Botqoqliklardan chiqayotgan sassiq hid cho'l giyohlarining yoqimli bo'yiga aralashib,

askarlarning ko'nglini behuzur etardi. Havo isib ketganiga qaramay daryo ustidagi muz hali erimagan.

Qarshi sohilda qoraxitoylar ko'rinishi bilan Sulton Muhammad daryodan kechib o'tishni buyurdi. Buyruq shu zahoti bajarildi, hech bir talafot bermasdan narigi qirg'oqqa o'tib olishdi. Safga tizilib, yurishga o'tdilar.

Oqshomga yaqin kelgan bir xabar Xorazm qo'shinini to'lqinlantirdi. Oldinda chodirlar ko'zga tashlangan edi. Ammo ular kimniki va nimaga tikilganini hech kim bilmas edi.

Xabarni eshitgan zahoti Jaloliddin nima gapligini bilib kelish uchun Temur Malik, Sariq Lag'o't va Boytuni olib ot choptirib ketdi. Bir tepaning ustiga chiqib, bepoyon cho'lni kuzatdilar. Uzoqda chodirlar elas-elas ko'rindi. Biroq chodirlar atrofida qimirlagan jon zoti yo'q. Jaloliddin:

— Olloh, Olloh! — deya hayratlandi. — Hali uxlaydigan vaqt bo'lgani yo'q. Har holda tashlab ketishganga o'xshaydi.

Temur Malik:

— Men tez borib bilib qaytaman, — dedi-yu otiga qamchi bosdi.

Jaloliddin orqasidan qichqirdi:

— O'zingga ehtiyot bo'l, Temur Malik!..

Temur Malik javob bermadi. Ko'z ochib yumguncha ovoz yetmaydigan masofani bosib o'tishga ulgurgan edi.

Ko'p o'tmay u chodirlar yoniga yetib keldi. Hayratdan hangmang bo'ldi. Chodir yog'ochlari ustida ilma-teshik kigiz parchalari osilib yotar, har taraf murdalarga to'lib ketgan. Go'yo yashin urib, ofat tushgandek hammayoq ostin-ustun. Qidira-qidira bir tirik odamni topdi. Otidan tushib:

— Sizga ne bo'ldi? — deb so'radi.

Bu keksa markit askari edi. Yelkasi qilich bilan chopilgani ko'rinib turardi. Askarning labi bazo'r qimirladi.

— Biz markitlarmiz. To'g'rirog'i, markit edik, endi yo'q bo'ldik.

Bir amallab tirsagiga tayandi. Jasad qalashib ketgan maydonga mahzun tikildi. Ko'zlaridan yosh oqdi.

— Xonimizni Tunkuxon deydilar. O'g'lining ismi Xo'ltuxon... Ikkovi ham qochib qutuldi. Bizni ajdarning og'ziga tashlab ketdilar.

— Ustingizga bostirib kelgan kim?

Yarador tutila-tutila so'zladi:

— Chingiz!.. O'sha qizilsoqol iblis yoki uning o'g'li Jo'jixon. Ota-o'g'il qattollikda bir-biriga paxsa qo'yadi... Borgan joyining kulini ko'kka sovuradi... Ulardan ehtiyot bo'ling... Chingizni ranjitadigan ish qilmang... Uning mohir sarkardalari bor. Bir ko'zi so'qir Subutoy, Qurt Jebe, To'quchar no'yon... Ularning hammasi o'taketgan qonxo'r, g'irt vahshiy... Biz qochishga ulgurmadik. Irgizdan o'taman deganlar muz tagiga tushib g'arq bo'ldi. Qurshovda qoldik. Hammamizni qilichdan o'tkazdilar, xotinlar, keksalar, bolalarni ham o'ldirdilar... Tirik jon qo'ymadilar. Chorvamiz, yaylovlarimiz ularning qo'liga o'tdi.

Nafasi tutildi. Olaygan ko'zlarini yirtib, u yoq-bu yoqqa alangladi.

— Ko'zim ko'rmayapti, — deya ingradi u. — Hech narsani ko'rmayapman... Na birodarlarimning burdalangan jasadlarini, na quyoshni... Endi hech qachon ko'rmayman. Ajal yoqamdan oldi. Jonim bo'g'zimga keldi... Biz... baxtli edik... Yam-yashil yaylovlarimiz, keng o'rmonlarimiz bor edi... Qizilsoqol iblis... Chingiz... O'g'li Jo'ji... Bir ko'zli Subutoy Bahodur... Qurt Jebe... Sariq chodir... Pakana otlar...

Qaltiradi:

— Menga... menga qilichimni bering... Men... men...

Markitning so'zi og'zida chala qoldi. Qovoqlari qoshlarining ostiga kirib ketdi. Dahshatdan baqraygan ko'zlari Temur Malikning yuziga mixlanganicha qotdi qoldi.

Markit o'lgan edi.

Temur Malik vaqtni boy bermay otiga minib, darhol orqaga qaytdi. Tepalikka chiqib, bo'lib o'tgan fojiadan Jaloliddinni xabardor qildi:

— Markitlarning hammasini qilichdan o'tkazishibdi, bahodirim.

Jaloliddin dahshatdan seskandi.

— Nima? Kim qilgan buni?

— Chingiz yoxud uning o'g'li Jo'ji... Baribir emasmi?

Orqaga qaytib, sultonga xabar berdilar. U ham hayratdan dong qotdi. So'ng o'ziga kelib, g'azab bilan qaddini rostladi.

— Buni shunday qoldirmayman, ularning adabini beraman! — deb hayqirdi u.

Qipchoq xonlari bir ovozdan baqirishdi:

— O'ljamizni o'g'irlagan, mamlakatimizni vayronaga aylantirgan kofirlarning jazosi o'lim!..

Alouddin Muhammad soqolini siypadi.

— Ularni topamiz. Topamiz va jazosini beramiz. Endi hech kim menga mone bo'lolmaydi. Hozirlaning, ustiga bostirib boramiz.

— Ijozat bering, sultonim, — deya Jaloliddin oyoqqa qalqdi.

— So'yla, Jaloliddin.

— Avvalo xabargirlarni jo'natib, dushman qayerda ekanini, kuch-quvvatini bilaylik. Shundan keyin jangga qaror beramiz.

Sulton o'g'liga tik qarab dedi:

— Jangga sen va Temur Malik emas, men qaror beraman. Men qaror berib bo'ldim, jangga kiramiz.

Jaloliddin noiloj jim bo'ldi. Temur Malikka boqdi. Biroq u boshqa tomonga ma'nosiz qarab turardi.

* * *

Xorazmshoh qidirayotgan dushman Chingizxon emas, balki Chingizxonning katta o'g'li Jo'jixon qo'shini edi.

Jo'ji markitlarni qatli om etgach, shimolga yurib, bir tog' etagiga qo'ngan edi.

Har tomonga yuborgan didbonlaridan biri mo'r-malaxday katta qo'shin bostirib kelayotganidan xabar berdi. Buni eshitib Jo'jixonning sap-sariq yuzi yanada sarg'aydi. Sarkardalaridan so'qir Subutoy Bahodurga yuzlandi.

— Kim ekan bular, Subutoy?

Subutoy xanjari bilan tirnoqlarini tozalab o'tirardi. Odati shunday — bo'sh qoldimi, tirnog'ini kavlaydi. Subutoy bosh ko'tarmasdan javob berdi:

— Kim bo'lsa bo'laversin. Hech kimdan qo'rqmaymiz.

— Sen nuqul urush tarafdorisan.

Subutoy yelkasini qisdi. U ko'p gapirishni yoqtirmasdi. Maqsadini ikki jumlada aytar, uzoq gapirishga toqati yo'q edi. Uningcha, harbiy kengashlar, mashvaratlar behudaga vaqt sarflashdan boshqa narsa emas. Xon degan kishi bir onda yo urushga, yoki sulhga qaror berib, harakatga o'tmog'i lozim.

Jo'jixon uning odatini bilsa-da, ataylab jig'iga tegmoqchi edi.

— Nega jimsan, ey odam?

Subutoy yana yelka qisdi.

— Gapir!..

Bu safar u boshini ko'tardi, yuzini burushtirdi. Chakkasi uzra tushgan qilich tirtig'i yanada chuqurlashdi. Bir ko'zi bilan Jo'jiga ma'nosiz baqraydi. Oxiri uning og'zidan ikki kalima chiqdi, xolos.

— O'zingiz bilasiz...

— Urushaylikmi?

— Bo'ladi.

— Urushmaylikmi?

Subutoy javob bermadi. Jo'jixon bosh chayqadi.

— Sen kabi tilsizni otam menga nega bosh og'rig'i qilgan o'zi, bilmayman. O'zim mustaqil urusha olishimni necha bor isbot etdim. Biroq hanuz jangga meni homiysiz yubormaydi.

Subutoyga anchagacha istehzo bilan qarab turdi, so'ng dedi:

— Sen ham homiy bo'lding-u...

Qars urdi. Ichkariga kirgan navbatchiga dedi:

— Tezda Donishmand Hojibni topib kel!

Askar tiz cho'kib ta'zim qildi, so'ng tislana-tislana chodirdan chiqdi.

Ko'p o'tmay o'rta yoshlardagi qorasoqol bir kishi chodirga kirib keldi. U ham tiz cho'kib, salom berdi.

— Chaqirtirgan ekansiz, buyuk xoqonning o'g'li.

— Qani, o'tir-chi, Donishmand Hojib. Ustimizga kimlardir bostirib kelayotgan emish. Dubulg'asining ustiga gazmol o'ragan, qora bayroqli mo'r-malaxday askarlar. Bular kim, bilasanmi?

Donishmand Hojib ikki marta bosh silkidi.

— Xorazmliklar bo'lsa kerak.

— Xorazmliklar dedingmi? Ular bilan talashadigan molimiz yo'q-ku...

— Shunday. Hatto, buyuk xoqonning o'zi ham ular bilan urushmaslik lozim degan edi. U kishi hozir Xorazmshoh Muhammad bilan urushishni xohlamayaptilar.

— Xo'sh, unda nega bu odam ustimizga bostirib kelyapti?

— Markitlarning ahvolini ko'rib jahli chiqqan. Ehtimol sizni yengish ko'yiga tushgan bo'lishi mumkin. Zotan bu yerlar unga qarashli hisoblanadi.

— Ajoyib gap-ku. Yer degani Yertangrisiniki-ku, uning ne ishi bor?

Donishmand Hojib bosh egdi. Jo'jixonga Ollohdan boshqa Xudo yo'qligini so'zlagani, boringki, hatto isbot etgani bilan biron narsa o'zgararmidi? Bunga ko'p urinib ko'rdi, ammo hech ish chiqmadi. Jo'jixon har gal kinoyali iljayar, boshini likillatib, "Bo'lsa bordir. Ammo men otam ishongan tangridan boshqasiga ishonmayman", der edi.

— Nega indamaysan, Donishmand Hojib? Qani, ayt-chi, Sulton Muhammad qanaqasiga bu yerlarga ega bo'lishi mumkin?

— Bunga javob bermoq uchun uni o'zimizga muqoyasa etmog'imiz darkor, xoqonning o'g'li.

— O'zimizga? Qanday qilib?

— Chingizxon butun Mo'g'uliston va Chinning hukmdori...

— Ha, shunday.

— Xorazmshoh ham bu yerlarning hukmdori.

— Bo'lmagan gap! Otam ulug' xoqon. Xorazmshoh deganing kim bo'pti?

— U ham o'z miqyosida ulug'.

— Barcha musulmonlarning hukmdorimi u?

— Bir qismining...

— Unday bo'lsa, uni yanchib tashlayman. Faqat otam rizolik bersa bo'ldi. Hayronman, otam nega bu odam bilan talashishni xohlamayapti. Biron sababi bo'lsa kerak.

— Gapingiz to'g'ri.

Jo'jixon o'ylab qoldi.

— Yoningga o'n kishi olib, unga peshvoz chiq. Bir nechta tuyani hadya etib olib bor. Biz urushni istamasligimizni, ular bilan ishimiz yo'q ekanini ayt.

— Markitlarni nega qatl etganimizni so'rasa ne deb javob beray?

— Qilmishiga yarasha jazo olganlarini ayt. Bizga qarshi chiqqanlarini tushuntir. Yaqinda bu yerni tark etib, o'zlariga qoldirishimizni so'yla. Behudaga qon to'kilishini istamayman.

Aslida Jo'jixon kuchi kamligidan qo'rqayotgan edi. Didbonlar xorazmliklar sahrodagi qum zarralaridan ham ko'p deyishgandi. Jo'jixonni cho'chitgan ham shu edi.

Donishmand Hojib chodirdan chiqdi. Buyurilganiday yoniga o'n otliq oldi. Sultonga hadya etish uchun o'nta baquvvat tuyani olib yo'lga tushdi...

* * *

Xorazm qo'shini tezroq dushmanga yetib olish uchun shitob bilan ot qo'yib kelardi.

Sulton Alouddin Muhammad: "Otlar charchasa almashtiring, faqat to'xtovsiz yo'l bosing", deya buyruq bergan edi.

O'ng qanot qo'mondoni Jaloliddin otasining bu amrini o'rinsiz deb topdi va yonida ot surib ketayotgan Temur Malikka hasrat qildi:

— Bema'ni ish bu. Otlar ham, askarlar ham charchaydi. Horib-charchagan bir ahvolda dushman bilan jangga kirsak natija qanday bo'ladi?

Temur Malik ko'z qarashi bilan bu gapni ma'qullasa-da, churq etmadi. So'zlasa shirin gap aytolmasligini bilgani uchun sukut saqlashni afzal topdi.

Shu orada harsillaganicha ikkita didbon yetib keldi. Ular oq bayroq ko'targan bir to'da otliqlar kelayotganidan xabar berishdi. Do'stlar shu zahoti ot choptirib, sulton yoniga yetib borishdi.

Jaloliddin:

— Sultonim, oq bayroq ko'tarib kelishyapti, amringizga muntazirmiz, — dedi.

Sulton ko'zini qisgancha uzoqlarga tikildi, so'ng:

— Kim ekan? — deb so'radi.

— Mo'g'ul elchilari bo'lsa kerak.

— To'ppa-to'g'ri bu yerga opkeling.

— Bosh ustiga.

Sulton qo'shinga to'xtashni buyurdi. Sarkardalariga tayyor turishlari to'g'risida xabar jo'natdi. Sulton o'z dabdaba-yu as'asasi bilan elchilarni tong qoldirmoqchi edi. Biroq kelganlarning loqayd nazariga ko'zi tushishi bilan bekordan bekorga ovora bo'lganini tushundi.

Donishmand Hojib oldinda. Boshida oppoq salla, hamma qatori sulton ham hayron bo'ldi. Bu odam musulmonchasiga kiyingan. Xo'sh, unday bo'lsa, u Jo'jixon yonida nima qilib yuribdi?

Oq sallali kishi yaqinlashgach, otidan tushdi. Bir necha odim otib, to'xtadi. Qo'llarini ko'ksiga qovushtirib tavoze bilan ta'zim bajo keltirdi.

— Mo'g'uliston hukmdori Chingizxonning katta o'g'li va sarkardasi Jo'jixonning elchisi Donishmand Hojib buyuk Xorazmshohga salomlar yo'llaydi.

Xorazmshoh ot ustida edi. O'ng qo'lini ko'tarib alik oldi.

— Sarkardang ne istaydi?

— Sarkardamiz: "Bizning xorazmliklar bilan hech ishimiz yo'q. Markitlarni bo'lsa qilmishiga yarasha jazoladik. Siz bilan urushib behudaga qon to'kishni istamaymiz", deydi.

— O'zing musulmonga o'xshaysan, majusiylarga xizmat qilishga uyalmaysanmi?!

Donishmand Hojib seskandi.

— Bu haqoratning boisi nedur, sultonim?

— Musulmon ekaning. Shuning o'zi yetarli emasmi?

— Musulmonligim haqoratga sabab bo'ladi, deb o'ylamayman. O'z dinimni birovga toptatib qo'yganim yo'q. Men asirman, xolos. Siz himoya qilolmagan musulmon Chingizxonga asir tushadi-da.

Xo'rsindi.

— Asir ham oldi, ishlatyapti ham. Dinim, e'tiqodimga sodiqman, hech kimga imonimni sotganim yo'q.

Temur Malik elchiga ich-ichidan qoyil bo'lsa-da, sulton huzurida shakkoklik qilayotganidan jahli chiqdi.

— Bu odam haddan tashqari ezmalik qilyapti, sultonim, — dedi u.

Donishmand Hojib Temur Malikka o'girildi.

— Savol berdingiz, javob qildim.

Qipchoq xoni Nishobur g'azablanib baqirdi:

— Ovozingni o'chir! So'radi deb vaysayverasanmi?!

— Mo'g'ullarda so'ramaguncha so'zlama degan bir gap bor. Shu gap menga ko'p ma'qul.

Sulton tortishuv alangalanib ketmasligi uchun oraga kirdi.

— Hammangiz jim bo'ling. Elchi, ayt-chi, sarkardang mening kuch-quvvatimdan xabardormi?

— Albatta, didbonlarimiz sahrodagi qum zarralaridek ko'p ekanligingiz to'g'risida xabar berdilar.

— Demak, shuning uchun urushdan qochyapsiz.

— Jang qilishni istamaslik boshqa, jangdan qochish boshqa, sultonim. Jo'jixon siznikidan kattaroq qo'shinlar bilan urushgan.

— Va hali soppa-sog', shundaymi?

— Soppa-sog', askarlari ham yonida.

Sulton Muhammad qahr bilan uzangiga oyoq tiradi.

— Bas qil! — deya o'shqirdi u. — Siz meni markit yoki quyonyurak chinlik deb o'yladingizmi? Jo'jimi, Xudo urgan boshqa bir kimsami oldimga chiqsin-chi! Qumursqadek ezib tashlayman.

Donishmand Hojib bosh egdi.

— Aytganlaringizni unga so'zma-so'z yetkazaman. Faqat yana bir bor aytganning zarari yo'q: Jo'jixonning siz bilan talashadigan narsasi yo'q, u behudaga qon to'kilishini istamayapti.

— Iye! Haligacha gap sotyaptimi bu?! Aytib qo'y, oqizgan qonlarining xunini to'lamay bir qadam ham jilolmaydi o'sha Jo'ji deganing.

Elchi yana bir bor ta'zim qilib, mahramlari bilan ot choptirib ketdi. Jaloliddin ularning orqasidan ancha qarab turdi-da:

— Jasur ekan, — deb qo'ydi.

Elchi keltirgan xabardan Jo'jixon mamnun bo'lmadi, ammo Subutoy Bahodurning yakka ko'zi porladi. Buni ko'rgan Jo'ji hazillashdi:

— Yana ko'zing chaqnab qoldimi, Subutoy Bahodur, nima, dimog'ingga qon hidi urdimi? Ishtahang ochilmay qo'yaqolsin, baribir urushmaymiz.

Subutoy nimadir deb to'ng'illab qo'ydi, xolos.

Xorazm askarlari horib-charchagan, otlar zo'rg'a qadam tashlar edi. Temur Malik anchagacha yalinib-yolvorgach, sultonni qo'shinga dam berishga ko'ndirdi. Qosh ham qorayib qolgan, jang uchun qulay fursat o'tgan edi. Tong otar-otmas hujumga o'tsalar, tushgacha masala bir yoqli bo'ladi.

Bir tepalik ustiga qo'ndilar. Tepadan Jo'jixonning qarorgohi ko'zga yaqqol tashlanib turardi. Chor-atrofga soqchilar qo'yildi. Temur Malik mabodo qush uchib o'tsa ham tez xabar berishni tayinlab, Jaloliddin va Sariq Lag'o't bilan birga chodirga kirdi.

Kecha tinch-osoyishta o'tdi. Temur Malik bilan Jaloliddin bir necha bor chodirdan chiqib, Jo'jixon qarorgohida yonayotgan gulxanlarni tomosha qilishdi. Har holda dushman askarlari ko'pga o'xshaydi. Shu bois uni nazar-pisand qilmaslik to'g'ri bo'lmaydi. Agar jang boshida yengilguday bo'lishsa, askarlarning ruhi tushib, mag'lubiyatga uchrashlari turgan gap.

Ikki do'st ancha vaqtgacha ertaga bo'ladigan jang vaqtida qanday ish tutish kerakligi to'g'risida uzoq suhbatlashdilar.

Askarlar guruh-guruhlarga bo'linib, birgalikda bomdod namozini o'qidilar. So'ng tayyorgarlik ko'rish to'g'risida buyruq berildi. Chodirlar yig'ishtirildi, askarlar intizom bilan saflandi.

Sarkardalar o'z favjlarining boshiga o'tdilar. Tepalar ortidan quyosh endigina mo'ralagan bir paytda Jo'jixon qarorgohidagi gulxanlar ham so'ndi. Xorazmshoh g'urur bilan atrofiga ko'z tashladi. Otini goh o'ynatib, goh to'xtatib, qo'shinni taftish qildi. Jaloliddinning oldida biroz ko'proq to'xtagan sulton o'g'lini boshdan oyoq ko'zdan kechirgach, dedi:

— Bu jangda o'zingni ko'rsat, o'g'lim. O'z xohishingga ko'ra seni manglayga o'tkazdim. Meni uyaltirib qo'ymassan.

So'ng Temur Malikka o'girildi:

— Sen ham, Temur Malik...

Har ikkovi bir vaqtda javob berishdi:

— Bosh ustiga, sultonim.

Sulton markazdagi askarlarning boshiga o'tdi. Qilichini sug'urib, baland ko'tardi. Biroz turgach, qilichini shiddat bilan oldinga cho'zdi.

— Bismillo, hujuuum!..

Xorazm qo'shini tepalikdan shitob bilan pastga otildi. "Yo Olloh, yo Olloh!" xitoblari yer-u ko'kni tutdi. Qo'shin ko'p o'tmay dushman qarorgohiga yetib borib, chodirlarga hujum qildi. Ammo...

— Bu ne hol?

Barcha o'z-o'zidan so'radi:

— Bu ne hol?

Chodirlar bo'm-bo'sh, chor-tevarakda kimsadan asar yo'q. Faqat ikkita ozg'in it yemish qidirib, izg'ib yurardi.

Birdan gap tagiga yetdilar.

— Kechasi juftak rostlab qolishgan.

— Gulxanlar-chi? Erta tonggacha yonib turdi-ku.

— Bu Jo'jixonning hiylasi. Qo'shinlarning qarorgohda turganiga bizni ishontirish uchun har tomonga gulxan yoqtirgan. Bunga muvaffaq ham bo'ldi. Hiylaga uchdik.

— Chodirlarini ham buzdirmapti...

— Albatta buzdirmagan. Ammo lash-lushini supurib-sidirib olib ketgan. Qara, olishga arzigulik bir cho'p ham yo'q.

Sulton Alouddin Muhammadning joni halqumiga keldi. Aldanganidan o'zini qayoqqa qo'yishni bilmadi. Alamiga chiday olmay jizg'anak bo'ldi.

— Qo'rqoqlar, qo'rqoqlar! — deya ustma-ust baqirar, otini niqtalab, tashlab ketilgan qarorgoh atrofida to'xtovsiz gir aylanar edi.

Nihoyat to'xtadi.

— Dushmanni ta'qib etamiz, — deya amr berdi u.

Temur Malik Jaloliddinga pichirladi:

— Qochgan dushmanni quvish nojoiz-ku! Nega sultonimiz bunday qilmoqchi, Jaloliddin? Jo'jixonning qo'shini ilg'or qism bo'lsa kerak. Bizni pistirmaga tushirishlari mumkin. Borib sultonga ayt, bir yo'lini top.

Jaloliddin otasining yoniga ot surdi.

— Sultonim, qochganni quvish shartmi? Modomiki, bizdan qo'rqdimi, ketaversin. Biz qipchoq xonlarining murodini hosil etish uchun yurishga chiqdik-ku. Borib, qoraxitoylarni topaylik. Ularni qipchoq yurtidan haydaylik. Jo'jixonni o'z holiga qo'yaylik, ketaversin.

Sulton o'g'liga jahl bilan qaradi.

— Yosh boladay gapirasan, Jaloliddin. Dushman qo'rqib qochdimi, demak o'ziga ishonmaydi. Orqasidan yetib olib yanchib tashlashimiz mumkin bo'lsa-yu, quvmaylikmi?!

— Shu paytgacha qochganni quvlamagan edik. Bular katta qo'shinning ilg'or qismi bo'lmasaydi, deb qo'rqaman. Ularni quvib, Chingizning tuzog'iga tushsak, tamom bo'lamiz.

Sultonning achchig'i chiqdi. Bor ovozi bilan baqirdi:

— Seni qo'mondonlikdan tushirishim kerakka o'xshaydi. Bor, yo'qol, ko'zimga ko'rinma!

Jaloliddin miq etmay, orqaga qaytdi. Temur Malikning yoniga borib:

— Hammasi behuda bo'ldi, — dedi. — Qipchoq xonlari sultonning qo'ltig'iga suv purkab, rosa shishirishibdi. Katta g'alaba qozonmay Xorazmga qaytsa obro'sining yanada tushib ketishidan qo'rqayotir.

Temur Malik bosh chayqadi, yuzini burishtirdi.

Sultonga Jaloliddinning bu gap-so'zlari mutlaqo yoqmagan edi. Bu bola tobora o'zboshimcha bo'lib borayotir, otasining azm-u irodasini hech ma'qul topmayotir. Maslahatchisi Temur Malik. Aslida bu gaplar Temur Malikdan chiqqan. O'zini sultondan aqlliroq hisoblab, aql o'rgatishga o'tdimi u? O'z vaqtida chora ko'rmasa, kim biladi, bu ketishda u yana qanday hunarlar ko'rsatar ekan?

Mahramlaridan biriga darhol Temur Malikni olib kelishni buyurdi. Temur Malik yetib kelgach, yuziga ham qaramasdan buyurdi.

— O'n yigit ol-da, oldinga o't, xabargirlik qil.

— Bosh ustiga, sultonim..

Sulton Temur Malik bu kichik vazifani rad etar deb o'ylagandi. Shunday qilsa, jazolash uchun bahona topilgan bo'lurdi. Biroq aksi bo'lib chiqdi, Temur Malik bu kichik ishga ikkilanmay darhol rozi bo'ldi.

Sulton hayrat bilan so'radi:

— Demak, rozisan?

— Nega rozi bo'lmay? Bu islom qo'shinida kattami-kichikmi, istalgan bir rutbada xizmat qilish men uchun sharafdir. Boshlig'i kim bo'lishidan qat'i nazar, har bir musulmon Olloh rizosi uchungina jihodga chiqadi. Islom qo'shinining har bir qismi savob jihatdan birdir.

Sultonning boshi xam bo'ldi. O'z-o'zidan uyalgan edi.

— Olloh seni qo'llasin, — dedi u.

— Omon bo'ling.

Qo'shin rosa charchagani bois sur'at bo'shashgan. Shu topda dushmanga duch kelguday bo'lsa mag'lub bo'lishi ham hech gap emasdi.

* * *

Temur Malik qisqa fursat ichida ancha uzoqlashib ketdi. Biroq hech kimni uchratishmadi. Qum usti taqa izlariga to'lib ketgan.

O't qo'yilgan bir nechta qishloqdan o'tdilar. Mo'g'ullar hech kimni, hatto xotin-xalaj, bola-chaqani ham ayamay yoppasiga qirg'in qilgan edilar. Hatto, toshyurak deb nom chiqargan Sariq Lag'o't ham bu manzarani ko'rmaslik uchun yuzini chetga burdi. Soqoli ko'ksiga tushgan bir mo'ysafidni qoziqqa o'tqazib ketishgandi. Sariq Lag'o't bu manzarani umrining oxiriga qadar unutolmaydigan bo'ldi. Mo'ysafidni qoziqdan chiqarib olishdi. Bechora bir qur ularning yuzlariga ma'nosiz boqdi, so'ng og'zidan qon bilan bir jumla chiqdi:

— Iblislar izg'ib yuribdi, ehtiyot bo'ling!..

Mo'ysafidning boshi yoniga tushdi, ko'zlari olayib qoldi.

Surunkasiga ikki kun to'xtovsiz yo'l bosib, dushmanni quvishdi. Faqat namoz va ovqatlanish uchun to'xtashdi, xolos. Ora-sira o'tgan yo'llari ustiga ma'lum masofa oralig'ida boshi yo'nilgan qoziq qoqish uchun otdan tushishardi. Orqadan kelayotgan Xorazm qo'shini shu qoziqlarga qarab yo'l bosardi.

Uchinchi kuni tush paytida o'rmon oralab ketayotganlarida otlar birdan bezovta bo'lib qoldi. Temur Malikning zotdor tulpori depsinaverdi, olg'a yurgisi kelmadi. Tajribali jangchi buning sababini darrov tushundi.

— Yaqin-atrofda bir xavf bor, — dedi u. — Ehtiyot bo'ling.

Qilichlarini sug'urib, qo'lga olishdi. Har bir daraxt orqasida dushman poylab turgandek, ehtiyotkorlik bilan ilgarilay boshladilar.

Birdan daraxtlar ustidan patir-putur etib, askarlar yog'ilib tusha boshladi. Temur Malik:

— Ehtiyot bo'ling! — deb qichqirdi.

U ustiga tushgan odam bilan yerga yumaladi. Omonsiz olishuv boshlandi. Temur Malik otdan ag'anagan paytda qilichi qo'lidan uchib ketgan edi. Ammo qilichi qo'lida bo'lgan taqdirda ham bu vaziyatda uni qo'llay olmasdi.

Dushmani bilan yoqa bo'g'ishib, goh u, goh bu tomonga dumalashdi. Raqibi ora-sira bir narsa dedi, ammo Temur Malik uning tilini bilmagani uchun hech narsa tushunmadi.

Nihoyat qo'llari bilan dushmanning bo'g'zidan olishga muvaffaq bo'ldi. Bo'g'di... Biroq raqibi abjir ekan. Bir siltanib, qo'ldan chiqdi. U qaddini rostlab, belidagi egri qilichini sug'urdi va hali turishga ulgurmagan Temur Malikning ustiga soldi.

Temur Malik yashin tezligida chetga yumaladi, ayni zahoti o'rnidan sapchib turdi. Biroq qilichi yo'q. Kalta xanjarini qo'liga oldi. Oyoqlarini kerdi.

— Qani, kel, bir ko'raylik...

Mo'g'ul o'qdek otildi. Temur Malik chap berdi. Qo'lidagi xanjarini zarb bilan urdi. Xanjar sopigacha mo'g'ulning qorniga kirib ketdi. Temur Malikning qo'li qonga belandi. Jon holida urilgan faryod o'rmon ichida aks sado berdi.

Ildam borib, qilichini oldi. Bu orada askarlari ham oyoqqa turib olishga ulgurgan va jang qilayotgan edilar.

— Bular ko'p emas ekan, — deya qichqirdi Temur Malik. — Bo'sh kelmang!

Ko'p o'tmay jang yakunlandi. Ikki yigitni boy berishdi, biroq mo'g'ullardan besh kishini o'ldirishdi.

Temur Malik peshona terini kaftining orqasi bilan artdi.

— Yaqinlashdik shekilli, — dedi u. — Bular dushmanning didbonlari. Jo'ji qo'shini yaqin-atrofga qo'ngan. Qochganlar bizdan unga darak berishadi. Tez qaytib, o'zimiznikilarga ahvolni bildiraylik.

Oldin turgan joylarini aniqladilar. Aniqlab, hayron bo'ldilar. Ular Irgiz daryosi sohiliga kelib qolishgandi. Demak, Jo'jixon qo'shini yuqoridan aylanib, yana daryo yoqasiga qaytgan. Sababi noma'lum, ammo u suv yonidan uzoqqa ketishni istamagani aniq.

Temur Malik:

— Endi vaqt ziq, — dedi. — Tezda orqaga qaytish kerak.

Orqaga qaytishdi.

* * *

Xorazm qo'shini yaqinlashgani to'g'risida xabar keltirishgan paytda Jo'jixon chodirida sharob ichib o'tirgan edi. Yupqa lablarini kaftining orqasi bilan artib, bo'sh qadahni cho'ri qizga uzatdi.

— Eh, — dedi u. — Modomiki, bu yerlargacha orqamizdan keldilarmi...

So'zini chala qoldirdi. Xanjari bilan tirnoqlarini kavlayotgan Subutoy Bahodur makkorona tirjaydi. Jo'jixon unga yuzlandi:

— Tayyorgarlik ko'r, Subutoy, — dedi u. — Xorazmshohga dars berish vaqti keldi.

Subutoy oyoqqa qalqdi. Xonga ta'zim qilib, chodirdan chiqdi. Shu daqiqalarda Xorazmshoh ham Temur Malikdan xabar olgan edi.

— Jangga hozir bo'ling, — buyurdi u.

Kechasi bilan yo'l yurdilar. Erta tongda dushman qarorgohida gurillab yonayotgan gulxanlarni ko'rishdi.

Hamma jangga shay. Sulton o'ng qanot qo'mondonligini yana Jaloliddinga topshirdi. O'zi markazda, so'l qanotda esa To'rg'ay.

Quyosh ufqdan asta bosh ko'tarib, maysalar ustidagi shudringda jilvalandi. Yoqimli cho'l shamoli esdi. Xorazmshoh sarkardalarini yoniga chaqirdi.

— Ikki tomondan bosamiz. Bir yondan Jaloliddin, ikkinchi tomondan To'rg'ay bostirib boradi.

Jaloliddin bilan To'rg'ayxonga xitob qildi:

— Yog'iyni o'rab olishga harakat qiling. Men markazdan hujum qilib, Jo'jixonni asir olaman. Sizlardan jasorat va matonat kutaman. Zafar bizniki. Hammamizni Olloh qo'llasin.

Imom qisqa duo o'qidi. Sulton Muhammad bir tepa ustiga chiqdi. Dushman qarorgohida uymalashayotgan askarlarga uzoq tikildi. So'ng farmoyish kutayotgan odamlariga o'girildi:

— Dasturxon yozilsin, noz-ne'matlar keltirilsin...

Darhol dasturxon yozishdi. Maysalar ustiga eron gilamlari to'shaldi. Dasturxon usti noz-ne'matga to'ldirildi. Bu manzarani Chingizxon ko'rganida ehtimol yerga yumalab kulgan bo'lardi.

Jo'jixon bu paytda sarkardalariga ko'rsatma berayotgandi.

— Vahimaga tushish uchun hech bir sabab yo'q. Har doimgiday bu gal ham biz zafar qozonamiz. Qozonishimiz ham kerak. Jangda g'olib chiqish asosiy masala emas. Gap kam talafot berib, qurshovni yorib chiqib ketish-da! Hali bu yerlarga qaytib kelamiz. O'sha vaqtda Xorazmshohga sichqonning ini ming tanga bo'ladi. O'lsangiz, o'ling, ammo navkaringizning boshidan ayrilmang. Asir olgan xorazmlik askarlar bilan otlari sizniki, xohlasangiz sotasiz, xohlasangiz xizmatingizga olasiz.

Otiga minmasdan oldin uning quyrug'ini bog'lab, yolini siladi. Sarkardalari Subutoy bilan To'qucharga qarab kulimsiradi. Har ikkala sarkarda ham otlarining quyrug'ini bog'ladi.

Jaloliddin ayni lahzada otiga minib, askarlarining oldidan joy oldi. Qilichini sug'urdi.

— Qahramon xorazmliklar, arslonlarim! Dushman oldimizda turibdi. Olloh buyursa, ularni bu zamindan uloqtirib tashlaymiz. G'alaba bizniki bo'lg'usi. Olg'aaa!...

Tog'dan ko'chgan sel kabi pastga yog'ilib, ko'z yumib ochguncha tekislikka tushdilar.

Jang boshlandi. "Yo Olloh, yo Olloh!" tovushlari mo'g'ullarning baqir-chaqiriga qorishib ketdi. Qilich yeganlarning oh-faryodi otlarning kishnashiga ko'mildi.

Mo'g'ul otlarining ustiga qalin charm yopinchiq tashlangan. Askarlar ham charm sovut kiygan. Ular ming kishidan saf-saf bo'lib, o'n favj shaklida jangga kirishdi. Mo'g'ullarning intizomi diqqatni tortar edi. Ular buyurilgan taqdirda kiprik qoqmay o'limga tik borardilar. Mo'g'ullar birinchi halqani osongina yorib o'tdilar.

Jaloliddin o'z qismlari bilan mo'g'ullarning so'l qanotini tobora siquvga olib, duch kelganni bosib-yanchib borardi. Biroq qipchoq xoni qo'li ostidagi so'l qanot muvaffaqiyat qozona olmadi. Sulton bo'lsa dasturxon ustida bamaylixotir qorin to'ydirish bilan ovora. Ko'z qiri bilan jang maydonini kuzatadi. U Jaloliddinga tan berdi.

— Darhaqiqat mohir qo'mondon bo'libdi, — deya e'tirof etdi u.

Bir vaqt markazda chang ko'tarildi. Sulton Muhammad o'rnidan turib, qo'lini peshonasiga soyabon etganicha, shu tomonga diqqat bilan qaradi. To'rt mo'g'ul qismi so'l qanotni to'zitib, u turgan joyga shitob bilan bostirib kelar edi. Og'iz ochib, angrayib turadigan payt emas.

— Otimni keltiring! — deya qichqirdi u.

Sakrab otiga mindi. Markaz qo'shinlarining boshiga o'tdi. Tepaga tobora yaqinlashib kelayotgan mo'g'ullarga ishora etib, dedi:

— Mening orqamdan olg'a! Bismilloh, hujum!..

Shitob bilan pastga tushishdi. Dushman ustiga yashindek yopirilishdi.

Mo'g'ullar bunday bo'lishini kutishmagandi. Ko'p sonli qo'shinga duch kelgach, sarosimaga tushdilar. Hatto, ba'zi qismlari to'zib boshladi.

So'qir Subutoy vaziyatni darhol sezdi. Yer-u ko'kni boshiga ko'tarib baqirdi:

— Kim qochsa qoziqqa o'tqazaman!..

Mo'g'ul navkarining ichiga o'limdan ham kuchliroq qo'rquv kirdi. Bir tomonda Irgiz daryosi, ikkinchi tomonda Subutoyning qozig'i bor. Ular osonroq o'limni tanladilar. Mo'g'ullar xorazmliklar qilichi ostida jon berishni afzal bilib, oldinga tashlandilar.

— Lu! Lu! Lu! Lu!

Bor ovozi bilan baqirib borishardi. Qayerdandir ularda jasorat paydo bo'ldi. O'zlarini qo'lga olib, o'lim quchog'iga tikka otildilar.

Jang qonli bo'ldi. Sulton Muhammad qisqa bir fursatda g'alaba qozonaman deb o'ylardi. U qilich yalang'ochlagan yuzta xos soqchilarining orasida, bo'z otida turar, goh-goh askarlarini ruhlantirish uchun qichqirib qo'yardi:

— Uring, arslonlarim, bosing, lochinlarim, yanching!..

Biroq vaziyat sulton o'ylaganchalik yaxshi emasdi.

Jo'jixon Xorazm qo'shinining To'rg'ayxon qo'mondonligi ostidagi so'l qanotini buzib o'tib, Subutoyga yordamga yetib kelgan edi. Ayni chog'da ehtiyot qismlarning barchasini jangga tashladi.

Xorazmliklar jangga kirgan yangi mo'g'ul kuchlari oldida bo'shashdilar. Sulton labini tishlab qonatib yubordi.

— Necha yillardir jang qilib, bunday urush usulini ko'rmadim. Ins-u jinsga o'xshaydi bular...

O'z qavatidagi soqchi qismning yarmini olg'a yubordi.

— Meni qo'riqlashning keragi yo'q. Boring, dindoshlaringizga yordam qiling.

Ammo bu ish naf bermadi. Qaytaga sultonning o'zi xavf ostida qoldi. Jaloliddin bo'lsa qocha boshlagan mo'g'ullarni qilichdan o'tkazmoqda edi.

Temur Malik jon-jahdi bilan olishar, o'ynayotgan qilichi o'lim sochar edi. Oldida bironta dushman qolmagach, bosh ko'tarib, atrofga razm soldi. Birdan hovliqdi, sulton xavf ostiga tushgan edi. Otini burib, ovozining boricha qichqirdi:

— Qahramon xorazmliklar, orqamdan olg'a. Sultonimiz xavf ostida!..

Bu so'zlardan askarlari g'ayratga keldi. Ular favqulodda shijoat ko'rsatib, tobora kamayib borayotgan markaz qismlariga yordamga yetib bordilar.

— Yo Olloh, yo Olloh, yo Olloh!..

— Lu! Lu! Lu!..

— Ur ho, ur! Ur ho, ur!

Temur Malik boshchiligidagi Xorazm askarlari intizomda mo'g'ullardan qolishmasdi. Boz ustiga ular shahodatni o'z bo'yniga olib jangga kirgan musulmonlar edi. Ular jonini jabborga berib, olishdilar.

Jo'jixon bu imon-e'tiqodli askarlarga qarshi turolmasligini tushundi. U shu zahoti buyurdi:

— Tog' tomonga chekining!

Mo'g'ullar urusha-urusha tisarildilar. Ko'p talafot berdilar. So'ng ular jang maydonidan birdan qochdilar. Pakana otlarining yoliga yopishib olgan ko'yi tog' tomonga qarab ot choptirdilar. Ko'z ochib yumguncha ko'zdan g'oyib bo'ldilar.

Jang maydonida o'lgan va yarador bo'lib fig'on chekayotgan mo'g'ullar qoldi, xolos. Sulton Muhammad g'alaba qozonganidan mamnun. Dushmanni qochirdi, zafar qozondi. Biroq u uyqudagi ilonni uyg'otganidan, necha yillab o'zidan laxta-laxta qon-u son-sanoqsiz murda qoldiradigan urushga urug' tashlaganidan bexabar edi.

— Zafar qozondik, alhamdulilloh!..

Qo'l ochib uzundan uzoq duo o'qidi. Qo'lini yuziga tortayotganida yonida kimdir gapirdi:

— Hali zafar qozonganimiz yo'q, sultonim.

Achchig'i chiqdi, kayfiyatini buzmoq istagan bu uyatsiz kim o'zi?

— Ha! Senmiding, Temur Malik? Ofarin, yashinday yetib kelding. Ammo nega bunday achchiq so'ylaysan?

— Haqiqat achchiq-da, sultonim.

— Zafar qozondik, yog'iy qochdi. Askarlarim ularni quvib ketdi, hammasini qilichdan o'tkazishadi. Yana ne kerak senga?

— Bu bir ibtido, sultonim, ishning ibtidosi, xolos.

— Taajjub, sen nening ibtidosidan so'zlamoqdasan?

— Urushning ibtidosidan.

— Urush tugadi, o'z ko'zing bilan ko'rding-ku.

— Yo'q, sultonim, urush endigina boshlandi. Bunga Chingiz indamay ketaveradi deb o'ylaysizmi?

— Nima, haliyam qo'rqyapsanmi?..

Temur Malikning yuzidan qon qochdi.

— Hayhot! Seni to'g'ri tushunmasliklaridan yomon narsa bormi jahonda?!

Sulton unga chaqchaydi.

— Charchabsan, Temur Malik. Bor, damingni ol.

— Bosh ustiga, sultonim.

Jaloliddinning yoniga ketdi.

— Bular katta qo'shinning ilg'or, — dedi u do'stiga. — Yengdik, ammo bu faxrlanishga arzimaydi. Kattakon Xorazm qo'shini bir hovuch mo'g'ul askarini tor-mor keltirdi, xolos. Asosiy jang endi bo'ladi. Modomiki bu yo'lga kirdikmi, endi tez tayyorgarlik ko'rmog'imiz darkor.

Jaloliddin ham shu fikrda edi. Zotan ular xuddi egizaklardek, bir xil o'ylab, bir xil fikrlar edilar.

* * *

Irtish daryosi bo'yiga o'tovlar tikilgan. Yog'ayotgan mayda yomg'ir tomchilari o'tov ustida ingichka irmoqchadek iz qoldirib, yerga oqadi. O'tovlarning hammasi bir xil. Ular orasida faqat bittasigina alohida ajralib turadi. Sariq ipakdan tikilgan bu chodir oltin qoziqlar ustiga tortilgan. Eshigining oldida ot quyrug'idan yasalgan to'qqizta tug' hilpiraydi.

Bu sariq chodir sariq yuzli Chingizxonning chodiri. Chodirda Chingizxon bilan uning Qulon Xotun ismli yoshgina xotinidan boshqa kimsa yo'q. Ular o'zaro suhbatlashayotgan edilar.

— Buyuk xoqon, istaganingizga erishdingiz, tilaklaringiz ijobat bo'ldi, — dedi Qulon Xotun, — yetar endi. Men uchun azob bo'layotgan bu urushlarning oxiri bormi o'zi? Qachon qarasa vahshiy burgutdek o'zingizni shoxdan shoxga otasiz, yirtqich bo'ridek tog'dan tog'ga chopasiz. Yonimda o'tiradigan paytingiz bo'ladimi yoki yo'qmi?

Chingizning lochinnikiga o'xshash ko'zlari olovlandi.

— Boshqa xotinlar kabi nafsingga qurbon bo'lish senga yarashmaydi, Qulon Xotun, — dedi u. — Sen xotinlarning sultonisan, butun dunyo xotinlarining podshosisan. Sen o'zgalardan o'zgacha fikrlamog'ing lozim! Ammo topib aytding: vahshiy burgutdek shoxdan shoxga, yirtqich bo'ridek tog'dan tog'ga... Ha, shunday, butun dunyoga hokim bo'lmagunimcha urushning oxiri yo'q.

— Bundan ne foyda?

— Foydami?.. Mag'lub etgan har bir xoqonning otini minish va xotinini olishdan ortiqroq zavq yo'q men uchun, bildingmi? Bu yo'ldan qaytolmayman. Chunki navkarlarimga shunday deb so'z berganman. Butun dunyoni oldimda tiz cho'ktirmagunimcha qilichim qiniga kirmaydi.

— Kunlarning birida razil o'q sizni mendan ayirgudek bo'lsa yashay olmayman, axir.

— Unday bo'lsa, tirik qolishingni men ham istamayman. Biroq hozirdan yomon niyat qilma. Do'stlarim o'limga chora topish uchun harakat etishmoqda. Topmay ham ko'rishsin! Men dunyodagi eng buyuk xoqonman. Boshqalardek o'lib ketavermasligim kerak. Yashashim kerak, mangu yashashim kerak.

Qo'llarini oldinga cho'zib, mushtin tugdi. Xuddi abadiy hayotni tutib olganday quvondi. Tirnoqlari etiga botguncha hovuchini qisdi...

— Dunyoda hayotdan aziz narsa yo'q. Men mangu hayotga erishaman, hech qachon o'lmayman.

Xotin unga ishonqiramay boqdi.

— O'limning chorasi bor ekanmi?

Chingizxon jahl bilan xotiniga o'girildi.

— Bor! — deya o'shqirdi u. — Bunga xotinlarning aqli yetmaydi. Shomonlarim buyuk afsungarlar, hakimlar borligini aytdilar. Ularni topgani ketishdi, yaqinda obihayot keltirishadi. O'sha vaqtda...

Jim qoldi. Keyin qars urdi.

— O'shanda "so'ng" degan bir gap bo'lmaydi men uchun, o'limdan qo'rqmayman. Ajalga tiz cho'kmayman.

Qars ovozini eshitib, ichkariga kirgan soqchiga boshdan oyoq tikildi. So'ng buyurdi:

— Bosh shomonni chaqirib kel!

Zum o'tmay bosh shomon keldi. Ko'rsatilgan joyga o'tirdi. Qo'l ishoratidan so'ng xotini tashqariga chiqqach, Chingiz shomondan so'radi:

— O'limning chorasi qachon topiladi, shomon?

Shomon qo'llarini bir-biriga ishqalab:

— O'lim qo'rqinchli bir tushdir, buyuk xoqon, — dedi. — Birodarlarimiz bu ro'yoni daf etmoq yo'lida ishlamoqdalar, taxminimcha, yaqin kunlarda chora topiladi.

— Taxminimcha, deganing nimasi shomonboshi, qat'iy emasmi?

— Yo'q, qat'iy, ulug' xoqon!

— Yaxshi. O'lim xavfini yo'q qiling, men sizni butun dunyoga hokim etaman.

Anchagacha jim qolishdi. Shomon ham sukut saqladi. Birozdan keyin Chingizxon yana so'z boshladi:

— Xorazmshohning qilg'uligiga ne deysan?

Shomon uyqudan uyg'ongandek kiprik qoqdi.

— Oxirgi bosqinni aytyapsizmi?

— Birinchisi va oxirgisi. Bundan keyin u na bosqin qiloladi, na g'alaba qozona oladi.

— Nega? Unga hujum qilmoqchimisiz?

Chingiz makkorona tirjaydi.

— Bu tabiiy emasmi? Dimog'i shishib ketdi uning. Band ekanligimdan foydalanib qolmoqchi bo'ldi. Urush ochish uchun shu sabab yetib ortadi. Arzimagan bahonani ro'kach qilib, necha-necha davlatlarni ag'darib tashlagan bo'lsam.

Shomon o'zini o'ylayotganga soldi.

— Nega o'ylab qolding? Yoki yulduzlar urush vaqti emasligini ko'rsatyaptimi?

— Ha, xoqonim, xuddi shunday...

Chingizning yuzi burishdi. U yulduzlarga qattiq ishonardi.

— Ne deysan? Bu yaxshilik alomati emas-ku.

Shomon jiddiy qiyofasini o'zgartirmay, so'zida davom etdi:

— Bu kecha yulduzlarga boqib, rom ko'rdim. Yulduzlar bizga xayrixoh emas. Yil oxirigacha shunday bo'ladi.

Chingizxon yulduzlar doim to'g'ri yo'lni ko'rsatadi deb o'ylardi.

— U holda Sulton Muhammadning toleyi bor ekan, ancha vaqtgacha boshi omon qoldi, — deya g'udrandi u. — Men uchun bo'lsa ko'p yomon...

— Yana bir gap bor, buyuk xoqon.

— Xo'sh?

— Hozircha sulton Muhammad bilan do'stlashib olsangiz yaxshi bo'lardi.

— Buni ham yulduzlar aytdimi?

— Albatta. Hamal burji Yoy burjining to'g'risiga kelgan. Chayonning dumi Arslonning og'zi ichida. Sulh tuzmasak, biz uchun falokat bo'lg'usi.

— Chayon Arslonni og'zidan chaqib o'ldirishi mumkin.

— Bu ehtimoldan uzoq. O'rgangan ilmimga ko'ra xuddi shunday. Necha-necha yil chinlik Xa-Si Yungning oyoqlariga bosh urib, osmon-u falak asrorini o'rgandim. Bor ilm-u salohiyatimni esa sizga bag'ishladim. Hozir bo'lsa menga ayon bo'lgan gaplarni aytyapman, ammo negadir ishongingiz kelmayapti.

Chingiz shomondan cho'chir edi. Shomon istasa chaqmoq chaqtirib, qiyomatni qoyim qilishiga ishonardi.

— Senga ishonaman, — dedi u. — Biroq Xorazm bilan do'stlashish yo'lini bilmayman.

— Bundan osoni yo'q. Qo'l ostingizda bir to'da musulmon bor. Ularni bir karvon bilan sultonga jo'nating. Qimmatbaho hadyalar peshkash etsinlar. Sultonning vaqti chog' bo'ladi. Bir nechta joriya ham yuboring. Biz uchun asosiy xavf sulton emas, biroq shunday bo'lsa-da, ko'nglini olaylik.

— Xo'sh, xavf kimdan bo'lmasa?

— O'g'li Jaloliddin va sarkardasi Temur Malikdan...

— Ona suti og'zidan ketmagan go'dak ular, shomon. Men biron jo'yali gap aytarmikansan devdim.

— Bunday demang, buyuk xoqon. Har ikkovi ham katta bahodir sarkarda emish.

— Sen bularni qayerdan bilding?

Bosh shomon sirli tabassum qildi-da, dedi:

— Yulduzlar doim rost so'ylaydi.

Aslida bu gapga yulduzlarning hech qanday aloqasi yo'q edi. Shomon bularni Xorazmshoh qo'shini bilan urushgan mo'g'ul askarlaridan eshitgan. Ammo uning ishi shunday — bilgani to'g'risida yulduzlar nomi bilan safsata sotadi.

Chingizxon bosh egdi. Ne-ne buyuk fotihlar, xoqonlarni tiz cho'ktirgan dahshatli Chingizxon oddiy bir shomonga bosh egdi. Vo ajab!.. Shomon so'zida davom etdi:

— Xorazm nihoyatda boy mamlakat. Yaylovlari keng. Shaharlari ma'mur, atrofi baland devorlar bilan o'ralgan. Buyuk olimlari bor. Dunyoning yuragi u joylar. Gurganchning o'zi ilm-ma'rifatda butun dunyoga bas keladi.

Chingizning qisiq ko'zlari suzildi.

— Ko'p yaxshi, — dedi u. — U yerlar bizniki bo'lishi kerak, yo shunday emasmi?

— Vaqti, soati bor. Bu yil yulduzlar bizga qarshi. Aytganimdek, tujjor karvoni jo'nating. Karvon bilan sultonga hadyalar yuboring. Maktub ham jo'nating. Hech qanday adovatingiz yo'qligiga ishontiring uni.

— Karvonning ne hojati bor?

— Ayg'oqchilik uchun, xoqonim. Xorazm savdogarlarining tiliga kuchi yetmaydi.

Chingizxon o'rnidan irg'ib turdi. Hayratdan og'zi ochiq.

— Aqlingga balli, shomonboshi! — deb qiyqirdi u. — Buni o'ylamagan ham edim. So'zing to'g'ri. Haqiqatan josuslik uchun karvon yuborish kerak. Ko'p yaxshi... Kimni yuborsam ekan, ajabo?

Shomon qilgan yaxshi ishidan xushhol jilmaydi.

— Donishmand Hojibni bosh elchi tayinlang, yoniga bir nechta musulmon qo'shing. Boshqalari o'zimiznikilardan bo'lsin. Xorazm tilini bilganlar borsin.

— Yaxshi, ko'p ma'qul gap. Elchilarning hammasini bizga tobe musulmonlardan tayinlasak bo'lmaydimi?

— Afsuski, bunday qilolmaymiz. Chunki musulmon musulmonga osonlikcha xiyonat etmaydi. Xorazmshoh musulmon. Shu bois mo'g'ullar orasidan josus topmog'imiz kerak.

— Bo'ladi bu ish. Hoziroq amr beraman. Bir karvon yuboraman. Alouddin Muhammadni ziyorat etsinlar. Boshqalari savdogar qiyofasida yurib, ma'lumot to'plasin, shaharlarning zaif joylarini bilib olsin. Keyinchalik bizga oson bo'ladi. Biroq karvondagi musulmonlarning josuslik ishidan xabari bo'lmaydi.

— Xuddi shunday, buyuk xoqon.

— Omon bo'l, ulug' shomon, sendan minnatdorman. Xazinabonga uchrash, istaganingcha oltin, javohir bersin.

— Davlatingiz barqaror bo'lsin, buyuk xoqon!..

— Davlatim-ku barqaror bo'ladi, lekin sen umrimning uzoq bo'lishini tila, shomon.

— Ko'ktangri sizga cheksiz umr bersin!

— Omon bo'l, ketishing mumkin.

Sevinchdan og'zi qulog'iga yetgan shomon choponining uzun etagini ko'targanicha tashqariga chiqdi.

BESHINCHI BO'LIM

Xorazmshoh Alouddin Muhammad Buyuk devonni to'pladi. U xona uzra u yoqdan bu yoqqa yurib, zafardan sarmast holda dam ura boshladi. Buyuk Iskandar uddasidan chiqolmagan ishlarni qiladi. Chin mamlakatini qo'shib oladi. Qipchoqlar tez-tez bosh irg'ab, so'zlarini ma'qullashdi. Orada Jaloliddin Temur Malik bilan ma'nodor ko'z urishtirib qo'yardi.

Sulton Muhammad bu ko'z urishtirishlarni payqab qoldi. Oxiri chiday olmay, Temur Malikning oldida to'xtadi.

— Meni masxara qilyapsanlarmi, ey nodonlar? — deya o'shqirdi u.

Temur Malik o'ziga xitob qilingan zahoti sakrab o'rnidan turdi.

— Yo'g'-e, sultonim, bu haddimizga sig'armidi?

— Unday ekan, nega Jaloliddin bilan ko'z urishtirayotirsan?

— Amr etsangiz, endi bir-birimizga qaramaymiz, sultonim.

— Bu qanaqasi?.. Men buyuk sulton emasmanmi? Mamlakatimning hududini Chin-Mochinga qadar kengaytira olmaymanmi?

— Olloh buyursa, kengaytirasiz, sultonim.

— Olloh musulmonlar bilan birgadir.

— Olloh ishlagan, tinglagan, fe'li-atvori bilan buni isbot etgan bilan birgadir.

— E'tirozing bormi?

— Amr etsangiz, e'tiroz bildirmay...

— Unday bo'lsa, buyuraman, e'tiroz etma!

Jahl bilan qipchoq xonlariga o'girildi. Ular hamon bosh irg'ab ma'qullab turardilar.

— Sizning fikringiz qanday?

Qipchoq xonlaridan biri javob berdi:

— Sultonimizga monand, unga teng odam dunyoda yo'q.

— Sizning fikringiz yaxshi.

Chiday olmagan Jaloliddin o'rnidan turdi.

— Sultonim, nahotki bu xushomadlar sizga ma'qul bo'lsa?

Sulton ajablanib o'g'liga qaradi.

— Ne demoqchisan?

— Ya'ni hazrati Umar ham sizdan buyukroq hukmdor emasmidi?

Shoh esankiradi.

— Tushunmadim?

Jaloliddin barmog'i bilan so'zlagan xonini ko'rsatdi.

— Bu xon dunyoda sizga teng, sizga monand hukmdor bo'lmagani to'g'risida so'ylaydi. Ya'ni dunyo dunyo bo'lganidan buyon sizdan buyukroq bir jahongir o'tmagan. Sizga ham bu so'z ma'qul bo'ldi. Men shuni bilmoqchi edim: siz hazrati Umar yoki hazrati Alidan ham ustunmisiz?

— Ularning yo'rig'i boshqa, — deb ming'illadi sulton.

So'ng qadamini sudrab bosib, taxtiga chiqib o'tirdi. Anchagacha sukunat hukmron bo'ldi. Sulton o'zini yiqilib tushgandek his qilardi. Ich-ichdan o'g'li haq ekanini bilsa-da, jahli chiqqan edi. Bu so'zlar to'g'ri bo'lishidan qat'i nazar, ko'pchilik oldida otasining obro'sini to'kishdan boshqa narsa emas-ku! Nahotki, Jaloliddin aytgan gaplar rost bo'lsa? Qipchoq xonlari haqiqatan tilyog'lamalik qilayotirmi? Ha, shunday! Ularning so'zlari xushomaddan boshqa narsa emas. Bu so'zlarga uchib xatoga yo'l qo'ymoqda. Biroq ishongisi kelardi. Nega?

Boshini og'ir ko'tarib, barchani bir-bir nazardan o'tkazdi. Temur Malik bilan Jaloliddinga go'yo yuzlaridan nusxa ko'chirmoqchidek uzoqroq tikildi. So'ng quruqqina qilib dedi:

— Samarqandni poytaxt qildik. Katta bir masjid va madrasa insho etdik. Niyatimiz dunyoning eng kuchli olimlarini bu yerga keltirish. Bilgan-tanigan olimingiz bo'lsa, ayting.

Temur Malikning esiga lop etib Dali Darvesh tushdi. Sultonga o'girilib dedi:

— Dali Darvesh bor!

— Kim?

— Dali Darvesh, zindondagi odam.

— Kim u odam?

— Men zindonga tushgan vaqtda u mo'g'ullar to'g'risida ba'zi ma'lumotlarni bergan edi. Ularning tilini ham yaxshi biladi. Ko'p kezgan, ko'pni ko'rgan va ko'p o'qigan dono kishi. Foydasi tegadi deb o'ylayman. Sizga u haqda ilgarilari ham gapirib bergan edim.

Sulton darhol amr berdi:

— Dali Darvesh ozod etilsin!

Zindon ishlari bilan shug'ullanadigan amaldor tashqariga chiqdi.

Boshqalari ham bilgan-tanigan olimlarni aytdilar. Sulton kotibiga yozdirdi. So'ng ularga maktub yozishni buyurdi.

Maktublar bitilgach, shahar qurilishi ustida gap ketdi. Bu orada hojiblardan biri kirib, sultonning qulog'iga nimanidir pichirladi. Sultonning yuzida ajablanish ifodasi zohir bo'ldi. Soqolini tutamlab biroz o'ylagach, hojibga o'girildi va:

— Chaqirilsin! — deb buyurdi.

Sarkardalarni xabardor etdi:

— Mo'g'ul hukmdori Chingizxon dasta-dasta hadya bilan elchi yuboribdi. Demak, Chingizxon bizdan rosa qo'rqadi. Qani, elchilari kirsin, ne gap ekan?

So'z shu yerga yetganda eshik ortidan hojibning do'rillagan ovozi eshitildi:

— Osiyo hukmdori, mo'g'ul xoqoni Chingizxonning elchilari buyuk Xorazm mamlakatining sultoni, Iskandari soniy, islomning shavkatli qilichi, shavkatli va davlatli Alouddin Muhammad Xorazmshoh huzuriga kirmoq sharafiga muyassar bo'ldilar...

Eshik ochilib, hojib ko'rindi. U bir necha odim olg'a yurdi, so'ng orqadagi odamga ishora qilib dedi:

— Mo'g'ul xoni Chingizning elchisi va ishonchli vakili Donishmand Hojib.

Donishmand Hojib qo'llarini ko'ksiga qovushtirdi.

— Assalomu alaykum...

— Vaalaykum assalom, elchi, xush kelding, safo kelding.

Donishmand Hojib sultonning etagini o'pdi, beklarga ta'zim qildi, so'ng ko'rsatilgan yerga chordana qurib o'tirdi. Mahramlari uning ikki tomoniga tizilishdi. Orqada kelganlar kimxob bo'xchalarga tugilgan qimmatbaho hadyalarni sultonning oyog'i ostiga qo'ydilar. Javohirlar va kimxoblar uyilib ketdi. Sulton mamnun bo'lib, kulimsiradi. So'ng Donishmand Hojibga o'girilib:

— Tanishga o'xshaysan, — dedi.

— Balli, sultonim. Irgiz daryosi bo'yida siz bilan tanishish sharafiga noil bo'lgan edim. Jo'jixonning elchisi o'laroq, sizga sulh taklifini keltirgandim.

— Esladim, esladim. Yana shunday tilak bilan keldingmi?

— Xuddi shunday, sultonimizga ayon bo'ldi.

— Demak, Chingizxonning vakilisan.

— Balli...

— Istagi ne?

— Xoqonim urush bo'lishini istamaydilar.

— Urush bo'ldi-ku...

— Bu yanglish tufayli sodir bo'lgan bir hodisa. Xoqonimiz uni unutmoqqa hozirlar. Boshqa takrorlanmasa bo'ldi.

— Mo'g'ullar mamlakatimiz hududiga kirmasa takror uchun sabab yo'q deb hisoblasa bo'ladi.

So'ng sulton Muhammad ovozini bir parda ko'tardi:

— O'z o'y-fikri o'ziga. Men o'z fikrimni so'ylayapman.

— Fikringiz xoqonimizga maqbuldir, sultonim.

— Unday bo'lsa kelishdik. Peshona g'urra bo'lmaguncha aql kirmaydi, degan gap bor.

Chingizxonning elchisi bilinar-bilinmas iljaydi.

— To'g'ri aytasiz, sultonim.

— Ko'p a'lo, elchi, ketishing mumkin.

Elchi o'rnidan turdi. Qo'yniga qo'l solib, bir maktub chiqardi. Maktubni o'pib, peshonasiga surdi, so'ng sultonga uzatdi.

— Xoqonimiz ko'pdan ko'p salomlar bilan birga ushbu nomani ham yubordi. Xoqonimiz o'z savdogarlariga mamlakatingizda tijorat qilish huquqini berishingizni so'rayaptilar. Bu ishga izn bersangiz, do'stligimiz yanada mustahkamlangan bo'lurdi.

Sulton kotibiga ishora qildi. Kotib maktubni olib, ochdi. O'qiy boshladi.

Noma shirinso'zlik bilan bitilgan edi. Salom-kalomdan so'ng xoqon o'z muvaffaqiyatlarini bir-bir sanagan, so'ng Xorazmshohning nomini ko'pdan beri eshitganligini, tanishmoqdan xursand bo'lishini bildirgandi. Do'stlik abadiy bo'lishi uchun har ikki mamlakat tujjorlarining savdo bilan shug'ullanishiga keng imkoniyat yaratib berishga ruxsat so'ragandi. O'zi shunga shay ekanini yozgan edi.

Sulton Alouddin Muhammad o'ylab ham o'tirmay qaror berdi.

— Juda yaxshi. Xoqoningga so'yla, tijoratga ruxsat beraman. Mo'g'ullar mamlakatimning istalgan shahrida savdo bilan shug'ullanishlari mumkin. Bu haqda senga farmon ham berib yuboraman.

Farmonni shu onda yozdirib, muhrladi va elchiga uzatdi.

— Ol buni. Bir-ikki kundan keyin kotibim javob maktubimizni senga beradi. Xoqoningga eltasan. Endi borib damingni ol va farmoyishimizni kut.

— Amringiz bosh ustiga, sultonim.

— Ketishingiz mumkin.

Donishmand Hojib mahramlari bilan tashqariga chiqdi.

* * *

Xorazmshoh Chingiz elchilarini qabul qilgach, o'zi ham mo'g'ul yurtiga elchi jo'natdi. Sultonning vazirlaridan Bahouddin Roziy elchilarning boshlig'i etib tayinlandi. Elchilar orasida Dali Darvesh ham bor edi. Chingiz bu hay'atni 1216-yili Xonbaliqda qabul qildi, ularga hurmat-ehtirom ko'rsatdi. Xoqon ikki davlat orasidagi qardoshlikdan so'z ochib, sulton Muhammadni rosa maqtadi. Biroq uning so'zlari istehzoga to'la edi. Shu bois Bahouddin Roziyning ko'nglida shubha uyg'ondi. Chingizxon ichidan nimalarnidir rejalashtirganini payqadi. Ammo bu rejalar nima ekanini aniqlash imkonini topmadi. Gumonlarini Xorazmshohga bir-bir so'yladi. Agar sulton Bahouddin Roziyning shubhalariga jinday e'tibor berganida

edi, butun boshli Xorazm mamlakatini yoqib bitirgan otashni o'z vaqtida so'ndirishi mumkin bo'lardi. Baxtga qarshi sulton Roziyning so'zlarini ortiqcha vahima deb bildi va parvo qilmadi. Buning ustiga Chingizxonning tojirlari mamlakat bo'ylab kezib, josuslik qilayotgan edilar. Yil ketidan yil o'tdi. Sulton katta qo'shin to'plab yurish boshladi. Niyati — xalifa Nosirning esini kiritib qo'yish. Bu ishni bitirgach, boy-badavlat ya'juj-ma'juj mamlakatiga qo'shin tortadi.

Biroq quyon yilining qishi nihoyatda og'ir keldi. Og'ir va bevaqt. Xorazm qo'shini Eron tog'larida qor tagida qoldi. Sulton Muhammad qo'rqib chekindi. Xalifaga qarshi boshlagan urushi buyuk Ollohga ma'qul tushmadi chog'i? Xato yo'lga kirdimi?

Sulton orqaga qaytdi. Qo'shin katta talafot ko'rgan edi. Shoh horib-charchagan, tugab-bitgan holda Buxoroga kirib bordi. Biroq xalq sultonni va qo'shinini olqishlamoq uchun uyidan chiqmadi. Sultonning jahli chiqdi. Askarlariga uyma-uy yurib, sog'lom erkaklarni ayamay qamchilab, haydab chiqarishni buyurdi.

Askarlar uch kun dahshat soldilar, raiyatga jabr-sitam o'tkazdilar. Nihoyat Jaloliddin bilan Temur Malikning sabr kosasi to'lib, sulton huzuriga borishdi. Oldin Temur Malik so'z oldi.

— Bu ne hol, sultonim? O'z tabaamizni o'zimiz ezayotirmiz. Chingiz degan majusiy shaharni olsa shunday muomala qilgan bo'lurdi. Bu raiyatdan faqat yaxshilik ko'rdik-ku! Soliq to'lagan shular, askarlik qilgan shular, xizmat qilgan shular, urush jafosini tortgan ham shular. Boz ustiga zulm qilmoq!.. Shuni ravo ko'rasizmi? Bu ish musulmonchilikda bormi?

Sulton jahl bilan Temur Malikka o'qraydi. Yomon bir gap aytishga chog'landi. Biroq shu onda o'g'lining ko'ziga ko'zi tushdi. Jaloliddinning nigohi qat'iy va qattiq edi. Sulton hadiksiradi. Boshi xam bo'ldi.

— Qamchilashni to'xtatishsin, — deya ming'illadi u. Boshini qo'llari orasiga olib, o'yga toldi.

* * *

Yana o'sha sariq chodir... Chodir ichida Chingizxon bilan shomon suhbatlashmoqda. Chingizxon asabiy holda chodir ichida kezar, choponining etagi halpillardi.

— Meni mayna qilmoqchimisan, a? Necha yil ilgari yulduzlar biz tomonda emas deb, Xorazmga qilmoqchi bo'lgan yurishimni to'xtatgan eding. Undan keyin ham yulduzlar nuqul bizga qarshi bo'ldi. Ammo negadir boshlagan boshqa urushlarda g'olib chiqdim.

Shomon qo'rquvdan titradi. To'g'ri, Chingiz unga zahmat yetkazishga botinmaydi. Ammo yana kim biladi deysiz... Istasa amr berib, kallasini sapchaday uzdirishi mumkin. Shomon bir necha odim otib, Chingizxonning ro'parasiga bordi.

— Sizning muvaffaqiyatingizdan boshqa bir istagimiz yo'q aslo! — dedi u. — Necha yildirki, yulduzlar Xorazm mamlakatiga bostirib borishimizni xohlashmayapti. Yulduzlar xohlamasa qo'limdan ne ham kelardi? Ularning aytganini o'qiyman, xolos. Bu oqshom yana bir bor tillashib ko'ray-chi.

Chingiz shomonga qarab ko'zidan o't sochdi.

— Tillash, tillash, shomon, — dedi u. — Ammo yulduzlardan ruxsat ol. Aks holda yulduzlarga qarshi urush ochaman.

Shomon qo'rquvdan tisarildi.

— Og'zingizdan yel uchirsin, buyuk xoqon, bu qanday gap?..

— Bor gap shu, sabrim toshdi. Xorazm boyliklarini egallashni keyinga surishga toqatim yo'q. Asta-sekin umrim oxirlayotganini sezmoqdaman. Keksaydim. Tomirlarimdagi qon qurib qolayotganga o'xshaydi. Sening ahmoqlaring bo'lsa haligacha mangu hayot dorisini topgani yo'q.

Cholni yoqasidan tutib silkidi.

— Shomon, ey shomon! Agar yulduzlar bu kecha ham oq yo'l bermasalar o'ldim deyaver.

Hayrat va qo'rquvdan shomonning og'zi lang ochildi. Sap-sariq, mayda tishlari ko'zga tashlandi. Pastki labi osilib, iyagiga tushdi. Noilojlikdan qo'lini yozdi.

— Gaplashib ko'ray, buyuk xoqon, — deya ingradi u.

— Hoziroq borib gaplash.

Shomon ketdi.

Chingiz anchagacha yer tepinib aylandi. G'oyat asabiylashgan. Vaysadi:

— Bir to'da kallavaram, bir suruv ahmoq bular. Agar boshida mendek buyuk xoqon bo'lmasa holi ne kechardi bu kallavaramlar-

ning. Quldan farqi yo'q bularning. Qo'lidan zig'ircha ish kelmaydigan ahmoqlar!

Sarkardalaridan Qurt Jebe no'yon ichkariga kirdi. Tiz cho'kib, xoqonga salom berdi.

— Ne kerak senga, Qurt Jebe?

— Sog'lig'ingiz kerak, xoqonim. Izn bersangiz, askarlaringizning orzusini sizga bildirish uchun keldim.

— Xo'sh, askarimning orzusi ne?

— Bu yerlar qisir bo'ldi. Suruvlarimiz o'tlarni yeb bitirdi. Yaylovlarda o't qolmadi. Askarlarimiz qo'ylarini yeb bitiray deb qoldi. Navbat otlarga kelishi turgan gap. Boshimizga falokat tushmasdan oldin urushga otlansak nima deysiz?

Chingizning ko'zlari porladi.

— Yaxshi xabar keltirding, Jebe, — dedi u. — Askar qancha och qolsa, dushman ustiga shu qadar shiddat bilan bostirib boradi. Qo'shinni hozirla, yaqinda yurish boshlaymiz. Xorazm elini talon-toroj etamiz.

Qurt Jebening ko'zlari yondi.

— Ko'p yaxshi, buyuk xoqon, biroq yulduzlar ne deydi?

— Nima ham derdi, yulduzlar kuchlilar bilan birga. Ammo bizning ahmoq shomonlar to'g'ri o'qishni bilishmaydi. Bosh shomonni yulduzlardan ruxsat olib kelgani yubordim.

— Ko'p yaxshi, ko'p yaxshi!..

Chingizxon tirjaydi. So'ng qah-qah otib kuldi. Jebe hayron bo'ldi. Xoqonning kulgusi juda sun'iy va soxta chiqardi. Chingizxon kulgan vaqtda faqat tishlari iljayar, avzoyi buzuqligicha qolaverardi. Bunday paytlari xoqonning afti yanada qo'rqinchliroq tusga kirardi.

— Qayerdan boshlamoqchisiz?

Chingiz o'ylab ham o'tirmay javob berdi:

— O'trordan. U yer nihoyatda boy emish. Kulini ko'kka sovuraman. Xorazmning qizlari sariq chodirimda o'ynaydigan kunlar yaqin qoldi.

Jebe o'rnidan turib, ohistagina eshik tomon yo'naldi. Ostonada shomonga duch keldi. Bir-biriga tikilishdi. Jebe so'radi:

— Yulduzlardan ne xabar?

— Men hozirgina ular bilan gaplashdim, Jebe no'yon, ular yaxshilikdan mujda bermoqda. Yurish qilish vaqti yetgan.

— Hozir gaplashdingmi?

— Ha, hozirgina.

Qurt Jebe osmonga qaradi. Ko'kda quyosh porlab turardi. Jebe shomonga o'girildi.

— Ko'kda quyoshdan boshqa narsa yo'q-ku! Sen yulduzlarni qanday ko'rding?

Shomon bu tomonini o'ylamagandi. Sarosimaga tushib, dovdiradi. Bir so'z demay orqaga qaytdi. Oyog'ini qo'lga olib yugurib ketdi.

Qurt Jebe uning orqasidan qah-qah otdi.

— Ahmoqlar, bizni aldashdan boshqa narsaga yaramaysanlar.

Endi ketay deb turganida bir ayol yo'lini to'sdi.

— Jebe no'yon...

— Xo'sh?

— Xoqonimizga arzim bor edi.

— Qanday? Xoqon band, u o'ylayapti.

— Biz haqda ham o'ylasin xoqonimiz. Erim menga aziyat bermoqda. Ustidan arz etmoqchiman.

— Kimning xotinisan?

— Qo'mondon To'quchar no'yonning.

Chodir eshigi ochilib, Chingizning yalpoq basharasi ko'rindi, so'ng eshikdan beso'naqay gavdasi chiqib keldi.

— So'ylayotgan senmi, ey xotin?

Ayol o'zini xoqonning oyog'i ostiga otdi.

— Qutqaring meni, ulug' xoqon! Erim To'quchar kuniga uch daf'a meni temir kaltak bilan savalaydi. Ortiq chidash berolmayman, qutqaring.

— Demak, sen To'quchar Bahodurning xotinisan?..

— Koshki shunday bo'lmasaydi.

— Bundan so'ng unga xotin bo'lmaysan.

Chingizxon ayolga qaramay ovoz berdi:

— Soqchi!..

— Amringizga hozirman, buyuk xoqon.

— Ol, bu xotinni senga berdim. Keyin kallasini uz.

Xotin oh-faryod urdi, qarg'adi. Biroq hech kim quloq ham solmadi. Ayolning ovozi borgan sari susaydi, oxiri so'ndi.

Chingizning ko'zi Jebega tushdi. Qo'li bilan imlab uni ichkariga chorladi. Hech gap bo'lmaganday, so'zni yana boshidan boshladi:

— O'trorni bosamiz, Jebe. Bu ishni sen bajarasan. O'tror ko'pga bormaydi. Josuslarimiz hozirgacha yaxshi ishladi. Shaharning zaif joylarini aniqladilar, xalq o'rtasiga mish-mishlar yoydilar, elni bir-biriga qarshi gij-gijladilar. Ba'zi amirlarni bizning qo'l ostimizda yanada yaxshiroq yashashlariga ishontirdilar. Bizni ko'zlari to'rt bo'lib kutishyapti.

— Nima qilmoqchisiz?

— Oldiniga tojir qiyofasida bir necha yuz kishini yuboraman. Qimmatbaho mollar ortilgan tuyalarga minib ketishadi. Mollarni xalqqa arzon sotib, ishonch qozonishadi, ma'lumot to'plashadi.

— Yana josus yuborasizmi?

— Ha, yana josus jo'nataman. Bu ishning yo'li shunday bo'ladi, Jebe. Urushning eng kuchli quroli hiyla. Men buni barchadan yaxshiroq qo'llayman. Ha, o'tgan va bo'ladigan barcha jahongirlarning hammasidan yaxshiroq qo'llayman... Sen borguncha shahar taslim bo'lishga tayyor bo'lib qoladi.

Chingizxon osmonga musht do'laytirdi.

— Men doim haqman. Shu xotinni jallodga taslim etganimda ham haq edim. To'quchar Bahodur yaxshi sarkarda. Bunday shikoyatchi xotin bilan yashab, asabi buzilib o'tirmasin. Uni balodan qutqarishdan tashqari navkarning ko'nglini ham oldim. Menikiday kallasi bo'lgan xoqonni ag'darish mushkul, Jebe no'yon.

Jebe bu ish zulmdan boshqa narsa emasligini bilardi, albatta. Lekin bu haqda og'iz ochib bo'lmaydi. Aks holda o'zining kallasi ham ketadi.

Ma'qulladi:

— Sizniki to'g'ri, buyuk xoqon.

— Endi borib askarlarga ayt: yaqinda yurishga chiqamiz. Sabr etishsin, otlarini yeb qo'yishmasin. Och qolsa qolsin, ammo minadigan hayvonni yemasinlar. Yaqinda yaylovlari keng, mol-holi ko'p bo'lgan ellar tomonga yurish qilamiz.

OLTINCHI BO'LIM

O'tror chegaradagi ilk musulmon shahri bo'lib, nihoyatda ma'mur. Muhtasham saroylari, jomelari, hammomlari, chashmalari bilan mashhur. Chinga ketayotganlar ham, Chindan qaytayotganlar ham bu yerda to'xtab, hordiq chiqarishadi.

Shaharda katta-katta bozorlar bor. Tojirlar bu bozorlarda maqtab-maqtab molini sotar yoki ko'ngliga yoqqan narsaga ayirboshlar edi.

Mo'g'ul karvoni shaharga kirgach, to'g'ri bozorga bormadi. Karvonboshi Tigin mahalla guzarida tuyalarini cho'ktirdi. Odamlari jar soldi:

— Eshitmadim demanglar. Chingizxon yurtidan katta karvon keldi. Ne istasangiz bor. Farang ro'moli, Chin atlaslari-yu mo'g'ul ko'zalari. Xohlaganingizni arzon-garov olasiz. Kep qoling!..

Bir lahzada karvon atrofi uylaridan chiqqan kishilar bilan to'ldi. Qiziqsinib qarab turishdi. Shaharga mo'g'ul karvoni kelgani tildan tilga o'tib, har tomonga yoyildi.

Natijada bozorga bormasdanoq karvon atrofiga tumonat odam yig'ildi. Yo'llar tirband, odam odamga qoqiladigan bo'ldi.

Ko'chalar to'lib-toshdi. Askarlar olomonni tarqatish uchun harchand urinmasinlar, muvaffaq bo'lolmadilar. Oxiri bu ishni o'z holiga tashladilar.

Karvon bir amallab bozorga yetib bordi, zo'rg'a joy topib, mollarini tushirdi. Chodirlar tikildi.

Xalq to'xtovsiz kelib ul-bullarni xarid eta boshladi. Mollarning arzonligini ko'rgan mahalliy tujjorlar ko'tarasiga sotib olmoqchi bo'ldilar. Chunki ular bu mollarni yanada qimmatroq sotib, mo'may foyda olishlari mumkin edi.

Oraga shahar voliysi G'oyirxon aralashdi. U tujjorlarning mo'g'ul karvonidan mol olishini taqiqlab qo'ydi. Arzonchilikdan xalq foyda ko'rsin dedi.

Voliyning farmoni mo'g'ullarning jahlini chiqardi. Negaki karvonboshi Tigin karvon kelmasdan burunoq O'tror tujjorlari bilan kelishib qo'ygan, molining ko'pini tujjorlarga sotish niyatida edi. U tujjorlar orasidan bitta-yarimtasini josuslikka tortish, bundan tashqari, raiyatda hukmdorlardan norozilik uyg'otishni ko'zlagandi. Biroq

O'tror voliysining farmoni uning rejalarini barbod etdi. Mo'g'ullar O'tror tujjorlarini qayrab, oyoqqa turg'izdilar. Ayni paytda o'z mollarini talashga undadilar...

Tujjorlar xalq ichiga qutqu soldilar. Olomon mo'g'ul karvoniga hujum etib, mollarni talon-toroj qildi. Katta g'avg'o ko'tarildi, bozor boshidagi chodirlarga o't qo'yishdi. Inolchiq G'oyirxon isyonni zo'rg'a bostirdi. Mo'g'ul tojirlariga zararni qoplashga so'z berdi. Biroq karvonboshi Tigin, Chingizxon ko'rsatmalariga amal qilib, zararni qoplashni emas, mollarni qaytarib berishni talab qildi.

Inolchiqxon buning imkoni yo'qligini, biroq tujjorlar xohlasa zararning ikki barobari miqdorida boshqa mol berishini, tujjorlar ko'ngliga yoqqan molni tanlashi mumkinligini aytdi.

Tigin o'zini jahli chiqqandek ko'rsatish niyatida yer tepdi. G'alamislik bilan Inolchiqxonni izdan chiqarish maqsadida yuziga qarata baqirdi:

— Sen xonlik u yoqda tursin, cho'ponlikka ham arzimaysan!..

Inolchiqxon bo'zardi. Ko'zlari g'azabdan olovlandi. O'rnidan irg'ib turib:

— Og'zingni yum, ey nodon! — deya hayqirdi. — Zararingizni qoplaymiz desak yoqmaydi, uzr so'rasak qabul qilmaysiz. Sizga qilich yarashadi, xolos!

Tigin qo'pollik bilan do'q urdi.

— Biz sen u yoqda tursin, sening sultoningdan ham qo'rqmaymiz. Bu so'zlardan voliyning g'azabi miyasiga urdi.

— Hammasini jallodga topshiring! — deb baqirdi u.

G'isht qolipdan ko'chganini payqagan Tigin jonini qutqarish uchun yolvorishga, tilyog'lamalik qilishga o'tdi. Ammo qaror berilgan, voliy endi so'zidan qaytmas edi.

Tigin boshqa chora qolmagach, umidsiz jur'at bilan tahdid qilib ko'rdi. Chingiz shaharga bostirib kirib, har tarafga o't qo'yishini aytdi.

Voliy tahdiddan qo'rqmadi. Karvondagilarning hammasi qatl qilindi. Faqat bir kishi: G'afforxo'ja omon qoldi. Musulmon bo'lgani uchungina unga tegmadilar. G'afforxo'ja Mo'g'ulistonga qaytish niyati borligini bildirdi, ammo qayerga borishini aniq aytmadi.

Nazoratsiz qolgan kechasi ot topib, shahardan g'oyib bo'ldi.

* * *

Otini ayamay choptirgan G'afforxo'ja ot almashtiriladigan dastlabki yomga yetib kelganida sal turtsa yiqiladigan darajada holdan toygan edi. Biroq dam olishga fursat yo'q, O'trorda mo'g'ul karvoni uchragan falokat haqida xo'jayini Chingizxonga tezroq xabar berishi kerak.

Yom boshlig'i bo'lgan mo'g'ul sipohiysiga vaziyatni qisqacha tushuntirgach, unga boshqa ot berishdi. G'afforxo'ja cho'lda ot yeldirib ketdi.

Chingizxon ma'lum masofa oralatib ot almashtiradigan yomlar barpo etgani ko'p yaxshi ish bo'lgandi. Agar bu ish qilinmaganida G'afforxo'ja vaqtni boy bergan, xabarni kechikib yetkazgan bo'lurdi.

Qushtog' degan yerda joylashgan qarorgohga qosh qoraya boshlagan vaqtda yetib bordi. G'afforxo'ja surunkasiga to'rt kun to'xtamay yo'l bosgan, horib-to'zigan edi. Hatto, otidan tushishga ham majoli yetmadi. Bir nechta navkar uni suyab otdan tushirdi.

— Meni xoqonning huzuriga elting, — deya ming'illadi u.

Darhol olib borishdi. Chingizxon po'stak ustida o'tirib ovqat yeyayotgandi. O'trorga yuborgan karvonning tarjimoni G'afforxo'jani ko'rib, taraddudlanib boshdan oyoq tikildi. Choparning holidan ne bo'lganini tushundi. Sovuqqina qilib so'radi:

— Barchasini o'ldirishdimi?

G'afforxo'ja bosh silkib, tasdiqladi.

— Xo'sh, sen qanday qutulding?

— Musulmon bo'lganim uchun menga tegmadilar.

Chingizxonning ko'zlari nursizlandi.

— Musulmon bo'lganim uchun degin... Qani, so'zla, hammasini miridan sirigacha bilishni xohlayman.

G'afforxo'ja bo'lib o'tgan hodisalarni bir-bir so'zladi. Ora-sira nafas rostlab, bir soatcha hikoya qildi. Chingizning sap-sariq yuzi yanada sarg'aydi. Qirg'iynikidek ko'zlari namlandi. Og'zidagi ovqat yerga tushdi.

— Bular uchun ular hisob beradi! — deya xirilladi u. — Ammo bundan oldin elchi yuborib, Xorazmshohning uzr so'rashini talab qilaman. Shu tariqa butun dunyoning nazarida uni razil qilganimdan keyin, beshbattar ahvolga tushirish uchun qo'shin tortaman. Qayg'ur-

ma, G'afforxo'ja. Yulduzlar bu gal biz tomonda. Shomon shunday dedi. Urushamiz. Birodarlarimiz uchun o'ch olamiz.

G'afforxo'ja miq etmadi. Bularga ro'para bo'lgan kunga la'nat o'qidi. Biroq Chingizning xizmatiga kirish oson, chiqish dushvor. Bo'yniga bo'yinturuq urilgan, bo'yinturuqdan chiqaman desa kallasi ketadi.

Xo'rsindi. Chingizxon unga teshib yuborguday o'qraydi.

— Nima gap? Mamnun emassan shekilli?

G'afforxo'ja boshini ko'tardi. Rostini ayta olmasdi.

— Siz yaxshi bilasiz, buyuk xoqon, — dedi u.

— Albatta, men yaxshi bilaman. Agar bilmaganimda quyoshning quchog'iga sig'maydigan bu katta mamlakatga hukmdorlik qila olarmidim? Nima qilish kerakligini o'zim yaxshi bilaman. Bilganim uchun ham Xorazm mamlakatini otimning tuyoqlari ostida ezaman. Ketishing mumkin.

G'afforxo'ja chiqdi. O'z chodiriga ketib borarkan, Chingizxonning aqli joyidami-yo'qmi deb o'ylardi.

Mo'g'ulistonda ishlar ana shunday bo'lib turgan vaqtda Samarqandga maktub keldi. Uni O'tror voliysi Inolchiq G'oyirxon yozgandi. Maktub sulton nomiga yuborilgan edi. Voliy aks harakat qilganida sultonning obro'sini tushirgan bo'lishini aytib, o'zini oqlashga uringandi.

Kotib maktubni o'qib bo'lgach, sulton Muhammad unga ruxsat berdi. Kotib xonadan sassizgina chiqdi. Xorazmshoh soqolini tortqiladi. Uzoq o'yladi. Nihoyat oyoqqa turdi. Oltin qo'ng'iroqchani bir necha bor chaldi. Ichkariga kirgan soqchining yuziga qaramasdan buyurdi:

— Otimni hozirlashsin!

Soqchi ta'zim qilib chiqdi. Ko'p o'tmay qaytib kelib, ot tayyor ekanini aytdi. Sulton tashqariga chiqdi. Mahramlari tayyor turishardi. Qo'li bilan ishora qilib, ularning qolishi mumkinligini anglatdi. So'ng otiga minib, shahar o'rtasidan yelib ketdi.

Siqilgan, kim bilandir hasratlashgisi kelardi. Ammo kim dardkash bo'lishi mumkinligini o'zi ham bilmasdi.

Sultonni ko'rgan kishilar o'zlarini darhol chetga olishardi. Sulton bunga oldiniga e'tibor etmadi. So'ng birdan miyasiga urdi. Xalq

undan qochyapti, demak, undan qo'rqadi!.. Vaholanki, xalq o'z sultonini sevishi, hurmat qilishi lozim.

Ne qildiki, tabaasi undan bu qadar qo'rqadi. Nohaq zulm qilganini eslay olmadi. Ehtimol unga bildirmay zulm o'tkazishayotgandir?..

Chingizxon ham o'zidan ketdi. Molini ko'z-ko'z qilgan karvondan maqsad ne? Go'yo Xorazmda bundan ham yaxshiroq mollar topilmaydigandek. Nafsilamrini aytganda, yo'q ham. Ha, shunday, nima, Xorazmshoh Chingizxon kabi Chin mamlakatining boyliklarini qo'lga kiritdimi?.. Chinni fath etsa yomon bo'lmasdi-ya! Modomiki, Bag'dodni ololmadi, bu yoqqa tavakkal qilsa bo'ladi...

Buning uchun oldin Chingizni sindirish kerak. Chunki Chin mamlakatining yarmidan ko'prog'i Chingizning qo'lida.

Karvonining talangani, odamlarining o'ldirilganiga ne der ekan? Urush ocharmikan? Balki u ham shu yo'lni tutib, Xorazm karvonlarini yag'molar.

Bu o'ch olishning eng oddiy yo'li edi. Biroq Chingiz bunday oddiy o'ch olish bilan kifoyalanadigan odam emas. Binobarin, tahlika qo'ng'irog'i zang ura boshladi. Askar to'plash kerak.

Inolchiq G'oyirxon tujjorlarni o'ldirib, yaxshi qilmadi, albatta. Biroq unga hech narsa deya olmaydi. Inolchiqxonni mansabidan tushirsa onasi bilan orasi buziladi. Negaki, G'oyirxon onasining jiyani. Turkon Xotun bilan olishishga esa sultonning kuchi yetmaydi.

Yaxshisi hodisalarni o'z holiga qo'yib berish kerak. Chingizxonning munosabatiga qarab, ish ko'rgani yaxshi. Biroq, shunga qaramay, askar to'plasa yomon bo'lmaydi. Darhol saroyga qaytib, bu xususda farmon berish kerak.

Jaloliddin bilan Temur Malik, ehtimol, bunga ham qarshi chiqishar. Chingizxonga qarshi turish o'lim bilan barobar deyishar. Mayli, bo'lganicha bo'lar. Ulardan so'rab ish qilmaydi. U butun Xorazm mamlakatining o'z nomiga, shon-shuhratiga ega bo'lgan yagona hukmdori bo'lsa. Istagan vaqtida kengashib olishi mumkin, biroq oxirgi qarorni uning o'zi beradi...

— Saroyga qaytishim kerak, — deya so'zlandi u.

Tulporining boshini qayirdi. Ammo...

— Ne bu?!

Beshta otliq yonma-yon turib, sultonning yo'lini to'sdi. Ayyorona boqishlari ularning niyati yomon ekanini ko'rsatib turibdi. Sultonning yo'lini to'sishga qanday jur'at etishdi?

Atrofga ko'z tashladi. Tor ko'chalarning birida u yolg'iz qolgan edi.

Ro'parasidagilarga qahr bilan tikildi. Qo'li asta-sekin beliga uzandi.

— Kimsiz? Bunga qanday jur'at etdingiz?

Javob berishmagach, xavotiri oshdi.

Demak, ular Chingizning odamlari. Shu yo'l bilan o'ch olmoqchimi bu manfur?

— Kimsiz dedim?..

Yana javob yo'q. Go'yo ularning tili tomog'iga tiqilgan. Biroq asta-sekin yaqinlashib kelaverishdi.

— Tarqaling! — deya hayqirdi sulton. Qilichini sug'urdi. Otining jilovini siqdi. Uzangiga oyoq tirab, qichqirdi:

— Tarqaling!..

Otliqlar parvo ham etmay, yaqinlashib kelaverishdi. Sulton besh kishi bilan bemalol jang qila oladi. Hali bilagida quvvati bor. Qo'lini qayirishga qurbi yetadigan yigit bu orada topilmasligiga sultonning ishonchi komil.

Biroq poytaxtda sultonga hujum etishga jasorat ko'rsatadigan bu besh odam kim? Nega uni o'ldirmoqchilar? Kim buyurgan bu ishni?

Hozircha bu gaplar sultonga noma'lum... O'ylashga ham vaqt yo'q. Bu pallada bo'ladigan jang ustida bosh qotirishi kerak. Avvalo bu badkirdorlardan qutulib olishi darkor.

Hujumga o'tdi. Bir zarbda eng oldinda turgan odamni yarador etdi. Biroq halqani yorib o'tolmadi, o'rtada qolib ketdi. Sulton shiddat bilan o'ng-u so'lga qilich soldi. Yoshligini eslab, g'ayratiga g'ayrat qo'shildi.

— Vijdonsizlar! Sultonni osongina o'ldiramiz, deb o'ylaganmidinglar? Ma, ol buni!

Biri yiqildi. Endi to'rt kishi qoldi. Sulton sovuqqonlik bilan jasorat va shijoat ko'rsatib olishdi. G'olib chiqishiga ishonchi komil.

Biroq bu orada dushmanlari safiga yana besh kishi qo'shilganini ko'rgach rangi oqardi. Atrofi halqaday o'rab olingan. Qutulib chiqish juda qiyin. Ehtimol qutula olmas. Kimdir yordamga kelmasa holi tang.

Kimsasiz ko'cha qilichlarning jarang-jurungiga to'ldi. Bir kishi o'n kishiga qarshi jang qilardi. Shunga qaramay sulton qo'rqmadi, qilichidan o'lim sochib, hech kimni yaqiniga yo'latmadi.

Bu orada Temur Malik, Jaloliddin va Sariq Lag'o't shaharda sayr qilib yurishgandi. Ular hozirgina ovdan qaytib kelishgan, obdan ochiqqan edilar. Ammo so'z ovqat emas, urush haqida borardi. Oxirgi hodisadan bexabar bo'lganliklari uchun nekbin edilar.

Jaloliddin dedi:

— Chingizxon bilan munosabatimiz yaxshi, ammo bu qancha vaqt davom etishi noma'lum. Mo'g'ul xoqoni g'irt telba. Qachon qanday farmon berishini hech kim bilmaydi. Biz bilan yaxshi munosabat o'rnatganining sababini ham tushunolmadim. Axir, ular bilan urushgan edik-ku. Indamaganiga qaraganda, u bunga ko'z yumdi har holda...

Temur Malik kulimsirab, do'stining so'zini bo'ldi:

— Chingiz o'ch olishga shoshmaydigan ko'rinadi.

Sariq Lag'o't jim. Halidan beri qulog'iga ba'zi tovushlar eshitilgandek bo'ladi. U yanglishdimmi-yo'qmi deb ovoz kelgan tomonga diqqat bilan quloq soldi. Nihoyat yanglishmaganiga qanoat hosil qilib, do'stlaridan:

— Hech narsa eshitmayapsizlarmi? — deb so'radi.

To'xtadilar. Temur Malik:

— Darhaqiqat, qilich jarangiga o'xshash saslar eshitilmoqda. Ne bo'ldi bu? Borib ko'raylik-chi.

Otlarini niqtab, qilichlarning jarangi eshitilayotgan tomonga yelib ketdilar. Ko'z ochib yumguncha voqea sodir bo'layotgan joyga yetib borishdi. Dastlab sultonni tanishmadi. Bir nechta kishi bir kishini o'rtaga olganini ko'rib Temur Malik yerga tupurdi.

— Nomardlar! — deb qichqirdi u. — Boshlaringga ro'mol o'rasalaring bo'lmaydimi?!

Shuncha odamning bir kishiga hujum qilayotgani Temur Malikni achchiqlantirgan edi. Sulton Alouddin Muhammad mushkul vaziyatga tushib, xiyla siqilgan edi. Raqiblari borgan sari ustun kelayotgan, sulton charchay boshlagan edi.

— Qani, ur! — deya hayqirdi u. Uch do'st sasni tanidilar. Hammasi birdaniga:

— Sulton! — dedi.

Ular kutib o'tirmay, shu ondayoq hayqirishganicha o'qdek otildilar.

— Yo'l ber!

— Tarqal!..

Yashin kabi bostirib borishdi. Yo'lto'sarlar avvaliga nima bo'lganini bilmay dovdirashdi. Es-hushini yig'ib olguncha to'rt kishi qoldi, xolos.

Biroq ular qochmadi. Go'yo o'lsa ham qochmaslik to'g'risida ont ichganga o'xshardilar.

Sulton uch kishi yordamga yetib kelganini ko'rgach, yengil nafas olgan, kuchiga kuch qo'shilib, qilich ura boshlagan edi.

— Uring, yigitlar, bosing, arslonlar!..

— Uring, sultonim, uring!..

Sulton o'g'lini endigina tanidi.

— Senmisan, Jaloliddin?

— Menman, sultonim!

— Vaqtida yetib kelding, biroz kechiksang otasiz va sultonsiz qolgan bo'lur eding...

— Xudo saqlasin!..

Jang uzoq davom etmadi. Uzoqqa bormasdi ham. Uch do'st sultonlariga manfurona qo'l ko'targan kishini hech qachon kechirmas edi. Yo'lto'sarlar ham qochmadi. O'n kishi o'lim zarbasi yeb yerga yiqildi. Bir kishi ham omon qolmadi. Biroq hammasining xayolida bir kishi edi.

U ham bo'lsa Chingiz.

YETTINCHI BO'LIM

Bulomcha qishlog'i bog'-rog'lari, mehnatkash dehqonlari bilan mashhur bo'lib, O'trorga yaqin edi. Qishloq naq chegaraning ustida joylashgan. Yoz oylarida qishloq ayollari daryo bo'yida kir yuvishar, ekin-tikin haqida so'zlashishardi.

Erkaklar erta tongdan to qosh qoraygunchа dalada. Ba'zilari to'qaydan o'tin kesib, O'trorga olib borib sotadi.

1219-yil Bulomcha qishlog'i uchun bexayr keldi. Yerga urug' tashlanganidan so'ng boshlangan va bir necha kun davom etgan qurg'oqchilik dalalarni quritdi, o't-o'lanni jizg'anak qildi. Qiyomat qoyim bo'lgandek oftob hamma yoqni qovurib tashladi. Ekinlargina emas, daraxtlar ham quriy boshladi. Ekin-tikin bo'lmagani sababli dehqonlar faqirlashdi. Barcha qishdan qanday o'tish to'g'risida bosh qotirardi. Hammaning kayfiyati tushgan, hatto to'yib non yemagani uchun bolalar ham o'yinni yig'ishtirib qo'yishgan.

Hammaning dardi ichida, hech kim tishining oqini ko'rsatmaydi.

Bu ham yetmaganday sulton Alouddin Muhammadning soliqchilari qishloqma-qishloq aylanib, ikki yillik xirojni undira boshladi. Bundan xabar topgan bulomchaliklar tirnog'igacha qaqshadilar... Qaqshamay bo'ladimi, ular borini qoqib-suqib bu yilgi xirojni zo'rg'a to'lagan edilar, agar bola-chaqani zor qaqshatib, nasibasini olib ketadigan bo'lishsa, barcha ochlikdan o'ladi.

Sulton darg'azab ekanini hamma eshitgan. Sultonga suiqasd qilingagi to'g'risidagi xabar Bulomchaga ham yetib kelgan edi. Shu bois minglab kishilar tekshirildi. Biroq masala oydinlashmadi. Mish-mishlarga qaraganda, bu ishda Turkon Xotunning qo'li bor emish, sulton onasiga tishi o'tmagani uchun tergovni to'xtatgan emish. Har holda Turkon Xotun sulton Muhammadning o'lishini va taxtga O'zloqshoh o'tirishini xohlagan bo'lsa kerak. O'shanda, shahzoda hali yosh bo'lgani uchun, vasiy sifatida o'zi mamlakatni idora qilgan bo'lardi.

Qishloqdagilar qo'rquv ichida kutayotgan dam yozning eng jazirama kuniga to'g'ri keldi. Zarrin chopon kiygan xo'ppa semiz, olako'z tahsildor yigirmatacha qurolli askar bilan har tarafga sovuq nazar bilan boqib, qishloqqa kirib keldi. Bu xabar Bulomchaga darhol yoyildi. Bolalar tahsildorni ko'rish uchun chopdilar. Tahsildorning sovuq nigohiga ko'zlari tushishi bilan qo'rqib tisarildilar va qo'rqa-pisa ellik qadamcha orqadan kelaverdilar.

Tahsildor kelgani to'g'risidagi xabar tarqalishi bilan qishloqda g'alva boshlandi. Ikki yillik xirojni to'lashga hech kimning qurbi

yetmagani uchun hamma farmondan qattiq norozi. Barchaning avzoyi buzilgan, e'tirozlar eshitila boshladi.

— Bu qanday gap? O'zimiz bir tishlam nonga zor bo'lib tursag-u sulton ikki yillik xirojni olsa? Or-nomusimiz bor — bu yilgi soliqni, qiynalsak-da, to'ladik. Endi davlatga beradigan bir kapsa bug'doyimiz ham yo'q.

— Olloh shohid, mening ahvolim hammangiznikidan yomon. Xotinim xasta, bu yil ishga chiqmadi. Daladagi ekinlarim qovjirab qoldi. Och qolsak-da, bu yilgi xirojni to'ladim. Uch qop bug'doy, o'n qop arpa topshirdim, hech vaqom qolmadi. Xohlasalar jonimni olishsin endi!..

— Keyingi vaqtda sulton o'zgarib ketgan deyishadi. Oldingi odamgarchiligidan asar ham qolmagan, yirtqich quzg'unga aylangan deyishadi. Men bunga aslo ishonmayman. Sultonimiz yaxshi odam, mushfiq, tabaasini jonidan ortiq ko'radi. Askarlarining oldiga tushib, sherdek olishadi. Biroq bunday farmon bergan bo'lsa...

Odamlar o'zaro suhbatlashgancha tahsildorning orqasidan ketib borishardi. Hech kimning ichiga chiroq yoqsa, yorishmaydi. Majolsizgina odim otishadi. Basharasi yalpoq, nigohi sovuq tahsildor nihoyat to'xtadi. Orqasidan kelayotgan dehqonlar ham to'xtadi. Yaqin borishga hech kim jur'at qilmadi.

Tahsildor ularni qo'l ishorasi bilan yoniga chaqirdi. Seskana-seskana yaqin borishdi. Tahsildor ularga boshdan oyoq tikildi. So'ng palag'da tovushda so'zlay boshladi.

— Aytib qo'yay, hech qanday e'tirozga yo'l yo'q! Men Xorazmshoh Alouddin Muhammadning tahsildoriman.

Qo'ynidan bir farmon chiqardi.

— Bu farmonda hamma gap yozib qo'yilgan. Vatanparvar dehqon bo'lsangiz ikki yillik xirojni oldindan to'lab qo'yasiz. So'ng ikki yil mobaynida kimsadan soliq olinmaydi. Sulton so'zidan qaytmaydi, sizga mazza bo'ladi.

Hech kim joyidan ham jilmadi, og'zini ham ochmadi. Hech kimning so'zlagisi kelmadi. Tahsildor bir necha odim otdi. Odamlar tisarildi. Tahsildor kuldi.

— Nega mendan qo'rqyapsiz, azizlar, yeb qo'ymayman... Bor-yo'g'i bir tahsildorman, xolos. Sultonning vakili sifatida keldim bu

yerga. Menga beradigan qop-qop bug'doy-u arpalar sultonga berilgan bo'ladi. Birinchi bo'lib xiroj to'lash sharafiga noil bo'lmoq istagan kishi oldinga chiqsin.

Hech kim bu sharafga muyassar bo'lishni istamadi. Dehqonlar tahsildorga ma'nosiz qarab turaverishdi.

Tahsildor achchiqlandi.

— Bildim, sizlar ham boshqa qishloqlardagi tirraqi buzoqlardan ekansiz. Ularning esini joyiga tushirgan edim, sizning ko'zingizni ham moshdek ochib qo'yaman. Endi sizlarga dars bermasa bo'lmaydi, gunohni zimmamdan soqit qildim...

Sakradi. Duch kelgan birining yoqasidan tutib, siltadi.

— Isming nima?

Bu ancha keksa kishi edi. Ismini eslolmagandek soqolini qashidi, qoshini chimirib, mo'ylovini tortqiladi. Nihoyat:

— Sodi, — dedi.

Tahsildor uzun ro'yxat tutgan odamiga o'girildi.

— Qara, Sodi ismli bu mo'ysafidning qancha qarzi bor?

Ro'yxat tutgan odam o'qidi:

— Bir yillik xiroji olti qop bug'doy-u ikki qop arpa. Ikki yillik xiroj esa buning ikki barobari miqdorida bo'ladi.

Tahsildor mo'ysafidning yiring bog'lagan ko'zlariga sovuq nazar tashladi.

Mo'ysafid bosh chayqadi.

— Buncha g'allam yo'q.

— Yo'qmi?

— Ha, yo'q!..

— Yeb-ichmay o'tiribsanmi?

— Borini bir-ikki oydan so'ng yeb bitiramiz.

Hamqishloqlari bir ovozdan keksaning so'zini tasdiqlashdi.

— Otaxon to'g'risini aytdi.

Askarlardan biri do'q urdi:

— Jim bo'ling!

Dehqonlar cho'chib, bir-birining pinjiga kirdi.

Tahsildor mo'ysafidning yoqasini qattiqroq siqdi.

— Qani, ayt, bug'doyingni qayerga ko'mding?

Mo'ysafid beixtiyor kulimsiradi.

— Hech qayerga...

— Aytmasang seni yo'qotaman, sultonning farmoni bor.

Keksa Sodi tahsildorga qattiq tikildi.

— Sulton bug'doyi bo'lmagani uchun xiroj to'lamaganlarni yo'qoting dedimi?

Tahsildor jahl bilan yer tepdi.

— Bu yerlar sultonniki, bildingmi? Sultonniki bu yerlar!..

Keksa ming'illadi:

— Yer Ollohnikidir...

— Nima? Nima deding? Sultonniki emas, dedingmi?

— Oldin Ollohniki, so'ng sultonniki. Olloh ulug'larning ulug'i, sultonlarning sultonidir. U o'zi bergan ne'mat uchun haq so'ramaydi. Bug'doy, arpa, suli, mevadan soliq olmaydi. Xorazmshoh Muhammad bo'lsa, peshona terimiz bilan sug'organ bu yerga ega chiqmoqda, bu ham yetmagandek, ikki yillik xirojni oldindan to'latmoqchi.

Bu so'zlarning ma'nosini chaqish uchun orif bo'lmoqning hojati bo'lmasa-da, tahsildor anglamadi. Qariyani yerga yiqitish uchun itardi. Biroq uni qo'zg'ata olmadi ham. Mo'ysafid yerga chuqur ildiz otgan chinordek tim-tik turar, kular edi.

— Ne-ne dushmanlar meni yiqolmagandi. Endi do'st deb o'ylagan kishilar yiqmoqchi bo'lyapti-ya!

Tahsildorning ko'ziga teshib yuborguday tikildi.

— Ey, bolam, — dedi u. — Ro'parangdagi mo'ysafid davlatimizning tamal toshlaridan bo'lgan. Tan-badanimda qilich tegmagan joyning o'zi yo'q. Sen, kechagina jubbangning orqasini tugib yurgan yosh bola, men bilan bellashmoqchimisan? Bilaman, qo'lingda sultonning farmoni bor. Biroq odamlarga nisbatan salgina bo'lsa ham izzat-hurmat ko'rsatsang bo'lmaydimi?..

Tahsildor sarosimaga tushdi, talmovsiradi. Buni sezdirmaslik uchun askarlariga dag'al bir ovozda buyurdi.

— Nega baqrayib turibsiz? Bu vaysab turaversinmi? Sultonni haqorat etganini ko'rmayapsizmi?

Askarlar ikkilandilar. Tahsildorning joni halqumiga keldi.

— Hammangizni ostiraman! — deb o'shqirdi u.

O'lim qo'rquvi g'olib chiqdi. Askarlar keksa Sodining ustiga tashlanib, sulayib qolguncha kaltakladilar.

Navbat boshqalarga keldi. Kim e'tiroz bildirsa tepkilashdi. Tayoqdan qo'rqqanlar omborining kalitini berdi.

Tahsildor o'z odamlari bilan qishloqdan chiqayotgan paytda keksa Sodi o'ziga keldi. Mo'ysafid aytgan ilk so'zlar shu bo'ldi:

— Chingizxon bostirib kelarmish, bizni tutqun etib, zulm o'tkazarmish. Shu bois shahar mudofaasi uchun xiroj to'lashimiz kerakmish... Nega?.. Chingiz degan mo'g'ul xonidan ortiqmi bular...

* * *

Ertasiga qishloqqa yana bir to'da otliqlar keldi. Oldinda qirmizi libos kiygan kishi bor. Qo'lida burg'u.

Qishloq ahli kechagi falokatning takrorlanishidan qo'rqqani uchun pastqam yerlarga yashirindi. Hadiksirab kuzatishdi.

Qirmizi libosli kishi qishloqning o'rtasidagi maydonga yetgach, otining jilovini tortdi. Qo'lidagi kattakon burg'uni og'ziga keltirib, jar soldi:

— Odamlar-u odamlar, eshitmadim demanglar. Qilich ko'tarishga qodir o'n sakkiz yoshidan ellik yoshiga qadar bo'lgan kishilarning barchasi o'n kundan kechikmay O'trorga borishi lozim. Sultonimiz jihod e'lon etdilar. Mamlakatimizning muborak tuprog'ini mo'g'ullardan himoya etamiz. Odamlar-u odamlar, eshitmadim demanglar...

Qishloq ahli qirmizi choponli kishi xiroj emas, boshqa niyatda kelganini bilgach, asta-sekin yashiringan joyidan chiqib to'plandi. Bolalar qirmizi choponli kishiga yaqin bordilar. U baqirishda davom etardi:

— Eshitmadim demanglar. Shahrimizni mudofaa etmoq uchun muqaddas jihod e'lon etildi. Dinini, xalqini, sultonini sevgan har bir kishi, o'n sakkiz yoshidan...

— Mo'g'ullar kelayotganmish, kelaversin. Ular bulardan zolim emasdir har holda.

— Biz askarlikka bormaymiz, bu yerda qolgan tug'ishganlarimiz ochlikdan o'lsinmi?

— Mayli, xizmatga boraylik, yurtimizni himoya etaylik. Biroq bu mamlakat kimniki? Sulton Muhammadnikimi yo biznikimi? Kechagina sultonning mamlakati dedilar, don-dunimizni qoqib oldilar,

keksa Sodini oyoq ostiga olib tepkiladilar. Endi sultonning boshiga ish tushib, askar kerak bo'lib qoldimi...

— Borgan boraversin, biz allaqachon o'lib bo'lganmiz.

Askarlar oraga suquldi. Ular qo'llaridagi xivichni o'ynatib tahdid qildilar. Jarchi baqirishda davom etdi:

— Eshitmadim demanglar...

SAKKIZINCHI BO'LIM

Chingizxon g'azabnok. Noyob noz-ne'matlar, janubiy mamlakatlardan keltirilgan anvoyi mevalarga to'la dasturxonga qo'l ham urmadi.

Dasturxon atrofida mo'g'ul no'yonlaridan tashqari chinlik elchi ham bor. Men Xun ismli elchi qo'lidagi qog'ozga nimalarnidir yozish bilan band.

Chingizxon sharob ho'pladi. Erondan maxsus oldirgan bu ichimlikni yaxshi ko'rardi. Xoqon uchun qimizdan ko'ra sharob yaxshiroq.

Chingizxon asabiy. Mo'ylovi iyagiga osilib tushgan. Og'zi ochildi deguncha mo'ylovining uchi to'fonga duch kelgan qamishdek titraydi.

Chodir ichida qo'lga o'rgatilgan qoplon aylanib yurar, goh-goh Chingizxon yoniga kelib, oyog'iga suykanardi. Chingiz yirtqichni juda yaxshi ko'rardi. Uning yana uchta qoploni bor edi. Xoqon ba'zan asirlarni qoplonga tashlatar, yirtqichlarning mahkumni tilka-pora etib, yeyishini huzurlanib tomosha qilardi. Chingiz uchun ov va urushdan keyingi eng sevimli ermak shu edi.

Dasturxon atrofidagilar o'zaro suhbat orasi toy va xachir go'shtidan tanovul qilishadi, ustma-ust sharob ichishadi.

Nihoyat Chingizxon o'rnidan turib, taxtiga chiqdi. Taxtning ikki tomonida oltindan ishlangan ikkita qoplon haykali o'rnatilgan. Chingizxonning bu harakati ziyofat oxiriga yetganini bildirardi.

Sarkardalar ham oyoqqa qalqdi. Chinlik xizmatkorlar har doimgiday sas chiqarmay dasturxonni yig'ishtirib olishdi.

Barchaning ko'zi Chingizxonda. Ularni bu yerga muhim qaror uchun to'plashganini bilishadi. Har holda xoqon yangi bosqinga azm

etgan. Ajabo, bu gal qaysi badbaxt mamlakatga o't qo'yiladi, qaysi tolesiz sultonning boshi ketadi?

Nihoyat Chingizxon salmoqlab so'zlay boshladi.

— Qahramon mo'g'ul qo'mondonlari. Chin hukmdorining elchisi dono Men Xun... Burqa xoqonning elchisi Ashigabu no'yon... Eshiting. Xorazmshoh tijorat uchun borgan begunoh odamlarimni o'ldirdi. Pastkashlik qildi. Uni jazolashga qaror qildim. Ne qilaylik?

Sukunat cho'kdi. Sukunatni Jebe no'yonning sasi buzdi.

— Tojirlarni o'ldirgan, mollarni talagan mamlakat jazolanishi shart. Xorazm ustiga qo'shin torting, kulini ko'kka sovuraylik. Sultonni soqolidan sudrab opkelaylik.

To'quchar no'yon boshqacha fikrda edi.

— Jebe no'yon biroz hayajonda, — dedi u. — Vaholanki, masalani his-hayajonga berilmay, aql bilan hal etmoq lozim. Men Xorazm sultoniga yana bir imkon berib ko'rish tarafdoriman. Elchi yuborib, uzr so'rashini talab qilaylik, tojirlarimizni qatl etgan voliy G'oyirxonni bizga taslim qilsin. Ko'nmasa, u holda shunga mos chora ko'rilar.

Chingiz avval Jebega qaradi.

— Sendan xuddi shunday so'z kutgandim, Jebe, — dedi u.

So'ng To'qucharga o'girildi.

— Sendan ham shuni kutgandim, To'quchar.

Shundan keyin Chingizxon barchaga xitoban dedi:

— Qurt Jebe hali yosh, qiziqqon, botir. Shu bois urush tarafdori. To'quchar bo'lsa ancha keksaydi, tajribasi oshdi, mantiq bilan ish ko'rishga o'rgangan, shu bois Xorazm sultoniga yana bir imkon berishni xohlaydi. Xo'sh, siz kim tarafidasiz?

Qo'llar ko'tarildi. Urush tarafdorlari ko'pchilik edi. Chingizxon bosh chayqadi, xunuk tirjaydi.

— Yo'q, do'stlarim. Urush ochadigan vaqt hali kelgani yo'q. Qo'shinlarimiz to'rt tomondan yo'lga chiqdi, yaqinda bu yerga yetib keladi. O'shanda yurish boshlaymiz. Unga qadar To'quchar aytgandek qilamiz.

Orqaga o'girilib, ovoz berdi:

— Donishmand Hojib...

Donishmand Hojib taxt orqasidan aylanib, oldinga chiqdi, tiz cho'kdi.

— Amringizga muntazirman, buyuk xoqon.

— Darhol Xorazmshohga maktub yoz. Munosib elchi hay'ati jo'nat. Aytki, G'oyirxonni bizga taslim etsin. Tujjorlarimizni o'ldirganliklari uchun sulton uzr so'rasin. Faqat shundagina afv etishimiz mumkin. Aks holda urush ochamiz.

— Bosh ustiga, buyuk xoqon.

— Darrov yozib opkel, muhrlab beraman. Keyin maktubni zudlik bilan Samarqandga yuborasan. Elchiga tayinla, imkon boricha ig'vogarlik etsin.

Yana sarkardalariga yuzlandi:

— Urush ochmaganim uchun xafa bo'lmang. Hammangiz meni deb o'zingizni o'tga ham, cho'qqa ham urishga tayyor ekaningizni bilaman. Xoqoningiz sizga yaxshilik va muvaffaqiyatdan boshqa narsani ravo ko'rmaydi. Hozircha tiyilib turganimiz yaxshiroq deb o'ylayman. Ko'p o'tmay musulmon o'lkalarida istaganingizcha o'ynab-kulasiz. Bu turgan gap. Xorazmshohning javobi qanday bo'lishidan qat'i nazar urush ochishimiz muqarrar.

Jebe No'yon bu so'zlardan hayajonlanib, sakrab turdi-da, baqirdi:

— Lu! Lu! Lu! Lu!..

Boshqalar va Chingizxon ham qo'shildi. Chodirning ichi ancha vaqtgacha uligan tovushlarga to'ldi.

Qoziqlarga bog'lab qo'yilgan otlar bu hayqiriqlarni eshitib quloqlarini ding qildilar. So'ng ketma-ket kishnab, egalariga qo'shildilar.

* * *

Mo'g'ul elchisi mahramlari bilan Samarqandga kirib borarkan, shahar qalin devor bilan o'rab olinayotganini ko'rdi. Ustalar o'n ikki farsahlik ulkan hisorni tez qurib bitirish uchun tinimsiz ishlamoqda edilar. Elchi ichidan kuldi. Xorazm hozirlanmoqda. Biroq bu muazzam devorlar mo'g'ullarga bardosh berolmaydi. Ichida o'zini fido etishga tayyor jangchilar bo'lmaganidan keyin qal'a nimaga ham yarardi... Elchi Xorazmda bunday askarlar yo'q deb o'ylar edi. Zotan sultonning berahmligidan xalq to'ygan. Elchi buni juda yaxshi biladi.

Mo'g'ul elchilari kelganidan sulton Alouddin Muhammad xursand bo'ldi. Chingizxon undan qo'rqishi ayon. Bo'lmasa elchi yuborarmidi? Aksincha, ustiga qo'shin tortishi kerak edi.

Elchilarni kuttirib qo'yish uchun o'tkazayotgan yig'ilishni ataylab ancha cho'zdi. So'ng ularni mag'rur bir qiyofada qabul qildi. Taxtining ikki tomonidan jallodlar joy oldi. Sulton elchiga dabdabali ko'rinish niyatida edi.

Elchi ichkariga qaddini g'oz tutib kirdi. Sultonga bosh egib ta'zim qilmadi ham. Sulton achchiqlandi, ammo elchining so'zlarini jim turib eshitdi. Elchi so'zining oxirida dedi:

— Tojirlarimizning o'ldirilgani buyuk xoqonimizni qattiq g'azablantirdi. Uning g'azabidan qo'rqing, aks holda mamlakatingiz ostin-ustun bo'ladi. Xoqonimiz G'oyirxonning jazosini o'zi bermoqchi, shu bois uni topshirasiz, bundan tashqari, bu hodisa uchun uzr so'rashingizni amr etdilar.

Oxirgi jumlani eshitib, Xorazmshohning jon-poni chiqdi. Elchi avval boshdanoq g'alamisona tarzda so'zlayotgani sultonning e'tiboridan qochmagan edi. Sakrab turdi-da:

— O'chir-e, nodon! — deb hayqirdi. — Sening shaltoq xoqoning kim bo'libdiki, menga amr bersa?! Haddidan oshmasin. Tiz cho'k darhol!..

Elchi qimirlamadi. Aksincha, qo'pollik bilan dedi:

— Tujjorlarimizni o'ldirdingiz. O'trorda mo'g'ul qoni to'kildi, bunga musulmon qoni bilan javob berasiz.

To'ng'ich o'rnidan irg'ib turdi. Birov yo'lini to'smasdan ilgari o'tkir xanjarini elchining biqiniga sanchdi. Xanjar sopigacha botib kirdi.

— To'ng'iz qo'p!..

Temur Malik sakrab, To'ng'ichxonni tutdi, biroq kechikkan edi. Elchi yerda tipirchilab jon berdi. Qimmatbaho Buxoro gilami qonga bo'yaldi. Elchining mahramlari tislana-tislana saroydan chiqishdi. Darhol otlariga minib, shaharni tark etdilar. Bu yomon xabarni tezroq Chingizxonga yetkazish uchun otlarini qamchiladilar.

Xabarni eshitgan Chingizxon gangidi. Bunchalik bo'lar deb o'ylamagandi. U Xorazmshoh bu qadar jasorat ko'rsata olishiga ishonmas edi.

Qisiq ko'zlarini baqraytirib, xabarchilarga tikilib qoldi. Anchadan so'ng hech narsa demay otiga sakrab mindi-da, tog' tomonga yelib ketdi.

Bir g'or oldiga kelib to'xtadi. Otidan tushdi. Qo'lini og'ziga karnay qilib, qichqirdi:

— Ko'kcha, Ko'kcha!..

Ichkaridan zaif, titroq tovush eshitildi:

— Qattiq qizishgan ko'rinasan, Temuchin.

— Ko'kcha ota, chiq bu yoqqa, Temuchinning boshiga yog'ilgan balolardan boxabar bo'l. Ko'rmaysanmi nomard sultonni, elchilarimni o'ldirdi...

Keksayib qartaygan, uzun soqoli beliga tushgan past bo'yli, qotma bir chol ko'rindi. Qo'lida yog'och hassa.

U mashhur mo'g'ul donishmandi Ko'kcha edi. Uni barcha hurmat qilar, undan hadiksirar edi. Odamlar Ko'kcha xohlagan vaqtida istagan joyiga yashin chiqara olishiga ishonishardi. Ko'kcha Ko'ktangri bilan doim suhbatda bo'ladi, degan mish-mishlar tarqalgandi.

Chingizxon shomonlardan ko'ra Ko'kchadan ko'proq cho'chir, ayni vaqtda unga astoydil ishonar va boshiga ish tushgan eng mushkul vaziyatlarda undan ko'mak so'rab kelardi.

— Ne qilaylik, Ko'kcha ota?

Ko'kcha kulimsiradi.

— Sen oftobning quchog'iga sig'maydigan bir mamlakatning hukmdorisan. Sen barcha dushmanlarini tiz cho'ktirgan xoqonsan. Men kabi ojiz notavon keksadan yordam so'raganing nimasi, Temuchin?

— Bularni so'ylashning hojati yo'q, Ko'kcha ota. Tutingan o'g'ling qiyin ahvolda. Xorazm urushga chorlayapti. Qarshi chiqmaylikmi?

Ko'kcha biroz o'ylab olgach:

— Qani, bir boshdan ayt-chi, — dedi.

Birgalashib g'orga kirishdi. Bir burchakda gulxan yonib turardi. Gulxan yonida qo'lga o'rgatilgan bo'ri yotibdi. O'n ikki yoshlardagi bir bola bo'ri bilan o'ynashadi.

Ko'kcha boshi bilan ishora qildi.

— Bular mening qadrdonlarim, — dedi u. — Ikkovini ham farzandlikka oldim. Ulardan boshqa hech kimim yo'q.

— Men-chi? Men yaqinlaringdan emasmanmi, Ko'kcha ota?

— Har doim yonimda bo'ladiganlarga ehtiyojim bor. Yonimda tirik jon bo'lmog'i kerak.

Chingizxonga yuzlandi.

— Qani, boshla hikoyangni.

Chingiz mayda-chuyda tafsilotlarini ham qoldirmay batafsil so'zladi...

Ko'kcha xayolga cho'mdi.

Nihoyat boshini ko'tardi. Gulxanga tikildi. Ko'z qorachig'i kengaydi. Ko'zlari katta-katta ochildi. Butun borlig'i ko'zga aylangandek bo'ldi. Ko'zlari porlab, ichida uchqun o'ynadi. Qo'llarini olovga uzatdi.

— O't, o't, o't, — deya ingradi u. — Har taraf o't ichida. Butun dunyo lovullab yonmoqda. Har yer otash ichida. O'tror, Buxoro, Samarqand-u Gurganch, mag'rib mamlakatlari o't ichida. Qon daryo bo'lib oqmoqda... Har tomonda murdalar, murdalar...

Ko'zlarini gulxandan zo'rg'a uzdi.

— Butun Xorazmga hokim bo'lasan, Temuchin, — dedi u. — Ammo tarixda yomonotliq bo'lib qolasan.

Chingizxon seskandi.

— Nega endi?

— Chunki barchaga zulm o'tkazasan, obod shaharlarga o't qo'yasan, olimlarni o'ldirasan, ne-ne buyuk mutafakkirlar ko'z nuri to'kib yozgan nodir asarlarni gulxanda kuydirasan...

— Qilmayman bu ishni...

— Bu sening ixtiyoringda emas, ruhingga kirib olgan alvasti to'ymog'i lozim!

Chingiz o'rnidan turdi. Ko'kcha haqiqatni aytgan edi. Ichini tatalayotgan qonxo'r alvasti hech to'ymasdi. Bir oy qon to'kmasa aqldan ozish darajasiga kelib qoladi. Demak, kalla olishi, qon to'kishi lozim.

Chingiz ohistagina tashqariga chiqib, otiga mindi. Tepadan ot choptirib tushdi-da, chodiriga biqinib oldi.

* * *

Xorazm mamlakati urushga hozirlik ko'rmoqda. Shahar devorlari bo'ylab chuqur xandaqlar qazilmoqda, qal'alar ta'mirlanmoqda. Yo'llarga didbonlar qo'yildi. O'yin-kulgu yurakka sig'maydi.

Barchaning qovog'i soliq. Har kim o'ziga topshirilgan vazifani bajarish bilan band.

Tahsildorlar o'lkaning har tarafida izg'ib, ikki yillik xirojni zo'rlik bilan undirmoqda. Bu raiyatda nafrat uyg'otib, davlatdan sovutgan edi.

Xorazmshoh ma'murlarining zulm o'tkazayotganidan bexabar. Biroq kundan kunga kuchayib borayotgan norozilikni sezib turardi. Sulton umumiy qiyinchilik sababli shunday bo'layotir deb o'ylar, zafar qozonishi bilan hamma narsa yana o'z iziga tushib ketishiga ishonchi komil edi.

Samarqand qumursqa uyasiga o'xshardi. Qishloqlardan olib kelingan ustalar va hunarmandlar shahar atrofida baland va qalin devor ko'targan, endi bo'lsa devor tagida chuqur xandaq qaziyotgan edilar.

Sulton ishning borishidan mamnun. U tez-tez qal'adan chiqib, ishni nazorat etib turardi. Bir gal xandaq qaziyotgan ishchilarning jon koyitmayotganini ko'rib, jahli chiqdi.

— Ildam bo'ling! — deb baqirdi u. — Aks holda mo'g'ullar yarim-yorti qazigan bu xandaqni murdalaringiz bilan to'ldiradi.

Ishchilarning ildamlashishi uchun shu tahdidning o'zi kifoya bo'ldi.

Sarkardalar askar to'plashda davom etayotir. Qurollangan va otliq yigitlar peshma-pesh shaharga kelmoqda. Ular tegishli mahkamalarga uchrab, askarlikka yozilayotgan edilar. Ro'yxatlar to'lib ketdi.

Otliq yoyandoz qismlardan tashqari, piyoda nayzaboz qismlar ham tuzildi. Ishlar jadallashdi. Mo'g'ullarning kelishiga shay bo'lishdi.

Xorazmshoh avvalo mo'g'ul chegarasida joylashgan barcha qishloqlarni yoqtirdi, aholisini ichkariga ko'chirdi.

Shu yo'l bilan Chingiz mabodo bu yerlarni istilo etsa, boshpana va oziq-ovqat topolmaydigan bo'ldi.

Biroq bu qishloqlarda yashagan kishilarning ko'pchiligi qattiq ranjidi. Ko'chirilgan joylari ularga yoqmadi. Ancha-munchasi qochib ketdi, qoraxitoylar yurtidan o'tib, Chingiz qo'shiniga qo'shildilar.

Bundan sulton mutlaqo bexabar edi. Unga qishloqlar yondirilgani, aholisi yaqin qishloqlarga ko'chirilgani to'g'risida hisobot berishdi, xolos.

Nihoyat Chingizning qo'shini yo'lga tushib, chegaradagi ba'zi qishloqlardan o'tgani, O'trorga sur'at bilan yaqinlashgani to'g'risida xabar keldi. Seldek yoyilgan bu xabar dillarga dahshat va qo'rquv soldi.

1220-yil boshi Samarqandda harbiy faoliyatlar nihoyatda qizg'in tus olgan paytga to'g'ri keldi. Shoh barcha sarkardalarini katta saroyga to'plab, so'nggi vaziyat haqida ma'lumot berdi va maslahat soldi.

Har kim bilganini so'zladi.

Qipchoq xonlaridan biri dedi:

— Sultonim, Chingizxon o'z mamlakatini besh qo'lday yaxshi biladi, ammo bu yerlarni bilmaydi. Qo'yib bering, mamlakat ichiga kirib kelaversin. Keyin uni bo'g'ish oson ko'chadi.

Boshqa bir xon bu fikrni ma'qulladi.

— Do'stimiz to'g'ri gap aytdi. Kerak bo'lsa, qal'a devori tagiga kelishsin. Buxoro bilan Samarqandning devorlari juda mustahkam. Bir emas, mingta Chingiz birlashsa ham qo'lidan hech narsa kelmaydi.

Temur Malik ortiq chidab turolmadi. O'tirgan joyidan g'azab bilan qichqirdi:

— Xiyonat bu!..

Sulton Muhammad unga o'girildi:

— Nima xiyonat?

— Bu xonning so'zlari. Boshdan oyoq xiyonat bu. Esi joyida bo'lgan biron kishi dushman bemalol qal'a tagiga qadar kelaversin, deb tavsiya etmaydi. Mo'g'ullarni ko'rganlar yaxshi bilishadi. Ular hamma yoqqa o't qo'yib, kulini ko'kka sovuradi. Bular Xorazm xalqiga zulm o'tkazdirishni qaysi kalla bilan taklif etyapti o'zi?..

— Xo'sh, sening fikring qanday?

— Xotinlarga o'xshab qal'a ichiga bekinib o'tirish erkaklarning ishi emas. Qo'l qovushtirib o'tirmay, dushman bilan urushmoq kerak. Jonidan kechmaydiganlarga oramizda o'rin yo'q.

— Ko'p yaxshi. Ammo sen Chingizxon askarlari bilan jang qilgan vaqtimizda urushga qarshi chiqqan eding-ku.

Temur Malik achchiq kuldi.

— Ha, shunday bo'lgandi, — dedi u. — Men uxlab yotgan ilonni bezovta qilmaslik tarafdori edim. Chingiz hali bizga tish qayrama-

gan, balki bu haqda o'ylamagan ham edi u paytlari. Bosqin qildik, karvonini taladik, shunda ham g'iq etmadi. Oxiri elchilarini o'ldirdik. O'zimiz urush tarafdori bo'lib chiqdik, uni shunga majburladik. Urush tarafdori bo'lgan xonlar bo'lsa endi qal'alarga biqinib o'tirishni tavsiya etmoqdalar. Ular Xorazm mamlakatini qurbonlikka keltirilgan qo'y kabi mo'g'ul qilichi ostiga tashlashga urinmoqdalar. Bu xiyonat bo'lmay ne?

Sulton nizoning oldini olish niyatida shosha-pisha o'g'liga yuzlandi.

— Sen ne deysan, Jaloliddin?

Jaloliddin hurmat bilan o'rnidan turdi.

— Qal'ada kutib o'tirsak bo'lmaydi, sultonim. Dushmanni ochiq maydonda urushishga majbur qilaylik. O'shanda g'olib chiqishimiz mumkin. Qal'aga bekinsak qo'shinimiz naqadar kuchli bo'lsa-da, uzoq davom etadigan qamalga dosh berolmaydi. Yegulik va suv o'lchog'liq bo'lsa...

— Ya'ni sen ham Temur Malikning fikrini quvvatlayapsan...

Jaloliddin boshini egdi. Sulton o'shqirdi:

— Siz bir-biringizdan boshqacha fikrlay olasizmi-yo'qmi? Nima kindigingiz birmi? Demak, har ikkovingiz ochiq maydonda jang qilmoqchisiz, shundaymi?

Temur Malik irg'ib turdi.

— Shunday, sultonim, — dedi u. — Ochiq maydonda urushishni xohlaymiz. Chunki ochiq maydondagina g'olib chiqishimizga ishonchimiz komil. Mo'g'ullarni qal'a ichida kutib o'tirish o'lim degan gapdir. Mudofaa emas, hujum qilmog'imiz kerak. Agar jangchi mudofaadan boshqa narsani bilmasa, u mag'lubiyatga mahkum.

Xonlardan biri Temur Malikning so'zini bo'ldi.

— Bunday bo'lishi mumkin emas! Chingizga hujum etish aqldan emas. Sen sultonimizni xavf-xatar ichiga otmoqchisan. Biz bunga rozi emasmiz. Sultonimizning hayoti biz uchun aziz. Kerak bo'lsa, tog'larga chekinamiz, u yerdan G'aznaga ketib, yangidan lashkar to'plab, Chingizga hujumga o'tamiz.

Temur Malik unga istehzo bilan qaradi.

— Shundaymi? — dedi u. — So'rasam bo'ladimi, hozir qo'lida bor qo'shini bilan o'lkani mudofaa etolmagan sulton keyinchalik

qanday qilib G'aznada yangi qo'shin to'plab, Chingizni mag'lub eta olarkin? To'g'risini aytganda, hayron bo'lmay iloj yo'q...

Sulton Alouddin Muhammad jahl bilan qaddini rostladi. Mo'yna po'stinining etagini yopdi. Uning yuziga qon tepgan edi.

— Demak, illo maydonda urushmoqni xohlaysiz. Xo'p, Temur Malik, ming kishini ol-da, Chingizning qarorgohini top. Bosqin qil. Undan keyin Xo'jand qal'asiga ket. Seni o'sha qal'aga qo'mondon etib tayinlayman.

— Amringiz bosh ustiga, sultonim.

Jaloliddinning oldida to'xtadi.

— Mendan rozi bo'l, jigarim.

Jaloliddin do'stini qattiq quchoqladi. Ko'zlari yoshga to'ldi. U Temur Malikka buyurilgan ish uni ajal quchog'iga tashlash ekanligini bilib turardi.

— Men ham boraman, — deya pichirladi Jaloliddin.

Temur Malik sekin dedi:

— Sening joying otangning yonida. Sultonni yomon ko'zlardan asra.

Sarkarda gurs-gurs qadam tashlab chiqib ketdi.

Uch kundan keyin sulton yana qurultoyni to'pladi. Shaharga yaqin qishloqlarda pakana ot mingan suvoriylar paydo bo'lgani haqida xabar kelgan edi. Sulton beklaridan so'radi:

— Ne tadbir ko'rmoq kerak?

Hech kimdan sado chiqmadi. Sulton barmog'ini Jaloliddinga nuqidi.

— Sening fikring qanday?

Jaloliddin o'ychan javob berdi:

— Qo'shinni qal'aga qamab o'tirishdan foyda yo'q.

— Haliyam o'sha-o'sha fikrdamisan?

— Xuddi shunday...

Sulton hech narsa demadi. Beklar, xonlar, sarkardalarni nazardan o'tkazdi. Yana bir bor tikildi, biroq izlagan odamini topmadi.

— Temur Malik qayerda?

— Yoniga ming kishini olib, Chingizxon qarorgohiga bosqin qilishini buyurgan edingiz, unutdingizmi?

Sulton afsuslanib bosh chayqadi.

— Biz darhol yo'lga chiq demagandik-ku, — deya ming'illadi u. Temur Malikning yo'qligi sultonga juda-juda bilinmoqda edi.

TO'QQIZINCHI BO'LIM

Chingizxon o'tovlarni yig'ishtirib, yurishga hozirlanishni buyurdi. So'ng otiga minib, xotini Bo'rtaning yoniga ketdi.

Bo'rta uning birinchi xotini. U xiyla qartaygan va semirib ketgan. Bo'rta o'tov ichida po'stak ustida o'tirardi. O'tov tuynugidan yulduzlarga boqib, yoshligini eslar edi. Birdan tuyoq tovushini eshitib, o'girildi. Chingizxonni ko'rdi deguncha cho'kkaladi.

— Buyuk xoqon, — deya ming'illadi u.

Chingizxon otdan tushib, Bo'rtaning yonidan joy oldi.

Anchagacha yulduzlarni tomosha qilishdi. Oxiri xotin so'radi:

— Nega bemahalda o'tovlarni yig'diryapsiz, buyuk xoqon?

— Chunki bu kecha men uchun xayrli.

— Onangiz sizni bu kecha tuqqanmi?

— Yo'q, onam meni tuqqan kechaga la'nat bo'lsin. Bu kecha bo'lsa men uchun quvonchli kechadir.

— Xabarim yo'q ekan?

— Nimadan?

— Dunyoga kelganingizdan mamnun emasligingizdan. Vaholanki, son-sanoqsiz askaringiz bor, ular siz uchun o'lmoqqa tayyor. O'zingiz borib ko'rmagan mamlakatlarning egasi bo'lasangiz. Qo'sha-qo'sha xotinlaringiz, bola-chaqalaringiz bo'lsa. Hech kimning qo'lidan kelmaydigan ishlarni uddaladingiz. Yana nega o'zingizdan mamnun emassiz?

Chingiz bosh chayqadi.

— Mamnun emasman, Bo'rta! Ahvolimdan mamnun emasman. Aytganlaringning hammasi bor, ammo o'lim ham bor. Baribir o'ladigan bo'lganingdan keyin bular tatirmidi?

— Buyuk bir jahongir o'limdan qo'rqib qopti-da.

— Masxaralama, Bo'rta. Meni sen tushunmasang, kim ham tushunardi. Ko'z ochib ko'rgan xotinimsan, og'ir kunlarda yonimda bo'lding. Shuni bilki, esiga o'lim tushgan chog'da ering dovulda

qolgan yaproqday titraydi. Men ojiz qolgan, ololmagan yagona qal'a o'lim qal'asidir. Ha, o'lib ketaman. Iskandar Zulqarnayn ham o'lgan. Men ham o'lib ketaman. Kaltafahm donishmandlarim o'limning chorasini topa olmayapti.

Ko'zlari suzildi. Anchagacha ko'kka tikilib qoldi. Har taraf yop-yorug'. To'lin oy sehrli nur sochardi.

— Bu kecha men uchun xayrli, — dedi Chingiz nihoyat. — Xayrli kecha, Bo'rta. Negaligini bilasanmi?

Bo'rta hozirgina eshitgan gaplaridan hayratga tushgan edi.

— Nega?

— Oldingi vaqtlarni, yigirma yil oldingi davrni bir eslasang-chi. Ha, roppa-rosa yigirma yil oldin xuddi mana shunday oydin kecha edi. Nihoyatda go'zal bo'lgan edi. O'sha kechasi ham osmonda to'lin oy bor edi. Yulduzlar jimirlagan, chor taraf kunduzdek yop-yorug'. U vaqtda yonimda kichkina bir to'da bor edi, xolos. Otamning o'limidan yuragim dog'langan, ona ayrilig'idan qalbim vayron edi. Yosh va sog'lom edim, kuchga to'lgan paytim. Ovga chiqqandik. Mana shu ovul etagidan boshlanadigan to'qayga o'xshash katta bir o'rmonda yigitlarim bilan ov qilib rosa charchagach, dam olishga to'xtagan edik. Oyog'imizni endigina cho'zgan ham edikki...

Qo'lini shartta qilichiga cho'zdi.

— Birdan bir ayolning chinqirgani eshitildi. Shu zahoti qilichimni sug'urib, ot ustiga sakradim.

Bo'rta sehrlanganday qotib qolgandi. Nafasini chiqarmay, erining so'zlarini tinglardi. Gap nima ustida borayotganini endigina anglab yetdi. Xoqon jim qoldi deguncha gapni o'zi davom ettirdi.

— Meni olib qochish uchun kelgan uch kishining ustiga yashindek bostirib keldingiz. Qaroqchilar es-hushini yig'ib olguncha ikkitasini o'ldirdingiz. Uchinchisi qochib ketdi. O'shanda oy nurida bir-birimizga tikilib qolgandik. U paytlari yoshgina qiz edim.

Bosh chayqadi.

— Yil ketidan quvib yil o'tdi. Umr Irgiz daryosiday oqib o'tdi ketdi. Sassiz-sadosiz oqdi ketdi... Qanday huzunli bu... Sochimga oq tushmasdanoq ustimga xotin oldingiz. Bo'rtani so'rib tashlangan uzumday bir chetga uloqtirdingiz. Chidadim. Ichim zardobga to'ldi. Eng qattiq xafa bo'lgan kunimni bilasizmi? Qulon Xotunni olgan

kuningiz edi bu kun. U yosh, go'zal edi. Endi meni butunlay unutasiz, deb yig'lab tonglar ottirdim. Haqiqatan meni unutdingiz ham. Haftalar o'tdi, oylar o'tdi, o'tovimga qadam bosmadingiz. Loaqal birovni yuborib holimdan xabar olmadingiz. Og'ir kunlarda yonimda bo'lgan Bo'rta ne qilyapti deb o'ylamadingiz.

Bo'rtaning ko'zlaridan shashqator yosh oqdi. Tizzalariga tomchiladi. Bo'rta semiz qo'lining orqasi bilan yonoqlarini artdi.

— Ko'p jafo chekdim, ulug' xoqon. Ammo qozongan g'alabalaringiz yaramga malham bo'ldi. Siz uchun doim Ko'ktangriga iltijo etdim.

Chingizxon Bo'rtaning qo'lini qo'llari orasiga oldi.

— Bo'rta, — dedi u. — Seni hech qachon unutganim yo'q. Qulon Xotun xafa bo'lmasin deb yoningga kelmadim. Sen mening darddoshimsan. Seni esdan chiqarish mumkinmi hech? Barcha xotinlarim bir yonda, sen bir yondasan, Bo'rta. Ko'ktangri ursin ularni.

Birdaniga qattiq shovqin-suron ko'tarildi.

— Xoqon qayerda? Xoqon qayerda? — degan baqiriqlar eshitildi.

Qilichlarning jarang-jurung tovushlari orasida Jebening ovozini tanidi. Chaqmoqdek otilib chiqdi. Bir sakrashda otiga mindi.

— Lu! Lu! Lu! — deya na'ra tortdi u. Ovoz berishdi:

— Buyuk xoqon!

— Keldim.

— Bizni bosishdi!..

— Alvasti olsin. Ha, bosishdi. Qani, tez to'planing.

Burg'ular chalindi, qilichlar shaqirladi, o'qlar vizillab uchdi...

— Uring!..

— Doira shaklida to'planing!..

— O'ldiring nomardlarni!

— Yo'ldan qoch!

Yo'g'on bir sas boshqa tovushlarni bosib ketdi:

— O'ldiring, Xorazm arslonlari!..

Orqasidan Sariq Lag'o't na'ra tortdi:

— Ur, Temur Malik!..

— Ur, lochinim!..

Shundan keyingina mo'g'ullar kim bosganini bilishdi. Chingizxon tishlarini g'ijirlatdi.

— Atrofini o'rab oling. Hammasini qilichdan o'tkazing.

Qurt Jebe Temur Malikning payiga tushdi. Ikkovi o'rtasida omonsiz olishuv boshlandi. Raqiblar ustalik bilan qilich solib, bir-birini qo'lga tushirishga harakat etishardi.

Qurt Jebe birinchi bor bunday kuchli dushmanga duch kelganini o'z-o'ziga e'tirof qildi. Temur Malikning xayolidan ham shunday fikr o'tdi.

Jebe bilganicha xorazmcha so'zlashga urinib dedi:

— Kimsan?

— Meni Temur Malik deyishadi.

— O'sha mashhur sarkarda senmisan?

— Ha, bilding.

— Meni Qurt Jebe deyishadi.

— Seni ham bahodir jangchi deb eshitganman.

— Ha, shunday nom qozondik.

— Sening yigitliging begunoh bolalar-u keksalarni o'ldirar emish!

Qurt Jebe qah-qah otdi.

— Bunday qilganim esimda yo'q. Bu gal shunday qilsam ajab emas.

— Ha, bu senga yarashadi!

— Uzoq ketding, yigit, ma, ol shuni!..

Temur Malik otini tezda yon tomonga burib, qutuldi. Darhol qarshi hujumga o'tdi.

— Qo'lingdan kelmadi, Jebe no'yon. Ma, ol buni!

Biroq Jebe ham bo'sh kelmadi.

— O'ho', — dedi u. — Rosa ayyor ekan-ku.

Yarim soatcha olishdilar. Ikkovi ham charchadi, biroq hech kim g'olib chiqmadi. Bir-biriga qoyil qolishdi. Bunday kuchli raqibga haligacha duch kelishmagan. Temur Malik buni so'ylashdan tortinib o'tirmadi.

— Mohir qilichboz ekansan, Jebe no'yon.

— Sen ham tuzuk ekansan, Temur Malik.

— Senga o'xshagan bir mard yigit bu qashqirlar ichiga qanday tushib qoldi ekan deb hayron bo'layotirman.

Qurt Jebe javob o'rniga shasht bilan qilich soldi.

— Ol shuni, keyin hayron bo'laver!

Biroq zarba kuchli emasdi. Temur Malik osongina chap berdi. Hech narsa bo'lmaganday so'zida davom etdi:

— Rostdan ham hayronman. Mo'g'ullar orasida senga o'xshaganlar ham bor ekan-da.

— Mo'g'ul qo'shinida menga o'xshaganlar tiqilib yotibdi, yigit.

— Murdalaringizni sanagan vaqtingda buni yanada yaxshiroq bilib olasan.

— Qutulib ketaman deb o'ylayapsanmi hali?

Temur Malik fursat topib, atrofga ko'z tashladi. Yigitlari ishini qilib bo'lgan, uch-to'rt kishilik guruhlar holida o'rmon tomonga chekina boshlagan edilar.

— Xudoning xohishi bilan men qiladiganimni qilib bo'ldim, Qurt Jebe. Yaqinda ko'rishib qolarmiz.

Tezda otining jilovini tortdi.

— Hoy!.. Qayoqqa?

— Seni Ollohga topshirdim, Jebe no'yon, yaqinda yana ko'rishamiz.

Jebe Temurning orqasidan ot qo'ydi. Anchagacha ot choptirdi. Bir payt orqasiga o'girilsa hech kim yo'q. U to'xtadi.

— La'nat sizday navkarlarga! — deb baqirdi orqasiga qarab. — Haqiqatan yosh bolalar-u qari-qartangni o'ldirishdan boshqa narsaga yaramaysiz. Nega dushmanni ta'qib etmaysiz?

Javob olmagach, tezda orqasiga qaytdi. Alamzadalik bilan Chingizxondan so'radi:

— Nega ularni quvmadik?

Chingiz g'azabdan ko'karib ketgandi.

— O'zingni bos, — dedi u. — Bular ozchilik ekan, har holda Xorazm qo'shinining ilg'ori bo'lsa kerak. Katta qo'shin orqada. Kichkina bir to'daning orqasidan quvib, qopqonga tushaylikmi?

Jebe no'yonning esi joyiga tushdi. Xoqonga qoyil qoldi.

— Gapingiz to'ppa-to'g'ri, — dedi u. — Haqiqatan bular ilg'or bo'lsa kerak. Xorazmshoh ayyorlik qilib, bizni orqasidan quvdirib, tuzoqqa tushirmoqchi.

— Ha, shunday! Ammo bunga laqqa tushadigan ahmog'ini topib bo'libdi.

— Ne qilmoqchisiz, buyuk xoqon?

Chingizxon boshini ko'tardi. Atrofini o'ragan sarkardalariga qaradi. Soqolini tortqiladi. Qisiq ko'zlari bilan osmonga tikildi.

— Bu kecha xayrli bir kecha, — dedi u. — Yigirma yil oldin bo'lgani singari xayrli kecha. Qo'shinni jangga saflang. Xorazm qo'shini bizga hujum qiladi deb o'ylayman. Bizni ancha shoshirib qo'yishdi. Bu ularga qo'l keladi. Hammangiz jasoratli va sabr-chidamli bo'lasiz, deb o'ylayman. Ochig'ini aytsam, Xorazmshoh Muhammad bu qadar tez harakatga kirishini kutmagandim. Sustkashligimiz bizga zarar bo'ldi. Urushda birinchi bor xatoga yo'l qo'ydim. Bu esa...

"Oxirimiz bo'lishi mumkin" demoqchi edi. Ammo sarkardalarining shijoati so'nishidan cho'chib, aytishdan voz kechdi. Uning o'rniga boshqa so'zlar aytdi:

— Bu esa sizning jasoratingiz va qahramonligingiz tufayli tuzatiladi. Hozir bo'ling, oldinda bizni qanchadan qancha yag'molar kutmoqda.

— Lu! Lu! Lu! Lu!

Orqaga qaytib ketayotgan Temur Malik va yigitlarigacha eshitildi bu ulishlar.

— Qashqirlar uliyapti, eshitdingmi, Lag'o't?

Sariq Lag'o't otini niqtadi.

— Eshitmay bo'ladimi? — dedi u. — Ammo bir narsaga tushunmadim: ular nega bizni ta'qib etishmadi?

— Qo'rqdilar, — deb javob qildi Temur Malik. — Bizni ilg'or qism deb o'ylagan bo'lsalar kerak. Xorazm qo'shini o'rmon ichida pistirma qo'ygan, degan fikrga borgan ular. Qaniydi shunday bo'lsa...

Afsus-nadomatga to'la ovozda davom etdi:

— Koshki edi... Biroq Chingiz to'g'risidagi gaplar afsona ekanini bilib oldik. Mish-mish tarqatib, o'zimiz uni afsonaviy shaxsga aylantirdik. Chingiz to'g'risida to'xtamay gapirib, xalqni ham qo'rqitdik. Oqibatda ko'rmagan dushmandan qochishga tayyor bo'lib qoldilar. Xorazmshohning ichiga ham qo'rquv oralagan. Biz bilan shu bosqinga qatnashganida qanday yaxshi bo'lardi. Shu yerning o'zida mo'g'ul qo'shinini tor-mor etgan bo'larmidik.

— Haqiqatan sultonimiz qo'rqib qolganmi?

Nima bo'lsa bo'lsin, biroq Temur Malik Xorazmshohni qo'rqoq deya olmasdi.

— U qo'rqoq emas. Biroq qipchoq xonlarining so'zidan chiqmaydi. Onasidan nega hadiksirashini hozirgacha bilolmadim. U bir xotin, sen bo'lsang qudratli sultonsan-ku! Nimasidan hurkadi? Bilolmadim. Hech bo'lmasa shaharlarini mudofaa etolsa yaxshi bo'lardi. Bunday bo'lmas deyman, har holda qo'rqoqlarning so'ziga kirib chekinsa kerak. Balki Eron tog'lari tomonga, u yerdan Hindistonga o'tishni o'ylayotgandir. Biroq Chingizxonning o'g'li Jo'ji allaqachon bu yo'lni egallab, poylab o'tiribdi.

— Qayerdan bilding?

— Buni bilish uchun bir necha yil qo'mondon bo'lish yetarlidir. Chingiz ahmoq emas. Balki aqlli ham emasdir, biroq uning yonida haqiqatan aqlli qo'mondonlari bor. Qurt Jebeni bilasanmi?

— Nomini eshitganman.

— Men yaqindan tanishdim, juda yaqindan. Mohir qilichboz, aqlli dushman. Yana bir marta ko'rishishni qanchalik xohlashimni bilsang edi.

Lag'o't Temur Malikning Jebe bilan urushganini tushundi.

— Bir-biringizni yengolmadingizmi? — deb so'radi u.

— Yengolmadik. Vaqt ziq, buning ustiga kuchlar teng emasdi. Bergan qarorimizga ko'ra, bosqin qilgach, muntazam qismlar holida tartib bilan o'rmonga chekinishimiz lozim edi. Siz chekinayotgan edingiz. Jang yarim qoldi. Yana qayerda ko'rishamiz, Ollohning o'ziga ayon...

— Bu urush uzoq davom etadi, deb o'ylaysanmi?

— Uzoq deysanmi? Qayerdan bilay. Bu ehtimoldan uzoq. Chingizxonning qo'shini biznikidan oz. Natijaga erishmoq uchun u kuchi borida shiddat bilan hujum qilsa kerak.

— Yengilamiz demoqchimisan?

Temur Malik jim qoldi. So'ng otining sag'risiga bir shapaloq urib:

— Chuuu! — deb qichqirdi.

— Savolimga javob bermading, Temur Malik. Bir tomondan ko'pchilikmiz deysan, ikkinchi tomondan yengilamiz deysan...

— Jasur va aqlli sarkardasi bo'lmagan qo'shin qancha ko'p bo'lsa-da, uning qaroqchi to'dasidan farqi yo'qdir.

— Jaloliddin bor-ku...

— U otasiga qarshi borolmaydi. Hatto, istagan taqdirda ham bunday qilolmaydi.

— Nega?

— Kimda kim, hatto sultonning o'g'li bo'lsa ham, sultonning amriga qarshi chiqsa jazosi bitta.

— Ya'ni o'lim!..

— Eng kamida zindonga tashlanadi. Men ham necha oylab hibsda yotdim-ku.

— Jaloliddin o'limdan qo'rqadimi?

— Yo'q, u o'limdan aslo qo'rqmaydi. Biroq otasini qipchoq xonlari qo'liga tashlab ketsa yanada og'irroq fojialar kelib chiqishini yaxshi biladi. Shu bois u sulton yonida bo'lib, balo-qazodan ogohlantirib turmog'i kerak.

Sariq Lag'o't jim qoldi.

Daraxtlar orasidan sizilib o'tayotgan oy nuri yo'lni yoritardi. Chirildoqlar chirillar, goho bo'ri, goho qashqir ulib qo'yardi.

Yo'llar cheksiz va sassiz...

* * *

Xorazmshoh Alouddin Muhammad saroy qabulxonasida u yoqdan bu yoqqa yuradi. Yonida hech kim yo'q. Xorazmshohning ko'rinishidan kimnidir kutayotgani ma'lum.

Sahar yaqinlashib qolgan, oy endigina botib, ufq oqara boshlagan edi. Samarqand bedor. Shahar ahli anchadan buyon kechalari mijja qoqmaydi. Dushman bostirib kelishi xavfi bo'lganda ko'zga uyqu keladimi? Samarqandliklar to'xtamay ishlab, devorlarni mustahkamlashyapti.

Sulton derazaga yaqin bordi. Atlas pardani tortib, tashqariga nazar tashladi.

Saroy oldidagi bog'da qad ko'targan daraxtlar katta o'rmonni eslatadi. Yaqindagina bino etilgan kattakon masjidning elas-elas ko'rinib turgan minoralari samoga qo'l ochgan farishtaga o'xshaydi.

Nogoh eshik ochildi. Xorazmshoh astagina orqaga qaytdi. Ichkariga eshik oldidagi sakkiz soqchidan biri kirgan edi. Soqchi qo'l qovushtirib dedi:

— To'ng'ichxon amringizga muntazir, sultonim.

Sulton Muhammad qo'lini go'yo pashsha haydayotganga o'xshatib silkidi.

To'ng'ichxon kirdi. Salom berib, sultonga yaqin bordi.

— Olloh davlatingizning umrini uzoq qilsin, sultonim.

— Qancha uzoq bo'lsa ham so'ngimiz o'lim emasmi, To'ng'ichxon?

— Olloh o'limni kechidan bersin, olampanoh. Sizsiz nima qilamiz?

— Boshqa bir sulton topasiz. Doim shunday bo'lib kelgan-ku. O'zloqshoh yaxshi sulton bo'ladi deb o'ylayman.

To'ng'ichxonning yuzida xavotir alomati zohir bo'ldi.

— Biz sultonimizdan mingdan ming rozimiz, Olloh ham sizdan rozi bo'lsin.

— Safsatani yig'ishtir, To'ng'ichxon. Tezroq bir chora topmoq darkor. Chingizxon yaqinlashib qolgan deyishmoqda. O'tror ustiga yurish qilibdi. Avvalo O'trorni olib, G'oyirxonni jazolar emish, undan so'ng Samarqand, Buxoro, Gurganchga navbat kelarmish.

— Olloh o'z panohida saqlasin.

— Saqlasin deb Olloh bizni bu o'lkaning hukmdori qildi, qullarini qo'limizga topshirdi. Ammo biz nima qildik?..

— Davlatni kengaytirdik, hazrati oliylari.

— Yetarli bo'ldimi? Katta davlatning dardi ham katta bo'ladi. Oqilona tadbir olish o'rniga, oson yo'ldan borib xalqdan xiroj undirishni ma'qul topdik. Biz to'qlikka sho'xlik qilganimizda raiyatimiz ochlikdan qirildi. Menga hamma yoq guliston dedilar, tabaamning och-yalang'och qolganini, aziyat chekayotganini aytmadilar. Nega bunday qildingiz, To'ng'ichxon?

To'ng'ichxon yer chizib qoldi. So'zlashning foydasi yo'q. Sultonga bir gap bo'lgan. Jim turgani yaxshiroq.

— Raiyatim och-nahor o'tirgan bir vaqtda men ovqatdan bezdim. Raiyatim azob chekkanida men zavq-shavqqa ko'mildim. Raiyatim bir parcha yerga zor o'tirganida men beklarimga shahar ustiga shahar in'om etdim... Qani o'sha beklar, qayerda ular? Nega ko'rinmay qoldi ular?

— Biz shu yerdamiz, sultonim.

Alouddin Muhammad barmog'ini To'ng'ichning ko'ksiga nuqidi.

— Sen-ku shu yerdasan, biroq hamtovoqlaring qani? Boshqa beklar, sarkardalar-chi?

— Ular shaharlarni mudofaa etish uchun jo'nab ketishdi.

— Kuldirma meni... Hammasi qalin devorlar orqasiga pusib, jonini qutqarish payida. Yo noto'g'rimi?

Xon javob o'rniga yerga qaradi.

— Nega indamaysan, To'ng'ichxon? Yo so'ylaganlarim to'g'ri emasmi?

— Sultonim, beklaringizdan nega xafa bo'lyapsiz? Ularning hammasi yaxshi sarkarda. Shaharlarni mudofaa etmoq darkor, askarlarning boshiga qo'mondon kerak. Hali ko'rasiz, Chingizning askarlariga qon qustirishadi. Hatto, shahrimizga hujum qilmaydi ham...

— Iloho shunday bo'lsin. Bo'lmasa bu odamlar qal'adan tashqariga bir odim ham otmaydilar...

Anchagacha jim qolishdi. So'ng Alouddin Muhammad so'radi:

— Samarqandda qolsakmikan yo Buxoroda? Ne deysan?

To'ng'ich bu savolni kutgan edi. Hayajon bilan so'zlay boshladi:

— Samarqandning devorlari mustahkam. Bu yerga Chingizning tishi o'tmaydi. Qo'shiningizni olib bu yerdan ketaversangiz bo'ladi. Buxorodan ham ancha-muncha askar olishingiz mumkin. U yerda yuz ming bahodirimiz bor. Shahar mudofaasiga ellik ming askar kifoya. Qolganini olib, Xurosonga, keyin Eronga ketasiz. U yerlardan lashkar to'plab, Chingizxonga qarshi chiqasiz. Chingiz degani qoshda qolgan bir qism qordek erib yo'q bo'lishiga ishonchim komil.

— Inshoolloh!..

— Inoning, olampanoh. Bu yerda qolish siz uchun xatarli. Ollohning o'zi saqlasin, mabodo sizning muborak jismingiz qazoga uchrasa boshsiz qolgan qo'shinning qo'lidan ne keladi? Bu yerda qolish falokat demakdir. Shu sababdan bu shahardan ketishingiz lozim.

Alouddin Muhammad uzoq o'yladi. Soqolining bir nechta oq tukini yuldi.

— Demak, ketishim kerak, shundaymi?

— Albatta, ketishingiz kerak. Biz qatra qonimiz qolguncha shaharni mudofaa etamiz. Yaqinda zafar qozonamiz. Shunda olam-olam zavq-shavqqa ko'milamiz. Sodiq qipchoq erlari fidoyilik ko'rsatadilar...

Sulton qo'l siltab, uning so'zini bo'ldi.

— Qaysi qipchoq fidoyisini aytyapsan, To'ng'ichxon? Bilmaysanmi, O'trorga yordam uchun yuborgan yigirma ming qipchoq xiyonat qilib dushman tomonga o'tdi-ku!

Qipchoq xonining rangi qum-quv oqardi.

— Haligi, olampanoh... Siz... siz bundan xabardormidingiz?

Sulton jahl bilan yer tepdi.

— O'ch-e! Sen bizni ahmoq deb o'ylaganmiding?!

Eshikni ko'rsatib o'shqirdi:

— Yo'qol!..

Qipchoq xoni titrab-qaqshaganicha tisarila-tisarila chiqdi. Alouddin Muhammad o'z-o'ziga so'zlandi:

— Shularning pastkashligini ko'ra-bila turib g'ofil qolgansan, ey banda. Seni g'aflatdan kim uyg'ota oladi endi?

Deraza yonida anchagacha o'ylab qoldi. Azon o'qila boshlandi. Jarangdor bir ovoz ohista-ohista samoga yuksalaverdi. Sulton tiz cho'kdi.

Ko'p o'tmay imom keladi va ular bomdod namozini o'qiydilar. Sulton haliyam bir qarorga kelmagan edi. Ketishini ham, qolishini ham bilmay dovdirardi. Ketsa jonini qutqaradi, ammo el-yurtsiz bir sultonga aylanadi. Qipchoqlarning ba'zilari xiyonat yo'liga kirganini hech tushunib yetolmadi. Ular necha yillardan buyon shu davlatning non-tuzini yegan edilar-ku, qaysi yuz bilan xiyonat qildilar, qanday qilib bir majusiy tomonga o'tdilar? Chingizxonning sehrli tuki bor, ko'rgan odam uning yoniga o'tadi, degan mish-mishlar rostmikan yo?

Imom ichkariga kirishi bilan xayoli bo'lindi.

— Assalomu alaykum, buyuk sultonimiz...

— Vaalaykum assalom, senmisan Qozizoda?

— Bandangiz, sultonim, doim haqingizga duodaman.

— Tahorat olgan edim, namozimizni o'qiylik.

Sunnatni bajo keltirishdi. Uzundan uzoq tasbeh o'girishdi. Qozizoda imomatga o'tib, farzni qildirdi. Duo o'qishdi. Muzaffar etishini so'rab Ollohga iltijo etishdi.

Nihoyat oyoqqa turdilar. Sulton imomga ham ichini to'kib solgisi keldi.

— Quloq sol, sen Ollohning sevgan qulisan. Diqqat bilan eshit... Menga berayotgan maslahatlariga ko'ra, shaharni tark etib, askarlarim bilan Xurosonga ketishim, u yerdan bir qancha askar olib, Eron tog'lariga chekinishim, yaxshi tayyorgarlik ko'rgach, qaytib Chingiz qo'shinini yashin urgandek yakson qilishim kerak ekan. Bunga ne deysan?

Imom ikkilanib o'tirmay shartta javob berdi:

— Bunga dushmandan qochish deyishadi, sultonim!

Sulton o'rnidan sakrab turdi.

— Bu qanday gap?!

— Haqiqatni aytdim.

— Sen haqsan, ammo boshqa chora ham yo'q, shekilli.

— Nega bo'lmasin, olampanoh? Nega dushmanni ko'rmay turib boq qochmoqchisiz? Urushib ko'ring. Haq taolo neni taqdir etganini kim biladi. Balki Chingizxon qochar. Kim biladi?

— Chingiz nihoyatda kuchli deyishadi.

— Necha yil ularning ichida bo'ldim. To'g'ri, mo'g'ullar kuchli, botir, ammo bizchalik ko'p emas. Ular jasur. Biz ham jasorat ko'rsatsak, mag'lubiyatga uchramaymiz. Men bu mamlakatning non-tuzini yedim, suvini ichdim. Qarzim ko'p. Men shaxsan o'z chekimga tushgan ishni qilishga hozirman. Bu tuproqqa musulmonlar qoni to'kilgan. Sultonim, bu zamin uchun yana qon to'ksak arziydi.

Sultonga imomning so'zlari maqbul bo'ldi. Biroq shahardan ketish fikri miyasini parmalayverdi.

— O'ylab ko'ray, — dedi u.

Qozizoda chiqdi. Sulton yana yolg'iz qoldi. Uzoq o'yladi. Oxiri yana To'ng'ichni chaqirtirdi. Yana salomlashishdi. To'ng'ichxon shahardan ketishga ko'ndirish uchun sultonni rosa avradi, o'limdan so'z ochib, qo'rqitdi. U qildi, bu qildi, xullas, sultonni ketishga ko'ndirdi.

Samarqandni mudofaa etish uchun kelgan minglagan kishilar o'limini bo'yniga olib, jangga shaylanayotgan edilar. Sulton Muhammad ularga bosh bo'lish o'rniga soqchilarini ergashtirib, tush paytida shaharni tark etdi. Qo'mondon qochgach askar ne ham qilardi?

Jaloliddin otasining orqasidan qon yig'lab ketib borardi. Oxirgi marta Samarqandga boqdi. Ko'zlarini to'ldirgan yoshini kaftining orqasi bilan artdi. Isyonkorona so'radi:

— Nega, urushdan nega qochayotirmiz?

Tog'-u toshlarning til-zaboni yo'qki, javob bersa. Otasi bo'lsa og'zida qatiq ivitganday miq etmadi.

* * *

— O'tror taslim bo'ldi...

— O'tror taslim bo'ldi...

— O'tror Chingiz qo'liga o'tdi...

— Inolchiq G'oyirxon qatl etildi...

Buxoro ko'chalarida baqir-chaqir avjiga chiqdi. Vahima kuchayib, sarosima boshlandi. Kishilar bir-biridan so'rashadi:

— Nima bo'pti, qanday bo'pti?

— Pakana ot minganlar shaharga bostirib kirib, yosh-u qarini qatl qilibdi, qo'liga tushgan kishini qoziqqa o'tqazibdi...

— Rostdanmi? Dahshat-ku!

— Vahshiylarning ishi vahshat sochish-da. Biroq senga bir gap aytaymi, do'stim, biz shunga loyiqmiz.

— Ne bo'larkin, bu yoqqa ham kelisharmikan?

— Yaqin kunlarda kep qolishadi...

— Yo'g'-e?!

— Kelaversin. Bir tomchi qonimiz qolguncha shaharni himoya qilamiz.

— O'lguncha urushamiz deysanmi, nega?

— Nega-pegasiga balo bormi? Axir, bu o'z yurtimiz-ku!

— Bu yurt Xorazmshoh Muhammadniki emasmi?

— Uniki ham.

— Unda nega qochdi?

— Dushman ustiga bosqin qilmoqchidir balki...

— O'zi ketgani yetmaganday, ellik ming askarimizni ham opketdi. Qochishni biladi, ammo dushman bilan urushgisi yo'q. Afsus...

— Bizning vazifamiz dushman bilan urushmoq.

— To'g'ri. Ammo biz mahkum etilganmiz. Layoqatsiz sarkarda bosh bo'lgan qo'shin o'limga mahkumdir.

Har kim og'ziga kelganini aytdi. Lekin birining so'zini boshqasi olmadi. Barcha o'z fikrini o'tkazishga urinar edi.

Buxoro beklarining majlisi uzoq davom etdi. Biroq biron-bir qarorga kela olishmadi. Ertasiga to'planadigan bo'lib tarqalishdi.

Ertasiga juma edi. Beklar juma namozini birgalikda o'qidilar, imom dildan qilgan duoga "omin" deb qo'l ko'tardilar. So'ng barchasi majlisga ketdi.

Nishoburxon so'z oldi.

— Buyuk xonlar, ulug' beklar. Biz Xorazm uchun ma'sul kishilar o'laroq bu majlisga to'plandik. Kecha yomon xabar oldik: O'tror taslim bo'libdi. Qal'a qahramonona mudofaa etilgan, biroq katta kuchga dosh berolmagan. Chingiz bu katta shaharga o't qo'yibdi, vayron etibdi. Ertaga Buxoroni ham urushib olsa, xuddi shunday qilishi tayin. Bu shahar omon qolishi kerak. Buxoro ilm-u urfon markazi, olimlar dargohidir. Uni saqlab qolishimiz lozim. Sultonimiz shaharni bizga ishonib tashlab ketdi. U yangidan qo'shin to'plab, Chingizni yanchmoqchi. Endi o'z fikrimni aytay: Chingizning shaharni vayron etmasligi uchun birgina yo'l bor. U ham bo'lsa...

Biroz jim qoldi. Og'zida turgan mudhish so'zni aytolmay yamlandi. Go'yo bu so'z dudoqlarini kuydiradigandek edi. Nihoyat so'zladi:

— Shaharni taslim etishdir...

— Ne gap bu?!

Ayrim beklarning miyasiga qon urdi. Soqoli oppoq keksa bir bek yosh yigitlardek qizishib o'rnidan turib ketdi:

— Nima deyayotganingni bilasanmi? Yoki sen ham anavi xoinlar kabi xiyonat ko'chasiga kirdingmi?

Nishobur unga yeb qo'ygudek bo'lib, qahr bilan tikildi.

— Ne so'ylaganimni yaxshi bilaman, otaxon. Siz yosh boladek qizishmang. Qiziqqonlik qilib, keraksiz gaplar aytib yubordingiz.

Mo'ysafid qizarib ketdi. Beklarga o'girilib, dedi:

— Qarang, ey beklar! Sizga beklik unvoni bergan mamlakatni dushmanga topshirishmoqchi-yu, siz og'zingizga talqon solib o'tiribsiz.

— Aslo!..

— Boshqa chora bormi o'zi?

Keksa bek g'azab bilan qichqirdi:

— Bor!

— Ne ekan u, ayting...

— Urushamiz, bir tomchi qonimiz qolguncha olishamiz...

— Siz yo nima deyayotganingizni bilmayapsiz, yoxud Chingizxonning kimligidan bexabarsiz. Chingizxon o'ziga qarshi chiqqanlarni shu vaqtgacha hech kechirgan emas. Men uni yaxshi bilaman, zolimligini o'z ko'zim bilan ko'rdim. Kirgan mamlakatida har tarafni, hamma narsani yag'molaydi, qo'lga tushgan odamni o'ldiradi, shaharga boshdan oyoq o't qo'yadi. Sizga shu kerakmi?

Keksa bek haligacha g'azabini bosolmagan edi.

— Sen ne deysan o'zi? — deb hayqirdi u. — Nega faqat taslim bo'lish to'g'risida dam urasan? Urushmoqni xayolingga ham keltirmaysan. Buxoro mustahkam shahar. Uni olish oson emas. Askarlarimizning ruhi tetik. Shunday bo'lsa-da, taslim bo'lishdan so'z ochasiz. Bu xiyonat emasmi?

— Boshqa chora yo'q...

Keksa bek yanada qattiqroq g'azablanib, Nishoburxonni yoqasidan oldi.

— O'lganing yaxshi emasmi? Ahmoqliging o'zingga siylov, ammo xalqni tepkilatib qo'ymayman.

Nishoburxon siltandi.

— Ol qo'lingni, qariya! Nima, seni chopib tashlashim kerakmi?

— Koshkiydi... Bu so'zlarni eshitganimdan ko'ra o'lganim yaxshiroq edi. Nadomatlar bo'lg'ay! Necha-necha yil bu mamlakatning non-tuzini yeding, endi esa xiyonatga yuz tutding...

— Men haqiqatni tan olaman, xolos.

— Dushmanga bir o'q otmay, taslim bo'lish haqiqatmi?

— Ha, shunday. Otilgan bir o'q minglab kishining hayotiga zomin bo'lsa, ne keragi bor?

Keksa bek ularga nafrat bilan bir-bir tikildi-da, dedi:

— O'lmoqni bilmagan yashamoqqa noloyiqdir.

Shunday dedi-yu, etagini qoqib, gurs-gurs qadam tashlab majlisdan chiqib ketdi.

Qipchoq xonlarining ko'pchiligi taslim bo'lish tarafdori. Botirlar bo'lsa, bir tomchi qoni qolguncha urushmoqchi edilar. O'rtada nizo chiqdi. Pirovardida bir hovuch vatanparvar ichkari qal'aga kirib hamma yoqni tambaladi. Ular jilla qurmasa arkni mardona mudofaa etmoqchi, Chingiz qo'liga tiriklay tushmoqchi emas edilar.

Bu haqda Qur'onga qo'l qo'yib qasam ichdilar.

O'NINCHI BO'LIM

Temur Malikning ko'ngli qattiq g'ash. Odatda falokat oldidan kishi ana shunday qattiq g'ash bo'ladi. Temur Malik o'zini qo'yarga joy topolmasdi. U Chingiz ustiga bosqin qilganidan so'ng, to'g'ri Xo'jand qal'asi tomonga otlangan, shaharga kelib, qo'mondonlikni qo'lga olgan edi.

Askari oz. Ammo u bundan tashvishga tushmadi. Xo'jand daryo sohilida joylashgan. Daryo qal'a atrofidan aylanib oqadi. Oqim shiddatli. Temur Malik Chingizning to'ng'ich o'g'li Jo'ji yaqin-atrofga yetib kelganidan boxabar. Har ehtimolga qarshi hozirlik ko'rib qo'ygan. Xo'jandning qirg'oqqa tutash qismiga kamonchilarni joylashtirdi, manjanaqlar qo'ydirdi.

Tuman tushdi. Qosh qoraya boshladi. Temur Malik qal'a burjlaridan birida shom namozini o'qidi, Ollohga uzundan uzoq iltijo qildi, so'ng burjlarni aylanishga chiqdi.

Soqchilarining o'zaro hazil-huzuli quloqqa chalinadi. Ularning ruhi tetik. Bundan quvonish kerak. Ammo negadir ichiga chiroq yoqsa yorishmas edi.

O'tror taslim bo'lganini va sulton Alouddin Muhammad ketma-ket boy berayotganini eshitgan onda yuragi sanchdi, ko'z yoshlarini askarlariga ko'rsatmaslik uchun xonasiga bekinib oldi. Xilvatda ho'ng-ho'ng yig'ladi. Hech qachon bu qadar achchiq ko'z yoshi to'kmagan edi. Par to'shakni mushtladi, alamiga chiday olmay qimmatbaho Chin ko'zasini devorga urib chil-chil qildi.

Qani endi sulton hujumga o'tsa. Joni shirinlik qilmasaydi. Koshki qo'rqoq xonlarining so'ziga kirmasaydi.

Ichini it tatalayotgandek edi. Bularning barchasi Temur Malikning dilini battar xufton qildi. Bir soqchining yonidan o'tayotib, hol so'radi:

— Ahvol qalay, jigarim?

Soqchi kiprik qoqib tikildi, qo'mondonini tanidi. G'oz turdi.

— Haqqingizga duo etyapmiz, begim.

— Yaxshisi, eling haqqiga duo et.

O'tib ketdi. Soqchi orqasidan hayron bo'lib qarab qoldi. So'ng bu gapni aytib berish uchun sheriklarini chaqirdi.

Temur Malik ufqqa nazar tashladi. Atrof sukunat og'ushida. Bir gap bo'lishi tayin. Temur Malik ichki bir sezgi bilan buni his etdi. O'zi oldinroq harakat qilib, bosqin uyushtirsa qanday bo'larkin? Ammo dushman qayerda ekanini bilmaydi-da. Esiga bir narsa tushdi. Shosha-pisha pastga tushib, otini keltirishni buyurdi. Keyin Sariq Lag'o'tni topdi.

— Bo'l tez, ketamiz.

Sariq Lag'o't qayoqqa deb so'ramadi ham. Zotan, Temur Malikning orqasidan, hatto, o'limga ketishga hozir-u nozir edi. Shunday ekan, qayerga borishlarini so'rashning ne hojati bor?..

Otlanib, qal'adan tez chiqishdi. Yalang'och cho'ldan o'tdilar. O'rmon ham ortda qoldi. Nihoyat Temur Malik qidirganini topdi.

— Qara bu tomonga!

Sariq Lag'o't o'sha yoqqa diqqat bilan tikildi. Olisda miltillayotgan gulxanlar ko'rindi. Ne edi bu, ajabo? Bir so'z bilan javob berdi:

— Ko'rdim.

— Jo'jixon bu.

— Kim?

— Chingizning o'g'li Jo'ji. Naq biqinimizga yetib kelibdi.

Tishlarini qisdi, qarorgoh tomonga musht do'laytirdi.

— Bechora O'tror. Dushman qo'liga o'tdi-ya!.. O't qo'yib, kulini ko'kka sovurishibdi. Inolchiq G'oyirxonni Chingiz qanday jazolagan ekan, kim biladi deysiz? Mo'g'ul usulida qoziqqa o'tqazganmikan yo qulog'iga erigan kumush quydirganmikan? Obro'li beklarni bu usulda o'ldirish Chingizning odati. Shunday qilgach, mahkumning

ro'parasiga turib olib qahqaha otadi. Eng nomdor dushmanlarini esa qoplonlariga tashlatadi deyishadi. Dahshat!

— Ko'pchilik bular...

— Shabixun ursakmikan?..

Sariq Lag'o't taraddudlanib o'tirmay, darhol javob berdi:

— Men tayyorman.

— Men ham...

Orqaga qaytishdi. Askarlari tayyor turardi. Temur Malik qisqa amr berdi:

— Ming kishi otlansin.

Qal'adan tez chiqib ketishdi. O'rmondan shovqin-suronsiz o'tdilar, taqa tovushi chiqmasligi uchun otlarning tuyog'iga kigiz bog'ladilar. Xuddi arvohlardek sassiz-sadosiz olg'a bosib borishardi.

Qarorgohga yaqin qolganda Temur Malik otliqlarni to'xtatdi. Suvoriylarini yuz kishilik bo'linmalarga ajratdi. Birinchi bo'lib besh yuz kishi bilan Sariq Lag'o't hujumga o'tadigan bo'ldi. O'zi undan yarim soat keyin bostirib boradi. Qancha qirsalar, shuncha soz. Bir sinab ko'rishadi.

Sariq Lag'o'tning yelkasiga qoqdi.

— O'zingni ko'rsat. Hozirgacha ko'rsatgan qahramonliklaring yana bittaga ko'paysin. Ulug'likning oxiri bo'lmaydi.

Sariq Lag'o't jilmaydi.

— Uyaltirma meni, Temur Malik. Seni uchratganim uchun Yaratganga shukrlar. Bo'lmasa haligacha o'tganning o'rog'ini, ketganning ketmonini olib yurgan bo'larmidim.

Quchoqlashdilar.

— Rozi bo'lgin...

— Mingdan ming roziman, sen ham rozi bo'l.

— Mingdan ming roziman.

Sariq Lag'o't suvoriylarning boshiga o'tdi.

— Qani, ketdik, arslonlarim! Jo'jining ustiga chaqmoqdek urib tushaylik!

Qarorgoh ustiga quyundek yopirildilar.

Jo'jixon chodirda sharobxo'rlik qilayotgan edi. Sarkardalarini to'plagan. Bo'lg'usi jangda qaysi usulni qo'llash to'g'risida muhokama avjida.

Birdan qattiq shovqin-suron ko'tarildi, qilichlarning jarang-jurungi eshitildi. Irg'ib turdilar. Jo'jixon ko'zlarini qisib, sarkardalariga tikildi.

— Ne bo'lmoqda?

Ichkariga bir askar yugurib kirdi.

— Bosishdi!..

Jo'ji bosh chanog'idan yasalgan qadahni otdi. G'azab bilan o'kirdi:

— Kim jur'at etdi bunga?

— Bilmaymiz.

Qo'mondonlariga qarab ko'zidan o't sochdi.

— Boring askar boshiga, o'zingizni qo'lga oling. Loaqal birini qochirsangiz ko'zimga ko'rinmang!

O'zi ham otlandi. Qorong'ida jang qilayotganlar orasiga ot qo'ydi.

— "To'plan" burg'usi chalinsin! Bular qaroqchi to'dasi emas, muntazam qo'shinga o'xshaydi.

Birov na'ra tortdi:

— Uring!..

Jo'jixon qahqaha otdi.

— Xorazmliklar! — dedi u.

Ovozining boricha baqirdi:

— Sog' qo'ymang, mo'g'ul arslonlari, o'ldiring!

Sariq Lag'o'tning ovozi uni bosib ketdi:

— Sariq iblislarga ko'z ochirmang, qardoshlarim, to'ng'iz qo'ptiring!

Qilichlarning shaqir-shuquri, otlarning kishnashi, oh-voh, so'kish saslari bir-biriga qorishib ketdi. Goh-goh "Yo Olloh, yo Olloh!" degan hayqiriqlar aks sado beradi. Ahyon-ahyonda "Lu! Lu! Lu!" degan ulish eshitiladi.

Temur Malik tepalikda turib ahvolni kuzatar edi. Biroq qorong'ida hech narsani farqlay olmadi. Faqat askarlarining shodon qiyqiriqlaridan oshig'i olchi ekanini bilib turadi.

Vaqt yetib kelgach, yigitlariga buyruq berdi:

— Qani, hujuum!..

Tepadan pastga otilib tushdilar. "Yo Olloh, yo Olloh" deya na'ra tortib, "Ollohu akbar, Ollohu akbar!" takbirlarini aytib, jangga kirdilar. Jo'jixonning askarlari sarosimaga tushdi. Ular dushmanni ko'pchilik deb o'ylagan edilar. Qorong'ida bostirib kelganlar qancha ekanini sanab bo'larmidi. Jo'jixon bor ovozi bilan baqirdi:

— Orqaga chekining, orqaga!..

Urusha-urusha chekinishdi. Temur Malik anchagacha ta'qib etdi.

— Bosing, zafar bizniki...

Asir olishgani yo'q. Dardisarning ne keragi bor? Asirlarga oshnon darkor. Qal'adagi yegulik bo'lsa hisobli. Qo'lga kiritgan guruch qoplarini otlariga ortdilar, so'ng mo'g'ul chodirlariga o't qo'ydilar. Tongga yaqin qal'aga qaytishdi.

* * *

Jo'jixonning qo'li ostida o'n ming suvoriy bor edi. Vaholanki, Temur Malik atigi ming kishi bilan bosqin uyushtirdi, xolos. Jo'jixon dushman sonini hech qachon bilolmadi. G'azabdan mo'ylovi titrar, ko'zlari to'xtovsiz o'ynar edi.

— Bu qanaqasi? — deya o'shqirdi u. — Dushman o'rtamizga bostirib kirmaguncha xabar topmasak? Besh yuz kishi o'ldi, yana shuncha yaradorimiz bor. Xorazmliklarni qo'rqoq deb o'ylab, g'aflatda qoldik. Siz qanday qo'mondonsiz o'zi? Qorovullar qayerda? Nega darhol xabar berishmadi?

Hech kim javob bermadi. Barcha Jo'jixonning g'azabidan qo'rqqani uchun sukut saqladi. Jo'jixon g'azab bilan davom etdi.

— Yeguliklarimizning ko'pini olib ketishdi. Och qoladigan bo'ldik. Kechagi qorovullarni toping va kallasini uzing.

Sarkardalaridan biriga yuzlandi.

— O'gedey no'yon, darhol otamga odam jo'nat. Yordamga o'n ming askar yuborsin. Tez yetib kelishsin. Oziq-ovqat topish uchun chor-atrofni yag'molang. Qo'limizga ne tushsa-da, kor-holimizga yaraydi. To'xtab turma, aytganlarimni tez bajar.

O'gedey no'yon o'rnidan irg'ib turdi. Buyruqni bajarish uchun askarlari tomonga ketdi.

Jo'jixon o'zini bosolmay, bor ovozi bilan baqirishda davom etdi:

— G'aflat ichidasiz, hammangizni g'aflat bosgan! Sizga ishonib ahmoqlik qilgan ekanman.

Chodir eshigini ko'rsatdi:

— Chiqlaring!..

* * *

O'g'li mag'lubiyatga uchraganini eshitdi deguncha Chingizxonning tepa sochi tikka bo'ldi.

— Landovur, latta o'g'il! — deya bo'kirdi.

U yoq-bu yoqqa yurib ancha o'yladi. Burqani chaqirtirdi. Burqa novcha, barzangi mo'g'ul edi. U tiz cho'kib, xoqonga salom berdi.

— Amringizga muvofiq yetib keldim, ulug' xoqon.

— O'g'lim Jo'jixon mag'lubiyatga uchrabdi, Burqa. Bir hovuch navkar qo'riqlayotgan Xo'jandni ololmabdi. Mendan ko'mak so'rayapti. O'n ming otliqni ol-da, unga yordamga shosh. Yonidan jilma. Soya kabi ergashib, o'g'limni kuzat. Bu uning nechanchi bor boy berishi?! Ko'pdan beri bu dunyoga ortiqchalik qilib qoldi. Xo'jandni olgandan keyin o'zing bilgan ishni qilasan.

Burqaning labida makkorona tabassum o'ynadi.

— Tushundim, buyuk xoqon.

— O'n ming navkar ol-u, darhol yo'lga chiq...

Burqa chiqdi. Qo'shin ichiga kirib, istagan navkarlarini ajratib oldi. O'zini kuzatib turgan xoqonni qo'l ko'tarib olqishladi, so'ng navkarlarga "olg'a" deb amr berdi.

Chingiz Burqaning orqasidan ancha qarab turdi. U ba'zi sarkardalarini yo'q qilmoqchi bo'lsa Burqani ishga solardi. Burqa xoqonga itday sodiq.

Temur Malik Jo'jixon otasidan yordam so'raganidan xabar topdi. Darhol bir qarorga keldi. Ikki ming otliq bilan Xo'jandga boriladigan yagona yo'l ustida pistirma qo'ydi.

Bir necha kun poylashdi. Ammo dushman ha deganda ko'rinavermadi. Askarlar betoqat bo'la boshlashdi. Sabr kosalari to'lgan ham ediki, dushman kelayotgani to'g'risida xabar berishdi.

— Kelishyapti!..

Xabarni eshitib Temur Malik shod bo'ldi. Shuncha vaqt kuta-kuta, oxiri hech narsa qilmay qaytib ketish askarlarining ruhini

tushirgan bo'lar edi. Temur Malik o'rnidan sakrab turib, Sariq Lag'o'tga qaradi.

— Kelishayotganmish... — dedi u.

Sariq Lag'o't qilichining dastasini silab qo'ydi.

— Qani, kelaverishsin-chi...

Askarlar yo'lning ikki tomonidagi o'rmonga yashirindilar. Temur Malik bir qismga qo'mondonlik qilishni yana Sariq Lag'o'tga topshirdi, ikkinchi qismga esa o'zi bosh bo'ldi. Ko'p o'tmay mo'g'ullar ko'rindi. Burqa shumlik qilib, oldinga besh yuz kishilik ilg'or qism yuborgan edi. Temur Malikning avzoyi buzildi. Hujum etmasa, o'tib ketishadi. Bir lahza ikkilangach, qaror qildi:

— Booos!..

Yog'iy ustiga yopirilishdi. Ayni damda Sariq Lag'o'tning yigitlari ham hujumga otildi.

— Olg'a, yigitlar, bosing!

Dushman esankirab qoldi. Mo'g'ullar es-hushini yig'ishtirib olishga ulgurmasdanoq xorazmliklar qilichi ostida jon taslim qildi.

G'alaba qozonishdi. Biroz keyinroq mo'g'ullarning asosiy qo'shini ko'zga tashlandi. Ular bo'lib o'tgan hodisadan xabar topgan va kerakli tadbirlarni olib, urushga shay holda yurib kelayotgan edilar. Burqa harsillab nafas olgancha oldinda kelardi. Temur Malik buyurdi:

— Orqaga chekining.

Bosqin chippakka chiqdi. Biroq har holda dushman ilg'ori batamom yakson etildi. Egasiz qolgan otlarni yetovga olib, tez chekindilar. Mo'g'ullar otlari charchagani bois ularga yetib ololmadilar. Temur Malik yigitlari bilan eson-omon qal'aga kirib oldi. Mo'g'ul sarkardasi Burqa qal'aga musht do'laytirdi.

— Hammangizni chopaman! — deb baqirdi u. Qovog'idan eshak qurt yog'ilgan ko'yi Jo'jixon yoniga kirib bordi.

* * *

O'sha kuni Buxoro ahli yana tongdanoq ko'chalarga toshib chiqdi. Shaharda ko'pdan beri sukunat hukmron. Chingiz qo'shinlari shahar yaqiniga yetib kelganidan barcha xabardor. Buxoro atrofidagi ba'zi qishloqlarga mo'g'ullar kirgani ma'lum bo'ldi.

Bozorlar bo'm-bo'sh, do'konlar tambalangan. Hech kim biron narsa sotib olishni istamaydi. Bir necha qora chaqani qora kunga deb olib qo'yishgan. Shaharni himoya etishga azm-u qaror bergan kishilar askarlarni yegulik bilan ta'minlash uchun xayr-sadaqa so'rashga majbur bo'ldilar. Ammo kuni bilan arzimagan pul topishardi, xolos. Boylar mol dardida, kambag'allar bo'lsa jon dardida. Biroq mamlakat dardida bo'lganlar ham bor edi. Ular xalq ichiga kirib, mudofaa uchun ehson so'rashardi.

Dali Darvesh yirtiq-yamoq jubbasining etaklarini halpillatganicha, yalang oyoqlari tars-tars yorilib ketganiga ham qaramay, ko'chama-ko'cha yurib, ehson to'plashga harakat qilardi.

U Buxoro boylaridan Hoji Zayyod huzuriga bordi.

— Janoblari, — dedi u. — Shaharni mudofaa etayotgan askarlarning yeguligi qolmadi. Yo don-dun, yoki biroz pul bersangiz...

Zayyod sovuqqina boqdi. Burnining uchiga qo'ngan pashshani haydamoqchi bo'lgandek qo'l siltadi.

— Xudo bersin, — dedi u.

Darvesh joyidan jilmadi.

— Menga Dali Darvesh deyishardi. Necha yil zindonda yotdim. Bu davlatdan noz-ne'mat ko'rganim yo'q, aksincha, aziyat chekdim. Biroq hozir musulmonlar boshiga kelgan baloni daf etmoq lozim. O'trorga o't qo'yishganini, Inolchiq G'oyirxonni qanday o'ldirishganini ko'rib, dahshatga tushdim. Musulmonlarni yoppasiga qirishganini o'z ko'zim bilan ko'rdim. Olloh shohid, o'sha vaqt o'lmoqqa hozir edim. Mo'g'ullarga tashlandim. Bittasining hiqildog'idan oldim. Meni urib yiqitishdi, o'ldi deb o'ylab, shahardan tashqariga chiqarib tashlashdi. O'lmay qoldim. La'nat menga, hatto o'lishni ham eplay olmadim. Yura-yura Buxoroga keldim. Bu shahar ham O'tror singari dushman qo'liga o'tishini xohlamayman. Undan ko'ra o'lganim yaxshi. Keling, bizga yordam qiling. Aks holda, o'zingiz ham balo-qazoga duch kelishingiz tayin. Mo'g'ullarning naqadar zolim ekanidan bexabarsiz. Ular kelsa na molingiz qoladi, na nomusingiz!..

Zayyod to'ng'illadi.

— Tur, ket bu yerdan...

— O'lim quchog'iga ketayotganingni o'zing bilmaysan, ey g'ofil banda. Tasavvur ham etolmaydigan balolarga o'zing sababchi bo'layotganingdan bexabarsan...

— Ketasanmi yo yo'qmi?

— Nega bunday deysan? Pul so'raganim uchun jahling chiqdimi? Xohlamasang, berma. Mayli, shunday bo'lsa-da, kelib bizga qo'shil. Qal'ayi darunda minglab dindoshing bor. Shahringni ular bilan birga himoya qil...

— Men jangchi emasman, tujjorman.

— Unday bo'lsa shunga yarasha ish qil, pul yoki don-dun ber.

— Bor, ket, boshimni og'ritma!

Darvesh qo'llarini ochdi.

— Ey Rabbim, o'z rohat-farog'ati uchun mamlakatini oyoqosti qildirishdan toymaydigan bu qullaring yurt egasi bo'lishga noloyiq bo'lsa-da, oramizda bo'lgan or-nomusli kishilar hurmati mamlakatni o'z panohingda saqla, dushmanga toptatma...

Barmog'ini Zayyodga nuqidi.

— Bular ne qilayotganini o'zlari ham bilmaydilar, yo Rabbim!

Hoji Zayyodning achchig'i chiqdi. Ne desalar-da indamasdi, biron unga g'ofil deyishsa ko'tara olmasdi. G'azab bilan o'rnidan turdi.

— Xudo haqqi, tepkilayman! — deb baqirdi u. — Yo'qol, bo'lmasa tepkilayman!

Darvesh pastroq ovoz bilan javob berdi:

— Yaqinda o'zingni tepkilashadi, ey g'ofil!

Darvesh ketdi.

Ko'cha-ko'y tirband. Darvesh xayr-ehson so'rab ketaverdi. Oqshom paytigacha loaqal bir hovuch chaqa to'play olmadi. Bug'doy solingan xurjuni esa yarim ham bo'lmadi. Dilgir bo'lib qal'ayi darunga qaytdi. Qal'a qo'mondonining huzuriga bordi.

— Bardam bo'l! — dedi u. — Bular bir to'da g'ofil. G'ofillar ne qilayotganini o'zi bilmaydi...

Qo'mondon bosh chayqadi, alam bilam yuzini burishtirdi. Yarim soatlardan keyin kelgan bir xabarchi mo'g'ullar qarorgoh tiklay boshlaganini aytdi. Shaharga vahima oraladi. Ba'zilar urushmoq, boshqalari taslim bo'lmoqni istar edi. Taslim bo'lishni xohlayotganlar Xorazmshoh adolatli bo'lmaganini aytib, Chingiz undan

yomon chiqmas, deb da'vo qilishardi. Narigilar bo'lsa, adolatsizlik bo'lgan bo'lsa bordir, biroq musulmonlar bilan majusiylar teng emas, mo'g'ullar zulmdan boshqa narsa bilmaydi, deyishardi.

Qal'ayi darundagi qahramonlar xalq orasidan besh ming nafarga yaqin cherik to'play oldilar, xolos. Ba'zi kishilar qochishni mo'ljallab saqlab qo'ygan, ammo Chingiz to'satdan kelib qolgani uchun endi keragi bo'lmay qolgan otlarini topshirdilar. Besh ming otliq yarim kechasi qal'adan chiqib, mo'g'ul qarorgohiga shabixun urdi.

Mo'g'ullar ko'pchilik, biroq ular to'satdan ustiga bostirib kelgan dushman qancha ekanini bilmas edilar. Boz ustiga charchagan. Shunga qaramay urushishlari kerak edi. Biroq mo'g'ullar urushmadilar, pakana otlarini minib, qarorgohni tashlab qochdilar.

Buxoro qo'mondoni Inonchxon dushmanni ta'qib etishni lozim topmadi. Qal'ada don-dun oz bo'lgani uchun tashlab ketilgan yegulikni qo'lga kiritish payiga tushdi. Don-dunni yig'ib olish to'g'risida buyruq berdi.

Tonggacha don-dunni yig'ishtirib, otlarga yukladilar. Quyosh endigina bosh ko'targan paytda Buxoro tomonga piyoda yo'l oldilar.

Avvaliga uzoqdan chang buluti ko'rindi. Bu bulut tobora yaqinlashib, borgan sari kattalashdi. Inonchxon xavotir ola boshladi. Kelayotgan kim, ajabo, do'stmi yoki dushman orqaga qaytdimi?

Uzoq kutishning hojati qolmadi. Ko'p o'tmay pakana ot mingan suvoriylar ko'zga chalindi. Buxoro askarlari piyoda qolgan edi. Shunga qaramay ular sher kabi urushdilar.

Biroq mo'g'ullarning keti uzilmadi. "Lu! Lu! Lu!" deb na'ra tortganlaricha to'xtovsiz hujum qildilar.

Qonli jang bo'ldi. Maydonda inson va hayvon jasadlari qalashib ketdi. Buxoro himoyachilaridan juda kamchiligi shaharga yetib bordi. Sog'-omon qolganlar darhol qal'aga kirib, darvozalarni tambaladilar.

O'N BIRINCHI BO'LIM

Inonchxonning besh ming askaridan ko'pchiligi qilichdan o'tkazilgani, ozginasi Buxoroga qaytib kelgani shahar ahlini cho'chitdi. Xalqqa bosh-qosh bo'lib yurganlar majlisga to'plandi.

Gap Inonchxon harbiy xatoga yo'l qo'ygani emas, dushmanning kuch-qudrati ustida bordi. Ularning aytishicha, Chingizning askari mo'r-malaxday ko'p, o'ldirib oxiriga yetib bo'lmaydi. Binobarin, Chingiz yengilmaydi. Buxoroning besh ming fidoyisidan ko'pini bir lahzada qirib tashlagan dushmanga qarshi turib bo'larmidi?

Vatanparvarlar ularga qarshi chiqib, ne bo'lsa-da, taslim bo'lmaslik tarafdori ekanini so'zladilar. Chingizning Buxoroni yiqtirganini ko'rgandan ko'ra o'lgan yaxshiroq, dedi ular...

Biroq vatanparvarlarga hech kim quloq solmadi. Taslim bo'lish tarafdorlari ko'pchilik edi. Ular tuyalarga turli-tuman hadyalar ortdilar, zarrin to'nlarini kiydilar. Omonlik berish sharti bilan shaharni topshirishga rozi ekanliklarini Chingizga bildirish uchun qal'adan chiqdilar.

Narigilar bo'lsa shaharni bir tomchi qoni qolguncha himoya etish niyatida qal'ayi darundagi fidoyilarga qo'shildilar.

Chor atrofga ko'klam o'z gilamini yozgan. Yovvoyi o'tlar orasida endigina ochilgan chechaklardan anvoyi bo'y taraladi. Chingizxonning sariq chodiri quyosh nurida jimirlaydi.

Falokat bilan boshlangan 1220-yilda balo-qazo to'xtamay kema-ket yog'ildi. Musulmonlarning faxri, dunyoning eng ilg'or, eng obod shahri Buxoroning o'n ikkita darvozasi mo'g'ul otliqlariga ochiladigan bo'ldi.

Quyosh musulmonlarning bu ahvolidan kuyib ketayotgandek tuyulardi. Musulmonlar ne ko'yga tushdi o'zi?

Dali Darvesh xayolga tolgan edi.

Birga harakat qilgan vaqtlarida ular nechog'lik qudratli, yengilmas edilar. Endi esa ular parchalanib ketgan. Musulmonlar parchalangan bir paytda dushman birlashgan, Chingizxon borgan sari kuchaygan edi. Kuchsizlar birlashsa g'olib, kuchlilar parchalansa mag'lub bo'ladi. Tarixning oltin qoidasi ana shunday.

Buxoro hay'ati Chingizxonning chodiriga yetib bordi. Oralarida pushaymon bo'lib, ich-ichini yeyayotganlar ham bor edi. Ammo endi bu yo'ldan qaytib bo'lmaydi. Chingizxonni murosayi madoraga keltirish uchun urinishdan boshqa yo'l yo'q.

Hay'atni chodir ostonasida Donishmand Hojib qarshilab, Chingiz huzuriga olib kirdi. U jiddiy qiyofada xoqon oldida tiz cho'kdi.

— Buyuk xoqon, — dedi u. — Buxoro vakillari oyog'ingizga bosh urmoq uchun huzuringizga kelishdi.

Chingizxonning yalpoq yuzi qiyshaydi, labida masxaraomuz tabassum zohir bo'ldi.

— Bosqinda uch yuz bahodirim nobud bo'ldi, — dedi u.

Ovozi muzdek sovuq edi. Buxoroliklar titrab, bir-biriga umidsizlarcha qarashdi. Oralarida eng keksa mo'ysafid so'zlashga jur'at qildi:

— Buyuk xoqon, — dedi u. — Biz Buxoro xalqi nomidan vakil bo'lib keldik. Shahrimizning qal'asi juda baland, devorlari mustahkam. Bundan tashqari, qal'ada jon berishga tayyor qahramonlar bor.

Chingiz iliklarni muzlatadigan sovuq ovoz bilan so'radi:

— Shu boisdan taslim bo'lmoqchimisiz?

Mo'ysafid o'zini eshitmaganga solib, so'zida davom etdi.

— Don-dunimiz ham ko'p. Qo'shiningiz nechog'lik kuchli bo'lsa-da, shaharni olish uchun yillab qamal qilmog'ingiz kerak bo'ladi. Biroq biz behuda qon to'kilishini istamaymiz. Ba'zi shartlarni qabul qilsangiz, shaharni topshiramiz. Bola-chaqani o'ylashga majburmiz.

Chingizxon to'ng'illadi:

— Shartlarni ayt, qariya.

— Shahar ahliga omonlik berasiz, dinimizga tegmaysiz.

Chingizxon elchilarni bir-bir nazardan o'tkazdi. Qo'lini uzatib, chinlik g'ulomdan kattakon qadahni oldi. Bir ko'tarishda bo'shatdi. So'ng elchilarga g'alati savol berdi:

— Siz sharob ichasizmi?

Hammasi bir og'izdan javob berdi:

— Yo'q, ichmaymiz.

Chingizxon aftini burishtirdi.

— Unday bo'lsa, dinlarimiz qorishmas ekan. Taslim bo'lmoqchi esangiz, qabul qilaman. Faqat mag'lublarning sharti-parti bo'lmaydi. Yo mag'lub bo'lganingizni tan olib, darvozalarni ochasiz, yoki urushish uchun maydonga chiqasiz.

Elchilarning boshlig'i asta ming'illadi:

— Qal'amizning devorlari juda mustahkam.

Chingizxon jahl bilan qaddini rostladi, yer tepindi.

— Qal'aning mustahkamligi himoyachilarning jasoratiga bog'liq. Ko'ryapmanki, himoyachilar bir o'q ham otmay taslim bo'lish qayg'usida. Boring, barcha darvozalarni oching. Siz to'g'ringizda keyin hukm chiqaraman.

Biroz o'ylab olgach, ilova qildi:

— Bu hukm mumkin qadar yengil bo'lishi uchun ichimdagi alvastini ko'ndirishga urinib ko'raman.

Yana bir bor makkorona tirjaygach, orqasiga o'girildi.

Muzokara bitgan edi. Buxoro elchilari soqollarini tutamlaganicha, o'yga tolib turardilar. Azbaroyi esankirab qolganlari bois chodirdan chiqish hech birining esiga ham kelmas edi. Agar Donishmand Hojib mo'ysafid elchiboshining qo'lidan tortmasa, balki shu yerda kechgacha qaqqayib turgan bo'lardilar.

Tashqariga chiqishdi. Osmonni bulut qoplagan edi. Quyosh ham ularning qilmishidan uyalganday bulutlar ortiga bekinib olgandi. Ko'k ho'ngrab yig'lashga hozirlik ko'rayotgandi.

Vakillar Buxoroga qaytdi deguncha, olomon to'plandi. Elchilarning yuz-ko'zidan ne bo'lganini anglash qiyin emasdi. Shunday bo'lsa-da, nimadandir umidvor bo'lib ketma-ket savol yog'dirishdi.

— Ne gap?...

— Xoqon nima dedi?..

— Bizga tegmaydimi?..

— Shaharga o't qo'ymaydimi?..

— Masjidlarimizni yiqmaydimi?..

— Xotinlarimizga tegmaydimi?..

Elchiboshi umidsizlik bilan bosh chayqadi. Aslida har bir kishi kutayotgan javobni berdi.

— Hech qanday va'da bergani yo'q...

Barcha baravariga uh tortdi.

— Uff!..

Arkka bekinib olgan ko'ngillilar vaziyatdan xabar topgach, xalq ichiga odam yubordilar. Ular "Dushman nomard, — dedilar. — Ko'rdingizki shartlaringizning birortasini qabul qilmadi. Taqdirimiz to'g'risida keyinroq hukm chiqarishini aytdi. Joyi jahannamda bo'lsin ularning! Biz qurbonlikka keltirilgan qo'y

emasmiz. Masjidlarimizning ichida sharobxo'rlik qilishganiga qanday ko'z yumasiz? Ayollarimizni ko'zimizning oldida o'ynatishsa qandoq chidaysiz? Bolalarimiz qilichdan o'tkazilsa, qandoq bardosh berasiz? Yo'q, yo'q! Taslim bo'lsak bularning barchasini o'z boshimizga o'zimiz sotib olgan bo'lamiz. Qo'ying, yaxshisi, urushib, mardlarcha o'laylik. Tiz cho'kib xor bo'lgandan, mag'rur o'lgan yaxshidir. Islomiyat ham, insoniylik ham shuni taqozo etadi".

Biroq bu gaplarning foydasi bo'lmadi. O'sha kuni barcha birvarakayiga so'qirlashgan edi. Hatto, Chingizni olijanob va sulhparvar deguvchilar ham chiqdi.

— Chingizxonning yonida ikkita musulmon xoni bor, — deyishdi ular.— Biri qarluqlar hukmdori Arslonxon, ikkinchisi Olmaliq hukmdori Sig'noq Tagin. Chingiz bizni o'ldirmoqchi bo'lsa, bu xonlar rozi bo'lmaydilar. Ular kuchli. Albatta, dindoshlarini o'z himoyalariga oladilar.

— Ishonmang bu gaplarga. Dushman tomonga o'tgan kishi, kim bo'lishidan qat'i nazar, do'st emas. Ular Chingizning istilo va yag'molarini osonlashtirgan so'qirdir, xolos. Bilib-bilmay zolim bilan hamkorlik qilishmoqda. Ularga ishonib bo'lmaydi. Yaxshisi, taslim bo'lmaylik.

— Yo'q, taslim bo'lgan yaxshi. Arslonxon imoni butun musulmon. Besh vaqt namozini kanda qilmaydi, dindoshlarini ezdirib qo'ymas. Chingizga to'siq bo'lar...

Buxoro ustiga sharros yomg'ir quya boshlaganida qal'a darvozalari dushmanga lang ochildi. Ko'k yig'lar, farishtalar yig'lar, ko'zi ochiqlar ho'ngrar edi. Taslim bo'lish tarafdori bo'lmaganlar ne qilib bo'lsa-da, shaharni himoya etishga ahd-u paymon qilib, shahriston deb atalgan qal'ayi darunga chekindilar. Ark devorlari ustiga kamonchilar joylashtirildi, manjanaqlar qurildi.

O'sha kechasi shaharga kimsa kirmadi. Xalq ko'chada tong ottirdi. Chingiz va qo'shinining yo'liga ko'z tikib, ertalabgacha yuraklari taka-puka bo'ldi. Chingizxon ham go'yo bundan katta zavq-shavq oladigandek, ataylab tongni kutdi.

Tong yorishishi bilan yuzta mo'g'ul suvoriysi shaharga kirdi. Ot choptirib atrofni ko'zdan kechirishdi, so'ngra "Lu! Lu! Lu!" deb

na'ra otdilar va xoqon tomonga ot choptirdilar. Unga ahvolni bayon etdilar, darvozalar ochiq ekanligini aytdilar.

Chingiz shoshilmasdan, bamaylixotir chodirlarni yig'dirdi. Shoshib ne qiladi, qurbonlik pichoq kutib oyoq ostida yotgan bo'lsa.

Asta-sekin shaharga yaqinlashdilar.

Qal'a devori ustida turib dushman otliqlarini kuzatayotgan shahar ahli dahshatga tushdi. Bolali xotinlar o'zlarini erkaklarning oyog'i ostiga tashladilar.

— Bizni dushmanga bermang, — deya zorlandi ular. Nuqul bir xil javob berishdi:

— Cho'chimang. Chingiz olijanob. Yonida ikki musulmon xoni bor, bizni himoya etishadi...

Shaharga yaqin kelgach, Chingizxon navkarlarini to'xtatdi. Otining ustiga chiqdi.

— Mo'g'ul arslonlari! — deb baqirdi u. — Mana, yengilmas Buxoro qo'rqqanidan bir o'q ham otmay taslim bo'ldi. Istilo yo'li ochiq. Yuz kishilik guruhlarga bo'lining. Har bir guruh bir mahalani egallaydi. Markaz mening yonimda qoladi, men tushgan joyga tushadi, borgan joyimga boradi. Tushundingizmi?

Mash'um ovoz yangradi:

— Lu! Lu! Lu! Lu!..

— Eshiting. Talonga ruxsat. Shaharning eng go'zal qizlarini avvalo menga opkelasiz. Bu odatni buzganga omonlik yo'q. Boshqa ayollar sizniki. Yag'molang, o't qo'ying, yiqing! Urushmay taslim bo'lmoq ne ekanligini ularga ko'rsatib qo'ying. Dushmanning jasuri yaxshiroqdir.

— Lu! Lu! Lu! Lu!..

— Olg'a! Otlarni qamchilang!..

Chingizxon otini niqtadi, ustiga egildi. So'ng birdan to'xtadi. Qo'l uzatib shahar darvozalarini ko'rsatdi.

— Hujuuum, yigitlarim!..

Mo'g'ul otliqlari darvozadan chaqmoqdek o'tib, na'ra tortgancha ko'chalarga tarqalishdi.

Birozdan so'ng Chingizxon ham darvozadan kirdi. Ikki tomonida buxoroliklar ishongan qarluq va Olmaliqning musulmon hukm-

dorlari. Orqasidan Donishmand Hojib kelardi. Chingiz to'ppa-to'g'ri shaharning bosh maydoniga ot surdi. To'plangan xalq qo'rquv ichida o'zini yerga tashladi. Omonlik so'rab yig'lab-siqtab yolvora boshladilar.

Chingizxon, garchi bir og'iz so'zni ham tushunmagan bo'lsa-da, ularning joni uchun past ketganlarini sezib turardi. Donishmand Hojibdan so'radi:

— Istagi ne bularning?

— Omonlik so'rashyapti, buyuk xoqon.

— Haa, shundaymi?

Biroz to'xtab turdi. Tutqunlarni ko'zdan kechirdi. So'ng Donishmand Hojibga yuzlandi.

— Bular musulmonmi?

— Shunday, buyuk xoqon.

— Kitoblarida dushmanga urushmay taslim bo'l degan biron-bir amr bormi?

— Yo'q.

— Aytganday, sen ham musulmonsan-ku, yaxshi bilasan.

— Bilaman, buyuk xoqon...

— Xo'sh, modomiki, kitoblarida bunday bir amr yo'q ekan, nega bular taslim bo'ldi?

Chingiz katta maydonning qoq o'rtasida turib so'zlar edi. Atrofi xos soqchilari bilan o'ralgan. Ular qilich yalang'ochlab, buyruq kutib turishardi.

— Qani, so'ra-chi, Donishmand Hojib, kitoblarida bunday gap yozilmasa-da, nega taslim bo'ldi bular?

Donishmand Hojib olomonga o'girilib, o'z tilida so'radi:

— Buyuk Chingizxon Qur'oni karimda urushmay taslim bo'lishni buyurgan oyat bor-yo'qligini so'rayaptilar.

Olomon bir ovozdan javob berdi.

— Yo'q.

Donishmand Hojib tarjima qildi:

— Yo'q deyishyapti, buyuk xoqon.

— Jangni man etadigan amr bormi?

Donishmand Hojib tarjima qildi. Olomon yana bir og'izdan javob berdi:

— Aksincha, dinimiz kofirlarga qarshi jihod qilishni buyuradi.

Chingizxon javobni eshitgach, olomonga nafrat bilan tikildi. Donishmand Hojibga qaramay buyurdi:

— Nega taslim bo'lishganini so'ra.

— Shunday ekan, nega taslim bo'ldingiz?

— ...

Dovdirab, javob bera olishmadi.

— Nega taslim bo'ldingiz?

— ...

To'planganlarning yuragi taka-puka bo'ldi.

— Javob berishmayapti, buyuk xoqon.

— Chunki bunga javob yo'q. Kim ham qo'rqqanini e'tirof etardi.

Shu payt bir kishi yugurib keldi. Donishmand Hojibga qarata baqirdi:

— Askarlaringiz shaharni yag'molayapti. To'xating.

Donishmand Hojib Chingizga qaradi.

— Shahar yag'molanayotgan emish, to'xatishingizni so'rayapti.

Chingizxon qisiq ko'zini kelguvchiga tikdi. Xabarchining orqasida qilich yalang'ochlab turgan soqchiga mash'um ishora berdi. Soqchining qilichi ko'tarilib shiddat bilan tushdi. Atrofga qon sachradi. Xabarchining boshi bir tomonga, gavdasi ikkinchi tomonga tushdi.

Chingizxon baqirdi.

— Mag'lublarning shikoyat etishga haqqi yo'q.

Otini haydab ketdi. Shaharning eng katta Jome masjidiga yaqinlashdi. Donishmand Hojib izoh berib borardi.

— Bu eng katta masjiddir, buyuk xoqon, Jome masjid deyishadi. Musulmonlar bu yerda namoz o'qiydilar. Bunga o'xshash masjid olamda yo'qdir.

Chingizning yuzi burishdi.

— Bu yerda men birinchi bo'lib sharob ichaman!

Qarluq hukmdori Arslonxon larzaga keldi.

— Aslo bunday qilmang, buyuk xoqon!..

Chingizxon unga o'qraydi.

— Imoning darz ketdimi, Arslonxon? Yo jannatga ketging kelib qoldimi?

Arslonxonning boshi xam bo'ldi. Joni dinidan aziz chiqdi. Boshqa churq etmadi.

Buxoroning taniqli olim-u ulamolari masjidga to'plangandi. "Ollohning uyi"da joni omon qolishidan umidvor edilar. Holbuki, "Ollohning uyi"ning o'zi himoyaga muhtoj. Bu haqda hech biri o'ylab ham ko'rmagandi. Ular o'zlarini qilich emas, jonsiz tosh devorlar himoya etishini xohlashardi. Yanada to'g'rirog'i, o'zlari himoya etmagan din ularni saqlashiga ko'z tikishgandi.

Chingizxon o'ylab ham o'tirmay otini to'g'ri jome ichiga haydadi. Buxoroliklar dahshat ichida tisarilganiga parvo ham etmay masjidga ot minib kirib bordi. Qo'rquvdan ikki tomonga chekinib yo'l bergan jamoat orasidan mehrob yoniga yetdi, jamoatga yuzlandi. Qo'rquvdan yig'ilganlarning ko'zi olayib, rangi oqardi. Ba'zilarining yonog'idan ko'z yoshi dumaladi. Ammo endi pushaymonning foydasi yo'q. Chingizning parvoyi falak. Ulamolardan biriga tikildi. Sallasiga ishora qilib, so'radi:

— Nega u boshiga buncha ko'p bo'z o'ragan?

— Bu kishi ulamo, din odami.

— Ko'ktangrini biladimi?

— Faqat Ollohni biladi.

— Shu salla menga yoqib qoldi, yaqinroqdan ko'rsam deyman.

Biroz to'xtab turdi, keyin soqchilaridan biriga ko'z qisdi. Soqchi bor kuchi bilan qilich tortdi. Olimning boshi bo'ynidan cho'rt uzilib, erga dumaladi. Boshqalar baqirib yuborishdi. Dahshatga tushib orqaga tisarildilar.

— Yo Olloh!..

Soqchi egilib tomirlaridan hanuz qon oqayotgan boshni oldi, sallani kiydirib, tavoze bilan xoqonga uzatdi...

Chingiz kesilgan boshni qo'lga olib, sinchiklab tikildi. Qonga belangan qo'lini sallaga artdi. So'ng kallani masjidning o'rtasiga otdi.

— Oling olimingizni!..

Otidan tushdi. Sharob keltirishni buyurdi. Qorni nog'oradek shishguncha ichdi.

Shu orada uch mo'g'ul askari bir qizni sudrab olib kirdi. Qiz yurishni xohlamay yerga oyoq tirar, ko'zlaridan duv-duv yosh oqardi.

— Shafqat qiling, shafqat!..

— Yur!

Chingizning oldiga olib kelishdi. Askarlar ta'zim qilishdi.

— Buyuk xoqonimiz! Siz bizga Buxoroning omborlarini in'om etdingiz, qornimiz to'ydi, otlarimiz yorilgunicha arpa edi. Biz ham sizga hadya olib keldik.

Chingizxon qisiq ko'zini yoshgina qizga tikdi. Qiz bechora yarador qushcha singari dir-dir titrar edi.

— Nega titrayapti bu?

— Sizdek buyuk xoqon oldida titramay bo'larmidi?

— Ayting, raqsga tushsin. Ma'qul bo'lsa, ehtimol, haramimga olarman.

Qizni qilich uchi bilan turtkiladilar.

— Qani, o'yna, kaptarginam.

Olimlar yanada orqaroq tislandilar. Chingizxon sezib qoldi.

— Shu musulmon olimlar yaqinroq kelsin. Qiz atrofida doira bo'lishsin. Raqsni tomosha etishsin, buyuraman.

Amr ulamolarga tushuntirdi. Ba'zilari itoat etib, yaqin kelishdi. Ko'pchiligi qoqqan qoziqday joyidan jilmadi.

Chingizxon g'azab bilan o'kirdi:

— Yaqin keling!..

Hach kim qimirlamadi. Ulamolar qattiq aldanganliklarini tushungan, shu jazoga munosib ekanliklarini bilib turar edilar. Keksa bir olim otilib chiqdi.

— Bu yer masjid! — deb qichqirdi u. — Ey qonxo'r Chingizxon, shaharni senga topshirib, xato qilganimizni endi bildik. Bundan ko'ra o'lganimiz yaxshi edi. Jonimizning endi qilchalik qadri qolmadi. Amri-farmoningga tupurdik. Senga ham, navkaringga ham la'nat bo'lsin! Bir o'q otmay shaharni topshirgan bizga ham la'nat!

Chingizxon sof mo'g'ul tilida aytilgan bu so'zlarni oxirigacha kiprik qoqmay tingladi. Qilt etmadi. So'zlagan kishiga uzoq tikildi.

— Sening isming nima? — deb so'radi u nihoyat. — Bizning tilimizni qayerdan o'rganding?

— Menga Dali Darvesh deyishadi. Jahongashta odamman. Ancha yil sening elingda bo'lganman. Chin-Mochinni kezdim. Qanchadan qancha zolimlarni ko'rdim. Biroq dunyodagi zolimlarning zolimi ro'paramda turibdi. Senga ham, zulmingga ham la'nat!

Dali Darvesh o'limini bo'yniga olib gapirgan edi. Shahar taslim bo'lgan. Qal'ayi darunda dushman bilan olishayotgan yigitlar uzoqqa bormaydi. Bu yerga Chingizxon ne qilishini ko'rish uchun emas, musulmon ulamolarning or-nomusini himoya etish niyatida chopib kelgan edi.

Dali Darvesh so'zlaridan dadillangan ulamolar qo'zg'ala boshladilar. Bir nechtasi "La'nat!" deya hayqirdi. So'ng barcha jo'r ovoz bo'lib qichqirdi:

— La'nat senga!

Hayqiriq masjid qubbasida aks sado berdi.

Ulamolar Chingiz ustiga bostirib kela boshladilar. Qo'rqib ketgan Chingiz o'zini chetga oldi. Soqchilar atrofini o'radi.

— Hammasini o'ldiring! — deb baqirdi Chingiz.

Qurolsiz kishilarning boshi uzra qilich o'ynadi, po'latlar qonga belandi. Yashil gilamlar qirmizi rangga kirdi. Chingizxon:

— Qizga tegmang, — dedi.

Qatli om uzoq davom etmadi. "Bo'ldi" deb xabar berishganida masjidning ichi jasadga to'lib ketgan edi. O'rtada qondan ko'lmak hosil bo'ldi. Oppoq kulohlar qonga belanib yotardi...

Chingizxon odatdagi bir voqea sodir bo'lgandek atrofga bamaylixotir ko'z yugurtirdi. So'ng yana qizga tikildi.

— Raqsga tushsin, — dedi.

Barmog'i bilan murdalarni ko'rsatdi.

— Shu mullalarning jasadlari ustida o'ynasin...

Ikki navkar qizni qo'lidan sudrab o'sha tomonga olib bordi. Qizning yalang oyoqlari murdalarga tegdi, qon tegib qizil rangga kirdi. Qiz seskandi. Jasadlar orasidan otasini axtardi. Topdi. Qiz oldin jasad ustiga o'zini tashlamoqchi bo'ldi, so'ng fikridan qaytdi.

— Dinini himoya etolmagan qizini ham, jonini ham saqlay olmadi... — deya shivirladi.

Boshini adl ko'tardi. Nafrat to'la ovozda Chingizxonga qichqirdi:

— Qari qashqir! Senga Ollohning la'nati yog'ilsin!..

Chingiz Donishmand Hojibdan so'radi:

— Ne deydi bu?

— Senga Ollohning la'nati bo'lsin, dedi.

— Yurakdan aytding, ey Hojib. Bu qarg'ish seni ham esankiratdi shekilli.

Javob kutmay qiz tomon yurdi. Ikki hatlashda qiz yoniga yetib bordi. Qiz qo'rqib tislanmoqchi bo'ldi, biroq unga mone bo'lishdi. Chingiz qizning qo'lidan tutdi.

— O'yna!

Qizning qo'lini qayirdi. Chingizxon xunuk tirjayib, qahqaha otdi.

Qizning ko'zi xoqonning belidagi xanjarda. Birdan tashlanib, xanjarni oldi.

— Mana senga, la'nati!

Qizning xanjar ushlagan qo'li shasht bilan ko'tarildi, biroq u zarba berolmadi. Orqada hushyor turgan mo'g'ul soqchisi uning qo'lini tutib qoldi.

Chingiz qizni ikki yelkasidan tutib o'ziga tortdi. Bor kuchi bilan yonog'idan tishladi, o'tkir tishlari qattiq botdi. Qizning faryodi masjidni boshiga ko'tardi. Chingizxon og'zini ochmay boshini birdan orqaga tortdi.

Og'zida kattakon et parchasi bor edi. Qiz dodladi, yonog'ini qo'li bilan bostirmoqchi bo'ldi. Biroq askarlar uning ikki qo'lini ham mahkam ushlab turardilar. Eti qo'porilgan joydan yonoq suyagi oqarib ko'rindi. So'ng tirqirab qon oqdi. Qizning yuzi tobora oqarib borardi. Qora ko'zlari olayib, Chingizning sariq basharasiga mixlanib qoldi.

Qizni anchagacha oyoqda ushlab turishdi. Hatto, mo'g'ul navkarlarining iligi muzlagandek bo'ldi. Chingiz ko'ppakdek irillaganicha og'zidagi et parchasini saqich kabi chaynayotgan edi.

Nihoyat majoli qolmagan qizning oyoqlari bo'shashdi. Navkarlar uni qo'yib yuborishdi. Qiz o'roq tushgan jo'xoridek oppoq sallalar orasiga yiqildi.

Chingizxon uning ustiga bordi. Xanjarini sug'urdi. Navnihol qiz ustida cho'kkaladi. Bir zarb bilan ko'ksini yordi. Naq yuragining

ustiga xanjar urdi. Pastga tortdi, so'ng yon tomonga, yana yuqoriga, yana yon tomonga. To'rtburchak hosil bo'ldi. Qon tizilladi. Xanjarining uchi bilan kesib olgan go'sht parchasini bir tomonga uloqtirdi. Xalqob qon ichida qizning yuragi ko'rindi. Yurak oxirgi marta titrayotgan edi. Chingiz qo'lini tiqib, bir tortishda yurakni sug'urib oldi. Qizning vujudi yana bir bor siltalandi, boshdan oyoq titradi. So'ng tinchib qoldi. Navkarlarining zo'rma-zo'raki xoxolashlari ostida Chingiz oyoqqa turdi. Qizning yuragi hanuz issiq. Chingizning barmoqlari orasidan qon chakillab oqardi.

Chingiz yurakni og'ziga olib bordi. Tishlari bilan mayda-mayda bo'laklarga bo'ldi. Masjid qubbasini larzaga keltirib qahqaha urdi.

Hovliga chiqdi. Maydonga to'plangan navkarlariga qo'l silkidi.

— Musulmonlarning hammasini shu taxlit jazolayman, — deb o'kirdi u. — Men Ko'ktangri tomonidan musulmonlarni jazolash uchun yuborilgan buyuk mo'g'ul xoqoniman. Hech qanday qo'shin, hech qanday davlat menga bas kelolmaydi, mahv bo'ladi. Ey navkarlarim, men sizga Buxorodek katta va muazzam bir shaharning darvozalarini lang ochtirdim. Siz menga sadoqat ko'rsatib, o'limga ham tik boravering. Sizga yangi-yangi zafarlar qozondiraman.

Navkarlar bir ovozdan baqirishdi:

— Siz bilan birgamiz, buyuk xoqon!

— Endi katta bir gulxan yoqing. Uylarga o't qo'ysangiz ham mayliga. Topgan kitobingizni gulxanga oting. Kitob yozadiganlarni ham olovga tashlang. Biz jangari elmiz, bizga ilm emas, urush kerak. Qalam, kitobning keragi yo'q. Bizga ot bilan qilich bo'lsa kifoya.

— Lu! Lu! Lu!..

— Qani, ildam bo'ling, arslonlarim...

Farmonni eshitib, Donishmand Hojibning ichi zil ketdi.

— Buyuk xoqon, — dedi u. — Biz ko'chmanchimiz. Biroq bir umr ko'chmanchi bo'lib qolmaymiz. Bu joylar madaniyat cho'qqisiga ko'tarilgan. Keling, bu kitoblarni yoqmaylik. Olimlarning ancha-munchasini o'ldirdingiz. Hech bo'lmasa qolganlariga omonlik bering. Ulardan davlat ishida foydalanamiz. Qamchilab tursak, bosh ko'tarmay, bizga xizmat qilishadi.

Chingizxon unga olayib qaradi.

— Ey it Hojib, sen ular tarafdamisan?

— Yo'g'-e, buyuk xoqon.

— Unday bo'lsa, ovozingni o'chir. Omading bor ekan. Agar xizmating singgan bo'lmasaydi...

So'zini oxiriga yetkazmay qo'yaqoldi. Donishmand Hojibning qum-quv o'chgan yuzidan u xoqon nima demoqchi ekanini tushungani ma'lum bo'lib turardi.

Katta maydonga yig'ilgan xalq oh-faryod urardi. Arkdagi bir hovuch vatanparvar bo'lsa, hamon jon olibjon berayotgan edi.

Shaharning u yer-bu yeriga o't qo'yildi. Asta-sekin atrofga o't tutashib, tobora kuchaydi, shahar ustida olov gurillay boshladi. Buxoro o't ichida qoldi.

* * *

— Sultonim, shon-shavkatli Xorazmshoh, otajon. Bu ketishda qayergacha qochamiz?

Xorazmshoh Alouddin Muhammad tizginni sal tortib, otini sekinlashtirdi. O'g'liga o'qraydi.

— Jonimizni bexavotir his qilgunga qadar, — dedi u.

— Mamlakatimizni dushman toptayotgan, elimizning boshiga qamchi tushayotgan bir paytda jonimiz shu qadar aziz bo'lib qoldimi?

— Biz omon bo'lsak, yana davlat barpo eta olamiz, Jaloliddin.

— Shundog' deng, sultonim. Bor davlatni, davlat uchun jon fido qilishga tayyor elini himoya etmasdan qochgan odamlar yangidan davlat barpo etarmish-a...

— Tiling ilonnikidan ham zaharli-ya.

— Boshqacha bo'lishi mumkinmi? Qo'l-oyog'imni ipsiz boylab, orqangizdan ergashtirib olib ketyapsiz. Qo'yavering, hech bo'lmasa tilim ishlasin...

— Istamasang qol, seni hech kim zo'rlayotgani yo'q.

— Bunday bo'lishini istamayman, olampanoh. Jaloliddin otasiga qarshi bosh ko'tardi, deb aytishlariga yo'l qo'ymayman. Biroq dushmanga qarshi chiqishni buyursangiz yolg'iz boshim bilan orqaga qaytib, shahid bo'lguncha urushishga tayyorman. Hech bo'lmasa shon-sharaf bilan o'larman.

— Jaloliddin, Jaloliddin! Taqdir bizdan yuz o'girgan. Qo'limizdan ne ham kelardi?

— Taqdir deysizmi? Taqdir hech kimdan yuz o'girmaydi, sultonim. Biz hali taqdirimizdan qochyapmizmi?

— Balli...

— Katta xato bu. Ilohiy iroda Ollohning izmida, juz'iy iroda esa inson qo'lida. Biz, hatto, juz'iy irodani ham ishga solmadik-ku! Peshonamizga ne yozilganini sinab ko'rishni ham lozim topmadik. Hayhot...

— Sendan aslo lashkarboshi chiqmaydi. To'g'ri, sen jasur askarsan. Avval boshdan shundaysan, bundan keyin ham shunday bo'lib qolasan. Orqamizdan kelayotgan shu minglab suvoriylarga bir qara. Ularning hayotiga men mas'ulman. Sen buni tushunmaysan.

Jaloliddin saf-saf bo'lib kelayotgan otliqlarga qaradi.

— Nimaga yaraydi bular? — dedi. — Bir to'da otliq, ammo hozir ularning xotinlardan farqi yo'q. Dushmanga loaqal bir marta qilich solmay orqamizdan qochishyapti. Oh!.. Qochgan shahzoda bo'lgandan ko'ra, urushib o'lgan askar bo'lmoqni qanchalik istayman!

— Qochayotganimiz yo'q, qulay fursatni kutib chekinayotirmiz.

— Unday bo'lsa, Sayxun tomonga qaytaylik. O'sha yerda dushmanni yer tishlataylik. Har holda ular biz o'ylaganchalik ko'p emas. Kelgan xabarlarni eslang. Temur Malik bir hovuch yigiti bilan Jo'jini qon qustirmoqda. Dushman Buxoroning qal'ayi daruniga chekingan bir nechta qahramonni taslim etolmayotir.

— Xo'sh, ne qilishimni istaysan?

— Qaytaylik, Sayxun bo'yida dushman ustiga bir bosqin qilaylik. Qo'l ostimizda yetarli lashkar bor. Yaxshi boshqarilgan taqdirda katta natijalarga erishish mumkin.

— Chingizning qo'l ostida to'rt yuz ming askar bor emish...

— Ishonmang bunga. Chingizning atigi yuz ellik ming askari bor. Ularning ko'pini shaharlarni qamal qilgani jo'natgan. Markazga hujum qilsak, mo'g'ul xoqonini asir olishimiz mumkin.

— Xomxayol!

— Ha, sultonim, bu go'zal xayol... Biroq haqiqatni xayol deb bilish hecham go'zal emas.

— Nima deyapsan? Kim bilan so'zlashayotganingni unutdingmi?

— Unutganim yo'q. Eli-yurti bo'lmagan sulton bilan so'zlashyapman.

— Yo'qol!..

— Ijozat bering, sultonim, hozirga qadar sodiq bandangiz o'laroq ne buyursangiz bajardim. Toy kabi orqangizga ergashdim. Biroq endi...

— Ketsang ketaver...

— Afsus, bunday qilolmayman. Sultonimsiz, otamsiz, tashlab ketolmayman. Farmon berishingizni xohlayman. Qo'l ostimga ozgina askar bering, dushmanning boshiga it kunini solaman. Xudo xohlasa, bu ishning uddasidan chiqaman.

— Bir ish qilgudek kuchimiz qolmagan hozir. Yaxshisi, jim bo'lib, menga itoat qilgin.

— Qayoqqa ketayotganimizni aytarsiz hech bo'lmasa.

— Aytaman, Tusga ketayotirmiz.

Jaloliddinning boshi xam bo'ldi. Faqat o'zi eshitadigan past tovushda:

— Tusga qochayotirmiz, — deb shivirladi.

Ha, qochishayotgandi. Katta qo'shinini egasiz tashlab, qanday dir afsonadan qo'rqib qochayotgan edilar.

Tusdan Davlatobodga o'tdilar. U yerda Jaloliddin qisti-bastiga olgach, bir mo'g'ul qo'shini bilan jangga kirishdi. Xorazmliklar yo'l yurib horib-charchagan edi. Boz ustiga, sulton bilan sarkardalarning ko'pi jang qilish emas, qochish tarafdori edilar. Ular Jaloliddinni aybdor qilish maqsadida mag'lubiyatga uchrash uchun ne lozim bo'lsa qildilar. Sulton qo'shinining katta qismi halok bo'ldi, qolganlari qochdi. Ko'p odam o'ldi, katta talafot berildi.

Sulton bu mag'lubiyat uchun Jaloliddinni aybdor deb topdi, og'ziga kelganini so'yladi. Pirovardida bir necha sadoqatli mahramlari bilan Abiskun dengizidagi bir oroldan panoh topdi.

Dabdaba-yu as'asa bilan o'tgan umrining qolgan qismini kambag'allik va faqirlik ichida o'tkazishga mahkum bo'ldi.

Buni o'yladi deguncha sultonning ko'ngli buzilar, ko'ngli buzildi deguncha ho'ngrab yig'lar edi.

O'N IKKINCHI BO'LIM

Ajdarho yili (1220) erta bahorida Chingizxon Samarqandni olish niyatida Buxorodan chiqishga qaror qildi. Ulkan shahar ustida hanuz tutun burqsir edi. Qal'ayi darunga bekingan bir hovuch qahramon haligacha taslim bo'lmay, jang qilmoqda. Bundan g'azablangan xoqon so'nggi sinashta usulini qo'llashga qaror berdi. Mo'g'ullar asirlarni bir-biriga zanjirband etib, oldiga solgan holda qal'ayi darunga hujumga o'tdilar. Qal'adagilar dindoshlarini o'ldirgandan ko'ra, o'limni afzal bildilar. Darvozalarni ochishdi. Dushman ich qal'aga quyunday yopirilib kirdi. Mujohidlarning barchasi qilichdan o'tkazildi.

Niyatiga yetgan Chingizxon mamnun bo'ldi. Qo'shini bilan erta tongda shaharni tark etib, Samarqandga yo'l oldi.

Mo'g'ullar Zarafshon daryosi bo'ylab yurdilar. Yo'l-yo'lakay Dobusiya va Saripul shaharlarini ishg'ol etdilar. Son-sanoqsiz asirlarni podadek haydab, Samarqand ostonasiga yetib bordilar.

Xorazmshoh Alouddin Muhammadning shahar tashqarisida yozgi saroyi bor edi. Sulton goho ovga chiqar, ov mavsumi o'tganda shu saroyda yashardi.

Chingizxon shu saroyga joylashdi. U har kuni tongda derazadan Samarqandning baland devorlariga uzundan-uzoq tikildi.

Chingiz bu mustahkam devorlardan oshib o'tolmasligini juda yaxshi bilardi. Hiyla ishlatishga qaror qildi. Agar u shahardagi ba'zi xonlarni qo'lga ololsa, xuddi Buxoroda bo'lgani singari, bu shahar darvozalari ham o'z-o'zidan ochilgan bo'lur edi.

Aytishadiki, agar shaharga Temur Malik singari jasur va bilimdon sarkarda boshchilik qilganida edi, samarqandliklar hech bo'lmaganda don-duni tugagunga qadar, ya'ni bir-bir yarim yil istiolochilarga qarshilik ko'rsatgan, hatto vaqt-vaqti bilan hujumga ham o'tib, dushmanni qochirgan bo'lurdi.

Afsuski, Turkon Xotunning ukasi, Xorazmshoh Muhammadning tog'asi To'rg'ayxon qal'a qo'mondoni etib tayinlangan edi. Xalq o'rtasida ham, qo'shin o'rtasida ham uning qora chaqalik obro'si yo'q edi. Faqat atrofidagi bir nechta xushomadgo'y uni qo'llab-quvvatlardi, xolos.

Uning hashamatli hayot kechirishdan boshqa tashvishi yo'q. To'rg'ayxon kimxob liboslarga burkanib, har barmog'ida kamida ikkitadan qimmatbaho uzuk taqib yurar edi.

Raiyat bilan uchrashishni ep ko'rmas, qo'shinini saroydan turib boshqarardi.

Bulardan Chingizxon boxabar. U shaharni hiyla bilan qo'rqitib fath etmoqchi bo'ldi. Qo'shin sonini aslida boridan uch barobar ko'p ko'rsatsa bormi, To'rg'ayxon uning hiylasiga uchib, taslim bo'lishiga shubha yo'q.

Chingiz yashirin yo'llar orqali shaharga buzg'unchilar jo'natdi, ayni paytda o'z rejasini amalga oshirishga kirishdi.

Qo'liga tushgan asirlarni muntazam qo'shinga o'xshatib qism-qismga bo'lib safladi. Har bir qism boshiga tug' tikdi. Asirlar bir-biriga bog'lab qo'yilgan, uzoqdan qaragan kishi buni farqlay olmasdi. Darhaqiqat, To'rg'ayxon mashaqqat chekib, qal'a burjiga chiqqan paytida asirlarni mo'g'ul askari deb o'yladi. Hayratdan "o'hho'" deb yubordi. O'yga tolib, qasriga qaytdi. Sarkardalarni to'pladi.

— Dushman mo'r-malaxdek ekan, — dedi u. — Dosh bermog'imiz mushkul. Agar Chingizxonning g'azabini qo'zg'atsak Samarqandni Buxoro kabi yoqadi, vayron etadi, jumlamizni qilichdan o'tkazadi.

Botir sarkarda Bolonxon shartta o'rnidan turib uning so'zini bo'ldi.

— Bu ne demak? — deya qichqirdi u. — Yog'iy ozdir yoki ko'pdir, nima bo'pti?! Bizga shaharni mudofaa etish vazifasi yuklatilgan va qatra qonimiz qolguncha shaharni himoya etamiz.

Ali Erxon ham shu fikrda edi. Bolonxondan keyin u so'z oldi.

— Buxoro taslim bo'ldi. Chingiz shaharning bosh maydonida qilgan ishlarni eshitsangiz dahshatdan mo'yingiz tikanak bo'ladi. Nega endi o'z ixtiyorimiz bilan boshimizni kundaga qo'yishimiz kerak? Nega yog'iydan qo'rqish kerak? Yo'q, shaharni oxirigacha himoya etamiz.

To'rg'ayxon o'z tarafdorlariga qarab qo'ydi. So'ng Bolonxonga yuzlandi.

— Xalq urushishni istamasa-chi?

Bolonxon bosh chayqadi.

— Xalq urushishni istamasa ham, biz olishamiz. Nega xalq urushishi kerak o'zi? Xiroj to'lagani yetmaydimi? Urushish askarning ishi. Qal'ada askar yetarli. Kerak bo'lsa xalqdan cherik to'plash mumkin. Qal'a xalqi bunga jon-jon deb rozi bo'ladi.

— Sen gaplashib ko'rdingmi?

— Men elimni yaxshi bilaman, To'rg'ayxon.

Qipchoq xonlaridan biri oraga kirdi.

— Behudaga bahslashyapmiz. Bolonxon bilan Ali Erxon urushish tarafdori. Mayli, borib urushaverishsin, hech kim ularning yo'lini to'sayotgani yo'q...

Ali Erxonning jahli chiqib, qizarib ketdi.

— Siz bo'lsa xotinlardek tomosha qilib turasiz, shundaymi? — deb qichqirdi u.

— Ne demoqchisan o'zi?

— Dinimiz, mamlakatimiz, shahrimiz, xalqimizning istiqboli xavf ostida turgan bir pallada oramizda o'z rohat-farog'atini o'ylab, qo'yday taslim bo'lmoqchi bo'lganlar borligi alam qiladi kishiga. Hatto, xotinlar ham bu qadar qo'rqoq bo'lmasa kerak.

Qipchoq xoni xanjarini sug'urdi.

— So'zingni qaytib ol!

Ali Erxon ham xanjariga qo'l yubordi.

— Askarlaringni olib, qal'adan chiqqan va dushman ustiga tashlangan zahoting so'zimni qaytib olaman.

— Yo'q, hozir qaytib olasan.

Bir qadam yaqinlashdi.

— Men erkakkagina erkak deyman, xolos.

— So'zingni qaytib ol dedim.

Qipchoq xoni g'azab bilan xanjarini ko'tardi. Biroq zarb berishga ulgurmadi. Orqadan birovning temirday qattiq qo'li bilagini qayirdi. G'azab bilan o'girildi. O'girilib Bolonxon bilan yuzma-yuz bo'ldi, unga nafrat bilan tikildi.

— Ko'ppak!..

Bolonxon uning bilagini qayirib, o'ziga yaqin tortdi. *Bo'sh* qo'li bilan tarsaki tortib yubordi.

— Ahmoq!..

Oraladilar. Bu ikki sarkardaning botirligi hammaga ma'lum. To'rg'ayxon vaziyatni yumshatishga urinib dedi:

— Nega janjallashyapsiz? Biz bu yerga janjal ko'targani emas, yog'iydan himoyalanish to'g'risida maslahatlashgani yig'ildik. Bu borada taklifingiz bo'lsa, ayting.

— Hozirgina jasorat ko'rsata olishimiz mumkinligi aytib o'tilgan edi, — dedi Bolonxon.— Xo'jako'rsinga jasorat ko'rsatmoqchi emasmiz. Shahar qurshovga olingan. Qurshovni yorib tashlash kerak. Buning uchun askarlarimni olib, Chingizning qarorgohini bosaman.

Ali Erxon bir necha qadam tashlab, Bolonxonga yaqin bordi. Qo'lini uning yelkasiga qo'yib, dedi:

— Men ham shunday qilaman.

Shu choqqacha jim o'tirgan Oyxon oyoqqa qalqib, ularning yoniga bordi-da, Bolonxonning yelkasiga qo'l tashladi.

U ko'p gapirishni xushlamas edi. Ba'zan kun bo'yi bir og'iz so'zlamasdi. U so'z so'zlashni emas, ish qilishni afzal bilar edi. Oyxon bosh irg'ab qo'ydi, xolos. Shu bilan u Bolonxon tomonida ekanini bildirdi.

Uch bek saroyni tark etdi. Askarlarini hozirladilar. Uch qo'lga bo'linib, shahardan chiqdilar. Har qo'lda ming askar bor edi...

Mo'g'ul qarorgohiga yetib borishgan vaqtda tong otib, ufq qizara boshlagandi.

Shiddat bilan hujumga o'tishdi. Mo'g'ullar haqiqatan ko'pchilik edi. Uch ming kishi ular uchun dengizdan tomchiday. Shunday bo'lishiga qaramay mo'g'ullar chekinishga majbur bo'ldilar. Xorazm suvoriylari qattiq olishishdi, uchala sarkarda askarlarini mahorat bilan idora etishdi. Jang bir soatcha davom etdi. Mo'g'ullar o'ziga kelganini ko'rgan Bolonxon o'rab olishayotganini sezgan zahoti chekinishni buyurdi. Ustalik bilan qutulib chiqishdi. Orqasidan quvgan besh yuztacha mo'g'ul suvoriysini asir olib, shaharga kirib olishdi.

Bu jasoratlari qal'ada qolgan beklarga namuna bo'lar deb o'ylab yanglishganlarini majlisga to'plangan vaqtlari tushunib yetdilar. Qipchoq xonlarining ba'zilari urush tarafdori bo'lsa-da, ko'pchiligi hamon qarshi edi. Kun bo'yi davom etgan muzokara yarim kechga-

cha cho'zildi. Biroq natija chiqmadi. Oxiri umidi uzilgan Bolonxon o'rnidan turib, etagini qoqdi.

— Qo'rqoqlar! — deb qichqirdi u. — Yog'iy ustiga yana hujum qilish uchun askarlarimning yoniga ketdim, sizlar nas bosib o'tiravering.

Tongga yaqin tayyorgarlik oxiriga yetdi. Bu gal ularning safida xalqdan chiqqan ko'ngillilar ham bor. Ali Erxon bilan Oyxonbek ham tayyor turardi. Ikki qipchoq xoni ham askarlari bilan ularga qo'shildi. Jami olti ming otliq.

Qo'mondonlikni Bolonxon o'z zimmasiga oldi. U ko'p yillar Temur Malik bilan birga jang qilgan tajribali sarkarda. To'rg'ayxon nafsoniyatidan kechib, qo'mondonlikni unga topshirganida, ehtimol, shahar qutulgan bo'lur edi.

Chingizxon ikkinchi hujumni kutayotgandi. Avvalgi bosqin natijasida katta talafot bergani uchun bu gal chora ko'rgan edi.

Hujum qilib kelayotgan xorazmliklar oldida chekinish usulini qo'lladi. O'ng va so'l qanot joyidan jilmadi, markaz orqaga qochdi. Bolonxon bu harbiy hiyla ekanini boshqalarga harchand uqtirmasin, hech kim unga quloq solmadi. Mo'g'ullarni quvib ketishdi. Ularning es-hushi joyiga tushgan vaqtda esa kech bo'lgan — mo'g'ullarning o'ng va so'l qanoti orqa tomonda birlashib, musulmonlarni qurshab olgan edi. Shunga qaramay qo'rqmadilar, sherdek olishdilar.

Mo'g'ullar pakana otlariga qapishgancha ularning atrofida gir aylanib, vahshiyona na'ra torta boshladilar.

— Lu! Lu! Lu!..

Bolonxon jo'shib qichqirardi:

— Yo Olloh! Yo Olloh! Yo Olloh!..

— Ollohu akbar, Ollohu akbar!..

To'rg'ayxon qal'aning eng baland burjiga chiqib, qo'lini peshonasiga qo'ygancha jangni kuzatayotgan edi.

— Ahvollari yomon, — deb so'zlandi u. So'ng yordamchilariga o'girildi. — Ularga yordam kerak. Agar shahardan yigirma ming kishi hujumga o'tsa, mo'g'ullarning o'zini qurshab olish mumkin.

Qipchoq xoni zaharxandalik bilan javob berdi:

— Yana yigirma ming kishini o'lim quchog'iga tashlamoqchimisan? Anavi so'qirlar tufayli boy bergan talafotimiz kammi?

To'rg'ayxon jim bo'ldi. Qipchoq xonlari to'ng'illashda davom etdilar.

Aytishadiki, qal'adan askar chiqib , mo'g'ullarni bossa, Bolonxon qurshovdan osongina qutulgan, balki Chingizxon askarlarini ham tor-mor keltirgan bo'lur edi.

Biroq bunday bo'lmadi. To'rg'ayxon go'yo qattiq charchagan odamday yotoqxonasiga borib, o'zini to'shakka tashladi, bo'layotgan hodisalarni ko'rmaslik uchun ko'zini yumdi.

Jang tushga qadar davom etdi. Bolonxon bir necha bor qurshovni yorishga muvaffaq bo'ldi. Dushmanga katta talafot yetkazdi. Biroq mo'g'ullar mo'r-malaxday ko'p, chopib oxiriga yetib bo'lmas edi. Bir payt qarasa, atrofini pakana otliqlar o'rab olgan, yigitlari ko'rinmaydi. Ko'zlaridan olov sochdi. O'n ikki joyidan yaralansa-da, qilichini tashlamadi. Badanining har tomonidan qon irmoqdek oqdi. Oti qizil qonga bo'yaldi. Shunga qaramay qilich solaverdi, solaverdi... Ko'z oldi qorong'ilashgunga qadar olishdi.

Og'zi qonga to'lib, bo'g'ilib qolgunga qadar "Olloh! Olloh!" deya hayqirib, qilich soldi. Nihoyat otidan yiqilib, yerga muk tushdi. Achchiq kulimsiradi. Og'zi-burnidan qon ketdi. So'nggi bor "Olloh!" dedi va o'ng yelkasiga ag'darildi. Shundayligicha qotdi.

Qal'aga omon qaytgan ming kishi orasida Ali Erxon ham bor edi. Besh ming musulmon shahid bo'lgandi.

* * *

Chingizxon doim yonida olib yuradigan xitoy hunarmandlarini huzuriga chaqirtirdi. Past bo'yli xitoylar xoqon oldida safga turdilar. Hammasining ko'zi oyoq uchiga tikilgan, bosh ko'tarishga hech qaysining yuragi dov bermaydi.

Chingizxon yer tepindi. So'ng jahldan bo'g'riqib o'shqirdi:

— Nega qorin qashlab bekor yotibsiz, betayin pakanalar? Darhol ishga kirishing, uzoqqa otar o'q-yoy yasang. Agar ikki kun ichida ish bitmasa kallangiz ketadi.

Hunarmandlar aqalli bosh ko'tarishga ham jur'at eta olmadilar. Ta'zim etdilar. Hurka-hurka saroydan chiqdilar.

Shahardan tashqarida bir vaqtlar Xorazmshohning yozlik ko'shki bo'lgan saroyda bu hodisalar yuz berayotgan chog'da shahar ichida majlis borar edi.

To'rg'ayxon huzurida chordana qurgan qipchoq xonlari dam urishardi. Botirligi bilan tanilgan qipchoq xonlari yo'q edi. Bu yerga kelgan xonlar yeb-ichish, kayf-u safodan boshqa narsani o'ylamaydigan xonlar edi. Ulardan biri baqirib dedi:

— Biznikilarning holini ko'rdik! Ahmoqlik bu, ahmoqlik... Urushamiz deb qal'adan chiqish aqldanmi? Shuncha begunoh odamning o'limiga sabab bo'ldi bular. Yetar endi, ruxsat bermaymiz. Bu shaharda yashayotgan bolalar, xotin-xalajning hayoti uchun biz mas'ulmiz. Chingizxon shaharni kuch bilan olsa xotin-xalaj, bola-chaqa, yosh-u qari deb o'tirmay, hammani qilichdan o'tkazadi. Menga qolsa ne qilishni o'zim bilardim.

— Ne qilarding?

— Aytaymi? Bu ahvolga tushgan har qanday aqli bor odam ne qilsa, shuni qilardim...

— Urushmoqchimisan?

— Aqlli odam qiladigan ishni qilaman dedim, telbalik qilaman deganim yo'q!

Bir zum jim qoldi, so'ng dedi:

— Taslim bo'lurdim.

Oriyatli yosh xonlardan biri irg'ib turdi.

— Bu xiyonat-ku!..

Unisi masxaraomuz tirjaydi.

— Bilmadim. Ne desangiz deng, ammo menga jonim ham, molim ham aziz. Behudaga o'lib ketishni istamayman.

— Xoin bo'lib yashamoqchimisan?

— Nega endi xoin bo'larkanman? Kerak bo'lsa, Chingizxon tomonida urushaman. Xorazmshoh bizga nima berdi o'zi? Neki bo'lsa, peshona teri bilan erishdik.

Yosh xonning jon-poni chiqdi.

— Uyalmaysanmi? Qanday tiling bordi? Xorazmshoh bizga ne so'rasak berdi-ku. Davlatning eng yuksak martabalari bizniki bo'ldi-ku. Onasining yuzi uchun, ayb-nuqsonlarimizni ko'rmaganga oldi.

— Chingiz ham shunday qiladi.

Yosh xon atrofdagilarga yalinchoq nazar tashladi.

— Ayting bunga, sizning fikringiz unday emas, to'g'rimi?

Birortasi g'iq etmadi. Og'zida qatiq ivitganday jim, boshlari xam, go'yo yerdagi gilamni tomosha qilishardi.

— Aytsangiz-chi, xiyonat qilmaysiz, ayting...

Keksa xonlardan biri boshini ko'tarib, unga qaradi-da:

— Boshqa chora yo'q, — dedi.

Narigilari uni darhol quvvatladilar.

— Ha, boshqa chora yo'q.

Yosh xon To'rg'ayxonga yuzlandi.

— Hech bo'lmasa siz ayting, taslim bo'lmaymiz, qatra qonimiz qolguncha urushamiz deng. Xon degan odamga ana shunday gap yarashadi.

To'rg'ayxon bosh chayqadi.

— Masalani men emas, qurultoy hal qiladi, yigit. Boshqa chora yo'q deyishsa, demak, shunday qilishga majburmiz.

— Bundan chiqdi, shaharni himoya etmay, dushmanga topshirasiz?!

— Himoyachilarning ahvoli ne bo'lganini ko'rdik.

— Mardlarcha halok bo'ldilar.

— Ha, o'ldilar-ketdilar, xolos.

Yosh xon jahldan qip-qizarib ketdi. O'rnidan turib, gurs-gurs qadam tashlagancha eshikka yo'naldi. Birdan to'xtab, orqaga o'girildi. O'tirganlarni bir-bir nazardan o'tkazdi.

— Nadomatlar bo'lg'ay! — dedi. — Afsus, xoinlar ichiga tushgan ekanman!

Shartta chiqib ketdi. Qal'ani mudofaa etishga azm-u qaror etgan xonlarga qo'shildi.

— Men siz bilan birgaman! — deya hayqirdi u. — Shu muqaddas tuproq uchun qatra qonim qolguncha mardlarcha urushaman.

Uni quchoqladilar. Ali Erxonga xabar yetkazdilar. Ali Erxon yelkasidan yengil yaralangan, to'shakda edi. Quvonib qaddini rostladi.

— Kel, jigarim, — dedi u. — Biz ayirmachilik tarafdori emasmiz. Hozir mamlakat bizdan fidoyilik kutmoqda, bunga tayyor bo'lmoq kerak.

— Men tayyorman!

— Men ham... Hammamiz tayyormiz!

Ko'zlari namlandi.

— Koshkiydi butun Samarqand tayyor bo'lsa...

Hayhot! Butun Samarqand tayyor emasdi. Himoya qilish kerakmas, deganlar ancha-muncha bor edi. Mamlakat mudofaasi, dini yo'lida jon berishni eng oliy ne'mat deb bilganlar bilan bir qatorda o'lim yo'qlik deb, o'limdan qo'rqqanlar ham bor edi.

Yarim kechasi shabixun urishga ketyapmiz, deb shahardan chiqdilar. Borib Chingizxonning oyog'iga yiqildilar.

— Biz, — dedi ular, — siz tomonda urushish sharafiga noil bo'lish uchun huzuringizga keldik, ojiz bandalaringizni yoningizga oling.

Chingizxon tirjaydi. Bepisandlik bilan To'rg'ayxonning boshini oyog'i bilan bosdi.

— Bu bosh doim mana shunday ta'zimda bo'lsagina omon qoladi. Mayli, qabul qildim, — dedi.

Boshlari osmonga yetdi. Qahramonlarcha o'lgani emas, manfurlarcha tirik qolgani uchun sevindilar. Chingizning buyrug'iga ko'ra ustidagi Xorazm sarkardalarining maxsus libosini apil-tapil yechib, gulxanga otdilar. Mo'g'ulchasiga kiyinib olishdi. Beliga egri, kalta qilich osishdi. Boshining tepasini qirdirib, orqa sochini o'rdilar.

Ko'z ochib yumguncha boshqa millatga aylandilar, g'oyalariga tupurdilar. Qardoshlari bilan urushish maqsadida Chingizxon qo'shini qatorida saf tortdilar.

* * *

Xitoylik hunarmandlar uch kunga qolmay uzoqqa otar o'q-yoylarni tayyorladilar.

— Ko'ring, buyuk xoqon, — deyishdi ustalar. — Bu yoylar olovli o'qlarni Samarqandning kindigigacha yetkaza oladi. Biroq dushman o'qi bizga yetib kelolmaydi.

Xoqon shod bo'ldi. Ustalarga mukofot berdi.

Erta tongdan shaharga hujum boshladi. Uzoqqa otar yoylardan shaharga olov yog'dirdi. Ko'pgina joylarda yong'in boshlandi. G'oziylar yong'inni o'chirish uchun o'zlarini o't-u cho'g'ga urdilar.

Biroq ayrim xonlarning yog'iy tomonga o'tgani ruhiyatlariga salbiy ta'sir o'tkazdi. Har saf ichida bu ta'sir sezilib turardi. Barchaning qovog'i soliq.

Mo'g'ullarning uzoqqa otar o'q-yoylaridan yog'ilgan olov natijasida har yon yondi: insonlar yonar, uy-joylar-u bog'larga o't ketgandi.

Shunga qaramay, yong'in kishilar qalbidagi otashdan ustun kelolmadi. Ko'zalar qo'ldan-qo'lga o'tar, suv sepib, o'tni o'chirishardi. Ba'zi kishilarning etagiga o't tegib, jonli olovdek lov-lov yondilar.

Mo'g'ullar bir necha bor xuruj qilib ko'rdilar, qal'a tagiga qadar yetib keldilar. Atrof qishloqlardagi tirik jonni darhol qilichdan o'tkazdilar. Ularning ustidan qush uchib o'tsa qanoti kuyardi. Qal'a atrofida oqshom tushgunga qadar mo'g'ullar qumursqa uyasiday g'ujg'on o'ynadilar.

Kechqurun shahar ulug'lari majlisga yig'ildi. Bahs-munozara ancha davom etdi. Qal'adagi askarlar ancha kamaygan edi. Qarshilik ko'rsatish borgan sari mushkullashib borardi. Dushman uzoqqa otar yoylardan olovli o'q yog'dirishda davom etmoqda. Kutishning foydasi yo'q. Taslim bo'lish kerak. Shunda begunoh shahar ahli omon qolar, ehtimol.

Qal'ani topshirishga qaror qilishdi. Kimdir yig'ladi, kimdir faryod urdi. Biroq taslim bo'lmaslik kerakligi hech kimning xayoliga kelgani ham yo'q. Qarordan xabar topgan Ali Erxon qavatidagi mingta suvoriy bilan yarim kechasi yashirincha qal'adan chiqdi. Ular mo'g'ullar ustiga sherdek tashlandilar. Hatto, Chingizxonni ham esankiratib qo'ygan bir jasorat bilan qurshovni yorib o'tib, o'rmon tomonga ot qo'ydilar.

Erta tongda Samarqanddan bir hay'at chiqdi. Hay'at to'ppa-to'g'ri Chingiz o'tirgan saroyga bordi. Xoqonning huzuriga kirib taslim bo'lmoqchi ekanliklarini aytdilar.

Chingizxon qisiq ko'zi bilan ularga uzoq tikildi. So'ng so'radi:

— Nega taslim bo'lmoqchisiz?

Elchilardan eng keksasi javob berdi:

— G'azabingizga uchramaslik uchun. Shahar xalqini o'ldirmaslikka so'z bersangiz darvozalar ochiladi.

Bu gal Chingiz yanada uzoqroq tikildi. O'z-o'zicha g'udrandi, so'ng makkorona tirjaydi.

— Ya'ni shahar ahlini qilichdan o'tkazmasligim kerakmi?

— Shunday, buyuk xoqon..

— Ishonavering, hech kimsaga tig' tegizmayman.

Elchilar yer o'pib, quvona-quvona shaharga qaytishdi. Xabarni shaharliklarga yetkazishdi. Kimdir sevindi, kimdir oh-voh urdi, kimdir qal'a burjidan o'zini yerga otdi. Chingiz zulmidan ko'ra jahannamni afzal bildi...

Qamalning oltinchi kuni. Shahar darvozalari lang ochiq. Mo'g'ul navkarlari Chingiz boshchiligida na'ra tortib, Xorazmning poytaxtiga kirishdi. Chingizxon aholini Registonga to'pladi. Kim uyida qolsa, darhol o'ldirilishi to'g'risida jar solindi. Maydondagi xalqni yuz kishilik guruhlarga ajratib shahardan tashqariga haydashdi. Kishilarning qo'liga belkurak berib, katta ariq qazishni buyurishdi. Ariq tayyor bo'lgach, Chingiz bir yosh yigitga amr berdi:

— Ariqqa tushib, uzunasiga yot.

Yigit shunday qildi. Chingiz boshqalariga o'girildi.

— Ko'ming uni!

Tuproq tashlay boshladilar. Bir keksa o'zini ariqqa tashladi.

— O'g'lim!

— Sen uning otasimisan? — deb so'radi Chingizxon.

— Ha, shunday.

— Ko'p yaxshi! O'g'lingni yaxshi ko'rasanmi?

— Jonimdan ortiq.

— Mamlakatingni ham sevasanmi?

— Albatta.

Chingiz birdan tutoqdi.

— Sevar emish?! O'g'lingni ko'mishsa o'zingni ustiga otasan, xo'sh, mamlakatingni go'rga tiqishganida nega bir chetda tomoshabin bo'lib turding?

Nima ham deya olurdi bunga? Mo'ysafid og'iz ochmadi. Chingiz zaharxandalik bilan dedi:

— Ol qo'lingga belni, qariya, o'g'lingni o'zing ko'm.

Mo'ysafidning ko'z yoshlari soqolidan dumalab, qup-quruq tuproqqa to'kildi.

— Bunday qilmang, buyuk xoqon.

— Bo'l tez!..

— Buyuk xoqon!

— Tez dedim!

Uchiga qo'rg'oshin parchasi bog'langan qamchi ko'tarilib, pastga tomon vizillab tushdi. Keksaning ko'ylagi yirtildi. Yelkasi qavarib, qontalash bo'ldi.

— Tez!

— Bunday qilolmaysiz, — deya isyon etdi nihoyat mo'ysafid. — Bizni qilichdan o'tkazmaslikka so'z bergansiz.

Issiqdan qovjiragan xurmo yaproqlarini ham titratib yuborgan qahqaha yangradi. Xaxolab bo'lgach, Chingizxon dedi:

— Men sizga qilichdan o'tkazmaslikka so'z bergan edim. So'zimda turaman. Xotirjam bo'ling, bir kishiga ham tig' tegmaydi.

So'ng Chingiz barmog'i bilan chuqurni ko'rsatdi:

— Hammangiz shu yerga tiriklay ko'milasiz.

Oh-faryod ko'kka yetdi, ingrash tovushlari tuproq ostida asta-sekin so'ndi. Gavda ustiga gavda qalashdi. Ota o'g'lini, o'g'li otasini ko'mdi...

* * *

O'sha joyda oh-faryod tovushlari hozirgacha eshitiladi deyishadi. Ollohga yaqin bo'lgan kishilarning qulog'i bu oh-u nolalarni eshitar ekan, shunda ular dahshatdan taxtadek qotib qolarmish.

Xoin xonlarning qismati qo'rqinchli bo'ldi! Ularga shahardan tashqarida o'tov tikish buyurildi. Yarim kechasi mo'g'ullar birdan bostirib kelib, bola-chaqa, xotin-xalajni ham ayamay, hammasini qirib tashladilar.

O'ldirilganlar orasida Xorazmshoh Alouddin Muhammadning tog'asi To'rg'ayxon ham bor edi...

Xoinlar ham, g'ofillar ham jazosini oldi. Biroq Samarqand shundan keyin hech vaqt Xorazm poytaxti bo'lmadi.

Shoir yuragida dard qoldi, xolos:

Buxoro-yu, Samarqand der: ko'zdan oqar yoshlarim,
Qayda qoldi mening Ural, Oltoy tog'larim!

BIRINCHI KITOBNING OXIRI

ALVIDO, XORAZM

BIRINCHI BO'LIM

— Lu!Lu!Lu!

Qashqir ulishini eslatadigan va asab qaqshatadigan saslar tobora yaqinlashib kelar, mo'g'ullarning askariy hayqiriqlari sahro bo'ylab aks sado berib, barxanlar ustida so'nib ketardi.

Xorazmliklarning xabargirlar bo'linmasi sardori Sariq Lag'o't qo'lini ko'tarib askarlariga to'xtash buyrug'ini berdi.

— Mo'g'ullar orqamizdan yetib keldi, — dedi u. — Yarim-doira shaklida saflaning!

Abjir xorazm askarlari dadil saflandilar. Qum usti birpasda izga to'ldi. Askarlardan biri ufq tomon tashvish bilan boqdi.

— Jo'jixonning butun qo'shini ketimizga tushganga o'xshaydi shekilli, — dedi u.

— Jim bo'l-ey! — deya jerkib berdi Sariq Lag'o't. — Yangi tushgan kelinday buncha qo'rqmasang!

— Men-a? Mo'g'ullar otamni tiriklay yerga ko'mgan paytda ham zig'ircha qo'rqmaganman. Nafratdan boshqa narsani bilmayman. Tuf!

Yerga tufurdi.

— Ana, ko'rindilar!

Chang-to'zon ko'tarib kelayotgan mo'g'ullar ko'zga tashlandi. Ular shiddat bilan yuzta xorazm bahodiri ustiga bostirib kelaverdi. Sadoqlarga qo'l uzatildi. Temir uchli o'qlar hamon kamonga joylashtirildi. Sariq Lag'o't oldinga chiqdi:

— O'qchilar! — deb hayqirdi u.

— Hozirmiz, qo'mondon!

— Ot!

Yuz o'q yoydan chiqib, vizillab uchdi, uchdi... Ko'pi nishonga aniq tegdi. Xo'jand qal'asini zabt etish, uni Xorazmning boshqa shaharlari kabi bosib-yanchish niyatida kelayotgan majusiy mo'g'ullar yanada shiddatlanib, olg'a tashlandilar. Ular betartib, tarqoq holda ot qo'yib kelaverdilar.

"Lu! Lu! Lu! Lu!"

Gal qilichlarga keldi. Sariq Lag'o'tning yo'g'on tovushi qashqir ulishlarini bosib ketdi:

— Yo, Olloh, hujuuuum!

Yuz qilich bir lahzada yalang'ochlandi. Xorazmliklar otliq mo'g'ullar bilan yuzma-yuz keldilar. Tengsiz olishuv boshlandi.

Mo'g'ullar ko'pchilik edi. Buning ustiga ular otliq edi. Ular qisqa bir lahzada g'olib chiqishiga ishonar, mohir qo'mondon Sariq Lag'o'tni otlarining dumiga sudratib, Chingizxonning o'g'li Jo'jining oyog'i tagiga olib borib tashlaydigan onni sabrsizlik bilan kutar edilar.

Sariq Lag'o't jang maydonining har joyida hozir-nozir, tog'lar-da qaroqchilik qilib nom chiqargan ukasi Boytu bilan yelkama-yelka turib, duch kelganni chopib tashlayverdi.

Osmon-u falakni takbir saslari, ot kishnashi, qilichlarning shaqir-shuqur ovozlari tutib ketdi.

Xorazm jangchilari jang maydonida mustakam bir qoya singari oyoqda tik turib, olishishda davom etdilar, jon-jahdi bilan hujum qilib, dushmanni sarosimaga soldilar. Qilichlar mo'g'ullarning boshi ustida yashin kabi o'ynadi.

Hech kutilmagan bu qarshilikdan mo'g'ullar esankiradi. Jang avj nuqtasiga chiqqanda mo'g'ul askarlariga sichqonning ini ming tanga bo'ldi, ba'zilari qochdi. Mo'g'ul qo'mondoni Dirsa Bahodur mushkulotdan chiqish, vaziyatni o'nglash uchun o'zini har tarafga ursa-da, askarlarini qovushtira olmadi.

Xorazmliklar bo'lsa, aksincha, bir tan-bir jon bo'lib, sherdek olishdilar. Ayrimlari o'lgan mo'g'ullarning otlariga minib qo'llari uzaydi.

Ular jang taqdirini o'z foydasiga hal etish uchun g'ayrat ko'rsatdilar.

Sariq Lag'o't tez-tez hayqirib, askarlarini jo'shtirib turdi.

— Qiring yog'iyni, Xorazm arslonlari!

— Din uchun, Olloh uchun!

— Ur-ho, ur!

Qirdilar, qirdilar, qirdilar...

Yana qirdilar.

Sardorning hayqirig'i mo'g'ullar pastak otlariga qapishib o'tdan qochgandek qochib, ko'zdan g'oyib bo'lgunga qadar yangrab turdi.

— Bo'ldi, to'xtang! — dedi nihoyat Sariq Lag'o't, — boshqa majusiy qolmadi.

— Ammo lekin quyonyurak ekan bular, — deya afsuslandi ba'zi askarlar.

Vahshiyona bostirib kelgan ikki yuz mo'g'ul xorazmliklardan bor-yo'g'i o'n kishini shahid etoldi, xolos. Askarlardan biri jang natijasini bildirdi:

— Yuz mo'g'ul to'ng'iz qo'pdi. O'ttizta yaradorimiz bor.

Sariq Lag'o't bir zum o'yga toldi, so'ng dedi:

— Shahidlarimiz va yaradorlarimizni otlarga yuklang. Yog'iy ustimizga yanada ko'proq bo'lib kelishi aniq. Jo'jixon bizni tutish uchun endi ikki yuz askar kifoya etmasligini bildi. To'planing, ketamiz!

G'oziylar Ollohga shukronalar so'ylab, Sayxun tomon yo'l oldilar.

* * *

Xo'jand qal'asi qo'mondoni Temur Malik qal'a burjida turib, qorong'ulikka cho'mib borayotgan qal'ani kuzatib turardi.

Quyosh botib borar, osmondagi bulutlar qirmizi rangda ajib tovlanar edi. G'oyat go'zal manzara hosil bo'lgandi, biroq Temur Malikning xayoli boshqa yoqda edi.

— Hanuz kelishmadi-ya, — dedi u o'ziga o'zi.

Xayolini turli mahzun o'y-fikrlar chulg'ab olgandi. Obod Buxoro, ilm-u urfon markazi O'tror, zarif jomelar-u san'at durdonalari shahri bo'lgan Samarqand mo'g'ul istilosi ostida qolgani esiga tushdi deguncha dilgir bo'lardi. Biroq nadomatlar bo'lg'aykim, taqdiri azaldan qochib bo'larmidi?

Qochmoq istaganlar yo'q emasdi. Eng avvalo, musulmon Xorazm o'lkasining sultoni Alouddin Muhammad. Qavatiga ellik ming askarni olib, qochaverdi, qochaverdi. Mo'g'ullar bilan jang qilishga yuragi dov bermadi. Sultonning asossiz xavotiri natijasida sarkardalar orasida chiqqan parokandalik Xorazmdek bir muazzam

yurtni qurbonlikka keltirilgan qo'ydek Chingizxonning oyog'i ostiga tashladi.

Botirlar urushmoq uchun yonib-kuydilar. Qo'rqoqlar bo'lsa o'zlarini chetga oldilar, Sulton Muhammadni ham bo'shashtirdilar. Sulton shahzoda Jaloliddin, Temur Malik va boshqa sarkardalarning o'tinchi-yu, tavsiyasiga quloq osmadi, dushman bilan olishish o'rniga, qochishni afzal bildi. Bu ham yetmaganday, Jaloliddinni ham o'zi bilan olib ketdi. Yosh shahzoda otasini tashlab keta olmadi.

Temur Malik kechagina undan maktub oldi, Jaloliddin yoshlikdanoq o'z suyanchig'i bo'lgan do'stiga ichidagini to'kib solgan edi. Maktubning har bir satridan vatan sevgisi ufurib turardi. Vatan ishqi, orzu-umid va afsus-nadomat hislariga to'la edi maktub.

Temur Malik o'qilaverib, eskirib ketgan maktubni qo'ynidan chiqardi, tizzasiga qo'yib, ezilgan joylarini qo'li bilan tekisladi. Har gal o'qiganida vujud-vujudini egallab oladigan ajib bir hayajon ichra, ehtimol, o'ninchi daf'a maktubni o'qishga tutindi:

"Qiyomatlik birodarim,— deb yozgandi Jaloliddin, — Qochgan dushman orqasidan "qochganning onasi yig'lamas" deya qahqahalar otib kulgan vaqtlarimiz esingdami? So'nggi vaqtlarda Sulton padari buzrukvorimiz o'sha kunlarni tez-tez eslaydigan bo'lib qoldilar. Biroq orqaga qaytib, dushman ila urushmoq istagimni bayon etgan onlarda bunga izn bermayotirlar. "Chingizxonning askari ko'p, askarlarimni bekorga nobud qilmayman", deydilar. Chingizxon to'g'risidagi ovozalar bir afsona ekanini, afsonaga inonmaslik, xomxayoldan qo'rqmaslik kerakligini unga hech anglata bilmadim. Chingizxon o'zi to'g'risidagi mish-mishlarda so'ylangani qadar jasur emasligi aniq. Har yonga zulm o'tkazib, yuraklarga dahshat solgan Chingiz ismi eshitganni o'limdan ham qo'rqinchli bir dahshatga soladigan bo'libdi, shekilli. Nadomatlar bo'lsinkim, shukronalar so'zlab, jang maydonida ot surgan kunlarimiz bo'lgan bir holda, shu askarlar ayni shukronalarni aytib qochsalar?! Bu hech aqlga sig'maydi. Na iloj, qismat ekan! Sulton padari buzrukvorimizni bu yerga tashlab ketsam, joniga zomin bo'lamanmi, deb qo'rqaman. Zotan, u suyanchiqsiz qolgan. Qavatida ellik ming kishilik qo'shin bo'lgan chog'larda ham u o'zini shunday his

etardi. Nega dersan, qochganidan o'zi ham norozi, go'yo uni shunga majbur qilishyapti. Kim shunday qilayotir?

Unga bu daraja hukm o'tkazayotgan kim o'zi? Har holda volidasi, qo'rqoq xonlar, ehtimol, qo'rquv. Uni qo'rqitdilar. Shu daraja qo'rqitdilarki, kap-katta odam bolaga aylanib qoldi. Kechagina qo'shinlarini zafarlarga qovushtirgan sulton o'ziga hech o'xshamay qoldi.

Qiyomatlik birodarim Temur Malik. Padari buzrukvorimiz bilan qochishda davom etayotirmiz. Ha, shunday, ochiqdan ochiq qochayotirmiz. Nimadan, kimdan qochayotganimizni bilmasdan qochayotirmiz. Evoh! Ne yoziq bu..... Insonning hali tanimagan, bilmagan, duch kelmagan dushmanidan qochishi — ne yoziq bu?! Sulton otamizning qulog'i so'z eshitmaydi shu kunlarda. Farzandlik burchini oyoqosti qilishdan qo'rqib, men ham unga ortiqcha bir so'z aytolmayman. Bilasanmi, menga nima deydilar: "Sen jasur, biroq oddiy bir askarsan, Jaloliddin, hali mas'uliyat tuyg'usiga sohib emassan. Qo'limda bu qadar askar bor, ularning hayotmamotini o'ylashga majburman". Unday bo'lsa, qavatimizdagi ellik ming askarning ko'pi nes-nobud bo'lib ketdi-ku! Yo ochlik, yo suvsizlikdan, yoki qaroqchilar va mo'g'ullar bilan to'qnashuv natijasida eridik, bitdik, Temur Malik. Ikki yuz ming kishilik Xorazm qo'shinidan qolgan-qutganini o'z ko'zing-la ko'rsang oh urib yig'larding, balki yuraging bunga bardosh bermay yorilgan bo'lardi. Bular darbadar daydilarni eslatadi, dunyo-dunyo bo'lgandan buyon biron-bir sultonning orqasidan butun bir suruv daydi yurgan emas.

Sulton padari buzrukvorimizga buni anglatmoq g'oyat mushkul! Xomxayolga g'arq bo'lgan, shu bo'yicha ketmoqda.

"Biroz vaqt o'tsin, Erondan katta qo'shin to'plab qaytaman, qo'rqinchli majusiylarni yanchaman, islom dunyosini yangidan birlashtiraman", deydilar.

Bu ham bir xomxayol! Otamga hech tushuntira olmayotirman. Mendan ko'ra qo'rqoq xonlarga ko'proq quloq osmoqda. Ularga ko'r-ko'rona ishonmoqda. Ko'zi yumuq, qulog'i kar, irodasi kishanda buyuk sultonning, daryoda oqqan yong'oq po'chog'idan farqi qolmadi!

Buyuk bir davlatning sultonini bu ahvolda ko'rguncha ko'zlarim ko'r bo'lgani yaxshiroq emasmidi?! Taqdiri azalga taslim bo'lmay ilojim ne? Boshga kelganni ko'z ko'rar. Ollohga iltijo etib, oqibatni kutishdan boshqa choram yo'q. Qismat adolatli bo'lar, inshoolloh. Demak, peshonaga yozilganini ko'ramiz.

Endi senga ahvolimizni qisqacha bayon etay. Millatini majusiy dajjol qo'liga tashlab qochgan sulton boshiga Olloh qanday jazo o'ti yog'dirganini ko'r.

Jayhun sohilidagi Kelif qal'asini yaxshi bilasan. Oqar suvning shundoq ustidagi tik qoyada bir tosh kulba bor. Xullas, o'sha yerda ancha qolib ketdik. Bir zamonlar ulug' jahongir Iskandar askarlari bilan Jayhunni xuddi shu joydan kechib o'tgan ekan. Iskandar askarlari daryodan mesh bog'lab kechgani haqida Dali Darvesh ning aytganlari hamon yodimda. Padarimiz uni Iskandari Soniy deb atashlaridan vaqti chog' bo'ladi, ammo Iskandar jasoratidan o'rnak olish o'zining xayoliga ham kelmaydi.

Shunday, Temur Malik, jigarim. Bu yerda ancha muddat to'xtab qoldik. Samarqand qamal etilganini eshitganim on o'zimni to'xtata olmadim, o'n ming askar bilan ko'makka oshiqdim. Nadomatlar bo'lg'aykim, kechikdim, qamal xabari bizga kech kelgan ekan. Yetib borganimda Chingizning pakana otliqlaridan asar ham yo'q edi. Shahar yag'mo etilgandi. Fidoyilar o'z cheklariga tushgan qismni qattiq muhofaza etgan, biroq xoinlar har doimgiday yana ixtilofga yuz tutib, Samarqandni Chingizga peshkash qilmishlar. Obod Samarqand o'rnida xaroba shaharni ko'rib, dilim vayron bo'ldi. Ammo chora topmay, orqaga qaytdim.

Biroz o'tgach, kemaga chiqib, Kelifdan uzoqlashdik. Nahr bo'ylab ancha ilgariladik. Bir yerlarga borib, sohilga chiqdik. So'ng yurdik, yurdik. Omul shahriga yetib bordik. Beklar bizni katta tantana bilan qarshi oldilar. Askar va yegulik berishga hozir ekanliklarini bildirdilar. Otamga yana yolvordim. Soatlarcha, hatto kunlar bo'yi tiz cho'kib, yalindim. Eshitishni ham xohlamadi. Manfur qo'rquv uni chulg'amish. Ortiq chiday olmayman, deb qo'rqaman. Musulmon bir sultonning bunday holga tushishi naqadar ayanchli!

Shaharda uzoq turmadik. Omul shahri kutvolining tavsiyasiga ko'ra Abiskun (Hazar dengizi)dagi bir orolga chekindik. Qa-

vatimizda omon qolgan bor-yo'g'i besh ming askar bilan orolda yotibmiz. Hamon Sulton padari buzrukvorimizga yolvormoqdaman. Koshki, ijozat bersa-yu, o'sha zahoti hech ikkilanmay yolg'iz boshim bilan majusiylarga qarshi chiqsam.

Birodarim, o'z hasratlarimni to'kib solib, sening ahvolingni so'rashni unutibman. Ahvoling nechuk, nima bilan mashg'ulsan? Naqadar buyuk bir sarkarda ekanligingni mendan yaxshi biladigan yo'q. Qal'ani sher kabi mudofaa etishingni bilib turibman. Koshkiydi, uni qo'limizda tutib qololsak. Kechirgaysan, men nima deyayapman o'zi? Xorazmdek buyuk mamlakat boy berilgach, kichik bir qal'a borasida bahs qilinarmi?

Olloh g'azotingni muborak qilg'ay, sevgili qardoshim. Parvardigor qilichingni o'tkir etsin, seni Ollohga topshirdim. Sariq Lag'o't har holda yoningda bo'lsa kerak. U ne asl qahramon jangchidir! Avval qaroqchi bo'lgan emish. Mayliga. Biz ilgari sulton, shahzoda edik, endi ne bo'ldik? Endi qaroqchidan ortiq yerimiz bormi? U hech bo'lmasa yo'lto'sarlikdan erlikka erishdi, bu ne buyuk saodat?! Ko'zlaringdan o'pib qolurman. Nusratimiz uchun shu onda duodan boshqa bir ish qo'limdan kelmaydi. Ammo bir kuni yana safingizda bo'lishimga ishonaman, inshoolloh".

— Inshoolloh, — dedi Temur Malik ham.

Ko'z yoshlarini tindirish uchun ufqqa boqdi. Quyosh tepalar ortida ko'zdan g'oyib bo'ldi. Ufq bir necha muddat zarangda tovlanib turdi. Temur Malikning ko'zi hamon ufqda. U go'yo yangi bir quyosh chiqishini, Xorazmning najot quyoshi porlashini intiq bo'lib kutayotgandek edi.

So'ng u joyidan jilib, og'ir-og'ir odim otdi. To'xtadi. Bir narsa shitirlagandek bo'ldi. Beixtiyor qo'li qilichga bordi. Tezdan orqaga qaytdi. Burj ortida ikki ko'lankaga ko'zi tushib, sas berdi:

— Kimsiz?

— Bizmiz, Temur Malik!

Sariq Lag'o't va ukasi Boytu yaqin kelishdi.

— Qayerlarda qolib ketding, Sariq Lag'o't? Xavotir oldim.

— Dushman hujumiga uchradik, — dedi Sariq Lag'o't. — Ikki yuz majusiy bostirib keldi, yuztasi to'ng'iz qo'pdi. Ammo ne foyda? Chingizning o'g'li Jo'jining ichiga kin to'ldi.

Sariq Lag'o't tobora qorayib borayotgan ufqqa bir nazar tashlab davom etdi:

— Tilka-pora bo'lgan yuragimning har parchasi lag'cha cho'g' kabi kuydirmoqda meni, Temur Malik. Jo'jixonning odami mo'r-malaxday ko'p. Falokat bosib kelmoqda.

Boshini chayqadi, so'ng dedi:

— Bu qal'a so'nggi umidim. Shu daryodan quvvat olaman. Agar qal'a majusiylarning qo'liga o'tsa....

Birdan jim qoldi. So'nggi so'zini aytolmay chaynaldi. Dudoqlarini tishladi.

Temur Malik do'stining hissiyotini teran angladi. Sariq Lag'o't umidsizlik ostonasida turardi. Holbuki, yaxshi niyat yarim mol, umid-muvaffaqiyat kaliti. Qo'lini ohista do'stining yelkasiga qo'ydi:

— Hislaringdan bahs ochma, Sariq Lag'o't, yaxshisi, mo'g'ul qo'shinidan xabar so'yla. Sening yuraging tilka-pora bo'lgan bo'lsa, meniki senikidan bir necha karra ko'proq tilkalangan. Biroq dushman bilan urushsam, uning har parchasi dushmanni kuydirib kul qilgusidir.

— Temur Malik, umiding va jasorating tufayli ancha yengil tortdim. So'yla biroz, nelar bo'lmoqda o'zi?

— Nima ham derdim?! Xabargirga ketgan sen bo'lsang. Har holda menga aytadigan gaplaring bordir. Mo'g'ul podasi qayerda, ayt?

— Yaqinimizda.

— Na qadar yaqin, Sariq Lag'o't? Gapni buncha cho'zmasang.

— Nima qilay, Temur Malik? Bir mujdamidiki, qo'sh-qanotlab uchib aytsam!

U boshini qo'llari orasiga olib, siqdi.

— Yo'q, botirim, umid yo'q. Ular tumonat.

Temur Malik shiddat bilan yer tepindi:

— Be, shu ham gap bo'ldi-yu, — dedi u do'rillab — Umidsizliging boisi nedur? Shukurkim, qal'amiz mustahkam. Yeguligimiz, suvimiz mo'l. Buning ustiga, uch tomonimiz daryo bo'lsa. Mo'g'ul majusiylari bu yerni osonlikcha ololmaydi. Yetarki...

So'zdan to'xtadi. Biroz sukut etgach, takror so'zladi:

— Yetarki, birlik bo'lsin. Boshimizga ne balo kelgan bo'lsa og'zi olaligimiz tufayli keldi. Yaxshiyamki, Xo'janddagi askarlarning ko'pi vatanparvar. Ko'zi cho'pdan, joni qilichdan qo'rqmas bahodir yigitlar. Ammo...

Yana jim qoldi. Chuqur nafas olgach, davom etdi:

— To'g'ri, ozchilikmiz. Mo'g'ullarga ko'ra ozchilikmiz. Chingiz ustimizga yangi askarlar yuborganmish.

Mushtini tugdi, mo'g'ul qarorgohi joylashgan ovulga qarata do'laytirdi:

— Qancha ko'p bo'lsa bo'laversin, farqi yo'q! O'limga tik boqqandan o'lim qo'rqar! Shahid o'lsak, jon ustiga. Yog'iy ustiga toshdek yog'ilamiz! Nima deb o'ylaysan, mo'g'ul qarorgohi atrofida soqchilar siyrak joy bormi?

— Janub tomon siyrak. Bosqin etish niyatidamisan?

— Nega bosmaylik?! Hech bo'lmasa qal'aga qamalib yotishdan qutulamiz. Ollohning inoyati bilan birinchisida g'olib chiqdik, ikkinchi bosqinimiz ham zafar keltirgusidir, inshoolloh. Bosqin bosganniki, deyishadi-ku!

— Ha, shunday deyishadi. Biz u bosqinni ancha oldin qilgandik. Ikkinchisidan dushman g'ofil qolishiga uncha ishonmayman.

— Xo'sh, nimani ham yo'qotardik?

— To'g'ri, jonimizdan boshqa hamma narsani yo'qotib bo'ldik. Ulkan Xorazm mamlakati mo'g'ul qamchisi ostida. Bu ahvolda jon yo'qotish qo'rqinchli emas, balki totli bo'lg'usi!

— Shahodat!

— Albatta, botirim, shahodat! Jannat eshiklari bizga ochilajak. Bu o'lim tiriklik bilan teng bo'lajak. Shunday ekan, nega bosmaylik?!

Temur Malik do'stining qo'lini siqdi.

— Senday bahodirlarim bor ekan, kimdan ham cho'chirdim. Bor, ming kishini tayyorla. Sovut kiyishsin, xanjar-u qilichdan boshqa qurol olib o'tirmasinlar.

— Amring vojib!

Sariq Lag'o't shaxdam qadam tashlab ketdi. Temur Malik Boytu bilan qoldi.

— Menga bir amringiz bormi, qo'mondon? — dedi Boytu.

Temur Malik Boytuga boqdi. Yuziga achchiq bir tabassum qalqdi:

— Qanday amr bo'lsin? Amrimiz o'tganida askarimiz parokanda bo'lmasdi.

— O'zingizni yerga urmang, Temur Malik. Taqdiri azalga qarshi chiqib bo'larmidi?

— Taqdiri azalmi? Ha, bu qismat, to'g'ri. Endi qismat bizga qarshi bo'lib qoldimi? Askarlarimizning orasiga ham qismat nifoq solgandir balki?

Qo'l silkidi.

— Yo'q, Boytu, bu ishda qismatning aybi yo'q. Insonlar o'z aybini boshqaga ag'darmoq istasa, darrov qismatni ro'kach qilishadi. So'ng kim aybdor — qismat aybdor. Taqdir undan yuz o'girganmish. Aybni ag'dar, qutul! Ag'dar, qutul! Biz kerak tadbir oldikmi — taqdir bizdan yuz o'girsin?! Taqdirning hech qanday aybi yo'q. Sulton qochsa, taqdir uni yoqasidan tutib orqasiga qaytara olmas. Sulton bo'lgan odam jang maydoniga otilar, jasorat va mahorat-la qo'shinini boshqarar, kerak tadbirni ko'rar. Undan narisi esa, qismatning ishi. Ammo hech ish qilmay qochish... taqdir talliysi shumi?

Yuragiga o't tutashgan Boytu Jaloliddinni esga oldi.

— Jaloliddin qanday, Temur Malik?

Temur Malik qo'llarini yozdi. Chorasizlikdan siqilib, ming'illadi:

— Nima qilsin bechora, otasining etagida o'tiribdi. Ishonchli bir odamdan maktub yubordi. Achchiq maktub.

Hozir umidsizlik vaqti emasligini xotirlab, boshini ko'tardi:

— Hay, mayli. Bu gaplarni yig'ishtirib, askarlarning boshiga ketaylik. Chekimizga tushgan ishni bitiraylik. Undan keyin ko'raylik, taqdir hukmi qanday bo'lar ekan.

Ikkovlon burjdan pastga tushdilar. Sariq Lag'o't ming askarni shay etib qo'ygandi. Temur Malik oldinga o'tdi. Suvoriylar tashqariga yo'l oldilar.

* * *

Tun...

Chingizxonning to'ng'ich o'g'li Jo'jixon qo'l ostidagi qo'mondonlarni chodiriga to'pladi. Bir ko'zi ko'r Subutoy Bahodur cho-

dirning bir chekkasida chordana qurib o'tirib, xanjarining damini tirnoqlariga tegizib sinab ko'rayotgandi. O'tirganlarning qo'lida yo oldida sharob to'la qadah. Jo'jixon g'azab otiga mingan. Haftalarcha urinsa-da qal'ani ololmadi, Temur Malikni otining dumiga bog'lab sudratish zavqini surolmadi.

— Bu ahvolda otam nima qilgan bo'lardi? — deb so'radi u birdan o'tirganlardan.

Qurt Jebe no'yon so'z oldi. U hayajon aralash so'zlay boshladi:

— Sizning o'rningizda otangiz bo'lganida allaqachon hammamizning kallamizni uzgan bo'lardi. Necha kundan beri chodirimizda ag'anab yotishdan boshqa ishga yaramadik. Xorazm o'lkasi qurbonlikka keltirilgan qo'ydek oyog'imiz ostida yotibdi. Pichog'imiz bo'ynining ustida turibdi-yu, so'yishga kelganda uddasidan chiqolmayapmiz. Temur Malik yaxshi sarkarda, uningdek bir nechta qo'mondon bo'lsa, Xorazmning hatto bir qal'asini ham ololmasdik. Bunga aminman.

Jo'jixon ko'zidan o't sochib Qurt Jebega tikildi.

— Og'zingdan chiqqani yoqangga yopishsin, Jebe no'yon,— dedi u. — Xorazm qal'alari mo'g'ul arslonlari qarshisida qog'oz uy kabi qulagan.

— Shunday, shunday. Biroq bu bilan xotirjam bo'lish kerak emas. Bu zafarlar harbiy mahorat emas, ishlatgan hiylamizning mevasi ekanini hammamiz bilamiz. Musulmonlar orasiga nifoq urug'ini sochmaganimizda bunga muvaffaq bo'lishimiz og'ir kechgan bo'lardi. Yo bu to'g'ri emasmi? Nega bu so'zlarim sizga qattiq botdi?

— Men sendan bizning o'rnimizda otam nima qilgan bo'lardi, deb so'ramadimmi?

— Javobini o'zingiz yaxshi bilasiz, darhol ot qo'ygan bo'lar edi.

— Ot qo'yardi? Safsata sotma, Jebe. Qal'a bir orolda bo'lsa, uch tarafi suv bilan o'ralgan. Navkarlarni suvga haydaymi?

— Nega haydamas ekansiz?! Buyuk Iskandar xuddi shu yerdan Sayxunni kechib o'tmaganmi? Undan qayeringiz kam?

Jo'ji noiloj jim qoldi. Iskandar Zulqarnaynning jang-u jadali tafsilotini u yaxshi bilardi. O'zi ham Iskandardek jahongir bo'lish orzusida. Buning uchun esa u oldiniga mo'g'ullarning hammasini

bo'ysundirishi, hamma yolg'iz unga tobe bo'lishi kerak. U holda esa... otasini o'rtadan ko'tarib tashlashi lozim. Ammo, eng avvalo, Xo'jandni olishi darkor.

Jo'ji Subutoy Bahodurga yuzlandi:

— Sen ne deysan?

Subutoy odatdagiday so'z so'zlamay, qo'li bilan ishora qildi.

Jo'jixon baqirdi:

— Nima deganing bu?

Subutoy no'yon aftini burishtirdi. Ishorani tushunmaydigan kaltafahm bular. So'zlashga majbur bo'lganidan joni halqumiga keldi.

— Pakanalar, — dedi u.

— Chinliklarni aytyapsanmi?

Subutoy no'yon boshini silkidi.

— Chinliklar nima qilishi mumkin?

No'yon bir so'z-la javob berdi.

— Sol!

O'tirganlardan biri Subutoyning fikrini tushundi.

— Subutoy chin hunarmandlariga sol yasatishni taklif qilayotir,— dedi u.— Jo'yali taklif, shunday bir kunda yordami tegmasa, ularning ne keragi bor, nima, ularni bo'rdoqiga boqyapmizmi?

— Eng zo'r ustalarning bir qanchasini olib keling. Ko'raylik-chi.

Mo'g'ul sarkardasi zum o'tmay uch xitoy hunarmandini oldiga solib qaytdi.

— Chodir yaqinida turishgan ekan, — dedi u. — Josusmi yo bular, bilmayman.

Jo'ji aftini burishtirdi. Lablarini yalab oldi. Bor ovozi bilan baqirdi.

— Hey, menga qaranglar! Qachondan beri shohona yashaysiz. Kayf-safo vaqti o'tdi, xizmat qilish kerak!

Xitoylardan biri Jo'jining oyog'iga yiqildi.

— Nojo'ya ish qildikmi, buyuk xoqonning o'g'li?

Jo'ji oyog'i ostidagi xitoyni tepib yubordi.

— Nojo'ya ish qilishga hadding bormi, ablah?! Unday qilganingda sen bilanmas, kesilgan boshing bilan so'zlashgan bo'lardim.

Eshit! Qal'aga na o'q yetadi, na navkar suvdan kechadi. Bunga chora top. Sol yasaysanmi, boshqa ish qilasanmi, bilmayman, ammo navkarlarimni narigi sohilga o'tkazasanlar, tamom, vassalom.

— Bu ish oson, Xoqonning o'g'li.

Jo'ji tong qotdi.

— Osonmi?

— Albatta, oson. Sol yasash ham mumkin, uzoqqa yetadigan o'q yasash ham. Bizga yetarli ishchi bering, bas.

— Qancha kerak bo'lsa, shuncha oling. Asir to'lib-toshib yotibdi-ku. Bir haftaga qolmay o'nta sol tayyor bo'lsin, tushundingmi?

Xitoylar ta'zim etdilar.

— Bosh ustiga, xo'jayin.

Jo'ji ustani yana bir tepdi.

— Quyonyurak pakanalar, daf bo'ling!

Tishlarini g'ijirlatgancha qo'mondonlariga yuzlanib, dedi:

— Bu bo'ladigan ish. Sollar bilan manjanaqlarni tayyorlashsin-chi, ko'ramiz, Temur Malik degan xorazmlik bunga qanday dosh berarkan? O'lmaganiga pushaymon qildiraman uni!

Ayni shu onda birdan tashqarida shovqin-suron ko'tarildi. Chodirdagilar lol qoldi. Bir-biriga hayrat ko'zi-la boqishdi. Birov so'z qotmasdan avval chodir eshigida bir sipohiyning qorasi ko'rindi. Ichkarida yonayotgan qandil nuri uning yuziga tushdi. Sipohiyning yuzi quv oqarib ketgan edi. Chodirdagilarning yuragi orqasiga tortdi.

Jo'ji g'azab bilan bo'kirdi:

— Ablah! Nega ruxsatsiz kirding?

Sipohiy Jo'jixonga ma'nosiz boqdi. Lablari qimirladi, ammo bir so'z deya olmadi, to'fonda qolgan qamishday qaltiradi. Ko'zlari nursizlandi, yuzi battar oqardi. Tizzasi bukildi.

— Yarador! — deya baqirishdi.

Jebe no'yon irg'ib turib, sipohiyni quchoqladi. Sipohiy uzunasiga qilich bilan chopilgan edi. Dimog'iga qon hidi urdi.

— Kim qildi buni? — deb so'radi u talmovsirab.

Bunga javoban tashqaridagi shovqin-suron kuchaydi. Quti o'chgan qo'mondonlar allaqachon oyoqqa qalqqan edi. Jo'ji qo'lidagi qadahni dasturxonga otdi.

— Jin ursin! — deya baqirdi u. — Bosildik yana.

"Olloh! Olloh!" xitoblari yer-u ko'kni tutdi. Bir-biriga hayrat ko'zi-la boqdilar. Subutoy Bahodurning og'zidan bir so'z chiqdi:

— Xorazm!

Jebe tashqariga otildi. Qo'llarini og'ziga karnay qilib, qorong'ulikka qarata baqirdi:

— To'planish burg'usini chaling! To'planish burg'usini chaling!

Burg'u chalindi, otlar kishnadi. "Olloh! Olloh!" saslari aks sado berdi. So'ng mo'g'ullarning mash'um jang qiyqirig'i eshitildi:

— Lu! Lu! Lu!

Temur Malik otini orqa oyoqlarida tik turg'izib kishnatdi. U Jo'jining chodirini topgan edi:

— Bu tomonga keling, arslonlarim, bu tomonga!

Askarlari uning atrofiga to'plandi. Qarshi chiqqan mo'g'ul suvoriylarini yanchdilar, so'ng chodir tomon olg'a yurdilar.

Jo'ji chodir eshigi oldida lol qotib turardi. Selday oqib kelayotgan Xorazm askarlarini ko'rib, sap-sariq yuzi yanada sarg'aydi, qisiq ko'zlari g'azabdan kichraydi.

— Otimni keltiring, tez! — buyurdi u.

Jebe qayerdandir ot minib keldi.

— Bir to'da xorazmliklar bu tomonga bostirib kelayotir. Jo'jixon, otga minib, joningizni qutqaring!

Jo'jixon Jebega qarab zaharxandalik bilan dedi:

— Qochish bilan zafar qozonilsa Xorazmshoh Muhammad qozongan bo'lardi, Qurt Jebe!

Jebe uning jasoratiga qoyil qoldi. Jo'jixonning so'zlari uni sehrladi. Irg'ib otdan tushdi.

— Marhamat, Jo'jixon, otga mining.

— Sen ne qilasan?

— Menga ot kerakmas, navkarlarimizning ko'pi ot minishga ulgurmadi ham. Ahvol chatoq. G'ofil qoldik.

Jo'ji bir sakrab otga mindi, egri kalta qilichini qinidan chiqarib:

— Boos! — deb hayqirdi.

Mo'g'ul askarlari Jo'jining dahshatli ovozini tanidilar. Javob berishdi:

— Lu! Lu! Lu!

Temur Malik oldini to'sgan bir guruh mo'g'ul navkarlari bilan jangga kirishdi. U Jo'jining chodiri oldidagi gap-so'zlarni aniq-tiniq eshitib turar, aql bovar qilmaydigan bir g'ayrat bilan olishib, chodirga yetib olishga harakat qilar edi.

— Qochiramiz-ov, — dedi u o'zicha. So'ng tovushini balandlatib, hayqirdi:

— Hoy, Jebe no'yon!

Jebe chodir oldidan ketmagan edi. Temur Malikni sasidan darhol tanidi. Tishlarini g'ijirlatib:

— Baloga yo'liqqur, alvasti! — dedi.

— Jebe no'yon! Hoy, Jebe no'yon!

Jebe javob berdi:

— Nima deysan?

— Chiq maydonga, sen bilan jang qilmoqchiman.

Jebe chorlovni eshitib, hayron qoldi. Temur Malik u o'ylagandan botirroq chiqdi. Ammo Qurt Jebeni yakkama-yakka olishuvga chaqirishi aqldan emasligini bilarmikan u?

Qurt Jebe bir ko'zidan ajralgani tufayli tuman sarkardaligiga ko'tarilgan edi. Ilgari u mo'g'ul qo'shinida oddiy navkar edi. Bir jangda Jebening jasoratini ko'rgan Chingizxon uni o'nboshi etib tayinladi. Yaxshi xizmati tufayli ko'p o'tmay yuzboshi bo'ldi. Topshiriqlarni muvaffaqiyat bilan bajargach, mingboshilikka ko'tarildi. Qismlarini yaxshi boshqargani tufayli tuman qo'mondoni bo'ldi. Nihoyat, u Chingizxonning o'ng qo'li darajasiga chiqdi.

Temur Malikni pushaymon ettirishi, jasur, mard, shuhrati, hatto, mo'g'ul eliga ham yoyilgan bu xorazmlikka qilichining kuchini ko'rsatib qo'yishi kerak.

— Hozir boraman, kut, — dedi u.

Bir navkarning otiga minib, boshi ustida qilichini o'ynatib, tovush kelgan tomonga yo'l oldi.

Temur Malik yuz yigitning boshida charx urib, dushmanni qirmoqda. Yo'l to'sib chiqqan mo'g'ullar yo'q bo'lish arafasida turardi. Jebe yashin tezligida o'rtaga tushdi. To'zg'iyotgan mo'g'ul qismlariga qo'mondonlikni qo'liga oldi.

— Chingizxonning o'g'illari, bosing, ha, bosing! — deb qichqirdi. So'ng Temur Malik tomon sas berdi:

— Keldim, Temur Malik!

Temur Malik oldidagi mo'g'ul navkarini chopib tashladi-da, dedi:

— Yaxshi bo'ldi kelganing. Ko'raylik-chi, eson-omon qayta olarmikansan?!

Jebe no'yon qah-qah otib kuldi.

— O'zing jangdan omon chiqaman deb o'ylaysanmi?

— Biz jang erlarimiz.

— Nima, bizni parto'shakda dunyoga keldi deb o'ylaysanmi?

— Shahidlik biz uchun jannat eshigini ochar.

— Biz ham o'lsak Chingizning qalbiga ko'milamiz. U yer musulmonlarning jannatidan ham go'zalroq.

Qah-qah otish navbati Temur Malikka keldi.

— Chingizning qalbi go'zal emish. Unda qalb, yurak bormi o'zi?

Jebe no'yon tishlarini g'ijirlatdi. Raqibini qo'rqitish uchun ikki bor hujum qilib ko'rdi. Ammo Temur Malik ustalik bilan chap berdi.

— Bay-bay, qo'lingdan kelmadi-ku, — deb qichqirdi u.

Otini yonga burib, bor kuchi bilan qilich soldi.

— Vooh!

Jebe zo'rg'a qutulib qoldi. Ammo qilich otining boshi ustiga tushgan edi. Ot bir-ikki munkidi. Jebe otni turg'izishga urinib ko'rdi.

— Tur o'rningdan, la'nati maxluq!

Ot ustidagi chavandozi bilan yerga yiqildi. Oyog'ini uzangidan chiqarishga ulgurmagan Jebe otning tagiga tushdi.

Dahshatdan yuzini burishtirib:

— Tamom bo'ldim, — dedi ingrab.

Shu lahzalarda oy chiqdi. Atrof oydinlashdi. Oy yorug'ida Temur Malik atrofga nazar tashladi. Jang ketayotgan joydan xiyla uzoqlashganini payqadi. Atrofdan qilichlarning jarang-jurung tovushi eshitilardi. Otidan tushib, Jebening ustiga bordi. Chopish uchun qilich ko'tardi. Jebe ustiga ajal kelganidan bexabardek beparvo yotardi. Temur Malikka ma'nosiz ko'z tikib beo'xshov tirjaydi. "Ur, o'ldir", — dedi u beparvolik bilan.

Temur Malik chopolmadi. Chunki dushman yerda yotardi. Temur Malik istaganini qilishi, xohlasa mo'g'ul qo'shinini Jebe

no'yon kabi kuchli bir sarkardadan mahrum etishi mumkin edi. Yo'q, yo'q! Dunyoni bir murdordan tozalashi mumkinligini bilsa-da, o'zini mudofaa etolmaydigan kishini o'ldira olmaydi. U Jebe no'yonning hayratga to'la nigohi ostida qilichini asta-asta tushirdi.

— Qurt Jebe, — dedi u.

Jebe uning harakatini anglay olmadi.

— Chopsang-chi! Nimani kutyapsan? Yo qilichsiz mo'g'ul sarkardasini o'ldirishga yuraging dov bermayaptimi?

— Aksincha. O'zini mudofaa etishga ojiz birovni o'ldirmay-digan darajada yurakliman.

Jebe oyoqda bo'lganida ehtimol hayratdan yerga yiqilgan bo'lardi. Javob berishga o'zida kuch topmadi. U jasurlikda Temur Malikdan qolishmasdi. Ammo shu onda Temur Malikning oliyhim-matliligi uni yerparchin qilgan edi.

— O'ldir, — deya ingradi u. — Yashashga loyiq emasman.

Temur Malik otiga mindi.

— Bu yerdan seni topib olishar, Qurt Jebe, — dedi u ketishdan oldin. — Sog' bo'lsak, jang maydonlarida yana ko'rishamiz. Yax-shi qol.

Temur Malik ot choptirib, ko'zdan yo'qoldi. Qurt Jebe no'yon hayotida ilk bor yig'ladi. U xorazmlik sarkardaning orqasidan uzoq tikilib qoldi, so'ng o'ziga o'zi:

— Meni qiliching emas, olijanob qalbing yiqdi, Temur Malik, — deya so'zlandi.

Temur Malik allaqachon askarlari yoniga yetib olgan edi.

— Ildam bo'ling, Xorazm sherlari!

Uning haybatli sasi Qurt Jebening yuragini zir titratdi. Ot os-tida qolgan oyog'ini chiqarishga urindi, achchiq alam bilan yerga tupurdi.

— Singanga o'xshaydi, — dedi u.— Yomon bo'ldi.

"Olloh, yo Olloh!" degan hayqiriqlar tun zulmatini yorib, te-palar ustida aks sado berdi. Xorazm askarlari olg'a tashlandilar.

Ammo bu orada mo'g'ullar to'planib ulgurgandi. Temur Malik atrofni o'rashga kirishgan pakana otli askarlarni o'z vaqtida ko'rdi. Dushman ularni halqaday o'ray boshlagan edi.

— Chodirlarga o't qo'ying! — deya buyurdi Temur Malik.

Yonayotgan chodirlar ustida olov osmonga o'rladi. Shunda qo'mondon tulporining jilovini tortdi-da, askarlariga yuzlanib, amr etdi:

— Orqaga qayting. To'g'ri qal'a tomon chekining.

O'zi bir guruh askar bilan orqada qoldi. Boshqalarni Sariq Lag'o't boshlab ketdi. Xorazmliklar intizom bilan chekindilar. Ta'qibga shoshilgan mo'g'ullar oldini Temur Malik qoya kabi to'sib chiqdi. Dushman undan nari o'tolmadi.

Qulay fursat kelishi bilan Temur Malik orqaga, Sayxun tomon-ga ot surdi. Mo'g'ullar yetib kelgan vaqtda Xo'jand qal'asi darvo-zalari tambalangan edi. Qal'a burjlari ustida tayyor turgan xorazm-liklar yog'iyni o'q yomg'iriga tutdilar.

Jo'jixonning navkarlari bu gal ham qal'aga olib boradigan tor yo'ldan o'tishga urinib ko'rdilar, ammo o'q yomg'iriga tutilib, orqaga qaytishga majbur bo'ldilar. Zarbdor suvoriy qism qo'mon-doni Subutoy Bahodur alam ustida otini suvga soldi. Kuchli oqim uni oqizdi deguncha o'zini qirg'oqqa otdi. Alamini navkarlaridan oldi. Duch kelganni qamchiladi.

— Qo'rqoqlar, ko'ppaklar! — takror-takror baqirdi u.

Bu bosqin dushman yuragiga katta qo'rquv soldi. Qurt Jebeni ot ostida ingrab yotgan holda topdilar va uni bu holga tushirgan jangchiga qoyil qoldilar. Ularni vahima bosdi.

Jo'jixon ko'zidan o't sochar edi. U otini mingan ko'yi hamon yonayotgan chodiriga qarab turardi. Barchani landavurlikda ayblar, sarkardalarini og'ziga kelgan so'z bilan haqoratlar edi. Mo'g'ul-lar chor tarafga olazarak boqib, jim turardilar. Ikkinchi daf'a g'ofil qolishlari kechirilmas bir hol edi. Soqchilar nega dushmanni pay-qamadi, nega o'z vaqtida xabar bermadi?

Temur Malik otlarining oyog'iga kigiz latta bog'latib, kechasi sassiz-sadosiz, arvoh kabi dushman o'rtasiga suqilib kirganini ular qayerdan ham bilsin.

O'lgan Xorazm otlarini topgachgina ular sirdan voqif bo'ldilar. Jo'ji hayrat barmog'ini tishlab, ming'illadi:

— Favqulodda bir qarbiy hiyla!

Subutoy lattani ko'zdan kechirgach, jahl bilan yerga urdi. Oyog'ining ostiga olib ancha tepkiladi.

Oy botib, Xo'jand qal'asi qorong'ulik qo'ynida qoldi. Askarlar juda toliqqan edilar. Shunga qaramay hech kim uyquga yotmay, sanoqni kutdi. Natija Temur Malikka bildirildi:

— Ikki yuz birodarimiz shahodat sharobini ichmish.

Temur Malik chuqur qayg'u bilan tiz cho'kdi. Shahidlar ruhi uchun duo etib, Qur'on o'qidi.

Ko'zlari o'z-o'zidan yumila boshladi. Holbuki, u bomdod namozini o'qiganidan keyingina bir-ikki soat mizg'ib olmoqchi edi. Horg'inlik tufayli namozini qazo qilishi mumkin.

Eshik tomon yo'naldi. Yaxshisi, soqchi bilan bir-ikki og'iz hangoma qilib, uyquni qochirish kerak. Eshik ochilgan hamono soqchi qaddini rostladi.

— Biror amringiz bormi, qo'mondonim?

Temur Malik ovoz egasini shu zahoti tanidi.

— Boytu, bu senmi?

— Men, Temur Malik.

— Jigarim, nega yotib dam olmasdan eshigimda soqchilik qilyapsan? Bor, bir askar jo'nat, dam ol.

Boytu bosh chayqadi.

— Nega meni navbat savobidan mahrum etmoqchisiz, Temur Malik?

Beixtiyor Temur Malikning ko'zlariga yosh quyilib keldi.

— Yo Rabbiy! — dedi u ichida. — Bu odamlar savobdan boshqa narsani biladimi o'zi? Sening rizong uchun o'lishdan, sening rizong uchun yashashdan boshqa bir narsa biladilarmi o'zi?

Boytuning yelkasiga do'stona qoqdi.

— Tushundim, do'stim. Xato mendan o'tdi. Sen mendek, balki mendan ko'proq charchagan bo'lsang-da, uyqu o'rniga soqchilikni afzal ko'rdingmi, nega men qal'ani qo'riqlash uchun chiqmay. Yo'q, bu paytda uxlash kerakmas. Yaxshisi, yur, burjlarni aylanib kelaylik. Boytu taklifga e'tiroz bildirdi:

— Horg'insiz, Temur Malik. Erta tongda oyoqda bardam turishingiz lozim. Men askarman, orqangizda o'lsam roziman. Ammo siz qo'mondonsiz, shuncha insonning, faqat insonlar emas, bu ulkan qal'aning, ayni chog'da islom hayotining ramzisiz. Uxlab olishingiz kerak. Qo'ying boshqa gapni, eshigingizni qo'riqlab turay.

Temur Malik o'ylab ko'rdi. Haqiqatan ham oyoqda turishga majoli yo'q, to'rt kundan buyon mijja qoqmagandi. Qovoqlari yumilib-yumilib ketardi.

— Gaping to'g'ri, — dedi. — Bir-ikki soat uxlasam yaxshi bo'lardi. Ammo bomdod namozi vaqti yaqin qoldi.

— Men uyg'otaman. Namozga hali bir soat bor.

— Ammo unutma. Buncha mas'uliyat ustiga namoz qarzi ham yuklanmasin.

— Olloh saqlasin!

Temur Malik ichkariga yo'naldi. Kiyim-boshini yechmasdan po'stak to'shak ustiga cho'zildi. Duosini o'qib, behalovat uyqu og'ushiga kirdi.

* * *

Bir necha kun osoyishta o'tdi.

Ertalab Temur Malik kotibini chorladi. Xonaning ichida u yoqbu yoq yurib, maktub yozdira boshladi.

Kotib horg'in qiyofali, keksa kishi edi. U chordana qurgancha, qog'ozni tizzasi ustiga qo'yib qamish qalam bilan yozishda davom etar, Temur Malik aytgan so'zlarni tushirib qoldirmaslikka tirishar edi.

— Davom et, kotib.

— Kutyapman, Temur Malik. Ammo bir so'z aytishga ijozat bersangiz. Maktubingiz hasratga to'la. Ichida bir tasalli yo'q. Buni o'qigach, Jaloliddin yiqilib qolmasaydi, deb qo'rqaman.

— Senga shunday tuyulyapti, kotib. Jaloliddinni bilmas ekansan. Uning irodasi metin. Otasining qilgan ishidan yiqilmadimi, bundan keyin hech narsa uni oyoqdan ololmas. Qisqa vaqt ichida otasi tarqatib yuborgan Xorazm qo'shinini to'plab, majusiy mo'g'ullarni yer tishlatishiga ishonaman.

— Inshoolloh!

— Kelgan joyimizdan davom etamiz. Bunday deb yoz: "Alhamdulilloh, qal'ada ahvol yaxshi. Yana bir qancha muddat dosh berishimiz mumkin, deb o'ylayman. To'g'ri kelmasa, boshqa qal'aga chekinib, jangni davom ettiraman. Ammo so'nggi umid bor ekan, qal'ani tark etmayman. Jo'jixonni bosqinlarimiz bilan sarosima-

ga solib qo'ydik. Har holda u islom e'tiqodi nelarga qodir ekanini tushundi, ammo padaringizning orqaga qaramay qochganiga hayron bo'lsa kerak, ehtimol".

— Bu og'ir gap bo'ldi, Temur Malik. Sulton xabar topsa, sizni qatl etishga farmon beradi, deb qo'rqaman.

— Shunday deb o'ylaysanmi? Qani, ko'raylik! Dushman kallasini olishdan qochgan sulton do'st kallasini uzishga ustadir balki.

— Achchiq so'yladingiz!

— Achchiqmi? Tortgan azoblarimdan xabaring yo'qmi, kotib? Jigarim ezilib, laxta-laxta qon oqib yotibdi-ku! Shuncha askar bilan qal'aga qamaldik. Olgan xabarimga ko'ra, majusiylar yangi hujumga hozirlanmoqda emish. Chinlik hunarmandlarga uzoqqa otar kamonlar, manjanaqlar yasattirganmish, sollar qurdirganmish. Bularning hammasi nedin darak berur?

Kotibning boshi xam bo'ldi. Temur Malik davom etdi:

— Goho ichimdagini Jaloliddinga to'kib solardim. Endi undan ham mahrumman. Ko'nglimdagini qog'ozga to'kay. Maktubni Jaloliddin o'qiyotganini ko'z oldimga keltirsam, biroz tasalli olaman. Sen aytganlarimning hammasini yoz.

Keksa kotib qog'ozga engashdi.

— Hozirman.

— Shunday deb yoz: "Mo'g'ullar yangi hujumga hozirlik ko'rmoqda. Kerakli tadbirlarni ko'rdik. Shunga qaramay yengilsam, ne qilay? Janobi Haq taolo landavurligimiz sababli bizni jazolash uchun bu qal'aning xarob etilishini murod etgan bo'lsa qo'limizdan nima ham kelardi? Qarshi chiqib bo'larmidi? Dunyoni xaroba holiga keltirgan bir dajjol butun Xorazm mamlakatini vaboga yo'liqqandan battar qildi, chor atrofni vayronaga aylantirdi. Go'zal Buxoroda burqsigan tutun Xo'jandgacha yetib keldi. U yerda yongan olov yuragimizning otashi bilan tutashdi.

Ammo bundan ham yomon gap bor. Xalifa Nosir haqida yomon xabar keldi. U Chingiz bilan ittifoqqa kirib, Xorazm o'lkasini tarixdan yo'q qilishga qaror berganmish. Musulmonlar ittihodga nihoyatda muhtoj bo'lgan bir vaqtda kofir bilan og'iz-burun o'pishgan Nosir dini islom uchun jang etayotgan yigitlarimizga orqadan xanjar urmoqchi. Nega bunday pora-pora bo'ldik, Jaloliddin? Nega

arzimagan manfaatni ko'zlab yoki shaytoniy g'urur yo'ldan urib, ixtilofga kirishdik? Biz parchalanganda Chingiz ittihod etdi, bora-bora kuchaydi, barcha shaharlarimiz unga yog'liq luqma bo'ldi. Hali to'ygani yo'q bu maxluq.

Siz bo'lsangiz ayshingizni suravering. Bu ish bo'lmaydi, Jaloliddin, bo'lmaydi!"

Temur Malik hissiyot-la, yana takrorladi: "Bo'lmaydi, Jaloliddin, bo'lmaydi! Bundan keyin otangizning etagini ushlab o'tiraolmaysiz. Ul g'aribni o'z holiga qoldirib, qutulishni kutayotgan Xorazmga tez qayting. Har qarich tuprog'i ota-bobolarimiz qoni bilan sug'orilgan bu mamlakatni oyoqosti qilayotgan majusiylarni haydab chiqaring. Butun Xorazm sizdan shuni kutmoqda!"

Chuqur nafas olib, jim qoldi. Ko'zlari ajabtovur chaqnadi. Kotibga bir nazar tashladi-da:

— Qolganiga salom-kalom yoz. Qanday munosib ko'rsang, shunday yoz! — dedi.

Kotib indamadi. Bosh irg'atish bilan kifoyalandi. Qamish qalam yana qog'oz ustida qitirladi.

Maktub bitgach, oyoqqa qalqib, Temur Malikka uzatdi. Temur Malik barmog'idagi uzukka bo'yoq surdi va maktub ostiga muhr bosdi.

— Maktubni yaxshilab o'rab, bu yerga olib kel, — deb buyurdi u.

Kotib chiqdi. Temur Malik eshik tomon yurdi.

— Tezda Sariq Lag'o'tni topib kel, — dedi u soqchiga.

Ko'p o'tmay Sariq Lag'o't keldi. Yuzi tund, qovog'i soliq.

— Chaqirgan ekansiz.

— Ha, chaqirtirdim. Ammo nega bunchalik tundsan? Buxoro, Samarqandning mo'g'ul qo'liga kechganini xuddi hozir eshitganga o'xshaysan. Qani, o'tir-chi.

Sariq Lag'o't o'tirdi.

— Kelgan xabarlar yomon, — dedi u. — Jo'ji yaxshi tayyorgarlik ko'rgan emish. U yoqqa yuborgan ayg'oqchilarimiz yomon xabarlar bilan qaytdilar. Bu ham yetmaganday qal'amizda fasod urug'i nish urdi.

— Qanday? — hushyor tortib so'radi Temur Malik.

— Ba'zi xonlar qal'ani Jo'jiga taslim etib, u bilan ittifoq tuzish niyatida ekanini payqadim.

— Yo'g'-e, bunday dema.

— Dedimmi, demadimmi, nima farqi bor. Bor gap shu. Har holda Jo'jixon ularni og'dirib olish uchun rosa jon koyitgan.

Temur Malik g'azab-la baqirdi:

— Bunday bo'lishi mumkin emas! Hech kim qal'ani topshirish fikrida emas.

Sariq Lag'o't achchiq kuldi:

— Nega bunday deyapsan, azizim. Buxoro bilan Samarqandni mo'g'ullar urushib oldilarmi? Hatto O'tror ham xiyonat tufayli qo'ldan ketdi-ku. Ichimizga yovuz bir ruh oralagan, xiyonatdan boshqa narsani bilmaydi. Qo'rqoq bor yerda bu odatdagi hol.

— Yana xoinlarmi?

— Ha, yana xoinlar! Fasod qozonini qaynatayotgan o'sha qo'rqoq xon Tubek. O'ziga ancha-muncha tarafdor ham topgan. "Jo'jixon hech birimizni o'ldirmaslik to'g'risida qasam ichdi. Biroq Temur Malik tajribasizlik qilib uni gijgijlayotir, shoshqaloqlik qilmoqda. Jo'jixon qal'ani kuch bilan olsa bola-chaqagacha hammamizni qilichdan o'tkazadi. Holbuki, taslim bo'lsak, yangidan to'planib, qal'ani qayta olishimiz mumkin. Sulton Alouddin Muhammad ham yangi qo'shin to'plash uchun mamlakatni tashlab ketdi-ku. Jaloliddin ham u bilan ketdi-ku" deyayotganmish.

— Voy, pastkash-ey, pastkash!

— Pastkash deganing yetarli emas. Undan ham yomonroq ta'rif topsang, o'shani ayt, botirim, bu qilg'ulikni pastkashlikka yo'yishning o'zi yetarli emas.

Temur Malik o'ylab qoldi. Bu nima gap o'zi? Yana nimalar bo'ladi? Metinday qal'ani tashqi hujum bilan ola bilmaydilar, ichdan buzadilar. Ko'zga ko'rinmas bir balo musulmonlarni idrokdan mahrum etdimi yo?

Kotib kirdi. O'rog'liq maktubni Temur Malikka uzatdi.

— Boshqa bir amringiz bormi, Temur Malik?

— Yo'q,— dedi Temur Malik.— Ketishing mumkin.

Kotib chiqdi. Temur Malik Sariq Lag'o'tga yuzlandi.

— Jaloliddinga bir maktub bitdim. Menga yuborgan maktubining javobini berish va bizning ellardan xabar jo'natish tilagidaman. Hammamiz do'st ko'zi bilan unga intiq ekanimizni bildirdim.

Biroz sukut etdi. So'ng birodarining ko'zlariga tikildi.

— Bir jon do'stim bu maktubni eltmog'i lozim.

Sariq Lag'o't boshini qashladi.

— Topgan bo'lsam, bu ishni menga topshirmoqchisan, Temur Malik. Bosh ustiga. Amr bersang o'lmakka hozirman. Faqat bu yerda ko'proq foydam tegmasmikan?

— Foydang katta, bunga hech shubha yo'q. Ammo bu maktub eson-omon yetib bormog'i darkor. Hushyor, jasur, ishonchli kishi lozim. Seni esladim. Maktub eltishdan boshqa ishlaring ham bor, albatta. Jaloliddinni otasi yonidan ayrilishi kerakligiga ishontira olsang, buyuk xizmat qilgan bo'lasan.

Sariq Lag'o't oyoqqa qalqdi. Temur Malikning qo'lidan maktubni oldi.

— Modomiki, yo'l odami bo'ldimi, yo'lchi safar jabdug'ini hozirlashi kerak, Temur Malik. Vaqt ketmasin. Otlanay.

— Sen xohlagancha bo'lsin. O'zingni ehtiyot qil, eson-omon qaytishingni istayman.

Sariq Lag'o't Temur Malikning ro'parasiga keldi. Bir lahza bir-biriga boqdilar.

— Xudo xohlasa, maktubingni yetkazaman. Ammo qaytib kelolamanmi-yo'qmi, bilmayman. Ajal qayerda oyog'imdan olishi noma'lum, yo mo'g'ul askari qiyofatida, yoki Tubekxon suratida ro'baro' kelishi mumkin.

Temur Malik uni quchdi.

— Mendan o'tgan bo'lsa, kechir, mendan rozi bo'l, botirim, — dedi Sariq Lag'o't.

Temur Malik birodarini bag'riga bosdi.

— Sendan nima ham o'tibdiki, kechirsam?

— Men sendan mingdan ming roziman, Temur Malik. Necha zamonlardir hamnafasmiz, biron ayb ish qilgan bo'lishim mumkin.

Ayrildilar. Sariq Lag'o't eshikka yo'naldi. Ostonadan hatlarkan, orqaga qayrildi.

— Xoinlardan ehtiyot bo'l,— dedi u.— Bir fitna uyushtirish-yapti. Bugun ular Tubekxonning uyiga yig'ilishgan. Xohlasang, hozir bos, qilichdan o'tkaz. Aslida shuni aytish uchun kelgan edim.

— Nimalar deyapsan, Lag'o't! Ostonada dushman turgan bir paytda musulmonga musulmon qonini to'kish ravomi? Sui-iste'mol-u jinoyatga qo'l urib bo'ladimi, axir?!

— Xoinlar uchun faqat bir jazo bor, Temur Malik. U ham bo'lsa — o'lim! O'lgandan so'ng xiyonat etolmaydilar. Ollohga topshirdim seni.

— Seni Olloh qo'llasin.

Sariq Lag'o't chiqdi. Temur Malikning ichini it tataladi. Tubekxonga bir ko'rinish bersa yomon bo'lmas. Yoniga o'n kishini olib Tubekxonning uyi tomon oshiqdi.

Tubekxon haqiqatan ham fitna qozoniga o't qalayotgan edi. Uyiga beshta qipchoq xonini to'plab, maxfiy kengashga kirishgandi. U avval boshdanoq Temur Malikni yomon ko'rardi. Tubekxon bir yoqda qolib, Temur Malikning qal'aga qo'mondon etib tayinlangani unga alam qilgan, ilk kunlardanoq Temur Malikka qarshi chiqqan edi. U shu lahzalarda Temur Malikning yot va tajribasiz kishi ekani, shu bois yengilishi tayin ekani haqida so'zlab, xonlarni yo'ldan urishga harakat qilardi:

— Kim ne desa desin, lekin bir nechta bosqinda zafar qozonish bilan kishi qo'mondon bo'lolmaydi, — derdi u. — Temur Malik garchi botir bo'lsa-da, hali g'o'r. Qilgan tadbirlari xom-xatala. Harb ishini bilsa-da, siyosatdan bexabar. Shu sabab, bir kuni Jo'jixoning qal'ani olishi tayin. Temur Malikning xatolari hammamizning boshimizga balo bo'ladi. Jo'jixon uzoqqa otar o'qlar, manjanaqlar, sollar yasatib, Temur Malikni qal'aga qamaydi. Qarab turinglar, xuddi shunday bo'ladi!

Xonlarning ko'pi bosh silkib tasdiq ishorasini qildilar. Ba'zilari taraddudlandi. Bir qarorga kela olmayotganliklari ko'rinib turardi. Tubekxon davom etdi:

— Qarshilik ko'rsatish befoyda ekanini hammamiz ko'rib turibmiz. Buxorodek mustahkam bir qal'a, Samarqand kabi askarga to'la bir shahar taslim bo'lsa-yu, Xo'jand oyoqda qololadimi? Musulmon qonini bekordan bekorga to'kmoq ravo ishmi?

Taraddud ichidagi xonlardan biri so'radi:

— Xo'sh, unda qanday yo'l tutish kerak?

Tubekxon unga qaradi.

— Qanday yo'l kerakligini o'zingiz ham bilasiz, Qovshutxon, bu achchiq, ammo to'g'ri yo'l.

— Ya'ni?

— Qal'ani topshirish kerak.

Qovshutxon suyak-suyagigacha muzlab ketdi. O'zini bosishga harakat qilib, takror so'radi:

— Xo'sh, taslim bo'lsak, nima o'zgarish bo'ladi?

— Jonimizni qutqaramiz.

Qovshutxon shiddat bilan oyoqqa qalqdi.

— Menga qarang! — deb baqirdi u. — Qachon chiqishi noma'lum bo'lgan jon islom izzatidan qadrli bo'lib qoldimi? Bu ishda men yo'qman!

Qovshutxon gurs-gurs qadam tashlab, xonadan chiqib ketdi. Tubekxon boshqalarga qahr bilan tikilib, dedi:

— Avvaldan buzuqi edi, uni bu yerga chaqirib xato qildim. Ketsa jahannamdan nari.

Bu orada Temur Malik uyga kirib, dahlizda shitob bilan kelayotgandi. Qovshutxon bilan yuzma-yuz bo'ldi. U Temur Malikni ko'riboq qulochini yozdi.

— Damim ichimga tushib ketdi, Temur Malik, bu ne hol bo'ldi?

— Ne gap, nima bo'ldi?

Qovshutxon hozirgina o'zi chiqqan eshikka ishora qildi.

— Tubekxon qal'ani taslim etish niyatida. Chidamadim, chiqib ketdim. Dushman bilan yoqa bo'g'ishish o'rniga, qilayotgan qilg'uligini ko'ring bularning.

Temur Malik eshikka yaqinlashib, quloq tutdi. Ichkarida qizg'in bahs ketardi. Tubekxon to'xtamay baqirib, xonlarni yo'ldan ozdirishga urinardi.

— Bilmayapsizlarmi? Gap faqat bizning ustimizda emas. Qal'ada keksalar bor, xotin, bola-chaqa bor. Temur Malik yaxshi boshliq bo'lganida oldin ularning g'amini yegan bo'lardi. Jo'jixon necha-necha sol yasatgan, demak, erta-indin hujumga o'tishi turgan gap. Biz qo'riqlasak, shu ko'hna qal'ani qo'riqlarmiz. Xotin, bola-

chaqani kim qo'riqlaydi? Temur Malikning parvoyi falak. Chunki xotini yo'q.

U tovushini yanada balandlatdi:

— Taslim bo'lsak, Jo'jixon hech birimizga tegmaydi, u shunday so'z berdi.

Temur Malik ortiq chidab turolmadi. Eshikni bir tepib ochdi-da, ichkariga kirdi.

— Ey, Ollohdan qo'rqmagan, bandasidan uyalmagan! — deb hayqirdi u. — Tomiringda qon emas, xiyonat yiringi oqyapti ekanda! Senda islom shuuri yo'qmi hech?

Tubekxon qo'rquvdan bo'ronga uchragan yaproqday zir titradi, ammo tezda o'zini o'ngladi:

— Menda islom shuuri bor, ammo senda bola-chaqani o'ylaydigan farosat yo'q.

— Musulmon ayol erkagi o'lgan yerda o'ladi. Bor, so'ra ulardan, Jo'jixonga asir tushmoq istaydirmi yoki o'lmoq?

Boshini chayqadi.

— Shubhasiz, o'lmoq istaydir, chunki Jo'jixon ularni askarlariga cho'ri qilib berishini biladi.

Tubekxon qo'rquv va g'azab domiga tushgan edi.

— Yolg'on! Jo'jixon so'z berdi, u hech kimning bir mo'yiga ham tegmaydi.

Temur Malik u tomonga bir odim otdi.

— Yolg'onchi! Sulton Muhammadning qoniga kirdinglar, yo'q yerdan Chingiz bilan urush chiqartirdinglar. So'ng yo'ldan urib qochirdilaring. Yigirma ikki yil shon-sharaf, iqbol va izzat-hurmatda saltanat surgan, jahonning yarmini olgan podshohni qotgan nonga muhtoj ahvolga tushirdilaring. Shu yo'l bilan bobolaringiz yerini istilo etgani uchun undan intiqom oldilaring! Ammo endi insofga keling. Siz ham biz kabi musulmon bo'ldingiz. Bu fitna qozoniga o't qalashni bas qiling. Kofir bo'sag'ada, oramizda ixtilof chiqarib, jigarimizni ezishga shay turibdi. Jo'jixonning qaysi va'dasiga uchdingiz? Chingizxon Samarqandni qanday oldi, unutdingizmi? Biron kishiga zahmat bermayman deb va'da bermaganmidi?! So'ng o'g'ilni otaga, otaga o'g'ilni tiriklay ko'mdirmadimi?

Temur Malikning qovoqlari uyildi, ko'zlari yoshlanay-yoshlanay deb turardi.

— Qanchadan qancha dindoshlarmiz tiriklayin ko'mildi-ku! Buxoro ko'chalari ne holga tushganidan bexabarmisiz? Jasadlar qalashib, qal'a burjiga yetdi. Musulmonlarning or-nomusi poymol etildi. Jomelarimizning ichida qizlarimizni o'ynatdilar. Ahli ulamo dorga tortildi, bebaho kitoblarimiz o'tga tashlandi. Buxoroning kullari shaharlardan oshib, Xo'jand ustiga zulmat yomg'iri kabi yog'di-ku!

Temur Malik ularga bir-bir tikildi. Ko'zlari dahshat solar, g'azabdan pastki labi asabiy titrab turardi. Qo'li goh qilichiga uzanar, goq orqaga qaytardi.

— Bularning hammasiga sen sababchisan, Tubekxon, sen sababchisan! Sen va sen kabilar!

Temur Malikning shahodat barmog'i Tubekxonning yuziga nayza kabi niqtaldi. Tubekxon orqaga tislandi.

— Ol-a, — dedi u zo'rg'a.— Bu ishlarga mening daxlim yo'q. Sulton bilan ulfat bo'lganim yo'q. Chingizxon bilan urushni ham istagan emasman.

— Sen istamadingmi, sen-a? Kuldirma meni, bir vaqtlar O'trordagi majlisda aytganlaringni unutganim yo'q. Doim shunaqasanlar. Aytganlaringni e'tirof etishdan ojizsanlar. Itlar hech qachon qoplon bo'lolmaydi.

— Haqorat qilma, Temur Malik!

— Izzat-nafsingga tegdimi? Haqiqatan or-nomus nimaligini bilsang qanday yaxshi.

Temur Malik boshqalarga yuzlandi:

— Kim bu odam bilan ketmoqchi bo'lsa, marhamat. Uni qal'adan haydayman. Borsin Jo'jixonning qoshiga. Balki uni kechirar.

So'ng Tubekxonning yoqasidan bo'g'ib silkidi:

— Yo'qol! Yana bir daqiqa qolsang, dinim haqqi uchun oyog'im ostiga olib tepkilayman!

Tubekxon atrofdagilarga olazarak boqdi. E'tiroz bildirishlarini kutdi. Hech kim churq etmagach:

— Yolg'onchilar! — deb baqirdi u. — Temur Malik, sen bilan hali ko'rishamiz. Buni unutmayman.

— Unutma, bu majlisni hech unutma. Bu yerda qilgan rejangni ham unutma. Qilichimni bir it qoni bilan harom qilishni istasam, sen bu yerdan sog' chiqmasding.

Tubekxon indamay chiqib ketdi.

Temur Malik biroz vaqt jim kutib turdi. Xonlarning ko'zi yerda, sassiz qotgan edilar. Har holda qanday jazo berilishini o'ylayotgandilar.

Temur Malik xayolan vaziyatni tezda o'ylab ko'rdi. Bu xonlarni jazoga tortish yangi dushman orttirishga olib kelishi tayin. Kechirsa, balki insofga kelishar. Kelajakda yana fitnaga bosh qo'shsalar, o'sha vaqt chora ko'rilar.

— Quloq bering, — dedi u. — Bilaman, sizlarni yo'ldan urmoqchi bo'ldi. Hech biringiz o'z yurtingizga xiyonat qilmaysiz, deb o'ylayman. Bunga astoydil ishonmoqni istayman. Hammamiz shu tuproqdan non, tuz yedik. Bu tuproq zarra-zarra bo'lib vujudimizga kirgan. Vujudimiz shu tuproqdan olingan. Bu tuproqqa xiyonat o'z-o'zimizga xiyonat bilan barobar. Belingizdagi qilichlarni qinidan sug'urib, dushmanni choping. Jihod savobini olib, jannatiy bo'ling. Shahodat eshigi hammamizga ochiq. Bu eshikdan kira olishni bilmog'imiz kerak.

Qattiq jazo kutgan xonlar gunohlaridan o'tilganini sezib, bir-birlarining oyoqqa qalqdilar. Temur Malikning oldida tizildilar. Oralaridan biri bir qadam ilgari chiqdi. Temur Malikning yuziga qaramay so'zladi:

— Buyukligingni yana bir karra ko'rsatding, Temur Malik. Haqiqatan, bu tuproqqa xiyonat o'z-o'zimizga xiyonat demakdir. Tubekxon bizni yo'ldan ozdirishga urindi. Ammo, to'g'risi, taraddudimizdan asar ham qolmadi. Orqangdan o'limga ketishga rozimiz. Oramizda xoin yo'q!

Temur Malikning yuzi yorishdi.

— Hammayam xato qilishi mumkin, — dedi u. — Muhimi, xatoni vaqtida payqab, o'z vaqtida tuzatish. Hech biringiz mendan kam emassiz. Hammamiz ahli mo'min uchun jonimizni tikkanmiz. Xo'jand aslida kichik bir qal'a, ammo mohiyatan musulmon Xorazmning so'nggi tayanchidir. Agar Jo'ji bu qal'ani qo'lga kiritsa, Makkagacha yetib borib, Ka'bani talon etishi turgan gap.

Xonlar larzaga keldi.

— Olloh saqlasin, — dedi ular baravariga.

— Saqlasin deb bizlarni Olloh musulmon qilib yaratdi. Jon berdi, kuch berdi. Aql-idrok, farosat berdi. Bu xislatlarni ishga solmay, Olloh saqlasin demak, Ollohning ne'matlaridan yuz o'girish demakdir. Yuring, g'azotga chiqamiz, baqoyi nom maydoniga tushamiz. Jannatga eng yaqin yo'l bo'lgan shahodat sari ketaylik. Bizni Olloh qo'llasin. Ollohu akbar!

Hamma birdaniga takbir aytdi. Qubbalar, ko'cha-ko'ylar, yer-u osmon gumburladi:

"Ollohu akbar, Ollohu akbar, La ilaha ilalloh vallohu akbar, Ollohu akbar, valillohil hamd!"

IKKINCHI BO'LIM

Jo'jixon qo'l ostidagi mo'g'ul qo'shini tongga yaqin hujumga o'tdi. Temur Malik hali namozini oxiriga yetkazmagan, sajdadan turmagan edi. Shiddatli shovqin-suron eshitilgach, gap nimada ekanini tushundi. Lablarida zaharli tabassum jilo berdi. Qo'llarini duoga ochdi:

— Ollohim! Sening yo'lingda yurganlarga zafar ehson ayla.

Ko'z ochib-yumguncha sovutini kiydi. Baqir-chaqir tovushlari orasida kimdir uni chaqirganini eshitdi.

— Temur Malik, Temur Malik!

Tezda eshikni ochdi. Ostonada Xo'jand sarkardalaridan Izzaddinbek hansirab turardi.

— Yog'iy bosdi, Temur Malik!

— Hozir boraman. Talvasaga tushishing o'rinli emas.

— Ulkan manjanaqlari bor. Qal'a ichiga tosh va otash yog'dirishlari mumkin.

Birga chiqdilar. Sarkardalar askarlarni saflagan, ba'zilarini burjlarga joylashtirayotgan edilar. Temur Malik burjlardan biriga shitob bilan ko'tarildi. Sayxunning u betini mo'g'ul askari mo'r-malaxday bosib ketgan edi. Mash'alalar har tarafni kunduz kabi yoritgan. Olovli o'qlar qoq qal'a ichiga yetib kelib, yong'in chiqarardi. Temur Malik shu zahoti farmoyish bera boshladi:

* * *

Alamzada Jo'jixon shu kechasi uxlay olmadi. Ikki xotinini ham tutib urdi. Qafasda maxsus boqtirib qo'ygan qoplonlaridan biriga xanjar sanchdi. Sharob ichib mast bo'ldi, so'ng o'yga toldi. Tongga yaqin kallasiga bir fikr keldi. Xitoy hunarmandlarini darhol huzuriga keltirishni buyurdi. O'n xitoylik uyqusiragan qisiq ko'zlarini ishqalab, chodirga kirdi.

Jo'jixon ularni avvaliga rosa bo'ralab so'kdi. So'ng jim qoldi.

— Bir fikrga keldim, — dedi u nihoyat. — Daryoni bo'g'amiz. Suv toshib, Xo'jand qal'asi suv ostida qolsin. Ko'ppak kabi g'arq bo'lib o'lsinlar.

U ustalarga yeb qo'ygudek o'qraydi-da, birdan baqirdi:

— Bu qo'lingizdan keladimi?

Ustalar talmovsirab, titrab bir-biriga qaradilar. Bu haligacha ko'z ko'rib, quloq eshitmagan bir taklif edi. Ulkan daryoni ehtimol bo'g'ish mumkin, ammo buning uchun bir necha yil kerak bo'lishi tayin. Jo'jixon bo'lsa, ularni og'iz ochgani qo'ymay baqirishda davom etdi:

— So'ylang, it emganlar, tillaring tomog'ingga tiqildimi? Menga ijobiy javob bering.

Ustalarning keksarog'i titrab-qaqshab, oldinga chiqdi, tiz cho'kib, yer o'pgach, dedi:

— Xonim, bu juda qiyin ish.

Jo'jixon zarracha taraddudlanmay qilichini sug'urib, ustaning kal boshiga soldi. Ustaning miyasi otilib chiqib ketdi. So'ng tirqirab oqqan qon daryosiga g'arq bo'ldi. Keksa usta g'iq etishga ham ulgurmay jon berdi.

Boshqalarining o'takasi yorilib, orqaga tislandilar. Ularning qisiq ko'zlari xonasidan chiqar darajada ola-kula bo'ldi. Ustalar dahshat ichida jasadga baqrayib qoldilar.

Jo'jixon miya qatig'i chaplangan qilichini ko'tarib, ulardan so'radi:

— Boshqa e'tirozi bo'lgan bormi?

Sovuq o'lim shamolini his etgan xitoyliklar yana orqaga tislandilar. Jo'ji bo'kirdi:

— Yaqin keling, ey pakanalar!

Bazo'r odim otib yaqinlashdilar. To'qqiz kishi birdaniga o'zini Jo'jining oyog'i ostiga tashladi.

— Bizga tegmang, Jo'jixon, biz ojiz, razil chinliklarmiz, sizga xizmat qilishdan boshqa orzuyimiz yo'q.

— Sayxun to'g'on bilan to'silajak!

— To'siladi, Jo'jixon!

— Qisqa fursat ichida bajarasiz.

— ...

— Qisqa fursatda, dedim, eshitmadinglarmi?

— Xo'p, xo'p, Jo'jixon.

— Turlaring.

Turdilar. Bir-biridan quvvat olmoqchidek, yelkama-yelka tizildildar. Jo'ji so'radi:

— Bu ish uchun necha kishi kerak?

Xitoyliklardan biri javob berdi:

— Ijozat etsangiz, oldin to'g'on quriladigan yerni ko'raylik. Daryoning chuqurligini o'lchaylik. Qayerdan tosh keltirish kerakligini bilaylik, undan keyin bir javob beramiz.

Jo'ji tirjaydi. Agar bu ishni uddalasa, otasining ishonchini qozonib, buyuk xoqon bo'lish niyatiga yanada yaqinlashgan bo'lur edi.

— Juda yaxshi, — dedi u. — Tong otishi bilan sohil tomon jo'nang. Men bo'lsam, bu orada navkarlarimdan bir qismini yaqin-atrofdagi ovul va qasabalarga yuboraman. Topgani qadar asir olib keladilar. Yuz ming asir kerak bo'lsa ham yetkazaman. Kerak bo'lsa, nahrni tosh emas, musulmonlarning jasadlari bilan to'ldiraman. Ammo bu to'g'onni albatta quraman, bildingizmi? Albatta!

— Tushundik, Jo'jixon.

— Endi, daf bo'ling!

Ustalar tug'ilganlariga la'nat o'qiy-o'qiy chodirdan chiqdilar. Ketib, bir xoli joyda to'planib, rosa bosh qotirdilar. Bu bo'ladigan ish emas, ammo Jo'jixonga "yo'q" deyish imkoni ham yo'q. Hech bo'lmasa bir ish qilayotgandek ko'rinib, umrini biroz uzaytira olishar.

Atrof yorishar-yorishmas ishga kirishdilar. Sohil bo'ylab kezdilar, o'rgandilar. Nihoyat qulay joy topdilar. Xo'jand qal'asidan

o'n farsah pastda daryoning toraygan joyi bor edi. Arqon uchiga katta tosh bog'lab chuqurlikni tekshirdilar. So'ng qulochladilar. Roppa-rosa uch quloch chiqdi.

— Eh, — dedi xitoyliklardan biri, — yaxshiyam uncha chuqur emas ekan.

Boshqalari bosh chayqadilar. So'ng yana atrofda kezdilar. Bir tosh koni topdilar. U yerda istagancha tosh bor edi. Yuzlari yorishdi.

— Ancha yaqin ekan, — dedi Chu Yen Lao, — ko'radigan kunimiz hali bor, shekilli.

Yosh usta keksa Chu Yen Laodan so'radi:

— Bu ishni qila olishimizga ishonchingiz komilmi?

— Nega komil bo'lmasin?! Avvaliga o'zim ham sarosimaga tushdim, so'ng bobolarimizning Xitoy devorini barpo etganlarini esladim. Biz ularning nevaralarimiz. Sayxun daryosini katta to'g'on bilan to'sish mumkin. Daryo shishib, atrofni bosadi, tabiiyki, Xo'jand qal'asi ham suv ostida qoladi. Borib Jo'jixonga mujda beraylik.

Vaqtlari chog' bo'ldi. Jo'jixon huzuriga shod-u xurramlik bilan kirib bordilar.

— Bo'ldi, Jo'jixon, to'g'on uchun qulay yer topdik. Tosh koni ham bor ekan. Yaqinginada. Faqat bu ish uchun bizga qancha asir bera olasiz?

— Qancha kerak?

— To'g'onning tez bitishi ishchining ko'p bo'lishiga bog'liq. Yuz ming asir bo'lsa, ishni uch oyda bitiramiz.

— Demak, ellik ming asir bo'lsa, olti oyda bitirasiz.

Xitoylik bosh silkidi.

— Xuddi shunday.

Jo'jixon qamchisini ko'tardi, havoda o'ynatdi. So'ng qamchi "viz" etib xitoylikning yuziga tushdi.

— Ahmoq! Bu qadar kutishga vaqtim yo'q. Ellik ming asir beraman, uch oyda to'g'on bitsin. Aks holda, it kunini boshlaringga solaman! Daf bo'ling!

Hech kim e'tiroz bildirmadi. Bir og'iz so'z o'limga sabab bo'lishini bilganliklari uchun gap-so'zsiz chodirni tark etdilar. Jo'ji vaqtni bekor ketkizmay qo'mondonlarini to'pladi.

— Har biringiz besh yuz kishilik guruh bilan yon-atrofdagi qasaba va qishloqlarni bosing. Topganingiz qadar asir va yegulik olib, tez qayting. Bir oyga qolmay hammangiz shu yerda bo'ling. Eng kami ellik ming asirga ehtiyojimiz borligini unutmang.

Qo'mondonlar buyurilgan ishni bajo keltirdilar. Har biri besh yuz kishi olib, na'ra torta-torta atrofdagi qishloqlarni bosdilar. Borgan joyini ostin-ustun qildilar. Xotin-erkaklardan to'da-to'da asir to'pladilar. Don-dunni yag'moladilar. Ishga yaroqsiz keksalar va kichik bolalarni qatl qildilar. Ko'zlardan yosh emas, qon oqdi, ot tuyoqlari izidan paydo bo'lgan chuqurlar inson qoni bilan to'ldi. Dod-u faryodlar yer-u ko'kni tutdi. Ingrash aralash chiqqan qarg'ish osmonga yetdi.

Bir oy o'tmay mo'g'ul qismlari asirlarni podadek haydab qarorgohga qaytdi. Qamchilar vizillab sas chiqardi. Asirlarning yalang'och badanlari uzra uzun izlar qavarib chiqdi. Qavargan joylarga suv yig'ildi. Yana tushgan qamchi zarbidan potillab yorildi, iz-iz yara ochdi. Pashsha-yu chivinlar yaralarga yopirilib, nashtarlarini sanchdilar. Ammo bechora asirlarning pashsha-chivin haydagulik holi ham, vaqti ham yo'q edi.

Jadal ish boshlandi. Xitoylik ustalar jon qayg'usida to'xtamay ishladilar. Tosh ostida qolib ezilgan asirning dod-faryodi yoki qamchi zarbi ostida jon berayotgan xorazmliklarning qarg'ishi mo'g'ullarni musiqa kabi nash'alantirdi.

Daryoga oldin katta-katta yog'och qoziqlar qoqildi. Qoziqlarga qator-qator taxta tizildi. Undan keyin yuz kishilik asirlar guruhi qo'tos va ho'kizlar bilan chanada tashib keltirilgan bahaybat toshlar daryoga tashlandi. Uchinchi oy oxiriga kelib ish bitdi. Daryo bo'g'ildi. Sayxun bir sira sarosimaga tushgandek bo'ldi, asrlar mobaynida oqib ketayotgan yo'li to'silgach, shoshib qoldi. Bora-bora g'azab otiga mindi. Biroq yo'lidagi to'siqni yiqa olmadi. Yig'ilib-yig'ilib ko'lga aylandi. Nihoyat toshdi. Yon-atrofni suv bosa boshladi. Jo'jixon qo'shinni bir tepaning ustiga oldi. Bunyod etgan asarini maroq bilan kuzatdi. So'ng qah-qah otib kuldi:

— Endi Temur Malik nima qilar ekan, bir ko'raylik-chi!

Qal'adagilar avvaliga mo'g'ullarning niyatini tushunmagan edilar. Daryo toshib, atrofni suv bosa boshlagach, ular gap nimada

ekanini bildilar. Ularni sarosima bosdi. Bir-biridan nima qilish kerakligini so'rashdi, ammo hech kim yo'l ko'rsata olmadi. Bir joyga yig'ilib, uzoq muhokama-yu mulohaza qildilar.

— Yog'iyning niyati ma'lum bo'ldi, — dedi Temur Malik, — bizni suvga g'arq etmoqchi. Ahvolimiz g'oyat mushkul. To'rt tarafimiz suv, sohil mo'g'ullarga to'la. Ammo bir chora topishimiz lozim. Suv bosmasdan ilgari qal'adan chiqishimiz kerak. Qutulishning boshqa yo'li yo'q!

Botirlar bosh silkib, roziliklarini bildirdilar. Qo'rqoqlar bo'lsa... Aftidan ularning ba'zilari boshqa fikrda, lekin ichidagini ochiq aytishga jur'at etolmayotgan edi.

— Sollarga tushib qutulish xomxayol. Chetdan yordam olishimiz ham mumkin emas. U holda bir yo'l qoldi — qal'ani Jo'jixonga topshirib, marhamatiga bosh urish, — dedi ulardan biri.

Tubekxon ularning ichiga tashlab ketgan taraddud nish urdi.

Izzaddinbek ranjigan holda gapirgan kishiga qaradi:

— Mo'g'ullarning yo'q marhamatiga ko'z tutishning ne foydasi bor?

— Suvga g'arq bo'lishdan ham ne foyda? Baribir o'ladigan bo'lgandan keyin Jo'jixonga taslim tushmoq afzalroq. Balki tirik qoldirar.

Temur Malik so'zga qo'shildi:

— O'limga bir marta qaror beriladi. Biz avval boshda shu qarorni oldik. Biroq o'lishda ham o'lish bor. Bir it kabi mo'g'ul qilichi ostida o'lgandan ko'ra, ular bilan olishib, mardlarcha o'lgan yaxshiroq.

Ayrim xonlar bunga rozi bo'lmadilar.

— Biz Jo'jixonning marhamatiga bosh urishni istaymiz. Otasi kabi zolim emas, deyishadi. Yonida musulmon beklar ham bor. G'afforxo'ja va Tubekxon kabi. Temur Malik, sen Tubekxonni haydading. U ketdi, Jo'jixonning oyog'iga bosh urdi, hurmat-e'tibor qozondi, mansab egasi bo'ldi. Biz u bilan dindosh do'stmiz. Albatta, Jo'jixonga so'ylar, jonimizni qutqarar.

— Safsata bu. Chingizxon Buxoroni olganida ikki yonida ikki musulmon sulton bor edi. Ammo na Buxoro qutuldi, na musulmonning qatli to'xtadi. Jo'ji Chingizxonning o'g'li, yonida bir-ikki

g'ofil musulmon bo'lsa nima bo'pti? Modomiki, dushmanning qabih niyati yo'lida bir qurolga aylangan ekanlar, musulmonchiligini ham qurol qilib qo'shqo'llab topshirgan ekanlar, ularning dushmandan farqi bormi?

Tafayyuzxon oyoqqa qalqdi.

— Nima deyapsan o'zi, Temur Malik? Ba'zi dindoshlarimiz mo'g'ullarga qo'shildi, deb nega og'ir so'zlar aytmoqdasan? Ular musulmon emasmi?

Temur Malik achchiq kuldi:

— Musulmonmi? Balki. Ammo bu nechuk musulmonkim, musulmonlarni yer yuzidan supurib tashlash rejasini tuzgan mo'g'ul majusiylari qo'lida bir qurolga aylansalar?! Hamda siz kabilarning yo'ldan ozishiga sabab bo'lsalar?! Chingizning yonida ikki musulmon sulton bo'lmasaydi, ehtimol, Buxoro omon qolgan bo'lardi. Qilingan qatli om uchun ular ham javobgar emasmi?!

— Ularning niyati xolis edi.

— Niyatlari xolis bo'lgan bo'lsa bordir. Yoxud ish boshida shunday bo'lgandir. Modomiki, niyatlari ro'yobga chiqmadi, nega yana Chingizga astoydil xizmat qilishda davom etdilar, nega u bilan jang qilgan musulmonlar safiga qo'shilmadilar? Qolaversa, niyati xolislikning o'zi yetarlimi? Peshonamga bir pashsha qo'ndi deylik. Pashshani o'ldirishdek xayrli niyat bilan peshonamga qarata o'q uzding. Pashshani o'ldirolmading-u, mening o'limimga sabab bo'lding. O'qing boshimni teshib o'tdi. Bu ish uchun sen javobgar bo'lmaysanmi? Bu qanday aql, qanday mantiq o'zi?

Javob topolmagan xon joyiga cho'kdi. Nimadir deb ming'illadi. So'ng safdoshlariga qaradi. Ular boshini quyi solib, sukut ila ma'qullayotganliklarini bildirdilar. So'ng baravariga o'rinlaridan turdilar.

— Siz bilan kelishishimiz amri mahol, — dedi Tafayyuzxon. — Birimiz bog'dan kelsak, birimiz tog'dan kelyapmiz. O'z bilganingizdan qolmang. Ammo bizga ijozat bering. Bola-chaqamiz bor. Ularni solga mindirib, xavf ostiga qo'yolmaymiz. Ketmak istasangiz oq yo'l, biz bo'lsak qal'ada qolamiz, Jo'jixonga taslim bo'lamiz. Buni xiyonatga yo'ymaysiz, deb umid qilamiz. Chunki hech

bir umid qolmadi. Go'daklar haqida o'ylashga majburmiz. Siz istaganingizcha ish tuting.

Temur Malikning labiga achchiq tabassum qalqdi. Xonadan chiqib ketgan xonlar orqasidan so'zlandi:

— Xiyonat demay, mayliga, ammo bu xatti-harakatga ta'rif bo'ladigan boshqa kalima ham yo'q...

Yolg'iz qolishdi. So'zsiz-sassiz, nigohlari bilan ular qo'rqoq xonlar qilmishiga la'nat o'qidilar. Birdan eshik ochilib, ichkariga shiddat bilan Boytu kirib keldi.

— Beklar, bu yerda suhbat qurib o'tiribsiz, nimalar bo'layotganidan xabaringiz bormi?

Hech kim lom-mim demadi.

— Tilingiz tomog'ingizga tiqildimi? Buzuqi xonlar xiyonat yo'liga kirdi. Askarlarini taslim bo'lishga ko'ndirdilar. Balki Jo'jixon tarafiga o'tishar. Bunga ko'z yumib qarab turaveramizmi?

Temur Malik Sariq Lag'o'tning ukasiga joy ko'rsatib:

— O'tir, Boytu,— dedi.— Xoinlarning tutumidan xabarimiz bor.

Esankiragan Boytu hayratdan dong qotib qoldi.

— Nima? Xabaringiz bor-u, mone bo'lishni istamaysiz, shundaymi?

— Kallasida xiyonatdan boshqa narsa bo'lmagan kishini yo'ldan qaytarib bo'larmidi? Jon vahmi Olloh qo'rqusidan ustun kelsa, ne ilojing bor? Borsin, bilganicha ish tutsin.

— Bilganicha ish tutsin-a?!

— Shunda biz ham bemalol harakat qilamiz. Ular qachon xiyonat qilarkan deb kutish ichimizga qo'rquv solgan edi. Boridan yo'g'i yaxshi ularning. Ne qilaylik? O'lim bosh ustida turibdi. Ajalning qo'li pinhon. Ajal chalg'isi ne zamon bo'yniga tushishini bilmaydi kishi. Yo Sayxun suvi suratida paydo bo'ladi, yoki Jo'ji suratida! Bir boshga bir o'lim. Bu o'lim o'lim emas, shahodat bo'lur, istamaysizmi?

Bir og'izdan javob berishdi:

— Kim ekan u istamaydigan?!

— Unday bo'lsa, orqamdan yuring. Qayiqlarga chiqib daryo yoqalab yo'l olamiz. Bu yerda yana uch kun qolsak, hammamiz g'arq bo'lamiz.

Tashqariga chiqdilar. Askarlarga vahima oralagan, biroq andisha yuzasidan indamay nima bo'lishini kutishayotgandi. Sarkardalarga yo'l berishdi. Temur Malik ularning o'rtasiga borib to'xtadi.

— Dindosh birodarlarim, — deya so'z boshladi u. — Jo'jixon shaytoniy reja tuzib, bizni qo'lga tushirish payida. Ikki yo'l bor. Yo dushmanga taslim bo'lamiz, yoki qayiqlarga minib daryo yoqalab suzamiz, qulay bir yerda qirg'oqqa chiqib, jang qilamiz. Birinchisi zillat, ikkinchisi izzat yo'lidir. Birinchi yo'lda asorat, ikkinchisida esa jasorat va shahodat bor. Qaysi birini tanlaysiz?

Askarlarning sasi qal'a uzra momaqaldiroq kabi gumburladi:

— Sen bilan birgamiz, Temur Malik! Ammo taslim bo'lishga qaror bersang, biz bormaymiz!

Temur Malik o'ziga yaqin turgan ikki askarni quchoqladi.

— Omon bo'ling, shovvozlar, — dedi u. — Asorat xoinlarning ishidir. Biz izzat bilan o'lishni tanlaganlardanmiz. Yegulik oling, ustingizdagi sovutlarni tashlang. Og'ir bo'lib ketmasin. Qilich va o'q-yoy yetarli. Har bir kishi mumkin qadar ko'p miqdorda o'q olsin.

Qisqa fursat ichida hozir-u nozir bo'ldilar. Qayiq va sollar suvga tashlandi. Har bir solga yuz kishi joylashdi. Suv qo'yniga kirdilar. Lablar qimirlab, "bismilloh" kalimasidan so'ng duolar o'qila boshlandi:

— Ey ulug' Olloh, marhamatingni darig' tutma!

Suv to'lqinlarida qayiqlarning soyasi o'ynadi, eshkaklar shaloplади, jang na'rasi quloqlarni qomatga keltirdi:

— Ollohu akbar, Ollohu akbar!

Notavon xonlar ularning orqasidan taraddud ichida qarab qoldilar.

Jo'jixon ahvolni tepadan turib kuzatayotgan edi. Askarlarning bir qismi qal'ada qolib, qolganlari suvga tushganiga tushuna olmadi. Birozdan so'ng qal'a ustida oq bayroq ko'tarilgach, hammasini angladi. Lablarida zohir bo'lgan shaytoniy tabassum butun yuziga yoyildi. Yarador bilagi tuzalgan Jebega yuzlandi:

— Qal'a taslim bo'layotir, Qurt Jebe, ko'rdingmi?

— Ha, ko'rdim, ammo shu sollar nedir?

O'n bir sol Sayxun uzra silkinib suzib borar edi. Jo'jixon buyruq berdi:

— To‘g‘on ustiga besh ming askar joylashtirilsin. Sohil bo‘ylari egallansin, sollarga olovli o‘q yog‘dirilsin. Bir miqdor askar narigi sohilga o‘tsin. Xorazmliklarning qayiq va sollari har ikki sohildan ta’qib ostiga olinsin!

Subutoy Bahodur vahshiyona tirjayib, yakka ko‘zini qisib qo‘ydi. Jo‘jixonning buyrug‘ini bajarish uchun ketdi. Biroq Qurt Jebe joyidan jilmadi.

Jo‘jixon achchiqlandi:

— Amrimni eshitmadingmi, Qurt Jebe?

— Eshitdim, Jo‘jixon.

— Nega ketmayapsan?

Jebe ko‘zini sollardan uzmas, jonidan kechgan Temur Malik haqida o‘ylar edi.

— Ketdim, Jo‘jixon.

Mushtini ko‘ksiga urib, Jo‘jixonni olqishladi, so‘ng navkarlarini olib, qirg‘oq yoqalab ot choptirib ketdi.

Jo‘jixon tepada uzoq qolmadi. Oylar bo‘yi taslim bo‘lmay jang qilgan Xo‘jand qal’asi uni kutayotgan edi. Zafar sharobini ichish vaqti kelgandi.

— Ming kishi men bilan yursin!

Bir vaqtlar son-sanoqsiz jasad qoldirib chekinishga majbur bo‘lgan so‘qmoqdan bamaylixotir yurib qal’aga bordi. Lang ochiq darvozadan takabburona bir g‘urur bilan hatladi.

Uni qipchoq xonlari kutib olishdi. Temur Malikka qarshi takabburona ko‘tarilgan boshlar Chingizning o‘g‘li oldida sajdaga urildi.

— Buyuk xon! Seni oramizda ko‘rish sharafidan naqadar baxtiyor ekanimizni so‘ylashga til ojiz. Temur Malik degan bir g‘o‘r odam bizni adashtirdi. Mo‘g‘ullar qotillar podasi, degan gaplar bilan bizni qo‘rqitdi, urushishga majbur etdi. Oxiri uni quvdik. Mana, endi qal’a seniki!

Jo‘jixon nim tabassum qildi, qisiq ko‘zlari bilan qipchoq xonlarini nazardan kechirdi.

— Faqat qal’a emas, hammangiz menikisiz, — deb to‘ng‘illadi u.

Xonlar bu gapni eshitib cho‘chib ketdilar. Bir-biriga qarashdi, ammo hammasi bir-biridan ko‘zini olib qochdi. Tafayyuzxon so‘radi:

— G‘afforxo‘ja yo Tubekxon qayerda? Ular kelmadimi?

Jo‘ji qamchisini azot ko‘tarib, xonning boshiga soldi.

— Savol so‘rash g‘olibning haqqidir, it emgan!

Askarlariga o‘girildi.

— Mo‘g‘ul arslonlari! Mana, bo‘ysunmas deyilgan Xo‘jand qal’asi o‘tkir qilichlarimiz oldida tiz cho‘kdi. Kuta-kuta horib-charchadingiz. Endi bittadan qipchoq xotini olib ayshingizni suring!

Askarlar sevinib baqirishdi:

— Lu! Lu! Lu!

Xotinlarga tajovuz qilish uchun uylarga tarqaldilar.

Xonlarning yuzlari oqardi. Tomirlarida pushaymonlik qoni selsel bo‘lib oqdi, miyalariga qon urdi.

Biri oldinga chiqdi.

— Yo‘q, bunday qilolmaysiz, — deb ming‘illadi u.

Jo‘jixon kinoya ila tirjaydi. Nafrat bilan tikilib, dedi:

— Nega, biron monelik bormi?

— Ollohdan qo‘rqing.

Jo‘jixon qilich yalang‘ochlab turgan soqchilaridan biriga imladi. Enli qilich quyosh nurida yaltiradi, so‘ng qip-qizil qonga bo‘yaldi.

— Ooooh!

— Xa... xa... xa!

Xonning faryodi Jo‘jixonning qahqahasi ostida ko‘milib ketdi. Askarlar ham xaxolashdi, yerga yotib kulishdi.

— Voh... voh... voh.. voh-ey...

Quvonchdan qashqirdek uvladilar:

— Lu! Lu! Lu!

Jo‘ji qo‘lini ko‘tarib, odamlarini tinchlantirdi.

— Quloq osing! Mag‘lublar yashashga noloyiqdir. Xotinlardan yoqtirganingizni tanlab oling. Yaroqli yeguliklarni qarorgohga elting. Boshqasini suvga tashlang.

Xonlar bo‘g‘iq ovoz-la faryod urdilar:

— Yo‘q! Yo‘q!

Ularning belida qilichlar hamon osig‘liq, ammo uni qinidan sug‘urib, urushishni xayoliga ham keltirmasdilar. Faqat bir-birining pinjiga tiqilib, baqirishardi:

— Marhamat eting, bizni suvga otmang!

Hech kim ularning iltijosini inobatga olmadi. Oh-faryodlar tosh yuraklarni yumshatmadi.

Tafayyuzxon umidsizlik bilan chor-atrofga alanglab, qutulish yo'lini axtardi. G'afforxo'janing qorasi ko'rinishi bilan ko'zlari porlab ketdi. U bir uyning eshigi oldida taxtaday qotganicha, namli ko'zlari bilan bo'lib o'tayotgan hodisalarga g'amgin ko'z tashlab turardi. Tafayyuzxonning so'loqmonday gavdasi uning oyoqlari ostiga yiqildi.

— Senga yo'q deyishmaydi, G'afforxo'ja. Jo'jixondan marhamat tila, shafoat qil! Biz dindosh birodarmiz-ku! Bir dasturxondan necha bor non-tuz yemadikmi? Yelkama-yelka turib namoz o'qimadikmi? Bir qumg'ondan suv ichmadikmi? Senga ishonib, Tubekxonga orqa qilib, taslim bo'ldik. Nega jim turibsan? Nomusimiz poymol bo'layotir. Izzatimiz oyoqosti bo'ldi, g'ayratimiz qamchi ostida so'ndi, imonimiz bunga qanday chidaydi?

G'afforxo'ja so'zsiz-sadosiz yig'lar edi. Tilka-pora bo'lgan yuragi Sayxun suviday toshgan, ko'z yoshlari selday quyilardi.

— Jo'jixonga sig'ingan kunimga la'nat bo'lsin, — deya ming'illadi u.

— Bizni qutqar, G'afforxo'ja!

— Hayhot! Men o'zimni qutqara ololmayman-u! Tomog'imgacha balchiqqa botdim. Uringan sarim battar oyog'imdan tortmoqda. Mo'g'ullarni musulmon qilaman deb xayol etgandim. Dinim bilan ularni quvvatlantirmoqchi edim. Mo'g'ullar turkman-u qipchoqlar, saljuqiylar bilan qardosh bo'ladi, deb o'ylagandim. Qo'lni qo'lga berib, islomni butun dunyoga yoyadilar, deb o'ylagandim.

Birdan jim qoldi. Bir to'da mo'g'ul shu tomonga ildam kelaverdi. G'afforxo'ja Tafayyuzxonga bema'no ko'z tashladi:

— Ikkovimizning ham gunohimiz katta, — dedi u. — La'nat bo'lsin bizga!

Tafayyuzxonning umidi chippakka chiqdi, chaqmoq urgandek bo'shashdi. O'rnidan turishga urindi. Lekin bir mo'g'ul qilichi undan tez chiqdi. Tafayyuzxon so'zini oxiriga ham yetkaza olmadi:

— La'nat bo'lsin bizga! Xomxayolga berilib, haqiqatdan ko'z yumgan, dushmanga istilo yo'lini ochgan biz....

Yelkasidan laxta-laxta qon oqdi, yuzi oqardi, o'roq tushgan jo'xoridek yiqildi.

— Biz... xato qildik... biz... biz... oqibatimizni o'zimiz hozirladik... Oh! Temur... Temur Malik!..

G'afforxo'ja qo'rqinchli manzarani ko'rmaslik uchun ko'zini yumib, boshqa tomonga yuz burdi. Ammo befoyda. Qayerga qaramasin xato g'ishtlaridan urilgan bir devor keldi ko'zi oldiga. Xatolaridan tiklangan katta devor....

Miyasiga qon tepdi. Ko'zlari olaydi. Yuzi o'zgardi. Xato devorini yiqish kerak, jilla qurmasa hayoti evaziga bo'lsa-da, bu devorni yorishi lozim. O'ladigan ho'kiz boltadan toymas deyishadi, endi nimani ham kutardi?

Tafayyuzxonni oyog'idan sudrab qirg'oqqa keltirishdi. U yerdan jasadini muzday suv qo'yniga otdilar. Suv ko'pirib, halqalandi, yuqoriga pufaklar chiqdi. Daryo jasadlarga to'lib ketdi. Suv qirmizi rangga kirdi. Qatli om davom etar, bolalarning faryodi, xotin-xalajning chinqirig'i marhamat tilab qilingan oh-faryodlarga qorishib ketdi. Mo'g'ullarning qahqaqasi olamni tutdi. Qo'rqinchli faryodlarni Sayxun suvga otilgan insonlar bilan qo'shib yutaverdi.

G'afforxo'janing ko'zi ochildi. Titradi. Falokat yuz berayotgan joyga bir qur ko'z tashladi. Ko'rguncha, yuragi uvushib, gurs-gurs urdi. Butun taraddudlari yo'q bo'ldi, ilk daf'a mantiq mushti bilan g'aflat pardasini urib yirtdi:

— Birodarlar, oyoqlaning! — deb baqirdi u. — Musulmonlar, ko'zingizni oching! Hali belingizda qilich bor, choping! Chop...

Bir mo'g'ul o'qi vizillab kelib ko'ksiga qadalgach, so'zlari tomog'iga tiqildi. Og'zi qonga to'ldi va qon aralash so'nggi ikki kalimani aytdi:

— Xato... qildik!

O'q otgan mo'g'ul xunuk qahqaha urdi:

— Kech qolding! — dedi u.

G'afforxo'janing da'vati beiz ketmadi. Askarlarning hushi joyiga keldi. Ular bellarida qilichi borligini eslab, shu on uni qinidan sug'urdilar. Ular oz qolgandilar. Biroq ular uchun endi, Temur Malik aytganidek, zillatli o'limni kutgandan ko'ra, izzatda o'lmoq so'nggi chora edi.

Jo'jixon vaziyatni darhol angladi. Avval boshdan ularni qurolsizlantirmay katta xato qilganini tushundi. Ammo endi kech edi. Urushishga to'g'ri keldi.

— Arslonlarim! — deya baqirdi u. — Hammasini qilichdan o'tkazing, xotinlari sizniki bo'lsin!

Mo'g'ullar bir lahzada saf tortdilar. Ular yaxshi ta'lim olgan bo'lib, birdaniga sarosimaga tushib qolmas, qo'mondonlarining buyrug'ini tez bajarar edilar.

Qipchoqlar bir soatcha qarshilik ko'rsatdilar. Oxiri hammasi qilichdan o'tkazildi.

Jasadlari Sayxunga tashlandi. Katta daryo qonga to'lib oqayotganini Jo'ji bir muddat zavq bilan kuzatdi.

— Mag'lublar qilmishiga yarasha jazo oldi! — deb g'udrandi u. Boshini osmonga ko'tarib, xitob qildi:

— Ko'ktangri, bizga zafar in'om etting. Men ham senga minglab dushmanni qurbon qildim, qarzim qolmadi!

Osmonda quyosh porlab turganiga qaramay, ko'k go'yo g'azabga kelganday, gumburladi. Jo'jixon qo'l qovushtirdi.

— Ulug' Ko'ktangri, nega g'azab qilyapsan? Bergan qurbonliklarim yetarli bo'lmasa, yana yangilarini beraman senga. Mannun bo'lmasang, yana yangilarini...

Xotin ovlashga chiqqan askarlariga yuzlandi:

— Mo'g'ul arslonlari! Xotinlardan o'zingizga yoqqanini olib, boshqasini daryoga oting. Tiriklay oting. Ko'ktangri yana qurbonlik istayotir...

Navkarlar katta zavq-u shavq ichida uylarga yugurdilar.

— Lu! Lu! Lu!

Qonga belangan daryo yuzida tilka-pora jasadlar qalashib suzib borardi. Tiriklay suvga otilganlarning iltijolari yuraklarni ezardi. Ammo sohilda turganlar toshyurak edi. Ular katta bir bayramni nishonlayotgandek shod-u xurram, yer tepinib baqirishar, na'ra tortib zavqlanishardi.

Bir qancha jasad Temur Malikning qayig'iga qadar yetib bordi. Ular jasadlarga dahshat ko'zi bilan boqdilar. Qo'rqoqlar shunday bir oqibatga munosib ekanligi hech kimning xayoliga ham kelmadi. Askarlarning lablari nafrat-la qimirladi:

— Inson qanday qilib bu vahshiylikni qilishi mumkin?!

Temur Malik hali jasadlarni ko'rmagandi. U sohil bo'ylab ot choptirib borayotgan mo'g'ul qismlarini kuzatayotgan edi. Shu orada daryoga ko'z tashlab, bir jasadni ko'rdi. Jasad suv yuzida qalqib, yana ko'mildi. Temur Malik uni taniganday bo'ldi. "Jo'jixonga la'nat bo'lsin!" deb so'zlandi u. Qo'liga ilgak oldi. Jasad takror suv yuziga chiqishi bilan ilgakni uning to'niga ildi.

— Yuqoriga oling! — dedi u odamlariga.

Jasadni qayiqqa tortib chiqardilar. Uning holini ko'rar-ko'rmas yuz o'girib, ingrab yubordilar.

— Dahshat!

Ko'rgan manzaralari tosh yuraklarni ham ezib yuboradigan darajada edi. Jasadning kallasi qilich zarbidan ikkiga bo'lingan, miyasining qatig'i chiqib yotardi. Boshdan kechirgan qo'rquv ta'siri ostida olaygan ko'zlari joyidan irg'ib chiqqan edi. Yuzi shishib ketgan. Shunga qaramay Temur Malik qipchoq xoni Tafayyuzxonni tanidi. Ko'zlari qipchoq yo'lboshchisiga qadalib qoldi.

— Yo Rabbiy! Mana, Tafayyuzxon oldimda yotibdi. Bu ne hol? Ajal oldida qo'rquv befoyda ekanini anglashga ham fursat topmadi bechora. Xato qildi. Mamlakatidan jonini afzal bildi. Islom izzatidan o'z iqbolini ko'proq o'yladi. Endi bo'lsa jonsiz... endi yoptolg'iz... — Qo'llarini ochdi:

— Sen kechirimlisan, Rabbim, gunohini afv et, yo Rabbiy!

— Omin, — dedilar. Ammo ovozlar so'nik, qalbdan chiqmayotganday edi.

Jo'jixonga taslim bo'lganlarni kechirmas edilar. Ammo Olloh o'zi istasa, kechiradi.

Temur Malik jasadga ishora qilib, dedi:

— Daryoga tashlang!

Buyruqni bajardilar. So'ng har bir kishi o'z vazifasini bajarishga kirishdi.

Oqim tobora shiddatlandi. Sollarni boshqarish qiyinlashib qoldi. Temur Malik qo'llarini og'ziga karnay qilib:

— Izzaddin! — deya qichqirdi.

Izzaddinbek orqadagi solda edi. Qo'mondonining ovozini eshitgach, o'rtaga chiqdi.

— Amringizga tayyorman, Temur Malik!

— Oqim tezlashdi, to'g'onga yaqin qoldi, shekilli, ne tadbir ko'rmoq kerak?

— Eng yaxshisi sohilga yaqinlashish kerak.

— Sohil mo'g'ulga to'la, ko'rmadingmi?

Izzaddin hamon javob bermadi. Bir qur o'ylab olgach, dedi:

— Nima ham derdim. Daryoda o'lim, qirg'oqda o'lim. O'limlarning birini tanlashga to'g'ri keladi. Albatta, eng munosibini.

— Chiqib, jang qilamiz deysanmi?

— Xuddi shunday! Sizningcha, boshqa bir yo'li bormi?

Temur Malik javob bermadi. Boshqa yo'l yo'q edi. Yo oqim bilan borib to'g'onni oshib o'tishga urinish va, ehtimol, parchalanib halok bo'lish, yoki sohilga chiqib, mo'g'ullar bilan jang qilish kerak. Uchinchi yo'l yo'q.

Amr qildi:

— Sohilga!

Sollarning boshi qirg'oq tomon burildi. Mo'g'ullar o'q otishdan voz kechgan, chunki bundan bir natija chiqmagan, bekorga aziyat chekayotgan edilar.

Ularga eng yaqin qismga Qurt Jebe boshchilik qilayotgandi. Temur Malik va askarlari sohil tomon suzdilar, biroq birdaniga yaqin bormadilar. Temur Malik yana amr qildi:

— O'q uzing!

Kamonchilar ishga kirishdilar. Yuzlarcha o'q mo'g'ul qismi ustiga yog'ildi. Merganlar bir otishda bir mo'g'ulni yer tishlatdi.

Qismlar orasida parokandalik boshlandi, saf buzildi. Sarosima shamoli to'fon kabi esdi. Temur Malik dushmanning shoshqaloqligidan foydalanib, askarlarini qirg'oqqa tushirishga ulgurdi.

— Olloh uchun olg'a-a-a-a!

Olloh ishqi bilan to'lib-toshganlar qilich yalang'ochlab, mo'g'ul suvoriylariga hujum qildilar.

— Olloh!.. Olloh!.. Olloh!..

Mo'g'ullar bu aql bovar qilmaydigan hujumdan esankirab qoldilar. Ularga Qurt Jebedan boshqa birov boshliq bo'lganida, ehtimol, to'zg'ib ketishardi. Ammo Qurt Jebe no'yon bu holatlarni ko'raverib pishib ketganlardan edi.

— To'planing! — deb baqirdi u. So'ng mo'g'ullarning jang na'rasini tortdi:

— Lu! Lu! Lu!

— Bosing, mo'g'ul arslonlari, bosing!

Temur Malikning sasi Jebening tovushini bosib ketdi:

— O'ldiring, islom mujohidlari! G'oziylarim, o'ldiring!

— Olloh! Olloh! Olloh!

Dahshatli jang boshlandi. Qurt Jebening navkarlari ko'p, hammasi otliq. Ustiga sovut kiygan.

Mo'g'ullarning parokandaligi dastlab Temur Malikka qo'l keldi, ammo sarosima uzoq hukm surmadi. Dushman to'planib olgach, xorazmliklar katta talafot bera boshladilar. Ammo qochish hech kimning xayoliga ham kelmadi. Temur Malik sollarga tomon chekinish to'g'risida amr bermoqchi ham bo'ldi, ammo askarlari bu amrga itoat qilmasliklari, balki buning natijasida to'zg'ib ketishi mumkinligini o'ylab, bu fikridan voz kechdi. Buning ustiga daryo tarafdan ham o'lim nafasi ufurib turardi.

Jebe no'yon jangga kirmay, bir tepaning ustida turib navkarlarini ruhlantirib turardi. Ayni zamonda jang maydoniga tikilib zo'r berib bir kishini axtarar edi. Ko'zi unga tushgan zamon yuzi yorishdi. Biroq qaragan sari yuzidan tabassum o'chib, lablarining chetiga ikki chuqur chiziq tushdi, yig'lamoqdan beri bo'ldi.

— Shu yigitning halok bo'lishi juda yomon, — deya so'zlandi u.

Shu ko'yi u Temur Malikdan ko'z uzolmadi. Hayhot, bu qanday jasorat, bu qanday jur'at! Temur Malik o'ngga ham, so'lga ham qilich solar, o'limning yuziga tik boqib, eng xatarli joyga o'zini urar, ammo hayratlanarlisi shuki, har gal sog'-omon chiqardi. Yuragiga qo'rquv oralagan mo'g'ullar u bilan yuzma-yuz bo'lishga botinolmasdilar.

Qo'lidagi qilich mo'g'ul navkarlarining boshi uzra yashin kabi o'ynamoqda edi.

Jebe Temur Malikdan bir hayot qarzi borligini unutmagandi. U tabiatan birovga qarzdor bo'lib qolishni xush ko'rmaydigan odam edi.

Jebe qarzini to'lashga qaror berib, qichqirdi:

— Hoy, Temur Malik!

Temur Malik tovush chiqqan tomonga ko'z qirini tashlashi bilan Jebeni ko'rdi. Xuddi shunchaki suhbat qilayotgandek hayajonsiz va quruqqina bir tovushda:

— Sen ham shu yerdamisan, Qurt Jebe? — dedi.

— Shu yerdaman, Temur Malik. Bu tomonga kel.

— Nega o'zing kelmayotirsan? Ko'rmayapsanmi, otim yo'q.

Shundagina Qurt Jebening esiga tushdi. Temur Malik bir ot topsa, ehtimol, qutulib ketarmidi. Shu tomonga ot soldi.

— Ha, keldingmi, Jebe no'yon? Bu har holda so'nggi jangimiz bo'lsa kerak, ajal nafasini sezyapman.

— Sen o'lmasliging kerak, Temur Malik.

Temur Malik kulimsiradi.

— O'laman, ammo seni ham orqamdan olib ketishni xohlayman, har holda bugun qo'lingda qiliching bor.

Jebe no'yon bosh chayqadi.

— Sendan bir hayot qarzim bor. Senga otimni beray, qochib qutul, hech kim quvmaydi.

Temur Malikning nigohi Qurt Jebeni nayzaday teshib o'tdi.

— Meni haqorat qilayotganingni bilmadingmi, Jebe no'yon?

— Nega endi?

— Qo'mondonga jangdan qochishni taklif etmoqning boshqa bir ma'nosi bormi, seningcha?

— Biroq bu yerda o'lim mutlaqo tayin.

— Sen o'lim degan narsa men uchun shahodatdir, bu barcha musulmonlar orziqib kutadigan abadiy hayotning boshidir.

Qurt Jebe masalani tushundi. Temur Malikni yo'lidan qaytarish mumkin emasdi. Illo, u o'limga azm-u qaror bergan edi. Ammo Jebe bunga yo'l qo'ymasligi lozim.

— Temur Malik, — dedi u. — Qarzdor bo'lib yashashni xohlamayman. Menga hayotimni bag'ishlagan eding. Endi men ham qarzimni uzaman. Yo'ling ochiq bo'lsin.

Otini navkarlarining orasiga surib, baqirdi:

— Mo'g'ul arslonlari, orqaga chekining!

Mo'g'ullar to'xtadilar. Bu amr jonlariga ora kirdi. Xorazmliklar ozchilik, biroq o'limga qat'iy azm-u qaror bergan kishilar bilan urushmoq oson emasdi. Mo'g'ullar chekindi.

Jebe no'yon ikkinchi amrini berdi:

— Tez orqaga qayting! Yangidan to'planib, hujum qilamiz.

Ular tez uzoqlashdi.

— Bu ne hol bo'ldi, Temur Malik? Bu qochishning ma'nosini anglamadim.

So'zlagan Izzaddinbek edi. U bir qo'lini yarador yelkasiga bosgancha mo'g'ul otlari ko'targan chang-to'zon bulutiga qarab turardi.

— Men angladim, — dedi Temur Malik horg'in. — Qurt Jebe qarzini to'ladi. Yigitchasiga ish tutdi.

Chang-to'zon tomon qo'l silkib, Qurt Jebeni olqishlab qo'ydi.

— Afsus, yog'iyning mardligi oldida ezildim.

Izzaddinbek haliyam hech narsa tushunmagan edi.

— Qaysi yog'iyning mardligi? Mo'g'ullarda mardlik bormi?

Temur Malik atrofni ko'zdan kechirdi. O'ldirilgan mo'g'ul askarlarining egasiz otlari yaylovga tarqalayotgan edi.

— Hay mayliga, — dedi u. — Shu otlarni tutaylik.

Darhol qo'zg'aldilar. Pastak mo'g'ul otlarini tutib keltirdilar. Uch yuz yigit otga mindi. Yuz kishi piyoda qoldi. To'rt yuz kishi shahid bo'lgan edi.

— Piyodalar otliqlarga mingashsin, ot charchasa almashtirilsin. Shunda ancha tez harakat qilish imkoniga ega bo'lamiz.

Shunday qilishdi. Ildam-ildam yurib, jang maydonini tark etdilar.

* * *

Moviy Abiskun dengizi o'rtasidagi Xayrsiz orol qora dog'ni eslatardi. Xalq tomonidan unga shunday nom berilgandi. Avvaldan bu orolga moxovlar eltib tashlanar edi. Endi esa bu yer Xorazm sultoni Alouddin Muhammadga boshpana bo'ldi.

G'uj-g'uj o'sgan daraxtlar qora rangga bo'yalgan uylarni ko'zdan pana qilib turardi. Alouddin Muhammad, hatto, bu yerda ham qo'rquv iskanjasidan qutulolmagan edi. Mo'g'ullar ko'ziga tashlanmaslik uchun uylarni o'rmon ichiga qurdirib, qoraga bo'yatgandi.

Xayrsiz orol uning so'nggi bekati. Xayrga to'liq bir umr tolesizlik natijasida baxtsizlikka aylangan so'nggi xayrsiz nuqta! Buni

o'ziga o'zi e'tirof etishdan ham qo'rqardi sulton. Ammo aslida Alouddin Muhammad bir afsonadan qo'rqib qochgan edi. Onasi Turkon Xotunning vahimasi, qo'rqoq xonlarning qo'rqitishi natijasida yuragiga qo'rquv oralab, yurtini, qo'shinini tashlab qochdi, puch xayollardan umidvor bo'ldi. Iroqqa ketmoqchi bo'ldi. U yerlar o'g'li G'iyosiddinning qo'li ostida edi. Yangidan askar to'plamoqchi, yangidan kuchli bir tashkilot qurmoqchi va orqaga qaytib, pakana ot minganlar bilan hisoblashib qo'ymoqchi edi.

Boshqalar singari o'zi ham buning xomxayol ekanini angladi. Qo'lidagi askarni jangga boshlay olmagan, oyoqda turgan kuchli saltanatini himoya qila olmagan sultonning takror askar to'plab, takror tashkilot qurgulik holi bormidi?

Koshkiydi, koshki o'z vaqtida o'g'li Jaloliddinning so'zlarini inobatga olgan, Temur Malikka quloq bergan, sodiq sarkardalariga ishongan bo'lsaydi, bu ahvolga tushmagan bo'lardi. Balki yurtini boy bergan, balki hayotdan ko'z yumgan bo'lur, ammo hech bo'lmasa izzatda yashab, izzati bilan o'lgan bu sultonni tarix o'z sahifalarida e'zoz-la tilga olgan bo'lurdi. Endi-chi?

Har kuni bir falokat xabari kelib ko'ngilni vayron etardi. Yo bir qal'a qo'ldan ketgani, yoki bir shaharga o't qo'yilgani, yoxud bir viloyatning ishg'ol etilib, yag'molangani to'g'risidagi xabarlarni eshitib qultum-qultum zahar yutgandek bo'laverdi.

Qayg'u-alam ichini yondirar, ko'zlaridan taassuf yoshlari oqar edi. Endi u bir mamlakatning podshohi emas, Xayrsiz oroling hokimi. Bir yil ilgari kimdir shunday bo'ladi, desa, ehtimol, so'zlovchini aqldan ozgan deb o'ylagan, unga jazo bermasa-da, qah-qah otib kulgan bo'lar edi. Endi kulgu qayoqda? Ko'pdan beri u tabassum nimaligini unutgan edi.

Har kuni ichini parmalagan, yuragini tegirmon toshi kabi ezgan falokatlarga dosh berolmadi. Kelgan har bir falokat xabari xanjar kabi jigarini tildi. Bora-bora yara maddaladi, kattardi. Og'zidan laxta-laxta qon qusdi. To'shakka mixlandi. Kuni bitganini sezdi. Ajal nafasi shundoq yonida ufurib turardi. Ajabo, xatosini tuzatmoq uchun qo'lidan bir ish kelmaydimi?

To'shakda necha kunlab mixlanib yotar ekan, bu haqda ko'p o'yladi. Oxirida eng katta xatolaridan birini tuzatish imkoni bor-

ligiga qanoat hosil qildi. Onasining zo'ri bilan Jaloliddinni valiahdlikdan tushirib, kichik o'g'li O'zloqshohni tayinlagan edi. Vafot etsa o'rniga O'zloqshoh taxtga chiqardi. Go'yo bunga munosib bo'lgandek. Yo'q, aslo. Jaloliddinning qo'lidan ko'p ish keladi. Agar monelik qilmaganida u Chingizning pakana otliqlari bilan olishgan, balki zafarlar qozongan bo'lardi.

Ha, ha, qilishi lozim bo'lgan bir ish bor. O'zloqshohni valiahdlikdan tushirishi, o'zi ham chekinib, o'rnini Jaloliddinga bo'shatib berishi darkor. Xorazm mamlakatining tarqalib ketgan qo'shinini faqat Jaloliddingina to'play olishi mumkin. Balki birlikni takror ta'minlay olar, balki Xorazmni yangidan oyoqqa turg'iza bilar. Hech bo'lmasa mamlakatning bir qismini....

Ruhi ajal changaliga tushmasdan ilgari harakat qilishi lozim. Ertaga kech bo'lishi mumkin. Zo'rg'a qad ko'tardi, og'zini poylab turgan xizmatkoriga:

— Kotibimni chaqir, — dedi.

U amrni eshitib, tashqariga ildam chiqib ketdi. Sulton yolg'iz qoldi. Anchagacha shipga tikilib yotdi. Saroydagi xovgohi esiga tushdi. O'sha vaqt bilan hozirgi ahvolini muqoyasa qildi.

— Qismat, — dedi u hazinlik bilan. — Ammo o'z qismatimga millatimni sherik qildim, oqibat gunohim ko'paydi. Endi birgina umid qoldi. Jaloliddinni sulton etib ko'taraman. Uning davlatimni mo'g'ul balosidan qutqara oladigan qobiliyati va jasorati bor. Hech qachon mo'g'ullardan qo'rqmadi u. Qachondan beri olishmoq fursatini poylaydi. Nega unga mone bo'ldim?! Nega o'zimni ham, millatimni ham ko'ra-bila turib otashga tashladim? Jaloliddin bu otashni so'ndira olar balki... balki so'ndira olar...

Ikki tomchi yosh soqoliga oqib tushdi.

— Qasam ichaman, agar Jaloliddin mo'g'ul majusiylarini mag'lub etsa va menga takror hukmdorlik nasib bo'lsa, mamlakatimda faqat adolat va yaxshilik hukm surajakdir.

Xizmatkor kotib bilan yotoqxonaga kirdi. Sulton Muhammad kotibni imlab yoniga chaqirdi.

— Qalam-qog'oz ol, kotib, bir farmon yozdirmoqchiman.

Kotib qog'oz-qalam oldi.

— Tayyorman, sultonim.

— Yoz. Bizkim, Xorazm mamlakatining sultoni Alouddin Muhammad...

Farmonni yozdirdi, ostiga muhr bosdi.

— O'g'illarimni bu yerga chaqiring, ularga aytadigan gaplarim bor. Bundan tashqari, orolda bo'lgan barcha sarkardalarim ham kelsin.

Barcha bemor sulton yotog'ida to'plandi. Sulton qo'li bilan ishorat bergach, o'g'illari Jaloliddin, O'zloqshoh va Oqshoh otasining oldida tiz cho'kib, galma-gal qo'lini o'pdilar.

Sulton Muhammad o'g'illariga bir-bir boqdi. So'ng beklariga nazar tashladi. Keyin kotibiga yuzlandi:

— Farmonni o'qi, kotib!

Kotib ovozini goh pasaytirib, goh ko'tarib o'qiy boshladi:

— Bizkim, Xorazm mamlakatining sultoni Alouddin Muhammad, o'g'limiz Jaloliddin Manguberdini Xorazmga sulton va qo'shinlarimizga bosh qo'mondon etib tayinlaymiz. Boshqa o'g'illarimiz O'zloq, G'iyosiddin va Oqshohlar Jaloliddinga mutlaq itoat etib, tobe bo'lishlarini buyuramiz.

Kotib farmonni uzoq o'qidi. Xonaga sukunat cho'kdi. Safning eng oxirida turgan Sariq Lag'o't ortiq chiday olmadi, Jaloliddinni quchoqladi, so'ng oldida tiz cho'kdi.

— O'lgunimcha boshim sizga sadaqa, sultonim! — dedi u.

— Sog' bo'l, Lag'o't.

So'ng u otasiga yuzlandi.

— Menga og'ir bir vazifa yukladingiz, sulton padarim. Olloh haqqi qasam ichib aytamanki, tomirimda qatra qon qolguncha din dushmanlari bilan urushaman va islom adolatidan qilcha ham ayrilmayman. Mo'g'ul podalari butun mamlakatni istilo etgan bir pallada bu yukni olganim uchun uning naqadar jiddiy ekanini bilaman, saltanat otashli bir ko'ylak ekanini idrok etaman. Ollohning izni bilan bu ishni uddalashimga ishonaman. Hozircha faqat ismi qolgan Xorazm qo'shinlarining bosh qo'mondoni sifatida umrim boricha dushmanga qarshi kurashaman. Xorazmliklar yuragida intiqom mash'alasini yoqishga harakat qilaman, atrofimga jasur qo'mondonlar va askarlarni to'playman.

Sulton Muhammad O'zloqshoh bilan Oqshohning o'zaro ko'z urishtirganini ko'rib qoldi. Ularning nigohidan mamnun emasliklarini sezdi.

— O'g'illarim, — dedi u. — Jaloliddinga bir umr sodiq bo'lishlaringiz haqida Olloh nomiga qasam ichingiz.

Ular qasamyod etdilar, Jaloliddin oldida tiz cho'kib, bay'at marosimini bajo keltirdilar. Jaloliddin ukalarini quchdi.

— Siz yonimda ekansiz, illo, bir emas, ming Chingiz menga chikora, — dedi u.

Alouddin Muhammad zumrad va yoqut toshlar bilan jilo berilgan qilichini o'z qo'li bilan Jaloliddinning beliga bog'ladi.

— Jaloliddin, — dedi u. — Bu qilich otamdan meros qolgan, biroq men unga munosib bo'lolmadim, inshoolloh, sen munosib bo'larsan.

Alouddin Muhammadning o'pkasi to'lib, ko'zlaridan marjon-marjon yosh oqdi. Yuragini bo'shatib olishi kerak edi. So'ng titroq bir tovush-la:

— Ketishingiz mumkin, — dedi. — Dam olishga muhtojman.

Yotoqdan chiqdilar. Jaloliddin Sariq Lag'o't bilan yonma-yon ketib borar, ko'zlari namli edi. Goho ko'zlari chaqnab, umid uchqunlari porlardi. U Sariq Lag'o'tning qo'lidan tortdi.

— Kel, birodarim, sen-la biroz suhbatlashaylik.

Jaloliddinning uyiga yo'l olishdi. Kichkina Qutbiddin eshik oldida qilichbozlik mashqi bilan mashg'ul edi. Otasini ko'rishi bilan chopqilladi. Jiddiy turib, qilichini oldinga uzatdi.

— Otajon, — dedi u. — Qilich chopishni o'rganib oldim, endi urusha olaman. Nega endi dushman ustiga yurmayapmiz?

Jaloliddin o'g'lining boshini siladi.

— Yurishga yaqin qoldi, o'g'lim, yaqin. Sen tayyorlanaver.

So'ng yonidagi askarga ishora qildi.

— Sariq Lag'o'tni taniysanmi? Xo'janddan keldi. Yakka o'zi xavf-xatardan kechib, menga Temur Malikdan maktub keltirdi. Sen ham uning kabi jasur va o'ktam bo'l.

Qutbiddin Sariq Lag'o'tga hayrat-la boqdi.

— Ismi g'alati ekan, — dedi.— Jasoratingga qoyil qoldim.

Ichkariga kirishdi. O'tirar-o'tirmas Jaloliddin Temur Malikdan so'z ochdi.

— Ularning ahvoli ne kechdi ekan?

Sariq Lag'o't ma'yuslanib o'tirdi.

— Bilmadim, sultonim. Temur Malik ne qilganini koshki bilsaydim. Men ketganda bir o't ichida qolgan edi. Yondimi yoki ko'nglidagi otash bilan uni o'chirdimi? Mo'g'ullar tashqaridan tazyiq qilgani yetmaganday, ichkarida ba'zi qo'rqoq xonlar fasod qozoni ostiga olov tashlayotgan edilar. Uni shu ahvolda tashlab yo'lga chiqishga majbur bo'ldim. Ammo inonamanki, Temur Malik ne ishga azm etsa uddalaydi. Yaqinda ko'rishib qolishimizni his qilyapman.

— Inshoolloh!

Sariq Lag'o't gapni boshqa yoqqa burdi.

— Padaringizning qarori nihoyatda to'g'ri bo'ldi, sultonim. Xuddi ichimizni ko'rgandek va unga muvofiq ish tutgandek, yaxshi qildi.

Jaloliddin o'ychan edi.

— Yaxshi bo'ldi deyapsanmi, Sariq Lag'o't? O'zloq va Oqshohlarning ma'nodor ko'z urishtirishlari menga yoqmadi. Valiahdlikdan tushirilgani O'zloq ukamizga og'ir botdi, chamamda. Unday bo'lsa, bir vaqtlar valiahdlikdan tushirilganimizda biz hech qanday taraddudga tushmagan edik!

— Insonning insondan farqi bor, sultonim, albatta, shahzodalar ham inson, tug'ilishdanoq farqli bo'lishi tabiiy.

— Shunday degin, bilasan, vaziyat ixtilofni ko'tarmaydi. Bir-birimiz bilan talashadigan bo'lsak, qo'limizda qolgan so'nggi shaharlarni ham himoya etolmaymiz. Chingiz oldida oftob tig'ida qolgan bir parcha qor kabi erib yo'q bo'lamiz.

— Olloh saqlasin!

— Ha, Olloh saqlasin! Ammo nega saqlasin? Ollohdan qo'rqmay, Olloh amrini bajarmay, jon qayg'usida Abiskun orolida tiriklay yerga kirgan bo'lsak. Biz haq dinni himoya etmadik, vazifamizni bajarmadik. Olloh buyuk, yana o'zi istasa, bizni saqlar. Unga sig'inib, harakatga o'tamiz.

Eshik taqillashi bilan jim qoldi. Bir askar ichkariga kirdi.

— Sultonim, otangiz birdan og'irlashdi. Sizni ko'rishni istayapti.

Jaloliddin shu zahoti eshik tomon ildam yurdi.

— Ketdik, Sariq Lag'o't!

Daraxtlar orasidagi uzun ilang-bilang so'qmoqdan yugurib ketishdi. Sulton Muhammadning yotog'iga kirib borishdi. Aloud-din Muhammadning yuzi mum kabi sarg'aygan edi. Go'yo yuzidan qoni qochib, terining o'zi qolganday. Diqqat bilan qaralsa bu shaffof teri ostidagi suyaklarni ko'rish mumkin bo'lardi. Jaloliddin to'shakka yaqin kelib, otasining o'ng qo'lini tutdi.

— Sultonim!

Sulton Muhammad ko'zlarini bazo'r ochib, o'g'liga boqdi. Hazin tabassum qilgan lablariga qon yugurganday bo'ldi. Qoshlarini og'ir ko'tarib, dedi:

— Jalol!

— Amringizga muntazirman, otajon!

— O'zloqshoh va Oqshoh ukalaring qayerda, nega kelishmadi?

Jaloliddin to'shakning oyoq uchida qaqqayib turgan ukalariga bir nazar tashladi-da, dedi:

— Ular shu yerda, sultonim!

— Yonimga kelishsin.

Uch og'a-ini bemor otaning bosh uchida tiz cho'kdi. Sulton Alouddin Muhammad o'g'illarining qo'llarini paypaslab topdi, so'ng har uchalasining qo'llarini birlashtirdi. Bazo'r shivirlab:

— Doimo xuddi shunday bir bo'lingiz, — dedi. — Birlashib mo'g'ullarni vatanimizdan uloqtiringiz!

Chuqur nafas oldi. Ko'zlarini ohista yumdi.

— Biz shahodatdan qochgan edik, ammo mana, o'lim yetib keldi. Buning ustiga oddiy bir o'lim. Qo'rquv bilan ajaldan qochib bo'lmas ekan, ketyapmiz. Manzilga borar vaqt keldi.

Bir karra chuqur nafas oldi-da, ancha vaqt jim qoldi. Yana so'z boshladi, endi kalimalar uzuq-yuluq chiqa boshladi:

— Jalol... ukalaringni o'g'ling kabi ehtiyotla... Ularni ranjitma... Siz ham Jaloliddinga mutlaqo itoatda bo'ling... Ahvolimni... ko'rib turibsiz. Ajal... yoqamdan oldi... endi qutulish yo'q... shahodat nasib bo'lmadi... Shahodat... Shahodat... Shahodat!..

Yuzi tortishdi, oq soqoli titradi. Ko'zini yirib ochdi. Dahshat to'la nigoh-la uch og'a-iniga qarab turdi. Biroq ularni ko'rmagani aniq edi. Balki u o'g'illarining yuzida iztirobga to'la o'tmishning

falokatli kunlarini tomosha qildi. Sultonning kipriklari yumildi, lablari bazo'r qimirladi. Ketma-ket uch karra chuqur nafas oldi. So'nggi nafasida juda betoqat bo'lib shivirladi. Xato va savob ishlar bilan o'tgan butun umrini bir so'z bilan xotimaladi:

— Olloh!

Uch aka-uka bir vaqtda faryod urdi:

— Otajon!

Ostonada turgan bir nechta qo'mondon qichqirdi:

— Sultonim!

Imom namli ko'zlari bilan jasadga boqdi.

— Kulli nafsin zaiqatul-mavt.

Sulton Alouddin Muhammad jon taslim qilgan edi.

Sariq Lag'o't bir chekkaga o'tdi. U ham yig'lar, ham bir vaqtlar Dali Darvesh aytgan o'lim haqidagi misralarni takrorlar edi:

O'lim na boy tanir, na faqirni,
Na do'stni bilar, na dushmanni,
Na sulton-u, na bekni...
Uning-chun har kim teng-u, barobar.
Qora tuproq ishtiyoq-la gado-yu shohni kutar,
Sog'inch ila quchoqlar, hasrat ila yutar.

Faryod urdi:

— Sulton Alouddin Muhammad o'ldi, evoh!

Biroz jim qolib, o'z-o'zidan so'radi:

— Orqasida ne qoldi?

Ichi achishib javob berdi:

— Ishg'ol etilgan, kultepaga aylangan, vayrona bir vatan qoldi...

* * *

Temur Malik askarlari bilan ot qichab ketib borar, har ne qilib bo'lsa-da, tezroq Gurganchga yetib olish uchun g'ayrat qilar edi. Mo'g'ul navkarlari har tarafni mo'r-malaxday bosib ketgandi. Ular hech kutmagan joyda paydo bo'lib, hujumga o'tar edilar.

Temur Malik uch marta ularning hujumiga duch keldi, har safar sherlarcha olishdi. Qornidan va sonidan yarador bo'ldi. Biroq u yiqilmadi, qo'rqmadi, umidsizlikka ham tushmadi. Bosqin va yo'l

azobi natijasida ancha qurbon berishdi. Gurganch yaqinidagi bir vohaga tikilgan turkman chodirlariga duch kelgan vaqtda qavatida faqat yuz kishi qolgan edi. Ularning ko'pi yarador bo'lib, ot ustida bazo'r turishardi.

Chodirlarga yaqin borishdi. Hayhot! Bu yer uzoqdan ko'ringani kabi obod emasdi. Har taraf talon etilgan. Boshsiz jasadlarni oralab bir tirik jon qidirdilar. Nihoyat vayrona bir chodir oldida savat to'qib o'tirgan keksa turkmanni topdilar. Temur Malik salom berdi.

Mo'ysafid bosh ko'tarib, ularga hayrat-la boqdi. Aftoda bir ahvoldagi askarlarni ko'rdi. Oyoqqa turdi.

— Vaalaykum assalom, o'g'lim. Muborak tilingdan Ollohning salomini eshitib, boshim osmonga yetdi. Kelinglar. Borimni siz bilan baham ko'rish men uchun bir saodatdir.

Temur Malikka yaralari azob berayotgandi. Izzaddinbekning yordamida otdan tushdi. Oqsoqlana-oqsoqlana keksa turkmanning yoniga bordi.

— Qo'lingizni bering, ey otaxon, o'pay, yaxshi gaplar aytdingiz!

Mo'ysafid burushgan qo'lini cho'zdi. Temur Malik o'pdi.

— Baxtli bo'l, o'g'lim, qo'l o'pganing ko'p bo'lsin, Olloh uzun va xayrli umr bersin. Askarlaringning ahvoli chatoq. Bu ne hol?

Temur Malik mo'ysafidning yoniga cho'kdi. Askarlariga dam olishni, bir-birining yarasini bog'lashni buyurdi. So'ng mo'ysafidga yuzlandi.

— Olloh zilzila yaratgan, to'fon yaratgan, sel yaratgan hamda ularga o'xshash mo'g'ullarni ham yaratgan. Xuddi to'fon kabi, zilzila kabi... Ro'baro' keldik. Odamlarim jon-jahdi bilan urushdi. Soppa-sog' ming yigitimdan ko'rib turganingiz shu yuz cho'loq qoldi. Boshqalari Olloh huzuriga ketdilar, shahodatga erishdilar. Tanamdagi yaralarimga yana ikkita qo'shildi. Daftarimga yana ikki savob yozuvi tushganidan mamnunman.

So'ng Temur Malik maydonni kuzatdi.

— Ismingiz nima? Nima bo'ldi o'zi, boshsiz jasadlar buncha qat-qat? O'ldirilgan onalar, bir oylik chaqaloqlari qo'ynida? Oqsoqollar oq soqolidan dorga tortilgan. Ne bo'ldi? Chingiz to'foni bu yerga ham keldimi?

Mo'ysafid ko'zlariga yosh olib, Temur Malikka tikildi.

— Ha, keldi, — dedi u. — Nega kelmasin? Dushman yo'lini to'sishi kerak bo'lgan Sulton jon qayg'usida Abiskun dengizidagi bir orolga qochdi. O'g'illarini ham olib ketdi. Mudofaasiz qoldik. Chingizning odamlari bu yerni yag'moladilar. To'fonday yopirildilar, otib-chopib o'tdilar. O'tgan joyini mana shu ahvolga tushirdilar. Menga tegmadilar. Iztirob chekib o'lsin, deb o'yladilar, shekilli, o'ldirmadilar. O'ldiring deb yolvordim, o'zimni otlarining oyog'i ostiga tashladim. Ismim Pir Ziyovuddin. Ko'rganingdek, qamishdan savat to'qib, Gurganchga olib borib sotaman. Tushgan pulga u-bu yegulik olaman. Hozir esa shu hidlangan jasadlarni ko'mgulik mador yo'q menda. Mayli. Bularni ko'rib g'azabim to'lib-toshdi. Mo'g'ullarga har daqiqa la'nat o'qiyman.

— Ey, Pir Ziyovuddin degan otaxon! Gurganch bu yerga yaqinmi?

— Yaqin. Yarim chaqirim yo'l. Huv ana u tepaning orqasida. Tepalikni barmog'i bilan ko'rsatdi.

— Ana shu tepaning naryog'ida.

Temur Malik o'sha tomonga boqdi. Shu payt tepaliklar ustida chang-to'zon ko'tarildi.

— Yaxshilikka bo'lsin, inshoolloh, — dedi u ichida. Oyoqqa turdi. Qo'llarini peshonasiga soyabon qilib o'sha tomonga tikildi.

— Yana mo'g'ullarmi, ajabo! Illo, bu gal mutlaqo shahodat istayman! Shahodat istayman! Ammo har holda bunday bo'lmaydigan ko'rinadi. Yurtim ko'kini qoplagan qorong'u bulutlarni yorib bir nur kelayotir. Mo'g'ullarning mash'um urush na'rasi eshitilmayotir. Bu kelishda go'yo bir shafqat-u muruvvat bor. Bir muloyimlik, bir ishonch bor!

O'ziga o'zi kulib qo'ydi.

— Ne ajab ish?! Chang bulutidan ma'no axtaraman! Dali Darvesh shunday qilardi. Bir nuqta ichidan ming ma'no chiqararди. Avliyo edi. Omonmi ekan, ajabo? Buxoroda sog'-omon qolgan bormikan o'zi? Olim-u fozillarning hikmati ne kechdi? Mo'g'ul qilichi bo'yinlariga qonli chambar taqdi. Shahodat nishoni. Nega men bu nishonga musharraf bo'lolmadim? Janobi Haq nega menga shahodat ehson etmadi? Demak, hali qiladigan ishimiz bor. Oldda

nimalar bo'lishini qayerdan ham bilardik. Shunday ekan, Bilguvchiga taslim bo'lmoq kerak.

Tobora yaqinlashayotgan chang-to'zon nihoyat bosildi. Kelayotganlar to'xtagan bo'lsa kerak. Ehtimol, chodirlarni ko'rishgach, jangga tayyorlanishayotgandir? Har ehtimolga qarshi odamlarini shay etmog'i kerak. Temur Malik chodirlar tomon o'girilib:

— G'oziylar! — deb qichqirdi.

Izzaddinbek javob berdi:

— Biz shu yerdamiz, Temur Malik!

— Birov kelayotir, Izzaddin.

Izzaddin chodirdan chiqdi. Temur Malik ko'rsatgan tomonga boqdi.

— Kim ekan bular?

— Bilmadim, ammo ichimda bir his ularning do'st ekanligini so'zlamoqda. Balki yog'iydir. Sog' qolgan askarlarni to'pla. Shahid bo'lmoq istaganlar safga tursin!

Izzaddinbek chodirdagilarga xabar berdi. Hatto turishga majoli yo'q yarador askarlar ham oyoqqa qalqdilar, qilichlariga suyanib, tashqariga chiqdilar. Chodirlarda hech kim qolmadi.

Temur Malik askarlariga razm soldi. So'lg'in yuzlarga, yorilib ketgan dudoqlarga, qonga bo'yalgan yaralarga boqdi.

"Mana, yuz musulmon yigit o'limga hozirlandi, — o'yladi u ichida. — Oyoqda turishga darmoni yo'q, ammo o'lmoq uchun o'rnidan turdilar. Binobarin, Xorazm qo'shini hali oyoq ustida, deb hisoblasak bo'ladi. Xorazmliklarning jasorati so'nmadi. Faqat ularga qo'mondon kerak. Sulton Muhammad bosh bo'lsaydi, Xorazm bu holga tushmagan bo'lurdi!

— Otlaning! — deya buyurdi u. O'zi ham otiga zo'rg'a mindi. Og'ir yaradorlar piyoda qolishdi. Qilichlar qinidan sug'urildi. Qisilgan ko'zlar bir nuqtaga qadaldi. Lablar ayni bir duoni pichirladi:

— Yo Rab! Bilagimga yana bir qancha kofirni o'ldirgudek quvvat ber.

Temur Malik kiprik qoqmay kuzatishda davom etdi.

— Izzaddin, bular mo'g'ulga o'xshamayotir!

— Men ham shu fikrdaman, Temur Malik.

— Unda kim bo'ldiykan?

— Birozdan keyin ko'ramiz.

Va ko'rdilar. Yo'q, mo'g'ul emasdi ular! Jaloliddin Abiskun dengizidan olib chiqqan va yurgan sari ko'paygan qo'shinning ilg'ori edi bu.

Yarador yuz arslonning yuzi sevinchdan yorishdi.

— Biznikilar! Biznikilar!

Temur Malik otini oldinga choptirdi. Izzaddin ham uning orqasidan ot qo'ydi.

Ilg'or qism boshida ot choptirib kelayotgan Sariq Lag'o't Temur Malikni tanidi. Otini shiddat bilan qamchiladi.

— Temur Malik! Hoy, Temur Malik!

Temur Malik ovoz egasini tanidi.

— Ollohim, senga ming shukur va hamdlar bo'lsin, — deya shivirladi u, so'ng baland tovushda qichqirdi:

— Lag'o'-o'-o'-t!

Yuzma-yuz bo'lishdi. Temur Malik yaralarining azobiga dosh berib, otdan sakrab tushdi.

— Birodarim!

— Ustam, valine'matim!

Qattiq quchoqlashdilar.

Sariq Lag'o't mujda berdi:

— Temur Malik, hozirga qadar nuqul yomon xabar tashidim. Xorazmni tiriltiradigan mujdalarning birinchisini ham mendan eshit. Jaloliddin Xorazmshoh sifatida qo'shin boshiga chiqdi va o'zi ham shu yerda!

Temur Malik o'zini yo'qotdi. Bu go'zal xabarni eshitib yuragi shig' etib ketdi. Ko'zlari porladi.

— Rostdanmi, Lag'o't?

— Rost, rost, botirim.

Temur Malik tiz cho'kib, qo'llarini ochdi.

— Ollohim, senga shukurlar bo'lsin. Buyuklarning buyugi, o'n sakkiz ming olamning yaratuvchisi, qudratingga, hikmatingga zarracha shubhamiz yo'q. Nima ish qilsang, go'zal qilguvchisan, ne yaratsang, xush yaratguvchisan...

Ovozini pasaytirib, uzundan uzoq duo o'qidi. Faqat dudoqlari qimirladi. Ko'zlaridan shashqator yosh oqdi. Oqqan yosh yonoq-

larida uzun iz qoldirib, quruq yerga tomchiladi. So'ng u o'rnidan turdi.

— Meni Jaloliddinning yoniga olib bor, Lag'o't, eng avvalo, uni ko'rmoq istayman.

G'oyat tahlikali vaziyatlarda ham o'zini yo'qotmagan Temur Malikni bu ahvolda ko'rgan Izzaddinbek bilan Lag'o't bir-biriga qarashdi. Bu bahodir qanchadan qancha azob-uqubatga ko'krak kerib, dosh bergandi, endi esa bir mujdaga chiday olmay ko'z yoshi to'kmoqda.

Otlandilar. Yaqinlashganlari on Jaloliddinni ko'rdilar.

Jaloliddin qo'shin boshida zafar tug'i kabi tim-tik turardi. Kelayotganlar orasida Temur Malikni darhol tanidi va o'sha tomonga ot qo'ydi. Arg'umoq kishnab, o'q kabi otilib borardi.

— Temu-u-ur!

— Sultonim, Jaloliddinim, birodarim!

Ular sulton va unga tobe sarkarda emas, balki ko'pdan ko'rishmagan og'a-inilardek quchoqlashdilar.

Har ikkovi ham ko'zlariga inonmas, Temur Malik bu tushimi-o'ngimi, hali anglab yetmagan edi. Birdan uyg'onib, o'zini mo'g'ul otliqlarining o'rtasida ko'radigandek tuyulardi unga.

— O'ngimmi bu, sultonim? Haqiqatan siz sulton Jaloliddinmisiz?

— Albatta, Temur Malik. Yaxshilab qara, men jigaring Jalolidin emasmanmi? Yo tanimaydigan darajada o'zgarib ketibmanmi? Balki o'zgargandirman. Katta-katta qo'shinlarni tashlab, sarobdan, taqdirdan qochmoq — insonni qaritmaydimi? Bundan ko'ra o'lganim yaxshi edi. Har holda hali ko'radiganimiz bor, shekilli. Sulton padarimiz so'nggi manzilga ketdi. Olloh gunohlarini kechirsin. Endi olovli ko'ylakni biz kiydik. Sen ham bu ko'ylakni kiyasan, Temur Malik. Bu mashaqqatni birga tortamiz. Ismi bor-u o'zi yo'q Xorazm qo'shinini takror to'playmiz, birlikni yangidan ta'min qilamiz.

Temur Malik yerga o'tirdi.

— To'xtang, — dedi u. — Nafasimni rostlab olay. Menga havo yetishmayapti. Ha. Birga mo'g'ul ustiga yurish qilamiz. O'tmishdan ibrat olamiz, xatolarni ortiq takrorlamaymiz!

Temur Malik tizzalab o'tirdi.

— Sultonim! Sodiq qulingiz o'laroq qasam ichamanki, o'l degan yeringizda o'laman, qol degan yeringizda qolaman. Amringizga muntazirman, xizmatingizga hozirman. Tomirimda qatra qon qolgunga, jasadim sovigunga qadar...

Takror quchoqlashdilar. Sulton Jaloliddin Izzaddinbekni ham bag'riga bosdi.

— Ko'raylik, — dedi u. — Hammangizdan sadoqat kutaman.

Mo'g'ullar o'ldirgan begunoh turkmanlarni dafn etdilar. Keksa turkmanni yonlariga olib, Gurganchga kirdilar. Xorazm poytaxti hali dushman qo'liga o'tmagan edi. Jaloliddin bu yerda bir muddat qolib, parokanda bo'lib ketgan qo'shinni yangidan to'plab, so'ng mo'g'ullar ustiga yurish qilmoqchi edi.

Xorazm davlatining qayta tirilishi shu tariqa birlikda boshlandi.

UCHINCHI BO'LIM

— Demak, o'g'li qo'mondon bo'libdi-da, — deya tishini g'ijirlatdi Chingizxon. — Uni ham ezaman. Yaqin kunlar ichida. Musulmonlarning hammasini ezaman. Ularni Ko'ktangriga ishontiraman, qulga aylantiraman, tamom. Oyog'imga bosh urajaklar. Jaloliddin ham.

— Ko'p askar to'plaganmish, — deya ming'illadi sarkarda O'gedey no'yon.

Chingizxon qurbaqaga tikilgan ilon kabi o'qraydi.

— Qancha to'plardi? U yerda xorazmlik qoldimi? Ko'pini Jayxun yutdi, bir qismi Buxoroda o't ichida qolib, boshqalari Samarqandning chuquriga yiqilib o'ldi. Jaloliddin to'plasa faqat qaroqchilar to'dasini to'playdi, xolos. Bu qaroqchilarga ta'lim berib, odam qiloladimi-yo'qmi?!

Ko'ksini mushtladi.

— Muntazam qo'shini bilan menga qarshi chiqa olmadilar-ku, qolgan-qutgan lashkarlariga yo'l bo'lsin. So'yla, O'gedey, qarshi chiqishlari mumkinmi?

— Otasiga hech o'xshamaydi deydilar, buyuk xoqon. Gurganchga kelib, askar yig'ishga kirishibdi. Guruh-guruh bo'lib kelib qo'shilishayotganmish. Bundan qo'rqqulik.

Chingizxon oyoqqa turdi, qo'lini orqaga oldi. Sariq chodirning ichida bir necha bor u yoqdan bu yoqqa borib keldi, so'ng to'xtadi.

— Tayyor bo'lmoq kerak, — dedi u. — Jaloliddin haqiqatan ham otasiga o'xshamaydi.

Tashqarida shovqin ko'tarildi, baqir-chaqir avjiga chiqdi. Chingiz jim qoldi. So'ng chodirdan chiqdi. Uning oldiga holdan toygan bir sipohiyni suyab keltirdilar. Sipohiy ingrab, yerga yiqildi.

— Ulug' xoqon, ulug' xoqon! Falokat!

— Nima gap? Usti-boshing, qosh-ko'zingni qum bosgan. Bu ahvolingning sababi nedur?

— Falokat ostonamizda, buyuk xoqon! Ko'ktangrining o'zi hammamizni omon saqlasin.

Chingizxonning ichiga qo'rquv oraladi, tishlari g'ijirladi. Bir necha mo'ydan iborat soqolini tortqiladi.

— Bu odamni chodirimga opkiring, — dedi u to'ng'illab.

Mo'g'ul sipohiyni ichkariga olib kirishdi. Chingizxon uning ro'parasiga o'tdi.

— So'zla.

Sipohiy bir nafasda ichini bo'shatdi:

— Oziq to'la o'g'rug'imizni taladilar, odamlarimizni o'ldirdilar.

— Nima?! Kim bunga jur'at qildi? Chinliklarmi, saljuqiylarmi, xalifa Nosirmi, kim?

— Hech qaysisi, buyuk xoqon.

Chingizning qo'li xanjariga yugurdi.

— Tez so'yla, ahmoq!

— Jaloliddin Xorazmshoh!

— Hoy! Sen nima deyayotganingni bilasanmi o'zi? Kechagina hukmdor bo'ldi, bugun urushadigan holi bormi uning? Tush ko'rgansan, shekilli.

— Qasam ichaman, so'zlarimda yolg'on yo'q. Huzuringizda kim bunga jur'at qila oladi? Jaloliddin edi u. Bir to'da ko'zi qonga to'lgan odamlari bilan ustimizga bostirib keldi. Bu yerga oziq,

yegulik keltirayotgandik. Bizni yashin tezligida, balki undan ham shiddatli ravishda qirdi.

Chingiz lablarini tishladi.

— Qo'mondoningiz kim edi?

— Men, — deya ingradi u. — Qo'mondon men edim.

— Ustingda nishonlaring yo'q, oddiy navkar kabi kiyinib olgansan, nega?

— Haligi, buyuk xoqon. Oddiy navkar kabi... Haligi uchun...

— Tanimasliklari uchunmi?

— Ha, ha! Tanimasliklari uchun.

— Bemalol juftak rostlash uchunmi-a?

Chingiz ko'zidan o't sochdi, sipohiy kuyib ketgandek bo'ldi.

— Yo'q! — deya baqirdi u. — Qochishni xayolimga ham keltirganim yo'q.

— Unday bo'lsa o'g'ruq qani? Askarlarimning yeguligini oldirding. Omonatga xiyonat qilding.

O'g'ruq qism qo'mondoni ma'yus edi. Chingizxonning afv etmasligini bilardi. Yuziga o'lim nafas ufurganini sezib, birdan tilga keldi:

— Buyuk xoqon, biz ozchilik edik. Har holda juda oz emasdig-u, hujumga duch kelamiz, deb o'ylamagandik. Biz Xorazmni o'zimizniki deb o'ylardik. Mash'alalar so'ngan yerdan yana uchqun chiqishini kim bilibdi deysiz. G'ofil qoldik. Yuz navkarim o'ldi. Qolganlari jon qayg'usida o'rmon ichiga qochdi. Bir to'da xorazmlikning ichida yolg'iz qoldim. Arslon kabi olishdim. Lekin bu gal ularning omadi chopdi.

Chingizxon sipohiyga zaharxanda nazar tashlab turardi. Sipohiyning rangi oqarib, lablari titray boshladi. Tushunib bo'lmaydigan bir nechta so'z ming'illadi. Chingiz istehzoga to'la bir tovushda so'radi:

— Demak, bir to'da xorazmlik bilan yolg'iz o'zing arslonlarcha olishding. Shundaymi, e balli!

— Ont ichaman!

Chingizning yuziga shaytoniy tabassum yugurdi.

— Ont ichma, buning keragi yo'q, faqat badaningda qolgan bitta-yarimta qilich yarasini ko'rsat, ishonay.

— Yarami? Haligi, yara. Ulug' xoqon...

— Ya'ni? Xorazmliklarning katta bir qismi o'rtasida yolg'iz qilich chopishgan yigitimning biron joyiga qilich tegmadi de?

— Ulug' xoqon!

— Xo'sh?

— Ulug' xoqon, men...

Duduqlandi, shamolda qolgan terak bargi singari boshdan oyoq butun vujudi titrashga tushdi. U ado bo'lgan edi.

Chingizxon uni boshqa so'zlatmadi. Bir sakrab yoqasidan oldi. Qo'llari uning bo'ynini bor kuchi bilan siqib bo'g'a boshladi.

— Yolg'onchi! Olchoq, hiylagar! Menga yolg'on so'zlashga jur'at etdingmi hali! Navkarlar emas, eng avvalo, sen qochganing aniq. Yigirma ming kishining bir oylik yeguligini hali yuziga tuk chiqmagan Xorazmshoh Jaloliddinga oldirding. Endi seni... Endi seni...

Toliqquniga qadar bo'g'di. Sipohiy siltalandi, qutulish uchun o'zini har yonga otdi. Ammo uning bu harakatlari Chingizni yanada g'azablantirdi. Chingiz hali baquvvat edi. Qo'llari ombur kabi siqdi, sipohiy xirilladi.

— Ha, xirilla, o'g'rivachcha! Endi qocholmaysan.

Bo'g'di... bo'g'di... bo'g'di...

Bo'yin tomirlaridagi titroqlar to'xtaguncha bo'g'di. So'ng panjasini bo'shatdi, qo'lini uning bo'g'zidan oldi. Sipohiy bo'sh qop kabi gup etib yiqildi. Chingiz murdani bir tepdi.

Chingiz dahshat ichida sariq chodirning oxiriga qadar tislangan O'gedeyga qonli ko'zlarini tikdi. So'ng jasadga ishora qilib, dedi:

— Olib chiq, bu murdorni! So'ngra borib qo'mondonlarni chaqir, chodirimda to'planishsin. Hammangiz bilan gaplashmoqchiman.

O'gedey no'yon tashqariga olib chiqish uchun jasadni quchoqlamoqchi bo'lgandi, Chingiz to'xtatdi.

— Yo'q, — dedi u. — Oyog'idan sudrab olib chiq. Bir askarga ber, otining quyrug'iga bog'lab, suyaklari tilka-pora bo'lguncha sudrasin. Tadbirsizlikning natijasi qanday bo'lishini barcha ko'rib qo'ysin.

O‘gedey no‘yon jasadni sudrab olib chiqdi. Duch kelgan navkarga murdani berib, aybini tushuntirdi. Suyaklari tilka-po-ra bo‘lib bitguniga qadar sudratishni qayta-qayta tayinladi. So‘ng qo‘mondonlarga Chingizxonning amrini yetkazdi. Hamma sariq chodirda to‘plandi.

— Hozirgina shu yerda bir itni yer tishlatdim, — deya gap boshladi Chingizxon. — O‘g‘ruq qismimizni Jaloliddin odamlari-ga yo‘q qildirgan bir itni yer tishlatdim. Qo‘rqoq ko‘ppak! Buning ustiga huzurimda yolg‘on so‘zlashga jur’at etdi.

Qo‘mondonlar so‘zga tushdilar.

— Bu Jaloliddin qayerdan chiqdi o‘zi?

— Otasiga o‘xshamaydi deydilar.

— Nihoyatda botir emish.

— Ustiga ustak yaxshi qo‘mondon ham emish.

— Yurtini qutqarish uchun Qur’onga qo‘l qo‘yib ont ichganmish.

— Qur’on degani nima?

— Musulmonlarning kitobi.

— Demak, shu kitobga qo‘l qo‘yib qasam ichibdi-da.

— Ha, shunday. Ukalari ham uni qo‘llayotganmish.

Shov-shuv Chingizxonning g‘ashini keltirdi. O‘zi bor joyda qo‘mondonlarining bu tarzda asossiz, bo‘lar-bo‘lmas fikr yuritishi-ni hurmatsizlikka yo‘ydi.

Qo‘lidagi qadahni og‘ziga keltirib, bir necha qultum sharob yutdi, so‘ng yerga otdi. Qadah jaranglab sindi. Uchgan shisha sini-g‘i Subutoy Bahodurning ko‘r ko‘ziga tegdi. Subutoy Jo‘jining farmoyishiga muvofiq bu yerga kelib, Xo‘jandning olingani, o‘t qo‘yilgani haqida Chingizxonga xabar bergan edi. U shisha sinig‘i o‘ziga to‘g‘ri kelganidan shoshib qoldi, ammo churq etmadi. Hay-rat-la Chingizxonga boqdi.

— Jim bo‘ling! — deya baqirdi Chingizxon.

Bo‘g‘iq tovush chodirni boshga ko‘targanday bo‘ldi. Barcha unga qaradi.

— Amringizga shaymiz, buyuk xoqon.

— Xotinlar kabi muncha vaysadilaring. Navkar oz so‘zlar, oz so‘zlasa-da soz so‘zlar. Nimani qoyillatdinglar?! Men bo‘lmasam hech biring bor bo‘lmasding. Buni bilmaysanlarmi?

Hammasi barobar bosh egib, javob berdilar:

— Bilamiz, ulug‘ xoqon. Bizni odam qilgan sizsiz.

— Eshiting. Xotinlaringning shirin so‘zini eshitmoq uchun qulog‘ingiz doim ding, meni ham diqqat bilan tinglang endi. Xo-razmliklarning o‘lim faryodini shu quloqlaringiz bilan tinglamoq istasangiz, hozir yaxshi eshitib oling.

— Qulog‘imiz sizda, ulug‘ xoqon!

— Jaloliddinni bilasizmi?

— Bilamiz, buyuk xoqon, qarshimizga chiqishga yuragi betla-may orqasiga qaramay qochgan, tog‘ yo‘llarida, suvsiz sahrolarda qo‘shinini sob etgan Xorazm sultoni Alouddin Muhammadning o‘g‘li u.

Chingizxonning qisiq ko‘zlari yanada qisildi. Qo‘llarini paxsa qildi.

— Ha o‘sha, — dedi u. — Otasi va butun Xorazm yerlari uchun o‘ch olish niyatida jang maydoniga ot qo‘ymoqqa havas qilibdir.

— Yanchib tashlaymiz!

— Senmi so‘zlagan, O‘gedey no‘yon?

— So‘zlagan men, ulug‘ xoqon.

— Unday bo‘lsa, qanday qilib yanchishingni so‘zla.

O‘gedey oldinga boqib jim qoldi. Valdirashga valdirab yubor-di-yu, javobga kelganda esa hozirligi bo‘lmagani uchun churq etol-may qoldi. Yaxshisi, ishni Chingizxonning o‘ziga oshirish kerak.

— Ulug‘ xoqonimiz eng yaxshi yo‘lni hammamizdan ham yax-shiroq biladilar.

Qo‘mondonlar ma’qulladilar.

— Shak-shubhasiz shunday!

Chingizxon salqi mo‘ylovini o‘ynatdi.

— Siz Jaloliddinni bilmas ekansiz.

O‘tirganlar bir-biriga baqraydilar.

— Jaloliddin Xorazm yurtida bir afsonaviy qahramon. Bayroq ko‘targan zahoti tumonat odam uning yoniga chopishi turgan gap. Otasi tarqatib yuborgan qo‘shinni zum o‘tmay to‘plar. Ehtimol, to‘plagandir ham.

— Xorazmlik qolgani yo‘g‘-u, ulug‘ xoqon?

Chingiz gap tashlagan Alpag‘u tomon o‘girildi.

— Men ham shunday deb o'ylagan edim. Xo'sh, unday bo'lsa, o'g'ruq qismimizni alvasti bosdimi?

Bu savolga hech kim javob bermadi. Chingizxon davom etdi:

— Xorazmliklar bor, albatta. Jaloliddin ularni to'play olsa, bizga qarshi chiqadigan bir kuchga aylanadi. Binobarin, biz bu yerda vaqtni boy bermasligimiz kerak. Avvaliga boy yerlarni bosib-yanchib o'tib, qonini ichmog'imiz lozim. Orqamizdan yillarcha afsonalar so'zlasinlar, shu bizga yetadi. Bir zamonlar Chingizxonning pakana ot mingan navkarlari bu yerlarni kuydirib kulini ko'kka sovurdi, vabo singari odamlarning yostig'ini quritdi desalar, bas, bizga shu kifoya. Nomimiz shu tariqa jahonga yoyilsin. Arab ellariga, Saljuq diyoriga, Dashti Qipchoq tomonlarga bostirib boraylik, ularni ham tiz cho'ktiraylik. Biroq Jaloliddin bizga xalaqit bersa...

— Qo'lidan kelmaydi.

— Qayerdan bildingiz? O'g'limiz Jo'ji Xo'jand qal'asida yaxshi tashkil etilgan mudofaaga duch keldi-ku, oylarcha ololmadi-ku! Qal'a ichidagi Xorazm askaridan balki o'n karra ko'proq mo'g'ul o'ldi. Temur Malik degan bir xorazmlik qo'mondon qat-qat saflarimizni yorib chiqdi ketdi. Jaloliddin u kabi o'n qo'mondon topsa bormi... Qipchoqlar, turkmanlar, qoraxitoylarni to'plasa... Yana saljuq sultonidan yordam ololsa bormi...

Taxtining qo'ltiqlarini jon-jahdi bilan siqdi.

— Qora tatarlar uchun falokat qo'ng'irog'i zang urdimi? Yo'limizning usti tikanga to'ldimi? So'ylang, nelar kelar boshimizga?

Chingizxonni hech qachon bunday sarosimada ko'rmagan sarkardalar bir-biriga hayron tikilishdi, bir narsalar deb ming'illashdi. Ajabo, Chingiz qo'rqdimi?

Chodirga pashsha uchsa bilinar darajada sukunat cho'kdi. Go'yo sariq chodirga gung-soqovlar yig'ilgan edi. Sukunatni tashqaridan eshitilgan qadam tovushlari tog'dan ko'chgan tosh kabi buzdi. Barcha chodir eshigiga yuzlandi. Eshikdan bir sipohiy kirdi.

— Ulug' xoqon, bir asir keltirishdi.

Chingiz shu zahoti oyoqqa qalqdi.

— Kimlardan?

— Xorazmliklardan.

— Ichkariga olib kiring.

Asirni olib kirishdi. Uzun bo'yli, keng yelkali yosh yigit. Uzun mo'ylovi quloqlariga tutashib ketgan. Qo'llari orqasiga bog'langan. Ko'mirdek qop-qora ko'zlari teshib tashlagudek porlardi.

— Kimsan? — so'radi Chingizxon.

Asir javob bermadi.

O'gedey oyoqqa turdi. Asirga yaqinlashdi, so'ng Chingizxonga yuzlandi.

— Tilingizni bilmaydi, ulug' xoqon, — dedi. — Ruxsat bering, tarjimon topaylik.

— Chinlik Tu Yen Suni keltiring. U barcha tilda birday sayraydi. Onasining qornidayoq o'rgangan kabi so'zlay oladi.

Xitoylikni keltirishdi. Pakana, mug'ambir odam edi.

— Xizmatga hozirman, ulug' xoqon.

— Xizmatda bo'lgan muddat ichida yashaysan. Mana shu yerda tur-da, bu odamning so'zlarini tarjima et.

— Bosh ustiga.

— So'ra undan, kim ekan?

Xitoylik asirga yuzlandi

— Kim ekanligingni so'rayapti.

Asir ko'krak kerdi.

— Xorazmlik ekanligimni so'yla. Yaqinda mo'g'ullarga qiron keltirishimizni ilova etishni ham unutma.

Xitoy so'zning ikkinchi qismini tarjima qilmadi.

— Xorazmlik ekanligini aytdi, — dedi u Chingizga.

— Uzun gapirdi-ku. Xorazmliklar tilida bu qadar ko'p so'z shunchalik qisqa ma'no anglatadimi?

Xitoy cho'chib ketdi. Chingizxon nimadir maxfiy qolganini darhol sezgan edi.

— Menga qara, chinlik, — deb o'kirdi u. — So'zma-so'z tarjima qil. Boshing gavdangga og'irlik qilayotgan bo'lsa boshqa gap.

Xitoylik qo'rqdi, kalovlandi, so'ng duduqlandi:

— Haligi, ulug' xoqon, aytyaptiki, yaqinda mo'g'ullarga qiron kelarmish.

Chingizxon asirga yeb qo'yguday tikildi. Asir ko'zini olib qochmadi. Xoqon uning jasoratiga qoyil qoldi. Joni halqumiga keldi.

— So'ra-chi, qaysi urug'ga mansub ekan?

— Urug‘-murug‘ degan gapni bilmayman, hammamizning dinimiz ham bir, tilimiz ham bir. Urug‘ degani muhim emas. Muhimi — Jaloliddin saltanati ostida bunday farqlarni unutishga ont ichdik.

Chingiz uzoq o‘ylab qoldi. Darhaqiqat, milliy-irqiy tafovutlar unutilib, diniy birlik qaror topgan bo‘lsa, musulmonlarning kuragini yerga tegizish mushkul. Mushkul u yoqda tursin, balki hatto imkonsiz ham.

— Qayoqqa borayotgan ekan?

Xitoy asirdan so‘radi va javobni tarjima qildi.

— Aytdiki, mo‘g‘ullar shoqol singari sahroga in qo‘yganmish, daraxt kavagiga yashirinib, birdan ustiga tashlanib asir olganmish. Agar qilichini qinidan sug‘urish uchun fursat topganida hammasini oyog‘ining ostiga olgan bo‘larmish.

Chingiz to‘ng‘illadi:

— Men undan qayoqqa ketayotganini so‘radim.

— Saljuq sultoni huzuriga ketayotgan ekan.

— Nima uchun?

Asir kuldi, so‘ng xitoylik tarjimonga dedi:

— Xoqonga so‘yla, bekorga zahmat chekmasin. Saljuq sultoniga men kabi yigirma elchi ketdi. Biri bo‘lmasa biri allaqachon manzilga yetib olgan. Sultonimiz Jaloliddinning majusiylarga qarshi birlashish to‘g‘risidagi da’vati balki shu onda saljuq sultoniga yetib borgandir.

Chingizxonning sap-sariq basharasiga qon tepdi. Ingichka, uzun barmog‘ini eshikka nuqidi.

— Olib boring, bu haddini bilmaganni zindonga oting, to‘ng‘iz qo‘psin!

Ikki kishi yigitning qo‘llaridan tortib sudrashga urindi. Biroq uni hatto qimirlata olmadilar, go‘yo yigit yerga ildiz otgandek edi.

— Endi gal bizniki, — dedi yosh asir. — Ey chinlik keksa, unga so‘yla, endi bo‘ynini islom qilichidan qutqara olmaydi.

Chingizxon shaxt bilan orqasiga qayrildi.

— Nima deyayotir?

Xitoylik yana duduqlana boshladi.

— Haligi, xoqonimiz...

— Nima dedi, tarjima qil, it!

Xitoy tarjima etgach, Chingizxonning afti bujmaydi, bo‘yni ustida po‘latning sovuq damini his etdi.

— Tez! — dedi u. — Tezda kallasini oling. Hoziroq, eshikning oldida. Jon vahmida oh urganini eshitishni xohlayman.

Yana ikki kishi yordamga keldi, itara-itara asirni tashqariga chiqardilar. Barchasi asirning o‘lim faryodini eshitish maqsadida qulog‘ini ding etdi. Biroq asir g‘iq etmadi. Chingizning kutgani bo‘lmadi, yosh yigit faryod qilmadi. Ko‘p o‘tmay chodir eshigiga osig‘liq atlas parda ko‘tarilib, yigitning kesilgan boshi uzatildi. Tomirlaridan hali sharillab qon oqardi. Ko‘zlari hamon jonli, hatto o‘lim bu ko‘zlardagi imon nurini so‘ndira olmagan edi.

Mo‘g‘ul xoni cho‘chib, tislandi.

— Opketing, — dedi u. — Opketing bu yerdan.

Atlas parda titrab pastga tushdi.

Yana jim qolishdi. Sukut, sukut...

Nihoyat Chingizxon dedi:

— Hamma gapni o‘zlaring eshitdilaring. Jaloliddin hozirlanmoqda. Hozircha u, aftidan, katta qo‘shinning bir qismini to‘pladi. Harakatni kengaytirish uchun g‘ayrat qilmoqda. U birlashish to‘g‘risidagi taklifni faqat saljuq sultoniga yuborib chek-lanmagan bo‘lsa kerak. Har holda xalifa Nosirga ham murojaat etar. Hatto bizga tobe qal’a beklarini ham oyoqlantirishga urinishi tayin. Bu yigit aqlli ekani ma’lum bo‘ldi. Qo‘lga tushish ehtimolini o‘ylab birdaniga yigirmata elchi yuborgan. Shunday qilib xabari istagan yerga borib yetishini ta’minlaydi. To‘g‘risi, u ayyor ekan.

Qo‘lini silkidi.

— Ammo menchalik emas. Boshiga shunday bir og‘riqlar solayki!

Beo‘xshov tirjaygan yalpoq basharasiga istehzoli tabassum yugurdi, boshini saraklatgancha, chodir ichida asabiy kezdi. Nihoyat, Alpag‘u no‘yon oldida to‘xtadi.

— So‘yla-chi, Alpag‘u, sen nima qilmoq kerak deb o‘ylaysan?

Alpag‘u hurmat uchun cho‘kkaladi.

— Xoqonim biladilar, — deb javob qildi u.

— Sen ne deysan, Qo‘rg‘on Bahodur?

U ham ayni so'zlarni takrorladi:

— Xoqonim biladilar.

Chingiz aftini burishtirdi. Uni madh etishdan boshqasini bilmaydigan bu ruhi tushovli qullarga ichida la'nat yog'dirdi.

— Hamma narsani qachongacha men aytishim kerak? — deya o'kirdi u. — Meni ulug'lashdan boshqa narsa bilmaysanlarmi?

Dong qotib qolishdi. Ba'zilarining lablari qimirladi, ammo hech kim churq etmadi.

Chingizxon xitoy Tu Yen Suga yuzlandi:

— Sen gapir, chinlik. Ko'raylik-chi, Jaloliddinni yo'ldan uradigan bir taklif aytarmikansan?

— Xoqonimga ayon bo'ldi, - deya ta'zim qildi xitoy. — Bir fikr bor.

Yaqinlashdi.

— Balki xoqonimning fikrini angladim. Musulmonlar orasiga nifoq solish kerak. Bir-biri bilan yoqa bo'g'ishsin. Shu yo'l bilan islom davlatlari birlashishining oldini olish mumkin.

— Qanday qilib?

— Lak-lak oltindan ta'sirliroq bir yo'lni aytay. Qipchoqlar orasiga josus yuboraylik. O'zlari hukumat qursa, yordam berishimizni aytaylik. Din birligini irq ayriligi bilan yo'q etaylik. Har bir qipchoq xoni ayri-ayri qal'alarga sulton bo'lsin. Biz istagan tarzda bo'linganlari zahoti bitta-bittadan hujum qilib, ularni yog'liq luqma kabi yutaveramiz.

Chingizxon qoyil qolib baqirdi.

— Yashavor, Tu Yen Su!

Xitoy yana yer o'pdi.

— Xizmatingizga hozirman, ulug' xoqon.

Chingizxon soqolini tortqilab anchagacha o'y surdi. Bu chinlik rosa aqlli-da. Agar bu aql Chingizni ag'darish uchun ishlatilsa bormi, toza falokat bo'lurdi. Qaror berdi. Orqasida qilich yalang'ochlab turgan jallodga ishora qildi. Jallod qilichini yashin tezligida soldi. Tu Yen Suning boshi qo'mondonlarning oyog'i ostiga dumalab bordi. Ular dahshat ichida qotib qolishdi. Yuraklari o'ynab, butun vujudlarini qo'rquv qamradi, titroq bosdi.

Xitoyning boshsiz jasadi yon tomonga ag'darildi. Qip-qizil bo'yin tomirlari anchagacha irg'ib-irg'ib turdi. So'ng tana harakatdan to'xtadi. Jasaddan oqqan qon irmoqdek cho'zilib, bir ko'zli Subutoyning oyog'iga borib yetdi. Subutoy etigiga qon tegmasligi uchun boshqa joyga o'tib o'tirdi. Yakka ko'zini baqraytirib Chingizga qaradi.

— Ko'p aqlli edi, — dedi.

Chingizxon jasadni tashqariga olib chiqishlari uchun ishora qildi. Murda olib chiqilguncha jim turdi, so'ng qo'mondonlarning oldida qaqqaydi.

— Ha, shunday, Tu Yen Su haqiqatan ham kallasi ishlaydigan odam edi. Bizga ham ko'p xizmati singdi. Ammo bu qadar hiylagar bir kishi kelajakda bizga xiyonat qilmaydi deb kim ayta oladi? Yo'q bo'lgani shubhasiz yana bir katta xizmat bo'ldi.

Qo'mondonlar miq etmadilar.

— Nega jimsiz? Yo to'g'ri ish qilmadimmi?

— To'g'ri qildingiz, ulug' xoqon!

O'z joyiga o'tib o'tirdi. O'ziga itday vafodor etib boqilgan qoplonning boshini siladi. Qoplon bu iltifotdan mamnun irilladi.

— Tu Yen Su aytgan qabilda ish tutamiz. Har yonni josuslarimiz bilan to'ldiramiz. Jaloliddinning har bir harakatidan boxabar bo'lib turamiz. Musulmonlar o'rtasiga nifoq solamiz. Islom birligini irq ayriligi bilan parchalaymiz. So'ng navbati bilan hammasini bitta-bitta tiz cho'ktiramiz. Bunga e'tirozi bo'lganlar bormi?

Boshlarini silkib, tasdiq etdilar. E'tiroz bildirish hech birining xayoliga ham kelmas edi.

Chingizxon uzoq jim qoldi. Sas-sado yo'q. Yashil qanotli osiyo pashshasining g'ing'illashi aniq eshitilib turardi. Sukunatni Chingizning savoli buzdi:

— Bizga yaqin kim bor? Ishni o'shalardan boshlaylik.

Shu chog'gacha tirnog'iga tikilib o'tirgan bir ko'zli Subutoy Bahodur qattiq qirindi. Chingiz unga qaradi.

— Bilgan bir gaping bo'lsa, so'zla.

So'zlashni yoqtirmaydigan Subutoy qo'li bilan anglab bo'lmaydigan qandaydir ishoralar qildi. Chingizning achchig'i chiqdi.

— Nima demoqchisan, hoy odam?

Subutoyning og'zidan faqat ikki kalima zo'rg'a chiqdi:

— Arzirum, Oxlat...

So'ng u jim bo'lib, Chingizga baqrayib turaverdi.

— Nima degani bu? Nega ochiq-oydin aytmaysan?

Alpag'u no'yon so'zlamoq uchun izn istadi.

— O'zingizga ma'lum, Subutoy so'zlashni xush ko'rmaydi. Ulug' xoqon, men har holda uning nima demoqchi ekanini tushundim. Arzirum maligi Jahonshoh bilan Ayyubiylarning Oxlat voliysi hojib Alini yo'ldan ursa bo'ladi, demoqchi u.

Subutoyga o'girildi.

— Shundoqmi?

Subutoy bosh silkish bilan kifoyalandi.

— Jahonshohni-ku bilmadim, ammo Oxlat voliysi hojib Ali haqiqatan ham yo'ldan ozishi mumkin, ulug' xoqon. U islomni qo'rquv tufayli qabul qilgan, ich-ichidan musulmonlarni yomon ko'radi. Bu odamni qo'lga olishimiz mumkin.

Chingizxonning sap-sariq yalpoq basharasi oydinlashdi, lablariga ajib bir tabassum qalqdi.

— Orangizda Jahonshohni taniydigan yo'qmi?

Qo'mondonlardan bir nechtasi javob berdi:

— Eshitganimiz bor.

— Men taniydiganing bormi, deb so'radim.

— Yo'q.

Qo'llarini bir-biriga ishqadi.

— Hoziroq navkarlar ichiga kiring. Lozim bo'lsa yaqin-atrofdagi qishloqlarga qadar boring va menga Jahonshoh haqida ma'lumot keltiring.

O'rnidan turdi.

— Ketishingiz mumkin. Og'zingizga mahkam bo'ling. Og'zini yopolmaganning ovozi abadiyan o'chirilsin.

Ajalning sovuq, seskantiruvchi sharpasi chodir ichida kezdi. Qo'mondonlar qaddini rostladilar, so'ng yerga tiz urib, xoqonga ta'zim etib, chodirni tark qilishdi.

Tashqariga chiqib chuqur nafas oldilar. Har gal ular Chingizning chodiriga kirganlarida o'zlarini o'lim bilan yuzma-yuz kelganday his etardilar. Sariq chodir eshigi go'yo mozor og'ziday edi. Bu qo'rquv ularni birlashtirar, xatoga yo'l qo'yishlarining oldini olardi.

Qo'mondonlarini jo'natgach, biroz vaqtdan so'ng Chingizxon chodirdan chiqdi. Xotini Bo'rtaning uch-to'rt qadam narida tikilgan o'tovi tomon yurdi. Eshik oldidagi soqchi xoqonga hurmat bajo keltirib salom bergach, chetroqqa tislandi. Chingiz ichkariga kirdi.

Bo'rta uning birinchi xotini. Tunday qop-qora sochlari oqara boshlagan, yil o'tgan sayin tajribasi ortgan ayol. U dahshatli bir to'fon yaqinlashib kelayotganini oldindan sezar, erini avaylab-asrashga harakat qilar edi. Chingizxon ham buni yaxshi bilardi. Bir to'da yosh xotinlari bo'lishiga qaramay, yuragi siqilgan zahoti birinchi xotinining yoniga oshiqardi.

Bo'rta ayiq po'stagi ustida chordana qurib o'tirardi. Chingiz kirishi bilan oyoqqa qalqdi. Tiz bukib, salom berdi.

— Buyuk xoqon, xush kelibsiz! Qaysi shamol uchirdi: bexayr shamolmi yoki totli subhidam shabbodasimi?

Chingizxon xotinining shoirona so'zlashiga besh ketardi. Kuldi-da, dedi:

— Shomon kabi bilag'on, nekbin va aqlli Bo'rtamni ko'rish uchun albatta bir yomon shamol esishini kutishim kerakmi, Bo'rta? Senga salomlar bo'lsin, dunyo xotinlarining eng ulug'i.

— Iltifotlaringiz qalbimni o'q kabi tilkalamasaydi, so'zingizdan nihoyatda rohat qilgan bo'lardim, ulug' xoqon.

— Hayrat, iltifot qachondan beri o'qqa aylanib, xotinlarning qalbini tilkalay boshladi?

— Ustimga bir qancha xotin olganingizdan beri.

— Buni hech unutmading-unutmading-da, Bo'rta. Nima, men sen uchun ilgarigiday yaxshi emasmanmi?

— Balki ilgarigidan ham yaxshiroqsiz va balki men yanada sabrliroqdirman. Qisqa zamon ichida juda buyuklashdingiz, dunyo sizga tor kelib qoldi.

— Bundan xursand emasmisan? Ko'kni Ko'ktangri ixtiyoriga tashladik, yerlar bizniki bo'lsa nima qipti, yo buni ko'p ko'rdingmi?

Xotin cho'chib ketdi. Qo'llarini oldiga qalqon qilib tisarildi.

— Og'zingizdan chiqqanini yel uchirsin. Irgiz daryosi ustida sovursin. Ko'ktangriga tik tushadigan ish qilish katta gunohdir. Ustimizga yashin yog'diradi.

— Xo'p, Bo'rta, so'zimni qaytib oldim. Faqat buyuklashishimni nega istamayotirsan, anglat.

— Siz uchun istamayman. O'zingizni Ko'ktangriga teng ko'ra boshlaganingiz falokatdan ilk darak. Ehtimol, keyinroq ko'kni zabt etishga ham otlanib qolarsiz.

Chingizxonni xayol opqochdi.

— Tepaga chiqish ilojini topsam, shunday ham bo'lar, ehtimol. Yoxud bu olim deganlarim o'lmaslik sirini kashf eta olsalar.

— O'lmaslik siri?

— Ha, Bo'rta, o'lmaslik siri. O'ladigan bo'lsang, buyuklikning ne ahamiyati bor? Oxir-oqibat oddiy mo'g'ul kabi bir kuni bir hovuch kulga aylanish juda yomon. Yo sendan bir hovuch kul qolsa — shu ham ish bo'ldi-yu?! Har ikkovi ham qo'rqinchli. Biz o'liklarimizni yoqib yuboramiz, musulmonlar bo'lsa ko'mishadi. Biz o'z-o'zimizni yo'q qilamiz. Ularning jasadi tuproqda chiriydi. Darqaqiqat, o'lim juda qo'rqinchli! Men uchun pirovardida yo'q bo'lib ketish nima ekanini bilasanmi o'zi, Bo'rta? Dunyoning yarmiga hokim bo'lgan bir xoqon uchun bu ne demak? Xotinginam Bo'rta, boshqa narsadan qo'rqmayman, faqat o'limdan qo'rqaman. Bu qo'rquvni ichimdan quvlab chiqarish chorasini so'yla, sen shomon kabi dono bo'lsang.

— Bir chorasini aytaymi?

— Ha, biror chorasini ayt, top bir yo'lini! Qo'rquv meni yeb tamom qiladi. Kun o'tgan sayin yo'qlik tomon ketayotganimni his etmoqdaman. Bu harakatni to'xtatishga kuchim yetmaydi. Bir amr bilan taxtlarni yakson etgan, sultonlarning kallalarini uzgan, dunyoning yarmini titratgan katta xoqonman. Ammo o'limni uzoqlashtirishga kuchim yetmaydi, afsus!

Bo'rta eriga xavotirlanib tikildi. Ko'zlarining nuri so'nganday tuyuldi. O'lim qo'rquvi kishi yuzida bu qadar aks etishini Bo'rta hech ko'rmagan edi. Tasalli bermoqchi bo'ldi.

— Nega qo'rqasiz? Minglab kishining o'limini yaqindan ko'rgan odam bo'lsangiz.

Chingizxonning yuzi battar burishdi.

— Qo'rquvimning asl sababi ham shu, Bo'rta. Minglab kishilarni o'ldirdim. Qoplonlarim oldiga tiriklay tashlangan odamlarning tilka-pora etilishidan katta zavq oldim.

Birdaniga ikki qo'lini silkitdi.

— Alvasti hammasining jazosini bersin, — deya to'ng'illadi u. — Insonlarning o'ldirilishini ko'rishdan endi zavqlanmaydigan ham bo'lib qoldim. Bugun chinlik Tu Yen Suni o'ldirish to'g'risida jallodga ishora qilganimda ilgarigisiday hayajon his etmadim. Xorazmliklarga o'g'rug'imizni oldirib qo'ygan sipohiyning jon tomiri barmoqlarim ostida chirpinganida ham hech bir hayajonlanmadim, quvonganim yo'q. Aksincha, iztirob chekdim, ichimda bir narsa uzilib ketgandek bo'ldi, dahshatga tushdim.

Bo'rta erining ko'nglini ko'tarishga harakat qildi. Bu safargi kelishida eri xiyla cho'kkan, ancha qartaygan. O'lim qo'rquvi insonni bir onda qartaytirib qo'yarkan. Bo'rta hayratga tushdi.

— Tu Yen Suni nega o'ldirdingiz? Ko'p xizmat qilgan edi. Eng og'ir paytlarda yoningizda bo'lgan edi.

Chingizxon boshini chayqab dedi:

— Aytganlaring rost. Zotan sen doimo to'g'risini aytasan. So'zlaring Ko'ktangrining yoki Ko'kcha otaning so'zlariday. Hay mayli, chinlikni nihoyatda aqlli bo'lgani uchun o'ldirdim. Davlatlarni hiyla bilan ag'darishning hadisini olgan ekan. Bir kun menga qarshi chiqishi mumkinligidan xavotirlandim.

Xotinining qo'lidan ushladi.

— Senga bir gap aytaymi, Bo'rta? Hozirgi paytda soyamdan ham qo'rqadigan bo'lib qoldim o'zi. Pashsha uchsa o'q vizillagandek tuyulib, dahshat bilan o'rnimdan turib ketaman. Qulog'imga shovqin tovushi eshitilsa, Jaloliddin bosib keldi, deb yuragim orqasiga tortib ketadi. Nega bunday, Bo'rta? Meni senchalik yaxshi biladigan odam yo'q. Hatto meni o'zimdan ham yaxshiroq bilasan. Bu qo'rquv nima o'zi, so'yla menga, Bo'rta, ildizi qayerda uning?

Bo'rta gap nimada ekanini tushundi. Chingizxon aslida sulton Jaloliddindan qo'rqayotgan edi. Ajal unga Jaloliddin qiyofasida ko'ringan, bunga o'zini astoydil ishontirib ham ulgurgandi.

— U juda uzoqda, ulug' xoqon, — dedi Bo'rta. — Xotirjam bo'ling, u bu yerlarga yetib kelolmaydi. Tumonat navkaringiz bor, siz uchun jon berishga tayyor minglarcha inson xizmatingizda. Jaloliddin bu yerga hech qachon kelolmaydi.

— Chindan aytyapsanmi, Bo'rta?

— Nima, shubhangiz bormi? Hozirga qadar biron puch gap aytganimni eslaysizmi?

— Boshqa xotinlarim nega senga o'xshamaydi, Bo'rta?

Keksa Bo'rta shu damni anchadan beri kutar edi, ichini bir bo'shatib oldi.

— Ammo negadir doim ularning yonidasiz. Mayli, ulardan ayrilmang, zarari yo'q. Menga siz sog' bo'lsangiz kifoya. Yonimda bor ekanligingizni bilsam bas. Ular sizning kuch-quvvatingizni zulukday emib yotishibdi, sizni bir qo'g'irchoqqa aylantirish payidalar. Men bo'lsam kuchingizga kuch, dardingizga malham bo'lmoqni istayman. Siz hali qaroqchilar to'dasiga bosh bo'lgan vaqtingizda turmush qurdik. Yaxshi-yomon kunlarni baham ko'rdik. Qo'lni qo'lga berib, shu kunlarga erishdik. Meni bir tepib, yoningizdan uzoqlashtirdingiz. Ustimga qo'sha-qo'sha yosh xotin oldingiz, ularga mayl ko'rsatdingiz. Yomon kunlarda hamdam bo'lgan Bo'rtani unutdingiz. Faqat boshingizga ish tushgan paytlarigina yodingizga tushdim. Uzun kunlar, qorong'i kechalarda qon yig'lab, sizni kutdim. Ba'zan bir oy, ba'zan bir yil qorangizni ko'rsatmadingiz.

Bo'rta hiqillay-hiqillay so'zini tamomladi. Chingizxon bir so'z demadi. Xotinining o'zini bosib olishini kutdi. Xotinining xo'rsinishlari kamaygach, titroq qo'llari bilan uning sochlarini siladi.

— Yig'lama, Bo'rta. Bundan keyin tez-tez kelib turaman. Menga quvvat bo'lganingni bilaman, dilgir bo'lsam yoningga kelib, tirilib chiqaman. U xotinlarim faqat bir ermak. Hech biri hatto qo'lingga suv quyishga ham loyiq emas. Ammo ular, o'zing bilasan, yosh. Yuzlariga ko'zim tushgan hamon yoshligim qaytganday bo'ladi, o'lmaydigandekman. Quvvat olganday bo'laman. Ammo sening aytganing to'g'ri. Aslida ular quvvatimni so'rgan zulukning xuddi o'zi.

Oyoqqa qalqdi.

— Menga abadiy yashash in'om etilgani haqida gapirishyapti. Biroq men o'lim tobora yaqinlashib kelayotganini his etyapman. Bu qo'rquvni ilk daf'a sen ichimdan chiqarding. Shunday ekan, bu xotinlarga hojat bormi? Navkarlarimga buyuraman, hammasini bo'lishib olsinlar, xohlaganicha kayf-safo qilsinlar, undan keyin so'rilgan uzum kabi tuflab tashlasinlar.

Bo'rta dahshatga tushib, o'rnidan turdi.

— Aslo! — deb qichqirdi u. — Siz kabi ulug' xoqonga bu ish yarashmaydi, navkarlaringiz orasida hurmatingizni yo'qotasiz. Bu ishni qila ko'rmang.

Eshikka yo'l olgan Chingiz birdan orqaga qaytdi. Biroz avvalgi ma'yuslikdan asar ham qolmagan edi. Yana avvalgi, yirtqich sirtlon qiyofasiga kirgandi. Qisiq ko'zlarini Bo'rtaga tikdi.

— Mening buyrug'imga qarshi chiqadigan kishi bormi?

Bo'rta yolvordi:

— Bunday qilmang, ulug' xoqon, sizga yaxshi bo'lsin deyman.

— Mengami? Sen hali menga aql o'rgatadigan bo'lib qoldingmi? Barcha mening hammadan aqlli ekanimni aytayotgan bir paytda sen o'zingni mendan ustun deb bildingmi hali?

Bo'rta baqrayib qoldi.

— Siz xohlagan bu ish hatto oddiy navkarga ham yarashmaydi, axir.

Chingiz ikki hatlab xotinining yoniga bordi. Bilaklarini changallab, kuchining boricha siqdi.

— Hozirga qadar menga qilgan yaxshiliklaring uchun tashakkurlar, Bo'rta, — dedi u.

Ovozi bo'g'iq va g'azabnok edi.

— Ammo ba'zan qarorlarimga burun tiqishing menga ma'qul tushmaydi. Zaif tomonlarimni bilib, foydalanib qolish payidasan.

Yuzini yuziga yaqinlashtirdi.

— Endi qarib qolding, Bo'rta. Tirishib qolgan yuzingga qarashni xohlamayman. Hozirga qadar hissiyotga berilib, yoningga kelar edim, endi bu ishga barham beray. Seni ko'rdim deguncha ko'zimga keksalik ko'rinadi. Modomiki, yosh xotinlarimning tarafini olgan ekansan, yaxshisi, seni berib yuboraman.

Bo'rta isyonkor ovoz-la baqirdi:

— Shu qadar munofiqmisan?

Chingiz shasht bilan orqaga qaytdi. Po'stinining barini halpillatib chodirdan chiqdi. Eshik oldida qaqqayib turgan uzun bo'yli, xomsemiz soqchining qulog'iga nimalardir deb shivirladi. Soqchining hayratdan baqrayib qolganini ko'rib, uni bir tepdi.

— Kir ichkariga dedim! Keksa Bo'rta seniki.

— Ulug‘ xoqon!

— Seni o‘ldirishimni xohlayapsanmi?

Soqchi bir odim otdi, so‘ng to‘xtadi. Takror Chingizxonga qaradi: nahotki bu gap jiddiy bo‘lsa? Katta bir xoqon nahotki shunday past ishni taklif qilsa?

— Buyuk xoqon! — deya ming‘illadi u.

Chingizxon navkarning qo‘lidan nayzasini tortib olib, uchini uning ko‘ksiga tiradi.

— Ahmoq! Senga ne degan bo‘lsam, shuni qil. Kir ichkariga. Sening o‘rningda o‘zim soqchilik qilaman.

Navkar chodir eshigining bo‘z pardasini ko‘tardi. Kirdi-yu dong qotib qoldi. Keksa Bo‘rta yerda dumalab yotar, yuzi ko‘karib ketgan edi. Ko‘zlari chanog‘idan irg‘ib chiqqan, lablari oylab suv ko‘rmagan taqir singari tars-tars yorilgan. Og‘zining chetida ko‘kish ko‘pik. Ko‘p o‘tmay titroqlari to‘xtab, qotdi-qoldi.

Navkar ostonada qoqqan qoziqday qotib qolgan edi. Na ichkariga kirishga, na tashqariga chiqishga yuragi yo‘q. Navkarning qaqqayib turganini ko‘rgan Chingizxonning miyasiga qon tepdi. Oddiy bir navkar ulug‘ xoqonning buyrug‘ini haligacha bajarmagan edi. Chingizxon uning yelkasiga nayza sanchdi.

— Lapashanglarning jazosi shu!

Dahshatli faryod yer-u ko‘kni tutdi. Bir ot kishnadi, it hurdi.

Navkar munkidi, so‘ng gandiraklay-gandiraklay orqaga qayrildi, Chingizxonga yuzlandi. Dahshatdan olaygan ko‘zlarini unga tikdi. So‘ng titroq va bo‘g‘iq tovushda:

— Bo‘rta o‘libdi, — dedi.

Bu uning oxirgi so‘zlari bo‘ldi. Yana bir marta gandirakladi, keyin yerga quladi.

Chingizxon jasad ustidan hatlab o‘tib, chodir ichiga oshiqdi. Bo‘rtaning ko‘kargan yuzini ko‘rar-ko‘rmas:

— Zahar, — deya g‘udrandi.

Bo‘rtaga zaharni bir vaqtlar o‘zi bergandi. Bir kuni dushman qo‘liga asir tushib qolsa nomusini poymol ettirmaslik uchun ichishi kerak edi. Hozir shu ishni qilishi lozimmidi? Axir, dushmanga asir tushsagina ichishi kerak edi-ku! Yo tangri, o‘zi... o‘zi... xotinining dushmaniga aylandimi?

Boshi lo‘qillab, chodirga kirdi, o‘zini yerga tashladi. Boshini changalladi: “La’nat bo‘lsin menga, — dedi, — la’nat!”

— Bo‘rtaga qilgan ishimni dushman ham qilmas. Endi qo‘lidan ne ham keladi? Ichimga bir qashqir kirib olganday. Qachon qaramay qon talab qilgani qilgan. O‘lganlarning umri menga qo‘shib beriladimi yo? Bosh shomon bir vaqtlar shunday degan edi-ku. Hisoblab chiqsa, eng kamida ming yil yashashim kerak.

Oyoqqa qalqdi, qo‘llarini ochib, oldinga cho‘zdi. Kaftlarini ehtiros-la ishqaladi:

— Hayot! Hayot! Hayot! Seni topdim, endi hech qo‘yib yubormayman!

Gandirakladi. Ko‘zlari xira tortdi. Yiqilmaslik uchun chodir ustuniga suyandi.

— Bo‘rta o‘ldi-yo! Bergan zaharimni ichdi. Vaholanki, dushman qo‘liga tushgan taqdirda nomusni asrash uchun ichishi kerak edi. Nega endi ichdi?

* * *

Osmon-u falak g‘azabga kelganday, butun suvini yerga to‘kayotgan edi. Yo‘llar botqoqqa aylandi. Bu havoda telbalargina yo‘lga chiqadi. Shunga qaramay yo‘lda bir otliq bor edi. U balchiqqa botgan jonivorni chiqarish uchun urinardi.

— Yaramas hayvon, yaramas, — deya so‘zlanardi u.

Ancha urindi. Eplay olmasligiga ko‘zi yetgach, otni bir tepdi. Ot ustidagi xurjunni yelkasiga oldi. Botib-cho‘kib yurib ketdi. Oxlat qal’asining baland devorlari ko‘zga tashlangach to‘xtab, tin oldi. Ko‘kragi temirchining bosqoni singari ko‘tarilib-tushar, bo‘g‘zi xirillar edi.

— Oxlatga ham yetib keldim, — deya ming‘illadi u o‘zicha. — Ulug‘ xoqonga bergan so‘zimning ustidan chiqdim.

Ko‘zlariga oqib tushayotgan yomg‘ir suvlarini kaftining orqasi bilan artdi. Xoqon esiga tushgan hamon tomirlariga yangi va issiq qon yugurganday bo‘ldi. Charchoqni unutib, ildam olg‘a bosdi.

Qal’a darvozasi yoniga yetib kelganida rosa holdan toygan, turtsa yiqiladigan ahvolda edi. Zo‘rg‘a oyoqda turar, qilichiga hassa kabi tayangan edi. Peshvoz chiqqan askarlarga:

— Voliyni ko'rishim kerak, — dedi. — Meni uning yoniga olib boring.

So'ng nafas rostlab, qo'shimcha qildi:

— Chingizxonning elchisiman.

Shu gapning o'zi yetarli bo'ldi. Darvoza oldidagi soqchilarning boshlig'i uni bir otga mindirib, balchiq bosgan ko'chalardan olib o'tib, Oxlat voliysi hojib Alining huzuriga olib bordi.

Elchi hayratda qolarli darajada tezlik bilan o'ziga kelgan edi.

— Senga salomlar bo'lsin, ey qudratli voliy, — deya so'z boshladi u. — Men ko'kdagi quyoshning quchog'iga ham sig'maydigan buyuk mo'g'ul mamlakatining yakka-yu yagona hukmdori Chingizxonning elchisi bo'laman.

Hojib Ali qo'lini ko'ksiga qo'ydi.

— Ulug' xoqonga hurmatlar bo'lsin.

— Senga ulug' xoqonning ichi achiyapti, — dedi elchi.

Voliy uning nima demoqchi ekanini tushunmadi.

— Menga ichi achiyapti?

— Mabodo sen Jaloliddinni hukmdor o'laroq tan olsang, xoqon qal'ani yakson etishga majbur bo'ladi. Vaholanki, u seni yaxshi ko'radi, yanada kattaroq qal'alar, kattaroq yerlarga hukmdor bo'lishingni xohlaydi.

Hojib Alining ko'zi ehtiros-la porladi.

— Haqiqatan ham xohlaydimi?

Elchi hojib Aliga yaqin bordi. Lablarida ayyorona tabassum, davom etdi.

— Sen Ayyubiylardansan. Xorazmliklarga hech qanday aloqang yo'q. Boshqa-boshqa irqqa mansub ikki xil millatdansiz. Saltanat ularning qo'lida, sizlar Xorazm sultoni Jaloliddinga tobesiz. Xo'sh, nega shunday bo'lishi kerak?

— Bunga majburman.

— Kim aytdi buni? Tog'-u toshdan mustahkamroq qal'aning qo'mondoni bo'lsang. Kelayotib tepadan atrofni ko'zdan kechirdim, qal'a mudofaasi yaxshi. Bu qal'ani olish Jaloliddinning qo'lidan kelmaydi. Agar bu yerga biron-bir hujum bo'lsa, ulug' xoqon yordamga soqchi qism yuborishga va'da berdi.

Hojib Ali qo'l qovushtirdi.

— Bundan ko'p xursand bo'ldim.

— So'zlarimni diqqat bilan eshit. Sadoqatli bo'lishing necha pulga tushadi? Jaloliddin kuch to'plab, kuchayib olgan zahoti bu yerga bostirib keladi. O'ziniki bo'lmaganlarga ishonmaydi u. Xuddi qipchoqlarga ishonmagani kabi...

Hojib Ali o'yga toldi. Orzulari ushaladi chog'i. Bir qal'a emas, katta o'lkalarni boshqarmoq istardi u. Xayolini haqiqatga yaqinlashtirish niyatida u o'zicha bir qo'shin ham barpo etgandi. Egniga po'stinini tashlab, xalq orasida kezar, o'zini sulton his etardi. Jaloliddin qaytib, otasining o'rniga taxtga chiqqanini, mo'g'ullarga hujum qilib, zafarlar qozonganini ilk bor eshitganida cho'chib ketgan va yana o'z qobig'iga kirib olishga qaror qilgan edi. Endi bo'lsa oldida imkoniyat eshigi ochilmoqda. Foydalanib qolish kerak. Kelgusida Jaloliddin haqiqatan ham kuchayib, uning saltanat orzusini bir urishda chippakka chiqarishi mumkin.

— Mendan istaganingiz nima? — deya so'radi u.

— Oddiy bir ish, — dedi elchi. — Seni o'ziniki deb bilishadi. Borib ularga qo'shil. Jaloliddinga ta'zim bajo keltir, sadoqatingdan so'yla, o'zingga ishontir. Ishonch qozongach, ayrim xonlarning azaldan mavjud bo'lgan irqparastlik oloviga moy quy.

— Ertaroq emasmi?

— Hech ham. Jaloliddin kun sayin kuchga to'lmoqda. Vaqt ketmasin. Bu yerlarga ildiz otmasdan burun uning tomirini quritish kerak.

Hojib Alining yuziga ayyorona tabassum yugurdi.

— Yanglishyapsan, do'stim, hiylaga bardosh beradigan hech qanday kuch yo'q dunyoda.

Elchi ham kuldi.

— Eshitganimdan ham ko'proq zako egasi ekaning ma'lum bo'ldi. Seni tabriklayman. Qay vaqt ishga kirishasan?

Hojib Ali bir qur o'ylab oldi.

— Avvaliga volida sulton Turkon Xotun bilan ko'rishmog'im kerak. Buvi sulton desam yanada to'g'riroq bo'ladi. O'lgan Xorazmshoh Alouddin Muhammadning onasi, ehtimol, eshitgandirsan?

— Ha, eshitganman.

— Qipchoqlar unga tobe. Agar Turkon Xotundan ularga bir maktub olib borsam, menga ko'r-ko'rona ishonishlari turgan gap.

Elchi qaddini rostladi.

— Mening ishim bitdi. Ulug' xoqonga aytajak so'zing bormi?

— Sodiq ekanligini aytsang bas.

— Mamnun bo'ladi.

Elchi belbog'ining ichiga qo'l yubordi. Har safar hamyon-hamyon oltin chiqarib, hojib Alining oldiga tashladi.

— Xarajatlaringni ulug' xoqonimiz to'laydilar.

Hojib Alining ko'zlari yondi. Oltinlarga tashlanib:

— Ulug' xoqon omon bo'lsinlar, ulug' xoqonimiz omon bo'lsinlar, — deya ustma-ust takrorladi. Hamyonlarni belbog'ining orasiga joyladi.

— Bu ishni bajaraman, amin bo'lavering.

Elchi barmoqlarini o'ynatib dedi:

— Ulug' xoqonga xiyonat qilganlarning birortasi omon qolgan emas. Buni unutma.

So'ng elchi hojib Aliga yer bilan bitta qilvorguday nazar tashladi.

— Sizga ishonamiz.

Eshikni yopib chiqib ketdi. Charchoqqa qaramay darhol yo'lga chiqib, yaxshi xabarni xoqonga tez yetkazishi kerak. Sevinchdan og'zi qulog'ida.

Yomg'ir to'xtagan, ko'k yuzidagi oq bulutlar ufqqa tomon suza boshlagan edi.

* * *

Uch otliq shoshilinch ot choptirib, Gurganchga kirib keldi.

— Hooy! Qoching, pakana ot minganlar kelmoqda!

Atrofiga tumonat odam to'plandi, oralaridan o'tish imkoni yo'q edi. To'planganlar suvoriylarni so'roqqa tutdi.

— Chindanmi?

— Bu yerga ham yetib kelishdimi?

— O'z ko'zingiz bilan ko'rdingizmi?

— Ha, o'z ko'zimiz bilan ko'rdik! Bir to'da mo'g'ul askari. Pakana otlariga qapishib, quloqlarni batangga keltirib baqirishib kelishmoqda!

— Qal'a to'g'risida ma'lumot to'plash uchun kelganlari aniq.

— Chingizxon Jurjonga ko'z tikkan bo'lsa, qochib qutulolmaymiz.

Mish-mish Turkon Xotunning qulog'iga yetdi. Maslahatchisini chaqirdi.

— Bu mish-mishlar to'g'rimi?

Maslahatchi yerga tikildi.

— Taxminimcha, to'g'ri bo'lsa kerak.

Sultonning onasi darg'azab bo'ldi, tizzasiga musht urib dedi:

— Taxminimcha deganing nimasi? Seni nega olib o'tiribman bo'lmasa? Bor, tezda masalani bilib kel.

Maslahatchi tashqariga chiqdi. Yoniga bir qancha askar olib, ko'chama-ko'cha kezdi. Duch kelgandan so'radi:

— Chingizning pakana otliqlari ko'ringanmish, to'g'rimi?

Deyarli bir xil javob berishdi:

— To'g'ri, ko'rishibdi.

Maslahatchi orqasiga qaytib, sultonning onasiga eshitganlarini so'zladi. Turkon Xotun uzoq yillar sultonlardek dabdabali yashagan bu shaharni himoya qilishni hatto xayoliga ham keltirgani yo'q. Darhol karvonni yo'lga tayyorlashni buyurdi. Yuz minglab askari bo'lgan o'g'li Alouddin Muhammad Chingiz bilan olishishga yuragi betlamay qochgan bo'lsa, xotin boshi bilan u qanday qilib jang qila olur?

Ertasi oqshomga yaqin karvon tayyor ekanligi to'g'risida xabar berishdi. Turkon Xotun darhol yo'lga chiqish niyatida edi. Xazinasini bir tuyaga yuklatdi. Sodiq odamlarini yig'di. Ammo kunduzi shaharni tashlab ketish xalqqa yomon ta'sir etishini, ehtimol mone bo'lishlarini o'ylab, tunni poyladi.

Yarim kechasi, osmonda yulduzlar porlagan bir vaqtda karvon sassiz-sadosiz Gurganchdan chiqib ketdi.

Uzoq safar boshlandi. Haftalab yo'l yurdilar. Mavj urgan daryolar, anvoyi hidlar ufurgan o'rmonlardan o'tdilar. Qoraqum sahrosi-yu, janubdagi Kopetdog' orqada qoldi. Ikki oy o'tgach, Yazir hududiga borib yetdilar. Endi sultonning onasi xavotir olmasa bo'ladi. Har holda bu yerlarga Chingizning qo'li yetmaydi. Nihoyat Turkon Xotun oyoq uzatib dam olishi mumkin.

Shu ishonch bilan u karvonga to'xtashni, tuyalardan yuklarni tushirishni buyurdi. Atlas chodirini tiklatdi. Par to'shak ustiga cho'zilib, keksa vujudini qamragan charchoqni chiqarish hamda Chingizxonni unutish niyatida ko'z yumdi.

Uyg'ongan zahoti hojib Ali u bilan uchrashish niyatida kelganini bildirishdi. Turkon Xotun kiyindi. To'shakni yig'ishtirib olib, mehmonni huzuriga keltirishlarini buyurdi. Sal o'tmay hojib Ali chodirga kirdi. U Turkon Xotunga salom berdi:

— Sizga hurmatlar bo'lsin, ey dunyo xotinlarining sultoni.

Turkon Xotun achchiq bir tabassum-la:

— Bir zamonlarda shunday edi, — dedi u. — Endi bo'lsa o'z yurtidan qochgan mushtipar bir tul xotinman.

Tishlarini g'ijirlatdi.

— Eh, u Chingiz! O'g'limning toj-u taxtini barbod etganidan so'ng mening bir hovuch tuprog'imga ham ko'z tikdi. Bu yoshimda meni yot ellarda g'urbatga tashladi, mashaqqatli yo'l bosishga majbur qildi.

Hojib Ali butun ayyorligini ishga solib, dedi:

— Nega qochdingiz, ey buyuk ayol? Chingizxon Jaloliddin bilan mashg'ul, siz bilan hech ishi yo'q-ku. Ammo, modomiki, yo'lga chiqqan ekansiz, istasangiz sizni sulton Jaloliddinning yoniga olib boray.

Turkon Xotunning yuziga qon tepdi.

— Aslo! Jaloliddinning yoniga borgandan ko'ra mo'g'ul xoqoniga asir tushganim afzal. Tomirimda qipchoq qoni oqar ekan, bir turkman xotindan tug'ilgan Jaloliddinga sig'inamanmi?

Hojib Ali qo'lini ko'ksiga qo'ydi.

— Bu tarzda darbadar qochib yurishingizga ko'nglim hech rozi emas, — dedi u. — Modomiki, Jaloliddinni xush ko'rmas ekansiz, nega endi uni ag'darib tashlash ustida bosh qotirmaysiz?

— Oh, qani edi! Bir qulay fursat topsam edi.

Hojib Ali kutgan on kelgan edi.

— Men-chi? Kuningizga yaramaymanmi? Amringizni bajo keltirish uchun huzuringizga keldim-ku!

Turkon Xotunning ko'zlari porladi.

— Gaplaring jiddiymi?

— Inoning, hayotimda hech qachon bu qadar jiddiy bir payt bo'lganini eslamayman.

— Juda yaxshi, unday bo'lsa senga bir nechta maktub beray, Gurganchdagi qipchoq xonlariga yetkaz. Ular senga yordam bersin, kerak bo'lsa, Jaloliddinni ham o'rtadan ko'tarib tashlasinlar. U millatni falokat tomon sudrayotir.

— Bu masalada fikrimiz bir joydan chiqdi. Mo'g'ul xoqoni bilan urushish jon va mol yo'qotishdan boshqa natija bermasligi tayin. Xorazm yag'molanib, xarobaga aylanishi muqarrar.

Turkon Xotun to'rtta maktub bitdi. "Dunyo xotinlarining sultoni" deya imzo otdi, so'ng hojib Aliga berdi.

— Qanday ish tutish kerakligini o'zing bilasan. Bu maktublarni ol-da, Gurganchga ket. Bittasini nevaram O'zloqshohga, ikkinchisini amir Nushteginga, uchinchisini Tojiddinga, to'rtinchisini Tafayyuzxonga ber.

— Tafayyuzxon dedingizmi?

— Ha, shunday.

— Biroq u Xo'jandda Temur Malikni tashlab, Jo'jixon tarafga o'tgan. Jo'ji uni Sayxunga g'arq etgan.

Keksa ayol qo'llari bilan yuzini bekitdi.

— Eng sodiq odamlarimdan edi, — deya ingradi u. — O'g'lim sulton Muhammadning o'limi yuragimni parchalagandan so'ng bu achchiq xabarni eshitish ham peshonamga bitilganmidi?

Hojib Ali o'zini qayg'urgandek ko'rsatib, dedi:

— Xabaringiz bor deb o'ylagandim.

— Hech narsadan xabarim yo'q, ko'rib turganingdek, dunyodan chetda qoldim. Boshqa tomondan Chingizxonning odamlari oldimdan chiqib, bir qilich zarbasi bilan tanamni ikkiga bo'ladilar, deb qo'rqqanimdan bir o'lib-bir tirilib yotibman.

— Qo'rqishning hojati yo'q. Bu yerlar Chingizdan xiyla uzoq, qayerdan ham xabar topardi?

— Balki, gaping to'g'ridir, ammo u shaytonga o'xshagan bir odam bo'lsa, izlab topadi deb qo'rqaman.

— Qo'rqmang, hammasi siz xohlagandek bo'ladi. Endi ruxsat bersangiz, men Gurganchga otlanay. Maktublaringiz egasiga tegadi, Jaloliddin ham ag'dariladi.

— Mening qayerda ekanimni hech kimga aytma.

— Cho'chimang, boshimga qilich kelsa ham churq etmayman.

Ayolga ta'zim bajo keltirib, chodirdan chiqdi. Ammo Gurganchga emas, boshqa tomonga ot qo'ydi. Bir mo'g'ul qismiga duch kelguncha ot choptirdi. Qism qo'mondoniga Turkon Xotunning manzilini yaxshilab tushuntirdi. So'ng otini almashtirib, Gurganchga yo'l oldi.

Turkon Xotunning manzili haqida tezkor choparlar vositasida Chingizxonga xabar berildi. Chingizxon Subutoy Bahodurni ta'qib uchun yubordi. Yoniga besh yuz kishi qo'shib berdi.

So'qir Subutoy Qoraqum sahrosini tezda kechib o'tib, Turkon Xotunning manziliga yetib keldi. Yarim kechasi qo'qqisdan bosqin qilib, Turkon Xotunni asir oldilar. Erkaklarning hammasi qilichdan o'tkazildi. Bir qanchasini qoziqqa o'tqazdilar. Lak-lak qon to'kildi. Sahro qonga bo'yaldi.

Turkon Xotun Chingizning huzuriga keltirildi. Bir vaqtlar dunyo xotinlarining sultoni unvoni bilan tanilgan Turkon Xotun Chingizxon huzurida umidsizlarcha bo'yin egdi. Chingizxon keksa xotinga kinoya bilan uzoq tikildi.

— Bundan keyin dasturxonim etagida o'tirasan, ey xotin. Ashula aytib, ishtahamni ochasan.

Bechora ayol bor-yo'g'ini bir lahzada boy bergandi. Iqbol taxtidan bir onda dumalab tushgan, saltanati ham, dabdaba-yu as'asasi ham bitgan edi. Tantanaga to'liq hayoti oxiriga yetdi. Qolgan umrini xizmatkor sifatida o'tkazdi, ilgari itiga ham ravo ko'rmaydigan yuvindi yeb tirikchilik qildi, biroq bu xor-u zorlikka uzoq bardosh berolmay o'lib ketdi.

Gunohlari uchun bu dunyoning o'zida ana shunday og'ir jazoga mustahiq bo'ldi.

TO'RTINCHI BO'LIM

Chog'roq xona... Ovoz o'tmasligi uchun devorlariga boshdan oyoq kigiz qoplangan. Oyoq ostida Buxoroning qalin gilamlari yozig'liq. U yer-bu yerga jun yostiqlar tashlangan.

Xorazmshoh Jaloliddin ko'rpacha emas, gilam ustiga chordana qurgan. O'ng tomonida Temur Malik, so'lida Sariq Lag'o't, O'rxonbek, Muso, eng oxirida Qutbiddin. Temur Malik chuqur nafas olgach, so'zini bitirdi.

— Har holda, sultonim, bu odamga ishonmayapman, ruxsat bering, uni tekshirib ko'ray.

Sulton Jaloliddin tanbeh berdi.

— Agar seni bilmaganimda, badgumon deb o'ylagan bo'lardim, — dedi u. — Hojib Ali huzurimizga kelib, sulton bo'lganimiz bilan qutladi. Bayrog'imiz ostiga o'tish o'zi uchun sharaf ekanini aytdi. Uning yuziga shartta "Yo'q, sening keraging yo'q" deya olamanmi? O'tgan ishga salavot, tavba qilgan odamni haydab yuboraylikmi? Biz birlik, tenglik bayrog'ini ko'tardik, o'tmishda kim ne bo'lgan bo'lsa, mayliga, unutamiz dedik. Modomiki, u keldimi, bosh ustiga.

— Meni yanglish anglamang, sultonim. Inshoolloh, u yaxshi ish yuzasidan kelgandir. Biroq ularni o'z holiga tashlab qo'yish to'g'ri bo'lmas. Bir bahona topib, fasod chiqarishlari mumkin. Chindan pushaymonmi-yo'qmi, qayerdan bilamiz?

— Bu qanday gap, Temur Malik! Tavba eshigini yopaylikmi? Shunday qilsak to'g'ri bo'ladimi?

Bosh chayqadi.

— Xomxayolga berilma. Seni har doimgiday hushyor ko'rmoqni istayman.

— Men ham shunday bo'lishga harakat qilyapman, sultonim.

Soqchi hojib Ali kelganini aytgach, Jaloliddin o'rnidan turdi. hojib Alini ostonada kutib oldi. Oxlat voliysi Jaloliddinning qo'lini o'pdi. Xijolatomuz bir tarzda:

— Bezovta bo'lmang, sultonim, — dedi.

— Bezovtalik nimasi, qo'mondon? Bir-birimizga mehr-muhabbat ko'rsatish bezovtalik bo'ladimi? Marhamat, kel!

Hojib Ali kalovlandi:

— Majlisingiz borga o'xshaydi, men keyinroq kela qolay.

Jaloliddin hojib Alining qo'lidan tortdi.

— O'tir, shunday, sendan yashiradigan gapimiz yo'q. Modomiki, bizga qo'shilding, modomiki, muqaddas jihod bayrog'i

ostida birlashdik, bir-birimizga ishonmasak, boshqalar bizga ishonadimi?

Hojib Ali ich-ichidan quvonayotgan bo'lsa-da, Temur Malikning nigohidan bezovtalandi. Bir necha bor ko'zlari to'qnash keldi. Har gal aybini his etib, ko'zini opqochdi.

O'tirdilar. Jaloliddinning nigohi quvonchdan porlardi. So'z boshladi.

— Aslida Ayyubiylar bilan biron-bir ixtilofimiz yo'q. Jannatmakon otamiz sulton Muhammad vaqtida arzimagan masalalar yuzasidan ikki musulmon mamlakatining orasi buzilgan edi. Endi birlashish vaqti keldi. Jahonshohga ham elchi yubordim. Bundan tashqari, saljuq sultoni va xalifa Nosirga ham elchilar jo'natdim. Birlashmog'imiz lozim.

Qo'llarini juftlashtirdi.

— Hazrati Rasulullоh ikki qo'l barmoqlari kabi birlashmoqni buyurganlar. Sahobayi kirom ozchilik bo'lsa-da, bir bo'lganlari uchun dushmanlarini yengdilar, ulkan jahon davlati barpo etdilar. Davri Saodat bizga doim o'rnak bo'lmog'i kerak.

Hojib Ali bosh silkib, tasdiqladi.

— Siz haqsiz, sultonim.

Suhbat bir soatcha davom etdi. So'ng Temur Malik oyoqqa qalqdi.

— Ruxsat bersangiz, men boray, sultonim, askarlar bilan shug'ullanishim darkor.

Jaloliddin o'g'liga ishora qildi.

— Qutbiddinni ham olib ketgin, Temur Malik. Uni sen tarbiya qilsang devdim.

Temur Malik Qutbiddinning qo'lidan tutdi.

— Bu men uchun buyuk sharaf, — dedi u. — Qani, yur, Qutbiddin, bir qilich urishtiraylik.

Qutbiddin jiddiy turib bosh irg'adi.

— Sen aytgancha bo'lsin, ulug' qo'mondon.

Ikkovlon tashqariga chiqdilar.

Temur Malik chiqarkan, Sariq Lag'o'tga kishi bilmas ishora berdi, buni hech kim payqamadi. Sariq Lag'o't ishorani ildi. Sal o'tmay u ham izn olib chiqdi. Temur Malik Qutbiddin bilan qilichbozlik mashqi o'tkazayotgan edi. Yoniga bordi.

— Nima gap, Temur Malik?

Temur Malik peshonasidagi terni artdi. Do'stining qulog'iga dedi:

— Quloq sol, Lag'o't, ichimda bir g'alati tuyg'u bor. Hojib Ali yaxshi niyatda kelmaganini his qilyapman. Nazardan qochirmasak yaxshi bo'lardi.

— Ko'z qarashlari menga ham yoqmadi, ortiqcha iltifotlari riyokorona. Kuzataymi?

— Yo'q, sen kuzatma, chunki seni taniydi, tanimagan bir kishisini topishimiz kerak.

— E, bu juda oson ish. Hoziroq borib, Malik Nusratni topay. U bu ishni mendan ham yaxshiroq bajaradi. Jaloliddinga o'la-o'lguncha sodiq odam. Xiyonatni hatto xayoliga ham keltirmaydi.

— Bo'pti. Uni topib, ahvolni tushuntir. Agar hojib Ali fitna-fasod qozoniga o't qalash uchun kelgan bo'lsa, uning yoniga qo'shilib, o'zini ularga tarafdor qilib ko'rsatsin.

Sariq Lag'o't ildam yurib, uzoqlashdi. Temur Malik uchiga lata o'rog'liq qilichini olib, Qutbiddinga yuzlandi.

— Qani, ko'raylik, yigitcha, hamla qilish navbati endi menda.

Osmon uzra qora bulutlar borgan sari quyuqlashdi.

* * *

Xorazm qo'shini tayyor. Nayzalar uchida ertalabki quyosh shu'lasi o'ynaydi. Qalqonlar oy misol. Jaloliddinning kumush suvi yugurtirilgan sovuti ko'zni qamashtiradi.

Askarlarini erta tongdan safga tizdi, jangga tayyorladi. Ko'ngli to'q. Kerakli tadbirlarni olib, dushmanga ro'baro' chiqdi. Oldinda birinchi katta jang kutmoqda.

Otining quyrug'ini o'z qo'li bilan bog'ladi. Bir sakrab otiga mindi. Mullalar oldingi safda takbir keltirishayotgandi. Ularga qo'shildi.

— Ollohu akbar. Ollohu akbar...

Sal o'tmay jasadlarga to'lib-toshadigan maydon hozir namozgohni eslatardi. Yuzlarda ulug' bir quvonch hissi mavj urgan, ko'zlar zafar ishonchi ila to'liq.

Bugunga qadar bir necha bor bosqin shaklida hujum uyushtirgan askarlar endi saf tortib jangga kiradi. Qarshida kuchli mo'g'ul

qo'shini. Ularga nomi butun Osiyoga ketgan Subutoy Bahodur qo'mondon. Har ikki tomonning kuchi qariyb barobar. Faqat qo'shinga kim yaxshi qo'mondonlik qilsa, qay tomon ko'proq jasorat ko'rsatsa, o'sha zafar qozonishi muqarrar.

Temur Malik xotirjam. Nigohida g'alabaga ishonch umidi porlaydi. O'z qismini so'nggi bor ko'zdan kechirib, kerakli tadbirlar olmoqda. Shu orada u Jaloliddin yoniga ot surib keldi.

— Bir bosqin qilsak yaxshi bo'lardi, — dedi u.

Dushman tarafni sinchiklab kuzatayotgan sulton Jaloliddin bir lahza Temur Malikka ko'z tashladi, so'ng takror dushman tomonga o'girilib dedi:

— Hozirga qadar nuqul bosqin qildik, endi muntazam qo'shinimiz bor, bosqinga hojat yo'q.

Temur Malik bosh irg'ab, Jaloliddinning fikrini ma'qulladi.

— Sinamoqda foyda bor. Har holda qo'shinimiz oxiri bir kuni hujumga duch kelishi yoki hujum etishi turgan gap edi. Kuch-quddratimiz nechog'lik ekanini naqadar erta bilsak, shuncha yaxshi. Fikringiz to'g'ri.

Jaloliddin qilichini qinidan sug'urdi, maydon uzra ovozi guldiradi:

— Mujohidlar!

Shov-shuv shu zahoti tindi, barcha tin olmay quloq osdi. Temur Malik sassizgina otini orqaga burib, o'z qismining boshiga borib turdi. Kayfiyati yaxshi.

Jaloliddinning guldiragan tovushi eshitildi.

— Yo Olloh, hujuuum!

Oldin kamonchilar, so'ng nayzabozlar, undan keyin qilichbozlar dushman ustiga otildi.

— Olloh! Olloh! Olloh!

Sahro jang na'rasidan batangga keldi, o'qlar vizillab dushman tomon uchdi, atrofni dod-voy ovozi tutdi.

Askarlar to'lqin-to'lqin bo'lib dushman tomon oqdi. Ikki tomondan oqqan to'lqin to'qnashdi. Oh-faryod tovushlari eshitildi, qon sel bo'lib oqdi.

Sulton Jaloliddin qo'shinni mohirona boshqardi. Buni ko'rgan Temur Malik zavqdan jo'shdi. Jaloliddin zaiflashgan joyga go'yo

Xizr kabi yordam yuborib turdi. Mo'g'ullar talvasaga tushdi. Dushmanni mensimay katta xato qilganini tushundilar, ammo endi kech edi. Bu xato ularga qimmatga tushadiganga o'xshab qoldi.

Chingizxonning eng ishonchli sarkardalaridan bo'lgan Subutoy Bahodur tishini g'ijirlataverib, qonatib yubordi. Og'zi qonga to'ldi, qonxo'r vahshiyga o'xshab qoldi.

Nihoyat sabri tugab bitdi. Otini telbalarcha niqtalab jangning eng qizg'in joyiga o'zini urdi.

— Lu! Lu! Lu!

Qo'mondonining jasorat bilan olg'a tashlanganini ko'rgan mo'g'ul navkarlari jonlandi. Ammo Temur Malikning ko'krak kerib qarshi chiqishi tufayli turgan joyida mixlanib, siljiy olmay qoldilar. Ko'p o'tmay chekinishga majbur bo'ldilar. Subutoyni o'rab olishdi. Ammo u dahshatli bir tarzda o'ng-u so'lga qilich solar, oldiga kelganni yiqitar edi. Temur Malik o'sha tomonga ko'z tashlashi bilan vaziyatni tushundi. Subutoyni asir olish niyatida Xorazm askarlari shu tomonga yopirilgan, natijada o'ng qanot zaiflasha boshlagan edi.

— Bu tomonga! — deb hayqirdi u.

Bu Subutoyning joniga ora kirdi. Xorazm askarlari qo'mondonlarining amrini hech ikkilanmay bajo keltirdilar. Halqa o'z-o'zidan ochildi. O'lim bilan yuzma-yuz turgan Subutoy shaytoniy bir usul bilan qutulib chiqdi. Faqat qornidan yengil yaralangan edi.

Nafratga to'la bir ko'zi bilan jang maydonini tez nazardan o'tkazdi. Bir so'z bilan aytganda, navkarlarining ahvoliga maymun yig'layotgan edi. Tush vaqti bo'lmasdanoq to'za boshlashgandi. Jang hech bo'lmasa yana bir-ikki soat davom etmog'i kerak. Aks holda Chingizning oldida yuzi qora bo'ladi.

Horigan otini almashtirdi. Navkarlarini to'plab, yana jangga boshladi.

— Orqamdan olg'a!

To'zg'ish arafasida turgan mo'g'ullar boshiga kelgan qo'mondonini ko'rishi bilan ruhlandilar.

— Lu! Lu! Lu! — tovushlari atrofni tutdi.

Subutoy Jaloliddin qo'mondonligi ostidagi markazga hujum qildi. U osongina natijaga erishish mumkin bo'lgan usulni qo'llash-

ga qaror qildi. Yengiladi yoki jang taqdirini o'z foydasiga o'zgartiradi.

Jaloliddin ustiga yopirilib kelgan mo'g'ullarning niyatini darhol tushundi. Hech ikkilanmay qarshi chiqdi. Ikki kuchli qism o'rtasida qilichbozlik jangi boshlandi.

Bir mo'g'ul navkarining hamlasini qaytarayotganida sulton Jaloliddinning qilichi sindi. Hech bir nafi tegmaydigan xanjari bilan dushman o'rtasida qoldi. Yaxshiyamki, Malik Nusrat vaziyatni darhol ko'rdi va qo'lidagi qilichni abjirlik bilan Jaloliddinga otdi.

— Ushlang, sultonim!

Jaloliddin qilichni dastasidan ilib oldi. Yashin tezligida qarshisidagi mo'g'ul navkari boshiga qilich soldi. Mo'g'ul oh urib, yerga quladi. Malik Nusrat bir soniya kechikkanida, ehtimol, mo'g'ul navkari emas, Jaloliddin halok bo'lgan bo'lardi.

Jang cho'zildi. Mo'g'ullar jon-jahdi bilan qarshilik ko'rsatishar, o'limga ham rozidek edilar.

Quyosh tikkaga keldi. Atrof tandirdek qizidi. Har ikki tarafda ham charchash alomatlari zohir bo'la boshladi.

Xorazmliklar bir silkinib olib, yangi bir kuch bilan hujumga o'tishlari kerak edi. Aks holda jang yana cho'zilishi muqarrar. Qo'li ustun bo'lib turgan bir vaqtda Jaloliddin tezroq natijaga erishishni istardi.

— Xorazm arslonlari! — deya hayqirdi u. — Peshin namozi o'tib ketayotir, qazo qilmaylik!

Bu so'zlar sehrli bir ta'sir o'tkazdi.

— Olloh! Olloh! — degan tovushlar falakka yetdi. Askarlar ruhlanib, jo'shqin bir sel kabi dushman ustiga yopirildi. Jaloliddin orzu qilgan kuch ro'yodan borliqqa aylanib, yordamga yetishdi.

— Olloh! Olloh! Olloh!

— Ollohu akbar, Ollohu akbar!

Jang atigi yarim soat davom etdi. Subutoy Bahodur nihoyat yutqizganiga ishonch hosil qildi. G'ijirlagan tishlari orasidan iztirob to'la ikki jumla chiqdi:

— Orqaga chekining!

Bu buyruq mo'g'ullarning joniga ora kirdi. Tez chekingan dushmanni Jaloliddin ta'qib qildirmadi. Ilk katta sinov muvaffaqiyat bilan yakunlangan, Xorazm qo'shini tarqalib ketganidan so'ng birinchi bora yetukligini isbot etgan edi.

O'sha yerning o'zida, jang maydonining etagida peshin namozini so'ng yana ikki rakat shukr namozini o'qidilar.

* * *

Tuni bilan yoqqan yomg'ir Gurganch ko'chalarini botqoqqa aylantirdi. Askarlar ko'lmaklar ustidan sakray-sakray navbatchilikka shoshadilar.

Ko'chalarda oyoq izlari bir-biriga qorishib ketgan, ko'pgina izlar amir Nushteginning uyi ostonasiga borib yetgan.

Ichkarida majlis avjida. Taniqli xonlarning ko'pi shu yerda hozir-u nozir. Malik Nusrat ro'paradagi eshik ortiga yashirinib, vaziyatni kuzatib, uyga kirganlarning ismini daftariga qayd etmoqda. Ro'yxatning boshida sulton Jaloliddinning ukalari O'zloqshoh va Oqshohning ismlari ham bor.

Ular hafta ichida uchinchi bor to'planishlari. Oxlat voliysi uch majlisning hammasida qatnashdi. Ikki shahzoda ham chetda qolgani yo'q.

Hojib Alidan gumonsiragan Temur Malik haq bo'lib chiqdi. Bu odamlar hafta ichida uch bora to'planishdi, ammo sultonga xabar bermadilar. Demak, bu yerda bir gap bor.

— Ana, yana biri keldi, — dedi o'zicha Malik Nusrat o'yxayollarini bo'lib. Diqqat bilan kelguvchiga tikildi.

Kelgan odam Karimxon edi. Har doimgiday eng oxirida keldi. Eshik oldida turgan soqchiga past tovush-la nimalardir degach, ko'zdan g'oyib bo'ldi. Malik Nusrat daftariga uning ismini yozib qo'ydi. So'ng qalam-daftarini belbog'ining orasiga joyladi.

— Endi navbat menga, — dedi u.

Yashiringan joyidan qo'zg'alib, og'ir qadam tashlab, ko'chaga chiqdi. Bir tanish askaridan Temur Malikka xabar jo'natdi. So'ng ohista yurib, amir Nushteginning uyiga yaqinlashdi. Eshik oldida devqomat bir soqchi turardi. Malik Nusrat uning ro'parasida to'xtadi.

— Amir Nushteginni ko'rmoqchi edim, — dedi u bamaylixotir tovush bilan.

Askar unga parvo ham qilmadi. Oldida turgan sarkardani ko'rmagandek parvoyi falak turaverdi.

— Ko'rish imkoni yo'q, majlis qilyapti, — dedi u.

— Borib ayt, Malik Nusrat ko'rishmoq niyatida keldi, de.

— Joyimni tashlab ketolmayman.

Malik Nusratning jahli chiqdi.

— Ahmoq! — deya hayqirdi u. — Men sening qo'mondoning bo'laman, buyuraman, aytganimni qil!

Soqchi pinagini buzmadi. Malik Nusratga mensimay boshdan oyoq nazar tashladi. So'ng qat'iy bir tovushda dedi:

— Men qipchoqman. Men faqat qipchoq xonlari buyrug'iga itoat qilaman.

Malik Nusrat titrab ketdi. Soqchiga o'z haddini eslatib qo'yish uchun shiddat bilan qo'l ko'tardi. Shu onda eshik ochilib, amir Nushtegin chiqib keldi.

— Amir Nushtegin, bu qo'pol soqchiga o'zing saboq berasanmi yoki men aqlini kiritib qo'yaymi?

Amir Nushtegin soqchiga jahl bilan qaradi.

— O'zim jazosini beraman, — dedi u. — Uning qilmishi uchun uzr so'rayman. Qo'pollik qilgan bo'lsa, bu unga qimmatga tushadi.

Malik Nusrat rejasini hali pishirib olmagandi. Ichkarida o'tayotgan majlis sababini aniq bilmagani uchun qanday ish tutish kerakligini hali o'ylab ham olmagandi. Kallasi tez ishlab ketdi.

— Seni ko'rishim lozim edi, — dedi u. — Ortiq kutib tura olmayman.

Atrofga olazarak boqib, sulton Jaloliddin to'g'risida yaxshi fikrda emasligiga amir Nushteginni ishontirishga urindi. Uddasidan chiqdi. Uning atrofga olazarak boqishi, past ovozda xufiyona so'zlashi Nushteginning diqqatini tortdi.

— Marhamat, ichkariga kir. Bemalolroq gaplashamiz.

Chog'roq va odmiroq to'shalgan xonaga olib kirdi.

— Qani, o'tir, so'yla.

O'zi uning ro'parasiga cho'kdi.

— Gapir, qulog'im senda.

Malik Nusratning miyasi tez ishlab, bir bahonalar topishga harakat qildi. Jaloliddinga qarshi jo'yali bir gap aytolsa, bu odamni balki so'zlariga ishontirishi, hech bo'lmasa sultonga qarshimi-yo'qmi ekanini bilib olishi mumkin edi.

— Jonimga tegdi, — deya so'z boshladi u. — Borgan sari Jaloliddinning dimog'i shishib ketmoqda. Subutoyni yenggani-mizdan so'ng tamomila burni ko'tarildi.

Nushtegin quloqlariga ishonmay unga baqraydi.

— Nimalar deyapsan? O'sha jangda Jaloliddinni o'limdan qutqargan sen emasmi?

Malik Nusrat o'ychan bir tusga kirdi.

— Agar o'sha holat zuhur etguday bo'lsa, yana xuddi shunday ish tutgan bo'lardim. Uning o'lishini emas, balki saltanatdan uzoq-lashishini istayman. Bilmaydi, sultonlik qilishni bilmaydi. Qo'rs, o'ta qo'rs. Temur Malik bilan Sariq Lag'o'tdan boshqani ko'zi ko'rmaydi. Go'yo ularning asiri. Go'yo jangda faqat shu ikki kishi tufayli zafar qozondi.

Nushteginning qulog'iga yaqin bordi.

— Ko'p yil otasiga xizmat qildim, endi uning xizmatidaman. Lekin hech kim xizmatimni taqdirlamadi, loaqal tashakkur bildir-madi. O'limdan qutqarganim uchun hech bo'lmasa bir marta rah-mat aytdimi? Sen unday deb o'ylama, o'sha kundan beri uni faqat ikki marta ko'rdim, u ham bo'lsa askarlar orasida aylanib yurga-nida.

Amir Nushtegin hayratdan qotib qoldi. Qarshisidagi odamga taraddudlanib tikilar, eshitganlari rostmi-yolg'onmi bilib olishga urinar edi.

— Men seni uning yaqinlaridan deb hisoblab yurardim.

— Dastlabki paytlari shunday edi. Jangda g'olib kelgach, ishlar chappasiga ketdi. Har holda o'limdan qutqarganim uchun minnat-dor bo'lishi kerak, degan o'y-xayolda bo'lsam kerak deb o'ylaydi, shekilli. Bu xayolidan qutulish uchun meni o'ldirib yuborishdan ham toymaydi u.

Nushteginning ayyor ko'zlari chaqnab ketdi.

— Qani, yur-chi, do'stim, ko'raylik, nima bo'lar ekan? — deb oyoqqa qalqdi u. Malik Nusratni qo'lidan tortdi.

— Yur, senga fikrdosh bo'lganlar bilan tanish, yolg'iz o'zing hech narsa qilolmaysan.

Malik Nusratning sevinchini oshkor etishiga bir bahya qoldi. Yig'ilishning mohiyati ma'lum bo'ldi, endi gap masalaning tag-tubiga yetishda qoldi.

Amir Nushtegin Malik Nusratni qo'lidan tortib katta bir xonaga boshlab bordi. Xona hashamatli bezatilgan, devorlarga boshdan oyoq Buxoro gilamlari osig'liq. Yerga to'shog'liq zarhal ko'rpachalar ustida xonlar qator-qator tizilishgan.

Malik Nusratni ko'rishi bilan ularning yuzidan qon qochdi, qo'llari xanjarlariga uzandi.

— Bu yerda unga nima bor? — deb to'ng'illadi biri.

— Xavotir oladigan hech nima yo'q, — dedi amir Nushtegin, — o'zimizniki.

— Bunga aminmisan?

— Amin bo'lmasam bu yerga olib kelarmidim?

— Yaxshiku-ya, ammo bu odam Jalolning etagidan hech nari ketmas edi-ku.

— Bu Jalolchi bo'lishni bildiradimi? Unday bo'lsa sen ham, men ham goh-goh Jaloliddinning poyida o'tiramiz-ku.

E'tirozlar bitdi. Ammo xanjar kabi o'tkir nigohlar Malik Nusratga qadaldi.

Barcha jim qoldi, hech kim so'zlashni xohlamadi. O'zloqshoh oyog'ining uchidan ko'z uzmadi. O'zini aybdor his etayotgani aniq. Oqshoh bo'lsa, atrofga olazarak boqar, tez-tez eshikka nazar tashlab qo'yar edi.

Sukunat cho'zildi. Hatto, nafas olishlari og'irlashgandek bo'ldi. Ba'zilari behalovat bo'lib qimirladi.

Amir Nushtegin shuni poylab turganday, so'z boshladi:

— Biroz oldin aytilgan gaplarni takrorlashning hojati yo'q, deb hisoblayman. Jaloliddin masalasini bir yoqlik qilib, o'rniga O'zloqshohni ko'tarish qarorini amalga oshirishga kirishsak bo'ladi.

U hojib Aliga yuzlandi:

— Sen nima deysan?

Hojib Ali ikki marta tomoq qirib olgach:

— Aytadiganlarimni oldinroq aytdim, — dedi. — Men Ayyubiylardanman, turkman ham emasman, qipchoq ham. Ammo qal'am Xorazm hududlari ichida. Xorazm sultoniga tobeman. O'zloqshoh

taxtga o'tirsa jonim bilan unga tobe bo'laman. Jaloliddin joyida qolsa, unga tobeman. Menga yuklangan vazifani bajardim. Turkon Xotunning maktubida hamma gap ochiq-oydin yozilgan. Ilova qiladigan boshqa gapim yo'q...

Karimxon sallasini ko'tarib, boshini qashladi.

— Voliyning gapi to'g'ri, — dedi u. — Bizni deb shuncha yo'l oshib keldi, sulton onasining niyatidan bizni voqif etdi. Endi gap bizda, o'z xonlarimizda qoldi. O'z urug'imizdan chiqqan shahzodani taxtga chiqarish uchun tayyormisiz?

Chuqur-chuqur nafas oldi, ikki qo'li bilan tizzalariga musht urdi.

— Sulton Alouddin Muhammad umrining oxirgi daqiqalarida fikrini o'zgartirib, O'zloqshohni valiahdlikdan tushirmaganida bu ishlarga hojat qolmagan bo'lur edi. Eng katta xato shunda...

— Ovozingni o'chir! — deb baqirdi O'zloqshoh. — Otamni yomonlab tilga olma.

Karimxon esankiradi.

— Bunday demoqchi emasdim, — deya ming'illadi u. — Aytmoqchi edimki... ya'ni...

Amir Nushtegin darrov so'zni boshqa yoqqa burdi.

— Uchqun yana olovlanay deb turibdi. Jaloliddin Chingizxon bilan jangga chiqmoqchi. Subutoy boshchiligidagi kichik bir mo'g'ul qo'shinini yengdim deb o'zidan ketmay qo'yaqolsin. Chingizxonning askari sahrodagi qumdan ham ko'p. Bu kichkina zafar katta mag'lubiyatlar urug'ini ekdi. Chingizxon g'azablangan. Yurtimizga yana pakana ot minganlar bostirib keladi. Qipchoq elilarini hech qachon qutqara olmaymiz. Qolgan so'nggi qal'alarimiz ham qo'ldan ketadi. Yana qon sel bo'lib oqadi... Bunga kim aybdor? Jaloliddin! Raiyatga urush emas, tinchlik kerak. Haydalmagan, ekilmagan yerlarimiz qisir qolayotir. Shunday ketaversa xalq ochlikdan qirilib ketadi-ku.

Xuddi bir baloni daf etmoqchi bo'lgandek qo'llarini siltadi.

— Yo'q! Jalol boshidanoq xato qildi. Urush ochmasligi kerak edi. Sulton bo'ldi, mayliga, ammo urushmog'i bizga maqbul emas.

— Maqbul emas, — deya ming'illashdi.

Boshmoqxon ko'tarildi.

— Menga quloq osing. Bu urushni biz xohlamaymiz, yaxshi. Lekin Jaloliddin urushmoqchi. Illo, ne qilsa ham otasi uchun o'ch olmoqchi, Chingizni yengib, yer bilan bitta qilmoqchi. Biz kibr-u havodan uzoq turaylik. Ishongan ishimizni qilaylik.

Malik Nusrat jirkanib unga qaradi. Boshmoqxonning makkor qiyofasi so'zlagan gapiga o'zi ham ishonmayotganidan dalolat berib turardi.

— Vaqt ketmasin, — deya davom etdi xon. — Jalolning o'rniga ukasi O'zloqshohga qasamyod etaylik.

O'rnidan turib, O'zloqshohning oldiga borib ta'zim qildi. O'zloqshohning qo'lini shartta ushlab o'pdi-da, dedi:

— Men bay'at etaman va uni sulton deb e'tirof qilaman.

Qo'rqib ketgan O'zloqshoh qo'lini tortib oldi.

— Yo'q! Hali erta. Birdaniga ikki kishi sulton bo'lmaydi. An'anaga xilof bu. Oramizda bordi-keldi bo'lmasin. Hozir Jalol kuchli va qudratli. Avvalo, uni kuchdan qoldirmoq darkor. Buning birgina yo'li shu: qipchoqlar shahardan chiqib ketsin. Ular ko'pchilik. Shu tariqa Jaloliddin katta kuchdan ayriladi. Bora-bora bir hovuch askarlari bilan qoladi. Sulton buvimiz ham maktublarida shunday deganlar. O'shanda ish Chingizga qoladi, u yaqinda bu yerlarga keladi.

Oqshoh dahshatdan olaygan ko'zlarini akasiga tikdi.

— Jaloliddin sizga nima yomonlik qildiki, bunday ish tutmoqchisiz?

O'zloqshoh shiddat-la unga yuzlandi.

— Ovozingni o'chir! — deb baqirdi u. — Aqling yetmagan ishga burningni tiqma. So'raganda javob ber.

Oqshoh pastga qaradi. Ko'zlari namlandi. Ozor tortib ko'rmagan edi. Qanday qilib ularning orasiga kirib qolganini bilolmay hayron. Ish shu qadar tez sodir bo'ldiki, o'ylamoqqa ham fursat topolmagan edi. Gap nimadaligini bilib yetgan vaqtda esa bo'lar ish bo'lgan edi. Agar Jaloliddinga biron gap yetkazguday bo'lsa, uni o'ldirishlari to'g'risida ishora etishgandi.

Alam bilan bosh chayqadi, faqat o'zi eshitadigan darajada pastovushda:

— La'nat! — dedi.

Amir Nushtegin jo'shib so'zlay boshladi.

— Amirsiz, askarsiz sulton bo'lganmi hech? Jalol bizga ishonib, lof urmoqda. Shuni bilib qo'ysin, endi biz hech kimga ko'r-ko'rona xizmat qilmaymiz. Musulmon bo'lmagan ba'zi qavmlarni ham bayrog'i ostiga tortish niyatida u; shu yo'l bilan askarini ko'paytirib, majusiy Chingizdan ko'ra kuchliroq bo'lmoqchi. Bu bir botil ish. Musulmon sulton qanday qilib kuffor askarini o'z safiga olishi mumkin? Fursat topdi deguncha bizga orqadan xanjar urishi mumkin bo'lganlarni qanday qilib qavatiga oladi? Bunday buzuq qo'shinda xizmat qilishni aslo istamaymiz. Biz haqni, haqiqatni deymiz. Botillar bilan ishimiz yo'q. Musulmon nasroniy bilan itifoq tuzmas. Eng katta g'aflat bu. Nasroniylarni qo'shinga oldik ham deylik. Xo'sh, ular qaysi tug' ostida urushga kiradilar? Xoch tasvirli bayroqlarini olib kelmaslarmi? Bu ish ketmaydi, qabul qilmaymiz.

— To'g'ri, — dedi O'zloqshoh. — Men ham qabul qilmayman.

— Men ham qabul qilmayman.

— Nasroniylar yollanma askar sifatida islomiyat uchun urushsalar, nimasi yomon? Xalifayi Roshidin zamonlarida bunga o'xshash hodisalar bo'lgan-ku.

— Ovozingni o'chir-ey! Tushunmading.

— Xo'p bo'ladi, o'chirdim.

Malik Nusrat ularga jirkanib nazar tashlar, goho chiday olmay bitta-yarimtasini hiqildog'idan olgisi kelar, ammo bu yerga nega kelgani esiga tushib, o'zini zo'rg'a tutib turar edi.

Shov-shuv tingach, Tojiddinbek o'rnidan turdi. Hammasidan ham ta'sirliroq so'zlash uchun chog'landi. Bir necha bor yo'talib, o'tirganlarning diqqatini o'ziga tortgach, so'z boshladi.

— Xonlar, beklar! Biz o'z vaqtida sulton Alouddin Muhammadni garchi Chingiz bilan urushga da'vat etgan bo'lsak-da, tahlika ostiga tushishi bilan uni Abiskunga qochirib, hayotini saqlab qoldik. Unga ozmuncha fidokorlik qildikmi? Bosh ustiga deb xizmat qildik, ko'ksimizni ko'ksiga qalqon etdik. U tamoman boshqacha bir odam edi, bizga quloq osardi.

Xo'sh, Jaloliddin-chi? Butun xizmatlarimiz uning uchun bir qora chaqaga ham arzimaydi. Hol-ahvolni aytib o'tirishning hojati

bormikan? Jaloliddin bizni it o'rnida ham ko'rmaydi. Qipchoq xonlari, Xorazm davlati qilichingizning damida turibdi. Ammo Jalolning bundan xabari yo'qqa o'xshaydi. Uning oldida bir Temur Malik yoki Sariq Lag'o't qadar e'tiborimiz yo'q. Hali kechagina qaroqchilik qilib yurganlarni ustimizga bek, amir qilib ham qo'yadi. Bunga chidab bo'ladimi? Temur Malik yigirma yetti joyidan yaradar bo'lgan emish, tanasining qilich kesmagan, nayza teshmagan joyi yo'q emish. Anoyi emasmiz. Dushman ichiga telbalarcha ot surmoqni kim bilmaydi? Yaxshi qo'mondon o'zini yarador qildirmaydi, o'ldirishlariga ham yo'l qo'ymaydi. Bunga fursat bermaydi. Uning vujudida son-sanoqsiz yara bo'lsa, mening qo'l ostimda son-sanoqsiz askar bor. U e'tiborda bo'lar emish-u, men nega bo'lmay? Bir kishi bilan yigirma ming kishi nega teng tutilmoqda? Xo'sh, Sariq Lag'o't to'g'risida nima deyish mumkin? Ikki pulga qimmat jonidan boshqa ne berdi Jaloliddinga? Qo'l ostida Boytudan o'zga askari bormi? Boytu degan masxarabozning o'zi bir dunyo! Bunday qora chaqaga arzimaydigan odamlarni boshiga ko'targan, haqiqiy qiymatlarning qadrini bilmagan odam sulton bo'la olurmi? Jaloliddinga itoat etib, shaharlarimizni kultepaga, saroylarimizni mozorga aylantiraylikmi? Bizdan shuni istashyaptimi? Ha, shuni. Ammo biz bu ishga qo'shilmaymiz.

Qo'llari bilan yoppasiga rad ishorasi berdilar.

— Aslo, qo'shilmaymiz.

Amir Nushtegin o'rtaga savol tashladi:

— Deylikki, Jaloliddinning ishini itmomiga keltirdik, O'zloqshohni taxtga o'tqazdik. U taqdirda Chingizxon bilan qanday urushamiz? Biz bunga bardosh bera olamizmi?

Davradagilar taraddud ichida qoldilar. Hamma jim qoldi. Hech birining mo'g'ul xoqoni bilan bellasha olgudek jasorati yo'q edi. Barchasining jur'ati bir pasda so'ndi. Hatto O'zloqshoh ham oyoq uchiga tikilib, o'yga toldi.

Ayni shu chog'da hojib Ali otilib chiqdi.

— Nega ikkilanib qoldingiz? Chingizxon bilan albatta urushmoq kerakmi?

O'zloqshoh boshini ko'tardi.

— Urush ochilgan, undan voz kechib bo'ladimi?

— Bir voqea sabab urush ochilgan. Ammo sulhning urug'i hali qurib ketgani yo'q-ku. Bir elchi yuborib, tobelik izhor etamiz. Kofirga berilgan va'daga vafo qilish shart emas, bunga bog'lanib qolmaymiz. Vaqti-soati yetdi deguncha, takror oyoqlanib, Chingizni yurtdan haydab chiqaramiz. Men shaxsan Chingiz bilan uchrashib, uni sulhga rozi etishni o'z zimmamga olaman.

Malik Nusrat ortiq chidab tura olmadi. Oyoqqa qalqdi. Qilichining dastasini ushlab dedi:

— Aziz mehmonimiz hojib Ali sulhni taklif etganiga qaraganda Chingiz bilan avvaldan yaqinligi bormi deyman, ajabo?

Hojib Alining rangi o'chdi.

— Nima? Bu qanday munosabat? Men faqat yordam bermoq istayman.

— Qanday qilib kafolat berursan? Chingiz butun shaharlarimizni yag'molasa, kallalarimizni kessa-chi?

— Men aytmoqchi edimki...

— Ne demoqchi ekaningni eshitdik, "Chingizni sulhga rozi qilaman" deding. Demak, ilgaridan bir kelishuvingiz bor.

— Senga javob berib o'tirmayman.

— Ha, jim qoldingmi? Chunki beradigan javobing hech birimizga ma'qul tushmaydi-da.

Xonlarga yuzlandi. Barmog'i bilan hojib Alini ko'rsatib dedi:

— Bu odam Chingizxon yuborgan josus!

Barchani yashin urgandek bo'ldi. Hojib Alining rangi qum-quv o'chdi, lablariga uchuq toshdi.

— Haligi... men...

— Duduqlanib qoldingmi? Josus ekaningga shubha yo'q. Chingizxon bizni kuch bilan yengolmasligini tushundi. Musulmonlar birlashgan taqdirda uni tarixdan o'chirib yuboradigan qadar ko'p va botir ekanliklarini biladi-da Chingiz. Halidan beri Jaloliddin haqida bir to'da bo'lmag'ur ig'vo so'zlari aytildi. Qaysi biriga ishonishni bilmay, bir qarorga kelolmadim. Bularning hammasi tuhmat. Bir to'g'ri gap aytilmadi bu yerda.

Nushtegin shiddat bilan ko'tarildi.

— Nima deyayotganingni o'zing ham bilmaydursan. Bu odam bizga Turkon Xotunning maktubini olib keldi. Volida sulton uning

— Iflos qoning bilan qilichimni harom etishni xohlamaganim uchun. Senga bir nechta askar kifoya.

Malik Nusrat g'azablanib, bor ovozi bilan baqirdi:

— Ko'ppaklar qachondan beri arslon bo'lib qoldi, amir Nushtegin? Chaqir kimni chaqirsang, bitsin shu ish!

Amir Nushtegin yana bir nechta qadam tisarildi, so'ng tashqariga otildi. Eshikni ochdi, dahliz tomon ovozining boricha baqirdi:

— Hoy soqchilar!

Dahliz etagidan oyoq tovushlari eshitildi. Amir Nushtegin yana baqirdi:

— Tez keling, shu odamni gum qiling!

Qadam tovushi yaqinlashdi. Amir Nushtegin kelgan odamlarni tanidi-yu, yashin urgandek qaltiradi. Oyoqlari kattakon gavdasini ko'tarolmay qoldi, cho'p kabi bukilib, turgan yeriga quladi.

— Jaloliddin!

Yonida Temur Malik, Sariq Lag'o't, Boytu va o'ttiztacha askar bilan sulton Jaloliddin ostonada turar, teshib yuboradigan o'tkir nigoh ila xonadagi xonlarga ko'z tashlar edi. Ukalarini ko'rishi bilan chehrasi tundlashdi. So'ng xonaning o'rtasida qilich yalang'ochlab turgan Malik Nusratga qaradi.

— Nima bo'layotir bu yerda?

Malik Nusrat darrov sulton yoniga o'tdi.

— Fitna-fasod qozoni qaynayotir, sultonim.

— Men seni sodiq deb bilar edim.

Malik Nusrat tavoze bilan bo'yin egdi.

— Jonim sizga fido, sultonim.

— E... Bu yerda nima qilyapsan? Temur Malikning zo'ri bilan keldik; ko'rdikki, bizni ko'rganlarning oyog'i qaltiramoqda, bu har holda yaxshilik alomati emas. Ammo ukalarimizning bu yerda ekanligi mudofaa etilganimizni ko'rsatadi.

O'zloqshohga xitoban dedi:

— Shunday emasmi, ukajon?

O'zloqshoh jasoratni boy bersa, balki kallasi ketishi mumkinligini o'ylab dadillandi.

— Bu nima gap o'zi? Biz sulton o'g'li emasmizmi, bir jinoyatchi kabi bostirib kirasiz ustimizga?

Sulton Jaloliddin lablarini qimtidi.

— Afsuski, siz ham otamning o'g'lisiz, — dedi. — Biroq otamning o'g'li bo'lganingiz bilan biron narsa o'zgarib qolarmidi? Jinoyatchilarni jinoyat qilgani uchun bosishadi. Bu yerda nimaga qaror berilganini bilmoq istayman.

Javob olmagach, ovozini ko'tardi:

— Ha, muhtaram xonlar, so'ylang, bu yerda bo'lgan gap-so'zlarni bilmoq istayman!

Malik Nusrat ikki og'iz gap bilan bo'lgan gapni sultonning qulog'iga shivirladi.

— Hojib Ali Turkon Xotundan ba'zi maktublar olib kelgan ekan.

Jaloliddin kulimsirab hojib Aliga boqdi.

— Qani, sen so'yla-chi, aziz mehmonim. Buvimizdan kelgan maktublarni kimga berding?

Hojib Ali yelkasining ustida boshi omonat turganini his qildi.

— Vallohu billohu, mening aybim yo'q!

— Senga hech kim qasam ich demadi-ku, hojib Ali? Maktublarni kimga berganingni so'radim, xolos.

— Hech narsa bilmayman.

— G'irt yolg'on! Musulmonchilikda yolg'on harom qilinganini senga hech kim aytmaganmidi?

— Men ayyubiyman.

— Ayyubiylar ham musulmon. Ammo sen ayyubiylar orasiga kirib qolgan kalamushsan, hojib Ali. Bir kalamushsan, xolos. Yana yolg'on gapiryapsan.

— Xo'jayin...

— Ovozingni o'chir! Maktublar kimda ekanini ayt!

Hojib Alining bardoshi tugadi.

— Biri ukangiz O'zloqshohda, biri Tojiddinbekda, yana biri Amir Nushteginda.

Sulton Jaloliddin ukasi tomon o'girilib, qo'lini uzatdi.

— Maktubni ber, suyukli ukam!

O'zloqshoh orqaga tisarildi. Olaygan ko'zlari bilan akasining yuziga baqraydi.

— Maktub mening nomimga bitilgan, maxfiydir.

— Ya'ni sen o'lim farmonini ko'rsatish niyatida emassan, shundaymi? Bilmaysanmi, hatto jallodlar ham mahkumning so'nggi tilagini bajo keltirishadi.

— Men jallod emas, shahzodaman.

— Tez-tez eslatayotgan bu unvoning, nadomatlar bo'lg'aykim, senga otamdan qolgan. Bu unvonga loyiq bo'lmaganlar o'zini shu bilan ovutadi.

— Nima demoqchisan?

Sulton Jaloliddin ukasining ustiga bostirib bordi. O'zloqshoh devorga qapishdi, tisariladigan joy qolmagan edi.

— O'zloqshoh, maktubni menga ber!

— Yo'q!

Temur Malik Amir Nushtegin bilan Tojiddinbekdan kuch bilan olgan maktublarni Jaloliddinga uzatib oraga kirdi.

— Mana, ikkita maktub, sultonim. O'zloqshohdagi o'zida qolsa ham bo'laveradi.

Sulton Jaloliddin maktublarni oldi. O'qigan sari tundlashdi, qosh-ko'zi kerildi, peshonasi tirishdi. Oxiri qog'ozlarni g'ijimlab bir chetga uloqtirdi.

— To'g'risini aytganda, buvimiz bilan faxrlansak arziydi. Bu qadar toshyuraklik bilan nevarasini qatl etish to'g'risida buyruq bergan buvi dunyodagi barcha jazolarga loyiqdir va albatta o'zi loyiq bo'lgan jazoni olgusidir. — Xonlar tomonga o'girildi.

— Uyati, beti yo'q maxluq ekansizlar! Bo'sag'amizda dushman turgan bir paytda og'a-ini qonini to'kish yo'llarini qidirish bilan mashg'ulsiz. Bir vaqtlar rahmatli padarimizning shuurini o'tmaslashtirdingiz, irodasini bukdingiz, miyasini g'ovlatib, hamma narsasini tashlab qochishga ko'ndirdingiz. Jahonning yarmi xarobaga aylanishiga, minglarcha begunoh odamlarning qatliga sabab bo'ldingiz. Siz tufayli shahidlar tiriklay yondirildi, siz tufayli insonlar zanjirband etildi, siz tufayli o'choqlardagi olovlar so'ndi. Endi bo'lsa meni yo'q etib, o'z hukmingizni o'tkazish payiga tushibsiz. Bilmaysizmi, hatto bir qo'yga cho'ponlik qilish hech biringizning qo'lingizdan kelmaydi. Siz qanday maxluqsizki, hatto bir itdek itoat qilishni o'ylamaysiz-u, o'z sultoningizni mo'g'ullarga taslim etmoqqa harakat qilasiz?!

Hech kim churq etmadi. Nafaslarini ichiga yutib, qo'rquvdan dag'-dag' qaltirashar, oqibat nima bo'lishini o'ylashar edi. Temur Malik chiday olmadi. Sukut — iqror belgisi. Qilichini sug'urdi.

— Sultonim, buyuring, kallalarini sapchaday uzay. Bular ichimizda qaynagan fasod qozonidir. Fursat topdi deguncha xoinlik yo'liga o'tadilar. Xo'jandni xuddi shularning dastidan boy berdik.

Sulton Jaloliddin u qadar ehtirosga berilmadi. U bu xonlarni jazolash yomon natijalarga olib kelishi mumkinligini o'ylab, sulton sifatida oxirigacha sabr qilishga harakat qilardi.

— Arzimaydi, Temur Malik, — deb javob berdi u. So'ng uning qilich tutgan qo'lini ushladi.

— Bular sening qilichingdan o'lmakka noloyiq. Shoyad, janobi Haq marhamat qilib, ularni shahodat rutbasiga yetishtirgay. Aks taqdirda oxiratda ham tinch bo'lolmayman. Jazolari u yerda berilsin. Umrlari bo'yicha gunohiga gunoh qo'shib yashayversinlar.

Barmog'i bilan eshikni ko'rsatdi.

— Ko'zimga ko'rinmang, boradigan yo'lingiz jahannam bo'lsin! Boshqa menga uchray ko'rmang. U holda hozirgidek sabrli bo'lmasligim mumkin.

Amir Nushtegin o'zini yerga tashladi, emaklay-emaklay sultoning oyog'iga bosh urdi, yer o'pdi.

— Sultonim, men bunchalik haqoratga chidash berolmayman. O'ldiring, jonimni oling, xalos bo'lay. Boshimga ne balolar keldi o'zi. Ko'nglim bo'sh, meni aldashdi.

Malik Nusrat chorig'ining uchi bilan uning biqiniga turtdi.

— Haligina Xorazm mamlakati qilichimning damida deyayotgan eding-ku, endi nega kaltakesakdek sudralasan? Chinordek gavdang qilich ko'tarishga ham ojiz bo'lib qoldimi?

Jaloliddin takror baqirdi:

— Chiqing tashqariga! Hech qaysingiz ko'zimga ko'rinmang.

O'zloqshoh hamon titrab-qaqshab turardi. Jaloliddinning oldiga kelib to'xtadi, yuziga nafrat bilan qarab:

— Men shahzodaman, — dedi. — Meni hayday olmaysan.

Jaloliddin qo'llarini ko'ksiga qovushtirdi, bo'ynini xiyol egib dedi:

— Salomalaykum, shahzodam, qani, shahzodaligini bir ko'rsatsinlar. Qo'l ostingga ming kishi beray, bor, mo'g'ullarni top, qarorgohlarini bos, ololganingcha asir keltir, shunda peshonangdan o'pay.

O'zloqshohning yuzi loladay bo'ldi. Jaloliddin shiddat bilan hayqirdi:

— Og'angning jonini dushmanga taslim etmoq uchun fitnachilar bilan til biriktirish sulton farzandiga munosib deb hisoblaysanmi sen?! Chiq tashqariga! Yo'qsa bir yomon ish qilib qo'yaman. Jalol qardoshini o'ldirdi deydilar, so'ng ismimiz tarixda yomon yozilajak.

O'zloqshoh boshini xam qilganicha xonadan chiqib ketdi.

Oralarida birorta xoin qolmagachgina, xotirjam bo'ldilar. Askarlarni navbatchilikka tarqatib, xonaga qaytdilar.

Jaloliddin mahzun edi. Ba'zi xonlarning xiyonat etishi mumkinligini bilardi, ammo otasining huzurida akasiga mutlaqo itoat etishlari to'g'risida qasam ichgan ukalari O'zloqshoh bilan Oqshohning xatti-harakati unga og'ir botgan edi. Qanday qilib bir shahzoda bu qadar past ketishi mumkin? Majusiylar bo'sag'ada turgan bir kezda qanday qilib saltanat hirsiga berilib, sultonni o'ldirishdek bir fitnaga bosh qo'shishi mumkin? Bu shahar xiyonat uyasimi? Xoinlar ko'pchilik. Bir kecha bosqin etib, uni g'ofil qoldirishlari mumkin. U joni to'g'risida qayg'urayotgani yo'q. Uni ezgan narsa — Xorazmning boshsiz qolish ehtimoli edi. O'zloqshoh yoki Oqshohning Chingiz bilan urushgudek layoqat va jasorat sohibi ekanliklariga ishonsaydi, saltanatning farog'ati uchun jonini berishga ham tayyor edi. Ammo ularda davlatni boshqarish u yoqda tursin, o'zlarini idora etish qobiliyati ham yo'qligini o'z tajribasidan bilardi.

Temur Malik sulton va jonajon do'sti Jaloliddinni xomush ko'rib, dardini baham ko'rmoq istagida so'radi:

— Nimalarni o'ylayapsiz?

Jaloliddin uyqudan uyg'ongandek Temur Malikka boqdi.

— O'ylamay bo'ladimi, Temur Malik? Hatto ukalarimiz xiyonat yo'liga kirmishlar. Bu shaharda hech kim ittifoq bo'lishni o'ylamasdan, Jaloliddin sulton bo'lganidan ko'ra Chingiz o'lkani olgani yaxshi desa. Chingizga qarshi boshi birikmagan bu guruh

fitna uchun birlashsa? Sog'lom, imoni but ikki mingdan ziyodroq askarimiz bor. Bu xoinlar bo'lsa, bu kecha mijja qoqmay ahvolni mo'g'ullarga yetkazib, bosqin uyushtirishi mumkin. Yoxud bizni qatl etmoq uchun bu ishni o'zlari qilar. Biz-ku ishning boshidaqotl etmoq uchun bu ishni o'zlari qilar. Biz-ku ishning boshidayoq o'limni bo'ynimizga olganmiz. Illo, o'limdan zarracha qo'rqmaymiz.

Temur Malikning etlari junjikib ketdi.

— Olloh saqlasin, sultonim, mabodo o'lsangiz Xorazm mamlakati ham tugab bitadi. Yolg'iz umid mash'alamiz sizsiz. Birlik qalovini faqat siz topasiz. Bir nechta xoinga duch keldik deya ishdan voz kechmog'imiz kerakmi? Ularni daf qilamiz, inshoolloh.

— Insonlar o'lib ketadi, ammo davlatlar, g'oyalar yashayveradi, Temur Malik. Jalol kimdirki, Xorazm uning bor-yo'qligiga bog'liq bo'lsin? Biz faqat bir sabab bo'lamiz, xolos.

— Shahardan ketaylik, sultonim. Ikki ming askarimizni olib kechasi yo'lga chiqaylik. Qoraqum sahrosidan to'g'ri janubga tushamiz. Ovullardan topganimiz qadar askar to'playmiz. Yo'lyo'lakay mo'g'ullar ustiga bosqin uyushtiramiz, o'g'ruqlarini tortib olamiz. Qal'a devori ortiga biqinib yotish arslonlarga yarashmaydi. Tog'lar jangimiz otashidan yorishsin. Ko'k gumbazi yerga tutashgan, oy ko'rpa, o't-o'lan to'shak bo'ladigan joylarga ketaylik. Qal'ada o'tirishdan ko'ra ochiq maydonda jang qilmoq maqbul ish bo'lur. Chingiz shu tufayli yutib chiqmoqda-ku, negaki bemalol harakat qilish imkoni bor.

Jaloliddin darhol javob bermay, o'ylab olishni ma'qul topdi. Taklifni obdan o'yladi, hisob-kitob qilib ko'rdi, so'ng bir qarorga keldi.

— Sen haqsan. Zafar qozongach, bu yerga takror qaytib kelamiz. Askarlarni tayyorla. Yarim kechasi yo'lga chiqamiz. Xoinlar orasida yashab bo'lmaydi.

Yarim kechasi, shahar uyquga kirgan bir pallada yuz kishilik guruhlarga bo'linib qal'ani tark etdilar. Kelishilganidek, shahar tashqarisidagi o'rmonda topishdilar. Qoraqum yo'li bilan janubga ot surdilar. Osmon-u falak yig'lar edi. Musulmonning musulmon bilan ittifoq bo'lolmagani uchun yig'lardi. Ko'k g'azabidan darak berib ustma-ust yashin chaqnar, momaqaldiroqning gumburlashi otlarni hurkitar edi.

Yomg'ir tinishini kutmay to'xtovsiz ot choptirdilar. Odatda o'n kunlik bo'lgan yo'lni uch kunda bosib o'tdilar. Nasa shahri yoniga borib yetdilar. Ayg'oqchilar oldinda bir mo'g'ul qarorgohi borligidan xabar bergach, to'xtadilar. Saf tortdilar. Jaloliddin odamlarini atrofiga to'pladi.

— Birodarlar, — dedi u, — og'ir yo'l bosdik. Otlarimiz horigan, o'zimiz ham charchadik. Ammo, shunga qaramay, mo'g'ul qarorgohini bosa olguday kuchimiz bor. Zafar jasoratlilarga kulib boqadi.

Charchoq esdan chiqdi. Otlar kishnadi, qilichlar sug'urildi. Jaloliddin qo'mondonlarni askarlarning boshiga yubordi. O'zi odatdagiday markazdan joy oldi.

— Hujuuum!

Xorazm suvoriylari mo'g'ul qarorgohini bosdi.

— Olloh! Olloh! — degan na'ralar falakni yorgudek bo'ldi. Mo'g'ullar nima balo bo'lganini bilolmay sarosimaga tushdilar. So'ng bir amallab to'planishga muvaffaq bo'ldilar. Tuta olgan otlarga minib qarshi chiqdilar.

— Lu! Lu! Lu!

Sahro uzra Temur Malikning ovozi yangradi:

— Bosing, g'oziylarim!

— Olloh! Olloh! Olloh!

— Ollohu akbar! Ollohu akbar!

Omonsiz jang bo'ldi. Ikki taraf ham ancha qurbon berdi. Ammo mo'g'ullar katta talafot bergan edi. Oyoqqa turguncha ularning anchasi qirildi. Juda ozchiligi omon qoldi. Orqada ikki ming o'lik qoldirib qochdilar. Bu mo'g'ullar ustidan qozonilgan ikkinchi katta g'alaba bo'ldi...

Jangdan keyin Jaloliddin Temur Malikni huzuriga chorladi.

— Ozchilik bo'lib ham zafar qozonish mumkinligi yana bir karra isbot bo'ldi. Otam qo'shinlarining boshida turib Chingizga qarshi chiqish jasoratini ko'rsatganida edi, Xorazm davlati hozir kim biladi nechog'lik kengaygan, nechog'lik rivoj topgan bo'lurdi.

— So'zingiz to'g'ri. Zafar qozonmoq uchun mohir sarkarda qo'l ostida e'tiqodli, chapdast askarlar bo'lmog'i lozim. Son

masalasi ikkinchi o'rinda turadi. Agar shunday bo'lmaganida edi, mo'g'ullar bizni yenggan bo'lurdi.

Qochoq mo'g'ul galalari yo'lda bir qancha xorazmliklarga duch keldilar. Ularning boshida O'zloqshoh bilan Oqshoh bor edi. So'nggi lahzada ular qilmishidan pushaymon bo'lgan, akalari Jaloliddin shaharni tark etganidan xabar topgach esa, butunlay ganggib qolgan, so'ng uning orqasidan ketishga qaror qilib, qavatlarida yuz kishi bilan yo'lga chiqqan edilar. Alamzada mo'g'ullarga duch kelgan guruh shu edi.

Mo'g'ullar shu kichik guruhdan alam olish uchun hujumga o'tdilar. O'zloqshoh bilan Oqshoh hech kutilmagan bir jasorat-la qilich solishdilar. Xorazmliklar jon-jahd bilan olishdilar. Biroq ularga to'qnash kelgan mo'g'ul qismi ancha ko'p edi. Buning ustiga ular alamdan vahshiylashgan edi. Shahzodalar halqani yorib o'tishga urindilar, ammo buning iloji bo'lmadi.

So'nggi daqiqalarda O'zloqshoh shunday deb pichirladi:

— Og'am Jaloliddinga qilgan yomonliklarim uchun boshim bilan javob bermoqdaman. Olloh meni kechirsin.

Akasining otdan dumalaganini ko'rgan Oqshoh darhol o'sha tomon shoshdi. Oldiga chiqqan mo'g'ulni bir qilich zarbi bilan qulatdi.

— O'lmas ekansan-a!

Telbalarcha baqirdi:

— O'zloq!

O'zloqshoh endi javob bera olmasdi. O'tkir mo'g'ul qilichi zarbidan u dunyoga ketgan edi.

— Javob ber, O'zloq!

Ehtiyotkorlikni unutib, otidan sakrab tushdi. Akasini quchoqlab, yonoqlaridan o'pdi.

— Meni tashlab ketma, O'zloq, meni tashlab ketma! Jaloliddinni tashlagan edik, endi bir-birimizni tashlab ketamizmi?

Bir mo'g'ul navkari uning orqasidan pusib kelib, zarb bilan nayza sanchdi. Oqshoh yelkasini teshib, ko'kragidan chiqqan nayzaga olaygan ko'zi bilan boqdi.

— Ollohim! — deya ingradi. So'ng O'zloqshohning ustiga yiqildi.

Mo'g'ul navkarlari muvaffaqiyatdan vaqti chog' bo'lib, uliy boshladi:

— Lu! Lu! Lu!

Ko'p o'tmay o'ldirilmagan xorazmlik qolmadi. Intiqom nash'asidan mast-alast mo'g'ul askarlari qo'l tutishib, jasadlarni tepkiladilar. Uzoq vaqt ko'ngilxushlik qildilar.

* * *

Sulton Jaloliddin yo'l-yo'lakay askar to'plab, yurishda davom etdi. Qavatidagi askarlar soni qisqa vaqt ichida o'n ming kishiga yetdi. Hech qayerda to'xtamay Nishopur va Zuyen yo'li orqali Hirotga yetib bordi. Baland qoyalar ustiga qurilgan mustahkam bir qal'ani ko'rdi. Temur Malik boshchiligida yaxshi niyat bilan hay'at yuborib, askar berishlarini talab qildi.

Qal'a kutvoli kelganlarni tanib quvondi. Jaloliddinga peshvoz chiqib, qo'lini o'pdi.

— Sultonimiz, — dedi u. — Qal'a mustahkam. Hozirga qadar bo'lgan barcha qamallarga bardosh berdik. Ollohning izni bilan yog'iyni qochirdik. Istasangiz, bu yerda qoling. Qal'ani mamnuniyat bilan sizga topshiray, men ham yoningizda askar bo'lay.

Jaloliddin oqko'ngil kutvolga ko'p iltifot ko'rgazdi, ammo taklifni qabul qilmadi.

— Mening vaziyatimda bo'lgan qo'shin sarkardasi ochiq maydonda jang qilmoqqa majbur, qo'mondon, — dedi u. — Qal'a ichiga yashirinib, harakatsiz qolsam bo'lmaydi. Tosh devorlar nechog'lik pishiq-puxta bo'lsa-da, e'tiqodli askarning imon to'la ko'ksi kabi ishonchli bo'lolmaydi. Bilasanki, mo'g'ullar bundan ham mustahkamroq qal'alarni qo'lga olishdi.

Kutvol Jaloliddin bu yerda qolmasligini bilgach, yoniga ming askar qo'shib berdi. Bu tomonga yo'li tushsa kirib o'tishini iltimos qildi. Jaloliddin va'da berdi. Qo'shini bilan yana yo'lga chiqdi.

Bust shahriga yaqinlashganida uning askarlari ellik mingdan oshgan edi. Xorazmning tariqday sochilib ketgan askarlari guruh-guruh bo'lib, qism-qism holida Jaloliddin qo'l ostiga kirishga shoshilishardi.

Jaloliddin Qandahorni qurshab olgan mo'g'ul qismlarini qilichdan o'tkazdi. Yo'lida duch kelgan o'n ming kishilik gurji qismini tumtaraqay qildi. Ketma-ket g'alaba qozonib, ilgari o'zi hokim bo'lgan G'aznaga kirib bordi. G'aznada xorazmlik olimlar va sarkardalar bilan uchrashdi, ahvolni ularga bayon etdi, yordam so'radi. Ayni chog'da o'zi tushib qolgan ahvol to'g'risida maslahatlashib olish uchun ham vaqt topdi. Uzoq muhokama bo'ldi. Nihoyat musulmon millatlarni Chingiz to'foniga qarshi muqaddas jihodga chaqirishga qaror berdilar. Abbosiy xalifa Nosirga maktub yozildi, dushmanlikni unutib, birlashmoq kerakligi bildirildi.

Onado'li saljuqiy sultoniga ham maktub yozilib, yordam talab qilindi. Elchilar mulozimlarini olib, shaharni tark etdilar.

Jaloliddin G'aznada ko'p kutib o'tirishni lozim topmadi. Qilinadigan ish ko'p. Qal'aga bekinib o'tiradigan payt emas. Oltmish ming kishilik qo'shin bilan shahardan chiqdi. Ancha yo'l bosdi. Mo'g'ullarning qorasi ko'rinmadi. Pakana ot minganlar g'oyib bo'lgan edi. Ammo bu sukut o'tkinchi ekanini Jaloliddin yaxshi bilardi. Ko'p o'tmay yaqin-atrofda to'fon ko'tarilib, qancha jonga zomin bo'lishi, necha-necha o'choqlarni so'ndirishi tayin.

Kobi daryosiga quyiladigan Lug'or irmog'i bo'yidagi Parvon shahrida to'xtadi. Qarorgoh tiklashni buyurdi.

Oqshom chog'i sarkardalarni chodiriga to'pladi. Nima qilish kerakligini so'radi:

— Qanday tadbir ko'rsak bo'ladi?

Hammasi deyarli bir xil javob berdi:

— Ayg'oqchilarimiz atrofni kuzatishga ketishdi. Ular qaytsin. Mo'g'ul qo'shini kelayotgan bo'lsa, darhol hujumga o'tish kerak. Endi ozchilik emasmiz. Mo'g'ul galalarini mamlakatimizdan haydab chiqarishga azm-u qaror berdik. Imon mash'ali alangalandi, jigar-bag'rimiz yonmoqda. Siz boshchimizda bo'lganingizdan keyin biz qilolmaydigan ishning o'zi yo'q.

Jaloliddin jilmayib Temur Malikka boqdi.

— Temur Malik nima deydi?

— Juda munosib gap deyman.

— Yaxshi, ammo otamning yonida achchiq gaplar aytarding, menga ham achchiq bo'lsa-da, rostini aytmaysanmi?

— To‘g‘ri so‘z xato yo‘lda turganlarga achchiq tuyuladi, sultonim! Sizning yo‘lingiz to‘g‘ri bo‘lganidan keyin men qanday qilib achchiq gap aytay?

— Ishonching komilmi?

— Ishonmaganimda etagingizni tutmagan bo‘lardim.

— Omon bo‘l, Temur Malik!

— Siz ham omon bo‘ling, sulton Jaloliddin!

* * *

Uch kundan keyin ayg‘oqchilarning ba’zilari halloslab qarorgohga kirib keldi. Ular Voliyon shahri mo‘g‘ullar tomonidan qamal qilingani haqida xabar berdilar.

Jaloliddin shu zahoti harakatga o‘tdi. Jadal yurish bilan Voliyonga yetib bordi. Shaharni qamal qilib turgan mo‘g‘ullarni qurshab oldi.

Mo‘g‘ul qo‘shini qo‘mondoni Muqajuq hujum kutmagani uchun shaharni olishga shoshilmagan edi. U yon-atrofiga vahshat solishdan zavq oladigan qonxo‘r mo‘g‘ul edi. Katta qo‘shin atrofini o‘rab olayotganini eshitib, hushi boshidan uchdi. Darhol qamalni tashlab, chekinmoqchi bo‘ldi, ammo endi kech edi. Atrofidagi halqa borgan sari torayib, siqib kelardi. Endi qocha olmas, urushishdan boshqa chorasi yo‘q edi.

Tushga yaqin ikki qo‘shin yuzma-yuz saf tortdi. Omonsiz jang bo‘lishi ma’lum bo‘lib qoldi. Muqajuq ro‘parasidagilar o‘zlaridan ikki barobar ko‘p ekanini ko‘rdi deguncha oyoqdan qoldi. Hiyla yo‘liga o‘tdi. Elchi yuborib, qamalni bo‘shatganini, behuda qon to‘kmaslik uchun chekinishini bildirdi. Orqasidan do‘q qilib ham ko‘rdi: “Aks holda Lug‘or irmog‘i suvga emas, qonga to‘ladi va buning ko‘pi xorazmliklarning qoni bo‘ladi”.

Jaloliddin mo‘g‘ul elchisiga g‘azab bilan tikildi.

— Hozirga qadar to‘kkan qonlaringizga yana bir hovuch qo‘shgan-qo‘shmaganingiz bilan ko‘targan vahshiy ismingiz o‘zgarib qolmasa kerak. Necha-necha shaharning kulini ko‘kka sovurgan, qanchadan qancha begunoh odamlarni qatl etgan, hatto tiriklay yerga ko‘mgan odam qon to‘kmaslik to‘g‘risida lof ursa kulging keladi, xolos. Bor, ket. Qo‘mondoningga aynan shunday de.

Elchi quruq qaytib, Muqajuqqa Jaloliddinning javobini yetkazdi. Muqajuq yuzini burishtirdi.

— Bu odam otasiga tortmagan ekan, jonini alvasti olsin, — dedi u. — Jang og‘ir bo‘ladi.

Bu paytda Temur Malik Jaloliddinning yoniga qaytdi. U elchiga berilgan javobni eshitmagan, chunki o‘sha vaqtda Jaloliddindan ancha uzoqdagi askarlarining boshida edi.

— Nima gap, Temur Malik?

— Dushmandan elchi kelganini ko‘rdim, muddaosi nima ekan? Avf istayaptimi?

— Yo‘q. Qamalni bo‘shatishga rozi ekanini aytishdi. Chiqib ketishga imkon berishimizni xohlayapti.

— Qanday javob berdingiz?

— Rozi bo‘lmadim.

Temur Malik sultonning ko‘ziga tik boqdi.

— Nima qildingiz, Jaloliddin? Biz bosqinchi emasmiz-ku. Tarix hukm etganida bizni hech qachon tajovuzkor deb esga olmasin.

— Nima demoqchisan, Temur Malik? Ruxsat beray-u, chiqib ketsinlarmi? Shuncha zulmlaridan keyin ham-a?

— Boshqa taklif bersa ham bo‘lardi.

— Masalan?

— Garovga ming kishi bersin, o‘g‘ruq va qurol-yarog‘ini tashlasin, otlarini ham bersin. So‘ng to‘rt tomoni qibla, qonidan kechdik. Ketaversinlar.

— Nima deyapsan o‘zi? Bunday taklifga kim ham rozi bo‘lardi?

— Rozi bo‘lmasa, urush bo‘ladi.

Jaloliddin Temur Malikning maqsadini tushundi — tajribali sarkarda istiqbolni o‘ylab, shunday qarorga kelgan edi.

— Omon bo‘l, — dedi sulton. — Har doimgidek sen haqsan. Tajovuzkor bo‘lmaslik kerak. Hali xatoni tuzatishga vaqt bor. Elchi yuborib, takliflarimizni aynan bildiraylik, qabul qilsalar, xo‘p-xo‘p. Qabul qilmasalar, urush mas’uliyati ularning zimmasiga tushadi.

— Buyuring, men boray.

— Yo‘q! Bu toifaga ishonch yo‘q. Jahl ustida senga bir zahmat yetkazishlari mumkin. Boshqa birovni yuboraylik. Gapga chechan birini top.

Temur Malik otini burib, askarlar tomon yurdi. Ko'p o'tmay bir bahodir suvoriyni boshlab qaytdi.

— Boytu bu ishni hammamizdan yaxshi bajaradi. Kerak javobni ham bera oladi.

— Darhol ketsin. Nima deyish kerakligini unga ayt.

Boytuga tushuntirildi. U nayzasining uchiga oq bayroq taqdi-da, dushman tomonga ot surdi.

Mo'g'ul qo'mondoni yaqinlashib kelayotgan oq bayroqli askarni ko'rib umidlandi.

— Qarang, — dedi u, — aqli joyiga keldi shekilli ularning.

Ammo elchidan taklifni eshitishi bilan quturdi:

— Ona suti og'zidan ketmagan Jaloliddin meni otasiga o'xshatdimi? Mo'g'ullar qachon dushmandan qochgan?

Boytu ot ustida haykaldek o'tirardi. Uning lablarida kinoyali bir tabassum jilva qildi.

— Mo'g'ullarning keksa kampirlar va oyog'i chiqmagan go'daklar qarshisida qahramon ekanini bilamiz. Bizga bas keladigan bir mo'g'ul qo'shini ham yo'q. Birozdan keyin bo'ladigan urush uchun butun mas'uliyat sizning zimmangizda. Yo taklifimizni qabul qilasiz, yoki qashqirlar murdalaringiz ustida katta ziyofat quradilar.

Bu manzarani ko'z oldiga keltirgan Muqajuq titrog'ini yashira olmadi. A'zoyi badani muzlab ketdi. Shunga qaramay u:

— Urushamiz, — deb to'ng'illadi.

Boytu otini yo'rg'alatib ketdi.

— Unday bo'lsa o'lmoqqa hozirlaning, ko'p o'tmay sasingiz o'chib, jasadingiz soviydi, — deb qichqirdi u qayrilib.

Boytu Jaloliddinning yoniga qaytib keldi.

— Qabul qilmadilar, sultonim.

Jaloliddin Temur Malikka kulib boqdi.

— Bu turgan gap edi, — dedi. — Temur Malikning taklifi yog'liqqina luqmamidi?

Askarlariga yuzlandi:

— Tayyorlaning, Xorazm arslonlari!

Saf uzra javob gulduradi:

— Amringizga shaymiz, sultonim!

Sulton Jaloliddin qo'lini Temur Malikning yelkasiga qo'ydi.

— O'zingni ko'rsat, Temur Malik. Yashin kabi chaqna, chaqmoqek ur. Omad yor bo'lsin.

Vidolashib ayrildilar. Temur Malik askarlarining yoniga qaytdi.

— Tayyormisiz, burgutlarim?

— Tayyormiz, Temur Malik!

— Sultonning ishoratini kutaylik.

Ko'p kutishga hojat qolmadi. Jaloliddin ko'kish otiga minib eng oldingi safga o'tdi. Otining quyrug'ini bog'lashni buyurdi. Bu ish bitgach, qilichini sug'urdi. Dushman safiga ishora qilib hayqirdi:

— Qani, hujuuum!

To'g'onni buzgan sel kabi to'rt qo'ldan bostirib bordilar, oldiga chiqqan to'siqlarni bir-bir yanchdilar.

— Olloh! Olloh! Olloh!

— Yo Haq! Yo Haq!

Dushman saflari uzra oh-faryod tovushlari ko'tarildi. Hayajondan xoli bir ovoz eshitildi:

— Lu! Lu! Lu!

— Ur-ho! Ur!

Yoqa bo'g'ishdilar. Qilichi singanlar bo'ldi. Ular mushtlashar, tepishar edilar. Og'ir yaralanib otdan yerga tushgan xorazmliklar joni chiqmasdan burun hech bo'lmasa yana bir-ikki dushmanni yo'q qilish uchun emaklab borib dushman otlarining biqiniga qilich sanchar edilar.

Qon selday oqdi. Jasadlar tepadek uyuldi. Mo'g'ullar dosh berolmasliklarini sezdilar. Mag'rur mo'g'ul qo'mondoni Muqajuq uch mingta o'lik qoldirib jang maydonini tark etdi. Jonini zo'rg'a qutqardi. Zafar mo'g'ullarning yengilmasligi to'g'risidagi afsonani chippakka chiqardi, ularning ins-u jins emasligi ma'lum bo'ldi. Barcha shod-u xurram, jang ishtiyoqi borgan sari ortardi.

G'alabadan so'ng Jaloliddin Chingizxonga maktub yubordi: "Urushadigan joyingni bildir. Men seni o'sha yerda kutaman".

Ustma-ust ro'y bergan mag'lubiyatlardan g'azablangan Chingizxon hali jahlidan tushmagan edi. Jaloliddin Xorazmshohdan kelgan maktub uni battar quturtirib yubordi. Xorazm elchisini qamchilatdi, bunga ham kifoya qilmay qoziqqa o'tqazishni buyurdi.

Elchi pinagini ham buzmadi. Aksincha, jasurlik bilan dedi:

— E'tiqodli insonlar o'limdan qo'rqmaydi, Chingizxon! Abadiy qudratli bo'laman, deb o'ylaysanmi? Bir kuni seni ham qoziqqa o'tqazadiganlar chiqadi. Qilgan gunohlaring uchun birma-bir jazo berishadi.

Chingizxon o'zini yo'qotdi. Telbaga aylandi. Sariq chodir ichida bir muddat kezdi.

— Kim... Meni qoziqqa o'tqazishga kim jur'at eta oladi?

— Aniq bilmayman. Lekin har holda bu ishni mening sultonim Jaloliddin qilsa kerak.

Chingizxonning quti o'chdi. O'lim dahshati yana uning ichini tilimlab qonga to'lg'izdi. Og'zining chetida ko'pik paydo bo'ldi.

— Opchiqing tez bu odamni! — deb o'shqirdi u. — Qoziqqa o'tqazilmasin, qoplonimga berilsin, chunki ko'p jasur ekan.

Xoqonning qoploniga yem bo'lish, mo'g'ullarning e'tiqodiga ko'ra, eng sharafli o'lim hisoblanardi. Xorazm elchisiga buni loyiq ko'rmadilar, ammo birov g'iq etib e'tiroz bildirolmadi. Elchini tashqariga sudrab olib chiqishdi.

* * *

Chingizxon chodirda kezishda davom etdi. Kayfiyati buzuq. Buning ustiga qo'rquv yoqasidan olgan. O'limning muzdek sovuq nafasi ruhini egallab olgandek sezardi o'zini. Yoshini yashagan sari o'lim qo'rquvi changalidan qutulolmaydigan bo'ldi. Eslagan zahoti dahshatga tushardi. Qonli ko'zini bosh shomonga tikdi.

— Xo'sh, shomonboshi, obihayot topishga ketgan odamlaring haligacha qaytmadi-ku.

Bosh shomon hurmat bilan ta'zim bajo keltirdi.

— Keladi, buyuk xoqon, tashvishlanmang.

— Tashvishlanmaymi? Sen o'lim nima ekanini bilasanmi o'zi? Odamni qoziqqa o'tqazgach, sekin-sekin jon taslim etadi. Buning naqadar qo'rqinchli ekanini bilasanmi? Bundan qutulishim lozim. O'limni o'ylamasligim kerak. Biroq bu ish qo'limda emas...

Chorasizlikdan qo'llarini yozdi. Xirillagan bir ovozda:

— Menga abadiy yashash chorasini so'zlangiz, — dedi.

Qo'mondonlar-u beklarning boshi xam bo'ldi. Jebe no'yon chiday olmay oyoqqa turdi.

— Sizga bir haqiqatni aytaymi, ulug' xoqon?

Xoqon Jebega umidvor boqdi.

— So'yla, Jebe, menga yaxshi gap ayt. O'lmaslik chorasini so'yla.

— O'lmaslik mumkin, ulug' xoqon, faqat shu ma'nodaki...

— Nima demoqchisan?

— O'lmaslik qaysi ma'noda ekanini aytmoqchiman. Inson yaxshi ishlari tufayli seviladi, undan unutilmaydigan yaxshi ishlar qolsa, u abadiy barhayot hisoblanadi.

— Yanada ochiqroq so'yla!

— Amringiz vojib, ulug' xoqon. Ammo bundan ortiq qanday tushuntiray? Men olim bo'lmasam. Balki bosh shomon izohlab berar. Ne qilsin, u ham qo'rqqanidan to'g'risini aytolmaydi va o'zini obihayotni izlayotganga soladi. Abadiyat dorisi yo'q, ulug', xoqon. Sizni aldashyapti!

Chingizning ko'zlari olaydi.

— Aldashyaptimi, kim aldayapti? Bunga kim jur'at qildi?

— O'lim chorasini topaman degan har bir kishi sizni aldayapti, sizni zuluk kabi so'ryapti tekinxo'rlar!

Chingiz barmog'i bilan bosh shomonni ko'rsatdi:

— O'lmaslik to'g'risida u gapirgan edi.

Jebe qo'lini qilichiga yubordi.

— Unday bo'lsa, ruxsat bering, kallasini cho'rt uzib tashlay. Bir ulug' xoqonni o'lmaslik to'g'risidagi ertaklar bilan aldagani uchun jazosini olsin. Endi yolg'on so'zlashni bas qila qolsin.

Haqiqat qarshisida Chingizxon hang-mang bo'lib qoldi.

— Xotinim Bo'rta ham zahar ichishidan oldin shunday degan edi. Demak bu gap yolg'on ekan-da!

Bosh shomon tomon o'girildi.

— Xo'sh, sen nima deysan, shomonboshi?

Bosh shomon miq etmadi. O'lim yoqasidan olgan, qutulish uchun chora topolmas edi.

— Javob ber, o'limning chorasi bormi?

Bosh shomon hanuz sukutda, shu onda so'ylashga bir bahona ham kelmasdi esiga.

Chingizxon qattiq g'azablandi. Ko'zi pirpirar, bosh shomonga yeb qo'ygudek o'qrayib boqardi.

— Nega mum tishlading? Hozirga qadar meni aldab keluvding-ku, jur'ating endi nega so'ndi? Demak, Jebening so'zlari roppa-rost. Menga nuqul yolg'on so'ylading, o'lmaslik to'g'risidagi afsonalar bilan ovutding meni, nega bunday qilding, nega?

Boshqa biri bo'lganida allaqachon o'limga hukm qilgan bo'lurdi, ammo ro'parasidagi odam bosh shomon. Askarlar o'rtasida katta hurmat-e'tibori bor. Hatto uning obro'si goho xoqonnikidan ham baland bo'lardi.

Qilich yalang'ochlab buyruq kutayotgan Jebega negadir "O'ldir!" degan ishora bermadi. Faqat:

— Bu odamni hibs eting! — deb baqirdi. — Qamoqda obihayot to'g'risida bosh qotirsin. Topgan vaqtida ozodlikka chiqadi.

Bosh shomon atrofiga alangladi. Qo'mondonlarning ko'zlarida dushmanlik uchqunlari o'ynar edi. Joni omon qolgani katta gap. Har holda hibsda uzoq qolib ketmasa kerak, qutqaradiganlar topilar.

Shu gaplar xayolidan kechgach, dadillandi.

— Bir umr pushaymon bo'lasiz bu qaroringiz uchun, ulug' xoqon, — dedi u. — Men din arbobiman. Sizni xafa qilmaslik uchun o'lim haq ekanini sizdan yashirdim. Nima, bu ayb ishmi?

— Albatta! O'lmaslik mumkinligi to'g'risida menga axir sen gapirgansan-ku.

— O'limdan shunchalik qo'rqasizki, tasalli bermoq uchun boshqa chora topmadim. Atrofingizda har kuni minglab inson o'layotganidan vahimaga tushdingiz. O'lmaslik to'g'risida o'ylagandan ko'ra shu qatli omni to'xtatishni o'ylaganingiz yaxshi emasmi? Siz o'limdan emas, qilg'uliklaringiz uchun hisob bermoqdan qo'rqmoqdasiz.

Chingizning yupqa lablari yanada yupqalashdi. Bo'g'iq ovoz bilan baqirdi:

— Daf bo'l!

Soqchilarga o'girildi.

— Nega buni so'zlatib turibsiz? Oling, opketing buni.

Bosh shomon yana bir gap aytishga ulgurdi.

— O'limdan qo'rqqanlarga o'lim tezroq keladi, Chingizxon, qancha qochma, ajaldan qutulolmaysan!

Ovozi o'chdi. Uni tashqariga sudrab chiqdilar.

Chingizxon o'z-o'ziga ming'illay boshladi.

— O'lmaslik dorisi bo'lgan obihayot yer yuzida yo'q ekan. Meni aldadilar. Yoxud aldanmoq o'zimga ma'qul tushdi. Qo'rqqanim uchunmi? Nega endi qo'rqishim kerak? Kimdan qo'rqaman? Jaloliddin Xorazmshoh. Bir dahshat u. Otasiga hech o'xshamaydi. Muqajuqni yakson qildi, qo'shinini to'zitdi. Odamlarimning menga ishonchi susaymoqda. Buni sezmoqdaman. Eng avvalo, Jaloliddinni yo'q qilmoq kerak. Ahmoq hojib Ali bu ishni uddalay olmadi. Jaloliddin ancha ayyor ekan. Saljuqiylardan yordam so'rabdi. Boshqa tarafdan xalifa Nosir bilan sulh tuzishga urinayotganmish. Bularning hammasini buzish kerak. Islom birligi ta'min etilsa, biz sob bo'ldik demakdir.

Jebega yuzlandi.

— O'gay ukam Shiqu Xutuhu no'yonni bu yoqqa chorla.

Jebe chiqdi. Chingizxon boshqa qo'mondonlariga tikildi.

— O'gay ukamni qirq ming kishiga bosh qilib Jaloliddinning ustiga yuboraman. Ko'p taltayib ketdi, burnini yerga ishqab qo'ymoq kerak.

— To'g'ri, ulug' xoqon.

— Yana Xorazm yerlarini yag'molaymiz. Otlarimizga yangi yaylovlar topamiz. Xotinlarimizni yangilaymiz.

— Lu! Lu! Lu!

Quvonch na'ralari sariq chodirni boshga ko'tardi. So'ng qo'mondonlar chodirni tark etdilar. Ichkariga Shiqu Xutuhu no'yon kirdi.

Chingizxonning o'gay ukasi Shiqu Xutuhu no'yondan barcha o'zini olib qochardi. U haddan tashqari zolim, qonxo'r bir maxluq edi. Urush unga zavq, o'ldirish esa undan ham ziyoda lazzat bag'ishlardi. Chingizning og'zidan urush xabarini eshitar-eshitmas sarg'aygan ko'zlari qisilib ketdi, bor ovozi bilan o'kirdi.

— Lu! Lu! Lu! Lu!

Chingiz biroz kutib turdi, so'ng ilova qildi:

— Shoshma, Xutuhu. Sen Jaloliddinning ustiga ketayotirsan. U otasiga hech o'xshamaydi. Kutilmagan yerda paydo bo'ladi, aql

bovar qilmaydigan harbiy usullar qo'llab, dushmanlarini to'zg'itib yubormoqda. Hozirga qadar barcha janglar bizning zararimizga yakunlandi. Obro-e'tiborimiz borgan sari tushib ketmoqda. O'zingni ko'rsat, mo'g'ullarning yengilmas ekanini isbotla. Qirq ming kishilik qo'shin beraman senga. Bu hozirga qadar sen qo'mondonlik qilgan eng katta qo'shindir. Odamlarni o'zing tanla va tayyorla. Sendan zafar xabarini kutaman.

Shiqu Xutuhu no'yon yerga tiz cho'kib, ishshaygancha Chingizxonga ta'zim bajo keltirdi. So'ng tashqariga chiqdi. Vaqtni boy bermay qirq ming kishini tayyorlashga kirishdi. Kecha-yu kunduz yugurib yeldi. Bir hafta ichida qo'shin yo'lga hozir bo'ldi.

Bayroqlar ko'tarildi, dovullar urildi va Shiqu Xutuhu boshchiligida tanlangan qirq ming mo'g'ul navkari Jaloliddinning ustiga yurdi.

Jaloliddin bundan xabar topgan edi. Mo'g'ullarning ilg'ori yetib kelmasdan oldinoq u jangga tayyor bo'ldi. U dushmanni Parvon ostonasida kutib turardi. G'aznani bosish xayolida kelayotgan Xutuhu no'yon Xorazm qo'shinini yo'l ustida va jangga hozir holda ko'rgach, ancha gangib qoldi. Dushman haqiqatan ham kuchli ekanini ilk daf'a ich-ichdan e'tirof etishga majbur bo'ldi. Askarlarini safga tizdi.

Ayni chog'da sulton Jaloliddin ham askarlarini hozirladi. Temur Malik u yoqdan bu yoqqa ot choptirib, barcha ishga ulgurishga harakat qilardi. Tayyorgarlik bitgach, Xorazm shohi Jaloliddin askarlari oldida qisqacha so'z so'zladi.

— Arslonlarim! Otlaringiz charchamasligi uchun dovul urilgunga qadar ustiga minmang. Otga mingach, tizginni belingizga bog'langiz, toki ikki qo'llab harakat qilish mumkin bo'lsin. Hamma mangizdan sabot kutaman. Olloh biz bilan. Ko'z oldimizda na iqbol va na boshqa bir dunyo manfaati bor. Yakka-yu yagona g'oyamiz — dinimizni yuksaltirmoq, buyuk bir islom davlati qurmoqdir. Buyuk bo'lsak dushmanlarimiz bizni g'ajiy olmaydi. Agar bo'linsak, kichraysak bo'riga yem bo'lamiz. Dinimiz u yoqda tursin, o'zimizni ham qo'riy olmaymiz. Shunday ekan, g'azot maydoniga! Bugun jasorat kunidir, bugun matonat kunidir, bugun shahodat kunidir. Olloh yordamchimiz bo'lsin. G'azotingiz muborak bo'lsin!

Bir muddat kutib qolishdi. Dushman ot ustida, xorazmliklar bo'lsa piyoda. Jaloliddinning amriga ko'ra otlar zaxiraga olingan edi. Otlar bekorga charchamasligi lozim, jang qancha davom etishi noma'lum.

Jaloliddin oldiniga Xutuhu no'yonga elchi yuborib taslim bo'lishni taklif etdi. Shunday bo'lgan taqdirda u jangdan voz kechmoqchi edi.

Chingizxonning o'gay ukasi qahqaha otib kuldi. Barmog'ini elchining yuziga nayzadek nuqidi.

— Bor, sultoningga ayt, uni otimning quyrug'ida sudrab-sudrab ulug' xoqonning oyog'i ostiga olib borib tashlayman.

Elchi qaytdi. Aytilgan gaplarni takrorladi. Jaloliddin Temur Malikka qarab kulimsiradi.

— Nima deysan, Temur? Yog'iy taslim bo'lmoqni rad etibdi.

Temur Malik otiga mindi.

— Dovullar urilsin deyman, sultonim, urushmoq damidir.

Jaloliddin otliq edi. Dovulchilarga ishora qildi. Ilk to'qmoq tovushi eshitilishi bilan askarlar irg'ib otlarga mindilar. Takbir tovushlari porlagan peshin quyoshiga qadar yetib bordi. "Olloh, Olloh!" tovushlari gumburlab aks sado berdi. Xorazm qo'shini hujumga o'tdi.

Ilk to'qnashuv nihoyatda dahshatli bo'ldi. Temur Malik qo'li ostidagi o'ng qanot jang boshidayoq mo'g'ullarning so'l qanotini yanchib, o'rtasiga qadar yorib kirdi. Temur Malik azbaroyi qizishib ketganidan xiyla ilgarilab ketganini sezmay qoldi. U dushman yordamchi qismlarini to'plab orqadan zarba berishga harakat qilayotganini fahmlab qoldi. Shu zahotiyoq jang uslubini o'zgartirdi. Yaxshi ta'lim ko'rgan qismini orqaga qaytarib, shiddat bilan hujum qildi. Orqa tomonga o'tib, uni o'rab olishga uringan mo'g'ul qismlarini sarosimaga solgan bu usul bilan u halqani yorib chiqdi. Dushman o'ziga kelib ulgurmasdan oldinoq u hujumga o'tdi. Hujum darhol samara berdi. Mo'g'ullarning so'l qanoti to'zib ketdi. Navkarlar bir-birini bosib-yanchib qocha boshladilar.

Temur Malik muvaffaqiyat qozongan lahzada markazda Jaloliddin ham g'alabaga erishayotgan, yordamga ehtiyoji yo'q edi. Temur Malik vaqtni boy bermay so'l qanot qo'mondoni Sayfiddinbekka

yordamga shoshdi. Mo'g'ullarni chekinishga majbur qilgach, markazga oshiqdi. Har tarafda zafar qozonishdi. Shiqu Xutuhu no'yon tahlikani vaqtida fahmladi. Chekinish to'g'risida burg'u chalishni buyurdi. Mo'g'ullar o'rmon tomonga chekinishdi.

Sarosimaga tushgan va parokandalikka yuz tutgan mo'g'ul qo'shinini butkul yo'q qilmoq mumkin edi. Biroq qosh qorayib qoldi. Qorong'ida jang qilish har ikki tarafning katta talafot ko'rishiga sabab bo'lardi. Shu bois Jaloliddin ba'zi qo'mondonlarining jangni davom ettirish to'g'risidagi takliflarini rad qildi. Buning o'rniga yaradorlarni jarrohlar huzuriga eltishni, shahidlarni dafn etishni buyurdi.

Ertasiga tonggi namozdan keyin jang yangidan boshlandi. Xutuhu no'yon bu gal ehtiyotkorona ish tutdi, odamlarini bo'lib hujumga tashlar va xorazmliklarning birgalashib harakat etishlariga xalaqit berar edi. Biroq oqshomga qadar biror natijaga erisha olmadi.

Shiqu Xutuhu no'yon harchand urinmasin g'olib chiqa olmasligiga ko'zi yetdi. O'sha kechasi u navkarlarini tonggacha uxlatmadi, o't yuldirdi. O'tlarni qoplarga joylatib, kiyim kiydirdi. So'ng otlarning ustiga bog'lab, safga tizdi. Bu qo'g'irchoqlar uzoqdan jonli askar kabi tuyular edi. Jaloliddin bu hiylaga uchsa, Xutuhu no'yonning omadi chopgan bo'lurdi.

Uyqudan uyg'ongan xorazmliklar dushman safiga nazar tashlab qo'g'irchoqlarni askar deb o'yladilar. Mo'g'ul qo'shiniga yordam yetib kelibdi degan xayolga bordilar. Hatto ba'zi beklar jangdan voz kechish taklifini ham o'rtaga tashladi. Jaloliddin hammasini tinglagach, qarorini aytdi.

— G'azot maydoniga bir marta kiriladi, yo u yerda o'lish, yoki u yerdan zafar bilan chiqish kerak. Binobarin, zafar qozonmas ekanmiz, hech bo'lmasa o'lish ham qo'limizdan kelmaydimi? Qaysi birimiz shahodatdan boshqa bir narsani o'ylabmiz? Qani, turing, g'oziylarim. Olloh qo'llasa, zafar qozonamiz.

Bu so'zlar o'z ta'sirini ko'rsatdi. Xorazm qo'shini yangi bir ruh, toza imon bilan hujumga o'tdi. Dushman saflarini yordilar. Qo'g'irchoq askarlarni yaqindan ko'rgach, hayron qoldilar. Ular buning bir hiyla ekanini tushunib yetdilar, ruhlari yanada yuksaldi. Askarlar jo'shib, hujumga kirishdi. Qisqa vaqt ichida, peshinga bormay qat'iy natija ma'lum bo'ldi. Mo'g'ullar to'da-to'da o'lik va yarador qoldirib tumtaraqay qochdilar. Qattiq ta'qib boshlandi. Dushmanning ko'pi qilichdan o'tkazildi. Shiqu Xutuhu no'yon bir necha ming kishi bilan zo'rg'a qutulib, Chingizxon qarorgohiga yetib borishga muvaffaq bo'ldi.

Jaloliddinning bu zafari og'izdan og'izga o'tib, butun mamlakatga yoyildi. Balx shahrini qamal qilib yotgan mo'g'ullar bu xabarni eshitgan zahoti qamalni bo'shatib chekindilar. Ishg'ol etilgan ba'zi shaharlarda xalq oyoqqa turdi, bosqinchi mo'g'ullarni tumtaraqay etib haydadi.

Chingiz afsonasi kun sayin chippakka chiqib, uning o'rniga Jaloliddin to'g'risida rivoyatlar to'qila boshlandi. Xorazm qo'shini oyoqqa turgan edi. Ular oralariga nifoq tushguniga qadar g'alaba ustiga g'alaba qozondilar, majusiylarga oldirgan yerlarni bir-bir qaytib oldilar.

BESHINCHI BO'LIM

Chingizxon musulmonlarni ochiq maydonda yenga olmasligiga astoydil ishona boshlagandi. U yana hiyla ishlatishga o'tdi. Qo'li ostidagi ikki musulmon xonini yoniga chaqirtirdi. Ular qarluqlar hukmdori Arslonxon va Olmaliq hukmdori Sug'noq Tegin bo'lib, ancha uzoq zamonlardayoq Chingizxondan omonlik tilab, unga tobe bo'lgandilar. Ular avvaliga xolis niyat bilan shu yo'lni tutgan, Chingizxonning vahshiyliklarini to'xtata olish, hech bo'lmaganda mu-sulmonlarga o'tkazilayotgan tazyiq-u zulmni ozgina bo'lsa ham yumshatish umidida edilar.

Taassufki, ularning umid-u niyatlari puchga chiqdi, ishlar ular o'ylaganicha emas, aksincha, teskarisiga ketaverdi, xonlar o'zlari bilmagan holda Chingizxon qo'lida qurolga aylandilar. Ko'p joylarda musulmonlar ularga ishonib, jang-u jadalsiz taslim bo'lardi. Bu ikki xon biror kishi Chingiz qilichidan omon qolguday bo'lsa, buni o'z xizmati deb hisoblar, ular bo'lmagan taqdirda musulmonlarning barchasi qilichdan o'tkazilgan bo'lur edi, deb o'zlariga tasalli berar, bir-birini qutlar edilar.

Chingiz huzuriga kelishgach, ular xoqonning niyatini yuzidan bilishga urindilar. Ammo Chingiz o'ylagan narsasini yuzida zohir ettiradigan anoyilardan emasdi. U hatto Shiqu Xutuhu no'yonning tumtaraqay etilganidan ham unchalik mutaassir bo'lmagan, o'gay ukasini yupatgan edi.

— Hozirga qadar g'olib kelishga o'rganganing uchun mag'lubiyat senga og'ir botayotir. Katta tajriba orttirding deb umid qilaman, — degan edi u.

Xoqon Arslonxon bilan Sug'noq Teginga joy ko'rsatgach, taxtiga chiqib o'tirdi. So'l oyog'ini ostiga olib, o'ng oyog'ini qo'llari bilan quchdi. Boshida yoqutlar bilan jilo berilgan, uchta tulki quyrug'i bog'langan toj. Xonlarni boshdan oyoq kuzatdi.

U anchagacha bir so'z qotmay xonlarga tikilib o'tirdi. Ichida ularga nechog'lik ishonish mumkinligi to'g'risida o'ylar edi. So'ng hissiz, bo'g'iq ovozda:

— Menga quloq bering, xonlar, — dedi u. — Yaxshilab tinglang. Bilasizki, Jaloliddin balosi to'fon kabi esmoqda. Kulga aylangan o'ch olovini yoqdi u, minglarcha insonlar bekorga o'lib ketmoqda, minoralar, jomelar yiqilmoqda, shaharlar yonmoqda. Jahlga erk bermaslik uchun o'zimni tutishga rosa urindim, ammo uning qilayotgan ishlari jim kuzatib o'tiradigan ish emas! Mening istagim tinchlik. U bo'lsa-chi? Urushmoqni xohlaydi. Nega endi urushish kerak? Insonlar tinchlikka bugungiday muhtoj bo'lgan bir vaqt bormi o'zi? Bir vaqtlar uning otasi bilan oramiz buzilgan edi. O'chimizni oldik. Hisob-kitobimiz bitdi. Muhammad Xorazmshohni ajal oldi. Men soppa-sog'man. Demak, haqiqat men tomonda. Xo'sh, Jaloliddin nega buni tushunishni xohlamay, ustimizga bostirib kelmoqda? Endi qartayib qoldim, qon to'kishdan xursand bo'lmayman. Zotan hech qachon bu ishdan quvongan emasman. Ig'vogarlik qilganlari uchun men urushga kirishga, jazosini berishga majbur bo'ldim.

Ro'parasidagilarning yuziga razm soldi. Bir-ikki yo'talib oldi.

— Siz musulmonsiz. Sizga o'xshagan yana qancha musulmon mening xizmatimda. Hammasi meni qo'llab-quvvatlayapti, qilgan ishimni ma'qullayapti. Sizdan mamnunman. Diningizni saqlab qolishni istaysiz, albatta. Buni hisobga olsak, diningiz uchun Jaloliddindan zararli bir maxluq yer yuzida yo'q. Musulmonlarni o'lim otashidan qutqarmoq istasangiz, ularni Jaloliddindan ajratishga harakat qilmog'imiz lozim.

Arslonxon so'radi:

— Amringiz nedir?

Mo'g'ul xoqoni ayyorona iljaydi.

— Amr emas! Agar diningizga xizmat qilmoq niyatida bo'lsangiz, mendan amr olmasdan ish boshlang.

— Ne qilaylik?

— U yog'ini o'zingiz yaxshi bilasiz. Musulmonlar sizga ishonadi. Ularning yoniga boring. Ba'zi xonlar bilan kelishing. Jaloliddin diningizga zarar berayotganini tushuntiring. Ko'p toqat qilib turolmasligimni, jahlim chiqsa butun musulmonlarni tarixdan yo'q qilish uchun harakat boshlashimni so'ylang. Buning uchun Jaloliddin va unga tobe ba'zi amirlar javobgar ekanini gapiring. Jaloliddinni tutib bersinlar. Xorazmning barcha shaharlarini topshirishga tayyorman. Har birini bir qal'aga hokim etaman. Diniga, millatiga o'zlari xohlagancha xizmat qilsinlar. Agar kimdir ularga hujum qilmoqchi bo'lsa, qo'shinlarim yordamga boradi.

Arslonxon javobni yanada aniqroq bilib olish uchun oldinga egildi.

— Bu ishlarni qilasizmi, ulug' xoqon?

Chingizning ko'zlari ma'nosiz edi.

— Albatta, qilaman. Mening hech kimga dushmanligim yo'q. Alouddin Muhammad bilan dushman edik. U o'ldi. Endi Jaloliddin boshimizga balo bo'ldi. Ulusimni muhofaza etishga majburman. Xorazmliklar dushmanlikni tashlasinlar, mendan do'stlikdan boshqa bir narsani ko'rmaydilar.

Ikki xon ko'z urishtirdi. Sug'noq Tegin:

— So'zlaringizga ishonamiz, — dedi. — Qo'limizdan kelgan barcha ishni qilamiz. Oldin G'aznadagi ba'zi xonlarga maktub yozganimiz yaxshi, so'ng kerak bo'lsa o'zimiz borib ko'rishamiz.

Chingizning afti tirishdi. Lablarida qo'rqinchli bir tabassum o'ynadi.

— Qaysini ma'qul topsangiz, shuni qiling. Faqat vaqt ketmasin. Sizdan shuni so'rayman.

Xizmat qilish imkoni paydo bo'lganidan shodlangan xonlar sariq chodirdan chiqdilar. Ular Chingizning so'zlariga laqqa tushgan yoki unga ishonmoq istar edilar. Arslonxonning chodiriga ketdilar. Maktublar yozib, ishonchli odamlar orqali ba'zi xonlarga jo'natdilar. Ular Chingizning va'dalariga yana ancha-muncha va'dalar ilova etdilar, xoqonning aytgani kabi emas, o'zlari qanday tushunishni xohlagan bo'lsalar, o'shanday qilib yozdilar. Maktublardan biri eski do'stlari bo'lgan Sayfiddinbekka jo'natildi. Sayfiddinbek G'aznada Jaloliddin yonida bo'lib, qo'li ostida o'ttiz ming suvoriy bor edi.

Ajabo, maktub o'z ta'sirini o'tkazarmikan?

* * *

Chelakdan quyganday sharros yomg'ir yog'ardi. Jaloliddin Xorazmshoh qarorgohiga horib-charchagan bir chavandoz kelib, Sayfiddinbekni so'radi. Uni darhol bekning huzuriga olib borishdi.

— Ne istaysan, ey ajnabiy?

Kelguvchi bir so'z demay teriga o'rog'lik maktubni uzatdi. Sayfiddinbek qo'l cho'zib oldi.

— Kimdan?

— Sug'noq Tegin bilan Arslonxonning muhrlari urilgan.

Sayfiddinbek kulimsiradi.

— Xayrli bo'lsin ishqilib. Qani, ko'raylik, eski qadrdonlarimiz ne istar ekan?

Soqchini chaqirib, ajnabiyni istirohatga olishni buyurdi, so'ng maktubni ochib, ko'z yugurtirdi.

Dastlab shoshib qoldi. Do'stlari Jaloliddinni tutib berishda Sayfiddinbekdan yordam so'ragan edilar. Boshqa xonlarga ham maktublar kelgandi. Ismlari yozilgan va ularga birlashish tavsiya etilgandi. Aks holda Chingizxon hujumga o'tishi aytilgan edi.

Sayfiddinbek uzoq o'yladi. Hafta o'tgach, bir qarorga keldi. "Maktubda yozilgan gaplarda mubolag'a borligi, shubhasiz, — dedi u o'z-o'ziga. — Biroq ayrimlarida jon bor".

Maktubda ismlari ko'rsatilgan xonlarni bir-bir ziyorat qilib, ularni uyiga chorladi. Ular bilan bamaslahat bir to'xtamga kelishi kerak edi.

Uning tushunishicha, Jaloliddin bekordan bekorga urushni qizitmoqda, borgan sari mamlakatni boshi berk ko'chaga sudramoqda. Yosh, jasur, shijoatli. Surunkali urush olib borish tarafdori. Vaholanki, barcha urushdan bezgan, to'ygan. Barcha yana avvalgiday qal'alariga qaytib, ekin-tikin bilan shug'ullanmoq istaydi. Yillardir qo'lda qilich, tagida ot bilan dasht-u sahro kezish askarlarning joniga tekkan. Hozir bo'lsa, Chingiz sulh taklif qilmoqda. Qabul qilish kerak. Jaloliddinni taslim etib, sulhga erishish mumkin. Aks holda Chingizxon musulmonlarni qirib bitirishini bildirgan. Dinni Ollohning o'zi qo'riqlaydi, albatta. Ammo Xorazm mamlakatining yanada vayron etilishidan kim manfaat ko'radi? Jaloliddinni taslim bo'lishga ko'ndirishning iloji yo'q, ammo uni tashlab ketishsa, kuchsizlanadi, urusha olmaydi.

* * *

— Shunday yo'l bilan musulmonlarga katta yaxshilik qilishimizga ishonaman, — deya davom etdi Sayfiddinbek. — Mamlakat vayron bo'ldi. Sulton Muhammad Chingizxon bilan do'st bo'lganida bugun dinimizni Chin-Mochinga qadar yoygan bo'lardik. Urush bizga kulfatdan boshqa nima berdi? Dinimiz kuchaydimi? Majusiylarni musulmonga aylantirdikmi? Yo'q, faqat qon to'kildi, qurbon berildi, chor taraf xarobaga aylandi. Musulmonlar zaiflandi, hatto dinini ham muhofaza qilolmaydigan darajada zaiflashdi. Bugun Chingizxon bir taklifni o'rtaga otdi: mamlakatingizdan chiqib ketaman, Jalolni menga bering deyapti. Yo dinimizning baqosi uchun Jaloliddinni taslim qilamiz, yoki Chingiz barcha musulmonlarni qilichdan o'tkazadi. Ne deysiz?

Beklarning boshi xam bo'ldi. Bir nechtasi eshitilar-eshitilmas ovozda:

— To'g'ri aytyapsan, — deya ming'illadi.

Tarqalishdi.

Yig'ilishdan keyin ikki hafta o'tdi. Bir kuni Sayfiddinbek Jaloliddin huzuriga bordi.

— Sultonim, — deya so'z boshladi u. — Sizga abadulabad tobemiz, ammo bizni o'zlariga amir qilgan musulmonlarni ham o'ylashga majburmiz.

Jaloliddin o'ychan qarab turar, Sayfiddinbekning so'zlari tagida nimkosa borligini, yaxshi xabar keltirmaganini taxmin etgan edi.

— Xo'sh?

— Chingizxon juda kuchli. Garchi zafar qozongan bo'lsak-da, aldanmaslik lozim. Katta mo'g'ul qo'shinlari hali ustimizga kelmadi.

— Ne qilaylik? Biz uni maydonga da'vat qildik. O'zi kelmay o'gay ukasi Xutuhu no'yonni yubordi. Biz Ollohning izni bilan uni va qo'shinini tumtaraqay ayladik.

— Bu o'tkinchi g'alaba, sultonim, haqiqiy tahlika hali oldinda. Chingizxon katta bir qo'shin bilan ustimizga yurish qilishga hozirlanayotganidan xabar topdik.

Jaloliddin qiziqsinib so'radi:

— Qayerdan xabar topding?

— Askarlar orasida shunday mish-mishlar yuribdi.

Uning o'zi bir necha haftadan buyon odamlari orqali bu mish-mishni tarqatayotgan edi.

— Askarlar bu mish-mishdan cho'chimoqdami?

— Shunday, cho'chimoqda. Qarshi tura olmasligidan qo'rqishyapti.

— Hayrat! Askar nega buni o'ylaydi? Biz bu yerda nega o'tiribmiz? Qarshi tura olamizmi-yo'qmi — buni o'ylash bizning ishimiz emasmi?

— Xuddi shunday, sultonim. Biroq, ochig'ini aytganda, askarlar endi jangga kirishni xohlashmayapti. Har biri o'z yurtiga qaytish orzusida.

Sulton Jaloliddin yashin kabi tik bo'ldi.

— To'xtat-ey! — deya qichqirdi u. — Tilingdan zahar chakkalayotir. Mening askarlarim shahodatdan boshqa narsani o'ylamaydi.

Sayfiddinbek bu shiddatdan qo'rqdi. Tilini chuchuklashtirib, mehribon qiyofaga kirdi.

— Hammamiz dinimizga xizmat qilishni o'ylaymiz, sultonim, jahlingiz chiqmasin. Agar askar urushmoq istamasa, ne qilmoq kerak? Chingiz kelib hammasini qilichdan o'tkazishini kutib o'tiraylikmi?

— Bu qullikdan yaxshiroq emasmi?

— Illo, bu ikki yo'ldan birini tanlashga majburmizmi, sultonim, nega bunday deysiz? O'lim yoki qullikdan boshqa qutulish yo'lini bilmaysizmi?

Sayfiddinbek aytmoqchi bo'lgan gapining oqibati qanday bo'lishi mumkinligini oldindan rosa o'ylab olgan va nima bo'lsa ham oxiriga qadar borishga qaror bergan edi. O'ziga qattiq ishongandek ko'rinardi.

— Nega kelishuv yo'lini tutmaysiz? — deb so'radi u nihoyat.

Jaloliddin Xorazmshoh tong qotdi-qoldi.

— Kelishuv? Chingiz bilan, shundaymi?

— Tabiiy, Chingiz bilan. Nega bo'lmas ekan?

Sayfiddinbekka tik boqdi.

— Aqling joyidami, Sayfiddin? Chingizxon bunga qanday rozi bo'ladi? Bizdan qo'rqqanini e'tirof qiladimi hech?

— Qo'rqdi degan gapni qayerdan oldingiz, sultonim, masalan, u bizga marhamat ko'rguza olmasmi?

Jaloliddinning ko'zlari o't sochdi.

— Chingiz marhamat ko'rguzadi de!

Achchiq-achchiq kuldi.

— Seni oftob urganga o'xshaydi yoki ko'p yillardir urushaverib, aqlingni yeb qo'ygansan. Borib damingni ol. Toza kalla bilan yaxshilab o'yla. Chingizdan zarracha muruvvat kutib bo'larmidi?! Samarqandda, Buxoroda qilgan ishlarini bir eslasang-chi. Olgan kallalarini bir joyga uysang G'aznaning eng katta minorasidan o'tadi. Gulxanga otgan, suvga uloqtirgan kitoblari bir qal'aning ichini to'ldirgan bo'lurdi. Olim-u ilmga muruvvat etmagan odam bizga marhamat ko'rguzurmi?

Sayfiddinbek bu hodisalarni eslagach, bir lahza ikkilandi. So'ng Chingizxon yonidagi ikki musulmon xonini xotirladi.

— Uning yonida ham dindoshlarimiz: Olmaliq hokimi Sug'noq Tegin bilan qarluq hukmdori Arslonxon bor. Har ikkovi ham musulmon. Ularni ko'pdan taniyman. Do'st bo'lgan edik. Ular Chingizxonni bizning foydamizga sulh tuzishga ko'ndira olmaydimi?

Jaloliddin yana achchiq-achchiq kuldi.

— Xotirang zaiflashganga o'xshaydi, Sayfiddin. Shuni unutmaki, Chingizxon Buxoroni olganida sen aytgan odamlar uning yonida edi. Buning ustiga tarjimoni ham musulmon edi. Xo'sh, biron nafi tegdimi ularning?

Bu dalillar qarshisida Sayfiddin g'iq etolmay qoldi. Biroz vaqt oyoq uchiga tikilib jim qoldi. So'ng so'zni boshqa yoqqa burdi.

— Aslida men bular haqida gapirmoqchi emasdim. Bir shikoyatim bor.

— Qanday?

— Temur Malikning jon do'sti Sariq Lag'o't degan buzuqi qaroqchi kecha otimning boshiga qamchi urdi.

— Nima qipti? Sen ham uning otini qamchilasang bo'lardi-ku!

Sayfiddinbekning yuzi sezilarli darajada oqardi.

— Nima deyapsiz, sultonim? Men qo'lida qilichi bor qo'mondon bo'lsam. Askarlarim oldida bir buzuqi qaroqchi meni haqorat qildi. Hali hech kim menga bunday munosabat qilishga botinmagan edi. Jazolashingizni talab qilaman.

— Bu oson.

— Nima qilmoqchisiz?

— Shariat hukmiga ko'ra ish qilamiz.

— Ya'ni?

— Qasosga qasos olish lozim. Sariq Lag'o'tning otini toptiraman, senga qamchi beraman va sen otining boshini qamchilaysan.

Sayfiddinbek ko'karib ketdi.

— Men oddiy odam emasman.

— Barcha musulmonlar Olloh oldida tengdir. Har kim qilgan ishiga ko'ra taqdirlanur.

— Sultonim, mening qo'l ostimda o'ttiz ming askar bor.

— U ham jonini din yo'liga tikkan.

— Bir kishi bilan shuncha odamni teng ko'rdingizmi?

Jaloliddin qo'llarini yozdi.

— Tilaging illo janjal chiqarmoqmi, Sayfiddin? Nega shariat hukmiga rozi bo'lmaysan? Ot qamchiladi deb, bo'ynini uzdiraymi? Seni deb shariat hukmini bir yoqqa qo'yib, Chingizning botil odatlariga ko'ra hukm chiqaraylikmi?

Sayfiddinbek tahdid qildi.

— Odamlarim isyon ko'tarish arafasida turibdi, sultonim! Qo'mondonlariga qilingan bu haqoratni ko'tara olishmayapti.

— Shundaymi? Otingga bir qamchi urilsa, askarlaring isyon ko'tarmoqchi. Chingiz kelsa otinigina emas, xotinlarini ham qamchilatadi, buni bilishmaydimi? Chingizxondan qo'rqqani uchun "musulmonman" deya olmaydiganlar bor-u, sen yonimga kelib bir kichik ishni katta masalaga aylantirishga urinasan. Mo'g'ul askarlari sharobxonaga aylantirgan jomelarni o'ylamaysan-u, g'ururing pastga urilganiga xafa bo'lasan.

Sayfiddinbek eshik tomon ikki qadam tashladi.

— Meni bu tariqa ayblashda davom etaversangiz, yoningizdan ketaman.

Sulton Jaloliddin Sayfiddinbekka yer bilan bitta qiladigan nazar tashladi.

— Tushundim, bularning hammasi bir bahona, Chingizning aldoviga uchibsan, aqling tushovlanibdi. Halidan beri aytganlaring bir afsona. Asl maqsading meni tark etmoq.

Barmog'i bilan eshikni ko'rsatdi.

— Shunday ekan, nega kutib turibsan?! Senga ham, askarlaringga ham muhtoj emasman. Birgina jonimizni Olloh yo'liga sadaqa qilmaylikmi? Bor, askarlaringni ham, o'zingga o'xshaganlarni ham olib ket!

Mushtini tugdi, ovozini ko'tardi.

— Ollohning izni bilan bir o'zim yolg'iz qolgan taqdirda ham muqaddas kurashni davom ettiraman. Tomirimda bir tomchi qon qolguncha islomni muzaffar etmoq uchun olishaman. Bu ishning so'ngi shahodat. Shuning uchun Chingiz u yoqda tursin, jahon birlashsa ham menga baribir!

Sayfiddin oxirgi chora sifatida Jaloliddinni qo'rqitishga urinib ko'rdi:

— Agar ketsam orqamdan kamida besh sarkarda ham ketadi.

Sulton unga nafratlanib qaradi.

— Mayli, beshtasi ketar, o'ntasi ketar. Nega tushunmaysan? Men yolg'iz qolsam ham urushaman deyapman-u, sen bo'lsang besh sarkarda, ellik ming askarni olib ketish bilan meni qo'rqitmoq istaysan. Sening ham, ularning ham jazosini Ollohning o'zi bersin!

Islomni bu holga tushirgan, musulmonlar orasiga nifoq solgan siz kabilar emasmi?! Nifoq urug'i ekdingiz, bundan vijdoningiz hech azob chekdimi? Yo'q! Vijdon azobi chekmoq uchun vijdon sohibi bo'lmoq kerak. Senda bu bormi? Agar bor bo'lsa, otimga bir qamchi urildi deb musulmonlarni tashlab ketarmiding?

— Sariq Lag'o'tni jazolang, qolay! Mening rutbamdagi bir sarkardaning otini urishga jur'at etishning jazosini o'lim bilan o'tasin.

Jaloliddin Xorazmshoh boshini chayqadi. Afsus bilan dedi:

— Meni shariatga rioya etishga undashi lozim bo'lgan bu odamning kitob ko'tarmaydigan tavsiyasiga nima demoq kerak, Ollohim?! O'z g'ururini islom qoidasidan baland qo'ygan bu badbaxtga ne demoq kerak?!

Shiddat bilan o'girilib, Sayfiddinbekning yoqasidan tutdi:

— Menga qara, Sayfiddin! Nega Chingizga qurol bo'layotirsan? Pulga uchmasligingni bilaman. Otimning boshiga qamchi soldilar deb bu mantiqsiz ishni ham qilmaysan, har holda, boshqa sabablari bo'lsa kerak. Uni bilishni istayman.

Sayfiddin siltanib zo'rg'a qutuldi.

— La'nat pulga, — dedi u. — Men shu yo'l bilan dinimizga xizmat qilayotganimga ishonaman. To'g'risi ham shu. Bekordan bekorga musulmon qonini to'kishga ne hojat? Sulh tuzadigan payt keldi. Chingizga ham shu ma'qul. Men hech bo'lmasa yonimdagilarni qatli omdan qutqarib, oxiratda va bu dunyoda bo'ynimga yuklangan mas'uliyatni bajaraman. Siz istaganingizni qiling.

Javob ham kutmay eshikka yo'naldi. Shosha-pisha tashqariga chiqdi.

Sulton Jaloliddin xonasida yolg'iz qoldi. Anchagacha turgan joyidan qimirlamadi. Sal ilgari Sayfiddin chiqib ketgan eshikdan ko'z uzolmadi. Haram tomondagi eshikdan xotini bilan o'g'lining ichkariga kirganini ham sezmadi. O'z-o'ziga so'zlay boshladi.

— Yo Rabbiy! Bu fasod, butun bu fitna nimadir o'zi? Nega bir-birimizga qarshi chiqamiz? Chingizga emas, bir-birimizga dushmanlik qilamiz? G'ururimiz ustida gap borganda, nahotki bir ot bir yigitdan afzal chiqsa? Islom oyoqosti etilayotganidan mutaassir bo'lmaganlar otining boshi qamchilangani uchun telbalansa? Mamlakatining ezilishidan ko'zi yoshlanmaganlar xotin, bola-chaqadan

uzoqda qoldim deb ko'z yoshi to'ksa? Xiyonat ustiga xiyonat qilsa? Mo'g'ul boshiga solinishi kerak bo'lgan qilich musulmonlarni ayirsa? Chingiz ham uzoqdan ahvolimizni ko'rib, ustimizdan kulsa kerak. Yana bir g'alabani osongina qo'lga kiritadi u. Nadomatlar bo'lg'aykim, ixtilof chiqarganlar bizni ayirmachilikda, fitna chiqarishda ayblaydilar. Qandaydir sabablar bilan dushman safiga o'tgan g'ofil musulmon xonlariga ko'z tikib, ularni qutulishlarida mador bo'ladi deb ishonadilar!

Chuqur nafas oldi. Ko'zlaridan shashqator yosh oqdi.

— Achinarlisi shuki, Sayfiddin yanglig' fitnachilar ham dinga xizmat qilayotganiga ishonadi! Ehtimol, meni Chingizga taslim etib, islomni xalos etmoqchi bo'lganlar ham topilar. Biz din yo'lida qilich urishtirishdan boshqa ne ish qildik? Parchalangan islom davlatini yangidan barpo etmoqdan boshqa bir yo'lga kirdikmi? Chingiz kuch bilan qilolmagan ishni hiyla bilan bajarishga urinayotganini nega tushunmaydilar? Bizni parchalashni ko'zlayapti-ku u. Osongina yutadigan yog'liq luqmaga aylanishimizni kutyapti-ku.

Bir ovoz keldi.

— Chuchvarani xom sanabdi Chingiz. Uning aytgani bo'lmaydi, sultonim!

Ohista orqasiga o'girildi, to'nining yengi bilan ko'zlarini artdi.

— Senmiding, rafiqam? Qayerdan kelding, bilmay qoldim. Farishtamisan? Karomat bilan tor tirqishdan kirib kelgan malakmisan?

— Yo'q, farishta ham, malak ham emasman, xojam, o'g'lim bilan shu eshikdan kirdik. Shu qadar o'yga botgan ekansizki, qirq yil tursak ham sezmaysiz. Zafar ustiga zafar qozongan sultonga emas, yengilgan bir g'aribga o'xshaysiz.

Jaloliddin o'g'lini o'pdi, xotinining qo'lini ushladi.

— O'sha ahvolga tushay deb turibman, malikam.

— Olloh asrasin!

— Ollohdan boshqa asrovchimiz ham yo'q. Boshqasidan buni kutmaymiz ham. Hozirga qadar Yaratganga ishondik, bundan so'ng ham unga ishonishimiz muqarrar. Biroq kuffor oramizga nizo soldi, Sayfiddindan ayirdi. Otimning boshini qamchilashdi deb qiyomatni qoyimga keltirdi. Shariat hukmini inobatga ham olmay, aybdorni

qatl ettirishimni so'radi. Aftidan, meni qotilga aylantirmoqchi. Undan so'ng balki "Jalol duch kelganni qatl etadi, Chingizga taslim etish vojib" deya mish-mish tarqatajak.

— Fitnakor!

— Senga bu gap yarashmaydi, rafiqam, qo'y, davlat ishlari ustida sen bosh qotirma. Tulkini hayvonot olamiga sulton ko'tarishgan, u esa, ayyor bo'lishiga qaramay, bu ishni qanday bajarsam ekan, deb o'ylay-o'ylay, bir kechada o'lib qolgan ekan. Olovli ko'ylak kiyganmiz. Atrofimizni do'st yuzli dushmanlar o'ragan ekan.

— Hammasining jazosini berasiz, inshoolloh.

— Inshoolloh! Janobi Haq shohid, dushmandan zarracha qo'rqmayman. Musulmonlar orasiga fitna tushishidan qo'rqaman. Ertaga bir-biriga qilich ko'tarsa, holimiz ne kechadi? Chingiz bamaylixotir qo'l silkib yurtimizga kiradi, qolgan-qutgan musulmonlarni qul qiladi. Bir vaqtlar ba'zi nasroniy qavmlarni askarlikka olganim uchun bosh ko'tarishgan edi. Olloh istasa nasroniylarni ham xizmat qildirmaydimi? Axir, ular bilan birga ozmuncha jangda g'olib chiqdikmi? Hay, mayli. Ularning istagani u yoki bu narsa emas, hammasi bir bahona. Samimiy ekanliklariga inonmayman. Niyati qanchalik xolis bo'lmasin, dushman bilan hamkorlik qilgan odam bizga do'st emas.

Tashqaridan kelayotgan shovqin-suron kuchaygach, derazaga yaqin bordi. Pardani ko'tarib, nazar tashladi.

Sayfiddin yonida uch nafar bek bilan askarlarning o'rtasida turar edi. Atrofidagilar borgan sari ko'paymoqda. Ovozi bemalol eshitilardi.

— O'z ixtiyorimiz bilan dinimizning oyoqosti qilinishiga tomoshabin bo'lib turmaymiz!

Jaloliddin tishlarini siqib, derazani ochdi. Xonani Sayfiddinning ovozi to'ldirdi.

— Agar Jaloliddinga itoat etadigan bo'lsak, Chingizxon katta qo'shin bilan keladi va Muhammadning jumlayi ummatini ayovsiz qilichdan o'tkazadi. O'lish hech gap emas, ammo yer yuzidan musulmonlikning nom-nishoni qolmaydi. Binobarin, dinini sevgan men bilan yursin, sultonni sevgan bu yerda qolsin.

Jaloliddin mushtini tugdi.

— Yaramas, — deya hayqirdi u. — La'nat senga!

Eshik shiddat bilan qoqildi. Jaloliddin xotiniga ishora qildi. Ayol qanday kelgan bo'lsa, shunday, sassiz-sadosiz boshi xam bo'lganicha, haramga o'tib ketdi.

— Kiringiz.

Qilich yalang'ochlagan Temur Malik xonaning o'rtasiga kirib keldi.

— Sultonim!

— Ne bo'ldi, Temur Malik? Sen ham hayotimga qasd qilib keldingmi?

Uning hazili yosh mujohidni titratib yubordi.

— Ol-a, sultonim, men abadulabad qardoshlik to'g'risida qasam ichmaganmidim? Arzimni eshiting, tashqarida buzg'un zohir bo'ldi, fasod bor.

Sulton Jaloliddin sovuqqonlik bilan javob berdi.

— Xabarim bor.

— Xabaringiz bor-u, ammo hech chora ko'rmay bu yerda kutib o'tiribsiz, shundaymi?

— Qo'lidan biron ish kelmagach, Jaloliddin nima qilsin? Chingizning pakana otliqlari qarorgohimizga bostirib kelmadiki, otilib chiqib, qilich solsam.

— Sayfiddin askarning ko'pini aynitdi. Ba'zi sarkardalarni ham. Sizning to'g'ri yo'lda emasligingizni aytib, hammani yo'ldan urayotir. Ruxsat bering, bu munofiqlarning kallasini opkelay.

Sulton Jaloliddin qo'lini ko'tarib, do'stini tinchlantirdi.

— Sovuqqon bo'l, Temur Malik, sovuqqon. Agar musulmonlar orasiga bir marta qilich tushsa bormi, qaytib chiqmas. Ketganlar ketsin, bizga qolgani ham yetadi. Shahid bo'lmoqqa azm-u qaror berdikmi, askarsiz ham shahid bo'lish mumkin.

— Baribir chiqib bir so'zlang, odamlarimiz qoshimizdan ketib boradir.

— So'z natijasini hozirdanoq bilaman. Askarlarning bir qismi balki biz tarafga o'tadi, ammo albatta bir g'avg'o chiqadi, qardosh qoni to'kiladi. Bu qon uchun ertaga Olloh oldida javob bermaymizmi?

Derazaga o'girildi, tashqariga nazar tashladi.

— Ana, ketishyapti. Hayotida eng katta xato qilganini balki yaqin kunlarda tushunishar, ammo u vaqtda bo'yoq xumi singan bo'ladi. Qaytib kelishga fursat topa olmaydilar.

Pardani tushirdi. Temur Malik bilan barobar uydan chiqdi. Askar oz qolgan edi. Shunga qaramay ularning boshi tik, ruhi tetik. Nima bo'lsa ham boshlagan ishini oxiriga qadar yetkazishi kerak.

* * *

Orqasidan it quvlaganday ot choptirgan chavandoz qarorgohga kirib keldi, bazo'r egardan tushdi. Oyoqlari bahaybat gavdasini ko'tarolmay, o'z-o'zidan bukildi, chavandoz yerga quladi.

Bir nechta mo'g'ul navkari uning atrofiga yig'ilib, qahqaha otib kula boshladi. Horg'in suvoriyni bir-biriga ko'rsatib, hazil-mazax qilishdi.

Tasodifan shu yerdan o'tayotgan Jebe no'yon ahvolni ko'rdi.

— Heey! — deya baqirdi u to'planganlarga. — Nima bo'lyapti u yerda?

— Yiqilib tushdi, — dedi askarlardan biri.

Jebe yaqinlashdi.

— Ne bo'ldi senga, kimsan?

Chavandoz ikki og'iz gap bilan istagini so'zladi:

— Ulug' xoqonni ko'rishim kerak.

Qurt Jebe navkarlarga yuzlandi.

— Ko'taring buni.

Chavandozni oyoqqa turg'izdilar.

— Uzoq yo'ldan keldim, — dedi u qarsillab. Ko'kragi pay-dar-pay ko'tarilib tushardi. — G'aznadan kelayotirman. Ulug' xo-qonga sevinchli xabarim bor.

Jebe yurdi.

— Orqamdan opkeling.

Jebe sariq chodir eshigidan bosh suqdi. Mo'g'ul xoqoni Chin-giz ovqatlanayotgan edi. Qo'lida kattakon go'sht bo'lagi.

— Ulug' xoqon.

Chingiz qisiq ko'zlarini Jebega tikdi.

— Ovqatlanayotirman.

— G'aznadan kelgan bir odam sizni ko'rmoq istaydi.

Chingizxon qo'lidagi go'sht bo'lagini chodirning bir tomoniga uloqtirib, qaddini rostladi.

— Opkir ichkariga.

Chavandozni qo'ltig'idan suyab chodirga olib kirib, Chingiz-xon oldiga tashlashdi.

— Ulug' xoqon, sizga salomlar bo'lsin.

— Tez so'yla, ish men aytgandek bo'ldimi? Agar bitmagan bo'lsa, o'zingni yo'q bo'ldim deb bilaver. Qo'yni-qo'njingni oltin-ga to'ldirib yuborgan bo'lsam.

Odam bosh silkidi.

— Siz aytganday bo'ldi, ulug' xoqon. Jaloliddin bir necha ming kishi bilan qoldi, qo'mondonlarining ko'pi G'aznani tashlab ketdi. O'zi ham yo'lga hozirlik ko'ra boshladi, vaqt g'animatida bu yoqqa chopdim.

Chingizxon yog'liq lablarini o'ynatdi, peshonasini tirishtirdi, ko'z ostidagi ko'kargan halqalar yo'qoldi.

— Ko'p yaxshi, endi unga ko'rsatib qo'yaman.

Kelguvchiga o'girildi.

— Qayoqqa ketmoqchi ekanini biloldingmi?

— Janubga yo'l olganini biloldim, xolos. Juda maxfiy. Harami ham yonida. Har holda ko'chayotgan bo'lsa kerak. Qayoqqa borib tushishini kim biladi deysiz?

— Men bilaman, — deya do'rilladi Chingizxon. — Qayerda makon tutishini men bilaman. Hind eliga yo'l olgan. O'sha yerda askar to'plamoqchi bu tentak. Kulgili.

To'xtovsiz qahqaha otgach, ilova qildi:

— Ustiga chaqmoqdek bostirib boraman! Mo'g'ullar bilan urushishdan bir tavba qilsin. Haramiga qo'shib asir olib, chodi-rimning eshigiga osaman uni.

Xaxoladi, yana xaxoladi.

* * *

Quyosh mujohidlar ustiga yoqimli nur sochadi. Qum ustida taqa izlari qolmoqda. O'lgunga qadar sodiq bo'lish to'g'risida qa-samyod etgan ikki ming bahodir sulton Jaloliddin orqasidan ketib boradi.

Bir tuya ustiga o'rnatilgan taxtiravonda xotini. Qutbiddin onasining tizzasiga bosh qo'yib uxlamoqda. Og'ir yo'l azobi hammaning tinkasini quritgan. Hatto tuyalarga osilgan qo'ng'iroq tovushi ham quloqqa yoqmaydi. Jaloliddinning onasi Oychechak Xotun bilan xotini Malika Qutbiddinni uyg'otib yubormaslik uchun past tovushda gaplashib ketishmoqda.

— Yana qancha davom etarkan bu yo'l? — deb shikoyat qildi Oychechak Xotun. — Bu mashaqqat, bu azobning oxiri bormi? Erim sulton edi, yigirma besh yil unga xotin bo'lib, qo'rquv ichida yashadim. Ajab?! Bir sultonning xotini qo'rquv ichida yashayapti, desa bunga kim ham ishonardi? Ammo bu bo'lgan ish. Erim idora ishida xato qilmasmikan deb qo'rqdim, dushmanlari ko'p, biri chiqib joniga qasd etar deb qo'rqdim, shariatga zid buyruq berar deb qo'rqdim. U yurishga ketdi, orqasidan kecha-yu kunduz ko'z yoshi to'kdim. Eson-omon qaytadimi? Zafar qozona oladimi? Asir tushib qoladimi, yarador bo'ladimi? Sultonga xotin bo'lish mushkul, qizim. Bu ish bugun sening boshingda. Yaxshi tomoni ham ko'p. Jaloliddin kabi sultonning xotini, bolasining onasi bo'lmoq, shubhasiz, dunyo ne'matlarining eng yaxshisidir. Ollohning eng katta ehsoni!

— Xuddi shunday, onajon, — deya xo'rsindi Malika. — Gaplaringiz roppa-rost. Olloh shohid, o'zimni o'ylamayman, Jaloliddindan xavotirdaman. Ko'rmaysizmi, kattakon bir qo'shindan bor-yo'g'i ikki ming kishi qoldi qo'lida. O'ylayverib ezilib ketdi bechora. Bildirmaydi, ammo ich-ichdan kuyib ketayotir. Islom qo'shini orasiga nifoq tushgani Jalolimni yiqdi. Zotan, Chingiz boshqa yo'l bilan uni oyoqdan ololmasdi, buni bildi. Shu bois hiylaga o'tdi. Yolg'onga laqqa tushganlarni bizga qarshi qo'ydi, qisqa fursat ichida maqsadiga erishdi ham. Ko'raylik, bu yog'i qanday bo'lar ekan? Olloh xayrli qilsin.

— Inshoolloh!

Uzoqdan Jaloliddinning yo'g'on ovozi eshitildi:

— To'planing!

Orqasidan ikkinchi amr yangradi:

— Haram atrofini halqaday o'rang. Bir qismingiz men bilan yursin.

Tuya ustidagi taxtiravon ichidagilar xavotir ichida qoldilar. Qutbiddin uyg'ondi, uyquli ko'zlari bilan onasiga, so'ng buvisiga qaradi.

— Ne bo'ldi?

— Hech gap yo'q, bolajonim, sen uxlayver.

— Yo'q, onajon, bir gap bor, sulton padarim yoniga boraman.

Bolaning yo'lini to'solmadilar. Qutbiddin arqon narvondan yerga tushib, otasi tomon yugurdi.

— Sulton padarim!

Jaloliddin o'g'lini ko'rib jilmaydi.

— Onang yonida emasmiding, o'g'lim?

— O'sha yerda edim, besh kunlik chaqaloqdek uxlab qolibman. Men qanaqa o'g'ilmanki, shunday paytda otamga yordam etmasam. Ruxsat bering, yoningizda bo'lay.

Jaloliddin muloyim nazar bilan o'g'lini alqadi.

— Sal ulg'ay, o'g'lim, — dedi u. — Ustimdagi olovli ko'ylakni bir kun kelib sen ham kiyasan. Uning ismini saltanat deyishadi.

So'ng tobora yaqinlashib kelayotgan chang-to'zon buluti tomon o'girildi.

— Saltanat deyishadi, — takrorladi u. — Lekin ko'ylagi olovdan!

— Kim kelayotir, otajon?

— Qo'yaver, senga buning keragi yo'q.

Qutbiddinning ko'zlari yoshlandi, boshini mag'rur ko'tarib dedi:

— Men go'dak emasman, sulton padarim, yaqinlashib kelayotgan shu chang buluti orqasidan dushman otliqlari chiqib kelishini yaxshi bilaman. Yashirishingizga ne hojat?

Kalta qilichini qinidan sug'urib, dastasini qattiq qisdi.

— Sizning yoningizda turishni xohlayman.

Jaloliddin qayrilmasdan amr berdi:

— Qutbiddinga ot bering.

Askarlar haramni va yeguliklar ortilgan o'g'ruqni o'rab olishdi, halqa-halqa tizildilar. Lablar qattiq yumilgan, ko'zlar chang buluti tomonda.

Sal oldinroq ikki xabarchi kelib, bir mo'g'ul qismi yaqinlashayotganini bildirgan edi. Temur Malik oldinga chiqdi. U besh yuz botiri bilan dushmanni to'xtatishga harakat qilmoqchi edi.

Ikki qo'shin yuzma-yuz bo'lib to'xtadi. Qilichlar qinidan sug'urildi. O'qlar vizillab uchdi.

Ko'p o'tmay ikki taraf o'rtasida shiddatli jang boshlandi.

Mo'g'ullar son jihatdan xorazmliklardan juda ko'p bo'lib, boshdan oyoq sovut kiygan edilar. Biroq xorazmliklarning qilichi uzun, bilaklari baquvvat, qalblari esa imon nuriga limmo-lim to'liq edi.

Yarim soatcha jang qilishdi. Mo'g'ul qo'mondoni to'satdan qat'iy amr berdi:

— Chekining!

Mo'g'ullar qanday shiddat bilan bostirib kelgan bo'lsa, o'shanday tezlikda orqaga chekindilar. Orqalarida chang-to'zon ko'tarib ko'zdan g'oyib bo'ldilar. Temur Malik bu sababsiz qochishni anglay olmay boshi qotdi.

— Ne bo'ldi bu? — deya hayratga tushdi u. — Chekinadigan bir vaziyat yo'q-ku.

O'ylab, gap nimada ekanini angladi. Jaloliddin yoniga qaytib, ahvolni tushuntirdi.

— Mening bilishimcha, Chingizxonning hiylasi bu, u kuchimizni sinab ko'rdi.

Jaloliddin xayolchan edi. Temur Malik aytgan fikr uning xayolidan ham kechgan edi. Shunday bo'lsa-da, ishonch hosil qilmoq uchun so'radi:

— Qanday?

— Chamamda dushman kuchimizni bilib olmoqchi bo'ldi, turgan joyimizdan ham xabardor bo'ldi. Endi ular bizni uzoqdan ta'qib qilib, qulay fursat topishi bilan hujumga o'tsa kerak.

— Seningcha, ne tadbir olmoq kerak?

— Agar biroz ildam yursak, tez orada Sind daryosiga yetib olamiz. Narigi sohilga o'tib ololsak, masalani yarmiga hal etgan bo'lamiz.

— Oqim juda shiddatli deyishadi, qirg'oq ham tik qoyalik emish.

— Sol yasaymiz.

Jaloliddin bosh irg'adi, do'stining tajribasiga ishonib, fikriga qo'shildi.

Jadal yurishni buyurdi. Ikki ming otliq ildam yurib, Sind sohiliga yetdi. O'sha yerga qarorgoh qurildi.

Temur Malik yo'l bo'yi ta'qib etishganini his qilardi. Qarorgoh tiklanib, askarlar joylashgandan so'ng Sariq Lag'o'tni yoniga chaqirdi.

— Yoningga besh kishi ol-da, atrofni bir aylanib qayt. Hech kimga ko'rinmaslikka harakat qil. Ta'qibdamizmi, deb o'ylayman.

Sariq Lag'o't buyurilgan ishni bajardi. Haqiqatan ham atrofda taqa izlari bor edi. Yangi tushgan. O'rmon ichida ham birovlarning qorasi ko'rindi. Jon-jahdi bilan ot choptirib, Temur Malikning yoniga qaytdi. Qulog'iga astagina shivirladi:

— Yanglishmapsan, Temur Malik, atrofimiz dushmanga to'la.

Temur Malik tishlarini g'ijirlatib dedi:

— O'tirib qoldik bu yerda. Daryodan kechib o'tish imkoni yo'q. Sol yasash kerak.

Ustalar ajratildi. Baquvvat askarlar o'rmondan yog'och kesib keltirishga yuborildi. Jadal ish boshlandi.

Bir kun deganda ikkita sol tayyor bo'ldi. Daryoga tushirdilar. Biroq kutilgan natija chiqmadi. Birinchi sol shiddatli oqimga dosh berolmay, daryo o'rtasiga borganda ag'darildi. Ikkinchisi bo'lsa, qarshi sohildagi qoyalarga urilib parchalandi. Jaloliddin uyqusiz ko'zlari bilan Temur Malikka boqdi. Ancha tikilib turdi-da, bir so'z qotmay chodiriga kirib ketdi. Malika Xotun o'chog'da sho'rva qaynatayotgan edi. Jaloliddin kirganini ko'rgach jilmaydi.

— Issiq ovqat ichasizmi deb o'ylagandim.

— Yo'q, ichmayman. Askarlarim uchun qaynoq sho'rva yo'q-ku!

Borib xotinining yoniga o'tirdi.

— Mendan bekorga xafa bo'lmagin. Qo'limdan ish kelmayapti. Chingiz atrofimizni o'rab olishga harakat qilmoqda. Bugun yo erta qattiq jang bo'ladi. Hech bo'lmasa o'g'limni, seni va onamni narigi sohilga o'tkazolsam, ko'nglim joyiga tushgan bo'lurdi.

Xotin Jaloliddinning qo'lini o'pdi.

— Bunday qilmang, — deb oh urdi u. — Sizning yoningizda bo'laylik. Agar yoningizda o'lsam armonim yo'q. Sizsiz yashashning bor o'lgandan yomon.

— Go'zal so'ylading, rafiqam, go'zal so'ylading, malikam. Biroq vaziyat neni taqozo etsa, shuni qilmoq vojib. Sulton bo'lgan kishi faqat o'zini, faqat haramini o'ylamaydi, bu ishni eng oxiriga qoldiradi. Men xato qilyapmanmi, ajabo? Balki sen haqdirsan. Balki yonimda bo'lganing yanada yaxshiroqdir.

— Men shunday bo'lishini juda xohlayman.

— Biroq o'g'limiz bor. Xorazm mamlakatini, ehtimol, u qutqarar. Qutbiddin o'lgudek bo'lsa, umidlar ham so'nadi. Ozodlik kunini zoriqib kutayotgan bechoralar qalbidagi bu umid uchqunini o'chirishga haqqimiz yo'q. Yo'q, azizam, yo'q, sen narigi sohilga o'tishing darkor.

Yosh ayol e'tiroz bildirishga shaylangan edi-yu, tashqarida qattiq baqir-chaqir tovushlarini eshitib, jim qoldi. Ikkovi ham shu zahoti oyoqqa qalqdi. Jaloliddin eshik tomon ildam yurdi. Ostonada Sariq Lag'o't bilan to'qnashdi.

— Sultonim!

So'zlashga hojat yo'q. Olatasir boshlangan, mo'g'ullar hujumga o'tgan edi.

— Tushundim, Lag'o't, — dedi u. — Qani, ketdik. Jangchi jang maydonida bo'lmog'i kerak. Temur Malik qayerda?

— Siz bilan kengashishga vaqt qolmagani uchun uzr so'radi. Yetti yuz kishi bilan oldinga chiqdi. Chingizxon bostirib keldi. Yuz ming kishilik qo'shin bu. Ko'p yomon bo'ldi.

Jaloliddin Sariq Lag'o'tga ta'naomuz qaradi.

— Olloh Xorazm diyorining yangidan ma'mur bo'lishi uchun nima xayrli, nima xayrsiz ekanini sen-u mendan, albatta, yaxshiroq biladi. Sen xafa bo'lib o'tirish o'rniga o'z vazifangni bajar.

Otini keltirishni buyurdi. Oyog'ini uzangiga qo'yib, sakrab otga mindi.

— Orqamdan keling,— deya hayqirdi u. — Temur Malikka yordamga boraylik.

Dushman ustiga yopirildilar.

— Bardosh ber, Temur Malik, yetishdim!

Temur Malik Jaloliddinning ovozini eshitishi bilan jo'shib ketdi. Ro'parasidagi mo'g'ul sipohiysini ag'darish uchun hiyla ishlatdi, otini bir yonga burib, shiddat bilan qilich soldi.

— Qula, majusiy!

So'ng Jaloliddinga javob berdi:

— Bu yerdaman, sultonim!

Ustalik bilan otini oldin o'ngga, keyin chapga surdi. Birdan orqasiga o'girilib, orqadan kelgan ikki mo'g'ulni qulatdi. Otini qattiq niqtadi.

— Keldim, sultonim!

Jaloliddinning yuzi yorishdi.

— It to'dasi kabi ko'p bular, chopib ado qilib bo'lmaydiganga o'xshaydi.

— Narigi sohilga o'tishingiz kerak, sultonim.

— Ne deding? Menmi? Nima deyayotganingni bilasanmi? Bu g'irt xiyonat taklifi-ku.

— Agar bu yerda o'lsangiz maqsadingizga xiyonat etgan bo'lasiz. Ko'ryapsizki, Chingizxonning o'zi hali to'g'ridan to'g'ri hujumga o'tgani yo'q. Balki askarining o'ndan birini ham ishga solgan emas.

— Ne qilaylik? Dunyoning falokati boshimga yog'ilgan taqdirda ham parvo etmayman.

— Sulton uchun muvaffaqiyat qozonish bilan birga yengilish ehtimoli ham mavjud. Jangda g'olib chiqish maqsadning bir bosqichidir. Sizdan boshqa hech kim bu ishning uddasidan chiqolmaydi. Yangidan kurash boshlashingiz uchun tirik qolmog'ingiz lozim.

— Menga iching achiyapti, Temur Malik.

— Yo'q, Jaloliddin, sizga emas, Muhammad ummatiga ichim achiydi. Haramingiz bilan daryodan kechib o'ting. Rejalashtirganimizdek Hindiston tarafga yo'l oling. Olloh nasib etsa, yana qaytib kelasiz.

Jaloliddin ehtiros-la qilichini o'ynatdi.

— Men shahodatni istayman, sen bo'lsa qochishimni xohlaysan.

— Qochishingizni emas, qat'iy zarba berish uchun musht tugishingizni xohlayman, sultonim.

— Shirin so'zlar bilan meni laqillatma! Bu yerdan bir odim ham chekinmayman. Bugun shahodat kunidir. Tashnaligimni qondiray.

Temur Malik bu mavzuda so'nggi so'zlarini so'yladi:

— Ko'p gaplashishga vaqt yo'q, sultonim. Elning xalos bo'lishiga yaramasa shahodatning ne keragi bor? O'limni qutulish chorasi deb bilsangiz, bu — er kabi o'lmoqmi? Shu onda birdan-bir to'g'ri yo'l narigi sohilga kechmoqdir. Xorazm mamlakatining kelajagi sizga bog'liq ekanini unutmang!

Bu so'zlar Jaloliddinga yetarli bo'ldi.

Temur Malik haq gapni aytgan edi. Zotan u doimo to'g'riso'z edi.

— Yaxshi, — dedi u. — Mendan rozi bo'l. Mayli, sen aytgancha bo'laqolsin. Olloh musulmonlarga panoh bo'lsin.

— Mingdan ming roziman, sultonim.

Bor ovozi bilan qichqirdi:

— Besh yuz kishi sulton bilan borsin!

Jaloliddin buyruqni takrorladi.

— Besh yuz kishi men bilan yursin. Qolganlar bu yerda tursin.

Ko'zlari nam edi. Jang maydonini oxirgi marta ko'zdan kechirgach, sohil tomon ildam yurdi.

Chingizxon bir tepalik ustida o'g'li Chig'atoy bilan turardi. Jaloliddinning besh yuz kishi bilan chekinganini ko'rgach, og'zi qulog'iga yetguncha tirjaydi. So'ng kulishdan to'xtab, hayrat bilan ming'illadi:

— Nima qilmoqchi o'zi bu odam?

O'yladi, o'yladi...

Jaloliddin chodirga kirib, xotini, o'g'li va onasini olib chiqqanini ko'rgunga qadar o'yladi. Sovutini yechib tashlab, yonidagilar bilan daryoga tushganini ko'rgach, gap nimada ekanini tushundi.

— Uni tuting! — deya ulidi u. — Tiriklay tutib keling.

Minglarcha mo'g'ul navkari tepadan pastga yopirildi.

— Lu! Lu! Lu! Lu!

Mo'g'ullar yashin tezligida Xorazmshoh orqasidan daryo tomon otildilar. Chingizxon manzarani diqqat bilan kuzatib turar, tez-tez baqirib qo'yar edi:

— Tiriklay tuting uni, tiriklay!

Jaloliddin bir qo'li bilan o'g'lini, ikkinchi qo'li bilan xotinini ushlab, shiddatli oqimga dosh berishga harakat qilar, aql bovar qilmaydigan bir g'ayrat bilan ko'kragigacha chiqqan suvni yorib borardi.

Onasi uning belidan tutgan edi. Sal o'tmay Jaloliddin belidagi qo'llar bo'shashganini sezdi.

— Mahkam ushlang, onajon, — dedi u. — Qo'yvormang.

Biroq keksa ayolning madori tugab borardi. Ayni chog'da u o'g'lining bemalol suzishiga xalaqit berayotganini angladi. Shunday tahlikali bir vaziyatda ham ona o'g'lini o'ylab, o'zini fido etishga chog'langan edi.

Mo'g'ul askarlari ham yaqinlashib qoldi. Jaloliddin tez suzib ketmasa, qo'lga tushishi aniq.

Keksa ayol ortga qaradi. Yo'g'on gavdali bir mo'g'ul navkari qilich uzatsa yetadigan masofaga kelib qoldi. Ko'zlari ilon ko'ziday vahshiyona, intiqom nazari bilan qarar, qattiq qisilgan tishlari orasidan qo'rqinchli irillar edi.

Ona qalbida o'g'liga mehr-muhabbat, muruvvat tuyg'ulari junbishga keldi. Bolasini yovuz ilonning zaharli tishlaridan asrash azmi kalxatning o'lja olish orzusini barbod etdi. Ona hech ikkilanmay qo'llarini o'g'lining belidan uzdi. Ko'z ochib yumguncha qo'ynidan xanjarini chiqarib, shiddat bilan mo'g'ul navkarining ko'ksiga sanchdi.

— Ol!

Quloqni qomatga keltirgudek faryod ovozi eshitildi. Suv qonga belandi. Mo'g'ul navkari ko'ksini changallab, oqib ketdi.

Keksa ayol oqimga bardosh berish uchun qo'llarini yozdi: qalqindi, qalqindi. Shiddatli to'lqinlar oyoqlarini yerdan uzdi, ayol ancha urindi, asta-sekin holdan toydi. Endi u ixtiyorini oqimga topshirib, urinib-surinib oqib keta boshladi.

Jaloliddin shoshilinchda onasi belini qo'yib yuborganini sezmay qolgan edi. Birdan oqib borayotgan onasiga ko'zi tushdi. Ko'ylagi pufakday shishib, keksa ayolni bir qancha vaqt suv ustida tutib ketayotgandi. Jaloliddinning kuyib ketgan yurak-bag'ridan otilib chiqqan faryod narigi sohilga ham eshitildi:

— Onajon!

Bo'g'iq sasda javob qaytdi:

— Bolajonim!

— Nega bunday qildingiz, onajon, nega?

Onasi uning so'zlarini eshitmadi, u ko'zdan g'oyib bo'lgandi.

Yig'lab, ko'ngil bo'shatish uchun ham vaqt yo'q, mo'g'ullar yetay-yetay deb qolgan edi. Malika Xotun vaziyatning qaltisligini yaqqol ko'rib turar, erini qanday qilib qutqarish to'g'risidagi fikr boshida charx urardi. Oychechak Xotunning o'g'li, kelini va nevarasi uchun qilgan fidokorligi uning ham qo'lidan kelardi. Fidokorlik qilishi lozim ham edi. Jaloliddin yanada ildam harakat qilmasa qo'lga tushishi tayin. Bu esa butun Xorazmning so'ngi demak edi. Bir qarorga keldi va eriga dedi:

— Sultonim, xojam, bizni tashlang, o'zingizni qutqaring. Biz din yo'lida qurbon bo'laylik, mayliga. Ammo siz butun musulmonlarga keraksiz.

Jaloliddinni bu so'zlar og'ir tosh kabi ezib yubordi.

— Nimalar deyayotirsan, rafiqam? O'g'lim bilan sen yuragimning bir bo'lagisiz, sizsiz qandoq yashayman?

— Cho'ringiz bo'lay, Jalolim, bunday demang. Siz bizniki emassiz, siz hatto o'zingizniki ham emassiz, siz Xorazm davlati, Xorazm xalqiniki bo'lgan insonsiz! Bizning sevgimiz kimga ne foyda beradi? Qo'ying bizni, Sind daryosi mozorimiz bo'lsin. Qalbingizda bizga bo'lgan muhabbat o'rnini din sevgisi, el ishqi bilan to'ldiring. Yashashingiz uchun shu kifoyadir.

Jaloliddin orqaga ko'z tashladi. Mo'g'ullar ancha yaqinlashib qolgandi. Qayrilib, narigi sohilga qaradi, hali ancha uzoq.

— Taqdir! — deya so'zlandi u. — Taqdir istagi bu.

— Yo'q! — deya qichqirdi kichik Qutbiddin. — Taqdir istagi emas bu. So'zimni eshitdingizmi, sulton padarim? Qo'limni omburdek qisgan barmoqlaringizni ozroq bo'shating. O'g'lining jonini qutqaraman deb davlatini fido qildi, demasinlar. G'oyasi uchun onasini ham, xotinini ham, o'g'lini ham fido qildi, desinlar. Doston bo'lsin, dunyo turguncha shunday so'ylasinlar. Onam haqqi, bizni Olloh izmiga topshiring!

— Qutbiddin, jim bo'l! So'zlaring yuragimni tilkaladi. Men bunchalik g'am-alamni qayerga ko'may?

— Ko'majak yer yo'qmi, sulton padarim? Mo'g'ullarning istilo amallarini ko'mish uchun qaziydigan chuqurga g'am-alamlaringizni ham ko'masiz. Qarang, Temur Malik qirg'oqdan o'zini suvga otdi. Biz tomon kelayotir.

— Ha, — deya tasdiqladi Malika. — Umid chirog'i porlayapti, Jaloliddinim. Siz qilichingizni qo'lingizda mahkam tuting, xotiningiz va bolangizni qutqaraman deb o'lib ketsangiz, musulmonlarning g'ayrat-shijoati ham so'nadi. Siz islom shijoatining qotiliga aylanmang. Barmoqlaringizni bo'shating, endi jannatda ko'rishamiz.

Jaloliddin sarosimada turardi. Ne qilishni bilmas edi. Bir nechta mo'g'ul navkari ularga juda yaqin kelib qoldi. Chingizxonning "Tiriklay ushlansin" degan buyrug'i ularning yodida, shu bois o'q otmasdilar. Ko'p o'tmay sultonni harami bilan birga asir olishlariga shu daraja ishongan edilarki, sevinchdan telbalarcha qichqira boshladilar.

Qutbiddin otasi uning aytganini qilmasligini angladi va bor kuchi bilan siltanib, qo'lini bo'shatdi.

— Olloh sizga yor bo'lsin, otajon!

Jaloliddin nam ko'zlari bilan boqdi. O'g'li suv ustidagi jasadlar orasida urilib-surilib oqib borardi.

Jaloliddin g'am-alam ummoniga tushdi, bu girdob tobora uni o'z domiga tortib borardi. Ko'ksidagi bor g'am-alam bir faryod o'laroq otilib chiqdi:

— Qutbiddin!

O'g'lining boshi suv ustida bir necha bor ko'rindi. Har safar bolaning ingichka tovushi yangrardi:

— Otajonim!

Jaloliddin bir lahzagina o'zini yo'qotdi. Malikaga o'z aytganini qilish uchun shu yetarli bo'ldi.

— Meni kutgin, o'g'lim, — deya qichqirdi u.

So'ng bir siltanib Jaloliddinning qo'lidan chiqdi.

— Bu ahvolda ikkovimiz ham qo'lga tushamiz. Sind daryosi Chingizdan shafqatliroq. Balki qutulib chiqarmiz.

Jaloliddin yana bir bor g'am to'la faryod urdi:

— Rafiqam, Malikam, to'xta!

Yosh ayol o'zini ko'mib yuborayotgan suvdan qutulmoqchi bo'lgandek suzar ekan, javob berdi:

— To'xtay olmayman, sultonim. Daryo surib ketayotir. Bo'lmasa, amringiz bosh ustiga.

O'zini o'lim quchog'iga otgan yosh ayolning eriga sadoqat to'la so'zlari quturgan mo'g'ullarni to'xtatib qololmadi. Yanada vahshiylashgan mo'g'ullar Jaloliddinni o'rab ola boshladilar. Xorazm sultoni atrofiga ko'z tashladi. Bo'lar ish bo'lgan edi. Qilichini sug'urdi. Endi o'ng tomonida xotini, so'l tarafida o'g'li, orqasida onasi yo'q edi. U bir lahzada hammasidan ayrilgan edi. Mavj urib ko'kka sapchigan daryo jondan aziz uch yaqinini yutib yuborgandi. Mo'g'ul balosi bunga sabab bo'ldi.

Bor kuchi bilan qilich soldi.

— To'ng'iz qo'p!

Xorazm sultonini birinchi bo'lib tutish sharafiga muyassar bo'laman deb quvonchdan jo'shgan mo'g'ulning o'ng yelkasiga tushgan qilich zarbi uni kindigiga qadar bo'lib yubordi. Hozirgina sevinchdan chaqnagan ko'zlar dahshatga to'ldi. U hatto faryod urishga ham ulgurmadi.

Erining yarador sher kabi dushmanga g'azab bilan tashlanganini ko'rgan Malika Xotun ich-ichidan quvondi. Uni qutlamoq uchun ovoz bermoq istadi, ammo yo'q, ovozini minglarcha nomahram eshitmasligi kerak. Olloh huzuriga borish oldida turardi. Bilinar-bilinmas qo'l silkidi. Faqat o'zi eshitishi mumkin bo'lgan past tovushda:

— Jalolim, sultonim, xojam, — deya shivirladi. Og'zi suvga to'ldi, ovozi to'lqin ostida yo'q bo'lib ketdi.

— Malikaaa!

Bu ovozni bir necha bor ustma-ust eshitdi. Uni kimdir chaqirmoqda. Jaloliddinning ovoziga naqadar o'xshash bo'lmasa. Ajabo, umikan?

— Malikaaa!

Ha, bu Jalolining ovozi edi, uni chaqirayotgandi. Javob bermoq uchun og'zini ochdi, biroq sasi chiqmadi, shunda u daryo ostiga tushganini fahmladi. Cheki yo'q bir zulmatda qolganini his qildi. Ich-ichidan:

— Olloh! — dedi.

— Olloh! — deya hayqirdi sulton Jaloliddin ham va yaqin kelgan mo'g'ulning kekirdagiga qilich soldi.

Ayni shu damda u tanish bir sasni eshitdi:

— Olloh!

O'girilib qarashni lozim topmadi.

— Temur Malik, yetib keldingmi?

Temur Malikning ovozida umid uchquni paydo bo'lgan edi.

— G'ayrat qiling, Jaloliddin, Olloh ishqi yo'lida g'ayrat qiling. Kun botayotir. Bo'sh kelmang.

Jaloliddinning tomirlari yorilgudek kengayib, bo'rtdi. Tish orasidan:

— G'ayrat, — deya takrorladi. — Yana biroz chidash kerak.

Qo'lidagi qilich go'yo o'z-o'zidan harakatga kelgandek, oldiga kelgan har bir mo'g'ul ustiga yashindek tushaverdi.

Yana Temur Malikning ovozini eshitdi:

— Narigi sohil tomon suzing, Jaloliddin!

O'ylab ham o'tirmay Temur Malik aytgancha qildi. Qo'llari jonsizlangunga qadar suzdi. Nihoyat o'ng qo'li qirg'oqqa yetdi. Daryodan chiqdi. Orqaga qarab, bir to'da mo'g'ullar o'zlarini daryoga tashlaganini ko'rdi. Havoda qilich o'ynatib qichqirdi:

— Bu tomonga, Xorazm arslonlari, bu tomonga!

Sind halqumidan qutulgan xorazmliklar urusha-urusha sulton sasi kelgan tomonga chekindilar.

— Bu yoqqa kel, Temur Malik!

Qosh qorayib, kun jon talasha boshladi. Shiddatli oqimdan, quturgan, ko'zi qonga to'lgan mo'g'ullardan omon qolgan askarlar ko'p o'tmay Jaloliddin atrofiga to'plandilar.

— Temur Malik qani?

Yon tomondan javob keldi:

— Shu yerdaman, sultonim. Qani, endi tepaga ko'tarilaylik.

Xorazm qo'shinidan qolgan bir necha kishi bor kuchi bilan tepaga tirmashdi. Jaloliddin tepada to'xtab, narigi sohilga qaradi. Chingizxonning uzun, qotma gavdasi ko'zga tashlandi. Jaloliddin g'azab bilan havoda qilich o'ynatib, bor ovozi-la hayqirdi:

— Qaytib kelaman, Chingizxon, hali ish bitgani yo'q!

Chingizxon o'tkir ko'zi bilan Jaloliddinni kuzatayotgan edi. Hayron qolib soqolini tutamladi. Bir necha mo'yini yulib, og'ziga tashladi. O'g'li Chig'atoyning qo'lidan tortib dedi:

— Otangning Jaloliddin kabi bir o'g'li bo'lmog'i kerak edi!

qonlari uchun intiqom olishi lozim. Ichida o'chib so'nmaydigan bir mash'ala yonmoqda.

Hindistondagi musulmonlar orasida ta'sirchan so'zlar so'yladi. Bir tomondan Temur Malik, ikkinchi tomondan Sariq Lag'o't va bir yondan o'zi askar to'plashga kirishdilar. Bu tashabbus roppa-rosa uch yil davom etdi.

Yigirma ming askar to'plagan kuni Jaloliddin harakatga o'tish vaqti yetdi deb hisobladi. Ikki do'st — Jaloliddin va Temur Malik o'zlari yashayotgan chog'roq uyning bir xonasida vaziyatni muhokama qildilar. Temur Malik:

— Endi kutish bilan erishadigan narsa qolmadi, — dedi. — Harakatga o'tadigan vaqt keldi.

— Gaping to'g'ri, birodarim. Biroq bundan oldin qilinadigan bir ish bor. Saljuq sultoni Alouddin Qayqubodga yana bir marta elchi yuboraylik. Ehtimol, yordamini darig' tutmas. Minglarcha musulmon boshiga bundan ham battarroq falokat yog'ilishini istamas. Davlatlarimiz boshqa-boshqa bo'lgani bilan dinimiz bir, millatimiz bir.

— Yaxshi o'ylabsiz, sultonim! Biroq bu tarzda bir chekkaga biqinib yotgan sultonga kim ham yordam qilardi? Alouddinning nazarida endi qo'lidan hech ish kelmaydigan bir sultonsiz. Bu fikrni chippakka chiqarish uchun yangidan kurash boshlash, zafarlar qozonish lozim. Menga qolsa, oldin o'zimizni ko'rsataylik, so'ng yordam so'raylik. Uch yildirki, biz maydonda yo'qmiz. Har holda dunyo bizni unutdi.

Jaloliddin derazadan tashqariga ko'z tashladi. Kattakon maydonda askar qaynaydi. Sarkardalar o'z qismlari bilan jang mashqi o'tkazmoqda.

— Bu yerga yetmishtagina mujohid bilan kelgan kunimiz esingdami, Temur Malik? Go'yo dunyoning bor falokati boshimizga yoqqandek, tugab bitgandek edik. Ammo shijoatimiz va umidimizni yo'qotmadik. Ko'rdingki, yetmish kishidan yangi bir qo'shin maydonga keldi. Hindistonlik qardoshlarimizdan Olloh rozi bo'lsin, ulardan katta yordam oldik. Endi qo'l qovushtirib o'tirish haqiqatan ham ziyondir. Dindoshlarimizning mo'g'ul zulmi ostida yotaverishlariga hecham rozi emasman. Voqean Chingizxon

ham o'ldi. Abadiy yashash chorasini qidirib, hayotdan ko'z yumdi. Lekin o'g'illari zulmda otasidan qolishmaydilar. Ularga ortiq fursat bermaslik lozim.

Qo'lini Temur Malikning yelkasiga qo'ydi.

— Ko'p yaxshi, Temur Malik, ish boshlaylik. Bor, sarkardalarga so'yla, bir hafta ichida tayyor bo'lishsin.

— Amringiz vojib, sultonim. Ammo oldin qayerga yo'l olish to'g'risida qaror olib, so'ng harakat boshlasak yaxshi bo'lmasmi? Qayoqqa ketishni bilmay yurish boshlashdan yomoni yo'q.

Jaloliddin ancha o'yladi. Achchiq kulimsiradi.

— Oxlat voliysi hojib Ali yodingdami?

Temur Malik tishlarini g'ijirlatdi.

— Yodimda, albatta, oramizga turli nifoqlar tashlagan bu buzg'unchini unutib bo'larmidi?

Jaloliddin qo'l silkidi.

— Uni bir ziyorat qilaylik, yo'limizning ustida.

Temur Malikka qarab jilmaydi.

— Ne deysan?

Temur Malik qo'llarini yozdi. Mushti qattiq tugildi.

— Bunga nima ham deyish mumkin, Jaloliddin?! Xuddi ichimdagini topib, qaror berdingiz. Valiylik martabasiga erishdingizmi yo?

Jaloliddin kuldi.

— Valiylik qayda-yu, biz qayda?

Temur Malik hayrat bilan bosh chayqadi.

— Valiylik siz kabilarning martabasi bo'lsa kerak. Yetmish kishini uch yilda yigirma mingga yetkazishdek ish karomat tufayli mumkin, xolos.

— Olloh xohlasa bo'laveradi, Temur Malik.

— Albatta, Ollohning qo'lidan har ish keladi, sultonim, ammo har holda...

Qo'lini ko'ksiga qo'yib, boshini ko'tarib, qad rostladi.

— Xorazm sultoni Jaloliddin Manguberdi! Askarlarni tayyorlash xususida buyruq bermoq uchun huzuringizdan chiqishga ruxsat so'rayman.

Jaloliddin yuzini burishtirdi.

— Qo'y buni, Temur Malik, oramizda bugunga qadar rasmiyatchilik yo'q edi, bundan keyin ham bo'lmasin. Biz yoshligimizdan og'ayini bo'lib o'sdik, shunday qolamiz, Olloh qo'llasin.

Temur Malik chiqib, askar tomon ketdi.

* * *

Ildam yurish bilan qisqa vaqt ichida Oxlatga yetib borgan Jaloliddin qal'a yaqinida chodir tikib, ko'p miqdorda gulxan yoqishni buyurdi. So'ng Temur Malikni yoniga chaqirdi.

— Bu qadimiy harbiy hiylani yana bir qo'llab ko'raylik, Temur Malik. Havo uncha sovuq bo'lmasa-da, ko'p gulxan yoqtirganimning sababini har holda tushungan chiqarsan.

Temur Malik kuldi.

— Makka fathini xotirlagan bo'lsangiz kerak, sultonim. Hazrati Rasulullоh ko'pchilik ekanliklariga dushmanni ishontirmoq va qo'rqitmoq uchun shunday qilgan edilar.

— Sen bilmagan narsa yo'qqa o'xshaydi.

— Musulmon askari sifatida islom tarixini bilmasak ayb bo'lmasmi, sultonim?

Jaloliddin bu savolga javob bermadi. Temur Malik urushlar tarixini yaxshi o'rganganini, maxsus ta'lim olganini undan ko'ra kim ham yaxshiroq bilardi?

Bosh ko'tarib, osmonga qaradi. U yer-bu yerda yulduzlar porlar, ammo oy chiqmagan edi. Qorong'ida Oxlat qal'asining baland devorlari qorayib ko'rinardi.

— Istasak hojib Alining ko'zidan uyqu qochiramiz, ammo xalqni xavotirga solmaylik. Har holda ular dindosh birodarlarimiz. Biz bilan urushmasalar kerak deb o'ylayman. Xalqqa nisbatan hech qanday e'tirozimiz yo'qligiga ularni ishontirish kifoya bo'lsa kerak.

— Qal'aga josus yuborish fikridamisiz?

— Shunday qilsa ham bo'ladi, ammo kutib o'tirishga vaqtimiz yo'q. Qal'ani olib, yo'lda davom etmog'imiz darkor. Sen to'g'rida ham ba'zi fikrlarim bor.

— Sir bo'lmasa, aytsangiz.

— Nega shoshasan? Sirlik joyi yo'q, ammo...

— Oldindan shunaqasiz, sultonim, odamning ichini qizdirib qo'yishni yaxshi ko'rasiz.

— Ha, yaxshi bilasan. Haqiqatan shunday qilishni xush ko'raman.

— Ammo Temur Malikning ichi qizib o'lishini ham xohlamassiz har holda.

— Xudo saqlasin. Hozir o'ladigan payt emas.

— Demak, aytasiz.

Jaloliddin qahqaha otib kuldi.

— Har doimgidek nima qilib bo'lsa ham istaganingni bilib olasan sen. So'zlamoq istamagan kishini ham so'ylatasan. Ha, mayli, eshitib, ko'ngling tinchisin, seni sulton Qayqubod yoniga yuborish niyatidaman.

Temur Malik Jaloliddinning yuziga diqqat bilan boqdi. Hazillashyaptimi, chin aytyaptimi, bilmoqchi edi, ammo qorong'ida sultonning yuzini ko'rib bo'lmadi. Ro'parasida faqat sultonning gavdasi qorayib turardi.

— Urushgani ketamanmi?

— Urushgani? Nima deganing bu? Saljuq sultoni bilan talashadigan hech narsamiz yo'q-ku! Elchi bo'lib borasan.

— Elchi bo'lib?

— Albatta. Har holda bu gap senga ma'qul tushmadi, chog'i?

Temur Malik qo'l qovushtirdi.

— Sultonim, men qayda-yu, elchilik qayda? Ishning rasvosini chiqarib, sizni ham yomonotliq qilarman. Qayqubod buyuk sulton, shunga yarasha elchi yubormoq kerak.

— Ha, xuddi shunday, shu bois ham seni yubormoqchiman.

— Men bir askarman. Elchilikning nozik jihatlarini bilmayman ham, sevmayman ham. Tap etib rostini so'ylayman qo'yaman. Salgina imo-ishorani ham hazm etolmayman, qo'rsman. Xullas, bu ish mening qo'limdan kelmaydi.

— Bir so'zimga bir qop javob berding, Temur Malik, — dedi Jaloliddin. — Seni yuboramiz deganim bosh elchi bo'lib borasan deganim emas-ku!

— Yo'g'-e?

— Elchimizga soqchi bo'lib ketasan. Qavatingda yuz askar bo'ladi, atrof mo'g'ulga to'la.

— Kimni elchi qilasiz?

— Buning ustida ko'p o'yladim. Duch kelgan odamni yuborib bo'lmaydi, albatta. Oxirida Tohirbekni yuborishga qaror qildim.

— Tohirbeknimi?

— Uni tanimaysanmi? Ismini to'liq aytsam, balki esingga tushar: Tohir ibn Umar al-Xorazmiy.

— Kim bilmaydi uni? Olim va fozil bir zot. So'zini topib gapiradigan, tili shirali kishi. Nihoyatda maqbul qaror.

— Omon bo'l. Endi uxlaylik. Sen soqchilarni bir nazorat qilgin. Hushyor turishsin. Bu yerda qay zamonda ne bo'lajagini hech kim bilmaydi.

— Yaxshi dam oling.

— Sen ham, Temur Malik.

Oxlat qal'asi soqchilari qarorgoh atrofida gurillagan gulxanlarni ko'rib, sarosimaga tushgan va saroyga xabar berib, hojib Alini uyg'otgan edilar. Qal'a voliysi hojib Ali moshdek ochilgan va qo'rquv to'la ko'zlari bilan xabar keltirgan sarkardaga ancha tikilib qoldi, so'ng lom-lim demay kiyinib, tashqariga chiqdi. Qal'a burjiga chiqib, diqqat bilan atrofni kuzatdi.

— Xudo urdi!

Og'zidan faqat shu so'z chiqdi. Qo'rquvdan oyoqlari qaltirar, oyoqda zo'rg'a turar edi. O'sha yerga tappa o'tirib, boshini changalladi.

Ajabo, bu kimning qo'shini bo'ldi? Mo'g'ullar yaqinlashgan bo'lsa, xabar topgan bo'lurdi. Agar mo'g'ullar kelgan bo'lsa, qo'rqadigan joyi yo'q, chunki ular do'stlari. Alouddin Qayqubodning askarlari bo'lsa ham, xavotir olmaydi. Tez-tez unga tobelik izhor etib turibdi, hatto goh-goh saljuq sultonidan yordam ham olib turibdi. Ayyubiylar o'z urug'idan, unga tegishmaydi. Xo'sh, unda kim bular? Do'st bo'lishsa qal'aga xabarchi yuborgan bo'lishardi. Birdan kallasiga bir fikr urilib, butun vujudi muzladi, suyak-suyagigacha zirqiradi.

— Jaloliddin!

Ha, bu Jaloliddin edi. Bir necha oy oldin Xorazm shohi yaxshi tayyorgarlik ko'rib, harakatga o'tish arafasida turgani to'g'risida Hindistondan xabar kelgan edi. Endi u qal'asini olish uchun bu yerga kelgan. Xoinligi uchun jazosini beradi. Bundan qutulish mumkinmi? Ne qilmog'i kerak?

Unga qarshi jang qilish aqlga sig'maydi. Bunday qilgan taqdirda askarlari uning o'ziga qarshi chiqishlari mumkin. Yana hiyla ishlatmoq, makkorlik qilmoq kerak.

Oldida qotib turgan sipohiyga g'azab bilan bo'kirdi.

— Daf bo'l, neni kutib turibsan?

Sipohiy shosha-pisha tisarildi. Voliyning aqli joyidami-yo'qmi deya o'yladi. Tez nari ketdi.

Hojib Ali yolg'iz qoldi. Goh qarorgoh atrofida yongan gulxanlarga tikilib, goh ko'z yumib xayolga toldi. O'yladi, o'yladi...

* * *

Erta tongda Jaloliddinning chodiriga kirgan Temur Malik sulton Qur'on o'qiyotganini ko'rdi. Tiz cho'kib o'tirdi. O'qib bitirishini kutdi. Jaloliddin do'stining bir narsani so'zlash uchun kelganini sezib, "sadoqallohulazim" dedi, so'ng qo'l ochib qisqa bir duo o'qidi. Yuziga fotiha tortdi. Temur Malikka yuzlandi.

— Xo'sh, so'yla.

Temur Malik tashqariga ishora qildi.

— Keldi.

— Kim keldi?

— O'sha hiylagar tulki, hojib Ali degan buzg'unchi, bilmayman, yana sizni alday olaman, deb o'ylaydi, shekilli.

Jaloliddinning qoshlari chimirildi.

— O'z oyog'i bilan keldi degin! Ajabo.

— Bir hiylasi bor.

— Qanday?

— Tavba qilganini, esi joyiga tushganini aytib, xatolarini afv etishingiz uchun siz buyuk sultoni oyog'iga bosh urib kelganini so'zlashi aniq. Bunga ishonchim komil.

— Qani, opkel, ko'raylik.

Temur Malik oyoqqa qalqdi. Tashqariga chiqdi. Takror chodirga kirganida yonida hojib Ali ham bor edi.

Hojib Ali boshi xam holda Jaloliddinga yaqinlashdi. Uch qadam qolganda o'zini yerga tashladi. Oyoqlarini quchoqladi.

— Buyuk sultonim, men faqirning xatoyim ko'p, aybimni kechirishni so'rashga yuzim yo'q. Hayotim qo'lingizda. Ne qilsangiz ixtiyoringiz. Endi qal'a ham sizniki, kalitlarini ham keltirdim.

U Jaloliddinning oldiga bir bog'lam kalit tashladi.

— Besh darvozaning besh oltin kaliti bular. Xazinamni ham oling, istaganingizcha tasarruf eting.

Jaloliddin kiprik qoqmay Temur Malikka tikildi, ko'z qarashi bilan bir inson jonini qutqarish uchun qanday qilib bu qadar pastkashlashishi mumkinligini so'rar edi. Temur Malik bosh chayqab, bu narsaga aql bovar etmasligiga ishora etgach, chiqishga hozirlandi. Jaloliddin qo'l ishorati bilan do'stini to'xtatdi.

— Bu izzat-ikromga ne deysan, Temur Malik?

Temur Malik orqaga qaytdi. Avvalo hojib Aliga tikildi. O'ng qo'lini qilichiga yubordi. So'l qo'li bilan kallani olish to'g'risida ishora qildi.

— Hojib Ali boshini yerdan ko'tara olmayapti, buyuring, shu ahvolda qolishini ta'minlaylik.

— Ya'ni uning jazosi o'lim demoqchisan?

— Agar o'limdan ham og'irroq jazo bo'lsa, uni qo'llashingizni xohlardim.

— G'irt askarchasiga gapiryapsan.

— Askar faqat askarchasiga fikrlaydi.

— Sulton bo'lsa sultonchasiga...

— Albatta.

— Qani, o'tir.

Temur Malik o'tirdi. Jaloliddin hojib Aliga yuzlandi.

— Boshingni ko'tar. Birgina joning uchun bu qadar past ketmasliging kerakligini bilishing lozim edi. Sen kabi bu ahvolga tushgandan ming bor o'lmoqni afzal bilaman.

Hojib Ali ming'illadi.

— Sultonim!

— So'yla, nodon! Shuncha qilg'ulikni qilib qaysi yuz bilan huzurimga kelding?

Hojib Ali asta bosh ko'tardi. Ko'zlaridan duv-duv yosh to'kdi.

— Aybdor ekanimni bilaman, mendan xato o'tdi. Bundan so'ng bor kuch-quvvatim bilan yoningizda bo'lay. O'l degan yeringizda o'lay. Qasam ichaman.

— Kimning nomi bilan?

— Ollohning nomi bilan.

— Ovozingni o'chir! Ollohning nomini tilga olma, til tortmay o'lasan. Olloh amriga bunchalik zid ishlar qilganingdan, musulmonlarni bir-biriga qayrab, dushman etganingdan keyin ne jasorat bilan Ollohni tilga olasan?

— Aybdorman.

Jaloliddin oyoqqa qalqdi.

— Aybdorsan, afsuski, sen kabi ko'ppaklashganlarga qilich urmoq qo'limdan kelmaydi, e'tiqodim bunga yo'l qo'ymaydi. Endi ko'zimdan daf bo'l. Ulamolar bilan kengashgandan so'ng sen haqingda hukm chiqaraman.

Hojib Ali tashakkurlar bildirib, tislana-tislana tashqariga chiqdi.

* * *

Sulton Jaloliddin oldin bergan qaroriga muvofiq Tohir ibn Umar al-Xorazmiyni saljuq sultoniga elchi qilib yubordi. Temur Malik elchini qo'riqlab ketdi. Yuz askar, bir qo'mondon va bir elchi Qo'niyo tomon ketib borardi. Har taraf osoyishta, go'yo bu yerlarda hech qachon urush bo'lmagan. Atrof suv quygandek jim jit.

Ammo bu sukunat Temur Malikka uncha ma'qul tushmayotgan edi. To'fondan oldin havoda sun'iy bir sokinlik bo'lib olishini yaxshi bilgani uchun xavotirda edi. Bir vaqt otini Boytuning yoniga haydadi. Boshqalar eshitmasin deya past tovushda pichirladi:

— Boytu, sen qanday fikrdasan, bilmayman, ammo bu sokinlik menga uncha yoqmayotir.

Boytu ko'zlariga zo'r berib har ikki tarafi daraxtzor yo'lga tikildi.

— Botirim, necha yillar tog'larda qaroqchilik qildim. Hatto, qush uchmayotir, bu yaxshilik alomati emas.

— Fikrimiz bir joydan chiqdi. Bizni kuzatishyapti deb o'ylaysanmi?

— Sizning fikringiz ham shundaymi?

— Ha, shundoq. O'n kishini xabargir etib jo'nataylik. Ularga sen boshchilik qil, qolganlari elchi hazratlarini qo'riqlash uchun men bilan qolsin.

— Amringizga hozirman, Temur Malik, ruxsat bersangiz hoziroq yo'lga chiqaylik.

— To'g'ri, hoziroq jo'nagin. O'tgan joylaringga uchi yo'nilgan qoziq qoqib ket. Shunda qaysi yo'ldan ketganingni osonlikcha topamiz.

Boytu yoniga o'n yigit oldi. Otini yo'rttirdi. Chang-to'zon ko'tarib, tezda ko'zdan g'oyib bo'ldi.

Temur Malik otini elchining yoniga burdi.

— Bu birodarlarimizni ilgariga yubordim, yo'lning bexavotir bo'lishini ta'min etajaklar, hazratim.

Tohir ibn Umar al-Xorazmiy Temur Malik tomon astagina o'girildi.

— Nihoyatda tadbirkorsiz-da, qo'mondon. Ammo bu sahroda dushman ne qilsin?

— Bunday demangiz, elchi hazratlari. Mo'g'ullar qachon va qayerda paydo bo'lishini hech kim bilmaydi. Bundan tashqari, mo'g'ullardan boshqa dushmanlarimiz ham bor.

— Gapingiz to'g'ri, ammo atrof tinchga o'xshaydi. Inson zoti u yoqda tursin, loaqal bir kiyik ham uchratmadik.

— Xuddi shu bois xavotirga tushdim, hazratim, bu sahroda hayvon ko'p bo'lg'usi edi. Inson kelgan joydan hayvon qochadi.

Tohir ibn Umar ufqqa tikildi.

— Balki gapingiz to'g'ridir, — dedi u astagina.

Temur Malik o'y-xayolga cho'mgan olimning yonidan ayrilib, odamlarining boshiga o'tdi.

— Otlarni yanada tezroq haydang, — dedi u. — Oldimizda bir kechuv bor. Qosh qoraymasdan oldin u yerdan o'tib olmog'imiz lozim.

Hech kim indamadi. Temur Malik nimadan tashvishlanayotganini tajribali yigitlari yaxshi bilishardi. Otlarini qichab, o'q kabi

tez yeldilar. Yo'l-yo'lakay Boytu tomonidan yerga qoqib ketilgan qoziqlarga duch kelishar va to'g'ri yo'ldan ketayotganliklarini bilib olishar edi. Boytu sur'at bilan olg'a bosib borardi. Faqat ma'lum masofa bosgach, yigitlarining biriga qoziq qoqish uchun ishora qilar, qoziq qoqib bo'lishini kutib ham o'tirmasdan boshqa yigitlari bilan yo'lda davom etardi.

Bir gal qoziq qoqish uchun qolgan askar orqalaridan yetib kelmaganini payqab, odamlarini to'xtatdi. Diqqat bilan orqaga tikildi. Hech qanday alomat ko'rinmadi.

— Qayerda qoldi? — deya so'zlandi u.

Askar negadir kelmadi. Boytu rosa xavotirga tushdi. Askar xiyonat qildimikan yo? Hech kimga qaramasdan o'rtaga savol tashladi:

— Uni kim taniydi orangizda?

Uch kishi birdaniga javob berdi:

— Men.

— Qayerdan taniysiz?

— Xo'jandda u bilan birga bo'lganmiz. Uzoq vaqt Temur Malikning yonida arslon kabi olishdi. Yetti joyidan yaralangan.

— Nega qaytmayapti?

Barcha jim qoldi. Tilning uchida turgan so'zni yutishni ma'qul topishdi. Bu kimsasiz joyda hech biri pakana ot minganlarning nomini tilga olishni istamadi. Ular go'yo iblis kabi nomi eslatilgan joyda hozir-u nozir bo'lardilar.

Boytu odamlarning xayolidan o'tgan gapni angladi. Takror orqa tomonga tikildi. Uzoqda ko'tarilgan chang-to'zon elas-elas ko'zga tashlandi. Qo'lini peshonasiga soyabon qilib, yanada qattiqroq tikildi.

— Birodarimiz kelayotganga o'xshaydi.

Barchasi quvonib, shu tomonga qarashdi. Tinchlanishdi. Kech qolgani va o'zlarini xavotirga solgani uchun birodarining adabini berib qo'ymoqchi edilar.

Ammo birodarlarining oti kelayotgan edi, xolos. Sodiq jonivor o'z to'piga chavandozsiz qaytgan edi. Qovoqlar uyildi, ko'zlar qisildi, tishlar g'ijirladi, qo'llar beixtiyor qilichlar tomon uzandi.

Hech kim bir so'z aytmadi. Birodarlari bir falokatga uchraganini har biri tushunib yetgandi. Ot ustidagi qon izlari ham shun-

dan dalolat berardi. Birinchi bo'lib Boytu o'ziga keldi. Otining jilovini tortdi.

— O'ylab turadigan vaqt emas, birodarlar. Biringiz otni yetovga oling, yo'lda davom etmog'imiz kerak.

Otlarni qichab, yo'lga tushdilar. Yo'l-yo'lakay yana qoziq qoqib ketishdi.

Temur Malik yonidagilar bilan bir chog'roq tepalikka yetib keldi. Yerdagi tuyoq izlari ko'payganini ko'rib, otini to'xtatdi. Sakrab pastga tushdi. Yumshoq tuproqni diqqat bilan ko'zdan kechirdi. So'ng boshini ko'tarib, atrofga razm soldi. Hech bir alomat ko'rmadi. Ammo bu yerda bir to'qnashuv sodir bo'lganiga uning ishonchi komil bo'ldi. Yerda singan xorazm qilichi yotgan edi.

— Oxiri baxayr bo'lsin, ko'raylik, — deya so'zlandi u. Otiga mindi.

Endi u yanada hushyorroq bo'lib, har onda hujum kutib olg'a bosib ketaverdi.

* * *

Ikki soat yo'l bosgan Boytu nihoyat kechuvga borib yetdi. Oqshom yaqinlashib qolgan. Biroz ilgari dam olish uchun to'xtab, asr namozini o'qib olishgandi.

Birdan tepalik ustida kimlarningdir qorasi ko'rindi. Qayerdandir bir to'da mo'g'ul paydo bo'lib, ustlariga seldek bostirib kela boshladi. Boytu xotirjam edi. Yonida bor-yo'g'i o'n kishi borligiga qaramay, taslim bo'lish xayoliga kelgani ham yo'q. Shiddat bilan qilichini sug'urdi. Otining jilovini qo'liga oldi.

— Arslonlarim, bugun shahid bo'ladigan kunimizdir. Hozirgina tahorat olib, pokiza bo'lganmiz, bu yo'ldan bizni kim qaytara oladi!

"Olloh! Olloh!" saslari atrofni tutdi. Bu ovozlar qilichlarning shaqir-shuquriga qo'shilib, "lu! lu! lu!" degan na'ralarni bosib ketdi.

Dushman ko'pchilik edi. Ular alam, qahr-g'azab bilan bostirib kelib, shu paytgacha tortgan mag'lubiyatlari uchun shu kichkinagina qismdan intiqom olishga azm-u qaror bergandek ko'rinardilar.

Mo'g'ullar yuz kishiga yaqin edi. Ularga mo'g'ul jallodi deb nom chiqargan Qora Yasug' boshchilik qilayotgandi. Qora Yasug'

bir vaqtlar ikki marta Jaloliddinga to'qnash kelib, har ikki jangda ham yengilgan edi. Shundan u juda alamzada. Ikkinchi mag'lubiyatdan so'ng u o'ldirilishini bilgani uchun Jo'jixonning yoniga qaytmagan, o'ziga ko'r-ko'rona itoat qilgan yuz qaroqchi bilan yo'lto'sarlikka o'tib olgan edi. Odam o'ldirish unga lazzat bag'ishlar, atrofga dahshat solar edi.

Kallasi g'uvillab sanqib yurib, Temur Malikning karvonini payqab qoldi. Qisqa yo'ldan yurib kechuvni egallab oldi. Niyati elchini tutib Jo'jixon huzuriga eltish. Bunga erishsa gunohidan o'tishlariga ishonchi komil. Buning uchun u avvaliga xabargir qismni yo'q qilib, karvonni kechuvda qisti-bastiga olmoqchi edi.

Ro'parasidagilar bor-yo'g'i o'n kishi bo'lsa-da, jon-jahdi bilan olishmoqda. Har biri yirtqich arslonga o'xshaydi, go'yo har birining bir emas, yetti joni bordek. Besh joyidan yarador bo'lganlar ham yiqilmayotir, o'ng qo'li chopilganlar, qilichni so'l qo'liga olib jang qilmoqda. Qora Yasug' xabargir qism qo'mondoni Boytu ekanini fahmladi va ishni tezroq bir yoqli qilish maqsadida unga hujumga o'tdi. Boytu yelkasidan yaralangan, ko'p qon yo'qotgan, ammo hamon oyoqda edi.

— Uring, arslonlarim, uring, qo'chqorlarim, uring, g'oziylarim! — deya na'ra ustiga na'ra tortib, odamlarini ruhlantirardi u.

Uning oldida Qora Yasug' paydo bo'ldi.

— Ol! — deya baqirdi u va qo'lidagi kalta qilichni Boytuning boshiga soldi.

Boytu agar otini yon tomonga burib chap bermasa qoq ikkiga bo'lingan bo'lar edi.

Dushman hamlasidan so'ng bir lahza ham o'tmasdanoq u:

— Mana senga! — deya hayqirib olg'a tashlandi.

Qora Yasug' mohir qilichboz edi. Hujumi bekor ketganini ko'rgan zahoti raqibining hujumga o'tishini hisobga olib, tadbir ko'rishga ulgurdi. Osongina qutulgach, qahqaha otdi.

— Seni bichaman, Xorazm ko'ppagi, tilka-pora qilib tashlayman.

Boytu bu odam xorazmchani bilganiga hayron qoldi.

— Tilimni qanday o'rganganingni bilmayman, ammo tilingni uzib tashlashim kerakligini bilaman.

Temur Malik odamlariga:

— Atrofini o'rang, — deya amr berdi. — Hech kim qocholmasin. Tezlashing!

Otini tez orqaga burib, elchi tomon ot qo'ygan ikki mo'g'ulni chopib tashladi, so'ng qonli qilichi bilan yana urushayotganlar safiga qo'shildi.

— Ildam bo'ling, yigitlarim, Xorazm bahodirlari, ildam!

Jang uzoq davom etmadi. Atigi uch mo'g'ul qochib qutuldi. Chopqir otlari ularning joniga ora kirdi. Temur Malik darhol Boytuning yoniga bordi. Boshini quchog'iga oldi.

— Boytu!

Boytu zo'rg'a jilmaydi. Ammo ko'zlarining nuri o'chgan, badani sovub bormoqda edi. Qo'llari bilan Boytuning qovoqlarini yumdi. Boshini astagina yerga qo'ydi. Arvoh singari qad rostladi. Qovoqlarini kuydirib ikki tomchi yosh oqdi.

— Boytu! — deya ingradi u. — Seni ham Rasulullоh yoniga jo'natdik. U buyuk nabiyga bizdan salom aytgin.

Qo'llarini ochdi.

— Yo Rab! Bizga ham shahodat nasib ayla.

Yelkasiga kimdir qo'l qo'yganini sezdi. Tohir ibn Umar al-Xorazmiy yumshoq ovozda dedi:

— Metin bo'ling, Temur Malik! Shahidlar uchun ko'z yoshi to'kilmaydi.

Elchiga yuzlandi. Namli ko'zlari bilan uning yuziga boqib dedi:

— Unga emas, o'zimga yig'layapman.

— Shahidlarni ko'maylik, Malik. Yaradorlar uchun daraxt shoxlaridan bir nechta zambil yasashsin. Bo'sh otlarga ortib, olib ketamiz. Duch kelgan qishloqda muolaja qildiramiz. Hali yo'l uzoq, vaqt ketmasin.

Temur Malik o'rnidan turdi. O'z zimmasiga yuklangan vazifa butun og'irligi bilan yelkasida turganini his etdi.

— To'g'ri aytyapsiz, — deya xo'rsindi.

Boytuning yuzi uzra oqshom yog'dusi o'ynar edi. Temur Malik unga yana bir nazar tashlab dedi:

— Olloh seni o'z rahmatiga olsin, qardoshim.

Odamlariga yuzlandi:

— Shahidlar uchun mozor qazing. Bir qismingiz yog'och kesib, zambil yasang. Har biriga ikki yarador birodarimiz sig'adigan bo'lsin. Qani, ildam bo'ling.

Odamlar tarqalib, buyurilgan ishni bajarishga kirishdilar.

Temur Malik bilan elchi bir yog'och ustiga o'tirishdi. Temur Malik hayajon-la Qur'on tilovat qila boshladi. Ilohiy kalom daraxtlar ustidan oshib, ko'klarga yuksaldi. Zarralar to'ldi, havoga uchdi, qalblarga qatra-qatra nur bo'lib oqdi.

So'ng oqshom namoziga turdilar.

* * *

Nihoyat bir kuni tush payti saljuqiylar poytaxti Qo'niyoga yetib borishdi. Temur Malik shaharning go'zalligidan masrur bo'ldi. Atrofga diqqat bilan razm solib, me'moriy obidalar mohir ustalar tomonidan abadiylashtirilganini ko'rdi. U hozirga qadar bunday go'zal shaharni ko'rmagan edi. Shahar mo'g'ul istilosidan oldingi Buxoroga o'xshardi.

Shaharda odam ko'p. Bozor rastalarida ignadan ipgacha hamma narsa mo'l. Bezakdor to'n kiygan ayyubiylar, uzun, oq ko'ylakli hindilar bilan birga goho xitoylik savdogarlar ham uchraydi.

Ularni kutib olishdi. Go'zal bir uyga joylashtirdilar. Yaqinda sulton ularni qabul qilishini bildirdilar.

Temur Malik orom oldi. Hech bir tashvishi yo'q. Do'st uyida ekaniga ishonardi.

Yuvinib tarandilar, ust-boshini almashtirdilar. Oqshomga yaqin Qayqubod Xorazm elchilarini qabul qilishga tayyor ekanligi to'g'risida xabar keldi.

Sulton Alouddin Qayqubod muhtasham bir taxtda o'tirardi. Taxtning ikki yonida vazirlari va beklari qator tizilishgan. Sulton juda viqorli va jiddiy. Boshidagi sallasining bir uchi o'ng yelkasiga tushirilgan. Uzun, zarrin to'ni oyoq uchiga tegib turardi.

Xorazm elchisi Tohir ibn Umar al-Xorazmiy kirib kelgach, u o'rnidan turdi va bir necha odim otdi.

— Do'stimiz va din qardoshimiz Xorazm sultoni Jaloliddin-xonning elchisini saroyimizda ko'rishdan baxtiyormiz, safolar keltirdingiz.

Elchi salom berdi, so'ng sultonning qo'lini o'pdi. Sal tislanib tik turganicha dedi:

— Saljuqiylarning buyuk sultoni, ulug' janobi Ollohimiz sizni doim qo'llasin. Kuffor ustidagi qilichingiz qayrilmasin. Millatingizdan xavf-xatar uzoq bo'lsin. Davlatingiz doim barqaror bo'lsin.

Sulton Alouddin qaytib, taxtiga o'tirdi.

Xorazm mamlakati haqida xabarlar so'radi. Jaloliddinning kurash mash'alini takror yoqqanini eshitib, mamnun bo'lganini bildirdi.

— Kuffor ustiga yurish qilganidan biz mamnunmiz. G'azoti muborak bo'lsin. Men ham qarab turmayman, albatta. Qo'shinlarim hozirgi vaqtda salibchilarga va armanilarga qarshi jihod etmoqda. Yaqinda Qaysariga ketib qo'shinlarimga o'zim qo'mondonlik qilmoqchiman. Bu da'vo hammamizning da'vomizdir.

Xorazm elchisi qo'ynidan Jaloliddinning maktubini chiqarib, sultonga taqdim etdi.

— Hammamiz shu fikrdamiz, sultonim, — dedi u. — Da'vo hammamizniki. Hammamiz bir va barobar bo'lsak kurashda albatta zafar qozonamiz. Sultonim Jaloliddin ko'p xoinliklarga duch keldi. Butun avlod-u ayolini din yo'lida fido qildi. O'ziga sodiq bir hovuch odamlari bilan hind mamlakatiga yo'l oldi. U yerda davlat barpo etdi. Ammo ko'ngli ota-bobolari yurtida qoldi. Qaytib, yangidan kurash boshladik. Xorazm mamlakatini majusiylardan tamoman tozalagunga qadar mujodala etmoq uchun ont ichdik. Siz bilan ayni din va ayni millatga mansubmiz, jihod yo'lida musharakmiz. G'oyalarimiz ham ayni. Din uchun, ozodlik uchun urushamiz. G'arb podshohlari orasida islom hududlarini himoya etayotgan va kofirlarning ildizini quritayotgan sizsiz. Sharqda esa qilich bilan mushriklarning fitnalarini bostirayotgan Jaloliddindir. Sulton Jaloliddin aytyaptilarki, "Bu qadar moddiy va ma'naviy yaqinlik tufayli bir-birimizga bog'liq bo'la turib, o'zaro yordam eshigini ochmasak, birlik ko'chasidan yurmasak, kimni do'st deb bilishimiz va qaysi yo'ldan olg'a yurishimiz mumkin?"

Sulton bosh irg'atib, bu so'zlarga qo'shilganini bildirdi. So'ngra maktubni o'qitdi. Jaloliddin maktubida kufforga qarshi yangidan mujodala boshlaganini, musulmonlarni majusiylar asoratidan ta-

momila ozod etmaguncha urushmoqqa azm-u qaror berganini, saljuq sultoni bilan mustahkam do'stlik o'rnatish istagida ekanini bildirib, shunday deb yozgan edi:

"Bunday do'stlik va ittifoq eshigini ochsak mamlakatlarimiz uchun ko'p yaxshi bo'ladi. Ikki mamlakat orasida savdo karvonlarining borib kelishi ham har holda xalqlarimiz orasida qardoshlik o'rnatishga xizmat qiladi. Hozirga qadar bu ishning qilinmagani bir yo'qotish bo'ldi, deb bilaman. Buni shunday qoldirishga ko'nglim hecham rozi emas. Mamlakatim ya'juj-ma'jujning istilosi ostida yillardir azob chekmoqda. Ollohning izni bilan islom qilichini ularning boshiga solmoqdamiz. Yaqinda ular o'z o'lkalarini ham tashlab qochishga majbur bo'lajak, inshoolloh.

Faqat buning uchun biroz vaqt lozim. Bundan tashqari, sizdek buyuk sultonning qo'llab-quvvatlashi qo'shinlarim uchun bir ma'naviy quvvat bo'lur edi. Bu yerdagi qardoshlaringizdan yordamingizni darig' tutmasligingizga ishonaman. Xudo xohlasa biz muvaffaqiyat qozonamiz. Saltanatingiz uzoq davom etsin va xayrli bo'lsin. Olloh sizga yordam etsin".

Sulton boshini musbat ma'noda bir necha bor irg'adi.

— Yaxshi gaplar, — dedi u. — Din do'stimizga yordamchi bo'lishni istaymiz, albatta. Islom o'lkalari orasida qardoshlik o'rnatish bizning ham orzumizdir. Buning uchun qo'limizdan kelgan barcha ishni qilamiz. Muhtaram elchi, borib damingizni oling. Ertaga javob maktubimiz va muqobil hadyalarimizni taqdim etamiz. Bundan tashqari, mamlakatingizga qadar sizni himoya etish bizning zimmamizda bo'ladi. Yo'lingiz ochiq bo'lsin. Qardoshimiz Jaloliddinga salomlarimizni yetkazing, Olloh unga ham yordam etsin.

Xorazm elchisi sultonga ta'zim bajo keltirgach, saroyni tark etdi. Mehmonxonaga qaytdi.

Temur Malik uni sabrsizlik bilan kutayotgan edi. Elchini ko'rar-ko'rmas so'radi:

— Yaxshi xabarlar bordir, inshoolloh, hazratim?

— Yaxshi xabar, Temur Malik. Sulton Qayqubod bizga yaxshi munosabatda bo'ldi, Jaloliddinga mehr-muhabbat ko'rgazdi. Bizni oyoqqa turib qarshi olgani Jaloliddinga hurmati nishonasidir.

— Yordam beradigan bo'ldimi?

— Moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llash borasida ba'zi gaplarni aytdi, ammo, to'g'risini aytganda, qat'iy qarorini bildirmadi. Har holda Jaloliddinga yozadigan maktubida bu narsa oydinlashsa kerak. Shunday bo'lsin deb umid qilaylik.

* * *

Xorazm sultoni bilan saljuq sultoni o'rtasidagina emas, boshqalar orasida ham cho'l oshib borib kelayotgan elchilar bor edi. Xalifalik kabi tabarruk bir unvonni o'z istibdodi uchun qurol qilishdan hayiqmagan Nosirning elchilari edi bu. Xalifaning elchilari bir kuni oqshom payti Arzirumga yetib bordilar va Nosirning maktubini Arzirum maligi Jahonshohga berdilar. Jahonshoh xalifaning maktubini bir lahzada o'qib chiqdi. Maktubni o'qirkan, yuzi tashvishli tus oldi.

— Yaxshi, — dedi u Nosirning elchisiga, — ammo sulton Jaloliddin nega menga hujum qilishi mumkin?

— Sababi juda oddiy, — dedi elchi. — Oxlat voliysi hojib Ali sizning do'stingiz emasmi?

— Xo'sh, nima bo'pti?

— Gap shundaki, Jaloliddin hojib Alini qutqarishingiz mumkinligini o'ylab xavotirga tushgan.

— Hojib Ali asir emaski, uni qutqarsam. Qal'ani o'z rizoligi bilan topshirdi-ku.

— Yanglishyapsiz. Hojib Ali jonini saqlash uchun qal'ani topshirishga majbur bo'ldi. Uni qutqarish do'stlarining nomus burchidir. Xalifa janoblari bu borada qo'lidan kelgan barcha ishni qiladi, u siz ham chetda tomoshabin bo'lib turmasligingizni xohlayapti.

Bu so'zlar Jahonshohni taraddudga soldi, xolos. U tinchini buzish uchun biron sabab ko'rmadi. Jaloliddinning kuch-qudrati tobora ortib borayotganidan biroz tashvish chekayotgan bo'lsa-da, isyon ko'tarmoqchi emasdi. Chunki bunday qilsa yengilishini bilar edi.

Bir necha kundan so'ng hojib Alidan maktub keldi. Hojib Ali Jaloliddinga o'z rizosi bilan taslim bo'lmaganini aytib, qal'asini ozod etish uchun yordam so'ragan edi.

Maktub kishini achintiradigan bir tarzda yozilgan, har satridan g'am nafasi ufurardi.

Jahonshoh hojib Aliga yordam etishga qaror berdi. Agar Jaloliddinni bartaraf etsa, u Xorazm mamlakatining bir parchasiga hokim bo'lardi.

Maxfiy yo'llar orqali hojib Aliga yordam va'da qildi. Ayni vaqtda xalifa Nosirga ham maktub yubordi. "Do'stim, Oxlat voliysi hojib Alining mulkini sulton Jaloliddin zabt etdi, — deb yozgan edi u. — Hojib Ali Jaloliddindan qo'rqqani uchun tobelik izhor etib, jonini saqlab qolibdi. Menga yashirincha yuborgan elchi vositasida yordam berishimni o'tindi. Qo'limdan kelgan barcha ishni qilishimni bildirdim. Hozir bo'lsa Jaloliddinning odamlari orasiga nifoq solishdan boshqa chora yo'q. Biroq ular oldingiday emas, o'tmishdan yaxshigina dars olib, hushyor tortdilar. Kun sayin kuch-quvvati ortib bormoqda. Bu ketishda uni yengish amri mahol. Jaloliddin hammamiz uchun katta xavf tug'dirishiga ishonaman. U hatto Chingizdan battar. Buni mendan ilgariroq tushunib yetganingiz maktubingizdan ma'lum bo'ldi. Biroq biz Xorazm sultoniga qarshi bir ish qila olmaymiz. Eng yaxshisi, saljuq sultonini ishontirishga harakat qilaylik. Rad javobi olsangiz-da, xafa bo'lmay, muloqotni davom ettirishga harakat qiling. Ishontirolsak, qilmaydigan ish yo'q. Men hojib Aliga bir to'da askarlariga yashirincha Xorazm askari libosini kiydirib, saljuq qishloqlariga hujum qilishi to'g'risida yozdim. Shu yo'l bilan ikki mamlakatning orasini buzamiz".

Maktubni o'qib Nosirning vaqti chog' bo'ldi. Qo'shin tayyorlashga kirishdi. Ayni paytda, saljuq sultoni Qayqubodga Jaloliddinni yomonlab maktublar yuborishda davom qildi. Qayqubod uzoq vaqt maktublarga javob bermadi. Puch gaplar deb maktublarni yerga otdi. Ammo bir kuni...

1228-yilning bulutli bir kuni edi. Bulutlar quyuqlashib bir-birining ustiga mingashgan, atrof qorong'ilashib borardi. Ko'p o'tmay boshlanadigan momaqaldiroq darakchisi bo'lgan shamol kuchaygandan kuchaydi.

Saljuq sultoni saroy ayvonida ancha vaqt o'tirganidan so'ng ichkariga yo'naldi. U bunday havodan bolalik chog'laridanoq cho'chir edi. U faqat to'fondan qo'rqardi, xolos. Son-sanoqsiz

askarlardan iborat dushman qo'shini ustiga burgut kabi otilishdan hayiqmaydigan bu odamni momaqaldiroq gumburladi deguncha beixtiyor titroq bosardi.

Sulton ichkariga kirgach, pardalarni zich yopishni buyurdi. Momaqaldiroq tovushi mumkin qadar pastroq eshitilishini xohlar edi u. Bunday vaqtlari uning mazasi qochar edi. Buni bilgani uchun sulton bu kezlar muhim qarorlar olmas, havo ochilib, yana quyosh porlashini kutardi.

O'rindiqqa cho'zildi. Bosh uchidagi javondan qalin bir kitob olib, o'qishga tutindi.

Hali birinchi sahifaning yarmiga yetmasdan vaziri Sharafulmulk ruxsat so'rab, ichkariga kirdi.

— Sultonim.

Alouddin Qayqubod tirsagiga tayanib, qad rostladi. Tashvishli qiyofa bilan vaziriga tikildi. Bunday yomon havoda yaxshi xabar kelmasligiga shu qadar ishongan ediki, xavotir bilan so'radi:

— Qo'shinim to'zidimi, Sharaf?

— Olloh saqlasin, sultonim.

— Mulkimni sel oldimi?

— Yo'q, sultonim.

— Mo'g'ul xoni Qo'niyo ustiga yurish qildimi?

— Bunga ularda jur'at bormi, janoblari?

— Xo'sh?

— Xorazm shohi gurjilarni mag'lub etib, Arzinjonning ba'zi qishloqlariga hujum etibdi.

— Ne deding?

— Biroz oldin bir askar keldi. Xabar keltirgan o'sha. Horg'in. Oyoqda zo'rg'a turibdi. Istasangiz, huzuringizga keltiray.

— Tezdan.

Vazir chiqdi. Alouddin Qayqubod soqolini tutamladi.

— Jaloliddin bu ishni qanday qildi ekan? Maktublar yuborib mamlakatlarimiz orasidagi do'stlikni mustahkamlash niyatida ekanini yozsa, ayni chog'da bizga qarshi harakat qilsa? Buning ustiga qishloqlarimizni talasa. Xo'p, gurjilarni ezibsan, ammo mening fuqarolarimdan ne istaysan? Musulmon musulmonga qilich ko'taradimi, axir?

Eshik ochildi. Vazir Sharafulmulk ust-boshi aftoda bir keksa askar bilan ichkariga kirdi.

Alouddin Qayqubod oyog'iga yiqilgan askarni yelkasidan tutib ko'tardi.

— So'yla, chindan ham Jaloliddinning askarlarimi qishloqlarimizni bosgan?

Askar holdan toygan edi. Shuncha yo'lni tin olmay bosib kelgandi. Harsillagancha so'z boshladi.

— Ilk bosqin bo'lganida bu bir yanglish ish bo'lsa kerak deb o'ylagandik. Hech qanday yanglishlik yo'q ekan, qishloqlarimizga qasddan bosqin qildilar. Bir necha kun ilgari yana bosdilar. Ayni zamonda og'zini to'ldirib baqirishardi: "Bizga Xorazm arslonlari deyishadi. Sulton Alouddinni..."

Jim qoldi. So'zning davomini aytishga jur'at qilmadi. Sulton tushundi.

— Bor gapni to'liq ayt, — dedi, — borini, bir so'z qoldirmay.

Askar bir-ikki yutindi.

— Deyishdiki, "Sulton Alouddinni otimizning quyrug'iga bog'lab, sulton Jaloliddinning huzuriga eltamiz. Qul qilamiz. Bir temir qafas hozirladik. Uni qafasga tiqib olamga ko'rsatamiz. Qudratimiz yetti iqlimga yoyilsin".

— Iye!

Vaziriga o'girildi.

— Darhol kotib chaqir. Bir maktub yozdiraman. Bu maktubni Jaloliddinga sen eltasan. Men bilan olishmoq niyatiga qaraganda bu mojaro kattaydi, ko'z chiqadigan bo'ldi.

Vazir bir nechta qadam tashlab, to'xtadi.

— Sultonim, istasangiz bo'lgan hodisani atroflicha o'rganaylik. Bunday qarorni to'xtatib turishda foyda bor. Qarshimizdagi sulton, qolaversa, sizga do'st.

Alouddin Qayqubod kichik ko'zlarini vaziriga qadadi.

— Qishloqlarimni talagan odamni do'st bilaymi?

— Bir yanglish ish bo'lgandir. Buning uchun oldin o'ziga murojaat qilinadi, uzr so'rashi istaladi. Takrorlagan taqdirda tegishli chora ko'riladi, albatta. Yana qanday farmon berish sultonning ixtiyorida.

Sulton bu maqbul so'zlardan yumshadi.

— Ko'p yaxshi, — dedi u. — Kengashni to'pla.

Vazir chiqdi. Horg'in askarni ham olib ketdi. Borib kengashni to'plab, sultonga xabar berdi. Sulton Alouddin o'rnidan turib, kengash xonasiga bordi. Masalani beklari, sarkardalariga tushuntirgach:

— Saljuq davlatining arkoni o'laroq bunga qanday chora ko'rish lozim deb o'ylaysiz? — deya so'radi.

Munozara uzoq davom etdi. Kimdir darhol urush ochishni, kimdir kutishni tavsiya qildi. Aksariyat Jaloliddinga elchi yuborish kerakligini aytdi.

— Ko'raylik, — deyishdi ular. — Sulton Jaloliddin elchimizga "saljuq sultonini temir qafasga solib, olamga ko'z-ko'z qilaman" deya olarmikan?

Kengash davom etarkan, Xorazm mamlakatidan elchi kelgani haqida xabar berishdi. Sulton Alouddin Qayqubod elchini darhol huzuriga keltirishni buyurdi. Beklariga yuzlandi.

— Olloh istaganimizni hozir-u nozir qildi. Ko'raylik-chi, Jaloliddin bizga urush e'lon qilmoqchimi?

Elchi ichkariga olindi. Olg'a yurib sultonning qo'lini o'pmoqchi bo'ldi. Sulton qo'lini tortdi. Boshqa tomonga bosh burdi.

Xorazm elchisi hayron bo'ldi, ammo o'zini yo'qotmadi. Yerga tiz cho'kib, taxtning ikki tomoniga osilgan zarhal, naqshinkor tug'lardan birini o'pib, peshonasiga tegizdi.

— Sultonga uzoq umr tilaymiz, — deya so'z boshladi u. — Men faqirni kuttirib qo'ymay, qabul etish bilan o'z muhabbatlarini namoyish etdilar. Sultonim Jaloliddin Xorazmshoh nomidan tashakkur bildiraman.

So'ng oyoqqa qalqib, tik turdi. Bir gap o'tganini u tez payqab olgan edi. Ammo bildirmaslikka harakat qildi, o'zini hech narsa tushunmaganga soldi.

Sulton elchining yuziga qaramay so'zladi.

— So'yla, ne istaysan? Qishloqlarimizni bosib, talon etgandan so'ng qaysi yuz bilan huzurimga keldingiz? Bir yondan do'stlik nomalari bitib, ikkinchi yondan xiyonat qilish inson ishimi?

— Sultonim nelar haqida so'ylamoqda, ajabo?

Alouddin shiddat bilan oyoqqa qalqdi. Barmog'i bilan derazani ko'rsatib dedi:

— Arzinjon hududida siz talon-toroj etgan qishloqlardan.

— Yo'g'-e, biz bunday bir ish qilishimiz mumkinligiga qanday ishondingiz?

— Ko'zi bilan ko'rganlar aytdi.

— Sizga yanglish xabar berilgan, sultonim, menga ishoning. Jaloliddin Xorazmshoh faqat gurjilarni sindirmoq uchun o'sha tomonda jang qildi. Ollohning izni bilan gurjilarni bartaraf ayladi, ammo sizning yerlaringizga hech ham kirgani yo'q.

Sulton Alouddin ishonmadi. Shiddat bilan hayqirdi:

— Yolg'on aytyapsan, elchi.

Elchi titradi.

— Sultonim, menga yolg'onchi degan, afsuski, sizsiz.

Sulton masxaraomuz ko'z tashladi.

— Nima, o'ldirarmiding?

Elchi chayqaldi.

— Bir musulmonga qilich ko'tarmayman. Buning ustiga bu yerga urushmoq niyatida kelganim yo'q. Urushish askarning ishi, men elchiman. Eshitganlaringiz fitnachilar tomonidan to'qib chiqarilgan yolg'on gap ekanini aytmoq istadim, xolos. Agar sultonim Jaloliddinni yaxshi taniganingizda edi, uning bunday ish qilmasligini bilgan bo'lardingiz.

— Askarlarim o'z ko'zlari bilan ko'rgan. Bugun ulardan biri keldi, sal oldin uning so'zlarini eshitdim. Bu ahvolda senga qandoq ishonish mumkin?

— Askarlaringiz aldangan bo'lmasin yana.

— Yo'q, aldanmagan.

Elchi qo'yniga qo'l solib, bir maktub oldi-da, sultonga uzatdi.

— Sultonim Jaloliddin sizga salom yo'llash bilan birga ushbu maktubni yubordi. Maqsadini maktubda ochiq-oydin yozgan. O'qisangiz bizning sizdan yashirin tutadigan bir ishimiz yo'qligini bilib olasiz. Biz to'g'rimiz. Dinimizning ijobi o'laroq, riyokorlikdan nafratlanamiz. Dushmanligimiz ham, do'stligimiz ham ochiq-oydin. Kuppa-kunduz kabi ravshan.

Sulton Alouddin Qayqubod maktubni ochmay vaziriga uzatdi.

— O'qi!

Vazir maktubni ochib, oldin bir ko'z yugurtirdi, so'ng o'qiy boshladi.

Jaloliddin saljuq sultonini uzundan uzoq duo etganidan so'ng qilgan ishlari, mo'g'ullar bilan bo'layotgan mujodalasi haqida batafsil yozgan edi. Maktubning bir joyida bunday deyilgandi:

"Men totorlarni daf etmoq uchun har gal yurtimdan chiqqanimda dushmanlarim fasod qozoniga olov qalamoqda, menga qarshi aql bovar qilmaydigan o'yinlar qilmoqdalar. Biz marhamat tilagan Oxlat voliysi hojib Aliga ham omonlik bergan edik. Biroq bilsak fitnaning boshida u turgan ekan. Shahardan qochdi va atrofiga qaroqchilarni to'plab, qismlarimizga bosqin qila boshladi. Tinchlikni buzdi. Uning xalifa Nosirdan hamda ayyubiy Malik Ashrafdan yordam olayotganidan xabardorman. Malik Ashrafning qulog'ini burab qo'ysangiz, sizdan ko'p minnatdor bo'lur edim. Ne bo'lsa bo'lsin, ammo ro'paramizda kuchli bir dushman bor ekan, arzimagan sabab tufayli bir-birimiz bilan yovlashishimiz islom izzati va sha'niga zid tushadi. Muxoliflarim islomning quvvatlanishi uchun emas, maqom, mavqe uchun fisq-fujur qilmoqdalar. Men mo'g'ullar bilan urushayotgan bir damda siz ham salibchilarga qarshi zafarlar qozonmoqdasiz. Yaqin kunlarda dunyo fitna otashidayonishdan xalos bo'ladi, inshoolloh. Butun kuch-g'ayratimiz dini islom uchundir, boshqa hech bir tilagimiz yo'qdir".

Undan keyin Jaloliddin oldin yuborgan elchilari bosqinga uchragani sababli maktubi kechikkanini bildirgan edi. Bosqin qilganlarning nomini ham aytgandi. Ular Oxlat voliysi hojib Ali bilan unga ko'maklashayotgan Malik Ashraf edi. Jaloliddin ularni jazolash uchun yurish boshlashini aytgandi.

Sulton maktubni oxirigacha tingladi. Yuzi qizardi. Elchiga ko'rsatgan sovuq muomalasi uchun xijolat bo'ldi.

— Jaloliddin yaxshi gaplar aytibdi, ammo chegaradagi bosqinlar to'g'risida hech narsa demabdi, bilmasligi mumkinmi?

Elchi javob berdi:

— Qilmagan ishni qayerdan bilar?

— Ko'p yaxshi. O'ziga aytgin, bu xususda bizga ma'lumot bersin.

— Maktubingizni olgan zahoti Xorazmga qaytaman, sultonim.

— Maktubning hojati yo'q, sen og'zaki aytaver.

Elchi ta'zim qildi:

— Amringiz vojib. Biroq og'zaki so'z maktub o'rnini bosolmasligini sultonim yaxshi biladilar.

— Ne demoq istaysan?

— Sultonim juda yaxshi biladilarki, maktubga maktub bilan javob beriladi.

— Nega endi? Sen ikki og'iz so'zni esdan chiqaradigan darajada aqlsiz emassan-ku.

Elchi bilinar-bilinmas kulimsiradi.

— To'g'ri topdingiz, sultonim, men ikki og'iz so'zni esda tutolmaydigan bir parishonxotir odamman. Shu bois maktub yozganingiz maqbul ekanini yana bir bor eslatay.

Sultonning birdaniga jahli chiqdi. Barmog'ini elchining ko'ksiga nuqidi.

— Menga eslatish o'rniga o'zing eslab qolishga harakat qil, elchiboshi, — deya hayqirdi u. — Endi ketishing mumkin. Sultoningga so'yla, haddidan oshmasin. Ayyubiylarga ko'pam dushmanlik qilmasin. Ular bilan do'stlik shartnomamiz mavjud.

Elchi sultonga ta'zim bajo aylab, tashqariga chiqdi.

Manzillarda faqat ot almashtirish uchungina to'xtab, tez fursatda yurtiga yetib borib, sulton Jaloliddinga ahvolni bayon etdi.

— Sultonim, sulton Alouddinni tashvishli ko'rdim, hatto qo'lini ham o'ptirmadi, askarlarimiz saljuqiylarning qishloqlarini g'orat etganini so'yladi, bu aslo bo'lmagan gap ekanini tushuntirmoqchi bo'ldim, ammo eshitishni xohlamadi.

— Mayli, — dedi Jaloliddin, — omon bo'l, javobini o'ylaymiz.

Alouddin Qayqubodga yana bir maktub yozdi. Qanday qilib u haqda yomon fikrga borganiga hayron qolganini bildirdi. "Biz Ollohdan boshqa kimsadan qo'rqmaymizki, xufiyona ishlar qilaylik, biz qaroqchi emasmizki, qishloqlarni bosib, yag'molasak. Biz sulton o'g'li, sultonmiz. Yolg'onchilikdek pastkashlikka tushmaymiz, qilgan ishimizga javob beramiz, ammo hech kimsa qilmagan ishimizni qildi, deb bizni aybdor etolmaydi".

Maktubiga javob kutar ekan, bekor o'tirmadi, oldin o'ziga qarashli bo'lgan yerlarni buzg'unchilardan ozod etib, hududini kengaytiraverdi.

Oradan oylar o'tdi, ammo saljuq sultonidan hech qanday javob kelmadi. U Jaloliddindan qattiq ranjiganini ana shunday bildirdi, xolos...

* * *

Xorazm qo'shini sulton Jaloliddin qo'li ostida butun hashamati va azamati bilan yurishlar qildi. Zafar yo'llari ochildi. Qir chechaklari ochilgan cho'llar, bahaybat chinorli o'rmonlar yana "Olloh!, Olloh!" saslariga to'ldi.

Isfahonga kirishdi. Gurjilar tumtaraqay qochgan, bir nechta mo'g'ul qo'shiniga sichqonning ini ming tanga bo'lgan, qozonilgan g'alabalar yangi zafarlar eshigini ochgan edi.

Tuproqdan xushbo'y hidlar ufurardi. Yozdan darak bergan kapalaklar yo'l bo'ylarida g'ujg'on o'ynaydi. Qushlar chug'urlashib qo'shinni olqishlaydi.

Bir necha yil ilgari to'zib ketgan qo'shin endi qad rostlagan, birlik tuyg'usi bilan ruhlanib, zafar ustiga zafar quchmoqda. Qipchoqlar, turkmanlar, hindilar, xitoylar bir tug' ostida, bir g'oya atrofiga birlashgan edilar.

Sulton Jaloliddin ukasi G'iyosiddin Pirshohga elchi yuborib, uni o'z qo'li ostidagi yerlarga voliy etib tayinlaganini ma'lum qildi. G'iyosiddin bu xabardan unchalik mamnun bo'lmadi. U necha yillardir o'zi idora qilayotgan yerlarga tanho hokim bo'lishga o'rgangan edi. Voliylikka qanoat qilmasdi.

— Jaloliddin nega mening ishimga aralashadi? — deb to'ng'illadi u. — Olgan yerlari unga yetmaydimi? Endi bir parcha yerga ko'z tikdimi? Kuchi bo'lsa butun mamlakatni mo'g'ullardan tozalasin. Nega menga yopishib qoldi?

Jaloliddinning niyati ravshan, butun mamlakatni bir qo'l ostida birlashtirmoq niyatida. Mamlakat alohida-alohida sultonliklar qo'lida ekan, kerak bo'lgan kuch-qudratga erishib bo'lmasligiga ishonch hosil qilgandi u. Biroq G'iyosiddin buni tushunishni istamadi. Ammo uning Jaloliddinga qarshi chiqqulik holi ham yo'q.

Yurakdan chiqarib emas, lozim bo'lgan bir shaklda maktub yozib, taklifni mamnuniyat bilan qabul qilganini, akasiga tobe ekanini, qo'l ostidagi yerlarni xohlagancha tasarruf etishi mumkinligini bildirdi.

Jaloliddin maktubni ot ustida o'qidi. Ko'zlari quvonchdan porladi. Temur Malikka:

— Bunday ukaga jonim qurbon bo'lsin, — dedi. — O'gay bo'lsa-da, tug'ishgan ukadan yaxshi.

— Inshooiloh shunday bo'lsin, sultonim.

— Ya'ni nima demoq istaysan? Qiyos samimiy emasmi, seningcha?

— Buni vaqt ko'rsatadi.

— Taraddudlisan, Temur Malik.

— Mayli, boraylik-chi. O'z ko'zimiz bilan ko'rgandan keyin, inshoolloh, taraddudimiz qolmas.

— Badgumonsan.

Temur Malik otini Jaloliddinga yaqinlashtirdi.

— Aybga buyurmaysiz, sultonim. Sizga bir gap aytmoqchi edim.

— Qani, so'yla-chi.

— O'z iqboli o'rtaga qo'yilganda hech kimsa betaraf qololmaydi. Eng dono sultonlar ham bu borada zaif tushgan.

Jaloliddin o'ychan bir tarzda:

— Tushundim, — dedi astagina.

Birozdan so'ng fikrini aytdi:

— G'iyosiddinni qo'shini bilan birga yonimga chaqiraman. Zafar kunlarimizda ukamiz yonimizda bo'lsin.

Bu amr shahzoda G'iyosiddinga tezda yetkazildi. Shahzoda ich-ichidan qaynab toshdi, ammo buni Jaloliddinning elchisiga bildirmadi.

— Sulton akamizning amri bosh ustiga, darhol yo'lga chiqaman.

Elchiga tez javob bergach, darhol vaziri To'yxonni chaqirdi.

— Sen ne deysan, To'yxon, Jaloliddin meni chaqiribdi.

— Nega endi sizni chaqiradi?

— Bilmayman. Zafar kunlarida yonida bo'lib, kuchiga kuch qo'shishimiz kerakmish, aslida mendan xavotirda bo'lsa kerak.

— Xo'sh, borish fikridamisiz?

G'iyosiddin qo'llarini yozdi.

— Boshqa choram yo'q, u kuchli.

To'yxon musht tugdi.

— Biz ham kuchayishimiz mumkin.

— Ne demoq istaysan?

— Siz ham Alouddin Muhammadning o'g'lisiz. Jalol singari Xorazm mamlakatiga ega bo'lishga haqqingiz bor. U Hindistonda tentirab yurganida, siz bu yerlarni muhofaza qilish uchun urushdingiz.

G'iyosiddinning yuzi bujmaydi.

— Nima deyapsan o'zi? O'zing ham ko'p yaxshi bilasanki, Jaloliddin hind elida ham davlat barpo eta bildi.

— Qanday davlat, qanday davlat?!

Ovozini yumshatdi.

— Omon-omon, sultonim, vatan tuprog'idan qochib yot ellarda davlat barpo etish bir narsaga arzirmidi?

G'iyosiddin soqolini silab ancha o'yladi.

— Hay mayli, hozir taklifni qabul qilmasak bo'lmaydi. Agar vaqti kelib yetarlicha kuchaysak...

Jim qoldi. Ko'zlari ayyorona chaqnadi.

— Tushundim, — dedi To'yxon. Uning ko'zlarida ham fitna uchquni o'ynadi. — Kuch o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Bu yo'lda g'ayrat qilmog'imiz kerak. O'z tarafdorlarimizni topishimiz lozim.

— Kim ham bizga tarafdor bo'lardi? Saljuq sultonidan yaxshilik chiqmaydi, Jahonshoh boshi baloga qolishidan qo'rqadi, Jaloliddin bilan to'qnashishga yuragi dov bermaydi.

To'yxon makkorona iljaydi.

— Sultonim, — dedi u. — Hojib Alini unutdingiz.

— Oxlat voliysimi?

— Ha, u hech ikkilanmay bizni quvvatlaydi.

— U Jaloliddinga tobe bo'lgandi-ku.

— Jonini qutqarish uchun ana shunday bir hiylani ishlatishga majbur bo'ldi. Hozir atrofiga ancha-muncha askar to'plaganmish, Jaloliddinga hujum etishga hozirlik ko'rmoqdamish. Qolaversa, xalifa Nosir ham bor.

— U bilan qanday aloqa bog'laymiz?

— Bu ishni menga qo'yib bering. O'zingiz ko'rasiz, barcha ishni qoyillataman. Yo'lingizda boshim fido.

Shahzoda G'iyosiddin To'yxonning yelkasiga qoqdi.

— Senga ishonaman. Darhol ishga kirish. Natijasidan meni xabardor et. Bu orada men Jaloliddinning da'vatiga javoban yoniga ketaman. Aks holda shubhalanishi mumkin. O'ng-u so'lga xabar yuboradigan bo'lsang g'ayratli bo'l.

— Tashvish tortmang, lozim bo'lgan ishni tezda bitiraman.

Ayyorona nigohlar to'qnashdi. Fasod qozoni ostiga yana o't qalandi. Endi o'tni sultonning o'z ukasi qalashtira boshlagan edi...

* * *

Temur Malik o'z xonasida yolg'iz. Qo'lida qalin kitob. O'qishga berilib ketgan.

Soqchi eshikka bosh suqdi.

— Bir qul siz bilan ko'rishmoq istaydi, Temur Malik.

Temur Malik sekin eshik tomon yuzlandi.

— Ne istaydi deding?

— Bir qul siz bilan ko'rishmoq istaydi.

Kitobni xontaxta ustiga qo'ydi. Kelguvchi qul bo'lsa ham, uning ko'rishmoq to'g'risidagi iltimosini rad eta olmasdi.

— Ichkariga kirsin, bir dardi bo'lsa kerak.

Soqchi qulni ichkariga olib kirgach, tashqariga chiqdi. Ozg'in, ko'rimsiz bir odam. Ustida yirtiq-yamoq to'n. Oldin cho'chib-cho'chib qaradi. Ikkilanib bir nechta qadam yurdi.

— Yaqin kel, — dedi Temur Malik. — So'yla, darding ne? Kimning qulisan?

Qul xuddi shu so'zlarni kutib turgandek, ho'ngir-ho'ngir yig'lagancha Temur Malikning oyog'iga bosh urdi.

— Sultonim, maligim, ulug' janob, yordam qiling!

— O'rningdan tur-da, so'yla! Agar meni najot deb bilib kelgan bo'lsang, shu lahzada qilgan ishing menga ma'qul tushmaganini bilib qo'yishing kerak.

Qul boshini ko'tardi. Ko'rinishi juda aftoda edi.

— Hindistonlikman, — deya so'z boshladi u. — Ojiz, faqir, g'arib bir qulman. Ismim Abdul. Hozirga qadar G'iyosiddin Pirshohga xizmat qildim. Aytganini kiprik qoqmay bajarib keldim. Har kuni savalashardi, ammo miq etmasdim. Ko'z yoshlarim ichimga oqdi. Bugun yana savaladi, ko'ring.

Yelkasini ochib, qamchi izlarini ko'rsatdi. Temur Malik yuzini burishtirdi.

— Ollohdan qo'rqmaydimi u odam?

— Urgani mayliga, xo'jayinim, xohlasa uradi, xohlasa siylaydi. Ammo meni haydab yuborgani alam qiladi. Och, nochor qoldim. Yaxshi xizmat qilganman, ishda biron qusurim bo'lmagan.

— Xo'sh, xizmating yaxshi bo'lsa, u nega seni haydadi? Inson yaxshi qulni hech vaqt quvadimi?

— To'g'ri aytasiz, valine'matim, to'g'ri. Ammo shahzoda G'iyosiddin shu kunlar nihoyatda darg'azab. Oldin bunday emasdi. Akasi uning yurtini qo'lga olganidan beri kayfiyati buzuq. Necha-necha odamlar bilan suhbatlashadi, so'ng jahli chiqib, meni savalaydi.

Temur Malik qo'lini bo'yniga tiradi.

— Ko'p odamlar bilan uchrashyaptimi? Ular kim? Biznikilar emasmi?

— Yo'q, begona. Bu yerda ularni hech ko'rmadim. Chetdan kelishmoqda. Aksariyati horib-charchagan holda. Hansiray-hansiray yarim kechaga qadar gaplashib o'tirishgani qulog'imga chalinadi.

— Xo'jayining nelar gaplashayotganini eshik tirqishidan tinglashga uyalmaysanmi? Bu qanday xizmat bo'ldi?! Seni kaltaklab to'g'ri qilishgan.

— Siz o'ylaganday emas, janoblari. Eshik tirqishidan ularning gap-so'zini tinglash xayolimga ham kelmaydi. Amr-u farmonga tayyor turishim uchun xo'jayinim menga doim qo'shni xonada o'tirishni tayinlaganlar. O'tirgan yerimga ularning gap-so'zlari bemalol eshitilib turadi.

— Nelar haqida gaplashishadi?

— Yaxshi gaplar emas.

— So'yla.

— Ko'pincha Sulton janobimiz haqida gaplashishadi.

— Ne deydilar?

— Bir kishi bor. Uzun bo'yli, gavdali. Bu yerda undan bo'ychan odam ko'rmadim. U doimo sultonimizni ag'darish to'g'risida so'zlaydi. Emishki, sultonimiz saltanatni tortib olganmish.

Temur Malik hissiyotini bildirmaslikka urinib so'radi:

— Tortib olganmishmi?

— Shunday deydi. Saltanat G'iyosiddinniki emish, ammo sulton Jaloliddin tortib olganmish. Endi G'iyosiddin haq-huquqini qaytarib olishi kerakmish.

— Xo'jayining ne deb javob berdi?

— U novcha kishi singari baland ovozda gapirmaydi. So'yla-ganlari yaxshi eshitilmaydi.

Temur Malik qad rostladi. Qulga tikilib qaradi.

— Demak, shunday de.

— Mening niyatim bularni aytish emas, maligim. Meni haydadi. Boradigan joyim yo'q. Qurol ishlatishga ustaman. Askarlaringiz safiga olsangiz menga katta yaxshilik qilgan bo'lardingiz.

— Qurol ishlatishga ustamisan?

— Ha, shunday. Ayniqsa, qilichbozlik va nayzabozlikka ustaman.

— Askar bo'lish uchun qilich, nayza ishlata bilish kifoya deb o'ylaysanmi? Jasorat va aql ham kerak.

— Bular ham menda borligini birinchi jangdayoq isbot qilaman. Sultonim uchun o'lmoqdan boshqa orzum yo'q. Marhamat qiling, meni xizmatga oling.

Temur Malik ancha o'yladi. Agar bu odamni xizmatga olmasa, u balki ketib raqiblariga qo'shiladi. Ko'p narsa biladi. Och qolish qo'rqinchli. Och qolgan kishining qo'lidan turli yomonlik keladi. Bir qarorga keldi.

— Ko'p yaxshi, seni xizmatga olaman. Borib sarkarda Sariq Lag'o'tga ayt, senga libos va qurol bersin.

— Sog' bo'ling, xo'jayin, omon bo'ling, valine'matim, maligim, ruxsat bering, oyoqlaringizni o'pay.

Temur Malik uni to'xtatdi.

— To'xta, tur o'rningdan, ha, xuddi shunday. Askar hech qachon qad bukmaydi. Askar faqat sultonga egiladi, xolos. Ana shunday. Endi borib aytganlarimni bajar. Olloh qilichingni o'tkir qilsin.

Eshikka yo'nalgan Abdul orqaga qaytdi. Ko'zlari yoshli, biroq yuzida tabassum.

— Xo'jayin...

— Tag'in nima gap?

— Men... haligi... Musulmon bo'lishni xohlayman.

— Chindanmi?

Abdul titroq ovozda zo'rg'a gapirdi.

— Hozirga qadar... musulmon qanday bo'lishini xo'jayinim G'iyosiddin qiyofasida ko'rgan edim. Yonidagilarga hamisha zulm o'tkazdi. Musulmonlik shunday bo'lsa kerak deb o'ylardim... Sizni ko'rgandan so'ng... Faqat siz emas, sulton qo'shinidagi askarlar bilan tanishganimdan keyin...

— Xo'sh?

— Shuni bildimki, G'iyosiddin Pirshohning xatolari, zulmi uning shaxsiga oid ekan. Aslida islomiyat zulm va ta'qibni man etgan ekan... Asirlarga... yaxshi muomala...

— To'g'ri.

— Yaxshi muomalada... bo'lish buyurilgan... Kattalarni hurmat, kichiklarni izzat etish, himoya qilish buyurilgan... Islomiyat hech kimga yomonlik qilmang der ekan.

— Albatta.

— Shuning uchun ham... shuning uchun musulmon bo'lishni xohlayman. Islom dinining buyuk ekanini bilaman... Qalbim hozirga qadar hech qachon his qilmagan ajoyib... tuyg'ular... tuyg'ularga to'la. Haqiqatan ham Buddaga sig'inmoq... o'zimiz yasagan bir qancha haykallardan madad tilamoq... Men... men musulmon bo'lmoqchiman.

Temur Malik ortiq chiday olmay uni quchoqladi.

— Qanday go'zal, — dedi u. — Bundan keyin dindosh do'st ham bo'ldik. Muborak bo'lsin. Olloh to'g'ri yo'ldan ayirmasin. Bu to'g'ri yo'lga kirdingmi, endi unda mahkam tur.

Abdul ich-ichdan ko'pirib-toshib kelgan hayajondan entikib dedi:

— Olloh!

Barobar shahodat keltirdilar:

— La iloho illolloh... Muhammadur rasulullo.

Temur Malik Abdulni eshikkacha kuzatdi.

— Yaxshi bor. Aytganimday qil. Sariq Lag'o't seni mufti huzuriga olib borsin. Diningning qoida-amallarini o'rgan, ibodatini qazosiz bajarishga harakat qil.

Abdul ko'zdan g'oyib bo'lguncha qarab turdi.

Bir soatlardan keyin yana bir kishi uning huzuriga keldi. Oldin Temur Malikka mensimay razm soldi. Ko'rganlaridan mamnun bo'lmagan qiyofaga kirdi, labini burdi.

Pakana, baqaloq odam edi u. Burni xitoyliklarniki singari yapaloq, ko'zlari qisiq. U xorazmlikka emas, ko'proq mo'g'ulga o'xshar edi.

— Siz Temur Maliksiz, shundaymi?

Temur Malik uni tanimasdi, o'zini tutishi, qiyofasi ham unga yoqmadi.

— Uyimda mendan boshqa birov bo'lishi kerakmidi?— dedi u.

— Men G'iyosiddin Pirshoh hazratlarining sarkardalaridan To'yxon bo'laman, siz bilan gaplashmoqchi edim.

— Ko'p yaxshi, marhamat, o'tiring.

— O'tirmay qo'yaqolay. Ishim shoshilinch. Shuni bilish uchun keldim: siz shahzoda haydab yuborgan osiy bir qulni yoningizga oldingizmi?

Temur Malik gap nimada ekanini tushundi. Abdulni yoniga olgani bunchalik tez tarqalmasa. Istehzoli tabassum bilan so'radi:

— Shunday bo'ldi. Nima, yomon ishmikan bu?

To'yxon dubulg'asini orqaga surib, o'ychan holda bosh qashladi. So'ng kichik barmog'ini barkashdek qulog'iga tiqdi.

— Xo'jayinim G'iyosiddin Pirshoh o'zlari haydab yuborgan odamni boshqa birov himoyasiga olishidan mamnun bo'lmaydi.

— Shuni aytgani keldingmi?

— Ha.

— Ko'p aziyat chekibsan, do'stim. Men xo'jayinning so'ziga emas, shariat hukmiga ko'ra ish qilaman. Miskinlarga yordam etmoq har bir musulmonning burchidir.

To'yxonning ko'zlari hayratdan olaydi. Salobatliroq ko'rinish niyatida qornini chiqardi. Qo'llarini qorni ustida qovushtirib dedi:

— Menga qara, Malik, har holda xo'jayinim haydab yuborgan bir qulni yoningda olib qolmassan.

Bir qadam yaqinlashdi.

— Bunday qilsang boshingga ne kelishini bilsang kerak?

Temur Malikning lablarida hamon istehzoli tabassum o'ynar edi.

— Masalan, ne kelishi mumkin?

To'yxon shipga qaradi. Bir narsa axtarayotgandek diqqat bilan tikilib qoldi.

— Men qayerdan bilay? Xo'jayinimning jahli chiqishi mumkin.

— Qiyomat qoyim bo'lmas har holda.

— Qoyim bo'lishi mumkin.

— E... qoyim bo'lsa, bosh ustiga! Ne bo'lardi, bir miskinga yordamchi bo'ldi deb bizni ostirishni xohlamas?

— Xohlashi mumkin.

Hayron qolgandek ko'zlarini katta ochdi.

— Xohlashi mumkinmi? Sultonning ukasiga qotil deyayotganingni bilasanmi o'zi?

— Bu qanday gap?!

— So'zingdan shunday ma'no chiqadi. Hech asossiz inson o'ldira olgandan keyin...

— Yetarlicha asos bor.

— Bir qulga yordam berganimmi?

— Ha.

Temur Malik barmog'ini To'yxonning yapaloq burniga cho'zib dedi:

— Shuni unutmaki, bu qulni xo'jayining ozod etdi. U bo'lsa, mening yonimga keldi, musulmon bo'ldi.

— Shunday bo'lsa ham hech narsa o'zgarmaydi.

Temur Malikning jahli chiqa boshladi. Ammo bildirmaslikka urindi.

— Xo'p, agar qaytsa, uni xo'jayining ishga oladimi?

— Yo'q.

— Och-yalang'och, darbadar bo'lishini istaydimi?

O'zini tutolmay hayqirdi:

— Bor-e! Quldan ham uyalmaydigan nodon! Haddingni bil va shunga yarasha so'zla. Aybimiz xo'jayining quvgan bir faqirning

boshini silaganimizmi? Haydaylig-u dushman safiga qo'shilsinmi? Menga tashakkur bildirish o'rniga ozor berishni istaysiz. Qulni haydadi, yonimga oldim. Endi u menga askar bo'ldi, musulmon bo'ldi. Dindosh birodarimizdir. Unga qarshi qilingan har qanday harakat menga qarshi qilingan hisoblanadi.

Boshini o'girdi.

— Bor gap shu.

To'yxonning yuzi yanada yalpaydi.

— Yo'q, bor gap shu emas.

Temur Malik sekin qaytdi. Ko'zlari qisilgan, lablari g'azabdan titray boshlagan edi.

— Chiq tashqariga!

To'yxon kinoyali iljayib turaverdi. Qo'li qilichining ustida. Temur Malik uning niyatini darhol tushundi. Zudlik bilan qilichiga qo'l yubordi.

— Ya'ni, illo ikki kishi seni tashqariga sudrab chiqarishini xohlayapsanmi?

— Temur Malik, meni va xo'jayinimni haqorat etding. Buni qon bilan yuvish kerak.

— Haqorat-paqorat qilganim esimda yo'q. O'lim bilan tahdid etayotgan sensan. Yana bu qilgan bir yaxshiligimga javoban.

To'yxon qilich sug'urdi.

— Bu yerdan birimizning o'ligimiz chiqishi lozim. Temur Malik, bu yerdan sening o'liging chiqadi, deb o'ylayman, chunki bu atrofda qilichbozlikda menga teng keladigani yo'q.

Temur Malik rosa kuldi.

— Nadomatlar bo'lg'aykim, yanglishganingni anglaganingda g'isht qolipdan ko'chgan bo'ladi, do'stim. Koshkiydi niyatingdan qaytsang, hali vaqt bor. Dindoshmiz, bu yerda bir-birimizni o'ldirib, dushmanni kuldirmaylik.

— Haa, vujudingni qo'rquv bosdimi, ko'p o'tmay tomirlaringda qatra qon qolmaydi. Bu taklifing qo'rqoqligingdan darakdir.

— Yanglishyapsan. Men hatto kufforga ham qilich yalang'ochlamay turib imonga kelishini taklif etaman, behuda qon to'kishni istamayman. Ma'lum bo'ldiki, sen ham kofir emassan.

To'yxon qahqaha otdi.

— Sen meni musulmon deb o'yladingmi?

— Shubhalangan edim, ammo aniq bilmay turgandim.

— Bo'lmasa bilib ol. Men sizlar la'natlagan mazhabga mansubman. Mazhabimning asoschisi Hasan Sabbohdir. Men uning muridiman. Hozir mazhabimizni Mahmud Yalavoch boshqarmoqda. U juda kuchli odam. Unga xizmat qilishni sharaf deb bilaman.

Qilichini o'ynatib, Temur Malik tomon yurdi.

— O'lishingni bilganim uchun bu gaplarni senga hadik olmay aytmoqdaman.

Temur Malik ham qilich yalang'ochladi.

— Sen oramizga suqilgan bir josussan!

— Yo'q, josus emasman. E'tiqodim boshqacha bo'lsa-da, G'iyosiddin Pirshohga xizmat etishni maqbul bilaman.

— Sening kimligingni bilmaydi, deb umid qilaman.

— Aksincha, juda yaxshi biladi.

— Bilib turib seni yonida saqlayaptimi?!

— Men unga juda kerakman.

Temur Malik hujumni qaytargach, qarshi hujumga o'tish fursatini poyladi.

— Qilich urishtirishing yomon emas ekan, ammo o'tiraverib bilaklaringdan kuch ketgan. Tez harakat qilolmayapsan.

To'yxon tishlarining orasidan vishilladi:

— Ma senga!

Ammo eplay olmadi. Temur Malik masxaralab kuldi.

— Bo'lmadi, bo'lmaydi ham. Kel, shu ishdan voz kech. Ne bo'lsa-da, o'lishingni xohlamayman. Bundan bir yomonlik chiqaradiganlar topilar, fasod chiqar.

— Nima? Shuncha gapdan keyin-a? Yo'q, qo'rquvning ajalga foydasi yo'q. O'ldiraman, o'ldiraman seni.

— Ahmoq! Voz kech degan gapni o'limdan qo'rqqanim uchun emas, seni o'ylab aytdim.

— Sinab ko'r bo'lmasa.

— Ol!

Qilichi bilan ketma-ket kuchli zarba berdi. Qilich shuvillab tushib, To'yxonning yuzini salgina tilib ketdi.

Ikkovi ham mohir qilichboz edi. Biri ikkinchisini siqib borar, ammo oxirgi natijani beradigan zarbani hech biri berolmasdi. Yarim soatcha olishdilar. Ikkovi ham charchadi. To'yxon harsillab qoldi. Xo'ppa semiz bo'lgani uchun u ko'proq charchagan edi. Diqqat bo'lib, borgan sari ko'proq so'kina boshladi, og'zidan so'laklari oqib tushaverdi.

— Kuning bitdi, To'yxon. Oxirgi marta aytyapman, voz kech bu ishdan.

— La'nat senga, o'lasan sen!

Temur Malik yon tomonga sakradi, ustiga tushgan qilichga qilichini ro'para qildi. Ikki po'lat urishib, jarangladi. Bilaklariga zo'r berishdi. Temur Malik bor kuchi bilan bosdi. Dushmanining qo'lini bukdi, qilich To'yxonning dubulg'asiga tegib, "ching" degan tovush eshitildi. Kuch bilan itardi. To'yxon gandirakladi, orqaga tislanarkan, kursiga qoqilib, yerga yumaladi. Qilichi qo'lidan uchib uch qadam nariga tushdi. Temur Malik o'ng oyog'i bilan uning ko'kragidan bosdi, qilichini hiqildog'iga tiradi.

— To'yxon, To'yxon! Sening o'rningda bo'lganimda kiprik qoqmay meni o'ldirgan bo'larding, shunday emasmi? Biroq men senga hayotingni bag'ishladim. Birov bu ishni ro'kach qilib fasod chiqarib yurmasin... Bor, ket, xo'jayiningga istaganingcha xizmat qil, ammo haydalgan bir qulni insonparvarlik, islom ijobi uchun yoniga oldi deya birovni o'ldirishga urinma. Endi daf bo'l!

To'yxon o'rnidan turdi. Inqillay-inqillay eshik tomon yurdi. Chiqmasdan oldin Temur Malikka nafrat bilan bir nazar tashladi. Butun alamini ovoziga berib baqirdi:

— Hali ko'rishamiz, Temur Malik, ish bu yerda oxiriga yetgani yo'q.

Eshikni qarsillatib yopdi.

To'yxon Temur Malikka yengilgani uchun qattiq alamzada bo'lgan, kallasida intiqom rejalari g'ujg'on o'ynar edi. Ayni zamonda qo'rquvga tushdi. Temur Malikka aytib qo'ygan so'zlari uchun qo'rqardi. Agar bu gaplar sulton Jaloliddinning qulog'iga yetsa xonavayron bo'lishi tayin. Hozir erishgan martabasini tushirda ham ko'rolmaydi. Sulton ne qilib bo'lsa-da, G'iyosiddinga ta'sir ko'rsatishi va uni haydatishga zo'rlashi turgan gap. Holbuki, u bu

yerda bo'lishi, bo'lgan gaplarni hashshoshiy fitnachilar boshlig'i Maqmud Yalavochga yetkazib turishi lozim.

O'ylay-o'ylay ketdi, G'iyosiddinni topdi. Hovliqib dedi:

— Sultonim, janobi oliylari, bir so'z aytmoqqa ijozat bering.

G'iyosiddin o'rindiq ustiga cho'zilgan, boshining tagiga yostiqlar qo'ygan edi. Istirohatni yaxshi ko'rishi bir ko'rgandayoq ma'lum bo'lardi. Tanballarcha erinib esnadi.

— Bilasanki, endi men sening sultoning emasman, To'yxon, — dedi u. — Akamga ana shunday xitob qilmog'ing kerak.

To'yxon riyokorona ta'zim qildi.

— Mening nazarimda siz boshqalardan ayricha va yuksak bir maqomga egasiz, sultonim. Men sizni hozirdanoq Xorazm sultoni deb bilganim uchun shunday xitob qilmoq istayman.

G'iyosiddin qah-qah urib kuldi, bu so'zlar unga yoqqan, g'ururlantirgan edi.

— Qani, so'yla, ne gap?

— Temur Malik bilan uchrashdim.

— Ha-ya, yaxshi qilibsan, Abdulni haydab yuborishga rozi bo'lgandir har holda.

— Rozi bo'lmadi, sultonim.

G'iyosiddin tezda qaddini ko'tardi.

— Rozi bo'lmadimi?

— Ha, shunday, afsus, rozi bo'lmadi.

— Qanday jur'at etdi?! Men sulton o'g'li emasmanmi? Men haydagan qulni Temur Malik qanday qilib qo'shiniga ola biladi? Bu asilzodaga yarashadigan ishmi?

— Albatta, yarashmaydi. O'ziga buni aytdim. Oh, bilmaysiz xo'jayin, Temur Malik asilzodalikni biladigan odam emas. Qul musulmon bo'lganini aytdi. Biz ish bermasak, dushman safiga o'tsa ne bo'ladi, bizga qarshi qilich ko'tarishiga sababchi bo'laylikmi, deb so'radi.

— Bularni so'rash uning ishimi?

— Bilmayman. Shuning oqibatida urushdik, hiyla ishlatdi.

— Olishuvda hiyla ishlatdimi?

— Ha, shundoq. Men u bilan qilich urishtirayotgan chog'da odamlaridan biri orqamga o'tib chaldi. Orqaga yiqildim, qilichim

qo'limdan uchdi. Ustimga chiqdi. Meni turli so'zlar bilan haqorat qildi. Siz haqingizda ham og'izga olib bo'lmaydigan so'zlar so'zladi. Qilich bilan tahdid etib, eshikdan chiqardilar.

Shahzoda G'iyosiddin havoga musht do'laytirdi.

— Voy, voy! Hali men haqda yomon gaplar aytdimi?! Ko'ppak! Jaloliddinning ko'ppagi! Ko'zi undan boshqani ko'rmaydi. Nadomatlarkim, Jaloliddin uni doim yonida olib yuradi. Ne emish, yaxshi qilichbozmish. Bunday ikki pulga arzimaydigan odamlarni osish kerak. To'ng'iz qo'psin bularni, dunyoni bunday irkitlardan tozalash kerak. Qo'shinni hayvonlardan tozalamagan Jaloliddin yurtni mo'g'ul qo'shinidan tozalash uchun urushib yotibdi. Nadomatlar bo'lg'ay!

Eshik tomon yurdi.

— Yur men bilan.

Yolg'onni rosa qalashtirgan To'yxonning G'iyosiddin bilan borishga yuragi betlamadi.

— Men... mening tobim yo'q, xo'jayin, — dedi u. — Dam olmasam bo'lmaydi. Boshim aylanyapti. Ko'zlarim negadir xira tortayotir. Ruxsat bering.

— Mayli, borib yot. Quyonyuraksan sen ham. Temur Malik bilan olishib, yuragingni oldirgan ko'rinasan.

— Sultonim!

G'iyosiddin tez qadam tashladi. Bir narsalar deb ming'illayotgan To'yxonga bir qadalib qaragan edi, uning og'zi yumildi. Ildam yurib Jaloliddinning uyiga ketdi.

Bu paytda Jaloliddin do'stlari bilan suhbatlashib o'tirgandi. Yonida Izzaddinbek, O'rxonbek, Karomiddinbek, Qoraxon, Mahmudbek, Malik Nusrat, Malik Amin, Sariq Lag'o't va Temur Malik bor edi. Suhbat avjida. Gap yaqinda bo'ladigan janglar ustida borar, rejalar muhokama etilayotgandi.

Xalifa Nosir ularning ustiga qo'shin yuborganidan xabar topgan edilar. Ikki islom qo'shinining urushishini chirkin bir ish deb bilgan Jaloliddin Nosirga bir necha bor elchi yuborib, undan yordam so'ralmasligini, faqat o'zini tinch qo'yishi kerakligini aytgan edi. Biroq Nosir qo'rquv ichida. Qisqa vaqt ichida jahon fotihi bo'lish yo'lini tutgan Jaloliddin yaqin kunlar ichida mamlakatiga bostirib

kiradi deb o'ylar edi. Shu bois Jaloliddinning biron so'zini quloqqa olmagandi.

— Biz o'z vazifamizni bajardik, — dedi sulton Jaloliddin. — Xalifamizni dinimiz dushmani bo'lgan mo'g'ullarga qarshi kurashda birlashishga chaqirdik. Bekorchi, bo'lmag'ur bahonalar bilan bizga yaqinlashmadi. Yaqinlashmoq u yoqda tursin, oyog'imizga kishan urmoqqa harakat qilmoqda. Choramiz yo'q. Mumkin qadar uzoq turamiz, hech iloji qolmasa, urushamiz.

— Juda achinarli, — dedi Temur Malik. — Musulmonning musulmon bilan urushishi naqadar ayanchli. Vaholanki, ro'paramizda qoyadek bir dushman turibdi...

Chuqur nafas oldi.

— Bizning zaiflashuvimiz Chingiz o'g'illarining kuchayishi degan gap. Mo'g'ullar Xorazm mamlakatini olganlaridan so'ng tinch turadi, deb o'ylashadi shekilli. Butun musulmonlarni yo'q qilish uchun harakatga o'tishlariga aminman. Ular faqat bizga ko'z tikkani yo'q. Jo'jixon ham, Chig'atoyxon ham hozir o'z safida turgan musulmonlarni zafar qozonib olgach, tiriklayin yerga ko'madi. Bunga o'xshash hodisalarga ko'p shohid bo'ldik.

So'z shu yerga yetganida G'iyosiddin Pirshoh ko'rishmoq uchun kelganini aytishdi. Jaloliddin oyoqqa turib, ukasini eshik yonida kutib oldi.

— Kelganing yaxshi bo'ldi, G'iyos, — dedi u. — Tobing yo'qligini, majlisga ishtirok etolmasligingni aytib yuborgan ekansan, achindik. Ollohdan senga shifo tilaymiz.

G'iyosiddin javob bermadi. Jahlini bosishga urinar, biroq pastki labi sezilarli darajada uchib turardi. O'tirganlarning barchasi G'iyosiddinning qattiq xafa ekanligini sezdi, biroq sababini Temur Malikdan boshqa hech kim bilmas edi. Temur Malik G'iyosiddinga razm solib turardi. Oraliqda ko'zlari to'qnash keldi. G'iyosiddin g'azab, nafrat bilan tikildi. Temur Malikning nigohida esa faqat muruvvat bor edi, xolos.

Jaloliddin hayron bo'ldi.

— Tinchlikmi? — dedi u. — Ne gap bo'ldi, bir darding bormi? Yuzing qo'rqinchli, g'ayritabiiy holdasan.

G'iyosiddin akasining nigohidan ko'zini opqochib javob berdi:

— Men kabi ojiz bir bandaning shikoyat etishga haqqi bormikan?

— So'zlaring achchiq, ukajon. Har bandaning shikoyatga haqqi bor. Shikoyatingni so'ylasang, balki chorasini toparmiz yo shikoyating mening ustimdanmi?

— Yo'g'-ey, sultonim. Sizdan yaxshilikdan boshqa narsa ko'rmadik-ku. Ojiz bandangizga shohona muomala qilayotgan bo'lsangiz. Nazarimda sizga qul bo'lmoq qullarga podshoh bo'lmoqdan a'loroq.

Sulton Jaloliddin ukasiga diqqat bilan razm soldi. Bilinar-bilinmas kulimsiradi.

— Demak, do'stlarim, sarkardalarim ustidan shikoyat qilmoqchisan...

— Ularni do'stlarim, sarkardalarim deganingizdan so'ng, men shikoyat qila olarmidim?

Jaloliddin qoshlarini chimirdi.

— Qanchalik yaqin bo'lmasin, kim aybdor bo'lsa, jazosini oladi. Bu mamlakatda men qonun o'rnini bosmayman, shariat mahkamasi bor, qozilar bor.

— Bilaman. Buni bilganim uchun ham shikoyat qilishga qaror berdim.

Barmog'i bilan Temur Malikni ko'rsatdi.

— Bu odam men haydab yuborgan bir qulni o'ziga askar qilib oldi.

— Qulni nima deb haydagan eding?

— Ket, yo'qol, endi sening keraging yo'q, ozod etdim, o'z g'amingni o'zing ye, dedim.

— Aynan shundaymi?

— Ha, aynan. U bo'lsa, borib Temur Malikka bosh urdi.

— Takror yoningga qaytsa, qabul qilasanmi?

— Yo'q, aslo!

Jaloliddin ukasi tomon bir qadam tashladi. Ko'zlarini ko'zlariga qadadi.

— Temur Malik uni o'ldirdimi?

— Yo'q!

— Azobladimi?

— Yo'q!

— Boshqa biron yomon ish qildimi?

— Yomonligidan xabarim yo'q. Ammo men haydagan odamni yoniga olib, meni haqorat qildi.

— Haqorat dedingmi? Modomiki, qulni ozod etgan ekansan, nega yana unga xo'jayinlik qilayotirsan?

— U mening qulim edi.

— Ozod etibsan-ku axir!

— Nima qipti? Ozod etgan bo'lsam-da, uni boshqa birov o'z yoniga olmasligi darkor.

Sulton Jaloliddin Temur Malikka ko'z qirini tashladi.

Temur Malik o'rnidan turdi. Jaloliddinning oldiga kelib turdi.

— Ruxsat bersangiz, arzimni aytay, sultonim.

— So'yla. Aslida nima gap bo'lganini bilmoq istaymiz.

— Shahzoda G'iyosiddin mening ustimdan shikoyat qilishga balki haqlidir. Uni xafa qilgan bo'lishlari mumkin. Unga bu xabarni yetkazgan odamni ham huzuringizda ko'rsak yaxshi bo'lardi.

G'iyosiddinga yuzlandi.

— To'yxonni oramizda ko'rsak mamnun bo'lardik.

G'iyosiddinning rangi bo'zardi.

— Kasal, — dedi u.

Temur Malik mo'ylov ostidan kulimsiradi.

— Hayrat. Uni xasta bo'ladigan darajaga tushirmagan edim-ku.

Jaloliddin Temur Malikning qo'lidan ushlab, siqdi.

— Ochiqroq gapir, Temur Malik.

— Sultonim, tush payti bir hindi qul yonimga keldi, shahzodaning quli ekan, haydalibdi, och-yalang'och qolish ehtimoli bor edi. Musulmon bo'ldi, uni askarlikka oldim. Hozir askarlarim bilan birga.

G'iyosiddin shiddat bilan so'zga aralashdi.

— U mening qulim edi.

— Ammo, — dedi Temur Malik, — siz uni ozod etgan ekansiz. Endi u mening askarim.

— Bo'lmaydi!

Jaloliddin ukasiga hayron qoldi.

— Bo'lmaydi? Nega?

G'iyosiddin qo'llarini yozdi.

— Sultonim, men haligina do'stlarni jazolash qiyinligi haqida gapirganimda o'zingiz qarshi chiqdingiz. Do'stingiz Temur Malikni jazolashni istamasligingizni bilganim uchun shunday degan edim, sizni mushkul ahvolda qoldirishni xohlamayman, shuning uchun shikoyatimni qaytib olaman.

— Yo'q, do'stimni jazolamasligimni so'zlashing illo yanglishdir. Bu ishga men fatvo bermay. Masalani qozi janoblariga oshiraman, xolos. Ammo bilki, ish sening foydangga hal bo'lmaydi, modomiki, qulni haydabsan, modomiki unga: "Bor ket, seni ozod etdim" debsan, qaytsa yoningga olmaysan, shunday ekan, nega xafa bo'lasan?

G'iyosiddin tipirchiladi. Akasiga tik qarab dedi:

— Nimalar deyapsiz? Demak, meni, ukangizni bu qadar kichik bir da'voda nohaq chiqaryapsiz, shundaymi?!

— Nega hayron bo'lasan? Akang sifatida men shariatga zid ish qilishimni xohlaysanmi? Bu masalada Temur Malik haqli. Istasang, qoziga murojaat qilishing mumkin.

— Men bir qul singari eshikma-eshik yurib shikoyat qilib o'zimni pastga urmayman.

— Nima? Seningcha, sultonning ukalari qozixonaga bormaydimi?

— Bormaydi.

Jaloliddin g'azabdan qizardi.

— G'iyos, G'iyos! Ukam bo'lmaganingda edi, Xudo haqqi, seni kaltaklagan bo'lardim. Nimalar deyapsan o'zi? Senga qozixona faqat faqir-fuqaro boradigan joy, shundaymi? Sen har qanday javobgarlikdan xoli hukm surgan bo'larmiding? Bundaylarga kim deyishlarini bilasanmi? Zolim deyishadi!

G'iyosiddin titradi. Jahldan ovozi bo'g'ildi.

— Sultonim!

— Jim bo'l! Boshqa gapirmay qo'yaqol. Istasang borib qoziga murojaat qil dedim. Qozixona oddiy qullar uchun dersan. U holda Mahkamayi Kubro ham oddiy kishilar uchunmi? Bilmaysanmi, Olloh oldida nasl-nasabning hech qiymati yo'q. Har kim qilgan amaliga ko'ra mukofotini oladi. Ket bu yerdan! Ket, birodar, men

hazrati Ayyub singari sabrli emasman, keyin sen mendan, men esam dunyoda yashayotgan barcha maxluqotdan xafa bo'lib yurmaylik.

G'iyosiddin gangib qolgan edi. Anchagacha qimir etmay turdi. So'ng astagina Temur Malikka o'girildi. Avvalgidan ham kuchliroq kin va nafrat bilan qaradi. So'ng takror Jaloliddinga yuzlandi. Yuz-ko'zida yana o'shanday kin-u nafrat.

Orqaga yurdi. Oyoqlarini gurs-gurs urib tashqariga chiqdi.

Jaloliddin chuqur nafas olib, ko'rpachaga o'tirdi.

— Uf! Ne balo bular o'zi, Ollohim! Hatto ukamiz g'ururim oyoqosti bo'ldi deb meni xato yo'llarga boshlamoqchi bo'lsa. Yo Rabbiy, bunday xatti-harakatlar meni zolimga aylantirmasaydi, deb qo'rqaman. Sen to'g'ri yo'lni yaxshi bilasan, Ollohim, meni undan ayirma.

Do'stlariga yuzlandi.

— Bu masala shu yerda yopilar, inshoolloh. Birodarimiz faqat bir qul ustida shunchalikka bormasa kerak, deb o'ylayman. Biron gap sezganlar bo'lsa, menga aytsin. Hozirgi vaqtda ittifoqqa har vaqtdagidan ko'proq ehtiyojimiz bor. Agar bir fitna olovi bo'lsa, bilib qo'ying, tezda o'chiraylik. Bo'lmasa hammamizning boshimizga balo bo'ladi, kuyib kul bo'lamiz.

Temur Malik so'z so'radi. Jaloliddin ruxsat bergach, so'zladi, so'zladi. To'yxondan eshitganlarini bir-bir aytib berdi.

Xonada muzdek sovuq shamol esa boshlagan edi.

* * *

O'sha kechasi To'yxon shahar tashqarisiga chiqdi. Qorong'ida uzoq ot surdi, nihoyat bir o'rmonga yetib bordi. O'rmon oralab yurdi. Daraxtlar orasida yashiringan, derazalaridan xira yorug' nur sizgan bir uyga yaqinlashdi. To'xtab, diqqat bilan atrofga tikildi. Orqasidan hech kim kuzatmayotganiga ishonch hosil etgach, eshikka yaqinlashdi. Ma'lum bir vaqt oralatib eshikni to'rt marta taqillatdi. Zich yopilgan pardalar qimirlab, deraza ortida kimningdir qorasi ko'rindi. Allakim past tovushda:

— Kim u? — deb so'radi.

— To'yxon.

Deraza yopildi. So'ng og'ir eman daraxtidan yasalgan eshik g'ijirlab ochildi. To'yxon ichkariga kirdi.

Kattakon xona. Baland suyanchiqli kursida bir odam eshikka teskari holda o'tirardi. To'yxon oyoq uchida unga yaqinlashdi.

— Keldim, xo'jayin.

Shipga osilgan qandil nuri odamning uchli kulohini yoritar, uning yuzida soyalar o'ynashar edi. U qimir etmadi. Qo'lidagi qalin kitobni o'qishda davom qildi. To'yxon ovozini ko'taribroq yana:

— Keldim, xo'jayin, — dedi.

Eshikni ochgan kishi To'yxon yonida paydo bo'lib, qo'lidan tortdi.

— G'ofil, — dedi u. — Ko'rmayapsanmi, mutolaa qilmoqdalar. Tariqatimiz asoschisi Hasan Sabbohning ruhlari bilan muloqotga kirishganlar. U hamma narsani ko'rib, bilib turadi. Undan ko'rsatma olamiz.

Bu botil mazhab sirlarini haligacha tamoman bilib yetmagan To'yxon savodsizligidan uyaldi. Bir burchakka o'tib yelka qisib o'tirdi. Kutishdan boshqa iloji yo'q.

Bir soatcha shu holda o'tirdi. Nihoyat kursidagi kishi kitobni yopib, shipga qaraganini ko'rdi.

— Ey buyuk yo'lboshchimiz, ey Hasan Sabboh! Amring bajo keltiriladi. Muqaddas yo'lingni qabul qilgan qullaring butun dunyoni saodatga yetkazadilar.

To'yxon nafasini ichiga yutib tingladi. Bu kishi Hasan Sabbohning ruhi bilan so'zlashayotganiga chindan ishongan edi. Yuragi titrab, qo'rquvga tushdi.

Nihoyat kursidagi odam unga qaradi. Go'yo hayratlanib qo'lini uzatdi.

— Sen shu yerdamiding, To'yxon?

To'yxon uning qo'lini o'pdi.

— Bir soat ilgari kelgandim, xo'jayin. Sizga yetkazmoq istagan ba'zi xabarlarim bor.

— G'aflatga botgansiz, To'yxon, g'aflatga! Shu Jaloliddinni haligacha yo'q qilib, pirimiz Hasan Sabbohning ruhini shod etolmadingiz. U yana qancha yashaydi?

To'yxon qo'llarini yozdi.

— Nima desam ekan, xo'jayin, bilmayman. Jaloliddin jinlarday aqlli. Ichimizdagini topib, chora ko'rayotganga o'xshaydi. Hiylalarimiz barbod bo'layotir. Bir qul o'yini qilgan edim, u ham natija bermadi.

— Qanday o'yin?

To'yxon bir-bir tushuntirdi, oxirida:

— Xullas, shunday, xo'jayin, — dedi. — Jaloliddin ukasi G'iyosiddinni otdan tushirdi. G'iyosiddin ortiga qaramay chekinishga majbur bo'ldi. Uni akasiga qarshi obdan qayradim. Yaqinda isyon ko'tarishi muqarrar. Ko'rib turibsizki, sizga bir quldek xizmat qilmoqdaman. Menga va'da bergan narsangizga erishmoqdan boshqa fikrim yo'q.

Kishi oyoqqa turdi. Uzun bo'yli, yelkalari keng. Ellik yoshlarda. Biroq yigitlardek g'ayratli ko'rinardi. Tikka turib qoldi. Yuzi qo'rqinchli bir tusga kirdi.

— Senga bergan va'dani hecham unutganim yo'q. Biroq sen ham Jalolni yo'qotish to'g'risida va'da berganingni unutma.

— Buni hech unutarmidim? Qulay fursat poylayotirman. Shu bois ham qanchadan qancha haqoratlarga chidab, oralarida qoldim. Ruxsatingiz bo'lganida ularning yonida bir daqiqa ham qolmasdim.

Kishi barmog'ini cho'zdi.

— O'sha yerda bo'l, — dedi u. — G'iyosiddinni Jaloliddindan ayrilishga to'xtamay da'vat qil. Xorazm uning ham mulki ekanini qulog'iga quy, qayta-qayta ayt bu gapni.

— Shunday qilmoqdaman, xo'jayin.

— Yaxshi. O'tgan oyda hojib Ali bilan Alamutda uchrashdim. Qavatiga askar berdim. Yana Oxlatni qamal qilishni buyurdim. Zafar kuni yaqin.

To'yxon bir narsa ushlamoqchidek ochiq qo'llarini olg'a cho'zdi.

— Oh, xo'jayin, demak, men ham...

— Ha, sen ham istaganingga erishasan. Bu sening haqqing. Bizga yaxshi xizmat qilding. Buxoro, Toshkent va Samarqand tomonlar senga beriladi. Undan keyin xizmatkor emas, sulton bo'lasan.

Xayol og'ushida To'yxon ko'zlarini yumdi.

— Oooh! Buni o'ylashning o'zi naqadar rohat!

— Shundoq. Go'zal narsalar haqida o'ylash har doim go'zaldir. Bo'lg'usi davlating Kobul va G'aznaga qadar kengayishini xohlasang Jaloliddinni o'ldir.

To'yxon mag'rurona javob berdi:

— Urinib ko'raman!

— Vaqt ketmasin.

— Ha, yaqin kunlar ichida.

Kishi belbog'i orasiga qo'l yubordi. Liq to'la hamyon chiqarib, To'yxonning oldiga otdi.

— Ol!

Teskari o'girildi.

To'yxon gap bitganini angladi. Bir necha bor ta'zim qildi. Eshik tomon kelgan vaqtidagidan ham ildamroq qadam otdi. Qandil yorug'ida ko'zlari ehtirosdan porlar edi...

* * *

To'yxon o'rmondagi uyga ketayotganida o'zini hech kim ko'rmadi, deb o'ylagandi. Ammo u yanglishgan edi. Qalin daraxtlar orasiga yashiringan otliqni ko'rmadi. Otliq deraza ostida turib ichkaridagi suhbatga quloq solgan, uzuq-yuluq jumlalardan bir xulosa chiqarib olgan, so'ng ot qamchilab shaharga qaytib kelgan edi.

To'yxon bundan bexabar, kechasi miriqib uxladi. Erta tongdan Jaloliddinni qanday qilib o'ldirish to'g'risida bosh qotira boshladi.

Bu haqiqatan nihoyatda mushkul ish. Buning ustiga shoshilish kerak. Jaloliddinni ko'cha-ko'yda qilich urib o'ldirsa bo'ladi, chunki u doim soqchisiz aylanib yuradi. Ammo bu o'zining ham o'limi demak. Sultonni o'ldirgan osiyni xalq har holda o'ldiradi. Boshqa yo'l topishi kerak.

O'ylay-o'ylay nihoyat kallasiga bir fikr keldi. Xursandlikdan tirjayib, qad rostladi. So'ng qahqaha otib to'shak ustida sakradi. Sandiqdagi eski kiyimlari orasiga yashirib qo'ygan sharobni chiqardi. Ichib mast bo'lgisi keldi. Muvaffaqiyatni hozirdanoq nishonlamoqchi bo'ldi. Yaqinda unga saltanat eshigi ochiladi. Hasan Sabboh yo'liga kirganlar orasida hushyorlarga joy yo'q. To'yxon sharobxo'r sulton bo'ladi. Ammo hozir o'zini tutishi, sharobga

berilib ketmasligi darkor. Qilmoqchi bo'lgan ishida aslo xatoga yo'l qo'yish mumkin emas.

Kiyinib tashqariga chiqdi.

Zahar topish ancha qiyin bo'ldi, ammo nihoyat qo'lga kiritdi. Endi u zaharni sulton Jaloliddin tushlikdan so'ng odati bo'yicha ichadigan qizil sharbatga qo'shib qo'yishi kerak.

To'yxon mash'um rejasini pishitdi. Ehtimol tutiladigan turli hodisalar ustida rosa bosh qotirdi. Nihoyat Jaloliddinning bir nasroniy habash xizmatkorini qo'lga olish qaroriga keldi. Habashni bozorda sharbat sotib olayotgan vaqtida uchratdi. Yoniga yaqin bordi.

— Sen nasroniysan, shundaymi?

Qul bosh irg'adi.

— Ha.

— Nega musulmonlarga xizmat qilasan?

Qul yelka qisib javob berdi:

— Men bir qulman, qo'limdan ne kelardi?

Qulni bir chetga tortdi.

— Ko'p ish keladi qo'lingdan. Hozirga qadar seni qul qilib xo'rlaganlardan qasos olishing mumkin.

Habashning ko'zi qo'rquvdan olaydi.

— Bu gaplar bilan meni sinamoqchisiz. Men xo'jayinimga xiyonat qilmayman.

— To'g'ri aytding. Men mansub bo'lgan hashshoshiy yo'lini musulmonlar la'natlaydilar. Ulardan o'ch olish niyatida oralarida yuribman, hatto go'yo xizmat ham qilayotirman. Asl vazifam ularga pand berish, oralarini buzish. Sen bo'lsang hech narsa etmay xizmat qilyapsan.

Qul baqrayib qoldi. Ishonishni ham, ishonmaslikni ham bilmay turardi. Ikkilana-ikkilana, oxiri dedi:

— Mening bunaqa ishlarga hushim yo'q. Bir g'aribman. Qornimni to'yg'izishadi, yotadigan joyim bor. Shunga loyiq xizmat qilaman.

— Ahmoq! Faqat qorin to'ydirish uchun ishlaydimi kishi hech qachon? Istasang, sen ham Jaloliddin kabi boy bo'lishing mumkin.

— Qanday qilib?

To'yxon qulning ko'zida o'ynagan hoy-u hirs uchqunini payqadi. Bu qul ham ko'pchilik insonlar kabi pul oldida ojiz. To'yxon uning shu zaif tomonidan foydalanib, maqsadiga erishish umidida edi. Belbog'i orasidan uch kun ilgari kechki ziyorati vaqtida olgan hamyonni chiqarib, qulning qo'liga tutqazdi.

— Ichi to'la oltin.

Qul oldiniga hamyonga qo'rquv bilan tikilib qoldi, olgisi keldi. So'ng dosh berolmay, hamyonni qo'yniga urdi.

— Evaziga ne qilmog'im kerak?

— Arzimagan bir ish.

— Qanday?

To'yxon yana belbog'i qatiga qo'l tiqdi. Bu gal u kichik bir shishacha chiqardi.

— Mana shu shishachadagi suvni Jaloliddin tush vaqtida ichadigan sharbatga qo'shasan.

Qulning ko'zi kosasidan chiqqudek bo'ldi.

— Zahar!

— Yo'q, azizim. Bu bor-yo'g'i bir uyqu dorisi. Uni ichgach, Jaloliddin uxlaydi, xolos.

Qul bosh chayqadi.

— Bu ishni qilolmayman, meni o'ldirishadi.

— Qo'rqma, hech kim bilmaydi.

— Qilolmayman!

To'yxon birdan g'azablandi.

— Unday bo'lsa Jaloliddinni zaharlamoqchi bo'lganingni aytaman. Senga hech kim ishonmaydi, ammo men ularni o'zimga ishontira olaman. Chunki ukasining qo'shinida qo'mondonman.

Qul noiloj qoldi. Bosh egib yolvora boshladi.

— Bunday qilmang. Hozir o'sha yerda qorin to'ydirib yuriman. Meni o'ldirtirishdan sizga nima foyda? Marhamat qiling.

— Aytganimni qilasanmi-yo'qmi?

— Marhamat qiling!

— Aytganimni qilsang qutulasan, bo'lmasa, seni ostiraman.

Qul qo'rqa-pisa qo'lini shishaga uzatdi.

— Mayli.

Ikkisi ikki tarafga ketdi.

— O'rmon ichidagi kulba?

Temur Malik yana siltalanib ko'rgan habashning ensasiga yaxshigina bir musht soldi.

— Gapni boshidan boshlay, — dedi u.

So'ng hamma gapni bor holicha aytib berdi.

Sulton Jaloliddin Xorazmshoh uni oxiriga qadar hayrat ichida tingladi.

— Demak, gap bu yoqda ekan, — dedi u. — Xo'sh, kulbadagi kishi Mahmud Yalavoch ekaniga aminmisan? Bu yerlarga u qanday kelgan, nega xabarimiz yo'q?

Temur Malik parda bog'ichi bilan qulni bog'lagandan so'ng javob berdi.

— Uni yaxshi taniyman. Bir vaqtlar Chingizning elchisi sifatida otangiz bilan uchrashgan edi. Savdo karvonlariga bosh ham bo'lgan. Mo'g'ullardan ayrildimi yoki hanuz ular bilan birgami, buni bilmayman. Biroq islom dunyosidagi barcha fasod qozonlarig'a olov qalagan xuddi o'shaning o'zi.

— Demak, u Hasan Sabbohning xalifasi.

— Ha, shundoq.

— Hasan Sabboh haqida neni bilasan?

— Sizdan ortiqroq ko'p narsa bilmayman. U yuz yil oldin Alamut qal'asida to'ng'iz qo'pdi. Ammo o'lguniga qadar yovuzlik qildi. Musulmonlar orasiga nifoq urug'i sepdi. Yoshlik chog'larida fotimiy tashviqotiga berilib, yo'ldan ozgan edi. Ancha vaqt Misrdagi fotimiy xalifa Mustansirning yonida ishladi. So'ng xizmatkorlik joniga tegdi. Buyuk saljuqiy vazir Nizomulmulk bilan madrasada birga o'qigan. Ammo Nizomulmulkka xos yuksak axloqiy sifatlardan unda asar ham bo'lmagan. Ming turli hiyla bilan u Nizomulmulkni o'ldirtirdi. Hashshoshiy yoki fidoiyun degan buzuqi tashkilotni barpo etdi. Alamut qal'asini zabt etib, o'z markaziga aylantirdi. Atrofiga minglarcha murid to'pladi. Jazodan qochgan o'g'ri-kazzoblar uning asosiy tarafdori bo'ldi. Turli-tuman ko'ngilochar ishlar, aysh-u ishrat bazmlari bilan hammasini o'ziga ipsiz bog'lab oldi. Soxta jannat va soxta jahannam barpo etdi. Jazolamoqchi bo'lgan odamni olovga tashlatdi, o'zicha do'zax azobi torttirdi. Yaxshi ko'rgan odamlariga bo'lsa, turli-tuman zavq-u

shavq, farog'at eshiklarini ochdi. Gunoh ishlarni qonunlashtirdi. Vijdoni gunohiga asir bo'lgan kishilar to'p-to'p bo'lib Alamutga yig'ildi, u yerdan atrofga tarqaldi. Turli-tuman yomonliklar qilish uchun musulmonlarga qorishdilar. Endi Hasan Sabbohning vorisi Mahmud Yalavoch degan bir buzuqi go'yo Hasan Sabboh bilan so'zlasharmish, undan amr-farmoyish olarmish. Muridlarini ana shunday deb aldaydi u. Hashshosh, ya'ni qora dori ichib, aql-hushini yo'qotgan giyoqvandlar ko'r-ko'rona unga itoat qiladi. To'yxon ham shundaylarning biri. Siz muvaffaqiyat ustiga muvaffaqiyat qozonayotganingiz islomni yanada kuchaytirayotganidan va bora-bora o'zlari uchun yashash imkoni qolmasligidan qo'rqayotir ular har holda. Shu bois bu manfur ishga qo'l urgan ular.

Eshik taqilladi. Darbon ichkariga kirib, qomatini g'oz qilib salom bergach dedi:

— Aytganingizga ko'ra it keltirdim, xo'jayin.

U hayrat ichida ekanligi holatidan ma'lum edi. Temur Malik unga qarab:

— Bu yerda ko'rganlaringni hech kimga aytma, — deb ta'kidladi. — Borib Sariq Lag'o'tni top, bu yerga kelsin.

— Bosh ustiga.

Temur Malik darbon chiqishi bilan kosani itning oldiga qo'ydi. It bir-ikki hidlagach, sharbatni icha boshladi. Sharbat oxirlagach, qimirlamay qoldi. Ko'zlari olayib, suzildi. Og'zining chetiga ko'pik toshdi. Gandirakladi. Achchiq-achchiq ulidi. Nihoyat turgan joyiga yiqildi. Bir-ikki siltalangach, jon berdi.

Temur Malik:

— Bechora jonivor, — dedi astagina.

Jaloliddinga yuzlandi:

— Ko'rdingizki, aytganlarim to'g'ri chiqdi, sultonim. Sizni zaharlashmoqchi bo'lishdi. Bu habashning bizga aytadigan gapi ko'p emas. Zero, ko'pini o'zim bilaman.

Qulni yoqasidan ushlab silkidi.

— Sultonni nega zaharlamoqchi bo'lding.

— Yo'o'q, — deya ihradi qul, — yo'q! Bu zahar emas, dam solingan uxlatadigan sharbat...

Temur Malik qulni tashqariga sudrab chiqib, soqchiga topshirdi.

— To‘g‘ri tushunibsan, odamingni hibsga olganlarni tabrik etmog‘ing kerak. Chunki ular sal kechikkanida men o‘lgan bo‘lardim.

— Ne demakdir bu?

— Shu demak, G‘iyos: sening odaming mening vujudimni dunyoga ortiqcha deb bilgan bir to‘da fitnachilar bilan hamkorlik qildi, sharbatchimni sotib oldi, sharbatimga zahar qo‘shdi, sen bo‘lsang, oldimga kelib uni mudofaa etmoqdasan. Fitnachilar bilan birga edingmi-yo‘qmi deb sendan hali so‘raganim ham yo‘q.

G‘iyosiddin kaltakesakday bezrayib qoldi. Qo‘rqa-pisa alangladi, duduqlana boshladi.

— Kim? Me... menmi? Fitnachilar bilan... tavba...

O‘ziga keldi. Kim biladi, balki Jaloliddin o‘yin qilayotgandir.

— Bu kimning uydirmasi? Mening yonimda xoin yo‘q. Tuhmat bu.

— So‘zingni bilib gapir, inim. O‘z ko‘zim bilan ko‘rgan, o‘zim shohid bo‘lgan bir narsaga tuhmat deyapsan, xo‘sh, daliling bormi? Bir gapning tag-tomiriga yetmaguncha u haqda fikr yuritma. To‘yxonning Mahmud Yalavoch degan kofir bilan hamkorlik qilganini va menga suiqasd uyushtirganini bilasanmi? Xayriyatki, Temur Malik hushyorlik qilib, bu falokatning oldini oldi. Sal oldin bu yerda bir itning murdasi bor edi. Menga berilgan sharbatni unga ichirdik. Bir daqiqaga yetmay o‘ldi.

G‘iyosiddin nima deyishini bilmay qoldi.

— Bunday bo‘lishi mumkin emas, — deya ming‘illadi u.

— Uni mendan ko‘ra sen ko‘proq bilmog‘ing kerak, chunki To‘yxon necha yillardir mening emas, sening yoningda ishlaydi.

— Menga yaxshi xizmat qilayotgan edi.

— Xo‘p, lekin uning hashshoshiylardan ekanligini bilmasmiding?

G‘iyosiddin oldin ikkilandi, so‘ng bosh chayqadi.

— Yo‘q, bilmagan edim.

Temur Malik bilinar-bilinmas kuldi, Sariq Lag‘o‘tga ko‘z qisib qo‘ydi. Jaloliddin davom etdi.

— Demak, bilmagan eding. Bu qanday g‘aflat?! Inson o‘ziga yaqin odamlarni yaxshi bilishi kerak emasmi? Yillar davomida

qo‘yningda bir ilon asrab kelgansan-u, bilmagansan. Yana buning ustiga, bu yerga kelib, bizni ozorlamoq istaysan.

— Suiqasd qilishganini men qayerdan bilay?

— Bilmasding, albatta, buni barchadan maxfiy tutdik. Sen ham og‘zingga mahkam bo‘l, gap tarqab ketsa yaxshi emas.

— Bosh ustiga.

— Omon bo‘l. Yaqinda yurish boshlaymiz. Hojib Ali kuchayib, yana Oxlatni qamal qilibdi. Endi uning burnini yerga ishqab qo‘ymasak bo‘lmaydi, shekilli. Kechirib, xato qildik. Qo‘limizga tushganida kallasini olish kerak edi. Mayli, oldin mo‘g‘ul balosini daf etaylik, so‘ng hojib Alini yanchamiz. Bu janglarda qatnashasan deb umid qilaman.

— Qatnashaman.

— Yaxshi qilasan. O‘zloq bilan Oqshohning boshiga kelganlarni bilasan. Olloh ikkovini ham o‘z rahmatiga olsin. Hoy-u havasquli bo‘lmaganlarida ahvol hozir butunlay boshqacha bo‘lurmidi.

Oyoqqa qalqdi.

— Endi kuchlimiz. Yaqinda mo‘g‘ullarga so‘nggi zarbani beramiz. Ollohning o‘zi bizni qo‘llasin.

G‘iyosiddin zo‘rma-zo‘rakisiga ta’zim qilib, tashqariga chiqdi. Jaloliddin:

— Inshoolloh, samimiydir, — dedi. — Ammo ko‘z qarashlari g‘alati... Siz ne deysiz?

Temur Malik:

— Inshoolloh deymiz, sultonim, — dedi. — Boshqa nima ham derdik.

— Duo qilaylik, saltanat istagi bilan u turli o‘yinlarga qurol bo‘lmasin.

* * *

Suiqasd muvaffaqiyatsiz chiqqani haqida o‘sha zahoti xabar olgan Mahmud Yalavoch o‘rmondagi kulba ichida to‘ng‘illaganicha u yoq-bu yoqqa yurdi. Balki u ilk bora yengilgan, buning ustiga eng sodiq odami zindonga tushgan edi.

U To‘yxonga nihoyatda ishonardi. Ammo u ham bu ishning uddasidan chiqa olmadi.

Ancha o'yladi. Oxiri fidoyisiga otlarni egarlashni buyurdi. Otlar tayyor ekanini bildirishlari bilan dedi:

— Men to'ppa-to'g'ri Alamut qal'asiga ketaman, Burqa. Sen shaharga tush, G'iyosiddinni top. To'yxonga zulm qilishayotganini, tuhmat qurboni bo'lganini so'yla. Ishontir uni. Qani, seni bir ko'ray-chi. Butun qobiliyatingni ishga sol. Xorazm sultonligiga aslida uning haqqi borligini, ammo Jaloliddin taxtni tortib olganini tushuntir. Yuz karra, ming karra takrorla buni. Yaqinda Jaloliddin hojib Aliga urush ochadi. Jang vaqtida G'iyosiddin sultonni tashlab ketsin. Hojib Ali tarafiga o'tsin. Yo bo'lmasa mo'g'ullar bilan urushayotgan vaqtda tashlab ketsin. Yordam qilishimiz to'g'risida va'da beraver. O'zingni ko'rsat.

— Qo'limdan kelgan barcha ishni qilaman, — deb javob berdi Burqa. — Ne qilsam ham amringizni bajaraman.

— Ofarin. Hasan Sabbohning ruhi senga madadkor bo'lsin.

Hovliga chiqishdi. Bir og'iz so'zlamay otlarini minib, ikkovi ikki tomonga qarab ketdi.

Temur Malik yigirmata askar bilan o'rmondagi uyga kelib uni huvillab yotgan holda ko'rdi. Hayron qoldi. Bu qadar qisqa vaqt ichida ahvoldan xabardor bo'lish va uyni tashlab ketishlari mumkinmi o'zi? Agar To'yxonning hibsga olinganini va suiqasd muvaffaqiyatsiz chiqqanini payqab qochib qolishgan bo'lsa, ular keng tarmoqli josuslik faoliyati olib borayotgan bo'lib chiqadi. Bu esa juda xavfli.

Shaharga ikki qo'li bo'sh qaytdi. O'ychan bir tarzda Jaloliddinga bo'lgan gaplarni aytib berdi.

— Bundan keyin yanada hushyorroq bo'lishimiz lozim, — dedi u. — Eng yaqin kishilarimizdan ham shubhalanishga majburmiz. Atrofimizga josuslik to'ri yoyilgan. Xizmatkorlaringizning hammasini almashtirishingiz kerak.

— Ularning orasida josus bor deb o'ylaysanmi?

— Bilmayman. Bo'lsa bordir. Hatto men ham josus bo'lishim mumkin.

— Kuldirma, Temur Malik, sen josus bo'lsang, men ham josus bo'lishim mumkin degan gap-ku.

— Har bir kishidan shubhalanishimiz kerak demoqchiman. Hatto, o'z-o'zimizdan ham. Shunday qilsakkina ularning harakatini puchga chiqara olamiz.

— Sal vahimachiroq bo'lib qolibsan, shekilli?

— Yo'q. Haqiqatni bor bo'yi bilan ko'rmog'imiz lozim. Mahmud Yalavoch faqat siyosiy obro' qozongan emas. Ayni zamonda u botil bir mazhabning shayxi bo'lgani uchun diniy obro'si ham bor. Atrofida uning buyruqlarini ilohiy bir amr deb qabul qiladigan bir to'da buzuqilar ham mavjud. Ruhan qul, mutaassib, johil bir to'da. Uning yo'lida jon fido qilishga tayyor bu to'da.

— Tushundim.

Gap shu bilan oxiriga etdi. Oxlat yurishi haqida so'z boshladilar. Har ikkovi ham tashvishga tushgan edi.

* * *

Oxlat hojib Ali tomonidan qurshovga olingani va ayg'oqchilar tashviqoti natijasida shahar ko'p o'tmay taslim bo'lgani haqidagi xabar kelgan vaqtda Jaloliddin mo'g'ullarga oxirgi qattiq zarbani berish uchun qo'shini bilan ketib borayotgan edi. Xabardan shu qadar xafa bo'ldiki, otini bir chekkaga olib, ko'z yoshi to'kdi. Bir necha soat yolg'iz yurib, yig'ladi, yig'ladi...

Nihoyat o'zini qo'lga oldi. Qo'shinning yo'lini o'zgartirib, Oxlat ustiga yurdi.

Bir necha kun o'tgach, u shaharni qamalga oldi. Hojib Ali yana bo'yni ustida qilichning sovuq damini his etib, qo'rquvdan qaltiray boshladi. Darhol saljuq sultoniga maktub jo'natdi. Butun umidi shu maktubdan bo'lgani uchun uni juda ta'sirli qilib yozishga e'tibor qilgan edi.

"Otaginam, — deb yozgan edi u. — Siz mening otam qatoridasiz. Arzimni eshiting. Xorazmshoh Jaloliddin meni el-yurtimdan judo qilmoqchi. Siz qutqarmasangiz, meni kim qutqarardi. Sizdan boshqa kimim bor? Borib Chig'atoyxondan yordam so'raymi? Bu dinimizga to'g'ri keladimi?"

Ayni vaqtda saljuq sultonining o'ziga ham tahdid tug'ilayotgani ustalik bilan maktub ruhiga singdirib yuborilgan edi. Qayqubod

zaif yeridan ilindi va Jaloliddinga elchi yuborib, darhol qamalni bo'shatishni taklif etdi. Biroq Jaloliddin Oxlatni olib, fasod uyasini yanchishga azm-u qaror qilgandi. Saljuq sultoni elchisiga dedi:

— Sulton Qayqubod yaxshi gaplar aytibdi, ammo u bilmaydiki, bu hojib degan odam ko'ppakka o'xshaydi. Orqaga o'girilib bir qadam tashlamasimdanoq darhol fitna boshlaydi. Saljuq sultoni ichimizdagi fasod uyasini yanchmay turib, mo'g'ullar ustiga yurish qilishimni qanday xohlay oladi? Men mo'g'ullar bilan band bo'lgan vaqtimda bular shaharlarimni talon-toroj etmoqda. Orqa tomondan doim xavotirdaman. Oldin fasodchilarning adabini beray, so'ng mo'g'ullar ustiga yurish qilaman. Sulton Qayqubodning ko'ngli to'q bo'laversin.

Ammo bu javob Qayqubodni qoniqtirmadi. Xiyla qo'rs til bilan shunday deb yozdi: "Sen sulton o'g'li sultonsan. Senga g'ayri mashru bir harakat yarashmaydi. Meni ayyubiylarga dushman deb o'ylama. Men va amakim Malatya maligi Qaysarshoh ular bilan yaqin munosabatlar o'rnatganmiz. Ular bilan do'stmiz. Agar Oxlatni tark etsang, sen bilan birga dushmaning bo'lgan mo'g'ullarga qarshi yuramiz".

Jaloliddin maktubni o'qigach, yuzini burishtirdi.

— Nadomatlar bo'lsin, — dedi u. — Alouddin Qayqubod mo'g'ullarni faqat mening dushmanim deb o'ylayapti. Holbuki, ular butun islom olamining dushmanidir. Mo'g'ullar men bilan urushni tamomlasa, saljuqiylar ustiga yurishi aniq. Ko'p aqlli bo'lgan saljuq sultoni nega buni ko'rmoq istamaydi va Oxlatni tashlab ketish xususida menga tazyiq o'tkazishga urinayotir. Naqadar achinarli hol!

Arzirum maligi Jahonshoh Oxlat qamal qilinganini eshitgach, navbat o'ziga kelishi mumkinligini o'ylab, Jaloliddinga elchi yuborib, tobelik izhor etgan, sultonning ismini xutbada o'qitishini bildirgan edi. Bundan tashqari, u sultonga ancha-muncha askar, qurol-yarog' va "qora bug'ro" deb atalgan ulkan manjanaq ham yubordi.

Jaloliddin Jahonshohning hadyalarini qabul qildi. Shu tariqa Arzirum maligi Jahonshoh shu damgacha o'zi tobe bo'lgan ayyubiylardan ajralgan va Jaloliddinning hukmi ostiga kirgan edi.

Bu ahvol saljuq sultoni bilan ayyubiy maligi Ashrafni qutquga soldi. Ular Oxlat qamalini bo'shatish to'g'risida yana xabar yubordilar. Jaloliddin ularga quloq osmadi. Oxlat hiyla bilan olinganini, aslida bu qal'a o'z yurti ekanini aytdi.

Jaloliddin jangga kirmay, qamalga zo'r berdi. Qal'a ichidagi aholining ko'pchiligi musulmon bo'lgani uchun qon to'kishdan qochdi. U shahardan o'tadigan suv yo'llarini bekittirdi, kirib-chiqishga yo'l qo'ymadi va shahar ahlining o'zi taslim bo'lishini kuta boshladi.

Nihoyat qamalning ikkinchi oyida shaharda isyon ko'tarildi. Jaloliddin tarafdori bo'lgan ko'pchilik shaharliklar hojib Alining askarlariga hujum qildilar. Alg'ov-dalg'ov uch kun davom etdi. Olatasir paytida hojib Ali qochishga muvaffaq bo'ldi. Shundan keyin shahar darvozalari lang ochilib, Jaloliddin Oxlatga kirdi.

Biroq ko'p turib qolmadi. Bir haftalik istirohatdan so'ng Qarsga yurish qildi. Qarsni bir oy ilgari gurjilar ishg'ol etgandilar. Jaloliddin gurjilarni yengdi. Shaharni ozod qildi. Oldiga chiqqan bir mo'g'ul qo'shinini tor-mor keltirib, tumtaraqay qochirdi.

Xorazmshohning bu muvaffaqiyatlari ayni vaqtda uning mag'lubiyatini yaqinlashtirdi. Chunki bundan saljuq sultoni Alouddin Qayqubod xavotirga tushgan edi. U sulton Jaloliddin Onado'li ichkarisiga yurish qilib, bir kuni o'z ustiga ham bostirib kelishi mumkinligidan tashvishga tushib qoldi.

Uning o'zi bu fikrga kelmadi. Xalifa, Malik Ashrafning doimiy gijgijlashlari oqibatida u xavotir ola boshladi. Oxiri jahlga erk berib, Jaloliddinga nihoyatda qo'pol bir maktub yozdi, unga xuddi shunday qo'rs javob oldi va ikki davlat orasida urush shamoli esa boshladi. Shamol ko'p o'tmay po'rtanaga aylandi. Alouddin Qayqubod Malik Ashrafga xabar yubordi: "Qo'shinni darhol tayyorlab, Xarput tomonga yetib kel, Xorazmshoh bilan jang qilamiz".

Ahvoldan xabar topgan Arzirum maligi Jahonshoh ancha vaqt taraddudlandi, vijdoni bilan olishdi, nihoyat xabarni sulton Jaloliddinga yetkazdi. Bu xabardan Jaloliddin juda xafa bo'ldi.

— Boshqa choramiz yo'q, — dedi u afsuslanib. — Qardosh birodarlarim bilan o'zim hech istamagan holda urushishga majburman. Kim islomga xizmat qilsa, uni Olloh qo'llasin.

Qadimdan qolgan odatga ko'ra sarkardalariga qirmizi o'qlar yubordi. Bu o'q urush ishorati bo'lib, sulton qo'shinlariga to'plan-ishni amr qilar edi.

Qo'shinlar sulton yoniga yetib keldi. Xarput tomon yurdilar. Jaloliddin ildam yurib borar, Qayqubod qo'shini bilan Malik Ashraf qo'shini orasiga kirib olib, ularni birlashmasdan burun yakka-yakka tor-mor keltirmoqchi edi. Xarputda Arzirum mali-gi Jahonshoh bilan birlashib, Sivos tomon yurishdi. Ammo ular ayyubiylar bilan saljuqiylarning birlashishiga monelik qilishga ul-gurmadilar. Ayyubiylar bilan saljuqiylar ham ildam harakat qilgan va Yassichamanda qarorgoh qurgan edilar.

Ahvol g'oyat achinarli edi...

Bir tomonda musulmonlikni va musulmonlarni yo'q etishga harakat qilayotgan majusiy mo'g'ullar, ikkinchi tomonda esa ar-zimagan kelishmovchiliklar, o'rinsiz xavotirlar, puch tashvishlarga berilib, bir-birini qirishga hozirlangan dindosh birodarlar... Ham-malari uchun birdek dushman bo'lgan mo'g'ullarni unutib, bir-biri bilan yoqa bo'g'ishgan musulmon millatlar...

Orada esa Mahmud Yalavoch singari fitnakorlar, Malik Ashraf kabi xusumatchilar va musulmon millatlarni o'zaro urushtirib mo'g'ullar oldiga qo'r tortishga urinayotgan Chig'atoyxon... Bun-dan tashqari, qaroqchilar, yag'mochilar, talonchilar...

Aytishadiki, sulton Jaloliddin bilan sulton Alouddin o'zaro urushish o'rniga ittifoq tuzib, mo'g'ul ofatiga o'z vaqtida qarshi chiqqanlarida musulmonlar boshiga kulfat yog'ilmagan, ular necha yillab mo'g'ul qamchisi ostida ingramagan, Onado'li qon yig'lama-gan va islom dini Chin-Mochinga qadar tarqalgan bo'lurdi.

Biroq u vaqtda Usmoniylar xonadoni ham tarix sahnasiga chiq-magan bo'lurdi, ehtimol. Taqdir hukmini o'zgartirib bo'lmaydi.

Yassichamanda bir jang bo'ldi. Bir hayot-mamot jangi bo'ldiki, na o'lganga foyda bo'ldi, na qolganga; yenggan ham, yengilgan ham mahv bo'ldi.

Ikki tomonning askarlari ham teng, quroli ham teng, sarkarda-lari birday salohiyatli. Ikki tomon ham musulmon, ham turkiy. Ikki tomon ham g'alaba qozonmoqni xohlar, shuning uchun kuchining boricha jang qilardi.

Biroq sulton Jaloliddinning askarlari to'xtovsiz yurishlardan charchagan edi. Buning ustiga, ularning qarshisida turgan mo'g'ul majusiylari emasdi, hech kim dindosh birodari ustiga o'z xohishi bilan qilich ko'tarmas, nayza sanchmas edi. Bir tomondagilar "Ol-loh, Olloh!" deganida ikkinchi tomondagilar ham "Olloh, Olloh!" derdi, ma'nosiz, maqsadsiz jang borardi.

Yana sulton Jaloliddin g'alaba qilishi mumkin edi, ehtimol. Bi-roq o'yin ichida o'yinlar bo'layotgan edi...

YETTINCHI BO'LIM

Oqshom payti. Sariq Lag'o't chopganicha Sulton Jaloliddin-ning chodiriga kirib keldi va ukasi G'iyosiddinning yovuzligi ha-qida xabar berdi.

— Sultonim, ukangiz G'iyosiddin Pirshoh jonimdan ortiq yaxshi ko'rgan quroldosh do'stimni o'ldirdi.

Jaloliddin darhol o'rnidan turdi. Beixtiyor Sariq Lag'o'tning yoqasidan ushladi.

— Ne? Ne deding, ochiqroq ayt.

— Aytdim-ku, sultonim, ukangiz G'iyosiddin...

— Kimni o'ldirdi?

— Malik Nusratni.

Jaloliddin kalovlanib qoldi. Na bir so'z aytdi, na qimirladi. Sa-rosima ichida anchagacha jim qoldi. So'ng o'ziga kelib dedi:

— Qanday qilib? Bo'lishi mumkin emas.

— Afsus, sultonim.

— Demak, bu ish bo'lgan.

Shipga qaradi.

— Ollohim! Men ne qilmoqdaman-u, ukam bo'lgan ahmoq ne qilayotir? Hozirgiday bir paytda shaxsiy xusumatini bir chet-ga yig'ishtirib qo'ymaganlarga eng qattiq jazo berishga haqqim bormi?

Shiddat bilan Sariq Lag'o'tga o'girildi.

— Temur Malik qayerda?

— Shahidning yonida, sultonim.

— Shahidni ham, Temur Malikni ham, G'iyosiddinni-da tez bu yerga keltiringlar.

Sariq Lag'o't tez chiqdi.

Jaloliddin butun umri mobaynida ilk bor qattiq darg'azab bo'ldi. Eng qaltis damlarda ham o'zini yo'qotmaydigan bu metin irodali sulton endi nima qilishini, qanday muomalada bo'lishini bilmas edi. Boz ustiga, miyasi ham bo'm-bo'sh, xayoliga hech narsa kelmasdi. Betoqat odim otib, chodir ichida u yon-bu yon yurdi, to'xtadi. Nihoyat Temur Malik bilan Sariq Lag'o't keldi.

Temur Malik Malik Nusratning jasadini ko'tarib kirdi. Jasadni chodirning bir chetidagi taxta ustiga yotqizdi. O'zi Jaloliddinning ro'parasiga o'tdi.

— Mana, yana bir qurbon, — dedi u. — Ukangizga jazo berishingiz uchun yetarli asoslar bo'lsa-da, fitna chiqmasin, birlik buzilmasin deb, sizga aytmaganimning jazosi uchun Malik Nusrat o'z hayoti bilan javob berdi. Uning hech qanday gunohi yo'q edi, meni himoya qilmoqchi bo'ldi. G'iyosiddin aslida menga hujum etgandi, Malik Nusrat oldimga chiqib, qalqon bo'ldi. Naq ko'kragidan xanjar yedi.

Jaloliddin bu so'zlarni eshitib bo'lgach, so'radi:

— Tirikmi?

Temur Malik bosh chayqadi.

— O'ldi. Salgina oldin G'iyosiddinga ham, sizga ham rozi-rizolik bildirib, kalimayi shahodat keltirgach, jon berdi.

— Ko'p yomon ish bo'ldi!

Xorazmday ulkan mamlakat sultonining ko'zlarida yosh shashqator bo'ldi. Jahl bilan yer tepinib, hayqirdi:

— Qayerda u?

— Kim, janobi oliylari!

— G'iyosiddin degan xoin, shunday bir pallada ham xusumatini bosolmagan, o'ch olish payida yurgan, ukam degani uyaladigan bu odam qayerda?

— Askarlarini olib, qarorgohni tashlab ketganiga ancha bo'ldi.

Jaloliddinning ko'zlari olaydi, nigohi xiralashdi.

— Nega menga xabar bermadingiz?

Temur Malik yelkasini qisdi.

— Foydasi yo'q. Birlikka raxna yetmasin deb shuncha yomonligiga chidadik. Birlikka nihoyatda muhtoj bo'lib turgan shu damda ukangiz bilan urushga kirasizmi? Ketaversin, jazosini Olloh bersin.

— Nima deyayotganingni bilasanmi, Temur Malik?

Temur Malik Jaloliddinning qo'llarini siqdi.

— Nima deyishimni istaysiz, sultonim? Ichim lahcha cho'g' bo'lib yonayotganini bilmaysizmi? Jonimdan ortiq yaxshi ko'rgan mard do'stimning ko'z oldimda jon berishi nima ekanini bilmaysizmi? Kofir o'ldirgan bo'lsa, o'ch olib, tasalli topgan bo'lardim. Endi-chi?

Jaloliddin do'stini quchoqladi.

— Metin bo'l, Temur. Oldimizdagi urushni bir yoqli qilaylik, so'ng albatta G'iyosiddinning jazosini beramiz.

Ammo bu urushni bir yoqli qilish uchun lozim bo'lgan kuch yana bo'lingan edi. G'iyosiddin o'ziga qarashli askarlarni olib ketgan, sulton Jaloliddin yana yolg'iz qolgandi.

Biroq, shunga qaramay, saljuqiylarga qarshi jangga kirdi. Jang uzoq cho'zilmadi. Katta ustunlikka bardosh berolmay, Xarputga chekindi. U yerdan Oxlatga ketdi. Bu yerda ham uzoq qololmasligini bilardi. Ozarbayjonga o'tdi. Jaloliddin bu yerda yangidan qo'shin to'plab, yana kurash boshlamoqchi edi.

Majusiy mo'g'ul xoqonlari qo'lidan kelmagan ishni musulmon saljuq sultoni qilgan, Xorazm davlatini ag'dargan edi. Chorasiz qolgan Jaloliddin qochdi, ammo qayerga bormasin, qutulish iloji yo'q edi.

Uni bir tomondan hojib Alining fidoyilari, ikkinchi tomondan mo'g'ullar, uchinchi tomondan Mahmud Yalavochning muridlari ta'qib qilayotgandi. Ular Jaloliddin qayoqqa yo'l olsa, darhol o'sha yoqqa yetib borardilar. Qaysi biri sultonning askari qiyofasiga kirdi, boshqasi savdogar kulohini kiydi, uchinchisi bo'lsa, qo'liga kashkul olib, darvesh bo'ldi.

Hammasining murodi bitta: Jaloliddinni o'ldirish.

Buning uchun avvalo Temur Malikni yo'q qilish kerakligini bilishardi. Qattiq ta'qib boshlandi.

Temur Malik bir qancha kishilar uni qadam-baqadam ta'qib etayotganini ko'pdan payqagan edi. Bir gal ulardan birini qo'lga

tushirish uchun harakatga o'tdi, uni endi ushladim deganida to'satdan besh kishi hujum qildi. Ular bilan jangga kirishganida josus qochib ketdi. Bu hodisa josuslarning yaxshi uyushgan tashkiloti borligidan darak berardi.

Temur Malik o'zi haqida zarracha o'ylamas, lekin Jaloliddinni ishonchli bir joyga eltish ustida bosh qotirardi. Ko'zi qonga to'lgan qotillar to'dasi ichida qolishi hech mumkin emas. Olloh saqlasin, u o'ladigan bo'lsa, butun umidlari puchga chiqadi.

Sulton Jaloliddin shu qadar g'amga botgan ediki, orqasiga tushganlarni payqamasdi ham. Uning fikri-xayoli yangidan qo'shin to'plab, yana kurash boshlash bilan band. Shu bois atrofida bo'lib o'tayotgan hodisalarga e'tibor bermas, uni o'ldirish uchun oralariga suqulgan qotillardan bexabar edi.

Temur Malik vaziyatning tahlikali ekaniga uning e'tiborini tortmoqchi bo'ldi. Bir kuni sultonning chodiriga bordi. Yonida Sariq Lag'o't ham bor edi. Sultonning qo'lini o'pdi.

— Sultonim, endi bu yerlarda qolish mumkin emas. Bir bexavotir munosib joyga ketishni istaysizmi?

Jaloliddin achchiq kuldi.

— Bu haqda ko'p o'yladim, — dedi u. — Men uchun eng munosib joy mozor bo'lsa kerak. Ammo, qattiq istaganimiz uchunmi, negadir shahodat bizdan qochmoqda.

— Olloh saqlasin, sultonim, bu ne deganingiz?

— Yengilgan qo'shinning sarkardasi, ishg'ol etilgan mamlakatning sultoni yashamasa ham bo'laveradi.

— Bunday demang aslo. Sizga yarashmaydi bu. Sulton qismatida g'alaba qozonish bo'lganidek, talafot ham bo'ladi. Yaxshi sulton uni ham, buni ham xotirjam qabul qiladi. Siz o'zingiz uchun yashayotganingiz yo'q, millatingiz uchun yashayapsiz, yashashingiz ham lozim.

— Bu dardlarni tortgulik holim qolmadi, Temur Malik. Ahmoq ukam G'iyosiddin hojib Alining tuzog'iga tushib jon berdi. U bu dunyo dardidan qutuldi, ammo men bu ishni udda qilolmayotirman.

— Umidsizlikka tushish uchun hech sabab yo'q. Takror oyoqqa turib, butun dushmanlarimizni mag'lub qila olamiz. Shuning uchun ham yashashingiz lozim. Yashamoqqa majbursiz!

Jaloliddin qo'llarini yozdi.

— Mana, yashayapmiz, tirik murda sifatida yashayapmiz. Agar shu yashash bo'lsa...

Temur Malik biroz o'yladi, so'ng taklifini o'rtaga tashladi.

— Boshqa yerlarga ketsak bo'lmaydimi?

Jaloliddin hayron qoldi.

— Boshqa yerlargami? Boradigan joy qoldimi o'zi?

— Albatta, o'z nomi shoni-sharafi bilan o'n yil hukm surgan bir sulton bo'lsangiz. Sizni har qanday hukmdor jon-jon deb qabul qiladi.

— Ya'ni boshpana so'rashni taklif qilyapsan.

— Unday demang. Bir vaqtlar Hindistonda oz vaqt qoldikmi? U yerda sig'indi emasdik-ku. Qo'shinni yangidan yig'ib, oyoqqa turmadikmi? Yana nega shunday qilmaylik? Ollohning bu tog'ida kimni topamiz, kimdan askar olamiz?

— Ehtimol, sen haqdirsan.

Temur Malik sultonning yumshaganini ko'rdi deguncha, qo'liga yopishdi.

— O'zingizni o'ylamasangiz, mamlakatingizni, millatingizni, diningizni o'ylang. O'zingiz uchun emas, ular uchun yashang. Bir kechasi eng sodiq odamlarimizni olib yo'lga chiqaylik. Bu josuslar makonidan ketaylik.

— Qayoqqa boramiz?

— Mayaforiqin tog'lariga, u yerdan esa Malik Ashrafning mamlakatiga o'tamiz.

— Malik Ashraf dedingmi?

— U sizni qabul qilishga tayyor, mana maktubi.

Belbog'idan maktubni olib, Jaloliddinning qo'liga tutqazdi.

— Unga murojaat qilib, mamlakatiga bormoqchi ekanimizni aytgandim. Javob berdi. Jon-jon deb qabul qilmoqchi. Buning ustiga, yordam ham bermoqchi. O'tmishda bo'lgan mayda-chuyda xafagarchiliklarni unutishga tayyor. Birlik va hamjihat bo'lish kerakligi haqida yozibdi.

Jaloliddin o'yga toldi.

— Darvoqe, Malik Ashraf bilan hech dushman bo'lmaganmiz, ammo xafagarchilik o'tgan.

Boshini ko'ksiga egdi.

— Modomiki, yordam bermoqchi ekan, nega ketmaylik? Tayyorlaning. Xorazmliklardan bir guruh tanlab ol. Ertaga kechki payt yo'lga chiqamiz.

Temur Malik va Sariq Lag'o't chiqishdi. Jaloliddin o'z-o'ziga dedi:

— Yo Rabbiy! Qismat bizni o'z to'riga qanday ilintiribdi! Qimirlashga hol yo'q. Do'stdan dushman ko'p. Mamlakatimizdan nechanchi bor bir jinoyatchi kabi qochmoqqa majbur bo'lyapmiz. Bu ishlar jonimni saqlash uchun bo'lmayotganini hech kim sendan yaxshi bilmaydi...

Tiz cho'kib, qo'l ochdi.

— Xudoyim! Sen maqbul qilgan dini islomning yuksalishi yo'lida qilich chopdim. Xuddi shu yo'lni tutgan boshqa biri bilan to'qnashdim, qilichim sindi, askarim zabun bo'ldi. Hech bo'lmasa Saljuq sultonining o'z diniga xizmat qilishini ta'minla. Islomni va musulmonchilikni kuchdan qoldirma. Qaysi sulton sen uchun g'azotga chiqsa, undan yordamingni darig' tutma.

Ko'zlarida yosh aylandi.

Ertasi kuni kechga yaqin hamma narsa taxt bo'ldi. Jaloliddin ikki yuz fidoyi bilan sarkardalarini qavatiga olib, shaharni tark etdi.

Biroq dushmanlari darhol bundan xabar topdilar. Josuslar uning iziga tushdi. Ulardan biri xabar yetkazish uchun Alamut qal'asiga, ikkinchisi hojib Ali, uchinchisi mo'g'ul xoqoni Chig'atoy huzuriga chopdi.

Minglarcha kishi sultonning iziga tushdi. Ba'zi qismlar sulton o'tishi mumkin bo'lgan yo'llarni egallab, poylashdi.

Ikki to'qnashuv sodir bo'ldi. Har ikkisida ham Jaloliddin ikki yuz bahodiri bilan dushmanlarini tumtaraqay qildi. Yo'lda davom etdilar.

Nihoyat kunlarning birida uning ro'parasiga mo'g'ullar chiqdi. Ular ming kishidan ko'proq edi. Qo'mondonlari bir ko'zli alvasti Subutoy Bahodur edi.

Omonsiz jang boshlanib, bir-biri bilan yoqa bo'g'ishib ketdilar. Temur Malik, Sariq Lag'o't, O'rxonbek, Izzaddinbek Jaloliddindan bir lahza ham ayrilmas, unga hech kimni yaqinlashtirmas,

oldiga kelgan yog'iyni ustalik bilan yo'q qilar edilar. Biroq bu ko'pga cho'zilmasligi ayon edi. Atroflari qurshab olindi, odamlari xiyla siyraklashdi.

Subutoy Bahodur Jaloliddin turgan joyni ko'rdi.

— Yuz kishi men bilan kelsin! — deb baqirdi u. Shitob bilan Jaloliddin tomonga ot qo'ydi.

Ot choptirib borarkan, qo'rqinchli na'ra tortardi. Temur Malik bilan do'stlari darhol unga qarshi chiqdi. "Olloh! Olloh!" degan ovozlar qoyalarga urilib aks sado berdi.

Temur Malik ko'p o'tmay Sariq Lag'o'tning ot ustida gandiraklaganini ko'rdi. Yuragi tilka-pora bo'lib qichqirdi:

— Lag'o't!

Sariq Lag'o'tning qontalash lablaridan bir faryod otilib chiqdi:

— Olloh!

— Lag'o't!

Sariq Lag'o't otdan yiqildi. U shahid bo'lgan edi.

Temur Malik telbalarcha otildi. Lag'o'tni o'ldirgan mo'g'ul navkarini bir zarb bilan saranjom qildi.

— To'ng'iz qo'p!

Temur Malik aqldan ozganga o'xshardi. Kiprik qoqmay eng katta to'da ichiga otilar, o'ng-u so'lga qilich solib, tumtaraqay etardi.

— Temur!

Tezda o'sha yoqqa bosh o'girdi. Izzaddinbek otidan sirg'alib tushay-tushay deyotgandi. Otini orqaga haydadi, ammo ulgurmadi. Izzaddin bor bo'yicha yerga gursillab yiqildi.

— Ollohim! Ollohim!

Temur Malikning ko'zlari xiralasha boshladi. U uch joyidan yaralangan edi. Shunga qaramay yiqilmay, urushaverdi. Sultonni qutqarish kerak edi.

— O'rxon!

O'rxonbek Temur Malikning ovozini eshitdi.

— So'yla, Temur Malik.

— Jaloliddinni olib qoch. Men qolgan askarlar bilan bularning yo'lini to'saman.

— Xo'p bo'ladi.

Jaloliddin bir to'da otliq yana oldini to'sib chiqqanini ko'rib, kulimsiradi.

— Qara, O'rxon, — dedi u. — Biz o'limdan qochdik deguncha u oldimizga chiqmoqda. Shunday ekan, qochishning ne keragi bor?

O'rxon javob bermadi. To'g'rirog'i, javob berolmadi. Ko'ksiga birdaniga ikkita o'q qadalgan edi. Ko'zlarini katta ochgancha sultonga boqdi.

— O'rxon!

O'rxon jilmayishga urindi.

— Shahodat, sultonim!

— Ha, shahodat!

Qilichini sug'urib, baland ko'tardi.

— Olloh! Olloh! Olloh!

Tanho o'zi yigirma kishiga qarshi chiqdi. Buning ustiga dushman nomardlik qilib, to'xtamay o'q yog'dirardi. Yaralarining og'rig'iga chidab, oldinga ot qo'ydi. Bir nechtasini yerga qulatdi. Boshiga kimdir to'qmoq urdi, qilichi qo'lidan tushdi, qon oqa boshladi.

To'yxon qahqaha otib kuldi.

— Meni zindonga solish qanday bo'larkan, ko'rdingmi?!

Jaloliddin ovoz egasini tanidi.

— Xoin qilichidan o'lmoq yozilgan ekan qismatimga, afsus...

Atrofini o'rab oldilar. Biri qo'yib, ikkinchisi zarba ustiga zarba berdi. Ellikdan ortiq joyidan yaraladilar. Sulton yerga yiqildi.

To'yxon yaqin keldi. Yuz-ko'zi qo'rqinchli edi. Xanjarini chiqarib, sultonning bo'yniga urdi.

— Sen bosh olish zavqini hech totganmisan, Jalol? Mana bunday, mana bunday..

Xanjarini u yoq-bu yoqqa tortdi. O'tkir po'lat chuqur kirib bordi.

— Ukam Oxlat urushida o'ldi. Uning o'limiga sen sabab bo'lding. Endi intiqom vaqti keldi, o'l, Jalol!

Xorazmshoh Jaloliddinning boshini sochlaridan tutib baland ko'tardi.

—Ey Mahmud Yalavoch, amringni bajo keltirdim, endi navbat senga, va'dangni bajar.

Bir o'q vizillab kelib, To'yxonning ikki kuragi o'rtasiga qadaldi.

— Mana va'dam!

Kesilgan bosh To'yxonning qo'lidan tushdi. To'yxon gandiraklab orqasiga o'girildi. Ro'parasida baland bo'yli bir kishini ko'rdi. Uning atrofida otliqlar ko'p edi.

— Mahmud Yalavoch! — deya pichirladi u. Tizzalari bukilib, yerga ag'anadi.

Mahmud Yalavoch yuz suvoriyning oldida turardi. U To'yxonning odamlarini ko'rsatib:

— Bularning hammasini qilichdan o'tkazing, — deb buyurdi. — To'yxon uchun o'ch olishlari mumkin. Oramizda fitnachilarga o'rin yo'q.

Jirkanch bir qahqaha otdi. Qahqaha tovushi qoyalarga urilib aks sado berdi.

— Xalifa Nosir bundan xursand bo'ladi, — deb ming'illadi u.

Quyosh qoyalar ortida bota boshlagan edi.

TAMOM

MUNDARIJA

Hayot haqiqati va badiiy haqiqat *(Boboxon Muhammad Sharif)* 3

Xorazm o't ichida 9

Alvido, Xorazm 192

TURKIY ADABIYOT DURDONALARI

YAVUZ BAHODIRO'G'LI

50-jild

Adabiy-badiiy nashr

Tarjimon
Boboxon Muhammad Sharif

Muharrir *Sunnat Xo'jaahmedov*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Gulchehra Gulyamova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva, Islom Azamatov*

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$.
Ofset qog'ozi. "PT Astra Serif" garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 26,5. Nashriyot-hisob tabog'i 25,05.
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 117-1/22 Buyurtma raqami № 22-333

Original maket O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining "O'zbekiston" nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

"O'zbekiston" NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Ya 24 Yavuz Bahodiro'g'li [Matn]: nasr/to'plovchi va nashrga tayyorlovchi Lola Fattoyeva. – Toshkent: "O'zbekiston nashriyoti", 2022. – 424 b.
ISBN 978-9943-8724-7-9

UO'K 821.512.161-5
KBK 84(5Turk)

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

YAVUZ BAHODIRO‘G‘LI